

90 ^{yil}
TDIU

FARSAFA

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

FALSAFA

Darslik

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT – 2021

UO‘K: 1
KBK 87ya73
S 56

**I.Saifnazarov, A.Muxtarov, T.Sultanov, N.Nazarov,
N.Raximbabayeva, X.Doniyorov, F.Usmonov. Falsafa.
Darslik. – T.: « Innovatsion rivojlanish nashriyot-
matbaa uyi», 2021 – 424 b.**

ISBN 978-9943-7629-5-4

Falsafa darsligi davlat ta’lim standartlarida berilgan talablar asosida tayyorlangan. Darslik tarkibiga falsafa tarixi, ontologiya, gnoseologiya, antropologiya, ijtimoiy falsafa masalalari kiritilgan. Avvalgi “Falsafa” adabiyotlaridan farqi, unda falsafa fani iqtisod bilan bog‘lab yoritilgan. Din falsafasi, O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari berilgan. Darslik falsafa bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar, o‘qituvchilar va iqtisodiy yo‘nalishdagi talaba-yoshlarga mo‘ljallangan.

UO‘K: 1
KBK 87ya73

F.f.d., prof. I.Saifnazarovning umumiy tahriri ostida

Taqrizchilar:

B.To‘ychiyev – f.f.d., professor;

B.Aliyev – f.f.d., professor.

ISBN 978-9943-7629-5-4

© «INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI», 2021.

KIRISH

“Falsafa” fani insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardan biri bo‘lib, olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson, umrning mohiyati, borliq va yo‘qliq kabi ko‘plab muammolar haqida bahs yuritadi. Falsafa dunyoqarashning umumlashgan tizimini yaratish va unda inson o‘rnini ko‘rsatishga qaratilgan fandır, u insonning dunyoga bo‘lgan bilish, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, diniy, estetik va boshqa munosabatlarini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Ushbu fan metodologik ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli, uning mohiyatini o‘rganish jarayonida talabalarda boshqa fanlardan olgan bilimlarini umumlashtirish, o‘zining falsafiy mushohada qilish qobiliyatini rivojlantirish, olam haqida yaxlit tasavvur hosil qilish va umumiy madaniy darajasini yuksaltirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Falsafa fanining maqsadi – yoshlarni zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish hamda ularda o‘z-o‘zini anglash, falsafiy mushohada qilish va to‘g‘ri fikrlash mahorati, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Fanning asosiy vazifalari – tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid falsafiy bilimlar, qonunlar va kategoriyalar mazmun-mohiyatini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali insonning hayotdagi o‘rni va ahamiyatini ochib berishdan;

– falsafa rivojlanishining asosiy bosqichlari va yo‘nalishlari, dinning kelib chiqishi va uning funksiyalari, tabiat va jamiyat borlig‘i hamda korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy mexanizmlari to‘g‘risida tasavvurlarini shakllantirishdan;

– jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga falsafiy tafakkur va shaxsiy-tahliliy tanqid nuqtayi nazaridan yondashish, o‘z-o‘zini ma’naviy-axloqiy, estetik tarbiyalash tuyg‘ularini hosil qilishdan;

– xalqimiz ma’naviy merosini asrash va yanada yuksaltirish, yoshlarning falsafiy tafakkurini shakllantirish, ular ongini turli zararli g‘oyalardan saqlash, ularni zamonaviy falsafiy bilimlar bilan qurollantirishdan;

– yoshlarda jamiyatning keng ko‘lamli yangilanish jarayonida faol ishtirok etish hissini tarbiyalashdan iborat.

Bugun yurtimizda yangi tarixiy davr boshlandi. “Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyoqarash” g‘oyasi ostida mamlakatimizda uchinchi renessans poydevori qurilmoqda. Uning tom ma’nodagi tashabbuskori O‘zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevdir. Yangilayotgan O‘zbekistonda falsafiy tafakkur ham yangilanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Davlat rahbari so‘zlagan nutqida: “Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasida ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan. Jamiyatimizning tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni, ruhi ma’naviyatdir”, –deb ta’kidladi.¹

Mamlakatimizda olib borilayotgan izchil yangilanishlar, yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonlari yoshlarga munosabatni tubdan o‘zgartirishni talab qilayotgan bir davrda, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida professor-o‘qituvchilari tomonidan yaratilgan “Falsafa” darsligi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasida professori I.Saifnazarov va dosenti D.Ernazarovlar tomonidan tuzilgan va 2020-yil 18-avgustda 3-sonli TDIU Kengashi qarori bilan tasdiqlangan “Falsafa” dasturi asosida yaratildi. Ushbu dastur O‘zbekistonda ilk bor iqtisodiy mutaxassisliklar uchun tuzilgan dastur bo‘lib, mualliflar tomonidan tayyorlangan “Falsafa” darsligida o‘z aksini topdi. Avvalgi “Falsafa” darsliklari, o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv-uslubiy majmualaridan ushbu “Falsafa” darsligi keskin farq qiladi. Unda Falsafa fani iqtisod bilan bog‘lab yoritilgan. Bundan tashqari ushbu darslikda Falsafa: uning predmeti, mazmuni. Falsafa va iqtisod, Pragmatizm-tadbirkorlik falsafasi sifatida; Falsafiy antropologiya (inson falsafasi). Falsafada “Homo Economicus”(iqtisodiy inson) tushunchasi; Jamiyat va oila falsafasi yoritib berilgan. Islom falsafasining mazmun va

¹ Prezident Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida so‘zlagan nutqi. Kun.uz

mohiyati atroflicha ishlangan. Jumladan: Din falsafasi. O‘zbekistonda davlatning din va diniy tashkilotlar bilan munosabati; Islom ta’limoti asoslari. Islomdagi mazhablar va yo‘nalishlar; Missionerlik va prozelitizm, diniy ekstremizm va terrorizm: mafkura va amaliyot, ularga qarshi kurash strategiyasi; Diniy tolerantlik madaniyati, uning jamiyat rivojida ahamiyati. Kibermakonda din omili; Jamiyat taraqqiyotida insonlarning huquqiy ongini o‘stirish va jamiyat falsafasida adolat tamoyillarini yanada mustahkam o‘rnatilishi borasida – Korrupsiya – global muammo sifatida; O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy- huquqiy mexanizmlari nomli mavzu ham ishlab chiqilgan.

Ushbu darslikni tayyorlashda falsafa asoslariga oid bo‘lgan chet mamlakatlar va milliy adabiyotlardan, yetuk faylasuflarning, jumladan: Matbua Axmedova, Nigina Shermuxamedova, Qiyom Nazarov, Shaxnoza Madayeva, Toxir Karimov kabi olimlarning qarashlaridan ijodiy foydalanildi va bunday yondashuv darslikning nazariy ahamiyatini oshirdi.

Mualliflar guruhi falsafa fanidan tayyorlangan darslikka o‘z qiziqishlarini, talab va takliflarini bildirganlarga, hamda izohlar, savollar va fikr-mulohazalar bilan murojaat qilganlarning fikrlarini bajonidil ko‘rib chiqadilar. Mualliflar bilan quyidagi manzil orqali bog‘lanishingiz mumkin: Toshkent, Islom Karimov ko‘chasi 49. TDIU. Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini. Tel. raqami 71-239-28-83.

1-MAVZU. FALSAFA: UNING PREDMETI, MAZMUNI. FALSAFA VA IQTISOD

Reja:

- 1.1. Dunyoqarash tushunchasi, uning tuzilishi va tarixiy shakllari.
- 1.2. Falsafa fanining predmeti, funksiyalari.
- 1.3. Falsafa va iqtisod.

1.1. Dunyoqarash tushunchasi, uning tuzilishi va tarixiy shakllari

Dunyoqarash nima? Har bir kishining dunyoga nisbatan o'z qarashi, o'zi va o'zgalari, hayot va olam to'g'risidagi tasavvurlari, xulosalari bo'ladi. Chunki inson oldida uning voqelikka, boshqa odamlarga, o'z-o'ziga nisbatan munosabatini belgilovchi savollar ko'ndalang turadi. Har birimiz u yoki bu tarzda ularga duch kelamiz. Bizni qurshab turgan olam nimadan tashkil topgan? Uni bilib bo'ladimi, agar bilish mumkin bo'lsa, qay darajada? Insonning o'zi nima? U qanday bo'lishi kerak? O'limdan so'ng bizni nima kutadi? Dunyoni nima boshqaradi? Dunyoda yovuzlik muqarrarmi? Inson dunyoni o'zgartira oladimi? Bu kabi savollarga javoblardan inson dunyoqarashi shakllanadi.

Dunyoqarash bu kishilarning olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi haqidagi ilmiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy qarashlari tizimidir. Dunyoqarash yordamida inson o'zini va dunyoni anglaydi, baholaydi, yakuniy o'zining mustaqil xulosasini beradi va dunyoni ongida in'ikos etadi. Inson va insoniy munosabatlar, ko'nikmalar, malakalar, bilimlar dunyoqarash orqali rivojlanadi. Praksiologiyaning eng asosiy omili ham dunyoqarash hisoblanadi. Dunyoqarash – olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdir. Har qanday dunyoqarash tarkibiga: bilim, baholash, e'tiqod va aqidalar kiradi.

Dunyoqarashning quyidagi funksiyalari mavjud: bilish, qadriyatlarga munosabat, xulq-atvorni belgilash.


Dunyoqarashning bilish funksiyasi – insonda qiziqish uyg'otuvchi barcha savollarni va muayyan yo'l bilan topuvchi javoblarni o'z ichiga oladi. Bilish odamlar dunyoqarashini boyitadi va kengaytiradi.

Dunyoqarashning qadriyatlarga munosabat funksiyasi – insonning hayotni va o‘zini oliy qadriyat deb hisoblagan holda shakllanadi. Zero, o‘z qadrini bilmagan inson o‘zgarar qadrini bilmaydi va hayotda o‘z o‘rnini topa olmaydi.

Dunyoqarashning xulq-atvorni belgilash funksiyasi – insonda o‘z-o‘zini tarbiyalash, ma’naviy madaniyatini takomillashtirish va o‘zining ma’naviy dunyosiga xos muhit tanlash malakalarini shakllantiradi.


Dunyoqarash ayrim kishilar, ijtimoiy guruh, sinf yoki umuman jamiyatning faoliyati yo‘nalishini va voqelikka munosabatini belgilaydi.

Dunyoqarashning alohida kishiga xos shakli individual dunyoqarash deyiladi. Guruh, partiya, millat yoki butun jamiyatga xos dunyoqarashlar majmuasi – ijtimoiy dunyoqarash deyiladi.



1.1.1.-chizma. Dunyoqarashning funksiyalari

Ijtimoiy borliqning in’ikosi natijasida dunyoqarash shakllanadi, unda ijtimoiy turmush aks etadi. Dunyoqarash insoniyat erishgan bilimlar darajasiga hamda ijtimoiy tuzumga bog‘liq bo‘ladi.




1.1.2.-chizma. Dunyoqarash shakllari

Dunyoqarashda intellektual, emotsional va ruhiy asoslar uzviy bog‘liq bo‘lib, ular har bir inson uchun individual xususiyatlar sifatida amal qiladi. Dunyoqarashning shakllanishi natijasida subyektning e‘tiqodlari, qilmishlari va harakatlari majmui vujudga keladi. Dunyoqarashda inson va insoniyat o‘zligini namoyon etadi.

Dunyoqarashning amaliy darajasi stixiyali tarzda shakllanadi (oddiy, kundalik dunyoqarash). Hayot tajribasi va empirik bilimlar asosida shakllanadigan dunyoqarash odatiy dunyoqarash deb ataladi. U har qanday dunyoqarashning negizi hisoblanadi, odamlarga kundalik hayoti, faoliyatiga yo‘l ko‘rsatib, ularni xulq-atvori, aksariyat qilmishlarini belgilab, muhim regulyativ funksiyani bajaradi.

Dunyoqarashning muhim elementi – shubha, u insonni dogmatizm, ya‘ni biryoqlama, notanqidiy fikrlash, u yoki bu qoidani shak-shubhasiz haqiqat deb qabul qilishdan asraydi.

Dunyoqarashning tuzilishi dunyoni sezish, dunyoni idrok etish va dunyoni tushunish kabi eng muhim elementlardan iborat.²



1.1.3.-chizma. Dunyoqarashning tuzilishi

Dunyoni sezish – inson o‘zini qurshagan dunyoni sezgilar yordamida hissiy idrok etishdir. Inson o‘zining hislari, tuyg‘ulari, kayfiyati, qarashlari orqali olamni tasavvur qiladi, uning obrazini

² Нигина Шермухамедова. Фалсафа. Дарслик. “Idris Abdurauf Nashr” -Т.2021; 21-24 бетлар; Қ.Назаров. Фалсафа асослари. Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти. Т.2012 31-36 бетлар; Sh.O.Madaeva. FALSIFA. O`quv qo`llanma. “MUMTOZ SO`Z” . 2019 й.,5-10 бетлар.

subyektiv, sof individual sezgilar orqali aks ettiradi. Masalan, bemor odamga haddan tashqari yorug' bo'lib tuyulishi mumkin bo'lgan nur, sog'lom odam uchun normal bo'ladi; daltonik ranglar gammasini ko'rish qobiliyati normal bo'lgan odamga qaraganda butunlay boshqacha idrok etadi. Bundan dunyoni sezishning har xil, xususan optimistik, pessimistik, fojiviy tiplari kelib chiqadi.


Dunyoni idrok etish – inson atrof borliqni ideal obrazlarda tasavvur qilishidir. Dunyoni idrok etish to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishi, ya'ni borliqqa mos kelmasligi mumkin. Bu holda borliq noto'g'ri tasavvur qilinadi yoki illyuziyalar, suv parilari, alvastilar, kentavrlar haqidagi tasavvurlarga o'xshash fantaziyalar paydo bo'ladi.

Dunyoni tushunish – insonning va uni qurshagan dunyoning mohiyatini aniqlash, shuningdek, tabiatda yuz beruvchi voqealar va jarayonlarning o'zaro aloqalarini tushunishga qaratilgan aqliy-bilish faoliyatidir. Dunyoni sezish va qisman (elementar shakllarda) dunyoni idrok etish nafaqat insonga, balki hayvonlarga ham xos bo'lsa, dunyoni tushunish esa faqat odamlarga xos xususiyatdir.

Har bir davrning, avlodning, ijtimoiy guruhning o'ziga xos dunyoqarashi bo'ladi, shu sababli har qanday dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega. Uning shakllari o'zgaradi, tarixiy ko'rinishlari muttasil yangilanib turadi.

Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning dunyoqarashi, ya'ni dunyoni sodda, cheklangan tushunishidan tortib, o'zining mifologik, diniy va falsafiy bosqichlari tomon rivojlanib borganligini ko'ramiz. Ularning har biri o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Shu ma'noda dunyoqarashning tarixiy shakllarini quyidagi tarixiy turlarga ajratamiz (qarang 1.1.4.-chizma).

Mifologik dunyoqarash. Mifologiya (yun. mifhos – afsona, rivoyat; logos – so'z, tushuncha, ta'limot) – miflar majmui bo'lib, miflarni o'rganadi. Mif (yun. mifhos – afsona, rivoyat) – turli xalqlarning dunyoning kelib chiqishi, tabiat hodisalari, fantastik mavjudotlar, xudolar va qahramonlarning ishlari haqidagi tasavvurini ifodalovchi dunyoqarash. Mifologiya ijtimoiy ong shakllaridan biri va kishilarning tabiiy va ijtimoiy hodisalarning mohiyatini anglashda ilk bosqich hisoblanadi.



1.1.4.-chizma. Dunyoqarashning tarixiy turlari

Ushbu bosqichda tabiat va jamiyat hodisalarining asl sababini tushunmay unga qandaydir tashqi qudrat ifodasi deb qaralgan. Masalan, yashin va momaqaldiroq, yong‘in, to‘fon, dovul, zilzila, quyosh, Oyning tutilishi va boshqa shunga o‘xshash hodisalar odamlarda g‘ayritabiiy taassurot qoldirgan. Tabiat kuchlari oldida ojizligi, ularning sir-asrorlarini bilmasliklari oqibatida oy, quyosh, yulduzlarga, ayrim hollarda olov, suv, qush va hayvonlarga, tog‘- toshlarga va h.k. jonli, muqaddas narsalar deb qarash, ularga sig‘inish hollari urfga aylangan.

Bu dunyoqarash qadimda yaratilgan naqlar, rivoyat va afsonalarda o‘z ifodasini topgan. Unda tabiat kuchlari alohida jonli vujudlar ko‘rinishida jonlantirib tasvirlangan. Afsonalarda olamning vujudga kelishi, tuzilishi, tabiat hodisalarining siri, odamning tabiat va kosmik hodisalar bilan aloqasi, o‘simlik va hayvonlarning odamlarga xos sifatleri haqida hikoya qilinadi. Shuningdek, odamning paydo bo‘lishi, hayot bosqichlari, o‘limi haqida fikr yuritilgan. Undan tashqari olovni topish, hunar egallash, dehqonchilik, turli urf-odatlar, rasm-rusumlar haqida afsonalar to‘qilgan.

G‘ayritabiiy kuch haqidagi tasavvurlar mavjud bo‘lganligi sababli mifologiyada din elementlari bor, shuningdek, unda axloqiy qarashlar ham, insonning voqelikka estetik munosabati ham aks ettirilgan.

Mifologiyaning o‘ziga xosligi – unda hamma narsa yaxlit, ajralmas; tabiat narsalari va hodisalari inson bilan ayni bir qonunlarga muvofiq yashaydi. Mifologik dunyoqarashning mohiyati hozirgi kunda

sodda (primitiv), ibtidoiy bo‘lib ko‘ringani bilan, afsona va rivoyatlar o‘zining kuchli jozibasi bilan, insonparvarlik g‘oyalari bilan kishilarni ezgu fazilatlar ruhida tarbiyalashning samarali omili bo‘lib qolmoqda.

Diniy dunyoqarash. Diniy dunyoqarash mifologik dunyoqarash ta’sirida shakllangan. Diniy dunyoqarashning asosiy belgisi –g‘ayritabiiy kuchlarga ishonish, butun olam, barcha mavjudot insoniyat dunyosining xudo tomonidan yaratilganligini va boshqarilishini e’tirof etish, xudoga, ruhlarga sig‘inishdan iborat. Uning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u tabiiy va ijtimoiy hodisalar mohiyatini ularning o‘zida emas, balki g‘ayritabiiy sabablar, xudoning qudrati bilan izohlaydi. U hamma narsada va har qayerda ilohiy kuchlarning ta’siri, mo‘jizaviy kuch bor deb biladi.

Diniy dunyoqarashning mohiyati diniy adabiyotlarda o‘z aksini topgan. Diniy dunyoqarash ilohiy qudratlarga e’tiqod qilish bilan bog‘liq. Bu dunyoqarash shaklini inson qalbidagi quyidagi holatlar belgilaydi:

- 1) emotsional-ruhiy holatlar;
- 2) iymon-e’tiqod;
- 3) iymon-e’tiqodning xatti-harakatlarda ifoda etilishi.

Diniy dunyoqarashning asosini diniy e’tiqod tashkil etadi. Diniy e’tiqod – ilohiy mavjudotlarga sig‘inishdir. Din insonning g‘ayritabiiy narsa-hodisalarga bo‘lgan e’tiqodini to‘yintiruvchi chuqur ildizlarga ega. Bular: ijtimoiy, gnoseologik, siyosiy, psixologik ildizlar.


Dinning ijtimoiy ildizi – jamiyatdagi adolatsizlik va dunyoning nomukammalligi tuyg‘usi chorasizlik va umidsizlikni yuzaga keltiradi, bu tuyg‘ular osongina u dunyoda hayotning mavjudligiga bo‘lgan ishonchga aylanadi. Zero, har qanday din haqiqiy hayot u dunyoda, deb o‘rgatadi. Muammolar, qiyinchiliklarga duch kelgan va real hayotda o‘ziga tayanch topa olmagan inson g‘ayrioddiy kuchlarga umid bog‘lab, narigi dunyoga murojaat etadi. Ularga e’tiqod qilib taskin topadi va taqdirga tan beradi.

Dinning gneseologik ildizi – tashqi olamning kishilar ongida noto‘g‘ri, buzib, mavhumlashtirib aks ettirilishi. Oqilona bilim nuqtayi nazaridan dunyo insonga cheksiz, murakkab bo‘lib tuyuladi. O‘ta mushkul vazifa aqlni o‘tmaslashtiradi. Inson echimsiz muammolar qarshisida o‘zini ojiz his qiladi va aql dalillarini uydirma, g‘ayrioddiy narsalar bilan to‘ldirish uchun dinga murojaat qiladi.

Dinning siyosiy ildizlari – turli siyosiy kuchlarning dindan o‘z manfaatlarida foydalanish imkoniyati va shu tariqa uni bevosita yoki bilvosita qo‘llab-quvvatlashi orqali, uning jamiyatdagi roli va ta‘sirini kuchaytirishida namoyon bo‘ladi.

Dinning psixologik ildizi – inson tabiatida mavjud bo‘lib, inson intellektining rivojlanish darajasi va tanqidiy fikrlash qobiliyatidan qat‘i nazar, nafaqat anglash, balki e‘tiqod qilish istagi va hattoki, ehtiyojining hamisha namoyon bo‘lishidir.

Diniy e‘tiqodlarning tarixiy shakllari: 1.1.5-chizmada berilgan.



1.1.5-chizma. Diniy e‘tiqodning tarixiy shakllari

Fetishizm (fransuzcha Fetishisme – tilsim, sehrlil, but (sanam)) jonsiz narsalarga sig‘inish, tabiatdagi narsa va hodisalarga e‘tiqod qiluvchi diniy tasavvurlar majmui. U yoki bu predmetni mo‘jizakor xislatga, odamlar hayotiga ta‘sir etish qobiliyatiga ega deb hisoblaydi. Masalan, tosh, yog‘och bo‘lagi, hayvon tishi, zargarlik buyumi va h.k.

Animizm (lotincha anima – jon, ruh) – har narsaning joni bor deb qarash: kishilar, hayvonlar, predmetlar, hodisalar.

Totemizm (Shimoliy Amerika hindularining o‘jibve qabilasi tilidagi “ototem”– uning urug‘i so‘zidan olingan) urug‘ jamoalari sig‘inadigan qadimgi diniy e‘tiqod. Kishilar ma‘lum guruhi bilan hayvon va o‘simliklarning muayyan turi o‘rtasida (umumiy kelib chiqishiga ishonch) qon-qarindoshlik bor deb qaraladi. Urug‘, qabila har bir a‘zosining hayoti va farovonligi shu totemga bog‘liq (Hindistonda Xonumon maymuni, sigir, Avstraliyada kenguru, turli qabilalarda u yoki bu predmet).

Shamonizm (shomoniyluk) – (tunguscha shamon–jazavaga tushgan, o‘ta hayajonlangan) qabila ruhoniysi, ilohiy kuchga ega deb hisoblanib, urf-odatlarini bajarishni tomoshaga aylantirgan. O‘yin kechqurun amalga oshirilgan. O‘yin oxirida shomon behol yiqilgan. U ruhlar bilan pichirlashib gaplashgan. Go‘yo talvasaga tushib bemorlarni davolagan.

Magiya (lotinchada magia – sehrgarlik) ibtidoiy din shakllaridan biri bo‘lib, uning zamirida tabiiy kuchlar yordamisiz sirli tarzda, masalan, rasm-rusumlar, o‘ziga xos amallar majmui bilan narsalar, odamlar, hayvonlar va hatto g‘ayritabiiy kuchlar – ruhlar, insu jinslar va shu kabilarga ta’sir ko‘rsatish mumkinligiga bo‘lgan ishonch yotadi.

Diniy dunyoqarashning afsonaviy dunyoqarashdan farqi shundaki, unda dunyo ikkiga – bu dunyo va u dunyoga bo‘linadi. Bu dunyoqarash go‘yo g‘ayritabiiy kuchlarning insonlar taqdiriga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatishiga asoslanadi. Avvalo ko‘pxudolikka, keyingi 2,5 ming yilda yakka xudolikka ishonch paydo bo‘lib, hozir yer yuzi aholisining dinga ishonuvchi qismi asosan yakka xudolikka sig‘inadi. Odamlar diniy dunyoqarash orqali o‘z orzu-umidlarini ifodalaganlar, o‘zlari yaratgan tasvirlarga o‘xshab yashashga intilganlar. Umuminsoniy qadriyatlar shu tarzda avaylab saqlangan va rivojlangan.

Din va dunyoqarash xususida so‘z borganda shuni aytish kerakki, mamlakatimizda sovetlar hukmronligi yillarida (1917-1991-y.) ateistik targ‘ibotni kuchaytirish niqobi ostida xalq an‘analari zo‘rluk bilan barbod etildi, asrlar mobaynida amal qilib kelgan milliy marosim va urf-odatlar taqiqlandi, qanchadan-qancha masjid va madrasalar asossiz ravishda buzib tashlandi. Necha-necha minglab jildlarni tashkil etgan nodir kitoblar shaxsga sig‘inish va qatag‘on avj olgan yillarda kuydirilib tashlandi.

Hozirgi paytda o‘tmishda ro‘y bergan ko‘plab xatoliklar tuzatildi, ijtimoiy adolat tiklandi, mamlakatimizda Yangi renessans davri boshlandi.

Falsafiy dunyoqarash. Falsafa Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo va qadimgi Yunonistonda taxminan bir vaqtda, avvalo, dunyoni oqilona anglash usuli sifatida vujudga keldi. Bu vaqtga kelib mif va din o‘zlarining tayyor va uzil-kesil javoblari bilan insonning bilimga nisbatan kuchayib borayotgan qiziqishini qondira olmadi. Mifologik

va diniy dunyoqarashlardan farqli ravishda falsafa dunyoni e'tiqod va tuyg'ularga tayanib emas, balki aql va bilimga tayanib tushuntiradi. Faylasuf tafakkurni xurofot va bid'atlardan tozalab, uni erkinlashtirdi va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirdi.

Falsafiy dunyoqarash asosida kishilar obyektiv olamdagi narsa va hodisalar, jarayonlar o'zidan boshqa narsalar bilan ichki, zaruriy, muhim va asosiy aloqadorlikda, ta'sir va aks ta'sirda ekanligini anglab oladilar.

Uning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, u dunyo qanday bo'lsa, uni shundayligicha, hech qanday uydirmalarsiz, mubohlag'alarsiz tushuntiradi. Falsafa savollar berish, narsa va hodisalar mohiyatini anglashga urinish orqali bilish doirasini kengaytirishga harakat qiladi.

Falsafiy dunyoqarash faqat nazariy bilish jihatidagina emas, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga egadir. Dunyoqarash amaliyot uchun qo'llanmadir. Falsafiy dunyoqarash tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini tushunish uchun yordam beradi. Kishining amaliy faoliyatida tutadigan yo'li shu kishi dunyoqarashining qanday ekanligiga bog'liq.

Falsafiy dunyoqarashning tamoyillari:

- ilmiylik;
- tarixiylik;
- mantiqiylik;
- universallik;
- maqsadlilik;
- g'oyaviylik;
- nazariya va amaliyotning birligi.

Falsafiy dunyoqarash ilmiydir, chunki u narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'lanish, aloqadorlik va munosabatlarni kundalik ong darajasidagina emas, nazariy ong darajasida ham ifodalaydi.

Falsafiy dunyoqarashning tarixiylik tamoyili jamiyatning o'tmishi dunyoqarashlar tarixidan iboratligini va uzluksiz rivojlanishini ifodalaydi.

Falsafiy dunyoqarashning mantiqiy izchilligi tamoyili har qanday dunyoqarash shakli va darajasini mantiqiy birikmalar orqali ifodalaydi.

Agar mantiqiy izchillik buzilsa, dunyoqarashning tashqi olamni xolis, ilmiy, aniq-ravshan, izchil aks ettirishiga putur yetadi.

Falsafiy dunyoqarashning universalligi boshqa dunyoqarash shakllarining mazmunini tashkil etishi bilan sifatlanadi, ya'ni har qanday dunyoqarash shakli o'ziga xos falsafiy xususiyatga ega.

Falsafiy dunyoqarash maqsadga muvofiq bo'lib, inson manfaatlariga mos keladi. Chunki, inson muayyan maqsad, orzu-umidlar bilan yashaydi, ularni o'z dunyoqarashida aks ettiradi.

Falsafiy dunyoqarashning g'oyaviylik tamoyili uning asosida muayyan g'oya yotgani bilan ifodalanadi. Masalan, bugungi o'zbek milliy falsafiy dunyoqarashi milliy mustaqillik, o'zlikni anglash, millatimiz kelajagini belgilaydigan istiqbol g'oyalariga tayanishi bilan xarakterlidir. Falsafiy dunyoqarash bu g'oyani e'tiqodga aylantirish va uni amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Falsafiy dunyoqarashning nazariya va amaliyotning birligi tamoyili. Dunyoqarashning nazariya sifatida mavjudligi ijtimoiy amaliyot tajribalarini ijodiy umumlashtirib, istiqbol rejalarini belgilashda muhim. Shuningdek, dunyoqarashning amaliyotga joriy etilish jarayonida uning usul va vositalarining ahamiyati kattadir.

1.2. Falsafa fanining predmeti, funksiyalari

Falsafani nima uchun o'rganish kerak? Bizga bu ma'lum bo'lishi yoki bo'lmasligidan qat'i nazar, falsafa hayotiy olamimizning bir qismini tashkil etadi. Mana shuning uchun ham biz uni astoydil o'rganishimiz kerak! Bu fikrimizni quyidagi misol bilan izohlaymiz. Aytaylik, bir kishi ikki xildagi fikrga (yoki, aytish mumkin, tamoyillarga yoki me'yorlarga) ega. Birinchi fikrga binoan, u odam o'ldirmasligi kerak. Ikkinchi fikrga ko'ra esa, u Vatanni himoya qilishi shart. Xo'sh, urush bo'lgani holda u nima qilishi kerak? Chunki, bir tomondan, u askarga aylanganidan so'ng unda odam o'ldirmaslik kerakligi to'g'risidagi o'z e'tiqodiga nisbatan ixtilof paydo bo'ladi. Boshqa tomondan, u qurolli kuchlar safiga kirishdan voz kechadigan bo'lsa, Vatanni himoya qilishdan iborat burchiga nisbatan ixtilof yuzaga keladi. Bunday dilemma qay tariqa hal qilinadi? Bunday me'yorlarning biri boshqasiga nisbatan fundamentalroq bo'ladimi va agar shunday bo'lsa, buning sababi nimada? Fikr yurituvchi kishi

uning qurolli harakatlarda ishtirok etishi yoki ishtirok etmasligi qay darajada eng kam qurbon ko'rilishiga olib kelishi va bunday vaziyatlardagi ehtimol tutilgan xatti-harakatlar o'z tamoyillari bilan qanchalik muvofiq bo'lishini chuqurroq o'ylaganimiz sari shunchalik faylasuflik qilamiz, ya'ni faylasufona fikr yuritamiz. Biz anglaymizmi yoki yo'qmi, baribir, falsafiy fikr yuritishlar bizning butun kundalik hayotimizga singib ketgan. Agar ularning aniqlanishi va aniqlashtirilishi alohida kishi tomonidan amalga oshirilayotgan bo'lsa, unda bu shaxsiy tus kasb etadi. Biroq ayni bir paytda ular umumiy bo'lib, ham hisoblanadi, chunki ular yordamida inson olami yanada chuqurroq va yaxlitroq tushunila boradi. Bu xildagi faoliyat o'z tabiatiga ko'ra falsafiy bo'ladi va faylasuflarning turli hayotiy masalalar yuzasidan nima deb o'ylaganligi va so'zlaganligini bilish bilan ko'p narsani o'rganib olish mumkin. Ana shuning uchun ham "falsafani o'rganish zarur". Endi «Falsafa nimani o'rganadi?» degan savolni berishimiz mumkin. Insonda bilishga qiziqish uyg'otadigan, mifologiya, din yoki fan javoblaridan qoniqmagan insonning o'ziga ma'lum bilimlar va tajribaga, muayyan e'tiqod, ishonch va intuitsiyaga tayangan holda oqilona asoslangan javoblar berishga harakat qiladigan, savollar tug'diradigan har qanday obyektiv va subyektiv borliq falsafaning predmeti hisoblanadi. Boshqacha aytganda, inson o'z qiziqishi obyekti haqida muayyan tasavvur hosil qilish maqsadida savol berishga asos bo'lishi mumkin bo'lgan hamma narsa falsafaning predmeti bo'lishi mumkin.

Shu munosabat bilan u yoki bu odamning falsafiy qarashlari haqida va hatto uning falsafasi to'g'risida so'z yuritish mutlaqo o'rinli bo'ladi va bunga biz kundalik hayotda tez-tez duch kelamiz. Biroq ayni holda bizni fan sifatidagi, ayrim insonning emas, balki butun jamiyatning rivojlanish mahsuliga aylangan ijtimoiy hodisa sifatidagi falsafa qiziqtiradi va ayni shu sababli yuqorida keltirilgan ta'rifda «inson» tushunchasi yig'ma ma'noda qo'llanilgan. Bu yerda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, garchi falsafaning predmetiga biz umumiy nuqtayi nazardan ancha keng ta'rif bergan bo'lsak-da, ayrim tarixiy davrlarda odatda u yoki bu sabablarga ko'ra muayyan masalalar doirasi falsafiy tadqiqotlarda birinchi o'ringa chiqadi.

Falsafa

Insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardan biri. Olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson, umrning mohiyati, borliq va yo‘qlik kabi ko‘plab muammolar haqida bahs yuritadigan fan.

1.2.1-chizma. Falsafa

Qadimgi Yunon olimi Arastuga bir odam uning ortidan g‘iybat qilganini aytishganda, “u: – Hechqisi yo‘q. Ortimdan kaltaklashsa ham mayli, – deb javob bergan ekan. Faylasufdan tez keksayib borayotganining boisini so‘rashganda: – Bu olijanoblikdandir, – deb javob bergan. Undan yana falsafadan qanday naf olgani haqida so‘rashganda esa quyidagicha javob qaytargan: – Boshqalar qonun qarshisidagi qo‘rquv tufayli majburan bajaradigan ishlarni men o‘z ixtiyorim bilan ado etishni o‘rgandim. Inson falsafa bilan shug‘ullanishi kerakmi? Bu savolga shug‘ullanishi kerak va yoki kerak emas, deb javob qaytarishi mumkin. Agar inson falsafa bilan shug‘ullanishi lozim deyilsa, hammasi tushunarli. Hech qanday savol tug‘ilmasligi tabiiy. Bordi-yu, odamlar falsafa bilan mashg‘ul bo‘lmasliklari darkor, – deb javob qaytarilgudek bo‘lsa, buni isbotlash uchun ham (ya‘ni mashg‘ul bo‘lmasligi darkorligini) falsafiy fikrlashga to‘g‘ri keladi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, inson har qanday vaziyatda falsafa bilan shug‘ullanmog‘i kerak”³. Arastuning shiori: faylasuf imkon qadar o‘tkinchi narsalardan uzoqroq turishi va o‘zining “Vatani” – chin haqiqatlar saltanati tomon intilmog‘i lozim. Falsafa kishiga tabiat, jamiyat, inson tafakkuri rivojlanishining umumiy qonuniyatlari haqida ma‘lumot beradi. U

³ 100 mumtoz faylasuf. Haqiqat manzaralari. –T.: Yangi asr avlodi. 2019

dunyoni va uning taraqqiyot qonunlarini bilish mumkinligini, bilish esa murakkab ziddiyatli jarayondan iboratligini ta'kidlaydi.

Falsafa tabiat va insoniyat jamiyati taraqqiyotining sabablari va mohiyatini, o'ziga xos xususiyatlari va konuniyatlarining xarakteri va harakatlantiruvchi kuchlarini ilmiy asosda tushuntirib beradi. Olam doimo harakatda, o'sish, o'zgarish va rivojlanishda.

Falsafa fanining asosiy vazifalari:

– tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid falsafiy bilimlar, qonunlar va kategoriyalar mazmun-mohiyatini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali insonning hayotdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish;

– falsafa rivojlanishining asosiy bosqichlari va yo'nalishlari, dinning kelib chiqishi va uning funksiyalari, tabiat va jamiyat borlig'i hamda korrupsiyaga qarshi kurashish zamonaviy mexanizmlari to'g'risida tasavvurlarini shakllantirish;

– jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga falsafiy tafakkur va shaxsiy-tahliliy tanqid nuqtayi nazaridan yondashish, o'z-o'zini ma'naviy-axloqiy, estetik tarbiyalash tuyg'ularini hosil qilish;

– xalqimiz ma'naviy merosini asrash va yanada yuksaltirish, yoshlarning falsafiy tafakkurini shakllantirish, ular ongini turli zararli g'oyalardan saqlash, ularni zamonaviy falsafiy bilimlar bilan qurollantirish;

– yoshlarda jamiyatning keng ko'lamli yangilanish jarayonida faol ishtirok etish hissini tarbiyalash.

Falsafa fanining asosiy vazifalari

tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid falsafiy bilimlar, qonunlar va kategoriyalar mazmun-mohiyatini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali insonning hayotdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish

falsafa rivojlanishining asosiy bosqichlari va yo'nalishlari, dinning kelib chiqishi va uning funksiyalari, tabiat va jamiyat borlig'i hamda korrupsiyaga qarshi kurashish zamonaviy mexanizmlari to'g'risida tasavvurlarini shakllantirish

Falsafa fanining asosiy vazifalari

jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga falsafiy tafakkur va shaxsiy- tahliliy tanqid nuqtayi nazaridan yondashish, o'z-o'zini ma'naviy-axloqiy, estetik tarbiyalash tuyg'ularini hosil qilish

yoshlarda jamiyatning keng ko'lamli yangilanish jarayonida faol ishtirok etish hissini tarbiyalash

xalqimiz ma'naviy merosini asrash va yanada yuksaltirish, yoshlarning falsafiy tafakkurini shakllantirish, ular ongini turli zararli g'oyalardan saqlash, ularni zamonaviy falsafiy bilimlar bilan qurollantirish

1.2.2-chizma. Falsafa fanining asosiy vazifalari

Falsafiy bilimning tuzilishi. Falsafa o'z shakllanishi va rivojlanishining qadimgi davridayoq, tabiat, inson, jamiyat va ma'naviyatni, shuningdek, sababiy bog'lanishlar, qonunlar va shu kabilarni bilish sohasida yuksak natijalarga erishdi va ratsionallik nuqtayi nazaridan odamlarning dunyo haqidagi umumiy tasavvuriga aylandi. Ammo olamning cheksiz darajada rang-barangligi va serqirraligi tufayli o'sha davridayoq parchalanmagan falsafiy bilimlar va tasavvurlardan ayrim bo'limlar ajralib chiqa boshladi, vaqt o'tishi bilan rivojlanib, ancha aniq shakl-shamoyil kasb etdi va yangi bilimlar bilan to'ldirildi. Pirovard natijada ular falsafiy bilimning tuzilishini (strukturasini) tashkil etdi.

Quyidagilar falsafiy bilimning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi:

- ontologiya – mavjudlik, borliq haqidagi bilim;
- gnoseologiya (boshqa bir terminologiyaga ko'ra – epistemologiya) – bilish nazariyasi;
- ijtimoiy falsafa – jamiyat haqidagi ta'limot;
- etika – axloq haqidagi ta'limot;
- aksiologiya – qadriyatlar haqidagi ta'limot;

- falsafiy antropologiya – inson haqidagi ta’limot va boshqalar. Falsafiy muammolar mohiyatini tushunib yetish, ularning eng muhimlarini aniqlash va nihoyat, falsafiy bilimlar bilan oshno bo’lish – ko’rsatilgan bo’limlarni sinchiklab o’rganish, bunda ularga yaxlit bir butunning tarkibiy qismlari sifatida yondashish demakdir. Pirovardida biz falsafaning o’ziga xos tili, o’z yondashuvlari va metodlari, nihoyat, tabiat, jamiyat va tafakkurga oid eng muhim aloqalar, xossalar va qonunlarni o’zida aks ettiruvchi umumiy tushunchalar – kategoriyalar tizimi vujudga kelganining guvohi bo’lamiz. Bunda falsafadagi har bir bo’lim yoki yo’nalish ham o’z tushunchalar apparatiga, ya’ni bilimning faqat shu sohasiga xos bo’lgan va uning asosiy mohiyatini yoritib beradigan kategoriyalar tizimiga egadir.

Falsafada ko’rib chiqilgan mavzular bilan bir qatorda shunday bilim sohalari ham mavjudki, ular qolgan barcha bilim sohalariga kirib boradi, ular bilan uyg’unlashadi va ularni to’ldiradi. Masalan, tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkurida yuz beruvchi harakat, rivojlanish va o’zgarishlar haqidagi falsafiy ta’limot – dialektika ana shunday bilim sohalaridan biri hisoblanadi.

Obyektiv sabablarga ko’ra falsafiy bilimning ayrim sohalari sezilarli darajada rivojlandi va vaqt o’tishi bilan mustaqil falsafiy fanlarga aylandi. Bunday bilim sohalari qatoriga, masalan, insonning bilishni amalga oshirish shakllari, qonunlari va usullarini o’rganadigan fan – mantiqni; ma’naviyat va axloq haqidagi ta’limot – etikani; go’zallik qonunlariga muvofiq ijodning mohiyati va shakllari haqidagi fan – estetikani kiritish mumkin.

Shu ma’noda falsafa tarixi fani alohida diqqatga sazovordir, zero u, mohiyat e’tibori bilan, nafaqat falsafiy, balki tarixiy fan hisoblanadi. Ayni vaqtda u falsafiy bilim tarkibiga ham kiradi, chunki falsafiy tafakkurning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini, falsafiy g’oyalar evolutsiyasi va xususiyatini turli faylasuflar, yo’nalishlar, oqimlarning ta’limotlarida qanday tavsiflangani nuqtayi nazaridan o’rganadi. Falsafa tarixi fanida falsafiy ta’limotlarni tizimga solish va tasniflashga, matnlar, tarixiy sanalarni tahlil qilishga, daliliy material, biografik ma’lumotlar yig’ishga alohida e’tibor beriladi. Shu munosabat bilan dunyoqarashni kengaytirish va teranlashtirishga, o’z falsafiy yondashuvlarini yaratishga qaratilgan falsafani o’rganish,

uning tarixi, asosiy namoyandalari va eng muhim falsafiy asarlari bilan albatta tanishishni nazarda tutadi.

Falsafaning asosiy funksiyalari. Falsafa u yoki bu muammolarni hal qilar, qonunlar, muayyan tamoyillarni ta'riflar yoki gipotezalar, g'oyalar va nazariyalarni ilgari surar ekan, ayni vaqtda (ba'zan shu tariqa) har xil funksiyalarni bajaradi. Falsafaning muhim funksiyalaridan dunyoqarashni shakllantirish, bilish, metodologik, integrativ, madaniy, aksiologik, axloqiy va tarbiyaviy funksiyalarni qayd etish mumkin. Ularning barchasi bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Bu funksiyalarning roli va ahamiyati falsafaning amal qilish sohasi, u hal qilayotgan vazifalar darajasi va xususiyati bilan belgilanadi.

Dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi. Falsafaning, dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi yuqorida keltirilgan funksiyalar qatorida haqli ravishda birinchi o'rinni egallaydi. Bu hol shu bilan izohlanadiki, insonning dunyoga munosabati, uning o'z-o'zini va o'zini qurshagan borliqni tushunishi, shuningdek, turli voqealar, hodisalarni va o'z burchini qanday talqin qilishi avvalo va bevosita uning dunyoqarashiga bog'liq bo'ladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, inson dunyoqarashida e'tiqodlar va bilimlar, tuyg'ular va emotsiyalar, oqilonalik va irratsionallik, tajriba, intuitsiya va hokazolar chambarchas bog'lanadi. Ayni shu sababli falsafasiz dunyoning yaxlit manzarasini yaratish mumkin emas, chunki «donolikni sevish» sanaladigan, «hamma narsaga aralashadigan» falsafagina dunyoqarashning o'zaro bog'lanmagan turli «parchalari»ni birlashtirib, shu tariqa odamlarning butun borliqqa nisbatan umumiy, izchil va mantiqan to'g'ri munosabatini yaratish imkonini beradi. Bunda falsafa ayrim ikir-chikirlar, ahamiyatsiz tafsilotlarni mavhumlashtiradi va umumiy aloqalarga, turli narsalar va hodisalar xossalari birligiga e'tiborni qaratadi va shu tariqa o'zining bosh funksiyasi – dunyoqarashni shakllantirish funksiyasini bajaradi.

Falsafaning gnoseologik funksiyasi tajribada sinash, tavsiflash yoki shak-shubhasiz inkor etish mumkin bo'lmagan, ya'ni fan ochib berish, tadqiq etish va tahlil qilishga qodir bo'lmagan narsalar va hodisalarni oqilona yo'l bilan tushuntirishga harakat qilishdir. Falsafa u yoki bu mohiyati aniqlanmagan yoki kam o'rganilgan hodisalarni tushuntirishga nisbatan o'z yondashuvlari, nazariyalari va gipotezalarini taklif qilar ekan, ularni bilishga bo'lgan qondirilmagan

qiziqish o‘rnini ma’lum darajada to‘ldiradi, shu tariqa mifologik va diniy fantaziyalarga kamroq o‘rin qoldiradi. Falsafa gnoseologiyada hal qiladigan boshqa bir muhim vazifa «Haqiqat nima?», «Uning mezonlari qanday?» degan masalalar bilan bog‘liq, zero har qanday bilish jarayoni oxir-oqibatda, u yoki bu tarzda haqiqatning tagiga yetishga qarab mo‘ljallanadi, bu esa eng muhim masaladir.

Metodologik funksiyasi to‘g‘risida so‘z yuritganda metod tushunchasiga murojaat etish o‘rinli bo‘ladi. Bu tushuncha yunoncha methodos – yo‘l, tadqiqot, tekshirish so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u yoki bu maqsadga erishishning muayyan usulini, shuningdek, borliqni nazariy va amaliy o‘zlashtirishga qaratilgan usullar yoki amallar majmuini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, bu faylasuf yoki olim o‘zi o‘rganayotgan predmetning tadqiqot yo‘lidir. Odatda metodologiya muammolari falsafa doirasida o‘rganilgan, biroq ayrim fanlar vujudga kelishi bilan falsafiy (umumiy) metodlar bilan bir qatorda muayyan, ayrim ilmiy metodlar ham rivojlana boshladi. Falsafaning boshqa bir muhim metodologik funksiyasi falsafada ham, ayrim fanlarda ham muhim rol o‘ynaydigan har xil kategoriyalarni ishlab chiqishidan iborat.

Falsafaning integrativ funksiyasi fan bilan chambarchas bog‘liq. Real borliqning yangi obyektlari va hodisalari inson nazariy tadqiqotlari sohasidan o‘rin olishi, shuningdek, ilgari ma’lum darajada anglab yetilgan narsalar va hodisalarni yanada chuqurroq o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj ilmiy bilim o‘z rivojlanishining dastlabki bosqichlaridayoq tabaqalanishiga turtki beradi. Buning natijasida ayrim fanlar paydo bo‘lib, ular nafaqat o‘z tadqiqot obyekti va predmetini ajratdi, balki o‘zining faqat mazkur fanga xos bo‘lgan tili, kategoriyalar apparati va hokazolarni yaratdi. Ammo bu yo‘lda jiddiy xavf ham mavjud bo‘lib, u shundan iboratki, fanlarning ajralishi natijasida ular o‘rtasidagi aloqalar susayadi, ular murakkab kompleks vazifalarni yechishda faol o‘zaro aloqa qilish qobiliyatini yo‘qotadi. Qarama-qarshi jarayon – ilmiy bilimlarning integratsiyalashuvi va u yoki bu muammolarni yechish uchun kuch-g‘ayratni birlashtirish jarayoni bu xavfning oldini olish imkonini beradi.

Murakkab kompleks muammolarni tadqiq etuvchi hozirgi zamon fanida ba‘zan ayrim ilmiy fanlarning vakillari boshqa fanlarning vakillarini faqat ular turli tillarda, ya’ni har biri o‘z fanining tilida

gapirgani bois tushunmaydi. Bu jihatdan falsafa ular uchun amalda bog'lovchi bo'g'inga, birlashtiruvchi asosga aylanadi, chunki u o'z tahlilida fanlararo muloqotga va mazmuni ayni bir kontekstda turli fanlar tomonidan qabul qilinadigan va qo'llaniladigan fundamental tushunchalarni yaratishga qarab mo'ljalladi. Murakkab obyektlarni kompleks tadqiq qilishda har bir muayyan fan o'z predmetidan kelib chiqadi. Bu predmet doirasi unga o'rganilayotgan obyektни yaxlit ko'rish, uning aloqalarini aniqlash imkonini bermaydi. Bu vazifani hal qilishga ham faqat falsafa qodir bo'lib, u butun vaziyatni yaxlit ko'rish imkonini beradi va bu jihatdan nafaqat fanlar o'rtasida, balki inson faoliyatining ayrim jabhalari, masalan, o'tkazilayotgan tadqiqotlar bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan huquqiy, siyosiy, axloqiy faoliyat o'rtasida ham bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi.

Madaniy funksiyasi. Falsafa odamlar dunyoqarashini kengaytirish, ularda bilishga qiziqish uyg'otish, nazariy fikrlash madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish orqali madaniy funksiyani ham bajaradi. U dunyoni o'zlashtirish va bilishning universal shakli sifatida, insoniyatning eng yaxshi yutuqlarini o'zida mujassamlashtiradi va ularni butun insoniyat mulkiga aylantiradi. Turli mamlakatlar va xalqlarning falsafa tarixini o'rganish, ularning o'tmishdagi va hozirgi madaniyatini yaxshiroq tushunish imkonini beradi, g'oyalar almashinuvi va madaniy an'analarning o'zaro ta'siriga ko'maklashadiki, bu madaniy meros bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'pgina muammolarni yechishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aksiologik funksiyasi. Falsafa hayotning ma'nosi, o'lim va umrboqiylik masalalarini kun tartibiga qo'yish, u yoki bu harakat, voqea, hodisaga «yaxshi», «yomon», «muhim», «foydali», «foydasiz» kategoriyalari bilan baho berish orqali yana bir muhim funksiya – aksiologik (yunon. axia – qadriyat) funksiyani ham bajaradi. U uzoq muddatli tendensiyalarni qisqa muddatli tendensiyalardan farqlash, yuzaki jarayonlarni fundamental jarayonlardan, muhim narsalar va hodisalarni ikkinchi darajali narsalar va hodisalardan ajratish orqali insonning qadriyatlarga munosabati bilan uzviy bog'liq bo'lgan tegishli ehtiyojlarini shakllantiradi.


Shu tariqa insonning muayyan qadriyatlari, mo'ljallari va ustuvorliklari belgilanadi, ya'ni tegishli qadriyatlar tizimi tarkib topadi. Bu tizim odamlarning muhim xususiyati hisoblanadi, ularning

hayotga munosabatini aks ettiradi va jamiyatdagi xulq-atvorini ko'p jihatdan belgilaydi.

Falsafaning axloqiy funksiyasi odamlar xulq-atvori va u yoki bu jamiyatda yuzaga keluvchi munosabatlar bilan bog'liq. Bunda, masalan, axloqiy qadriyatlar, ularning tabiati, asoslari va jamiyatdagi amaliy roli falsafaning tadqiqot predmeti hisoblanadiki, bu jamiyatda yuzaga keladigan va tabiiy yo'l bilan, ya'ni real hayot amaliyotida o'rnatiladigan me'yorlar va qoidalarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bunday me'yorlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim dastak hisoblanadi va odamlarning o'zaro aloqalari, ularning munosabatlari xususiyati va o'zaro til topish darajasida namoyon bo'ladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, falsafa doimo axloqda, jamiyatning barcha a'zolari xulq-atvorida muxtasar ko'rinishda namoyon bo'ladi va shu tariqa yana bir muhim funktsiya – axloqiy funktsiyani bajaradi.

Falsafaning tarbiyaviy funksiyasi haqida fikr yuritilganda bu masalaning xalqaro darajadagi keng va har tomonlama muhokamasi natijalarini hisobga olgan holda so'z yuritish o'rinli bo'ladi. Bugungi kunda nafaqat ayrim xalqlar, balki butun jahon hamjamiyati o'z-o'zini anglab yetishga yo'naltirilgan falsafaga muhtojdir. Buni 2002-yildan Yunesko qaroriga binoan, butun dunyoda har yili noyabr oyining uchinchi payshanbasida o'tkaziladigan "Jahon falsafa kunlari" ham, hozirgi kunda dunyo uchun eng muhim masalalarga e'tiborini qaratadigan Jahon falsafa kongresslari ham tasdiqlaydi. Darhaqiqat bunday kongress birinchi marta 1900-yilda Fransiyada o'tkazilgan, 1948-yildan boshlab uni har besh yilda bir marta o'tkazish an'anaga aylangan. Xususan, 1998-yilda Boston shahrida (AQSH) bo'lib o'tgan XX jahon falsafa kongressi "Paydeyya: insoniyatni tarbiyalashda falsafa" mavzusiga bag'ishlangan bo'lsa, Turkiyaning Anqara shahrida o'tkazilgan XXI Jahon falsafa kongressida "Falsafa jahon muammolari bilan yuzma-yuz" mavzusi atroflicha muhokama qilindi. XXII jahon falsafa kongressi birinchi marta Osiyo mamlakati bo'lmish Koreya respublikasining Seul shahrida "Hozirgi davrda falsafani qayta anglash" degan umumiy mavzu ostida bo'lib o'tdi. Kongresslarning mavzularidan ko'rinib turganidek, falsafa real hayot bilan uzviy bog'liq va eng muhim muammolarni anglab yetishga xizmat qilib keldi. Shunday muammolardan biri – insonni shaxs sifatida tarbiyalash

va kamol toptirishda falsafaning roli va ahamiyati masalasidir. Buning uchun esa, albatta, qadimgi davr mutafakkirlarining asarlariga yana bir bor murojaat etish taqozo etiladi. Qadimgi mutafakkirlar har tomonlama ta'lim va tarbiyani, ya'ni o'z qobiliyatlari va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qodir bo'lgan jismoniy va ma'naviy jihatdan komil insonni voyaga yetkazishni «paydeyya» (yunon. pais – bola) atamasi bilan ifodalaganlar. O'sha zamonlarda paydeyya aristokratiyaning o'ziga xos belgisi hisoblangan; endilikda faylasuflar ta'lim va tarbiya muammolarini yana birinchi o'ringa qo'yib, ularni hal qilishda falsafaning rolini aniqlashga harakat qilar ekanlar, bu tushunchani yana esga oldilar. Xususan, Boston kongressidagi asosiy ma'ruzalarning mualliflaridan biri fransuz faylasufi Per Obenk: «Insonning vahshiyona tabiatidan ma'rifatli tabiatga o'tish imkoniyati qay darajada mavjud?» degan savolni o'rtaga tashlaydi. Uning fikricha, insonning yagona tabiati ikki ma'noli bo'lib, faqat ma'rifat (paydeyya) odamzotni so'zning to'liq ma'nosidagi insonga aylantiradi yoki, Platon ta'biri bilan aytganda, paydeyya uning ko'zini ochadi. Biroq ma'rifatning vazifasi ko'zga ko'rish qobiliyatini berishdan emas, balki unga to'g'ri qarashni o'rgatishdan iboratdir. Demak, Platon, Demokrit, Zardusht va boshqa mashhur faylasuflar fikriga tayanib, ma'rifat yordamida, ta'lim va tarbiya jarayonini zo'rlikka qarshi yo'naltirish va odamzot aql-idrokini kamol toptirish orqali insonning boshqacha tabiatini yaratish mumkin. «Paydeyya» tushunchasi bolani tarbiyalab komil insonga aylantiruvchi ta'lim jarayoniga e'tiborni qaratadi. Qadimgi yunonlar «texne» va «paydeyya» kabi tushunchalarni farqlaganlar; birinchi atama bilimni, ya'ni o'rganish mumkin bo'lgan narsani anglatadi, ikkinchi atama bilim berish manbayini emas, balki to'g'ri fikr manbayini anglatadi. Bunda paydeyya, Aristotel ta'biri bilan aytganda, insonni o'zini o'zi kamol toptirishga rag'batlantirishi lozim. Shu bois Protagor, Sokrat va Platon aytganidek, falsafadan saboq berishda ishontirish mahoratini emas, balki to'g'ri fikr yuritish mahoratini o'rgatishga e'tibor qaratish muhim.



1.2.3-chizma. Falsafa fanining asosiy funksiyalari

1.3. Falsafa va iqtisod.

Ilm ma'rifat rivojlangan sari ko'pgina yangi fanlar paydo bo'ladi va bilimlar tizimida o'z o'rnini topadi. Shartli ravishda fanlarni ikki katta guruhga bo'lish mumkin: tabiiy-texnikaviy fanlar va ijtimoiy-gumanitar fanlar. Falsafa va iqtisod fanlari ikkinchi guruhga kiradi. Iqtisodiyot tushunchasi qadimiy tushuncha bo'lib, insoniyat paydo bo'libdiki iqtisod bilan shug'ullanadilar. Chunki iqtisodsiz jamiyat bo'lmaydi, iqtisodsiz kishilar yashay olmaydilar. Jamiyatda inson yakka holda yashay olmaganidek, iqtisodiy aloqalarsiz ham yashay olmaydi. Kishilar jamiyatda qanday faoliyat bilan shug'ullanmasin, avvalo iqtisodiy masalalarni (ovqatlanish, kiyinish, uy-joyga ega bo'lish va boshqalar) hal etmog'i kerak. Falsafa fani ham qadimgi fanlardan hisoblanadi va uning asosiy o'rganish obyektiga jamiyat kiradi. Chunki falsafiy bilimlar majmui tabiat, jamiyat va inson obyektlarining o'zaro bog'liqligida vujudga keladi. Bu ikkala fan o'qitilmagan paytlarda ham kishilar iqtisodiy va jamiyat muammolariga duch kelganlar hamda iqtisodiy-ijtimoiy aloqalarni amalga oshirganlar. Shuni tan olish lozimki, hozirgi zamonda jamiyat ko'p jihatdan iqtisodiy ulkan yutuqlar natijasida tezkor harakatga ega. Falsafa va iqtisodiyot sohasidagi ilmiy izlanishlar insoniy, axloqiy

munosabatlarga asoslanadi. Bu munosabatlarning insonparvarlashuvi, uning yo‘llari va oqibatlari – bu davrimizning muhim muammolaridir.


Ayni shu hol falsafa bilan ham, undan muayyan fanlar ilgari falsafiy tusga ega bo‘lgan tadqiqot predmetlari bilan ajralib chiqqanida yuz berishini taxmin qilish o‘rinli bo‘ladi. Biroq, bunday hol yuz berayotgani yo‘q. Iqtisodiyot fani falsafadan qancha ko‘proq ajralsa, unda shuncha ko‘proq masala va muammolar paydo bo‘lishini, ya’ni falsafa nafaqat kamaymasligi, balki, aksincha, ko‘payishini ko‘rsatadi. Buning sababi nimada? Bu savolga javobni Iqtisodiyot va falsafaning o‘ziga xos xususiyatlaridan, ularni alohida-alohida tavsiflovchi masalalar va ularning yechimlari o‘rtasidagi tafovutdan qidirish, o‘rinli bo‘ladi.

Falsafa va iqtisodiyotning umumiy jihatlari shundaki, ular:

– avvalo aqlga tayanadi va oqilona bilimni yaratishga harakat qiladi;

– o‘rganilayotgan obyektlar va hodisalarning qonunlari va qonuniyatlarini aniqlashga qarab mo‘ljal oladi;

– kategoriyalar apparatini (o‘z tilini) yaratadi, o‘zlari ilgari surgan qoidalarni asoslaydi, ularga dalil-isbot keltiradi va yaxlit tizimlarni yaratishga harakat qiladi.



1.3.1-chizma. Falsafa va iqtisodiyotning umumiy jihatlari

XVII asrdan — birinchi ilmiy inqilob davridanoq falsafadan mustaqil fanlar ajralib chiqq boshladi. Ular orasida tadqiqot obyekt iqtisodiyot hisoblangan ta'limotlar ham paydo bo'ldi. Iqtisodiyot odamlarning moddiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan tovarlar, predmetlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, ularni taqsimlash, ayirboshlash va ulardan foydalanish bo'lgani uchun iqtisodchilar ham, faylasuflar ham unga jiddiy e'tiborni qaratdilar.

Qadimda iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli uy xo'jaligi doirasida ro'y bergan. Shuning uchun qadimgi grek olimlarining (Ksenofont, Platon, Aristotel) asarlarida iqtisodiyot – uy xo'jaligi va uni yuritish qonunlari deb tushuntirilgan. Arab leksikonida «iqtisod» tejamkorlik ma'nosida tushunilgan, chunki islom diniga oid adabiyotlarda tejamkorlikka alohida e'tibor berilgan. Lekin, hozirgi davrda iqtisodiyot keng ma'noni anglatib, faqatgina uy yoki individual xo'jalik yuritish yoki tejamkorlik ma'nosini anglatmaydi, balki iqtisodiyot – yirik xususiy xo'jalik, jamoa xo'jaligi, hissadorlik jamiyatlari, davlat xo'jaliklaridan, moliya va bank tizimlaridan, xo'jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, konsernlar, qo'shma korxonalar, davlatlar o'rtasidagi turli iqtisodiy munosabatlaridan iborat o'ta murakkab ijtimoiy tizimni anglatadi. Iqtisodiy ehtiyojlarni va ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan bog'liq ehtiyojlarni doim iqtisodiy nazariya va falsafa birgalikda o'rganib keladi. Bu yerda ehtiyojni ifodalashning ikki shakli — falsafiy va iqtisodiy shakllari to'qnashadi va o'zaro ta'sirga kirishadi. Ma'lumki, iqtisodiy ehtiyojlar iqtisodiy zaruriyat tarzida namoyon bo'ladi. Oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, harakatlanish vositalari, ro'zg'or anjomlariga ehtiyoj shular jumlasidan. Ushbu ehtiyojlar ham ijtimoiy (ularni falsafa o'rganadi), ham iqtisodiy (ularni iqtisodiy nazariya tadqiq qiladi) o'rganish obyektini tashkil etadi.⁴

Shu bilan birga, insonlarning avtomobil, urf bo'lgan zamonaviy kiyim-kechakka (hozirgi yoshlarda buni farqlash qiyin, chunki ularning hammasi zamonaviy kiyinadi) bo'lgan ehtiyojlar ijtimoiy, hayotda oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joyga bo'lgan ehtiyojlar esa — iqtisodiy xususiyatga ega, degan fikriga qo'shib bo'lmaydi. Haqiqatan ham qayd etilgan ehtiyojlarning barchasi yagona ijtimoiy-

⁴ Философия Под ред. В.Н. Лавриненко, В.П. Ратникова.2-е изд — М., 2015. с. 514-528

iqtisodiy xususiyatga ega, faqat ularni tadqiq qilishga falsafa va iqtisodiy nazariya har biri o‘z nuqtayi nazaridan yondashadi.

Ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari, ishlab chiqarish usuli va mulkchilik munosabatlari ham jamiyat iqtisodiy hayotini tadqiq qilishning ikkala shakllari uchun «umumiy» hisoblanadi. Shu sababli ushbu ikki fanning tadqiqot yo‘llari doim o‘zaro kesishadi, chunki ular ayni bir obyekt — iqtisodiyotni tadqiq qiladi.

Ayni vaqtda, falsafa va iqtisodiy nazariya ushbu tadqiqot obyektini tahlil qilishga har xil nuqtayi nazardan yondashadi. Chunonchi, iqtisodiy ta’limot ishlab chiqarish rivojlanishining iqtisodiy xususiyatlarini tadqiq qiladi, odamlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni yoritadi, ularning iqtisodiy manfaatlarini, iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish yo‘llari va usullarini asoslashga harakat qiladi. Falsafa esa jamiyat rivojlanishining moddiy, iqtisodiy asoslarini inkor etmagan holda, uning ijtimoiy tomonini aniqlash vazifasini o‘z oldiga qo‘yadi.

Shu sababli, A.Smitdan boshlab, iqtisodiyot fanlari (o‘sha davrda siyosiy iqtisod) o‘zining asosiy e’tiborini jamiyat rivojlanishining iqtisodiy asoslarini tadqiq qilishga, falsafa esa — uning ijtimoiy asoslarini o‘rganishga qaratadi.

Buni mazkur ikki fanning deyarli bir davrda yashagan atoqli vakillari — iqtisodchi Adam Smit va faylasuf Georg Hegel misolida ko‘rib chiqamiz. A.Smit ilmiy asoslab bergan siyosiy iqtisod iqtisodiy ta’limotning rivojlanishiga qo‘shilgan katta hissa bo‘ldi. Uning zamirida yotuvchi qiymatning mehnat nazariyasi (*“mehnat jamiyati nazariyasi”*) odamlar o‘rtasida ijtimoiy aloqalar mehnatning ijtimoiy taqsimoti asosida, ular o‘z mehnati mevalarini ayirboshlashi orqali o‘rnatiladi, bunda odamlar iqtisodiy faoliyatining asosiy motivi mehnat hisoblanadi, degan fikrdan kelib chiqadi. Smit inson va mehnat o‘zaro aloqasining quyidagi tamoyilidan kelib chiqadi: har kim o‘zi uchun ishlar ekan, boshqalar uchun ishlashga ham majbur bo‘ladi va aksincha, boshqalar uchun ishlar ekan, har kim o‘zi uchun ham ishlaydi. Binobarin, inson yaxshi yashashga intilishining asosiy sharti va jamiyat ravnaqining manbayi mehnat hisoblanadi. A.Smit jamiyat ravnaqining uch asosiy shartini qayd etdi: xususiy mulkning mavjudligi, iqtisodiyotga davlatning aralashmasligi va shaxsiy tashabbus

rivojlanishi uchun g'ovlarning yo'qligi. Smitning jamiyat sinfiy tuzilishini tushunishi u yaratgan iqtisodiy nazariyaning muhim jihatidir. Unga asoslanib, Smit uch asosiy sinfni: yollanma ishchilar, kapitalistlar va yirik yer egalari sinflarini qayd etadi. Bunda yollanma ishchilarning iqtisodiy manfaatlari kapitalistlar va yirik yer egalarning manfaatlari ziddir.

Fuqarolik jamiyati nazariyasini ishlab chiqqan Gegel ta'limotida falsafiy ohang kuchliroq. Agar Smit ijtimoiy hodisalar tahlilida asosiy e'tiborni iqtisodiy xususiyatga ega muammolarga qaratgan bo'lsa, Gegelning diqqat markazida ijtimoiy ahamiyatga molik muammolar turadi. Jamiyatning rivojlanishini u dialektik metod yordamida ta'riflaydi. Smitdan farqli o'laroq Gegel moddiy va ma'naviy dunyoga qotib qolgan narsa deb emas, balki muttasil o'zgaruvchi va rivojlanuvchi jarayon deb qaraydi. Gegel birinchi bo'lib "fuqarolik jamiyati" tushunchasini ishlab chiqdi, unga "umumiy bog'liqlik tizimi" deb ta'rif berdi, unda "bir kishining tirikchiligi, farovonligi va huquqiy jihatdan mavjudligi barchaning tirikchiligi va farovonligi bilan uzviy bog'lanadi, shularga asoslanadi va faqat ana shu bog'liqlikda xaqiqiy va ta'minlangan bo'ladi"⁵ deb qayd etdi. Shu yerda ikki buyuk mutafakkirning ushbu ta'limotlarini solishtirib, ularning jamiyat (ya'ni ayni bir tadqiqot obyekti) talqini ayrim masalalar bo'yicha mos keladi, ayrim muammolar bo'yicha esa mos kelmaydi, degan xulosa chiqarish mumkin.

Ularning mehnatning roli va uning ijtimoiy taqsimotdagi ahamiyati haqidagi fikr-mulohazalari bir-biriga mos keladi. Ammo Smit, Gegeldan farqli o'laroq dialektikani deyarli tadqiq qilmaydi, Bu XIX asrning ikkinchi yarmidayoq Smitning ba'zi bir qoidalariga tuzatish kiritish, ayrimlarini esa butunlay qayta ko'rishni taqozo etdi.

Smitning xizmati shundaki, u o'z iqtisodiy ta'limotini asoslash jarayonida ijtimoiy ishlab chiqarishning yagona va haqiqiy mezonini mehnat ekanini birinchi bo'lib ilmiy jihatdan asoslab berdi, barcha zamonlarda va barcha joylarda barcha tovarlarni mehnatga qarab baholash va ularning qiymatini solishtirish mumkinligini qayd

⁵ Akbar O'tamurodov, Rahmonali Hasanov Fuqarolik jamiyati: g'oyalar evolyusiyasi (Sharq va G'arb mutafakkirlari talqinida) Uslubiy qo'llanma. // "Fuqarolik jamiyati" fanidan dars ishlanmasi (ikkinchi kitob). - Toshkent: MRDI, 2017.- 96 bet.

etdi.⁶ Lekin u bu yerda ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari dialektikasiga, ishlab chiqarish usulining vujudga kelishi va rivojlanishi dialektikasiga faqat yaqinlashdi, ammo uni yoritib bermadi.

XIX asr oxiri — XX asr boshida falsafiy va iqtisodiy ta'limotlarning ajralish jarayoni kuchaydi. Yangi, sof iqtisodiy nazariyalar, chunonchi: E.Bem-Baverkning o'ta foydalilik nazariyasi, M.Fridmanning monetaristik nazariyasi, J.Keynsning iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi nazariyasi vujudga keldi.

Hozirgi zamon ijtimoiy-iqtisodiy fanida industrial, postindustrial va axborot jamiyati konsepsiyalariga alohida e'tibor beriladi. Ushbu jamiyatlarning vujudga kelishi tovar ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotdan xizmat ko'rsatuvchi iqtisodiyotga o'tilishi, jamiyatning sinfiy bo'linishi o'rniga kasbiy bo'linishga kelishi bilan tavsiflanadi. Shu o'rinda amerikalik mashhur siyosatshunos, sotsiolog Z.Bjezinskiy (1928–2017) nomini tilga olish mumkin. U “postindustrial jamiyat” nazariyasining variantlaridan birini tahlil qilib, jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik modernizatsiya qilishni uning “amerikalashuvi” bilan bir deb hisoblaydi va yangi “intellektual elita” vujudga kelishini asoslaydi.

Yana bir amerikalik sotsiolog D.Bell (1919–2011) o'zining “Kelajak postindustrial jamiyati” (1973) kitobida yangi jamiyatda sof kapitalistlar o'rniga ma'lumot va bilim darajasi bilan farq qiladigan hukmron elita keladi deb qayd etadi.

Iqtisodiy ta'limotlar va falsafada bilish funksiyalarining birligi va farqlarining ayrim jihatlari ana shulardan iborat. Umuman olganda, ular ham, bular ham, har biri o'zicha quyidagi umumiy xulosalarga keladi:

- agar jamiyat muttasil ravishda moddiy ne'matlar ishlab chiqarmasa, u mavjud bo'la olmaydi;
- iqtisodiy ehtiyojlar va ishlab chiqarishni rivojlantirish ehtiyojlari ijtimoiy ishlab chiqarishning eng muhim manbalari hisoblanadi;
- jamiyatning iqtisodiy hayotini bilish jarayonida uning obyektiv omillari (ishlab chiqarish jarayonida obyektiv iqtisodiy qonunlarning amal qilishi; ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish muno-

⁶ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. — М. 2016 с 1056.

sabatlarning o‘zaro ta’siri, bunda ularning birinchisi ikkinchisiga mos kelishi kerak; jamiyat ma’naviy hayotining rivojlanishi uchun zarur moddiy shart-sharoitlar yaratilishi va b.) ham, subyektiv omillari (jamiyat va muayyan shaxsning iqtisodiy manfaatlari, odamlar iqtisodiy ongining shakllanishi va b.) ham hisobga olinishi kerak.

Jamiyatning iqtisodiy hayoti faqat obyektiv va subyektiv omillar-ning o‘zaro ta’sirida mavjud bo‘lishi mumkin. Shu sababli falsafa fani boshqa fanlar bilan bog‘liq bo‘lganidek iqtisodiyot fanlari bilan uzviy aloqadorlikdadir.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. “Falsafa” atamasining mohiyatini siz qanday tushunasiz?
2. Falsafaning bahs mavzusini ayting.
3. Falsafa fanining predmeti nimani o‘rgatadi?
4. Falsafa fanining maqsadini tushuntiring.
5. Falsafaning asosiy funksiyalari qaysilar va ularning mazmun, mohiyatini tushuntiring.
6. Falsafa milliy bo‘lishi mumkinmi?
7. Falsafa fanining azaliy va o‘tkinchi muammolarini bayon eting.
8. Falsafiy fikrlar rivojlanishining davriy tizimi necha bosqichda shakllanadi va ularni mazmun-mohiyatini ayting.
9. Falsafa tarixini o‘rganish qanday maqsadni ko‘zlaydi?
10. Falsafaning umuminsoniyligi deganda nimani tushunasiz?

Testlar:

1. Olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti haqidagi muammolarni o‘rganuvchi ilm – bu...

- A. Falsafa
- B. Bilish falsafasi
- C. Sotsiologiya
- D. Falsafa tarixi

2. “Filosofiya” so‘zini Abu Nasr Forobiy qanday talqin etgan?

- A. Xikmatni qadrlash
- B. Xikmatga amal qilish

- C. Xikmatni sevish
- D. Xikmatga e'tiqod qilish

3. Dunyoqarashning qanday tarixiy turlari bor?

- A. Mifologik, diniy, falsafiy
- B. Diniy, ilmiy, falsafiy
- C. Afsonaviy, ilmiy, axloqiy
- D. Teologik, afsonaviy, ilmiy

4. Falsafiy dunyoqarash nima?

A. Insonning olamga, voqea va hodisalarga, o'zgalarga va ularning faoliyatiga, umr mazmuniga munosabati, anglashi, tushunishidir

B. Olamdagi voqea va hodisalar sabablarini ilohiy kuchlar, oldindan belgilangan maqsadlar bilan bog'lab tushunishdir

C. Ijtimoiy taraqqiyotning boshlang'ich bosqichlariga xos bo'lib, dunyoni tushunishning oddiy usuli, xayoliy in'ikosidir

D. Inson e'tiqodi, ishonchi amaliy faoliyati, harakati, tafakkuridir

5. Uzlüksiz rivojlanishni ifodalovchi falsafiy dunyoqarash tamoyili bu...

- A. Tarixiylik
- B. Maqsadlilik
- C. Ilmiylik
- D. G'oyaviylik

Esse mavzulari:

1. Falsafa dunyoqarash sifatida.
2. Mifologik dunyoqarash va diniy dunyoqarashning umumiy hamda o'ziga xos jihatlari.
3. Falsafa va iqtisod.
4. Falsafani nima uchun o'rganamiz?
5. Mening hayot falsafam.
6. Falsafa va boshqa fanlar.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Skirbekk, G., Gile, N. Falsafa tarixi. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent, “Sharq”, 2002. – 720 b.
2. Daniel M. Hausman. The Philosophy of Economics: An Anthology. Cambridge University Press, 2008.
3. Pol Kleynman Filsofiya. Kratkiy kurs Kanke Perevod, izdanie na russkom yazike, oformlenie. OOO «Mann, Ivanov i Ferber», 2016
4. V. L. Filsofiya ekonomicheskoy nauki: ucheb, posobie. – M.: INFRA-M, 2009.
5. Shermuxamedova N. Falsafa. Darslik. –T.: “Idris Abdurauf Nashr” , 2021. 664 b.
6. Falsafa. O‘quv qo‘llanma.// Sh.Madayeva va boshqalar. – Toshkent: Universitet, 2019.-256 b.
7. Falsafa asoslari [Matn]: o‘quv qollanma / Q.Nazarov [va boshq.]. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. – 380 b.

2-MAVZU FALSAFIY TAFAKKURNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI: SHARQ VA G‘ARB FALSAFASI

Reja:

2.1. Qadimgi va O‘rta asr Sharq falsafasi, uyg‘onish davri. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ilg‘or falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fikrlar. XX–XXI asr o‘zbek falsafasi.

2.2. Antik davr falsafasi. Ilk va o‘rta asr G‘arb falsafasi rivojlanishining umumiy belgilari.

2.3. Yangi va eng yangi davr falsafasining asosiy yo‘nalishlari.

2.1. Qadimgi va O‘rta asr Sharq falsafasi, uyg‘onish davri. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ilg‘or falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fikrlar. XX–XXI asr o‘zbek falsafasi

Sharq mamlakatlaridagi falsafiy tafakkur eramizdan avvalgi VI–IV mingyilliklarda Misr, Suriya, Iroq, Eron, Hind, Xitoy, Markaziy Osiyo xalqlariga xos bo‘lgan sivilizatsiyalarni qamrab oladi. Sharq sivilizatsiyasida hech qachon din va falsafa bir-biridan ajratilmagan. Falsafa diniy ta‘limot mag‘ziga joylashgan. Shuning uchun Sharq xalqlari falsafasi, uning qonuniyat va mezonlarini yunon falsafasiga qo‘llangan yondashuvlar sistemasidan kelib chiqib o‘rganish noto‘g‘ri bo‘ladi. Sharqliklarning qarashlari o‘sha davrlar sharoitiga mos bo‘lgan, ko‘rinishidan sodda asotir va rivoyatlardek tuyulsa-da, ramz va ishoratlarga boy, chuqur ma‘noga ega edi. Albatta, asotirlar falsafa emas, ammo ularning sharhi falsafaga xos mantiqiy yondashuvlarga olib kelardi. Ular asosida Sharq xalqlarining bizga noma‘lum olamlarni tushunish va talqin qilish harakati mujassamki, bu o‘sha davrlarning falsafasi edi. Buni biz mistika yoki ilohiyot deb atashga odatlanganmiz. Bu ilmni o‘sha tamaddun darajasi va diniy-ilohiy qarashlar sistemasini shakllantirgan shart-sharoitlardan kelib chiqib o‘rganish juda muhimdir.

Qadimgi Sharqning deyarli barcha falsafiy ta‘limotlarida ba‘zi umumiy xususiyatlar ajralib turadi:

– insonni ham ijtimoiy, ham tabiiy dunyoga nihoyatda hurmatli va insonparvar munosabatlarga yo‘naltiradi;

- insonni o‘zining ichki dunyosini yaxshilashga chorlaydi;
- insonni ijtimoiy hayotni, tartibni, axloqni, boshqaruvni va boshqalarni yaxshilashga yo‘naltiradi;
- tashqi dunyodagi va sharoitdagi o‘zgarish bilan emas, balki birinchi navbatda shaxsning o‘zgarishi va uning jamiyatga moslashishi bilan bog‘liq.

Eramizdan oldingi to‘rtinchi mingyillikning oxiri va uchinchi mingyillikning boshlarida Qadimgi Misr va Bobil hududida dastlabki falsafiy fikrlarning paydo bo‘lishi, bir tomondan, dunyo haqidagi fanlar bo‘lgan – astronomiya, kosmologiya, matematika birinchi odimlari bilan yaqindan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, afsonalar bilan bog‘liq edi.⁷ Bu davrda din, ilmiy bilim va mifologiya bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lgan dastlabki mafkuraviy g‘oyalar ham shakllandi. Bu – o‘sha davrlardan qolgan yozma manbalarda, xususan, “Xo‘jayinning o‘z quli bilan hayotining mazmuni haqida suhbat”, “Arfist qo‘shig‘i”, “O‘z hayotidan hafsalasi pir bo‘lgan kishining o‘z joni bilan suhbat” kabi bitiklarda yaqqol namoyon bo‘lgan. Ularda hayotning, umrning mazmuni, o‘sha davrdagi odamlarga xos tuyg‘ular bayon qilingan.

Eramizdan avvalgi ikki minginchi yillar boshida Sharq xalqlaridan biri yahudiylarning— iudaviylik dini Falastinda vujudga kelgan. “Zabur” va “Tavrot” kabi muqaddas kitoblar bu dinning asosiy manbalaridan hisoblanadi.

Xitoy falsafasi keng va teran. Konfutsiylikning olamga ochiq va yaxshi munosabatni aks ettiruvchi insonsevarlik g‘oyasiga sodiqlik – bu xitoy millatining eng qimmatbaho sifati, butun xalq qoniga singgan uning ko‘tarinki ruhidir. Osmondek cheksiz va daryodek bitmas dao cha donishmandlik xitoy millati mavjudligi va taraqqiyoti uchun tunganmas teran manba va doimiy rag‘batlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi.⁸

Xitoy falsafasining manbalari – Bilim darajasining mumtoz kitoblarida yoritilgan. Ashulalar kitobi (er. oldingi XI–VI asrlar) xalq she‘riyatining to‘plamidir; Tarix kitobi (er.ol. 1-mingyillikning boshlari) – rasmiy hujjatlar to‘plami bo‘lib, tarixiy voqealar bayonidir; Tartib kitobi (er.ol. IV–I asrlar) siyosiy va diniy rasm-rusumlarni,

⁷ Фалсафа. М. Аҳмедова таҳрири остида. –Т.: ЎФМЖ, 2006. 30-бет.

⁸ У Чун. Фалсафий ғоялар. –Т.: “Академнашр”, 2019. 6-бет.

ijtimoiy va siyosiy faoliyat me'yorlarini tasvirlaydi. Bahor va Kuz kitobi (er.ol. VII–IV asrlar) axloqiy va rasmiy-adabiy masalalarni hal etish uchun namuna sifatida xizmat qildi⁹.

Qadimgi Xitoy falsafasi boshlanish davri	miloddan oldingi VI–III asrlar
O'rta asrlar davri (postklassik)	miloddan oldingi III– milodiy XIX asrlar
Xitoy falsafasi yangi davri	XIX asr o'rtalaridan – 1919 yilgacha
Xitoy falsafasi eng yangi davri	1919-yildan hozirgacha

2.1-chizma. Xitoy falsafasi rivojlanish bosqichlari.


Falsafa taraqqiyoti nuqtayi nazaridan O'zgarishlar kitobi (er.ol. XII–VI asrlar) eng muhimdir. Uning matnlarida afsonalardan falsafaga o'tish boshlanganligini mushohada etish mumkin. O'zgarishlar kitobining eng muhim qismlaridan biri – In va Yan unsurlari haqidagi ta'limotdir. Yan qandaydir faol, barcha narsalarning ichiga kirib boruvchi, ashyolarni bilish yo'lini yorituvchi narsa sifatida ifoda qilinadi; In uchun kutib turuvchi faoliyatsizlik o'rin ajratilgan, negaki, u qorong'ilik ibtidosidir. In va Yanning harakati – yagona narsada yuz beradigan o'zgarishlarning dialektik harakatidir. In va Yanning o'zaro bir-biriga kirishishidan ularning o'zaro ta'sirini aks ettiruvchi bir qator tushunchalar paydo bo'ladi.

Xitoy falsafasining atoqli vakili Konfutsiya (er. ol. 551–479) bo'lib, uni adabiyotlarda ko'pincha Kun-tsu - Kun o'qituvchisi deb atashadi.¹⁰ Konfutsiy fikricha, olamni “osmon” boshqaradi. “Osmon” tushunchasi u uchun nafaqat tabiatning bir qismi, balki olam va inson taraqqiyotini belgilovchi yuqori ma'naviy kuchni anglatadigan

⁹ Falsafa. M. Ahmedova tahriri ostida. –T.: O'FMJ, 2006.- 33-bet.

¹⁰ Karyagin K. Konfutsiy. Tarixiy-biografik ocherk. –T.: “DavPress” NMU, 2019. 19-bet.

boshlang'ich tushuncha hisoblanadi. Ammo uning falsafasining markaziy qismi osmon emas, umuman tabiiy dunyo emas, balki insonning yerdagi hayoti va uning borligi, ya'ni bu antroposentrik. Ya'ni, insonning hayotdagi ijtimoiy o'rni nihoyatda ulug', u o'ziga ravo ko'rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko'rmasligi, o'ziga ravo ko'rgan narsani boshqalarga ham ravo ko'rishi lozim. Osmon irodasi — taqdirdir. Biz yashab turgan olam, undagi tartib osmon hukmdori tomonidan yuborilgan. Jamiyat hayotidagi tartibga qattiq amal qilish talab etiladi. Tartib, Konfutsiy nuqtayi nazariga ko'ra, ilohiy mazmunga ega va uning mohiyatini "Li" tushunchasi belgilaydi. U, ya'ni tartib dunyoning mohiyatini aks ettiradi



2.2-chizma. Xitoy falsafasi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.

Binobarin, jamiyatdagi barcha harakatlar unga binoan amalga oshishi lozim. Tartib — insoniyat jamoasining eng oliy hayotiy qadriyatlaridan biridir. Konfutsiyning ta'kidlashicha, shaxs faqat o'zi

uchun emas, balki jamiyat uchun ham yashashi kerak. Qadimgi Xitoy falsafasidagi yana bir yo‘nalish – daosizmning asoschisi Lao Szi (era ol. VI–V) hisoblanadi. Daosizmning asosiy g‘oyasi Dao ta‘limoti (yo‘l) – bu tabiat, jamiyat, shaxsning xulq-atvori va tafakkurining ko‘rinmas, hamma joyda mavjud, tabiiy va o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan qonunidir. Inson o‘z hayotida Dao tamoyiliga amal qilishi shart, ya‘ni. uning xulq-atvori inson va olam tabiatiga mos kelishi kerak. Agar siz Dao tamoyiliga rioya qilsangiz baribir to‘la erkinlik, baxt va farovonlikka erishasiz.¹¹

Qadimgi hind falsafasi yozma manba Vedalar asosida o‘rganiladi, ular bir vaqtning o‘zida mifologik, diniy va falsafiy dunyoqarashni aks ettiradi.¹² Vedalar - samxitlar – to‘rt xilda mavjud: Rigveda (xudolarga madhiya), Samaveda (kuylar, ashulalar, hamdu sano), Yadjurveda (qurbonlik qilish paytida aytiladigan ifodalar va hikmatli so‘zlar) va Atxarveda (afsunlar). Vedalar oriy qabilalarining ibtidoiy dunyoqarashlari, diniy-afsonaviy majmuasi. “Veda”larning falsafiy qismini “Upanishadalar” (ma‘nosi – sirli bilim) tashkil etadi. “Upanishadalar”dagi falsafiy mavzular, asosan, insonni o‘rab turgan borliq, uning hayotdagi o‘rni va vazifasi, tashqi olam va inson tabiati, uning hayoti va ruhiyatining mohiyati, bilish imkoniyatining chegaralari, axloq me‘yorlari haqidadir. Falsafiy muammolar asosan diniy-mifologik nuqtayi nazardan bayon etilgan. Qadimgi hind falsafiy maktablar ikki guruhga: astika va nastikaga bo‘lingan. Vedanta, sankhya, yoga, vaysheshika, n’yaya va mimansa — astika guruhiga kiruvchi falsafiy maktablar. Ushbu maktablarning tarafdorlari “Veda”ning muqaddasligini tan olib, birdan-bir haqiqat undagina ifodalangan, deyishadi. Chorvaka-lokayata, buddizm va jaynizm — nastika guruhiga kiradi. Hinduizm nomi bilan mashhur bo‘lgan g‘oyalar, ma‘naviy, diniy va ijtimoiy fanlarni o‘z ichiga olgan hind falsafiy fikr maktablari, shu bilan birga jaynizm va buddizm paydo bo‘lgan, ammo ular bu qadimiy ta‘limotni organik ravishda to‘ldirgan.

Eramizdan avvalgi X asrdan eramizning VII asrlarigacha bo‘lgan davr mahsuli bo‘lgan diniy-falsafiy ta‘limotlardan biri zardushtiylikdir. Bu ta‘limotga Zardusht asos solgan. Zardushtiylikning bosh kitobi

¹¹ Lao Szi. Dao fazilatlar kitobi.– T.: “Akademnashr”, 2020. 3-bet.

¹² Nizomiddinov N. Qadimgi Hindiston tarixi, diniy e‘tiqodi va madaniyati. –T: “Fan va texnologiya “ nashriyoti. 2014. 5-bet.

“Avesto”. Unda qadimgi xalqlarning dunyo to‘g‘risidagi tasavvurlari, o‘ziga xos qadriyat va urf-odatlar aks etgan. Unda olamning azaliy qarama-qarshi kuchlari – yaxshilik va yomonlik, yorug‘lik va zulmat, issiqlik va sovuqlik, hayot va o‘lim borasidagi qarashlar o‘z ifodasini topgan. “Avesto”da, shuningdek, tabiat falsafasi, tarix, etika, tibbiyotga oid ma‘lumotlar ham berilgan.

Sharq falsafasida diniy-falsafiy ta‘limot sifatida shuhrat qozongan buddaviylik qadimgi Hindistonda eramizdan avvalgi VI asrning oxiri va V asr boshlarida vujudga kelgan. Buddaviylik islomga qadar O‘rta Osiyoda tarqalgan qadimgi dinlar orasida mavqe jihatidan juda katta o‘rin tutadi. Bu ta‘limot O‘rta Osiyoga eramizdan avvalgi II–I asrlarda kirib kelgan. Kushonlar davrida buddaviylik dini hukmron dinga aylangan edi.


Moniy ta‘limoti yurtimizda buddaviylikdan keyin keng tarqalgan edi. U zardushtiylik va xristianlikning sintezlashuvi natijasida vujudga kelgan. Moniylik ta‘limoti asosida Mazdak ta‘limoti yuzaga kelgan. U eramizning V–VI asrlarida keng tarqalgan edi. Uning asoschisi Mazdak (470–529-yillar) bo‘lgan. Mazdak va uning maslakdoshlari o‘z qarashlarida xalq ommasiga suyanan.

Mazdakiylar harakati, eramizning VI asrida bostirilganiga qaramay, turli mamlakatlarda muayyan darajada davom etgan. O‘rta Osiyoda Muqanna, Ozarbayjonda Bobak boshliq dehqonlar va shahar kambag‘allarining zulmga qarshi kurashlari bunga misol bo‘ladi.

VIII asrning boshlarida Markaziy Osiyoga Islom dini kirib keldi. U VIII–IX asrlar davomida Xuroson va Movarounnahrda zardushtiylik, moniylik, buddaviylik kabi dinlarni siqib chiqarib, ularning o‘rnini egallay boshladi. Islom dini dunyoqarash sifatida keng tarqala borishi bilan birga, asta-sekin uning nazariy, falsafiy, huquqiy, adabiy kabi tomonlarini ishlab chiqishga e‘tibor kuchaygan. Qur‘on (arabcha qara‘a – o‘qimoq) musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi bo‘lib, ular uni eramizning VII asrda Muhammad payg‘ambar tomonidan yetkazilgan ilohiy vahiy, deb tan oladilar. Qur‘on 114 suraga bo‘lingan bo‘lib, suralarning uzunidan qisqa tomonga borishi tartibida tuzilgan.

Ma‘lumki, Qur‘on islom qonunchiligining asosidir. Hadislar esa, uning murakkab joylarini qisqacha tushuntirib, yangi qirralarini ochib, uni to‘ldiradi. Hadislar – Muhammad (s.a.v.) nasihatlarini ham bo‘lib, musulmonlarni hayotning barcha sohalariga yo‘naltiradi. Hadislar ishonchli deb faqat shundagina tan olinishi mumkin ediki, uni rivoyat

qiluvchilar zanjirining barcha bo'g'inlari aniqlangan bo'lsa, hadislar to'plamining eng ishonchlisini bizning vatandoshimiz imom va al-Buxoriy yozgan.



2.3-chizma. Qadimgi Hind falsafiy maktablari

Islomda hanafiylik, ash'ariylar, jabariylar, qadariylar, sifatiylar, murji'iyalar, muta'zaliylar kabi mazhablar mavjud. Qadariylar ta'limotini keyinchalik o'z ustozlari Hasan al-Basriyni (624–728) tark etgan shogirdlari bo'lgan mu'taziliylar (arabcha–mu'tazila ajrab

chiqqanlar) rivojlantirdilar. Mu'tazila ta'limotining asoschisi Vosil ibn Ato (699–748) edi. Bu o'z ta'limotini aqlga tayanib bayon qiluvchi va shu davrga kelib Arab xalifaligiga Iskandariya orqali kirib kelgan yunon mantig'i va falsafasining tushuncha va usullaridan foydalangan, birinchi falsafiy ilohiyot maktabi edi. Mu'tazila oqimi tarixida muayyan mutafakkirlarning nomi bilan bog'liq bo'lgan ko'plab guruhlar mavjud edi. IX va X asrlardagi asosiy maktablar Basra va Bag'dod maktablari edi. Xalifa Mutavakkil hukmronligi vaqtida boshlangan mu'taziliylarni ta'qib qilish sharoitida va umuman, "kalam"ga hujum davrida mu'tazaliy Al-Juboiy (vaf. 916)ning shogirdi va yangi "kalam" maktabi bo'lgan ashariylikning asoschisi Abul Hasan al-Ashariy (874–933) uni an'anaviy diniy aqida bilan, ba'zida rasmiyatchilik uchungina bo'lsa ham, murosasozlik yo'li bilan saqlab qolishga urindi.¹³ Islom falsafasining mohiyati haqida keyingi mavzularda alohida bafurja to'xtalamiz.

Al-Kindi, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Beruniy, al-Xorazmiy, al-Farg'oniy va boshqalar Sharqda buyuk olimlar va faylasuflar edilar. Ular ko'p fanlarning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdilar. Shu davrdan boshlab "kalam" (arabcha–"ta'limot") nomini olgan ilk islom falsafasi ishlab chiqila boshlandi. Bu ta'limot tarafdorlarni mutakallimlar deb atadilar. Mutakallimlar an'anadan ko'ra, aqlga tayanishning afzalligini ta'kidlar, "taqlid"ni rad etar va biror-bir nuqtayi nazar va ta'limotni qabul qilishdan oldin ehtiyotkorlik jihatidan unga shubha bilan qarashni nasihat qilardilar.

Quyida Markaziy Osiyo qomusiy olimlari haqida qisqacha ma'lumot berib o'tamiz. Bu olimlar birinchi Sharq Renessansiga asos solgan buyuk olimlardir.

Muhammad Muso al-Xorazmiy (783–847). Qadimgi Xorazm diyorida tug'ilib, voyaga yetadi. G'oyatda o'tkir zehnli, noyob qobiliyat sohibi bo'lgan al-Xorazmiy yoshlik chog'idan boshlab aniq va tabiiy fanlarni o'rganishga qiziqdi, arab, fors, hind va Yunon tillarini egalladi, bu tillarda yozilgan kitoblarni qunt bilan o'qib, mutolaa qildi. U dastlabki ta'limni xususiy muallimlardan oldi va so'ngra o'sha davrning yirik ma'rifat markazlaridan biri bo'lgan Marv madrasasida o'qidi. Xalifa Xorun ar-Rashidning o'g'li Ma'mun

¹³ Falsafa tarixi (Sharq falsafasi). O'quv qo'llanma. –Toshkent: «JAHON PRINT». 2013. - 52 bet.

xalifalik taxtiga o‘tirgach (813-y) u Muhammad Muso al- Xorazmiyni o‘zi bilan birga Bog‘dodga olib ketadi va u yerda tashkil etilgan «Bayt ul-hikma»ga boshliq etib tayinlandi. Bog‘dodda u Suriya, Iroq, Eron, Xuroson va Movaraunnahr olimlari bilan ijod qiladi.

Xorazmiy matematika, geometriya, astronomiya, geografiya, tarix ilmi va boshqa fanlar sohasida barkamol ijod qildi. Uning «Al jabr val muqobala» («Tenglamalar va qarshilantirish»), «Hisob al-hind» («Hind hisobi»), «Kitob surat al Arz» («Yer surati haqida kitob»), «Kitab at-tarix» («Tarix kitobi»), «Kitob al-Amal Bil Ustirlabat» («Usturlob Bilan ishlash haqida kitob») kabi asarlari olimga jahonshumul shuhrat keltirdi. Xorazmiy yaratgan 20 dan ortiq asardan bizning davrimizgacha faqat 10 tasi yetib kelgan.

Xorazmiy ijodi merosida «Aljabr va al-muqobala» kitobning ilmiy ahamiyati nihoyatda buyukdir. Bu kitobi bilan u matematika tarixida birinchi bo‘lib algebra faniga asos soldi. «Algebra» atamasi ushbu kitobning «al-jabr» deb yuritilgan qisqacha nomining aynan ifodasidir. Xorazmiy nomi esa matematikada «algoritm» atamasi shaklida o‘z ifodasini topdi. Uning «Al-jabr» asari asrlar davomida avlodlar qo‘lida yer o‘lchash, ariq chiqarish, bino qurish, merosni taqsimlash va boshqa turli hisob va o‘lchov ishlarida dasturulamal bo‘lib xizmat qildi.

Xorazmiyning bu risolasi XII asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilinadi va qayta ishlanadi. Keyinchalik asrlar davomida Yevropa olimlari Xorazmiy asarlarini qayta-qayta ishlab, u asosida asarlar yozdilar. Xorazmiyning arifmetik risolasi Hind raqamlariga asoslangan o‘nlik pozitsion hisolash tizimi Yevropada, qolaversa, butun dunyo taraqqiyotida buyuk ahamiyat kasb etdi, algebra mustaqil Fan darajasiga ko‘tarildi.

Olimning «Kitob at-Tarix» («Tarix kitobi»)da Xuroson, Kichik Osiyo va Movaraunnahrning VIII–IX asrlar tarixiga oid qisqa va aniq ma‘lumotlar o‘z ifodasini topgan. Xorazmiyning «Zij» («Astronomik jadval»), «Quyosh soati haqida risola» asarlari falakiyotshunoslik fanining rivojlanish taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi.

Al-Farg‘oniy (797–865). Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Nosir al-Farg‘oniy buyuk vatandoshimizdir. Ahmad Farg‘oniy o‘z asarlari bilan Fan tarixida katta iz qoldirdi. U matematika, geografiya, astronomiya, falsafa, tarix sohalarida ijod qildi. Ahmad Farg‘oniyning ijodiy faoliyati Bog‘dodda ulug‘ mutafakkir olim Al-Xorazmiy

rahbarligidagi «Baytul Hikma» bilan bogʻliqdir. U arab atamashunosligining paydo boʻlishi va ilmiy taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshgan. Bogʻdod va Damashqda rasadxonalar qurilishida shaxsan qatnashadi. Ahmad Fargʻoniyning kitoblari dunyoga maʼlum va mashhurdir «Kitob fi Usul ilm an-Nujum» («Falakiyot ilmining usullari haqida kitob»), «Falakiyot risolasi», «Falakiyot sababiyati », «Al majisti», «Ilm hayya», «Al Fargʻoniy jadvallari», «Usturlob bilan amal qilish haqida», «Oy, yerning ustida va ostida boʻlganida vaqtni aniqlash risolasi», «Yetti iqlim hisobi», «Usturlob yasash haqida kitob» asarlarining qoʻlyozmalari Angliya, Fransiya, Germaniya, Misr, Hindiston, AQSH va Rossiyada saqlanmoqda.

Ahmad Fargʻoniyning bu asarlarida ilmiy kashfiyotlari butun jahon fani va madaniyatiga ulkan va munosib hissa qoʻshdi. U 812 yilda quyosh tutilishini oldindan bashorat qilib berdi, yerning dumaloq ekanligini ilmiy dalillar bilan isbotlab, bir xil fazo yoritgichlarini har xil vaqtda koʻrilishini, tutilishini, hamma joyda har xil kuzatish mumkinligini isbotlab berdi

Ahmad Fargʻoniy yaratgan ilmiy kashfiyotlar natijalari qaysi fan sohasida boʻlishidan qatʼi nazar gʻoyatda pishiq, puxta va nihoyatda mukammal boʻlgan. XII asrda olimning asarlari lotin tiliga tarjima qilinganligi va Yevropaga tarqalganligi bu fikrning isbotidir. Yevropaliklar Ahmad Fargʻoniyning «Al Fraganus» deb ataganlar. Uning asarlarini lotin, ingliz, nemis, fransuz, rus va boshqa tillarga tarjima qilganlar.

Abu Nasr Forobiy (870–950). Forobiy uning taxallusi boʻlib, toʻliq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uslugʻ Tarxon – jahon madaniyatiga katta hissa qoʻshgan Markaziy osiyolik mashhur faylasuf, qomusiy olim. U Kitob-ul xuruf, Fozil odamlar shahri, Ehsoul ulum, Siyosat falsafasi, Fuqarolik siyosati kabi falsafa va tabiiy fanlar tarixiga oid yuzga yaqin asarlar muallifidir. Forobiy borliqning birinchi sababi va harakat manbayi sifatida Xudo mavjud deb hisoblagan boʻlsa-da, uning falsafasi bilish va borliqning murakkab masalalarini yechishga intilish bilan tavsiflanadi. Ayni shu sababli faylasuf borliqning holatlarini, uning shakllarini: oddiy elementlar – havo, olov, yer, suvni; shuningdek minerallar, oʻsimliklar, hayvonlar, inson va osmon jismlarini sinchiklab oʻrganadi. Shu tariqa u tashqi dunyoning obyektiv mavjudligiga urgʻu beradi. Forobiyning

falsafiy qarashlari Sharq falsafasining rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.¹⁴ Forobiy o'z zamonasi ilmlarining barcha sohasini mukammal bilganligi va bu ilmlar rivojiga katta hissa qo'shganligi, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitganligi tufayli Sharq mamlakatlarida uning nomi ulug'lanib, "Al-Muallim as-soniy" – "Ikkinchi muallim" (Aristoteldan keyin), "Sharq Arastusi" deb yuritilgan. Al Forobiy 70 tilni mukammal bilgan.

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Al-Beruniy (973–1048). Ibn Sino va Al-Xorazmiy bilan bir qatorda turuvchi musulmon Sharqi "Uyg'onish davri"ning eng mashhur namoyandasi. U geografiya, matematika, astronomiya, mineralogiya, geodeziya, falsafa kabi bir qator fanlarga oid ko'plab fundamental asar, traktat va qo'llanmalar yaratgan.

O'z davrida birinchi bo'lib Yerning shar shakllidaligini va u quyosh atrofida aylanishi g'oyasini ilgari surgan, keyinroq Yer radiusini (taxminan 6000 km) o'lchagan. Dunyoga mashhur Markaziy osiyolik to'rt qomusiy olimdan biri – Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy 973-yil Kat shahrida (Xorazmning o'sha davrdagi poytaxti, hozirgi O'zbekistondagi Xivaga yaqin yerda joylashgan) dunyoga keldi. Uning hammaga ma'lum "Al-Beruniy" (arabchada mazkur so'z "tashqari", "boshqa tomon" kabi ma'nolarni anglatadi) taxallusi uning shahar tashqarisida tug'ilgani bilan bog'liq. Uning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Mineralogiya" va boshqa ko'plab asarlari bor.

Ibn Sino, Abu Ali alhusayn ibn Abdulloh ibn alhasan ibn Ali (980.8, Afshona qishlog'i — 1037.18.6, Hamadon sh., Eron) — jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan o'rtaosiyolik buyuk qomusiy olim. G'arbda Avisenna nomi bilan mashhur.

Ibn Sino iste'dodli, xotirasi kuchli, zehni o'tkir bo'lganidan o'z davrida ma'lum bo'lgan ilmlarni tezda egallay boshladi. 10 yoshidayoq Qur'oni karimni boshdan-oyoq yod o'qir edi. 13 yoshlaridan boshlang'ich matematika, mantiq, fiqh, falsafa ilmlari bilan shug'ullana boshlaydi. Ibn Sino yosh bo'lishiga qaramay, Abu Abdullo Notiliy rahbarligida falsafani, Hasan ibn Nuh Qumriydan

¹⁴ Фалсафа. Нигина Шермухамедова. Фалсафа. Дарслик. "Idris Abdurauf Nashr" –Т, 2021; 80–87-бетлар.

tibbiyot ilmini har tomonlama o'rganadi, asta-sekin tabiblik bilan ham shug'ullanadi. U o'zidan avval o'tgan Sharq mutafakkirlarining asarlarini chuqur o'rganish bilan birga, qadimgi yunon tabiiy-ilmiy, falsafiy merosini, xususan, Aristotel, Evklid, Ptolemey, Galen, Gippokrat, Pifagor, Porfiriylarning asarlarini ham qunt bilan o'rgandi. 16–17 yoshidayoq ibn Sino mashhur tabib – hakim bo'lib tanildi. Ibn Sino 300 dan ortiq asar muallifidir. Ularning orasida “Tib qonunlari” va “Bilim kitobi”, “Donishnoma” ayniqsa keng dovruq qozongan. Uning falsafiy g'oyalari ilmiy tafakkur shakllanishining keyingi davrlarida rivojlantirildi va yangi natijalar bilan boyitildi.

Tasavvuf musulmon madaniyatida alohida o'rin tutadi, u VIII–IX asrlarda islomda paydo bo'lgan. So'fiylik na diniy, na mutlaq falsafiy ta'limotdir. Tasavvufga diniy, axloqiy, badiiy va ramziy tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan dunyoqarash sifatida ta'rif berish to'g'ri bo'lar edi. Buyuk so'fiylar orasida al-G'azzoliy, NAQSHbandiy, Ahmad Yassaviy, Sa'diy, Nizomiy, Hofiz, Rumi, Navoiy, Jomiy, Umar Xayyom va boshqalarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ularning masallari, ruboiylari va masnaviylari falsafiy mazmunga to'yingan va ba'zan go'yo shifrlangan falsafiy risolalar bilan ifodalanadi.

Movarounnahr mo'g'ullardan ozod bo'lgandan keyin, 1370-yildan boshlab mamlakatda Amir Temur (1336–1405) hukmronlik qildi va markazlashgan davlat barpo etdi. Feodal tarqoqlikka chek qo'yildi, ishlab chiqarish kuchlari, qo'shni mamlakatlar bilan tashqi savdo aloqalari rivojlandi, yer ishlari va shahar hunarmandchiligida yuqoriga ko'tarilish kuzatildi. Sohibqiron tasavvufdan mamlakatdagi salbiy illatlarni yo'qotishda, turli janjal va nizolarni bartaraf qilishda, haqiqat va adolat o'rnatishda, insonparvarlik g'oyalarini tarqatishda foydalangan. Temur tasavvufdagi poklanish, to'g'ri va sofdil bo'lish, zino va faxsh ishlar bilan shug'ullanmaslik, xarom–xarish ishlardan qochish, halol mehnat qilish, biror kasbni egallash, muhtojlarga mehrshafqat ko'rsatish kabi shartlardan mohirona foydalandi. Temuriylardan Shohrux, Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzolar davlatni boshqarishda tasavvuf qoidalariga amal qilib, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishda uning tajribalariga tayandilar.

Ayniqsa, Mirzo Ulug'bek hukmronlik qilgan davrda fan va madaniyat keng taraqqiy etdi. Shu davrda Samarqandda Qozizoda Rumi, Jamshid bin Ma'sudi, Muyiddin va uning o'g'li Mansur

Koshiy, Ali ibn Muhammad Jurjoniy, Hirotda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, ulug' rassom Kamoliddin Behzod, tarixshunos Xondamir, Sulton Ali Mashhadiy va boshqalar barakali ijod qilganlar. Boshqa tabiiyotshunoslar singari Ulug'bek va uning shogirdlari moddiy olamni kishi ongidan tashqarida, obyektiv mavjudligiga shubha qilmadilar va uni chuqur o'rganishga da'vat etdilar. Qomusiy ilmlar sohibi bo'lgan Mirzo Ulug'bek riyoziyot, falakiyot, musiqashunoslik, falsafa, tarix sohasida ijod qilgan. "Bir darajaning sinusini aniqlash haqida risola", "Risola dar ilmi musiqa", "Risolai yirik tarixiy kitob"larning muallifi Ulug'bek nomi butun dunyoga mashhur bo'ldi. Ayniqsa, unga shon-shuhrat keltirgan bebaho asar "Ziji jadidi Ko'ragoniy"dir. Bu asar Ulug'bekning 20 yil davomida olib borgan astronomik kuzatishlarining natijasi bo'lib, uning asosiy qismi yulduzlar jadvalidan iboratdir. Ulug'bek o'limidan keyin ikki yuz yil davomida bu jadval o'zining aniqligi va ilmiyligi bilan jahonda tengi yo'q hisoblab kelingan.

Shu davrning yorqin yulduzlaridan biri – o'zbek xalqining ulug' farzandi, buyuk mutafakkir, siyosiy arbob, insonparvar shoir Alisher Navoiy edi (1441–1501). Navoiy fan, adabiyot, san'atning turli sohalariga doir qirqdan ortiq asar yaratdi. "Chor devon", "Xamsa", "Mahbub-ul qulub", "Muhokamat-ul lug'atayn", "Majolisun nafois" asarlari shular jumlasidandir.

Alisher Navoiyning falsafiy qarashlari uning asarlarida o'z mujassamini topgan. Ularda borliq va uning mohiyati, inson va inson hayotining mazmuni haqida chuqur falsafiy mulohazalar, insonning baxt-saodati haqidagi orzu-umidlari, adolat va axloqiy kamolot, komil inson va fozil jamoa, ularga etish yo'llari va choralari xususida izlanishlar o'z ifodasini topgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1529) Temuriylar sulolasining eng buyuk vakillaridan biri. Bobur nafaqat siyosatchi, sulola asoschisi, aqlli harbiy lashkarboshi, balki juda iqtidorli olim, islomiy ilmlar, shariat hamda tasavvuf ifodachisi, tariqatlar bilimdoni, muxlisi, buyuk so'z ustasi, shoir, voiz edi. Uning ijtimoiy-falsafiy, siyosiy, huquqiy, badiiy-axloqiy qarashlari, u qoldirgan juda boy ma'naviy meros – devonlari "Boburnoma" asari, shariat asoslari bayoni bo'lgan "Mubayyan" risolasi, badiiyat nazariyasi bo'yicha "Aruz risolasi", Xo'ja Ahror Valiy "Risolai volidiya"sining turkiy

nazmiy bayoni, musiqa, u o‘zi yaratgan va qo‘llay boshlagan maxsus alifbo “Xatti Boburiy”, turkiy-mo‘g‘uliy qonunchilik an‘anasida tuzilgan “Tuzukati Boburiy”lar bizgacha yetib kelgan.

XVI – XVII asrlar Markaziy Osiyo hayotida burilish davri bo‘ldi. Temuriylar hokimiyati Shayboniyxon tomonidan ag‘darib tashlandi. Shayboniylar hukmronligi davrida markaziy davlat barpo qilishga urinib ko‘rildi. 1510-yilda Shayboniyxon Ismoil Safaviy lashkarlari tomonidan o‘ldirilganidan so‘ng markazlashgan davlat inqirozga yuz tutdi. Shayboniylardan Abdullaxon va uning o‘g‘li Abdulmo‘min vafotidan so‘ng, bu davlat barham topib, hokimiyat ashtarxoniylar sulolasiga o‘tdi. Imomqulixon (1611–1642) davrida davlat birmuncha mustahkamlangan bo‘lsada, keyingi davrlarda taxt uchun kurashlar davom etdi. Bu esa iqtisod, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san‘at ravnaqiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Ayniqsa, tabiiy-ilmiy fanlar rivoji zaiflashdi, dunyoviy bilimda tanazzul ro‘y berdi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi, XVIII asrning oxirida esa Qo‘qon xonligi tashkil topdi.

Boborahim Mashrab (1640–1711) Namanganda tavallud topadi. U Mulla Bozor Oxunddan diniy-tasavvufiy ta‘limot sirlarini o‘rganadi. Mashrab g‘azal va ruboiylarida ilohiy sevgi, ya‘ni Ollohga muhabbatni tasvirlaydi. Mashrab tasavvufning qalandarlik tariqatini tanlaydi, xalqni ezgulikka, insof va diyonatga, to‘g‘rilikka chaqiradi. Shoir islom aqidalarini inkor etmagan holda, uning ba‘zi qoidalariga gumonsirab qaraydi. Bular ayniqsa, Mashrabning ro‘za, jannat, do‘zax, namoz, Makka, Ka‘ba to‘g‘risidagi she‘rlarida namoyon bo‘ladi.

O‘zining ijtimoiy-falsafiy fikrlari bilan Markaziy Osiyo madaniyatiga katta ta‘sir ko‘rsatgan shoir va faylasuf Mirzo Abdulqodir Bedil (1644–1721)dir. Mirzo Bedil ilmning ko‘p sohalari, xususan falsafa, adabiyot, san‘atshunoslik bo‘yicha ijod qildi. U Hind, Arab, Eron, ko‘plab Osiyo xalqlarining ilmiy merosini chuqur o‘zlashtirgan yetuk olimdir. Uning muhim asarlari “Chor unsur”, “Irfon”, “Ruboiyot”, “G‘azaliyot” va boshqalardir.

Qo‘qon xonligi hududida yashab ijod etgan shoirlar Nodira (1792–1843), Uvaysiy (1789–1850), Dilshod Barno (1800–1906) va boshqalar ijtimoiy-falsafiy fikr rivojiga munosib hissa qo‘shdilar.

Ma‘rifatparvarlik mafkurasining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri Ahmad Donish (1827–1897) bo‘lib, u falsafa, falakiyot, riyoziyot, adabiyot, tarix sohasida asarlar yozgan. U mamlakatni odilona

boshqarish uchun islohot zarurligini uqtiradi. Davlat, olimning nuqtayi nazaricha, xalqning manfaatini himoya qilishi, hukmdor esa bilimdon, o‘z atrofida bilan kengashib davlatni idora qilishi lozim. Ijtimoiy-siyosiy qarashlari olimning “Navodirul-vaqoe” va boshqa risolalarida o‘z ifodasini topgan.

Aytish mumkinki, XVI asrdan boshlab Movarounnahr falsafiy fikr ikki asosiy yo‘nalishda rivojlanadi.

Birinchi yo‘nalish – Mirzajon Sheroziy, Yusuf Qorabog‘iy, Muhammad Sharif Buxoriy kabi mutafakkirlar va boshqalar ijodida o‘z ifodasini topgan.

Keyinchalik Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, Buxoro va Xivaning unga tobe mintaqani markazning xom ashyo manbayiga aylantirilishi vaziyatni yanada chuqurlashtirdi. Shu bilan birga, bir tomondan – bank sarmoyasi, ikkinchi tomondan – Yevropa va Osiyodan demokratik g‘oyalarning kirib kelishi dunyo bilan iqtisodiy aloqa o‘rnatish imkoniyatlarini namoyon etdi, mintaqada hurfikrlilikning rivojlanishiga imkon yaratdi. Bu asosiy maqsadlaridan biri ma’rifatparvarlik bo‘lgan milliy ozodlik falsafasining shakllanishidagi ilk qadamlar edi. Taniqli olim Ahmad Donish islohotlar o‘tkazishning eng faol tarafdorlaridan biri edi. Keyinchalik Muqimiy, Furqat, Hamza, Berdaq, Zavqiy, Avaz O‘tar kabi shoirlar o‘z she’rlarida xalqni ilm va ma’rifatga chaqirdilar. Abay, Cho‘qon Valixonov kabi taniqli arboblardan demokratik g‘oyalar bilan qurollangan bo‘lib, ular bu mushkul ahvoldan chiqishning yo‘lini nafaqat ma’rifatda, balki turkiy xalqlarning birlashuvida ko‘rar edilar. Xuddi shu zaminda ma’rifatparvarlikdan siyosiy talablarni ko‘tarib chiqishga qadar yuksalgan jadidchilik o‘zining chiqdi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda milliy ma’rifatparvarlik harakati – jadidchilik paydo bo‘ldi (arabcha “jadidiya” – ya’ni “yangilik” so‘zidan). Asosiy maqsadi qoloqlik, turg‘unlik, savodsizlik va jamiyatning boshqa mavjud kamchiliklariga qarshi kurash bo‘lgan jadidchilik harakati Turkiston mintaqasida, Buxoro amirligi va Xiva xonligida turli sharoit va darajalarda rivojlandi. Jadidchilik tarafdorlari islohotlar orqali din va shariat asoslarini saqlab, islomni yangi sharoitlarga moslashtirishni, qarz olishni va milliy muammolarni hal qilish uchun Yevropa madaniyati mevalaridan foydalanishni xohlashdi. Jadidlar maktablar, xayriya jamiyatlari, nashriyot muassasalari, kutubxonalar

va o‘qish zallari, matbuot, adabiyot va teatr san’ati yordamida o‘z oldilariga qo‘ygan vazifalarni hal qilishga harakat qildilar. Jadidchilik qayg‘uli tugashiga qaramay, Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlarining milliy o‘ziga xosligining o‘shishiga hissa qo‘shdi. Shuning uchun jadidlar tajribasi hayot va mavjudotning ko‘plab sohalarida dolzarbdir. Jadidchilikning bevosita asoschisi, qrim-tatar ziyolisi Ismoil Gasprinskiy hisoblanadi. Jadidchilik vakillari M.Behbudiy, A.Fitrat, U.Asadullaxo‘jayev, Munavvar Qori, A.Avloniy, S.Ayniy, F.Xo‘jayev, T.Norbo‘tayev, Majid Qodiriy va boshqalar edi. Jadidlar musulmon dunyosining bir qismi bo‘lgan, ayni paytda, jahon tarixida o‘zini nodir mustaqil hodisa sifatida namoyon etadigan Turkistonning kelajagi to‘g‘risida, millatning istiqboli haqida tinmay qayg‘urdilar, izlandilar, milliy istiqbolimizga zamin yaratdilar.

O‘zbekistonda jadidlar vakillarining asosiy qismi 1937–1938-yillardagi qatag‘onlik davrida sovetlar hukumati tomonidan yo‘q qilindi. O‘zbekistonda sovet davri falsafasi barcha fanlar kabi asosan marksizm-leninizm metodologiyasi asosida rivojlandi, faqat mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyingina fanlar rivoji kommunistik mafkura zanjiridan xolos bo‘ldi. Jamiyat kommunistik mafkura bosimi ostida bo‘lishiga qaramay mamlakatimizda falsafa sohasida ko‘p ilmiy tadqiqotlar olib borildi, milliy kadrlar tayyorlandi. 1922-yilda O‘rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O‘zMU) ijtimoiy-gumanitar fanlar fakultetida falsafa fanidan o‘quv mashg‘ulotlarining olib borilishi, bu boradagi dastlabki qadam bo‘ldi. 1935-yilda birinchi “Dialektika va tarixiy materializm” kafedrasini tashkil qilindi. 1944-yilda Dialektika va tarixiy materializm kafedrasini tarkibidan “Falsafa” kafedrasini ajralib chiqqan. 1960-yillarda “Falsafa” kafedrasida 45 ta professor-o‘qituvchi faoliyat olib borgan. Bu davrda falsafa mutaxassisligi bo‘yicha universitetning o‘zida milliy kadrlar tayyorlash imkoniyati paydo bo‘lgan.

Toshkentda 1958-yili O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Prezidiumi huzuridagi Falsafa va huquq bo‘limi asosida “Falsafa va huquq” instituti tashkil etilgan hamda falsafa va huquq sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu institutning asosiy vazifasi O‘zbekistonda huquqiy davlatchilik va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish, milliy istiqbol g‘oyasi va uni kishilar ongiga singdirish muammolarini tadqiq etish, shu sohalarida yuqori malakali xodimlar

tayyorlash bo'lgan. Akademik Ibrohim Mo'minov institutning tashkilotchisi va birinchi direktori bo'lgan (1975-y.da institutga uning nomi berilgan).

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi haqiqiy a'zolari sifatida falsafa sohasi bo'yicha 10 kishi saylangan.

MO'MINOV Ibrohim Mo'minovich (1908.7.9, hoz. Shofirkon tumani Tezguzar qishlog'i — 1974.22.7, Toshkent) — faylasuf olim, jamoat arbobi, O'zbekiston FA akademigi (1956), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1959), falsafa fanlari doktori (1950), professor (1950). Buxoro bilim yurtida o'qigan (1925–27). Samarqand Pedakademiya institutining ijtimoiy-iqtisodiy fakultetini tugatgan (1931), shu yerda o'qituvchi bo'lib ishlagan. Pedakademiya O'zbekiston universitetiga aylantirilgach, filologiya, keyinchalik tarix fakulteti dekani, kafedra mudiri (1933–55). 1955–56 yil larda O'zbekiston FA Tarix va arxeologiya instituti direktori. 1956 yildan akademiyaning vise prezidenti, O'zbekiston FA Falsafa va huquq instituti direktori (1958–59), O'zbekiston «Bilim» jamiyati boshqaruvi raisi (1958–1974), O'zbek sovet ensiklopediyasining birinchi bosh muharriri (1968–1974).

Mo'minovning ilmiy faoliyatiga sho'rolar mustabid tuzumi o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lsada, biroq, uning tadqiqotlari markazida Sharq, xususan, Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-falsafiy hamda tabiiy-ilmiy fikrlari muammolari turganligi natijasida, alloma falsafaning o'ta siyoslashuvini, uni hukmron kommunistik mafkura xizmatiga tamomila bo'ysundirish xurujlarini chetlab o'tish imkoniyatiga ega bo'ldi. U Navoiydan tortib, Ahmad Donishgacha bo'lgan yirik mutafakkirlar ijodini tahlil qildi. Ayniqsa, Bedil ijodini chuqur o'rganib, uning merosini tushunishni ancha yengillashtirdi. Mo'minovning «Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli» asari (1968), umuman Amir Temur shaxsini ilmiy o'rganish tashabbusi bilan chiqishi olimning ilmiy jasorat va yuksak vatanparvarlik fazilatining yorqin ifodasi bo'ldi. Mo'minov G'arb falsafasini, rus mutafakkirlari ijodini ham o'rgandi. Gegel dialektikasining ratsional mag'zini ko'rsatib berdi.

Domla Ibrohim Mo'minov O'zbekistonda ilm-fanning yirik tashkilotchisi. U, ayniqsa, ijtimoiy fanlarni rivojlantirishga — yangi tadqiqot muassasalarini tashkil etish, ilmiy kadrlar tayyorlashga katta

hissa qo‘shdi, uning rahbarligida turli fan sohalari bo‘yicha yirik asarlar nashr etildi, O‘zbekistonda falsafa maktabiga asos soldi. Beruniy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti sovrindori (1967).

TULENOV Jondor (1928.12.1, Turkiston viloyatining Sayram tumani — 2002.29.12, Toshkent) — taniqli faylasuf olim. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (2000). O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1978). Falsafa fanlari doktori (1962), professor (1963). ToshDU huzuridagi ijtimoiy fanlar o‘qituvchilarining malakasini oshirish instituti professori (1971–72). 1972-yildan Toshkent pedagogika instituti falsafa kafedrasining mudiri, 1977–1985-yillarda ushbu institutning ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori. Ilmiy ishlari dialektika, bilish nazariyasi, ijtimoiy falsafa masalalariga bag‘ishlangan. Beruniy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti sovrindori (1981). «Shuhrat» medali bilan mukofotlangan (1994), ko‘plab shogirdlar yetishtirgan. Asosiy asarlari: Hayot falsafasi (1993); Qadriyatlar falsafasi (1997); Ma’naviyatimizning hayotbaxsh qudrati (1999); Falsafiy madaniyat va ma’naviy kamolot (2000); Dialektika nazariyasi (2001).

Yusupov Erkin (1929–2003). Akademik Erkin Yusupov 1929 yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan, falsafa fanlari doktori (1966), professor, Rossiya Fanlar Akademiyasining muxbir a‘zosi (1991), N.K. Krupskaya nomli Moskva viloyati pedagogika institutini tamomlagan. 1983–1985-yillar O‘zbekiston SSR Oliy Soveti raisi, qator yillar O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Vise Prezidenti, Toshkent davlat universiteti rektori vazifalarida faoliyat ko‘rsatgan. Akademik Erkin Yusupov O‘zbekistonda falsafa fani rivojiga katta hissa qo‘shgan taniqli olim, katta davlat va jamoat hamda fan arbobi bo‘lgan, falsafa, madaniyat nazariyasi sohasida 500 dan ortiq ilmiy, o‘quv-metodik kitoblar, monografiyalar, maqolalar chop etgan va ko‘plab olimlar yetishtirgan.

Valiyev Abdulxay Qosimovich (7.01.1929–7.11.2002). Taniqli faylasuf olim, falsafa fanlari doktori (1967), professor (1969), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1981), Beruniy nomidagi Davlat mukofoti sovrindori (1992), O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (2000).

Abdulxay Qosimovich Valiyev 1929-yili Toshkent shahrida ko‘p bolali xizmatchilar oilasida tavallud topgan, 1952-yili O‘rta Osiyo

davlat universiteti (hozirgi O‘zMU) huquqshunoslik fakultetini bitirgan, 1956-yilda tarix bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini, 1967- yilda falsafa bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan, 1969-yili professor ilmiy unvoniga va 2000-yili Akademik darajasiga ega bo‘lgan.

Olimning ilmiy tadqiqot yo‘nalishi ijtimoiy falsafa sohasiga tegishli bo‘lib, jamiyatda ziyolilarning roli, ularning mavqeini oshirish masalalariga bag‘ishlangan.

Xayrullayev Muzaffar Muxitdinovich (1931–2004). Taniqli faylasuf olim, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, falsafa fanlari doktori, professor.

M.Xayrullayev sharq falsafasi, xususan Forobiyning ilmiy falsafiy qarashlari bo‘yicha yirik tadqiqot olib borgan, o‘zining ilmiy asarlari bilan butun dunyoga Forobiyshunos olim sifatida tanilgan, ko‘p yillar Falsafa va huquq instituti, Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti direktori lavozimlarida faoliyat yuritgan, ko‘plab shogirdlar etishtirgan.

Shermuhamedov Said (1930–2016). O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, Beruniy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti sovrindori, O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining a‘zosi, O‘zbekiston Falsafa jamiyatining prezidenti, falsafa fanlari doktori, professor.

Akademik Said Shermuhamedov O‘zbekistonda falsafa fani rivojiga, ilmiy-pedagogik kadrlar – fan nomzodlari va doktorlari tayyorlashga salmoqli hissa qo‘shdi, falsafada o‘ziga xos ilmiy maktabga, jumladan, ijtimoiy falsafa, madaniyat tarixi va nazariyasi bo‘yicha fundamental ilmiy maktablarga asos soldi.

Said Shermuhamedov 1930-yilning 12-mayida Buxoro viloyatining Qorako‘l tumanida tavallud topgan. Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetida o‘qidi, u 1959-yilda nomzodlik, 1973-yilda esa doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Ibrohim Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq institutida etika va estetika bo‘limi mudiri, ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, O‘zbekiston Respublikasi KP MK madaniyat bo‘limi mudiri, respublika Maorif vaziri, Qori Niyoziy nomidagi pedagogika ilmiy-tadqiqot institutida direktor lavozimlarida faoliyat ko‘rsatdi. U Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida 1985–2000-yillarda falsafa kafedrasining mudiri, 2000–2015-yillarda esa professor vazifasida ishladi.

Said Shermuhamedovning «Yangilanayotgan jamiyatga – yangi falsafa» (1993), «Biz qanday jamiyat qurmoqdamiz?» (1999), «Inson falsafasi» (2001), «Istiqlol quyoshi» (2002), «Mustaqil O‘zbekiston va falsafaning rivojlanishi» (2005), “Milliy g‘oya ijtimoiy taraqqiyotning qudratli kuchi” (2010), “Qalbim izhorlari” (2010), “Ehtirom” (2015) singari rus va o‘zbek tillarida nashr etilgan boshqa ko‘pgina asarlari jamiyatimizning tarixiy taraqqiyot yo‘lini bozor iqtisodiyoti sharoitida haqqoniy aks ettiradi.

Pulatov Xaydar Po‘latovich (1928–1994). Taniqli faylasuf olim, falsafa fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi. Ijtimoiy falsafa, madaniyat nazariyasi va axloq masalalari bo‘yicha yirik asarlar muallifi, yuksak jasorat sohibi bo‘lgan.

Baratov Mubin (1934-2005) O‘zbekiston fanlar akademiyasining akademigi, falsafa fanlari doktori, professor. Ko‘p yillar Falsafa va huquq instituti direktori, ToshDU qoshidagi Ijtimoiy fanlar o‘qituvchilarining malakasini oshirish instituti direktori lavozimlarida faoliyat yuritgan. Akademik M.Baratov sharq falsafasi tarixi bo‘yicha katta izlanishlar olib borgan, 300 dan ortiq ilmiy ishlari nashr etilgan, Hind falsafasi bo‘yicha ToshDU (O‘zMU) falsafa fakultetida maxsus kursdan qiziqarli darslar olib borgan.

Tursunmuxamedov Sattar Pozilxakovich (1929-yil Turkiston sh. – 2020-yil Toshkent sh.), O‘zbekiston fanlar akademiyasining akademigi, falsafa fanlari doktori, professor. Ko‘p yillar Toshkent xalq xo‘jaligi instituti falsafa kafedrasini mudiri, Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika instituti rektori, ToshDU qoshidagi ijtimoiy fan o‘qituvchilari malakasini oshirish instituti direktori vazifalarida faoliyat ko‘rsatgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi. Ilmiy ishlari ko‘proq ijtimoiy falsafa, siyosatshunoslik, jumladan jamiyatning ijtimoiy strukturasi, ijtimoiy qatlam, guruhlar masalalariga qaratilgan. Ustozimiz Sattar Pozilxakovich o‘ta madaniyatli, to‘g‘ri so‘z, mard inson edi.

Bazarbayev Jumanazar (1933–2020) Qoraqalpog‘iston fani-ning yirik namoyandasi, faylasuf olim, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, falsafa fanlari doktori, professor. Akademik J.Bazarbayev umrining oxirigacha ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug‘ullandi, Qoraqalpog‘iston respublikasi uchun

ko‘plab olimlar yetishtirdi, ijtimoiy falsafa, axloq, madaniyat nazariyasi sohasida ko‘plam ilmiy, o‘quv uslubiy asarlar chop etgan.

2.2. Antik davr falsafasi. Ilk va o‘rta asr G‘arb falsafasi rivojlanishining umumiy belgilari

Antik falsafani eramizdan avvalgi VII–VI asrlardagi yaratilgan Yunoniston va Rimdagi falsafiy ta‘limotlar jamlanmasi deyish mumkin. Ayniqsa uning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga qadimgi Yunonistonda hukm surgan qulay ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoit: siyosiy erkinlik, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi, shahar-davlat (polis)lardagi faol siyosiy va fuqarolik hayoti va boshqa omillar yordam bergan. Antik falsafa qadimiy madaniyatning barcha jihatlarini bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu boisdan qadimgi Yunoniston va Rimdagi buyuk madaniy yuksalish natijasi sifatida baholash mumkin. Filosofiya – (“filo” – sevaman, “sofiya”– donolik) atamasi birinchi marta Pifagor tomonidan qo‘llanilgan. Qadimgi falsafa _0 bu insoniyatning falsafiy ongi rivojlanishidagi yagona va noyob, ammo yakka hodisa emas. Qadimgi mifologiyaning san‘at va she‘riyatda qayta ishlanishi natijasida, shuningdek, falsafiy fikrni dunyo va inson haqidagi mifologik g‘oyalar asirligidan xalos qilish natijasida Sharq mamlakatlaridan Yunoniston shaharlariga ko‘chirilgan astronomik, matematik va boshqa bilimlarning asoslari tufayli shakllandi. Miloddan avvalgi asrlarda dastlabki falsafiy va kosmologik tizimlar vujudga keldi, unda afsona qarashlarning asosi emas, balki fikrni ifodalashning obrazli vositasi rolini o‘ynadi.

Qadimgi falsafa	Milloddan avvalgi VI asrdan milodiy VI asrgacha
O‘rta asrlar falsafasi	Miloddan avvalgi II asrdan – milodiy XIV asrgacha
Uyg‘onish davri falsafasi	XV–XVI asrlar
Yangi davr falsafasi	XVII–XIX asrlar
Eng yangi davr falsafasi	XX–XXI asrlar

2.4-chizma. G‘arb falsafiy taraqqiyoti davrlari

Qadimgi Yunonistonda dastlabki falsafiy ta'limotlar Milet shahrida yuzaga kelgan va rivojlangan. Shu vaqtning o'zida (er.ol. VI asr) Ioniya naturfalsafasi deb atalgan maktabning vakillari bo'lgan Fales, Anaksimandr va Anaksimenlar dunyoga butunlay boshqacha qarashni rivojlantirdilar. Ular birinchi bo'lib Koinotni uyg'un ravishda tuzilgan, o'z-o'zidan rivojlanuvchi va o'zi tomonidan boshqariladigan tizim sifatida tasvirlashga urindilar. Olam hech qanday xudolar va hech qanday odamlar tomonidan yaratilgan emas. U doimo mavjud bo'lishi lozim. Uni boshqarayotgan qonunlarni inson tushunib yetishi mumkin. Ularda hech qanday tushunib bo'lmaydigan, sirli narsa yo'q. Shunday qilib, dunyoni diniy-afsonaviy tushunish yo'lidan uni inson aqli vositasida tushunishga hal qiluvchi qadam qo'yildi. Fales (eramizdan avvalgi 624–547-yillarda yashagan) yunon fani va falsafasining asoschisi bo'lib, o'z davrining yetuk siyosiy arbobi, jo'g'rofi, faylasufi bo'lgan. Fales ta'limotiga ko'ra, tabiatdagi turli-tuman jism va hodisalar dastlabki ibtido — suvdan paydo bo'lgan va yana suvga aylanadi va bu moddiy birlik doimo o'zgarishda bo'ladi. Anaksimandr (Falesning shogirdi) eramizdan avvalgi VII asr oxiri va VI o'rtalarida yashab ijod etgan. U “Tabiat haqida” asarini yozgan, biroq asar bizgacha yetib kelmagan. Fales olamning asosiga suvni qo'ygan bo'lsa, Anaksimandr dunyo — cheksiz, gazzimon apeyrondan iborat, issiqlik va sovuqlik, quruqlik va namlik apeyrondan ajralib chiqib, moddaning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini ta'minlaydi, deb hisoblagan. Uning ta'limotini zamondoshi, shogirdi Anaksimen davom ettirdi. Anaksimen (eramizdan avvalgi 588–525-yillar) havo — olamning asosi, deb bilgan. Uningcha, havoning quyuslashishidan suv, yer, tosh kabi moddalar tashkil topgan, siyraklashishidan esa olov paydo bo'lgan.

Efeslik Geraklit (eramizdan avvalgi 520–460-yillar) – qadimgi yunon faylasufi, Ioniya maktabi vakili. U olovni olamning va mavjudotning kelib chiqishi deb hisoblagan, u ham ruh va ongdin (logos); u “o'lchovlar bilan yonadi va o'lchovlar bilan o'chadi”. Kondensatsiya natijasida hamma narsa olovdan paydo bo'ladi, kamdan-kam hollarda ular unga qaytadilar. U (“hamma narsa oqadi”, “bitta daryoga ikki marta kira olmaysiz”) bo'lib, doimiy o'zgarish g'oyasini bildirdi. Dunyoning birlamchi unsurini Geraklit olovda ko'rdi. Geraklitning falsafa tarixidagi ahamiyati shunda ediki, u

nafaqat naturfalsafaga asos soldi, balki qadimgi yunon qarama-qarshilik ta'limotining asoschisidir. Uning ijodida siyosiy qarashlar ham muhim o'rin olgan.¹⁵

Samoslik Pifagor (eramizdan avvalgi 580–500-yillar) Yunonistonning Samos orolida yashab o'tgan qadimgi yunon faylasufi, diniy va siyosiy arbob, pifagorizm asoschisi, matematik. U qadimgi Yunonistonda diniy-mafkuraviy falsafiy maktab, ya'ni pifagorchilikka asos solgan. Pifagor o'zining siyosiy qarashlari tufayli podsho Polikret bilan chiqisha olmagan va Samosni tark etib, janubiy Italiyaga ko'chib ketgan, o'sha yerda o'z uyushmasini tashkil etgan. Uningcha, dunyoni bilish jarayoni, avvalo, raqamlarni bilishdan boshlanishi kerak. Pifagorchilarning ta'limotiga ko'ra, olamning asosida modda ham, tabiat ham emas, balki ideallashtirilgan raqamlar yotadi; narsa va hodisalar aynan ana shu raqamlar mahsulidir. Pifagorchilar birinchi bo'lib, Yunonistonda tabiatdagi narsa va hodisalarni izohlashda miqdor kategoriyasini ilgari suradi. Pifagor izdoshlari matematik hisob-kitoblar bilan qiziqishar, sonlar va raqamlar birikmasini sirli ruhda talqin qilar edilar. Din va axloqni pifagorchilar jamiyatni tartibga solishning ajralmas qismi hisoblar edilar.

Eley falsafiy maktabi namoyandasi Ksenofan (eramizdan avvalgi VI–V asr) shoir va faylasuf bo'lgan. U Kichik Osiyoda dunyoga kelgan. Ilm olish maqsadida Yunonistonga, janubiy Italiyaga sayohat qilib, umrining so'nggi yillarini Eley shahrida o'tkazgan. Uning falsafiy ta'limotiga ko'ra, tabiat – o'zgarmas va harakatsizdir, “Hamma narsa erdan unib chiqadi va pirovardida yana yerga qaytadi”. Ksenofant ilgari surgan g'oyalar uning shogirdi Eley falsafiy maktabining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri, eramizdan avvalgi 504-yili tug'ilgan Parmenid tomonidan rivojlantirilgan. Eley falsafiy maktabining namoyandalaridan biri Parmenidning shogirdi va do'sti Zenon (490–430-yillar) o'z ustozining ta'limotini himoya qildi va uni rivojlantirdi.

Qadimgi Yunon madaniyatida sofistlar falsafasi katta o'rin tutadi. Sofistlar antropologiya (inson haqidagi fan) va gnoseologiya (bilish

¹⁵ Йўлдошев С., Усмонов М., Каримов Р. Қадимги ва ўрта аср Ғарбий Европа фалсафаси. – Т.: “Шарк”, 2003. – 10-бет.

to'g'risidagi fan) muammolari bilan shug'ullangan. Ularning ta'limoti Suqrot falsafasiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan.

Suqrot (Sokrat) (miloddan avvalgi 470–399-yy.) – qadimgi yunon faylasufi, dialektikaning yetakchi savollar berish orqali haqiqatni topish usuli asoschilaridan biri. Uning ta'limoti og'zaki tarzda tushuntirib berildi, asosiy manba uning shogirdlari Ksenofon va Platonning asarlari hisoblanadi. Keyingi davrlar uchun Suqrot donishmand idealining mujassamiga aylandi. U sofistlarga qarshi o'laroq, baribir haqiqat mavjud va u bahsda topilishi mumkin, degan fikrda edi. Suqrotning kuchi bahs yuritish sohasida u ishlab chiqqan usulda ediki, unda bir qator savollar berish yo'li bilan raqibini o'z nuqtayi nazarini noto'g'ri ekanligini tan olishgacha olib borib, so'ngra shu usulning o'zi bilan o'z qarashlarining adolatligini isbot qilar edi. Shu bilan birga Suqrotning ta'limoti oligarxlar (bir to'da puldorlarning siyosiy va iqtisodiy hukmronligi) uchun nazariy asos yaratdiki, pirovardida demos (xalq hokimiyati) bilan ixtilofga olib keldi. Bu narsa Suqrotni mahkum etilishi va o'limi bilan xotima topdi. U “yangi xudolarga sig'inish” va “yoshlarni buzish”da ayblanib, o'limga mahkum etildi.

Aflotun (Platon) (miloddan avvalgi 428 yoki 427 – miloddan avvalgi 348 yoki 347), qadimgi yunon faylasufi. Suqrotning shogirdi, Afinada “Akademiya” nomli maktabga asos solgan. G'oyalar (ular orasida eng yuqori narsa yaxshilik g'oyasi) – narsalarning abadiy va o'zgarmas tushunarli prototiplari, barcha o'tkinchi va o'zgaruvchan mavjudot; narsalar g'oyalarning o'xshashligi va aksidir. Idrok – bu anamnez – bu tan bilan bog'lanishidan oldin u o'ylagan g'oyalar haqida qalbning xotirasi. G'oyaga bo'lgan muhabbat (Eros) ma'naviy yuksalishga turtki beradi. Ideal davlat bu uchta mulkning iyerarxiyasi: hukmdor-donishmandlar, askarlar va amaldorlar, dehqonlar va hunarmandlar. Aflotun dialektikani jadal rivojlantirdi va neoplatonizm tomonidan rivojlanishning asosiy bosqichlari sxemasini bayon qildi. Aflotunning fikricha, demokratiyaning beboshligi tufayli polis halokat yoqasida turibdi, negaki, u tabiiy kelib chiqishi jihatidan boshqarishga qobiliyati yo'q odamlarni boshliq qilib, o'rnatilgan tartibni buzdi. Bundan chiqish yo'lini u polis xilidagi davlatlarga xos bo'lgan dastlabki asoslarni qayta tiklashda ko'rdi. Ular quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bo'ysunish tartibidagi tizimni tashkil etadilarki, unda uchta davlat tabaqasining faoliyat doirasi aniq ajratilgan:

hukmdor faylasuflar, harbiylar va yerga ishlov beruvchilar. Har kim o‘z ishi bilan shug‘ullanadi, davlat esa barcha ish tartibini belgilaydi va hammani nazorat qiladi. Aflotunning falsafiy-axloqiy qarashlari uning savol-javoblar tarzida yozilgan ko‘p sonli asarlarida berilganki, ulardagi bosh ishtirok etuvchi shaxs uning ustozu Suqrotidir. Aflotun aqidasicha, bizni o‘rab turgan voqey dunyo-haqiqiy g‘oyalar dunyosining faqat taxminiy in‘ikosidir. G‘oyalar va tushunchalar tabiiy ravishda bizning ongimizga xos bo‘lib, ulardan ajralmasdir. G‘oyalar, Aflotun fikricha, zamon va makondan tashqarida bo‘lib, ularni idrok etib bo‘lmaydi, ammo ularni aql mushohada qila oladi. Aql ikki dunyoni, ya‘ni u dunyo va voqey dunyoni bir-biri bilan bog‘laydi. Shuningdek, Aflotun o‘z asarlarida aks ettirmagan bilim sohalarini topish juda qiyin. U axloq, siyosat, bilim muammolari, san‘at, din va boshqa sohalar bilan shug‘ullandi.

Arastu (Aristotel) (miloddan avvalgi 384–322) – qadimgi yunon faylasufi. 335-yilda u litseyga yoki peripatetik maktabga asos solgan. Buyuk Aleksandrning o‘qituvchisi Aristotelning asarlari o‘sha paytdagi bilimlarning barcha sohalarini qamrab olgan. Mantiq fani asoschisi, sillogistikaning yaratuvchisi. “Birinchi falsafa” (keyinchalik metafizika deb nomlangan) borliqning asosiy tamoyillari: imkoniyat va amalga oshirish, shakl va materiya, samarali sabab va maqsad haqidagi ta’limotni o‘z ichiga oladi. U materializm va idealizm o‘rtasida tebrangan; g‘oyalar – bu narsalarning ajralmas ichki harakatlantiruvchi kuchlari. Harakat va o‘zgaruvchan mavjudot manbayi abadiy va ko‘chmas “aql”, nous (asosiy harakatlantiruvchi). Tabiatning bosqichlari: noorganik dunyo, o‘simlik, hayvon, odam. Aql odamni hayvondan ajratib turadi. Axloqning asosiy prinsipi – oqilona xatti-harakatlar, me‘yor (metropatiya). Inson ijtimoiy mavjudotdir. Davlatning eng yaxshi shakllari – monarxiya, aristokratiya, "siyosat" (mo‘tadil demokratiya), eng yomonlari – zulm, oligarxiya, oxlokratiya. San‘atning mohiyati taqlid (mimesis), fojining maqsadi ruhni “tozalash” (katarsis). O‘z ustozu Aflotundan farqli o‘laroq, Arastu fikricha, moddiy olam birlamchi bo‘lib, g‘oyalar dunyosi ikkilamchidir. Bir hodisaning ikki tomoni sifatida shakl va mazmuni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Tabiat haqidagi ta’limot uning risolalarida avvalo harakat haqidagi ta’limot sifatida namoyon bo‘ladiki, bu Arastu tizimining eng qiziq va kuchli tomonidir. U dialektikaning yirik vakili hisoblanadi.

Dialektika uning uchun ehtimoliy va haqiqatga o‘xshash bilimlardan haqiqiy va ishonchli bilimlar olish usuli edi. Polisning mavjud turlarini diqqat bilan ko‘rib chiqqan faylasuf boshqarishning to‘g‘ri uch shakli (saltanat, monarxiya, aristokratiya va politiya) va uch noto‘g‘ri (tiraniya, oligarxiya va demokratiya) shaklini topadi. Ularning har birining xususiyatlarini mufassal ko‘rsatadi va baholash mezonini sifatida ularning farovonlikka qanchalik yaqin turgan yoki turmaganliklarini belgilaydi. Arastu shogirdlari orasida shuhrat topgan juda ko‘p faylasuflar, fiziklar, matematiklar va biologlar bor edi.

Demokrit (miloddan avvalgi 470 yoki 460 yillarda – o‘ta qariganda vafot etgan) qadimgi yunon faylasufi, qadimgi atomizm asoschilaridan biri bo‘lgan. Abderlik (Frakiya). Demokritning fikriga ko‘ra, faqat atomlar va bo‘shliq mavjud. Atomlar – ajralmas moddiy elementlar (geometrik jismlar, “figuralar”), abadiy, buzilmas, o‘tib bo‘lmaydigan, shakli, mavqei, bo‘shlig‘i, kattaligi bilan farq qiladi; turli yo‘nalishlarda harakatlanish, ularning “girdobidan” ham individual tanalar, ham behisob olamlar shakllanadi; odamlar uchun ko‘rinmas; ulardan chiqadigan oqimlar, hislar ta’sirida bo‘lib, hissiyotlarni keltirib chiqaradi. Axloqshunoslikda u ataraksiya haqidagi ta’limotni ishlab chiqdi.

Epikur (341–270-yillar) — qadimgi yunon mutafakkiri. Demokrit ilgari surgan atomchilik ta’limotini yanada takomillashtirib, uni yuqori pog‘onaga ko‘targan va tegishli qarashlar bilan boyitgan faylasuf. Epikur ta’limoticha, olam — moddiy, abadiy va cheksiz. Atomlar — bo‘linmas, olam – jism va bo‘shliqdan iborat, deb yozgan edi u. Epikur ichki harakat qonuniyatini kashf etib, Demokrit ilgari surgan atomchilik ta’limotiga ulkan hissa qo‘shgan. Epikurning falsafiy-axloqiy ta’limoti o‘z zamonasida ilg‘or ahamiyatga ega bo‘lgan. Rohat-farog‘at, xursandchilik deganda, kayf-safo, maishat, shohona hayotni emas, balki jismoniy ezilish hamda ruhiy tashvishlardan xalos bo‘lishni, ozodlikni tushunamiz, deydi Epikur. Uning fikricha, davlat kishilarining o‘zaro kelishuvi asosida tuzilishi lozim. Epikur ilgari surgan ijtimoiy kelishuv g‘oyasi keyinchalik XVIII asr fransuz ma’rifat-parvarlari hamda XX asr faylasuflari tomonidan davom ettirilgan.

Epikur ta’limotini rimlik Lukretsiy Kar (eramizdan avvalgi 99–55 yillar) davom ettirgan. U “Narsalarning tabiati to‘g‘risida” nomli asari bilan mashhur bo‘lgan. Yashashdan maqsad, deb yozgan Lukretsiy,

baxtli hayot kechirishdan iboratdir. Jamiyat ham, xuddi tabiat singari, o‘z qonunlariga ega hamda tabiat qonuniyatlariga tayangan holda rivoj topadi, deydi u. Uning falsafiy qarashlari o‘z davri va o‘rta asr falsafasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.¹⁶

Yevropa tarixidagi o‘rta asrlar davri deyarli butun ming yillikni o‘z ichiga oladi. Rim imperiyasining qulashi natijasida Evropa davlatlarining shakllanishi (5-asr, dastlabki o‘rta asrlar) xristian dogmalarining, o‘rta asrlar (11-asrdan) – xristian dunyoqarashini o‘zining mafkuraviy poydevori sifatida ishlatgan feodalizmning shakllanishi va o‘rnatilishi bilan tavsiflanadi. O‘rta asr falsafasining ahamiyati shundaki, u bilim nazariyasini yanada rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan, ratsional, empirik va apriori nisbati uchun turli xil variantlarni ishlab chiqqan va aniqlab bergan. Kelajakda bu nisbat nafaqat sxolastik nizolarning mavzusi, balki ilmiy bilim tamoyillarini shakllantirish uchun ham asos bo‘ladi.

O‘rta asrlarning falsafiy tizimlarining aksariyati xristian dinining asosiy tamoyillari tomonidan belgilab qo‘yilgan ochiq-oydin idealistik yo‘nalishga ega edi. Ushbu dogmalar orasida eng muhimi, qadimgi atomistik ta’limotlarni qat’iyan rad etgan yagona yaratuvchi xudoning shaxsiy shakli haqidagi dogma, shuningdek, Xudo tomonidan dunyoni “yo‘qdan” yaratishi haqidagi dogma (kreatsionizm deb ataladi). Ushbu dogma nafaqat yaratuvchi xudoning ideal dunyosi va yer yuzidagi hayotning moddiy dunyosi, moddiy dunyoning mutlaqo oliy shaxsiyatning ideal irodasiga bog‘liqligi o‘rtasidagi qat’iy va o‘tib bo‘lmaydigan chegarani o‘rnatibgina qolmay, balki dunyoni o‘z vaqtida cheklab qo‘ydi (dunyoning boshi va oxiri deb ataladi). Ushbu davr falsafasining xususiyatlari nominalizm va realizm, apologetika, patristika va sxolastikada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ideal va material o‘rtasidagi eng keskin kelishmovchilik realistlar va nominalistlar o‘rtasidagi keskin tortishuvda namoyon bo‘ldi. Umuminsoniy deb ataladigan (lotincha umumiy) tabiati haqida, ya’ni umumiy yoki umumiy tushunchalarning tabiati haqida edi. Realistlar (Jon Skott Eriugena, Anselm Kenterberskiy, Foma Akvinskiy) Aristotelning pozitsiyasiga asoslanib, umumiylik uning shaxs bilan ajralmas aloqasida mavjud bo‘lib, uning shakli bo‘lib, mavjudlikning uchta

¹⁶ Nazarov Q. Falsafa.– T.: “Sharq”, 2005. 62-bet.

usuli konsepsiyasini shakllantirgan; universal. Nominalistlar (Ioann Rosselin, Per Abelyar) universallarning faqat fikrlashda mavjudligiga amin bo‘lib, umumiylikning obyektiv mavjudligini inkor etish g‘oyasini mantiqiy xulosaga keltirdilar. Nominalistlar nafaqat ma’lum bir narsada umumiy bo‘lgan narsaning mavjudligini, balki uning “narsadan oldin” mavjudligini ham inkor etdilar va bu materiyaning ustuvorligi tezisiga teng edi.

Bu davr falsafasida gnostiklar o‘z o‘rniga ega bo‘lgan eramizning 150-yillarida o‘zining yuksak ravnaqiga erishadi. Ular shunday falsafiy ta’limot yaratdilar, ularning fikricha Xudo ruh sifatida yovuzlikda mutlaqo sof, inson esa o‘z tabiatining ruhiy jihati bilan xudoga moslashgan. Bu masalada gnostisizm faylasuflari xristianlikni yunon falsafasi bilan birlashtirishga harakat qildilar. Agar bu urinishda gnostisizm g‘alaba qilsa, xristianlik qadimgi dunyoning navbatdagi falsafiy dini bo‘lib qolar edi va shunday bo‘ldi ham. 354-yilda Pompey sobori xristianlikni Rim imperiyasining asosiy dini deb e’lon qildi.

Dualizm – gnostisizmning asosiy yo‘nalishi, bu oqim tarafdorlari moddiy va ruhiy dunyo o‘rtasida mustahkam chegara mavjud deb ta’kidlaydilar. Ular ta’limotida materiya hamma vaqt yovuzlik timsolidir. Bundan ular xudo hech mahal moddiy dunyoni yaratishi mumkin emas, deb hisoblaydilar. Gnostiklar tomonidan e’lon qilingan darveshlik (asketizm) o‘rta asrlarda monaxchilikning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Apologetlar (yunoncha apologeomai – himoya qilish), 1) xristianlik tamoyillarini nasroniy bo‘lmagan faylasuflarning tanqididan himoya qilgan, asosan, 2–3-asrlarda nasroniy yozuvchilarining umumiy nomi. Apologlar orasida Yustinian, Tatian, Klimentiy Aleksandriyskiy, Origen, Tertullian bor; 2) Majoziy ma’noda apolog har qanday g‘oya, yo‘nalish, ijtimoiy tuzilmaning ashaddiy tarafdori.

Apologetika orqasidan xristian mafkurachilarining asarlari bo‘lgan patristika paydo bo‘ldiki, uning mualliflari bid’atchilarga qarshi kurashga katta hissa qo‘shganliklari uchun avliyolik darajasiga ko‘tarildilar va cherkov otalari deb ataldilar. “Cherkov otalari”ning eng mashhuri Avreliy Avgustin (354–430) edi. Avgustin falsafasining markazida Xudo turadi. Xudo oliy mohiyat bo‘lib, eng oliy ezgulikdir. Inson esa o‘zida tabiatning moddiy jismlarini – o‘simliklar va hayvonlarni birlashtiradi va aqliy ruh, hamda ozod irodaga egadir. Ruh

xudoga yaqin bo‘lib, moddiy emas, zavol topmaydi va o‘z qarorlarida ozoddir. Ma‘naviy hayotning asosi irodadir, ammo aql emas. Hayotning maqsadi va mazmuni baxt-saodatdadirki, unga Xudoni bilish bilan erishib bo‘ladi.¹⁷

Uyg‘onish dastlabki burjua inqiloblarining g‘oyaviy va madaniy rivojlanishining asl qadriyatga ega bo‘lgan tarixiy jarayoni sifatida ta’riflanadi. Yevropa mamlakatlarida XII–XIII asrlardayoq sanoat, savdo-sotiq, dengizda yurish rivoji va harbiy ishning o‘sishi kuzatiladi. O‘rta asrlarning ilohiyotchiligi bilan kurashda birinchi o‘ringa insonparvarlik va inson maqomini ulug‘lash (antroposentrizm) qo‘yildi. Yerdagi dunyoviy ishlarga nafrat bilan qarash o‘rniga insonning ijodiy qobiliyati, aqli, baxt-saodatga intilishini tan olish qo‘yiladi. Insonparvarlik g‘oyalarini amalga oshirish o‘tmishdagi yutuqlarni o‘zlashtirishni taqozo etar edi, shuning uchun qadimgi davr falsafiy boyligini egallashga intilish boshlandi. Uyg‘onish bu eng avvalo qadimgi davrda yaratilgan asarlarni ozodona anglash bo‘lib, tayyor va o‘zgarmaydigan haqiqatlardan yuz o‘girishdir. Aqlni sxolastikadan xalos etish boshlandi va faqat mantiqiy muammolardan ko‘ra dunyo va insonni tabiiy-ilmiy tushunishga o‘girilindi. Gumanistik ideallarni ro‘yobga chiqarish o‘tmishdagi yutuqlarning rivojlanishini nazarda tutgan, shuning uchun qadimiy madaniy merosga, qadimiy falsafa boyliklarini egallashga bo‘lgan qiziqish uyg‘onadi. Demak, Nikola Kuzanskiy (1401–1464) ta’limotlarida inson bilimining kuchi ta’kidlangan; insonning o‘zi, uning aqlining ijodiy faoliyati (“odam uning aqli”) orqali, xuddi go‘yo xudoga o‘xshatilgan. N. Kopernikning (1473–1543) “Osmon sferalarining aylanishi to‘g‘risida” asari astronomiyada inqilob qildi, chunki u geliosentrizm tizimini tasdiqladi. Uning ta’limoticha, insonlar tomonidan kuzatiladigan quyosh va yulduzlarning harakatlari aslida Yerning o‘z o‘qi atrofida kundalik aylanishidan va quyosh atrofida yillik aylanishidan iborat. Bizning planetamizning markazi yer emas, quyoshdir. Kopernikning buyuk kashfiyoti dunyoga teologik qarashga zarba berib, tabiatshunoslikda to‘ntarish yasadi. Bu kashfiyot Bibliyaning dunyo tuzilishi haqidagi va o‘zgarmas deb tanilgan ta’limotiga zarba berdi. Agar yer olamning markazi emas, balki

¹⁷ Nazarov Q. G‘arb falsafasi.– T.: “Sharq”, 2004. 211-bet.

Quyosh atrofida aylanuvchi planetalarning biri bo'lsa, unda dunyoni, koinotni maqsadga muvofiq xudo tomonidan odamlar uchun yaratilganligi haqidagi ta'limot asossiz bo'lib qolardi.

Uyg'onish davrining eng yirik vakili Djordano Bruno (1548–1600) edi. Qarama-qarshiliklarning bir-biriga o'xshashligi haqidagi dialektik g'oyani ta'kidlagan holda, Bruno falsafiy bilimlarning maqsadi Xudo emas, balki tabiat deb hisoblab, shu bilan birga koinotda tabiatning va dunyolarning cheksizligi haqidagi taxminlarni ifodalab berdi.¹⁸

Klassik mexanikaning tamal toshini qo'ygan, tajribaviy-nazariy tabiatshunoslikning asoschilaridan biri G.Galiley (1564–1642) edi. Uning fikricha, bilish sohasida ikki usuldan, ya'ni tahlil (analiz) va sintezdan foydalanib, tabiat hodisalarini hissiy qabul qilishdan ularni nazariy tushunishgacha borib yetmoq lozim. Shu tarzda haqiqiy bilim tahliliy va sintetik, hissiy va abstraktlik birligida yagonaligida o'z ifodasini topmog'i lozim.

Uyg'onish davrida universitetlar ilm-fanning shakllanishi va mustahkamlanishiga, tabiiy va gumanitar fanlarning rivojlanishiga kuchli turtki berdi, shuningdek, yangi davr eksperimental tabiatshunosligining asoslari yaratildi. Bu davr falsafasi falsafaning yangi usullari, vositalari va mazmunini izlashni belgilab berdi.

2.3. Yangi va eng yangi davr falsafasining asosiy yo'nalishlari

Falsafiy tafakkurning yangi usulini yangi zamon falsafasi sifatida ifodalash mumkin. Yangi davr Angliya falsafasi asoschisi F.Bekon (1551–1626) edi. Uning fikricha, falsafa avvalo amaliy xususiyatga ega bo'lmog'i lozim: agar u sxolastikachiligida qolsa, u haqiqiy bo'la olmaydi. Shuning uchun ham yangi fan bo'lgan tabiatshunoslikning tajribaviy usulini ishlab chiqish Bekongagina nasib etdiki, u unda insonning tabiat ustidan kelajakdagi kuch-qudrati va hokimiyatining garovini ko'rdi. Ammo bunday hokimiyatga faqat uning qonunlari ketidan boribgina erishish mumkin. Fanlarning xulosalari aniq dalillarga tayanishi va undan keng umumlashmalarga ko'tarilishi lozim. Tajribaga asoslangan bilimlarga Bekon tomonidan ishlab

¹⁸ Nazarov Q. G'arb falsafasi.– T.: "Sharq", 2004. 307-bet.

chiqilgan va qo‘llanishga tavsiya etilgan induksiya, ya’ni kuzatish, tahlil qilish, solishtirish va tajriba o‘tkazishdan tarkib topgan usul muvofiq kelar edi.¹⁹

Taxminan XVI asrning oxiri – XVII asrning birinchi yarmida iqtisodiy rivojlanishning markazi asta-sekin Angliya, Niderlandiya va, qisman, Fransiyaga o‘ta boshladi. Eng ko‘p darajada ishlab chiqilgan fanlar matematika va mexanika bo‘lib qoldi. Mutafakkirlar aynan mexanikani butun dunyoviy borliq sirlarini ochib beradigan kalit deb tushundilar. Nyutonning kashfiyotlari dunyoni o‘rab turgan hodisalarning mexanik sababiy bog‘lanishda ekanligi haqidagi tasavvurlarni mustahkamladi. Nyuton qarashlarida mexanik sababiyat chuqur matematik asoslarga ega ekanligini topdi. Shu bilan birga, mexanika harakatni qabul qilsa ham, taraqqiyotni rad etadi, shuning uchun ham o‘sha davr olim va faylasuflarining fikrlash tarzi ko‘proq metafizik edi. Yangi paydo bo‘lgan falsafiy fikrlash uslubini zamonaviy davrning falsafiy tafakkuri deya ta’riflash mumkin. Aynan mexanika orqali mutafakkirlar butun koinot sirlarini ochish uchun kalit topishga harakat qilishdi.

Ingliz falsafiy tafakkurining yirik vakillaridan biri Tomas Gobbs (1588–1679) dir. “Birinchii falsafa” haqidagi o‘z mulohazalarida Gobbs shuni ta’kidladiki, “jismlilik” (ya’ni modda) abadiydir, garchi ayrim jismlar vaqtinchalik bo‘lsa ham. Gobbs falsafiy ta’limotining mexanistik ekanligi yana shu bilan ifodalanadiki, u o‘zining talqinida harakatni ikki jismning to‘qnashuvi natijasi sifatida ko‘rsatib, uni ilohiy birinchi turtki nazariyasiga (deizm) havola qildi. Gobbsning ta’kidlashicha, barcha bilimlarga his-tuyg‘u yordamida erishib bo‘ladi, shu bilan birgalikda u o‘zining bilish nazariyasida aqlning muhim ahamiyatini, ayniqsa uning matematik amallarini ko‘rsatib o‘tdi.

Agar F.Bekon Yangi zamonning xususiyati sifatida tabiatni o‘rganishning tajribaga asoslangan tajribaviy usulini ishlab chiqishni boshlab berganligi bilan, Gobbs esa tajribaga asoslanganlikni chuqurlashtirganligi bilan belgilab bergan bo‘lsa, fransuz olimi va faylasufi Rene Dekart (1596–1650) aksincha, tajribaga aql bergan ma’lumotlarning oddiy amaliy tekshirish o‘rnini ajratib, afzallikni aqlga qaratdi.

¹⁹ Nazarov Q. G‘arb falsafasi.– T.: “Sharq”, 2004. 343-bet.

Yangi zamon ratsionalizmining asoschisi bo‘lgan Dekart barcha fanlar uchun umumiy bo‘lgan usulni ishlab chiqish vazifasini qo‘ydiki, u ko‘p hollarda bilimlar natijasini belgilab beruvchi inson aqlida borligi taxmin qilingan “tug‘ma g‘oyalar” yoki aksiomalar deb atalgan narsalarni taqozo etar edi. Tug‘ma aksiomalar qatoriga u matematika va mantiqning ko‘pchilik qoidalarini qo‘ydi, masalan, “to‘g‘ri to‘rt burchak to‘rt dan ko‘proq tomonlarga ega emas”.

Dekart ratsionalizmi juda ko‘plab o‘z davomchilariga ega bo‘ldiki, ular ichida eng yirigi niderlandiyalik faylasuf Benedikt Spinoza (1632-1667) edi. Alohida olingan maxsus javhar (substansiya) sifatidagi fikr haqidagi tasavvurni rad etib, Spinoza Xudoni yagona cheksiz javharga qo‘shdi, ya’ni g‘oyaviylik va moddiylikni birlashtirdi. Ushbu javhar o‘z-o‘zining sababi bo‘lib, hech qanday boshqa sabablarga muhtoj emas. Shaxs sifatida mutlaq mahrum bo‘lgan Spinoza talqinidagi Xudo tabiatga ayniyatdadir. Yagona javhar bo‘lgan Xudo tabiat ikki sifatga – uzunlik (masofa) va ongga ega. Garchi turli darajada bo‘lsa ham, fikrlash qo‘bilyati eng oddiy ashyolardan tortib inson miyasigacha tarqalgandir. Fikr Spinoza tomonidan tabiatni o‘z-o‘zini idrok etishi sifatida talqin qilinadi. Bundan muhim xulosa kelib chiqadi: g‘oyalarning tartib va aloqasi, ashyolarning tartib va aloqasi kabidir. Fikrning yetukligi uning tabiat qonunlari bilan muvofiqligi me’yori bilan ifodalanadi va aynan shunga o‘xshash bilib olingan bilimlarning shakllari va dunyoning qonunlari fikrning haqiqiy qoidalaridir. Narsani bilish uning yakkaligi vositasida umumiylik unsurini ko‘ra bilish, ayrimlik ko‘rinish – modusdan substansiya tomon borish demakdir.

Djon Lokk ingliz falsafasida hissiy bilish (empirizm)ning vakilidir. U “tug‘ma g‘oyalar” mavjudligini rad etib, bizning barcha bilimlarimizni biz tajriba va hissiy bilishdan olishligimizni ta’kidlaydi. Inson “sof lavha” sifatida tug‘iladiki, unga hayot o‘zining “yozuvlari”ni, ya’ni bilimlarni yozadi. Dekart ratsionalizmiga qarama-qarshi ravishda, Lokk bilishning birdan bir manbayi hisdir (sensualizm) degan ta’limotni asosladiki, u bilimlarning barcha mazmunini his-tuyg‘u a’zolaridan keltirib chiqarib, uni hissiy bilishning unsurlarining jami hisoblar edi. “Ilgari his-tuyg‘uda bo‘lmagan hech narsa, aqlda ham bo‘lmaydi”, – deb ta’kidlagan edi Lokk.

Lokk qarashlarining muhim jihati uning birlamchi va ikkilamchi sifatlar haqidagi nazariyasidir. Birlamchilar kabi, ikkilamchi sifatlar ham tashqi tajriba asosida qo‘lga kiritilgan g‘oyalarga taalluqlidir. Birlamchi sifatlar bu maʼkon, miqdor (massa), harakat va hokazolardir. Ularni u obyektiv ravishda mavjud deb hisoblaydi. Ikkilamchi sifatning kelib chiqishi his-tuyg‘u a‘zolarining xususiyati bilan bog‘liqdir. Ularga Lokk is, ta‘m, rang va boshqalarni taalluqli deb biladi. Bu xususiyatlar faqat subyektiv ravishdagina mavjuddirlar. Lokk belgilarning umumiy nazariyasi sifatida semiotika tushunchasini ilmiy istilohga kiritdi.

Leybnis (1646–1716) falsafiy tizimining o‘zagi yagonalik haqidagi ta‘limot – monadologiyadir. Dunyo monadalardan yoki ruhiy unsurlarning zarrachalaridan tashkil topgandir. Monadalar faollikga ega bo‘lib, mustaqildirlar, ular uzluksiz ravishda o‘zgarishda bo‘lib, azob-uqubat chekishga, idrok etishga va onga qodirdirlar. Leybnis sezilarli darajada mantiq rivojiga o‘z hissasini qo‘shib, uning tuzilishi va daliliy qonunlarini ochib berib, uning ramzini ishlab chiqdi. U hozirgi zamon simvolik va matematik mantiqning asoschilaridan biridir.

Djordj Berkli (1658–1753) subyektiv idealizmning yirik vakillaridan biri edi. Berkliga Lokkning birlamchi va ikkilamchi sifatlar haqidagi g‘oyalari ta‘sir o‘tkazgan edi. Ammo Berkli, Lokkdan farqli o‘laroq, barcha sifatarni ikkilamchi (ya‘ni subyektiv) hisoblaydi. Og‘irlik va barcha maʼkoniy xususiyatlar va aloqalar bizning hissiy a‘zolarimizning qobiliyatlari bilan ifoda qilinadilar.

Ingliz faylasufi, ruhshunosi, tarixchisi va iqtisodchisi David Yum (1711–1776) Berklining zamondoshi edi. Tashqi dunyo mavjudmi, degan savolga, Yum ikkilanibroq “bilmayman” deb javob berar edi. Axir bizning aqlimiz, ular keltirib chiqargan narsalar bilan emas, balki bizning his-tuyg‘ularimizning mazmuni bilangina ish yuritadi. Yumning nuqtayi nazaricha, to‘g‘ri bilim faqat mantiqiy bo‘lishi mumkin, ammo o‘rganilayotgan mavzular dalillarga tayanganligi tufayli va mantiqiy isbot qilish mumkin bo‘lmaganligi sababli tajribadan keltirib chiqariladi. Tajribani o‘zini Yum «taassurotlar» oqimi sifatida ifodalab, uning sabablari ma‘lum emasligi va bilib bo‘lmashligini qayd etadi. Tajribani mantiqiy asoslab bo‘lmashligi omili shuning dalilidirki, tajribaviy bilim ishonchli bo‘la olmaydi. Masalan,

tajribada biz biror voqea haqida avval bir taassurotga, keyin esa boshqasiga ega bo‘lamiz. Ammo ikki hodisaning birin-ketin kelishini mantiqiy jihatdan isbot qilib bo‘lmaydi, negaki, birinchi hodisa ikkinchining sababi bo‘lishi mumkin, ikkinchi esa – birinchining oqibati bo‘la oladi. Ushbu dalildan kelib chiqib Yum sababiyatning obyektiv xususiyatini bilish mumkin emasligi haqida xulosa chiqaradi.

Empirizm (yunoncha empiria – tajriba) bilimlar nazariyasining tendensiyasi, sensorli tajribani ishonchli bilimlarning yagona manbayi sifatida tan oladi. Ratsionalizmga qarshi chiqadi. Empirizm tajribani absolutizatsiya qilish, hissiy bilish, ratsional idrok (tushunchalar, nazariya) rolini pasaytirish bilan tavsiflanadi. Ajralmas epistemologik tushuncha sifatida empirizm 17–18-asrlarda shakllandi (F. Bekon, T. Gobbs, J. Lokk, J. Berkli, D. Yum).

Sensualizm (lotincha sensus idrok etish, his qilish) bilimlar nazariyasidagi yo‘nalish, unga ko‘ra hislar, in’ikoslar ishonchli bilimlarning asosi va asosiy shakli hisoblanadi. Ratsionalizmga qarshi chiqadi. Sensasionalizmning asosiy prinsipi – “ongda hissiyotlarda bo‘lmaydigan hech narsa yo‘q” - P. Gassendi, T. Gobbs, J. Lokk, C. Xelvetius, D. Didro, P. Golbax, shuningdek J. Berkli, D. Yum.

Mexanisizm – bu 17–18 asrlarda ilgari surilgan mafkuraviy prinsip, tabiat va jamiyat rivojini materiyaning harakat mexanik shakli qonunlari bilan izohlaydi. Mexanisizm manbayi – mexanika qonunlarini mutlaqlashtirish. Keng ma’nodan – murakkab, sifat jihatidan noyob harakat shaklini soddalashtirilgan shaklga kamaytirish (masalan, ijtimoiy-biologik).

Deizm (lot. Deus – Xudo) dinni va falsafiy ta’limot bo‘lib, Xudoni dunyo aqli deb tan oladi, u tabiatning maqsadga muvofiq “mashinasini” qurgan va unga qonunlar va harakatlarni bergan, ammo tabiatning o‘z-o‘zini harakatiga Xudoning keyingi aralashuvini rad etgan (ya’ni “provayderlik”). (Xudo, mo‘jizalar va boshqalar) va Xudoni tanib olishning boshqa sabablariga yo‘l qo‘ymaydi, faqat aqldan tashqari. U ma’rifatparvarlik mutafakkirlari orasida keng tarqaldi, 17–18-asrlarda erkin fikrlashning rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. Bu davrning yirik faylasuflari F. Bekon, T. Xobbs, R. Dekart, B. Spinoza edi. D. Lok, G. Leybnis, D. Xyum, Volter, J-J. Russo, Didro, Lametriy, Gelvetius, Golbax, I. Kant, IG Fixte, F. Shelling, Gegel.

XVIII asrda Fransiyada falsafiy taraqqiyot ma'rifatchilik panohida amalga oshirildi. Barcha ijodiy fikrlovchi fransuz faylasuflari amalda ma'rifatparvarlar edilar. Ularning mashhur vakillari orasida Volter, Russo, Didro, Lametri, Gelvetsiy va Golbax bor edi.

XVIII asrning oxiri XIX asrning boshida fransuz inqilobi voqealarining kuchli ta'siri ostida bo'lgan, iqtisodiy va siyosiy jihatdan qoloq Germaniyada shunday falsafa vujudga keldiki, uning shakllanishida tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlarning yutuqlari katta o'rin tutdi. Fizika va kimyo katta muvafaqiyatlarga erishdi, jonli tabiatni o'rganish olg'a qadam bosdi, matematika sohasida shunday kashfiyotlar qilindiki, ular juda ko'p jarayonlarni miqdoriy jihatdan aniq ifodalashga imkon berdi. Bundan tashqari, atrof-muhit tomonidan tana a'zolari rivojining bir-biri bilan sababiy aloqadorligi haqidagi Lamark ta'limoti katta qiziqish bilan kutib olindi. Eng yangi astronomik, geologik va embriologik nazariyalar ham katta qiziqish uyg'otdi. Bu barcha nazariyalar, hamda kishilik jamiyatining taraqqiyot nazariyasi muqarrar ravishda rivojlanish g'oyasini voqelikni bilishning nazariyasi va usuli sifatida ishlab chiqish zaruriyatini rag'batlantirar edi.

Nemis klassik falsafasi I.Kant, I. Fixte, F.Shelling, G.Xegel va L.Feyerbax kabi shaxslar nomi bilan bog'liqdir.

Nemis mumtoz idealizmining asoschisi Immanuel Kant (1724–1804) faqat buyuk faylasuf sifatidagina emas, balki keng qamrovli chuqur olim sifatida ham mashhurdir. Uning tomonidan ishlab chiqilgan quyosh sistemasining bahaybat gazsimon tumandan kelib chiqqanligi haqidagi ta'limot hozirgacha astronomiyada asosiy ilmiy g'oyalardan biri hisoblanadi. Kantning ilmiy tabiatshunoslik sohasidagi kashfiyoti uning zamondagi tabiatshunoslik qoidasini faqat Koinot tuzilishigagina emas, balki uning kelib chiqishi va rivojiga nisbatan ham qo'llashga birinchi urinish edi. Kantning xizmatlaridan yana biri uning hayvonlarni ehtimol tutilgan kelib chiqishining tartib bilan taqsimlanishi haqidagi g'oyasi va insonlarning irqiy jihatdan tabiiy kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyasi edi.

Kantning nuqtayi nazaricha, eng muhim falsafiy muammolarni yechishga kirishishdan oldin inson bilimining chegarasi va imkoniyatini tadqiq qilish lozim. Kant fikricha, biz dunyoni qanday bo'lsa, o'shanchalikda emas, balki bizga qanday namoyon bo'lishiga

qarab bilamiz. Bizning bilimimizga faqat ashyolar ko‘rinishi yoki fenomenlar yetib keladi. His-tuyg‘u a‘zolariga “narsa –o‘zida” ta’siri natijasida hissiy tartibsizlik vujudga keladi. Bu tartibsizlik bizning aqlimiz quvvati orqali birlik va tartibga solinadi. Biz nimaniki tabiat qonunlari hisoblasak, aslida hodisalar dunyosiga aql orqali kiritiladigan aloqadir, yoki boshqacha aytganda, bizning aqlimiz qonunlarni tabiatga buyruq qiladi. Ammo hodisalar dunyosiga inson ongidan mustaqil bo‘lgan ashyolar mohiyati bo‘lgan “narsa o‘zida” muvofiq keladi. Ularni mutlaq bilish mumkin emas. “Narsa o‘zida” bizlar uchun noumenlar, ya’ni aql bilan bilinadigan, ammo tajribada berilmaydigan mohiyatdir. Kant inson aqlining kuchiga cheksiz ishonishni aqidaparastlik deb atab, uni shubha ostiga olib baholaydi.

Nemis falsafasi Kantdan keyin I.G. Fixte (1762–1814) va F. Shelling (1775–1854) tomonidan ishlab chiqildi. Ular hodisalar va ashyolarning kantchasiga qarama-qarshi qo‘yilishini muayyan yagona qoida bo‘lgan – Fixtedagi mutlaq “Men” va Shellingdagi borliq bilan fikrdagi mutlaq ayniyat asosida dalillab, uni bartaraf qilishga harakat qildilar. Bundan tashqari, Shelling dialektika kategoriyalarini, jumladan ozodlik va zaruriyat, yagonalik va ko‘plikning ayniyati va boshqalarni sinchkovlik bilan tahlil qilib, Gegel dialektikasining xabarchisi sifatida xizmat qildi.

Nemis falsafasi o‘z rivojining cho‘qqisiga Vilgelm Fridrix Gegel (1770–1831) ijodida erishdi. Gegel dialektikaning qonunlari va kategoriyalari haqidagi ta’limotni rivojlantirib, birinchi marta dialektik mantiqning asosiy qoidalarini ishlab chiqdi va o‘sha davrdagi ta’limotlarda hukm surgan metafizik ong usulini tanqid ostiga oldi. Taraqqiyot g‘oyasi butun Gegel falsafasiga singdirilgan. Taraqqiyot oldinma-кетин, quyidan yuqoriga qarab boradi; bu jarayonda miqdor o‘zgarishlaridan sifat o‘zgarishlariga o‘tish yuz beradi, taraqqiyotning manbayi esa, har qanday o‘z-o‘zidan bo‘ladigan harakat prinsipidan iborat bo‘lgan qarama-qarshiliklardir. Gegel falsafasi ichki ziddiyatlarga ega. Bilish tizimi, bir qancha turdagi anglash bosqichlaridan o‘tib, oxirgi bosqich bo‘lgan o‘z-o‘zini anglashda tugallanadiki, uni amalga oshiruvchi narsa Gegel falsafasining o‘zi bo‘lib chiqadi. Shunday qilib, Gegel usuli va tizimi o‘rtasida qarama-qarshilik kelib chiqadi.

Lyudvig Feyerbax (1804–1872) moddiyunchilik nuqtayi nazari-dan Gegel falsafasini jiddiy va har tomonlama tanqid ostiga olgan birinchi faylasufdir. Falsafa mavzusini ifodalab, Feyerbax shunday qarorga keladiki, uning diqqat markazida inson turmog‘i lozim. Shundan ko‘rinadiki, Feyerbax moddiyunchiligi antropologik xususiyat kasb etadi. Insonni vujudga keltiradigan yagona sabab yoki asos tabiatdir. Shuning uchun, falsafaning vazifasiga qayta to‘xtab, Feyerbax yozadiki, uning ta‘limotini “ikki og‘iz so‘zda ifodalash mumkin: tabiat va inson”.

Umuman olganda, XIX asrdagi Yevropa falsafasi tafakkuri, aftidan murakkab mozaikaga qaramasdan, ma‘lum va izchil yo‘nalishlarga sodiq qolgan mutafakkirlarning g‘oyalari va qarashlaridan tashkil topgan yagona rasmni anglatadi.

Yigirmanchi asr falsafasini bir necha davrlarga bo‘lish mumkin:

1. Genetik jihatdan 19-asrning ikkinchi yarmining rivojlanishidan kelib chiqadigan, ammo instrumental va amaliy yo‘nalishga ega bo‘lgan, ilmiy bilimlarning samarali metodologiyasini yaratishga, dunyoni estetik tushunishga va ijtimoiy adolatni o‘rnatishga qaratilgan nazariyalar (10–40-yillar).

2. Ilgari antagonistik ta‘limotlarning yaqinlashuvidan kelib chiqqan, bilim va ijtimoiy taraqqiyotning birlashishi uchun yangi asoslarni izlayotgan nazariyalar (40–60-yillar).

3. Nazariyalar asosan eklektik, ammo bilim va ijtimoiy amaliyotning yangi dunyoqarash asoslarini izlashga qaratilgan (70–90-yillar).

Ushbu davrning buyuk faylasuflari orasida A.Shopengauer, M.Xaydegger, E. Gusserl, K.Yaspers, J.P.Sartr, A.Kamyu, Z.Freyd, F.Nisshe va boshqalar bor edi. Asosiy falsafiy yo‘nalishlar orasida ekzitsionalizm, freydizm, neotomizm, pragmatizm, germenevtika, empirio-tanqid, volyuntarizm, hayot falsafasi va boshqalar ajralib turadi. Keyinchalik pragmatizm g‘oyalari keng tarqalib, o‘z rivojini Uilyam Djems (1842–1910) va Djon Dyui (1859–1952) asarlarida topdi. U Djems Pirsning pragmatik qoidalarini rivojlantirib unga volyuntarizm nuqtayi nazaridan yondashganligi tufayli, uning oqibatida irodaga asoslangan haqiqat nazariyasi vujudga keldi. Ana shu iroda inson tajribasida markaziy o‘rinni egallaydi. Bizdan tashqarida bo‘lgan ashyolarni ham qo‘shib hisoblaganda bizning

tajribamizda bo‘lgan barcha narsa irodaga bog‘liqdir. Shunday qilib, dunyo to‘g‘risidagi bizning bilimlarimiz voqelikning in‘ikosi emas, balki irodaviy qurilmaning o‘zidir. “Haqiqiy” va “foydali” ifodalari Djems nazarida bir xil ma’noga egadirlar. O‘z navbatida, foydali narsa iroda orqali ifodalanadi. Djems fikricha, voqelikni biz qanday tasavvur etsak, shundayligicha namoyon bo‘ladi, ya’ni biz uni qanday ko‘rishni xohlasak, o‘shanday ko‘rinadi. Djemsning diniy e’tiqodining asosida ham iroda yotadi. Garchi faylasuf hech qayerda Xudoning mavjudligi haqida yozmagan bo‘lsa ham, uning fikricha, tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, Xudoga ishonishning kishilar uchun ulkan ahamiyati bor. Xudoga ishonish – bu bizning irodamizning omilidir.

Pirs va Djems g‘oyalarini rivojlantirib J.Dyui o‘z e’tiborini muammoviy vaziyat deb atalmish narsaga qaratdiki, u o‘zining taraqqiyot bosqichlarida shubhadan ishonchga (imon-e’tiqod) o‘tishi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Dyui nazarida tushunchalar, g‘oyalar va nazariyalar instrumentallik (“asbob va qurol”) xususiyatiga, ya’ni ularning haqiqiyliги qay darajada muammoviy vaziyatni hal qilishga qodirligi bilan ifoda qilinadi.

Neopozitivizm Yangi pozitivizm yoki mantiqiy empirizm – XX asr falsafasida eng ko‘zga ko‘ringan oqimlardan biridir. U pozitivizm rivojida uchinchi bosqichdir. Falsafiy oqim sifatida yangi pozitivizm Vena to‘garagi asosida 20–30-yillarda shakllandi. Yangi pozitivizmning asosiy vakillari – L.Vitgenshteyn (1889–1951), M. Shlik (1882–1936), R.Karnap (1891–1970), O.Neyrat (1882–1945), G.Reyxenbax (1891–1953), B.Rassel (1872-1970), A.Ayer (1910–1989) va boshqalar edilar. Yangi pozitivistcha ta’limotning parchalanishi umumiy nomda birlashgan “postpozitivizm” deb atalgan bir qator fan falsafasining prinsiplarini vujudga kelishiga olib keldi. Bu yo‘nalishning asoschisi “kritik ratsionalizm” ijodkori Karl Popper (1902–1988) edi. Postpozitivizmga I.Lakatos, T.Kun, S.Tulmin, D.Agassi, P.Feyerabend kabi yirik G‘arb fan faylasuflarining qarashlari taalluqlidir. Bu faylasuflarning asosiy vazifasi fan falsafasida pozitivistcha uslubdagi tafakkurni bartaraf etish edi.

Neotomizm – katolik falsafasining yetakchi yo‘nalishi bo‘lib, Vatikanning rasmiy ta’limoti sifatida tan olingan va o‘rta asr faylasufi Akvinalik Foma ta’limoti – tomizmning hozirgi zamondagi turidir. Tomizm asoslarini tiklashga qaratilgan birinchi urinishlar XIX asrning

o‘rtalariga taalluqli bo‘lsa, katolik cherkovining falsafiy ta‘limoti sifatidagi rasmiy maqomni u 1879-yilda papa Lev XIII ning “Aeterni Patris” nomli ensiklikida (farmoyishida) oldi. Yangi tomizmning eng mashhur vakillari Dezire Merse (1851–1978), Jak Marten (1882–1973), Eten Jilson (1884–1972) va boshqalar edi.

Ruhiy tahlil asoschisi mashhur avstriyalik ruhshunos va psixiatr Zigmund Freyd (1856–1939)dir. Keyinchalik psixoanaliz Freyd g‘oyalarini rivojlantirish bilan ham, uni qayta ko‘rib chiqib, boshqa ruhiy tahlilga doir qoidalarni vujudga keltirish bilan ifodalanadi. Psixoanaliz falsafasining XX asrdagi eng yirik vakillari Alfred Adler (1870–1937), Karl Gustav Yung (1875–1961), Erix Fromm (1900–1980) va boshqalar edilar.

Ekzistensializm yoki hayot falsafasi (lot. Exsistentia- hayot) XX asrning birinchi yarmida paydo bo‘ladi. Ekzistensializmning eng ko‘zga ko‘ringan vakillari Karl Yaspers (1883–1969), Martin Xaydegger (1889–1976), Jan-Pol Sartr (1905–1980), Alber Kamyu (1913–1960) edilar. Diniy (Yaspers) va ateistik (Xaydegger, Sartr, Kamyu) ekzistensializmni bir-biridan farq qiladilar.

Ekzistensializmning asosiy mavzulari – inson, hozirgi dunyodagi uning taqdiri, tanglik yuz bergan vaziyatlardagi hatti-harakati, e‘tiqod, ozodlik, hayotning ma‘nosi kabi muammolar edi. Ekzistensializmning kelib chiqish shiori shunday edi: mavjudlik mohiyatdan oldin keladi.

“Germenevtika” atamasi sharhlash, talqin qilish va tushuntirish san‘ati sifatida qadimgi dunyo madaniyatiga borib taqaladi. Qadimgi Yunon afsonasida xudolardan xabar keltiruvchi Germes, kishilarga xudolarning buyruqlarini tushuntirib berar va odamlarning xohish, irodalari va iltijolarini Olimpga yetkazar edi. Germenevtikani nazariya sifatida shakllantirish F.Shleyermaxer (1768–1834) va V.Diltey (1833–1911) asarlarida o‘z yakunini topdi.

XX asrdagi falsafiy germenevtikaning eng yirik vakili va asoschisi Xans Georg Gadamerdir. M. Xaydegger izidan borib Gadamer tushunchani insonni bilish faoliyatining tomonlaridan biri deb emas, balki uning borlig‘ining vositasi deb biladiki, bu bilan germenevtika muammosini uslubiy va bilish nazariyasi sohasidan borliq haqidagi masalaga o‘tkazadi.

XX asrning 20-yillaridan boshlab, ijtimoiy-gumanitar fanlarda strukturalizm deb umumiy nom olgan harakat boshlanadi. Uning asosida yotgan strukturali uslub dastavval tilshunoslikda (lingvistikadagi Praga, Kopengagen va Yel strukturalistik maktablari) ishlab chiqilgan boʻlib, keyinchalik ijtimoiy-gumanitar bilimlarning boshqa sohalarida (adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik, ruhshunoslik, jamiyatshunoslik, ogʻzaki ijod (folkloristika), estetika, irqshunoslik (etnologiya) va boshqalarda) yoyildi. Strukturalizm Fransiyada eng koʻp darajada yorqin namoyon boʻldi. Uning asosiy vakillari K.Levi-Stross, M.Fuko, J.Lakan, R.Bart va boshqalar edilar.

Ongsizlik holati ham strukturalarni aniqlash obykti sifatida strukturachilar ijodida ahamiyatli oʻrin tutadi. Levi-Stross asotir tafakkurni biz hayotda rioya etadigan koʻplab qoida va meʼyorlarni tushunish kalitini beradigan jamoaviy ongsiz holat sifatida qarab chiqadi. Uni ongsizlik holati tahlilini hisobga olmagan, faqat ong tahlili uslubigagina qurilgan etnologiya qoniqtirmaydi. Ongsizlik holati J.Lakaning “strukturali ruhiy tahlili”da ham tadqiqot mavzusi boʻldi. 60- yillarning oxirlaridan strukturalizm oʻz joyini poststrukturalizmga boʻshatib beradi.

XX–XXI asrlar falsafasi turli davrlardagi falsafiy yoʻnalishlarni oʻzida birlashtirdi va oʻtmish tajribasiga tayangan holda, olam va odam masalasiga juda murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatda ziddiyatli, yangi falsafiy qarashlar shakllanishiga sabab boʻldi. Hozirgi zamon falsafasining oʻziga xosligi metodologik jihatdan turli-tumanligi bilan belgilanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Qadimgi Hind falsafasining mohiyati nimada?
2. Konfutsiychilik daosizmdan nimasi bilan farq qiladi?
3. Sharqiy musulmon Uygʻonish davri Oʻrta Osiyo mutafakkirlari jahon falsafasi, ilmi va madaniyatiga qanday hissa qoʻshdilar?
4. Oʻrta asr Gʻarb falsafasining ajralib turadigan xususiyatlari qanday?

5. Rim imperiyasi hayotining so‘nggi davrlaridagi falsafiy oqimlarni sanab bering.
6. “Uyg‘onish davri” tushunchasini qanday talqin etasiz?
7. “Antroposentrizm” nimani anglatadi?
8. Hozirgi zamon falsafasining asosiy mazmuni nimadan iborat?
9. XIX–XX asrlardagi Yevropa falsafasining asosiy mazmuni nimadan iborat?
10. Milliy falsafiy maktablar deganda nimani tushunasiz?

Testlar:

1. Qadimgi Sharq falsafasining umumiy xususiyati nimadan iborat?

- A) Mifologik, diniy, falsafiy, axloqiy, ilmiy bilimlarning yaxlit holda namoyon bo‘lishi
- B) Ezgulikka asoslanganligi
- C) Ma’naviy omilning hal qiluvchi rolini barcha falsafiy ta’limotlarda ifoda etilishi
- D) Dunyoni faqat mavhum obrazlar orqali aks etishi

2. “Avesto” ta’limoti bo‘yicha olamning mohiyati nimada?

- A) Dunyo – ezgulik va yovuzlikning kurash maydonidir.
- B) Dunyo – Axuramazda tomonidan yaratilgan qonun va qoidalarga amal qiluvchi narsa va hodisalar majmuasidir.
- C) Dunyo – insonlarga sinov uchun ajratilgan vaqt va fazoning birligidir.
- D) Dunyo – doimo avj olib so‘nadigan olovdan iborat.

3. Falsafa qachon va qayerda fan bo‘lib shakllangan?

- A) Eramizdan oldingi VI–V asrlarda Yunonistonda
- B) Eramizdan oldingi II–ming yillikning 2-yarmida Markaziy Osiyoda
- C) Eramizdan oldingi II–ming yillik boshlarida Misrda
- D) Eramizdan oldingi VI–V asrlarda Hindistonda

4. Platon ta'limotidagi ideal jamiyatda davlatni kimlar boshqarishi zarur deyilgan?

- A) Faylasuflar
- B) Fuqarolar
- C) Buyuk lashkarboshilar
- D) saylab qo'yiladigan xalq vakili

5. Islom dunyosida shakllangan ikkita falsafiy oqim nomini aniqlang.

- A) Mutazaliylar va mutakallimlar
- B) Sufiylik va tasavvuf
- C) Hurfikrlilik va mutaassbchilik
- D) Jadidlar va qadimchilar

Esse mavzulari:

1. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ilg'or falsafiy fikrlar.
2. Ilk va o'rta asr G'arb falsafasi rivojlanishining umumiy belgilari.
3. Eng yangi davr falsafasining asosiy yo'nalishlari.
4. Antik davr falsafasi.
5. XX–XXI asr o'zbek falsafasi.
6. Platon falsafasi, uning asosiy falsafiy g'oyalari.
7. Aristotel falsafasi va uning Sharq renessansiga ta'siri.
8. Birinchi Sharq renessansi vakillarining falsafiy qarashlari.
9. Forobiy falsafasi. "Fozil odamlar shahri" asari va hozirgi zamon.
10. Beruniyning asosiy asarlari va uning mazmun-mohiyati.
11. Ibn Sinoning axloq haqidagi qarashlari.
12. Ekzistensializm falsafasi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R. Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi. – T.: "Sharq", 2003. – 208 b.

2. Yoʻldoshev S., Usmonov M., Karimov R. Yangi va eng yangi davr Gʻarbiy Yevropa falsafasi. – T.: “Sharq”, 2002. – 336 b.
3. Nazarov Q. Gʻarb falsafasi – T.: “Sharq”, 2004. – 720 b.
4. Falsafa. M. Ahmedova tahriri ostida. –T.: OʻFMJ, 2006. – 496 b.
5. Skirbekk G., Gile N. Falsafa tarixi – T.: “Sharq”, 2004. – 720 b.
6. Shermuxamedova N. Falsafa. Darslik. –T.: “Idris Abdurauf Nashr”, 2021. 664 b.
7. Nizomiddinov N. Qadimgi Hindiston tarixi, diniy eʼtiqodi va madaniyati. –T.: “Fan va texnologiya “ nashriyoti. 2014. 386-bet.
8. Falsafa tarixi (Sharq falsafasi). Oʻquv qoʻllanma. -Toshkent: «JAHON PRINT». 2013. - 52 bet.
9. Falsafa. Sh.Madaeva va boshqalar. Oʻquv qoʻllanma. –T.: “Mumtoz soz”, 2019. - 607 b.
10. U Chun. Falsafiy gʻoyalar. –T.: “Akademnashr”, 2019. 6-bet.
11. Karyagin K. Konfutsiya. Tarixiy-biografik ocherk. –T.: “DavrPress” NMU, 2019. 128-bet.
12. Lao Szi. Dao fazilatlar kitobi. T.: “Akademnashr”, 2020. 112-bet.

3-MAVZU. FALSAFADA ONTOLOGIYA VA GNOSEOLOGIYA. FALSAFA KATEGORIYALARI VA QONUNLARI

Reja:

- 3.1. Ontologiya – borliq falsafasi. Iqtisodiy borliq tushunchasi.
- 3.2. Gnoseologiya – bilish nazariyasi. Bilish darajalari va metodlari.
- 3.3. Falsafa kategoriyalari va qonunlarining mazmun-mohiyati, ularning iqtisodiyotda amal qilishining o‘ziga xosligi.

3.1. Ontologiya – borliq falsafasi. Iqtisodiy borliq tushunchasi

Falsafaning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning zamon va makon, harakat va materiya kabi tushunchalarni o‘rganishidadir. Ushbu tushunchalar falsafaning asosiy muammolaridan bo‘lib alohida yo‘nalish sifatida shakllangan. Bu yo‘nalish falsafada ontologiya deb ataladi. Ontologiyada borliq va yo‘qlik, reallik va mavjudlik kabi tushunchalarning mohiyati chuqur o‘rganiladi. Umuman olib qaraganda, asrlar davomida falsafiy ta’limotlarning rivojlanishi falsafada gnoseologiya, aksiologiya, etika, estetika, mantiq kabi yo‘nalishlarni vujudga keltirdi. Ammo bularning barchasi borliqda namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan ontologiya barcha falsafiy qarashlarning asosi bo‘lib, boshqa falsafiy muammolarning hal etilishiga kuchli ta’sir etadi. «Ontologiya» atamasi falsafada faqat XVII asrdan beri ishlatiladi, lekin u yunoncha o‘zaklarga ega bo‘lib (ontos – borliq, logos – so‘z, ta’limot), borliq haqidagi ta’limot degan ma’noni anglatadi²⁰. Falsafiy muammolarni tahlil qilish, o‘rganish va uning yechimini topish ham aynan borliq falsafasi – ontologiyadan boshlanadi.

Borliqni falsafiy nuqtayi nazardan tushunishga intilishlar antik davrdan boshlangan. Qadimgi Xitoy, Hindiston, Yunoniston va Markaziy Osiyoda borliq falsafasiga oid ko‘plab ta’limotlar yaratilgan. Xususan, qadimgi Xitoy falsafasida inson borlig‘iga ko‘proq e’tibor qaratilgan. Bu Xitoy falsafasida asosiy e’tibor ijtimoiy borliqqa

²⁰ Shermuxamedova N.A. Falsafa./Darslik.. –T.: 2011. – B.98.

qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Jumladan, Konfutsiya ta'limotida asosiy e'tibor ijtimoiy borliqni tartibga soluvchi axloq masalasiga qaratilganligi ham bejiz emas. Shu bilan birga tabiat borlig'iga oid qarashlar ham qadimgi Xitoy falsafasida o'z aksini topgan.

Qadimgi Hindistonda hind falsafasining ilk manbalaridan bo'lmish Vedalarda olam haqidagi materialistik qarashlar, moddiy va ma'naviy substansiyalarning paydo bo'lishiga oid g'oyalar keltirilgan. Hind falsafasini ajratib turuvchi asosiy xususiyatlarga borliqning asosiga to'rt unsur (tuproq, suv, havo, olov) ni qo'yishga asosiy e'tibor qaratganligi, ruhiy borliq va shuningdek, dahriy tasavvurlarning mavjudligi kabilar kiradi.

Qadimgi Yunon falsafasi dunyoning paydo bo'lishi, xudolarning kelib chiqishi, tabiat evolutsiyasiga doir kosmogonik-mifologik qarashlar qadimgi yunon falsafasi tabiat falsafasi sifatida rivojlanishiga turtki bo'ldi va yunon falsafasining dastlabki manbasi sifatida xizmat qildi. Antik davr yunon mutafakkirlarini borliqning kelib chiqish sabablari doim qiziqtirgan va birinchi sabab sifatida Geraklit olov, Fales suv hamda Anaksimendros havo deb ta'riflagan. Bu g'oyalar qadimgi yunon faylasuflari borliqning kelib chiqish sabablarini tabiatning o'zidan izlaganliklarini anglatadi. Hatto qadimgi Yunonistonning yirik faylasuflaridan biri Anaksimendros jonli mavjudotlarning tabiiy kelib chiqish nazariyasini ilgari surgan.

Ammo ba'zi antik davr yunon faylasuflari borliqning kelib chiqish sabablari va mohiyatini tahlil qilishga o'zgacha yondashganlar. Jumladan, Pifagor olamning asosiga raqamlarni qo'ygan. Uning fikricha, bir raqami xudo bo'lib, barcha narsalar bir raqamidan boshlanadi. Borliqning kelib chiqish sababi bir raqami hisoblanadi, degan nazariyani ilgari surgan. Pifagor ta'limotining o'ziga xosliklarida biri, u Yerning sharsimon shaklda ekanligi haqidagi g'oyani yunon faylasuflari orasida birinchi bo'lib ilgari surgan va bu g'oya Parmenid tomonidan rivojlantirilgan. Shuningdek, Parmenid yunon faylasuflari orasida borliqni kategoriya sifatida birinchi bo'lib ta'riflagan va bu xizmati bilan ontologiyaning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan.

Antik davr yunon faylasuflaridan Platon borliq tushunchasini sezilarli darajada rivojlantirgan. Platon ta'limotining o'ziga xosligi shundaki, u faqat moddiy narsalar emas, balki ideal narsalar ham borliqqa ega ekanligini falsafa tarixida birinchi bo'lib ta'kidlab kelgan.

Platon inson ongida mustaqil mavjud bo'lgan tushunchalar borlig'ini ham ko'rsatib o'tdi va shu tariqa ilk bor «borliq» tushunchasiga amalda mavjud bo'lgan barcha narsalarni kiritdi.

Markaziy Osiyodagi eng qadimiy falsafiy kitob "Avesto" bo'lib, bu manbada borliq doimiy harakatlanuvchi dunyo va undagi jonli hamda jonsiz narsalarning barchasini mavjudlik deb tushuntirgan. Umuman falsafa tarixida borliq tushunchasi turlicha talqin qilingan va ontologiyaga oid qarashlar o'zining rang-barangligi bilan ajralib turadi.

Ontologiyada o'rta asrlar Yevropa falsafasida borliqni ikki turga ajratganligining guvohi bo'lamiz. Bular "ilohiy borliq", ikkinchisi xudo tomonidan yaratilgan "moddiy borliq"dir.

"Ikkinchi muallim" unvoniga sazovor bo'lgan Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr al-Forobiy ontologiyaga nisbatan qarashlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning fikricha borliq ikkiga bo'linadi: o'zgarmas borliq va o'zgaruvchan borliq. O'zgarmas borliq barcha narsalarning sababidir, ya'ni aql. O'zgaruvchan borliq esa doim o'zgarishda, oddiydan murakkabga qarab boruvchi borliqdir.

O'rta asrlar Yevropa falsafasida Lametri, Golbax va Gelvesiy kabi moddiyatni birinchi o'ringa qo'yuvchi faylasuflar borliq kategoriyasini tabiat borlig'i orqali tushuntirishga harakat qilganlar. Natijada ularning ontologiyaga oid qarashlari tabiiy fanlarning rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan.

Falsafaning ontologiya yo'nalishida ham o'ziga xos kategoriyalar mavjud. Tabiat borlig'ining o'zgaruvchanligi ontologiyada "harakat" kategoriyasining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bu kategoriya negizida esa falsafaning asosiy bo'limlaridan biri dialektika shakllandi. Harakat bu borliqning eng asosiy atributlaridan biri bo'lib uning mavjudligini ta'minlaydi. Harakat abadiy bo'lib, mutlaq va materiyadan ajralmas hisoblanadi. Harakatning mazmun-mohiyatini ifodalash uchun Geraklitning "Ayni bir vaqtda suvga ikki marta tushib bo'lmaydi" degan iborasi yetarlidir.

Falsafa tarixida harakatni Geraklit sodda qilib dialektik usulda tushuntirgan. U olamning asosiga olov elementini qo'yar ekan, olovning doimiy harakatda bo'lishini barcha o'zgarishlarning substansiyasi sifatida tavsiflaydi.

Oʻrta asr Sharq mutafakkiri Abu Nasr al-Forobiyning fikricha, harakatning ibtidosi biron-bir narsaga borib taqalmasa, uni tabiat deb atash mumkin. Harakat vaqt bilan belgilangan. Harakatning boshlanishi va oxiri yoʻq.²¹ Ibn Sino fikricha, harakat bu narsalar, voqealarda sodir boʻladigan oʻzgarishdir²².

Oʻrta asr Yevropa faylasuflaridan D.Didro, J.Toland. P.Golbaxlar ham harakatning mohiyatini tushuntirishga harakat qilganlar. Fransuz faylasufi Deni Didro harakatning atribut ekanligini isbotlashga harakat qilgan. Ingliz faylasufi J.Toland ham harakatni materiyaning eng muhim atributi, deb taʼkidlaydi. Shuningdek, fransuz materialisti P.Golbax harakat borliqning asosiy atributi ekanligini taʼkidlagan holda uni ikki turga ajratgan. Birinchisi tashqi harakat – jismlarning bir joydan ikkinchi joyga koʻchishi, ikkinchisi ichki harakat – jism shaklining oʻzgarishiga sabab boʻluvchi harakat.

Hozirgi zamon falsafasida harakat oʻzgarish sifatida tushunilgan va bunda turli jarayonlar hamda barcha oʻzgarishlar koʻzda tutilgan. Borliqning asosiy atributi boʻlgan harakatni tushuntirishda dialektika tarafdorlari, klassik metafiziklar turlicha yondashganlar.

Dialektiklar harakatning ziddiyatga asoslanganligini alohida taʼkidlaydilar. Ularning fikricha, barqarorlik va oʻzgaruvchanlik, vujudga kelish va yoʻq boʻlish kabi ziddiyatlar harakatning mohiyatini tashkil etadi. Klassik metafiziklar esa harakatga nisbatan yondashuvlarida harakatning oʻzini emas balki uning natijasini tushuntirganlar. Yaʼni harakat deganda jismning oldingi vaqtda boshqa joyda, hozirgi vaqtda boshqa joyda boʻlishini tushunganlar. Shuning uchun ularning yondashuvi harakatning mohiyatini toʻliq tushuntirishga qodir emas.

Ontologiyaning obykti boʻlmish borliqni makon va zamon tushunchalarisiz tasavvur etish mumkin emas. Chunki makon va zamon borliqning asosiy shakllari sifatida namoyon boʻladi. Antik davrdan boshlab koʻpgina olimlar vaqt va makon tushunchalarining mohiyatini aniqlashga harakat qilganlar. Bu holat insoniyatning boshidan oʻtkazgan amaliyoti va bilishning rivojlanishi bilan bogʻliq boʻlib, takomillashuv natijasida zamon va makon kategoriyalarini

²¹ Forobiy // Jahon falsafasi qomusi. Qiyom Nazarov. –T.: “Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, “Ma’naviyat” nashriyoti., 2019. -B.437

²² Ibn Sino // Jahon falsafasi qomusi. Qiyom Nazarov –T.: “Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, “Ma’naviyat” nashriyoti., 2019. -B.16

chuqurroq tushunishni taqozo qilgan. Jumladan, antik davr falsafasining o'zidyoq turli shakllar va ularni o'rganish haqidagi fan sifatida geometriya ajralib chiqdi. Zamon kategoriyasiga nisbatan kuzatishlarning kuchayishi natijasida astronomiya fani rivojlandi. Bu jarayonlar makon va zamon kategoriyalarini o'rganishga nisbatan qiziqishlarni kuchaytirdi.

Borliqni o'rganar ekansiz tabiat tushunchasining falsafiy tahliliga murojaat qilmasdan iloji yo'q. Chunki tabiat tushunchasi eng muhim falsafiy kategoriyalardan biridir. Tabiat tushunchasining borliqqa nisbatan ishlatilishi moddiy va ma'naviy asoslarining birligidan iborat yaxlitlik sifatida tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu kategoriya ontologiyada keng qo'llaniladi.

Tarixdan jamiyatning tabiat bilan o'zaro munosabatlari bosqichma-bosqich rivojlanib borgan. Insoniyatning o'zi uchun zarur bo'lgan narsalarni ishlab chiqarishga o'tgani sayin tabiat resurslarini tobora ko'proq qamrab olgan. Natijada insoniyat tabiatni o'ziga qarshi turuvchi kuch sifatida anglay boshladi va tabiatdan farq qiladigan mavjudotga aylana bordi.

Antik davr faylasuflari olam nimadan iborat degan savolga javob topish uchun doim tabiatni o'rganishga harakat qilgan. Antik davrda ham ontologiyaga oid qarashlarda inson tabiatda qudrat sohibi bo'lishi lozimligi uqtirilsada, antik falsafaning keyingi bosqichlarida tabiat qonunlariga uyg'un holda faoliyat yuritish, tabiat bilan uyg'un holda yashash pozitsiyasini ilgari surganlar. O'rta asrlarda G.Galiley, N.Kopernik, J.Bruno kabi mutafakkirlar rivojlantirgan kosmologik g'oyalar tabiatga bo'lgan yangicha munosabatni shakllantirdi.

Yangi davrga kelib insoniyat tabiatning stixiyali kuchlarini o'ziga bo'ysundirish imkonini beruvchi qonunlarni o'rgandi va tabiatni shu yo'l bilan jilovlashga intilish XX asrning o'rtalarigacha kuchayib bordi. Bunday qarashlarni ilm-fanda erishilgan muvaffaqiyatlar, tabiat qonunlarini bilish, ulardan foydalana olish imkoniyatining mavjudligi yanada kuchaytirdi. Fan-texnika taraqqiyoti yuksalishiga qarab inson o'zining tabiatdan cheksiz darajada ustunligiga bo'lgan ishonchi mustahkamlanib bordi. XX asrda odamlarning tabiat bilan o'zaro munosabatlarida katta o'zgarishlar yuz berdi. Asrlar davomida insonlarning tabiatga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lishlari bir tomondan sabab va oqibat kategoriyasiga mos ravishda ulkan ekologik

muammolarni keltirib chiqardi. Ikkinchi tomondan miqdor va sifat o'zgarishining o'zaro aloqadorligi qonuniyatlariga mos ravishda bu oqibatlar yig'ilib muammolar yangi qiyofada namoyon bo'la boshladi. Vaziyat shu darajaga yetib keldiki, tabiatdagi ro'y berayotgan ekologik krizisni ortga qaytarib bo'lmay qoldi.

Ontologiyada faylasuflar inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga va insonning mohiyatini tushunishga harakat qilganlar. Chunki inson borlig'i ontologiyaning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, sofistika maktabining yirik namoyondalaridan biri, yunon faylasufi Protagor borliqdagi predmetlarning mavjud yoki mavjud emasligini belgilaydigan omil insonning o'zidir degan fikrni aytib o'tgan. Umuman olganda, faylasuflar inson borlig'ining ichki dunyosini «jon» va «ong» tushunchalari orqali ifodalashga harakat qilganlar. Z.Freyd, S.Kerkegor, F.Nitshe, A. Bergson, E.Gartman, M.Xaydegger kabi faylasuflar ong, ongsizlik kabi muammolarni o'rganganlar.



3.1.1-chizma

Yangi davr faylasuflari mazkur muammoni to‘liq hal etilganligini da’vo qilmaydilar va hozirgi zamon fani insonni bevosita yoki bilvosita namoyon etuvchi ong inson miyasining ish jarayoni hisoblanadi hamda undan ayri holda namoyon bo‘lmaydi, deb ta’kidlaydilar.

Insoniyat ongining muttasil rivojlanishi ontologiyada iqtisodiy borliq tushunchasini shakllantirdi. Iqtisodiy borliqning ontologiyada tutgan o‘rnini aniqlash materializm, o‘zaro bog‘liqlik, rivojlanish va obyektiv qonunlarning mavjudlik tamoyillari asosida belgilanadi. Materializm tamoyili ijtimoiy borliq tizimida mohiyatning iqtisodiy borliqqa bog‘lanishini ta’minlaydi. Uning asoslanishi mehnatning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini aniqlash vazifasini qo‘yadi. O‘zaro bog‘liqlik tamoyili mehnatni “inson-tabiat” va “inson-inson” munosabatlarining yetakchi roli bilan o‘zaro bog‘liqlik o‘rnatish jarayoni sifatida ochib beradi. Rivojlanish tamoyili ishlab chiqaruvchi kuchlar o‘rtasidagi ziddiyatning ahamiyatini ochib beradi. Ya’ni “inson-tabiat” va “inson-inson” munosabatlarining tarixiyligini hamda ishlab chiqarish munosabatlarini ifodalaydi. Shuningdek, ushbu munosabatlar mehnatning tarixiy shakllarining o‘zini-o‘zi harakatlantiruvchi ichki manbaysi sifatida tushuntiriladi. Ushbu tamoyillar nafaqat iqtisodiy borliqni sifat jihatidan aniqlashga balki o‘ziga xos aniq iqtisodiy masalalarni o‘rganishga asos yaratadi.

Iqtisodiy borliq namoyon bo‘lishining aniq tarixiy shakllari mavjud. Bunday shakllarning har biri “inson-tabiat” va ishlab chiqaruvchi kuchlar, yoki “inson-inson” va ishlab chiqarish munosabatlarining tarixiy birligini anglatadi. Moddiy hayotning bitta ishlab chiqarish jarayonida ikki tomonning mavjudligi qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi. Ikkinchisi insonning tabiatga ta’siri yoki ishlab chiqarish kuchlarining o‘zgarishi bilan amalga oshadi. Ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari o‘rtasidagi ziddiyatning paydo bo‘lishi, uning hal etilishi va boshqacha ko‘rinishda yangitdan paydo bo‘lishi iqtisodiy borliqning doimiy harakati va rivojlanishidan boshqa narsa emas.

Iqtisodiy borliqning, umuman borliq shakllarining mavjud bo‘lish sharti bu harakatdir²³. Rivojlanish manbaysi sifatida tinimsiz takrorlanadigan harakat, ziddiyat, sifat o‘zgarishi ko‘rinishidagi rivojlanish,

²³ М.Ю.Передеева. Философия экономики. Челябинск. 2013. С.120.

jarayonning sodaddan murakkabga qarab o'zgarishi borliq xsusan iqtisodiy borliqning dialektikasidir. Iqtisodiy borliqning dialektikasi uning har bir shaklining mavjudligi va o'zgarishi, shakldan shaklga o'tishda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga iqtisodiy borliq uning faqat aniq tarixiy shakllarida mavjud bo'lganidek, iqtisodiy borliqning dialektikasi aniq tarixiy, iqtisodiy jarayonlarda o'zini namoyon qiladi. Binobarin, yuqoridagi tamoyillarni to'liq anglab yetish faqat ma'lum bir iqtisodiy jarayonni o'rganish sharoitida mumkin bo'ladi. Mehnat natijasining tovarga, tovarning pulga aylanishi misolida iqtisodiy borliq dialektikasini ochib berish mumkin. Mehnat mahsuli har qanday jamiyatda tovar hisoblanadi. Ishlab chiqarishda sarf qilingan mehnat qiymat sifatida paydo bo'lganida mehnat natijasi tovarga aylanadi.

3.2. Gnoseologiya – bilish nazariyasi. Bilish darajalari va metodlari

Falsafaning asosiy yo'nalishlarilaridan biri gnoseologiya bo'lib bilish nazariyasini o'rganadi. Ushbu kategoriyaning nomi yunoncha gnosis – bilim va logos – ta'limot so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, ma'nosi "bilish haqidagi ta'limot"dir. Falsafaga oid ko'pgina adabiyotlarda "gnoseologiya" atamasi "bilish nazariyasi" sifatida talqin qilinganligini kuzatish mumkin.

Gnoseologiya falsafaning bilish nazariyasini o'rganadigan bo'limi bo'lib, unda insonning dunyoni bilishi, o'zlikni anglash jarayoni va bilimlarning o'zida aks etuvchi narsalar bilan o'zaro nisbati obyekt sifatida o'rganiladi.

Faylasuflar gnoseologiyada haqiqiy bilimga qanday ega bo'lish mumkin degan savol ustida juda ko'p tadqiqotlar olib borishgan. Ushbu tadqiqotlarning natijasi sifatida ikkita yo'nalishga asos solingan. Bulardan biri empirizm bo'lib, T.Gobbs, F.Bekon, L.Feyrbax kabi faylasuflar shu yo'nalish tarafdori bo'lganlar. Ular insoniyat haqiqiy bilimga faqat tajriba orqaligina erishishlari mumkin degan g'oyani ilgari surganlar. Ikkinchi yo'nalish ratsionalizm bo'lib Aflotun, Volf, A.Baumgarten kabi faylasuflar ushbu yo'nalishni qo'lab-quvvatlaganlar. Ratsionalistlar haqiqiy bilimga falsafiy mushohada va tafakkur orqaligina erishish mumkin degan g'oyani ilgari suradilar.

Gnoseologiya insoniyatning bilimi va bilishga oid juda ko'p muammolar bilan shug'ullanib bilimning chegarasi qayerda, dunyoni bilish mumkinmi, bilishda sezgilarning o'rnini qanday degan savolga javob qidirganlar. Ushbu muammolarni o'rganish jarayonida uchta yo'nalish vujudga kelgan. Shunday yo'nalishlardan biri skeptisizm bo'lib, skeptiklar bilimning haqiqiy ekanligiga doim shubha bilan qaraganlar. Biroq dunyoni bilish mumkin ekanligini inkor etmaganlar. Ikkinchi yo'nalish gnostisizm (optimizm) bo'lib, ushbu yo'nalish tarafdorlari gnostiklar (optimistlar) deb atalgan. Gnostiklar dunyoni bilish mumkin degan g'oyani ilgari suradilar. Ushbu yo'nalishga qarshi ravishda dunyoni bilish mumkin emas degan g'oyani ilgari suradigan yo'nalish agnostisizmdir. Agnostiklar dunyoni bilish mumkin ekanligini rad etganlar.

Gnoseologiyada bilim nima, unga qanday ta'rif berish mumkin degan savolga asosiy e'tibor qaratiladi. Ammo bir narsani yodimizda saqlashimiz lozimki, bilim umumiy tushuncha hisoblanadi va shuning uchun unga aniq ta'rif berish qiyin. Umumiy ta'rif beradigan bo'lsak, bilim bu hayotimiz davomida olgan ma'lumotlarimiz orqali shakllangan ishonchimiz va e'tiqodimiz bizning bilimimiz hisoblanadi. Bilim tushunchasining bilishdan farqi mavjud. Bilish bu jarayon hisoblanadi.



3.2.2-chizma.

Inson olamni anglashga harakat qilar ekan ma'lumot-axborotlarni ikki usulda o'zlashtiradi. Birinchi usul – moddiy, ya'ni moddiy vositalardan amaliyotda foydalanish orqali o'zlashtiradi. Ikkinchisi – ma'naviy, ya'ni subyekt va obyektning o'zaro bilishga doir munosabatlarini o'z ichiga qamrab oladi. Ikkita usul ham bir-biriga bog'liq bo'lsada, o'zaro farq qiladi. Bu yerda subyekt va obyekt deganda nimalar nazarda tutilganligiga e'tibor berish lozim. Bilish qobiliyatiga ega bo'lgan individ ham, guruh ham, jamiyat ham subyekt bo'lishi mumkin. Obyekt esa subyekt tomonidan bilish uchun o'rganilayotgan narsa yoki hodisalardir. Masalan, Isaak Nyuton gravitatsion tortishish qonuni kashf etdi. Bu yerda subyekt – Isaak Nyuton, obyekt esa – gravitasiya tortishish qonuni (tabiat).

Gnoseologiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, bilim deganda faqat ilm-fan orqali olingan ma'lumot yoki axborotlar tushunilmaydi. Insonning oddiy yashash sharoiti, kundalik hayot tarzi davomida olgan bilimlari bilishning dastlabki shakli hisoblanadi. Insoniyatda mifologik tafakkur orqali tabiat, borliq, inson va ular o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida bilim shakllangan. Bu mifologik bilish hisoblanadi. Mifologik bilishning o'ziga xosligi shundaki, bu bilim afsonalarga asoslanadi. Qadimdan insonlarni Xudoni qanday bilish mumkin, u rostdan ham mavjudmi, degan savollar qiziqtirib kelgan. Natijada bu savollarning javobini topishga intilishlar insoniyatda diniy bilishning shakllanishiga sabab bo'ldi. Vaqt o'tishi mobaynida insoniyat tafakkurining rivojlanishi falsafiy bilimni shakllantirdi. Dunyoning asosi nimadan iborat, borliqning umumiy qonunlari, narsa va hodisalar o'zaro qanday aloqadorlikka ega degan savollar falsafiy bilimning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Falsafiy bilimlarning o'ziga xosligi shundaki bu bilimda fan-texnika va ma'naviyatning o'zaro uyg'unlashishi natijasida inson ongining o'ziga xos xususiyatlari ham ochib beriladi.

Inson tafakkurining rivojlanishi natijasida bilish shakllari ham qadamba-qadam mukammallashib bordi. Natijada o'zining aniqligi bilan boshqa bilim shakllaridan farq qiluvchi ilmiy bilim vujudga keldi.

Insoniyatning borliqni bilish jarayonini sotsiologiya, psixologiya va mantiq kabi fanlar ham o'z nuqtayi nazarlaridan kelib chiqib o'rganadilar. Falsafada esa bu masala bilan gnoseologiya

shugʻullanadi. Iqtisodiy borliqning oʻziga xos dialektikasi boʻlgani kabi gnoseologiyada ham qarama-qarshiliklar mavjud. Masalan, subyekt va obyekt oʻrtasidagi qarama-qarshilikni aytish mumkin. Ammo masalaning mohiyati shundaki, bilish aynan mana shu ziddiyatdan boshlanadi hamda rivojlanadi. Baʼzi faylasuflar tomonidan bilim va eʼtiqodni bir-biriga qarshi qoʻyish hollari ham kuzatilgan. Yaʼni eʼtiqodni bilimning rivojlanishi yoʻlidagi toʻsiq deb tushunishgan. Aslida eʼtiqod ham bilishning bir koʻrinishi hisoblanadi. Faqat dunyoni, narsa va hodisalarni dalil va isbotsiz bilish demakdir. Eʼtiqod ishonchning eng yuqori nuqtasi ekanligini inobatga olsak, u ayni vaqtda koʻrinmas sirli narsalarni aniqlashga, bilishga yordam berishini anglash qiyin emas. Aqlga tayangan eʼtiqod boʻlsa bunday eʼtiqod jamiyatning taraqqiyotini harakatga keltiruvchi eng muhim omil hisoblanadi. Aqlga tayangan eʼtiqod va bilim haqiqatga intilishning eng zarur bosqichlaridir. Shu bilan birga mutaassiblikka asoslangan eʼtiqod ham mavjud. Bunday eʼtiqod aksincha, haqiqatga erishish yoʻlidagi toʻsiq hisoblanadi. Bilish jarayonidagi qarama-qarshilik bilish nazariyasining rivojlanishida shunisi bilan ahamiyatli, ziddiyatning yuzaga kelishi va unga yechim topishga intilish bilimning rivojlanishi uchun asosiy turtki boʻladi.

Gnoseologiyada bilimning darajalari ham oʻrganiladi. Biz yuqorida qisman hissiy va empirik bilish toʻgʻrisida maʼlumotlar keltirdik. Ammo bundan tashqari mantiqiy, intuitiv va nazariy bilimlar ham mavjud.

Hissiy bilim bu insonning sezgi aʼzolari orqali sezish va uni idrok etish natijasida olingan bilim hisoblanadi. Abu Nasr al-Forobiy insonni tashqi dunyo bilan bogʻlovchi sezgilarning tutgan oʻrniga asosiy eʼtibor qaratadi. U sezgilarni bilimning asosiy manbayi deb hisoblab, sezgilar faqat narsaning inʼikosi narsaning oʻziga mos tushgan holda haqiqiy boʻlishi mumkin²⁴ deb taʼkidlaydi.

Empirik bilim hissiy bilishga nisbatan bilishning yuqoriroq darajasi boʻlib, umuman olganda kuzatish, eksperiment (tajriba), taqqoslash kabi metodlar yordamida shakllantiriladi. Eksperiment bu bir predmet yoki hodisani tadqiqot maqsadiga mos ravishda maʼlum bir sharoitda oʻrganishdir. Ekperiment davomida kuzatish metodidan

²⁴ Фараби. Китаб ал-Хуруф. – Душанбе: Илм, 1972. – 23-б.

samarali foydalaniladi. Kuzatish predmet yoki hodisaning muhim xossalarini aniqlash uchun bajariladigan to'xtovsiz idrok etishdir.

Taqqoslash esa o'rganilayotgan predmet yoki hodisaning kuzatish yoki tajriba o'tkazish natijasida aniqlangan xususiyatlarining o'xshash hamda farqli jihatlarini aniqlashdir.

Bilishning yana bir muhim darajasi nazariy bilimdir. Nazariy bilimning o'ziga xosligi u ilmiy asoslangan bilim darajasi bo'lib, nazariya, kategoriya, qonunlar va paradigma kabilarni o'z ichiga oladi. Nazariyaning tarkibiy qismini tabiiy va ijtimoiy hodisalarga tegishli qonunlar hamda tamoyillar tashkil etadi. Chunki nazariya tabiat va jamiyat borlig'ining qonunlari haqidagi bilimlarning amaliyotdan o'tgan hamda mantiqiy tafakkurga asoslangan tizimi hisoblanadi. Nazariyada fundamental qonuniyatlar muhim o'rin tutadi va o'zida qonunlar hamda tamoyillarni birlashtiradi. Shuningdek, nazariyaning o'ziga xosligi shundaki, u analiz, prognozlashtirish va sintez funksiyalarini ham amalga oshiradi. Ilmiy qonunlar narsa va hodisalar o'rtasidagi muhim bo'lgan, takrorlanuvchi va doimiy munosabatlarni tushuntiradi. Nazariyaning asosiy funksiyalaridan biri tabiat, jamiyat va inson tafakkuri qonunlarini tushuntirishdir. Muayyan davrda ilm-fanning rivojlanishini belgilovchi tamoyillar, qonunlar va nazariyalar majmuasi vujudga kelib, bu majmua paradigma deb ataladi. Paradigma tushunchasi bilish nazariyasiga amerikalik faylasuf T.Kun tomonidan kiritilgan bo'lib, uning fikricha, «normal fan»ga tegishli ilmiy paradigмага tayangan holda muayyan muammolarni yechish yoki ma'lum vazifalarni bajarish o'ziga xos xususiyatdir. Fan rivojlanishidagi normal davrlar inqiloblar bilan almashadi. Ya'ni ular eski paradigma doirasiga sig'maydigan yangi hodisalarning kashf etilishi bilan bog'liq. Natijada fanda eski paradigma o'z ahamiyatini yo'qotishi va yangi paradigmaning yuzaga kelishi bilan yakunlanadi. Yangi paradigmaning qaror topishi fanda inqilob yasalishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Bu paradigmalarda almashinuvini ta'minlaydi.


Paradigma ma'lum bir davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan fanda yuzaga keladigan muammolarni yechish usullarini belgilab beruvchi andoza vazifasini bajaradi. Nazariy bilimlarning tarkibiy qismlaridan yana biri gipoteza hisoblanadi. Gipoteza dalillarning mohiyatini tushuntiruvchi asosli taxmindir. Gipoteza orqali hali ma'lum bo'lmagan narsa va hodisalarni bashorat qilish mumkin bo'ladi.

Inson tirik ekan sezgi a'zolari orqali hissiy bilish va shu asosda o'ylashga harakat qiladi. O'ylash bu tafakkurdir. Tafakkur muammoni yechishga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Sezgi a'zolarimiz orqali dastlabki bilimga ega bo'lsakda, faqat tafakkur orqaligina narsa va hodisalarning mohiyatini bilishimiz mumkin. Lekin tafakkur to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishi ham mumkin. Tafakkurning to'g'ri bo'lishi obyektiv borliqning mazmuniga qay darajada mos ekanligi bilan belgilanadi. Inson to'g'ri fikr yuritishga intilar ekan mantiq qonunlariga bo'ysunadi. Bu jarayon o'z o'rnida mantiqiy tafakkurni shakllantiradi. Ilm-fan taraqqiyoti va kibernetikaning rivojlanishi mantiqni yanada rivojlantirish, mantiqiy tafakkur yuritish talabini vujudga keltirdi. Natijada mantiqda yangi yo'nalish, matematik mantiq shakllandi. Tafakkurning to'g'ri bo'lishi obyektiv borliqqa qanchalik mos ekanligi bilan belgilanar ekan, obyektiv borliq dialektikaning qonunlariga bo'ysunishini unutmasligimiz lozim. Demak, insoniyat tafakkuri ham shu qonunlarga bo'ysunishi shart.

Tafakkurning ham shakllari mavjud. Uning asosiy shakllariga tushuncha, mulohaza va xulosalar kiradi. Tushuncha bu tafakkurning natijasi bo'lib, narsa va hodisalarning umumiy hamda muhim xossalarini ifodalaydi. Tushuncha narsa va hodisalarning mohiyatini fikrda ifodalaydi. Shuning uchun ham bitta tushuncha orqali ko'pgina narsalarning mohiyatini, ularga xos bo'lgan xususiyatlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Tafakkurning ikkinchi asosiy shakli mulohaza hisoblanadi. Mulohaza tushunchadan ko'ra kengroq mazmunga ega. Mulohaza o'zida tushunchalarni o'zaro bog'lagan holda bir narsa haqida tasdiqlangan yoki inkor etilgan fikrni ifodalaydi. Ya'ni mulohaza subyektning biror tasvirlanayotgan narsa va hodisa bilan bog'lanishi natijasida vujudga keladi. Tafakkurning uchinchi shakli xulosa bo'lib, fikrlash jarayonida mavjud mulohazalarni taqqoslash orqali yangi fikr, ya'ni xulosa chiqariladi. Shu nuqtayi nazardan xulosaning to'g'ri ekanligi mulohazalarning to'g'ri ekanligiga, mulohazalarning to'g'ri ekanligi tushunchalarning to'g'riligiga va o'z o'rnida tushunchalarning to'g'ri ekanligi tafakkurning mantiqiy qonunlarga qanchalik mos kelishiga bog'liq bo'ladi.

Bilish darajalaridan yana biri bu intuitiv bilish (intuitsiya)dir. Intuitsiya qobiliyat bo'lib, bunday qobiliyatga ega inson haqiqatni dalillarsiz bevosita anglab yetadi. Ya'ni qobiliyatli insonlarga

intuitiv bilishga qodir. Intuitiv bilishga nisbatan qiziqish va u haqidagi mulohazalarni antik davr falsafasidan boshlab kuzatish mumkin. Xususan, Demokrit, Suqrot, Yevropa faylasuflaridan Leybnis, Spinoza, J.Lokk, Fixte, I.Kant, Gegel kabi faylasuflar intuitsiya borasida juda ko‘p bahslar yuritganlar. Umuman olganda intuitiv bilim kutilmaganda bevosita qalb orqali olingan bilimdir.



3.2.3-chizma.

Inson bilimining tezkorlik bilan rivojlanishi bilishning turli darajalarga ajratilishiga, ijodiy faoliyat va ta'lim metodlarini o'rganuvchi evristika fanining vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

3.3. Falsafa kategoriyalari va qonunlarining mazmun-mohiyati, ularning iqtisodiyotda amal qilishining o'ziga xosligi

Jamiyat va tabiatning rivojlanish jarayonida ziddiyatlilik va o'zgaruvchanlik mavjud ekan, bu holat dialektikani bilish uning qonun va kategoriyalaridan umumli foydalanish har qanday soha, jumladan, iqtisodiyot sohasining mutaxassislar uchun ham nihoyatda muhimdir.

Umuman olganda «dialektika» – grek tilida bahs va suhbatlashish san'ati degan ma'nolarni anglatadi. Antik davr faylasuflari uni haqiqatga erishishning eng to'g'ri yo'li va usuli sifatida talqin etganlar.

Hozirgi davrga kelib dialektika olamdagi narsa va hodisalar doimo o'zgarishda, ularni o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikda, rivojlanishda deb tushunishdir.

Geraklit, D.Didro, R.Dekart, Gegel, P.Sartr va boshqa juda ko'plab faylasuflar dialektikaning mohiyatini tushuntirishga hamda uning falsafiy muammolarni hal etishdagi o'rnini masalasiga g'oyalarni ilgari surganlar. Xususan, Geraklit stixiyali dialektikani ilgari surgan bo'lsa, Gegel idealistik dialektikani ilgari surgan. Dialektikaning o'ziga xos xususiyati uning ham nazariya, ham metodologiya vazifasini bajarishi hisoblanadi. Umuman olganda, dialektikada uchta umumiy qonunlar mavjud bo'lib, bular ziddiyatlilik qonuni, inkorni-inkor qonuni hamda miqdor va sifat o'zgarishlari qonunidir. Qonunlarni bilishga narsa va hodisalarni ilmiy o'rganish natijasidagina erishish mumkin. Ro'y berayotgan hodisalarning uzluksizligi va takroriyliqi qonunlarni vujudga keltiradi. Bu jarayonda qonunlarga amal qilinishi esa qonuniyatdir. Ya'ni qonuniyat qonunlar ijrosining ko'rinishi hisoblanadi. Falsafiy qonunlarning o'ziga xosligi shundaki, ular biri ikkinchisini taqozo qiluvchi hamda tabiat va jamiyatda inson ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan qonunlardir. Shunday falsafiy qonunlardan biri miqdor va sifat o'zgarishlari qonunidir. Ushbu qonunning mohiyatini to'liq anglab yetish uchun miqdor, sifat, me'yori kabi asosiy tushunchalarning mazmunini bilish lozim. Barchamizga ma'lumki, barcha narsa va hodisalar miqdor va sifat xususiyatlariga ega. Shuningdek, sifat va miqdor o'rtasida o'zaro dialektik aloqa mavjud ekanligini yodda saqlashimiz lozim. Ya'ni har bir miqdor ma'lum bir sifatni aks ettiradi hamda sifat ham miqdorsiz mavjud bo'lmaydi. Muayyan bir sifatga ma'lum bir miqdorgina javob berishi mumkin. Masalan, ishlab chiqarish sohasini oladigan bo'lsak mavjud xomashyodan yuz mingta sifatli oyoq kiyim ishlab chiqarilayotgan bo'lsa, keyingi safar xuddi shunday xom ashyodan bir yuz ellik mingta oyoq kiyim ishlab chiqarishga harakat qilindi. Bu o'z navbatida ishlab chiqarilayotgan oyoq kiyim miqdorining o'sishi uning sifatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Ya'ni har qanday sifat ko'rsatkichi miqdor chegarasiga egadir. Xulosa sifatida aytish mumkinki, har qanday narsa yoki hodisaning miqdor o'zgarishlari me'yorida ro'y bersa sifatni o'zgartirmasligi mumkin, ammo miqdor o'zgarishlari me'yoridan oshsa, bu o'z o'rnida sifat o'zgarishlarini keltirib

chiqaradi. Shuningdek, qarama-qarshiliklar birligi va kurash qonuni mavjud bo'lib, bu narsa va hodisalardagi bir-birini taqozo etuvchi jarayonlar, xususiyatlarni ifodalaydi. Ushbu qonunning mohiyatini anglash uchun avvalambor qarama-qarshiliklar birligi nima ekanligini tushunish lozim. Qarama-qarshiliklar birligi bu ikkala tomonning uzviyligidir. Qarama-qarshi tomonlar o'zlari alohida mavjud bo'lolmaydilar va bir-birini taqozo etadi. Qarama-qarshiliklardan biri yo'q bo'lsa, ikkinchisi ham o'z mavjudligini yo'qotadi. Masalan, qarama-qarshiliklar birligi va kurash qonunini iqtisodiyot sohasiga bog'laydigan bo'lsak, prosifit va defisit, ishlab chiqaruvchi va iste'molchi va hokazolardir. Agar prosifit tushunchasi yo'qolsa defisit tushunchasi ham o'z mazmunini yo'qotadi. Ular bir-birisiz mavjud bo'lolmaydi. Aksincha bu tushunchalar o'rtasidagi kurash iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlaydi. Chunki defisit, ya'ni zarar ko'rayotgan har qanday tadbirkor yoki biznesmen prosifit, ya'ni foyda ko'rish uchun yangi g'oyalarni, sotuv sistemalarini, texnologiyalarni o'ylab topadi va bu faoliyati bilan o'zi bilmagan holda iqtisodiyotning rivojlanishiga munosib hissa qo'shadi. Shuningdek, ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatni ham qarama-qarshiliklar birligi va kurash qonuniga misol sifatida keltirish mumkin. Chunki iste'molchisiz ishlab chiqarish bo'lmaydi yoki aksincha. Sotuvchi va xaridor o'rtasidagi munosabatlar ham shular jumlasidandir. Falsafaning yana bir eng muhim qonunlaridan biri inkorni-inkor qonunidir. Inkorni-inkor qonunining mohiyati shundaki, bu qonunda birinchi inkor tushunchasi yuz bergan voqeaning mazmunini ifodalash uchun ham asosiy tushuncha sifatida rol o'ynamaydi. Lekin ushbu qonun rivojlanishning xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Birinchi inkor o'rniga ikkinchi inkor keladi. Bu natijada uchinchi narsani vujudga keltiradi. Uchinchi narsa ikkinchi narsaning inkori hisoblanadi va o'z o'rnida birinchi narsani inkor qilgan tushunchaning inkori hisoblanadi. Natijada ikkinchi inkorda birinchi narsaga xos bo'lgan ziddiyat o'z-o'zidan to'liq barham topadi.

Bu qonunning biznes sistemasida ham o'z o'rnini bor. Masalan, har qanday bozorda o'zgarmas qonun ya'ni talab va taklif qonuni mavjud. 2019-yilda maishiy texnikalardan biri televizorni xorijdan olib kelib sotish bilan shug'ulanadigan tadbirkor bozor talabidan kelib chiqib "Samsung" markali televizorni olib kelib sotdi. 2020-yilda bozorda

“LG” televizorga talab oshdi va sotuvchi shu markadagi televizorni olib kela boshladi. 2019-yildagi “Samsung” markali televizorni inkor qildi. 2021-yilda “Panasonic” televizoriga talab oshganligi uchun “LG” markali televizorni inkor qildi.



3.3.1-chizma.

Har qanday biznesmen uchun asosiy maqsad foyda olish ekanligini inobatga olsak bu tabiiy holdir. Bu jarayonda inkor (“LG”)ni inkor (“Panasonic”) qonuni biznesning rivojlanishini ta’minlamoqda. Inkorni-inkor qonuni shunday qonunki, rivojlanish jarayoni unga mos ravishda inkor qilishning nihoyasiz zanjiridan iborat va bu jarayon to’xtovsiz yuksalib boradi.

Umuman olganda, dialektika qadimdan ko‘pgina faylasuflarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Lekin dialektikaning eng asosiy qonun va kategoriyalarini tushuntirib bergan, qarama-qarshiliklar birligi va kurash qonuni rivojlanishning manbasi ekanligini isbotlab bergan faylasuflardan biri nemis klassik falsafasining vakili Gegel hisoblanadi.

Dialektika bu obyektiv jarayon bo‘lib, hodisalarning ularga xos bo‘lgan ziddiyatlar vujudga kelishi, o‘zaro ta’sirga kirishishi va yechilishiga muvofiq rivojlanishidan iboratdir. Shuningdek, dialektika tabiat, jamiyat va tafakkurning harakat va rivojlanish universal qonunlari haqidagi falsafiy konsepsiya hisoblanadi.

Yuqoridagi falsafiy qonunlarning barchasi tabiat va jamiyatning rivojlanish jarayonida o‘zaro bog‘liq holda amal qiladi va muhim rol o‘ynaydi. Masalan, inkorni-inkor qonuni ishlayotganda miqdor va sifat o‘zgarishi hamda qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunlari

birgalikda ishlaydi. Yoki qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni ishlayotganida narsa va hodisalarning o‘zaro munosabatlarida inkorni-inkor hamda miqdor va sifat o‘zgarishi qonunlariga murojaat qilinadi. Shu nuqtayi nazardan falsafaning dialektik qonunlari universal ahamiyatga ega bo‘lib barcha sohalarga tegishli va ularning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Shu jumladan, iqtisodiyot hamda uning turli yo‘nalishlari bo‘lgan ishlab chiqarish, servis, marketing, treydingda samarali foydalaniladi. Chunki dialektika taraqqiyot falsafasining mukammal konsepsiyasi sifatida xizmat qiladi. Chunki dialektikaning o‘ziga xosligi shundaki, narsa va hodisalarga nisbatan yondashuvda ularning paydo bo‘lishi, rivojlanishi nuqtayi nazaridan o‘rganadi. Taraqqiyot falsafasining metafizik, sofistika, sinergetika kabi konsepsiyalari ham mavjud. Ammo dialektik konsepsiyaning ahamiyati shundaki, dialektik qonunlar o‘zaro hamkorlikda ishlab obyektiv borliqning murakkab qirralarini to‘g‘ri va aniq yoritishda, tafakkur egasini turli xatolardan saqlagan holda alohida o‘rin tutadi.

Dialektikani bilish, uning tamoyillari, qonunlari va kategoriyalaridan samarali foydalanish har qanday mutaxassis, xususan iqtisodiyot sohasi bo‘yicha mutaxassislar dunyoqarashining muhim sharti ekanligini yuqorida ta’kidlab o‘tdik.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Ontologiya nima va uning mohiyatini tushuntirib bering.
2. Iqtisodiy borliqning mohiyati nima va unda dialektikaning tutgan o‘rni nimalardan iborat?
3. Gnoseologiyaning mohiyatini nimalar tashkil etadi?
4. Bilish darajalarida intuitsiyaning tutgan o‘rni qanday?
5. Falsafiy qonunlarning o‘zaro aloqadorligi deganda nimani tushunasiz?
6. Dialektika qanday jarayon va uning o‘ziga xosligi nimada?
7. Miqdor va sifat o‘zgarishlari qonunini ishlab chiqarish jarayoniga qanday bog‘lash mumkin?
8. Gipotezaning mohiyatini tushuntiring.
9. Paradigma tushunchasi gnoseologiyaga birinchi bo‘lib kim tomonidan kiritilgan?
10. Tafakkurning to‘g‘ri bo‘lishi nima bilan belgilanadi?

Testlar:

1. Borliq falsafaning qaysi yo‘nalishida asosiy obyekt sifatida o‘rganiladi?

- A) Ontologiya
- B) Gnoseologiya
- C) Aksiologiya
- D) Praksiologiya

2. Hind falsafasida Borliq qanday ta’riflanadi?

- A) Borliqning asosiga to‘rt unsur (tuproq, suv, havo, olov)ni qo‘yishi
- B) Borliqning asosiga raqamlarni qo‘yishi
- C) Borliqning asosiga faqat olovni qo‘yishi
- D) Borliqning asosiga faqat suvni qo‘yishi

3. Xitoy faylasufi Konfutsiya ta’limotida asosiy e’tibor nimaga qaratilgan?

- A) Ijtimoiy borliqni tartibga soluvchi axloq masalasiga
- B) Tabiat falsafasiga
- C) Bilish falsafasiga
- D) Ilohiy borliqqa

4. Falsafaning asosiy qonunlarini aniqlang.

- A) Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni, miqdor va sifat o‘zgarishlari qonuni, inkorni-inkor qonuni
- B) Qarama-qarshiliklar birligi qonuni, talab va taklif qonuni
- C) Miqdor va sifat o‘zgarishlari qonuni; energiyaning bir turdan ikkinchisiga aylanish qonuni
- D) Inkorni-inkor qonuni; tabiiy tanlanish qonuni

5. Tafakkur shakllarini aniqlang.

- A) Tushuncha, mulohaza, xulosa
- B) Ong, mulohaza, xulosa
- C) Tushuncha, dunyoqarash, xulosa
- D) Tushuncha, mulohaza, hissiyot

Esse mavzulari:

1. Borliq – ontologiyaning o‘rganish obykti sifatida.
2. Iqtisodiy borliqning mohiyati.
3. Bilish va unig bosqichlari.
4. Bilish nazariyasi – gnoseologiyaning o‘rganish obykti sifatida.
5. Falsafiy qonunlarning iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o‘rni.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Skirbekk, G., Gile, N. Falsafa tarixi. O‘quv qo‘llanma. —Toshkent, “Sharq”, 2002. – 720 b.
2. Forobiy // Falsafa qomusiy lug‘at. –T.: Sharq, 2005. -B.431.
3. Ibn Sino // Falsafa qomusiy lug‘at. –T.: Sharq. 2005. -B140.
4. Shermuxamedova N. Falsafa. Darslik. –T.: “Idris Abdurauf Nashr” , 2021. 664 b.
5. Falsafa. O‘quv qo‘llanma.// Sh.Madayeva va boshqalar – Toshkent: Universitet, 2019.-256 b.
6. М.Ю.Передеина. Философия экономики. Челябинск. 2013. С.120.
7. Гегел, Г.В.Ф. Наука логики /Г.Ф.В. Гегел. – М.: Мисл, 1999.
8. Аристотел. Сочинения. В 4 т. Т. 1: Метафизика / Аристотел. – М.: Мисл, 1976.
9. Гемпел, К.Г. Функция общих законов в истории / К.Г. Гемпел. – [хтти://абусс.народ.ру/Библио/хемпел.хтм](http://абусс.народ.ру/Библио/хемпел.хтм).
10. Вебер, М. Избранные произведения / М. Вебер. – М.: Прогресс, 1990.
11. Гегел, Г.В.Ф. Философия права /Г.Ф.В. Гегел. – М.: Мисл, 1990.
12. Голбах, П. Система природы, или о законах мира физического и мира духовного / П. Голбах. – М.: Издательство социально-экономической литературы, 1963.
13. Иленков, Э.В. ДиалЭктика абстрактного и конкрЭтного в «КапиталЭе» К. Маркса / ЭЭ.В. Иленков // Читая Иленкова – [хтти://www.ауте.тк/ иленков/техтс/дмх/индех.хтмл](http://www.ауте.тк/ иленков/техтс/дмх/индех.хтмл).

4-MAVZU. FALSAFADA MANTIQNING ROLI

Reja

- 4.1. Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari. Iqtisodiy tafakkur.
- 4.2. Tushunchalarning shakllanishi va qo'llanishi.
- 4.3. Tushunchalar bilan bajariladigan mantiqiy amallar va xatoliklar.

4.1. Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari. Iqtisodiy tafakkur

Barchamizga ma'lumki, har bir fanning maqsadi insoniyatning hayotini moddiy va ma'naviy jihatdan yuksaltirishga xizmat qilishdir. Ayniqsa, bugungi axborotlashgan globallashtirish jarayonida murakkab ijtimoiy munosabatlar o'zining eng yuqori nuqtasiga chiqqan bir davrda yuqori darajadagi mantiqiy fikrlash madaniyatiga ega bo'lish talab qilinadi.

Yoshlarimizga "Mantiq" fanini o'qitishdan asosiy maqsad ham mantiqan izchil va aniq fikrlay oladigan inson qilib tarbiyalash, shu tufayli o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lishlari uchun ham nazariy, ham amaliy ko'nikmaga ega bo'lishlarini ta'minlashdan iborat. Bugungi kunda mustaqil fikrlash madaniyatini yuksaltirish, to'g'ri muhokama yuritishning mantiqiy shakllari va qoidalarini o'zlashtirish, bahs yuritish qoidalarini o'rganish, axborotlashgan jamiyatda chin va xato ma'lumotlarni farqlay olish ko'nikmasini shakllantirish yoshlarimiz uchun nihoyatda muhim.

Kelib chiqishiga ko'ra arabcha bo'lgan "mantiq" (grekcha—logos) atamasi «fikir», «so'z», «aql», «qonuniyat» kabi ma'nolarga ega. Uning ko'pma'noliligi turli xil narsalarni ifoda qilishda o'z aksini topadi. Xususan, mantiq so'zi, birinchidan, obyektiv olam qonuniyatlarini (masalan, «obyektiv mantiq», «narsalar mantig'i» kabi iboralarda), ikkinchidan, tafakkurning mavjud bo'lish shakllari va taraqqiyotini, shu jumladan, fikrlar o'rtasidagi aloqadorlikni xarakterlaydigan qonun-qoidalar yig'indisini (masalan, «subyektiv mantiq»

iborasida) va uchinchidan, tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fanni ifoda etishda ishlatiladi²⁵.


Har bir fanning o'rganish obyekti bo'lgani kabi mantiq fanining ham o'rganish obyekti mavjud. Bu tafakkur, uning shakllari va to'g'ri fikr yuritish qonunlaridir. Tafakkurning mohiyatini chuqur anglash uchun avvalambor uning bilish jarayonida tutgan o'rnini tushunib olish talab etiladi. Bilish bu insonning hayoti bilan ma'lum ma'noda bog'liq bo'lgan narsa va hodisalarni tushunishga intilishdir. Antik davrdan boshlab bilishning mohiyati, uning darajalari va bosqichlarini o'rganishga juda ko'p faylasuf-olimlar harakat qilganlar hamda bilish bosqichlarini asosan ikkiga bo'lganlar. Birinchisi bu hissiy bilish, ya'ni insonning sezgi organlari orqali bilish bo'lsa, ikkinchisi aqliy bilish, ya'ni tafakkur yordamida narsa va hodisalarning mohiyatini tushunish nazarda tutiladi. Ammo hissiy bilish aqliy bilish, ya'ni tafakkur bilan bevosita bog'liq. Lekin, shunga qaramasdan hissiy bilish o'z imkoniyatlari chegarasiga ega ekanligini unutmasligimiz lozim. Tafakkur bilishning yuqori bosqichi hisoblanadi va bunga sabab uning narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini aniqlay olishi, shuningdek, ular o'rtasidagi zaruriy hamda qonuniy bog'lanishlarni ko'rsatib bera olishidir. Masalan, insonning xarakteri, hayotga bo'lgan munosabati yoki odobiga qarab uning do'stlari qanday inson ekanligi, qanday oilada tarbiya topganligi to'g'risida xulosa chiqarishingiz mumkin. Bunga sizning tafakkuringiz yordam beradi. Shuningdek, tafakkurning til bilan bevosita bog'liq ekanligini, tafakkurning natijasi bo'lmish fikrni ifodalashda tilning vosita sifatida xizmat qilishini unutmaslik lozim.

Umuman olganda, tafakkurning asosiy xususiyatlaridan yana biri bu insonga ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish, tasavvur va fantaziya qilish imkoniyatini beradi. Chunki inson faqat tafakkur yordamida prognoz qilishi, narsa va hodisalarning eng nozik jihatlarini tushunishi mumkin.

Tafakkurning uch xil shakllari mavjud bo'lib, bular tushuncha, mulohaza (hukm) va xulosa chiqarish hisoblanadi. Tafakkur shakllari fikrning mazmunini tashkil etuvchi elementlarga qarab farqlanadi. Fikrning mazmunini tashkil etuvchi elementlar deganda fikrdagi

²⁵ M. Sharipov, D. Fayzixodjaeva, M.Safarboev. Mantiq. O'quv qo'llanma. –T.: 2008. B. 4.


ifodalangan belgilarni tashkil etuvchi axborot tushuniladi. Masalan, “**talaba**” tushunchasida maktabda o‘qiydigan, zavod yoki fabrikada ishlaydigan insonni emas, balki biror oliy ta’lim muassasasida o‘qiydigan inson tushuniladi. Har bir tushuncha o‘zining mazmuniga va hajmiga ega. Tushunchaning mazmuniga shu tushunchaga xos bo‘lgan belgilar kiradi. Masalan, “**avtomobil**” tushunchasining mazmuniga uning transport vositasi ekanligi, motor, kuzov, balonlar, yoritgichlari hamda rul qismlari kiradi. Ushbu tushunchaning hajmiga esa mavjud avtomobillarning soni, miqdori kiradi.



4.1.1-chizma.

Tushunchadan farqli ravishda mulohaza kengroq mohiyat va mazmunga ega. Mulohazada predmetlar o‘rtasidagi munosabatlar ifodalanadi, predmetga xos bo‘lgan belgilar haqidagi faktlar to‘liq yoki qisman tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi. Masalan, “**Mantiq to‘g‘ri fikr yuritishning qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan**” degan mulohazada mantiq faniga xos bo‘lgan belgi haqidagi ma’lumot tasdiqlangan. Yoki “**Inson – ongli mavjudot**” degan mulohazada ikki predmet bilan uning xossasi o‘rtasidagi munosabat ifodalangan. Mulohazalar mazmuniga ko‘ra, turlicha bo‘lsada tuzilishiga ko‘ra barcha mulohazalar bir xil bo‘ladi. Mulohazada predmet (**S**), ya’ni subyekt, predmetga xos bo‘lgan belgi (**P**) predikat deb nomlanadi va

umuman olganda mulohazaning tuzilishi “S—R” yoki “S—R emas” formulalari yordamida ifodalanadi.



4.1.2-chizma.

Tafakkurning uchinchi shakli bo‘lmish xulosa chiqarishda mulohazalar ishtirok etadi va muhim o‘rin tutadilar. Masalan,

“Har bir mustaqil davlat o‘z konstitutsiyasiga ega”.

“O‘zbekiston Respublikasi – mustaqil davlat”.

Demak, **“O‘zbekiston Respublikasi o‘z konstitutsiyasiga ega”.**

Yoki

“Avtomobil – transport vositasi”.

“Kaptiva – avtomobil”.

Demak, **“Kaptiva – transport vositasi”** va hokazolardir.

Mulohazalar (hukm)ning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlashda va ba‘zi boshqa holatlarda oddiy hukmlarning miqdor va sifati bo‘yicha birlashgan klassifikatsiyasi (asosiy turlari)dan foydalaniladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Umumiy tasdiq hukmlar. Ular bir vaqtning o‘zida ham umumiy, ham tasdiq bo‘lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Barcha insonlar ilm olish huquqiga egadirlar». Bu hukmlar **«Hamma S–Pdir»** formulasi orqali ifodalanadi.

2. Umumiy inkor hukmlar bir vaqtning o‘zida ham umumiy, ham inkor bo‘lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Hech bir biznesmen biznes


rejasiz ish yuritmaydi». Bu hukm «**Hech bir S–P emas**» formulasi orqali ifodalanadi.

3. Juz'iy tasdiq hukmlar bir vaqtning o'zida ham juz'iy, ham tasdiq bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Ba'zi yoshlar juda oriyatli». Bu hukm «**Ba'zi S–Pdir**» formulasi orqali ifodalanadi.

4. Juz'iy inkor hukm bir vaqtning o'zida ham juz'iy, ham inkor bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Ba'zi mutaxassislar o'z ustida ishlamaydilar». Uning formulasi «**Ba'zi S–P emas**» deb belgilanadi.

Mulohazadan tashqari tafakkurning uchinchi shakli xulosa chiqarishdir. Xulosa chiqarish ham mazmuni bo'yicha turlicha bo'lishi mumkin, ammo mantiqiy nuqtayi nazardan bir xil tuzilishga ega.

Xulosa chiqarish deb, bir va undan ortiq chin mulohazalardan ma'lum qoidalar yordamida yangi bilimlarni keltirib chiqarishdan iborat bo'lgan tafakkur shakliga aytiladi. Xulosa chiqarish jarayoni asoslar, xulosa va asoslardan xulosaga o'tishdan tashkil topadi. To'g'ri xulosa chiqarish uchun, avvalambor, asoslar chin mulohazalar bo'lishi, o'zaro mantiqan bog'lanishi kerak²⁶. O'z o'rnida xulosa chiqarishning ham deduktiv xulosa chiqarish, induktiv xulosa chiqarish va analogiya kabi turlari mavjud.



4.1.3-chizma.

²⁶ M. Sharipov, D. Fayzixodjaeva, M.Safarboev. Mantiq. O'quv qo'llanma. –Toshkent, 2008. B. 94.

Har qanday fikrning chin bo'lishi uchun fikr formal jihatdan to'g'ri qurilgan bo'lishi kerak. Fikrning to'g'ri bo'lishi uchun tafakkur qonunlariga rioya qilish talab etiladi.

O'z o'rnida tafakkur qonuni muhokama yuritish jarayonida fikrlar o'rtasidagi mavjud zaruriy aloqalardan iborat bo'ladi. Aynan shu qonunlarga amal qilsangiz fikringiz aniq va yetarli darajada asoslanadi.

Umuman olganda tafakkurni mantiq fanidan tashqari psixologiya, falsafa, kibernetika kabi fanlar ham o'rganadi. Boshqa fanlarda bo'lgani kabi mantiq fanining rivojlanib borishi bevosita uning turli tarmoqlarga bo'linishiga olib keldi. Jumladan, formal, matematik va dialektik mantiq kabi turli yo'nalishlar vujudga kelgan. Formal mantiq to'g'ri fikrlashning eng oddiy tamoyillari bilan tanishtirsa, dialektik mantiq qarama-qarshilikni tafakkur taraqqiyotining manbai sifatida ko'radi. Matematik mantiqda fikrlash jarayoni simvollar orqali tushuntiriladi. Matematik mantiqdan bugungi kunda kibernetika va boshqa texnik fanlarda samarali foydalanilmoqda. Shryoder, Fure, J. Bul, I. Poreskiy kabi olimlar ushbu fanning rivojlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shganlar.

Mantiq fanining o'rganish obyekti bo'lgan tafakkurning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy tafakkur kabi turli xil ko'rinishlari mavjud. Biz sizlar bilan iqtisodiy tafakkur va uning mohiyati haqida fikr yuritamiz. Iqtisodiy tafakkur mamlakatdagi iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiy qonunlar, tushunchalar va kategoriyalar asosida shakllanadi. Ya'ni har bir jamiyatning iqtisodiy tafakkuri shu jamiyatning iqtisodiy turmush darajasidan kelib chiqqan holda rivojlanadi. Iqtisodiy tafakkur bu ratsional iqtisodiy fikrlashning muammolari bilan bog'liq jarayondir. Mikroiqtisodiyotning eng muhim vazifalaridan biri ham bu aynan iqtisodiy tafakkurni shakllantirish hisoblanadi. Iqtisodiy tafakkur deb hodisa va jarayonlarning xarajat hamda foydalarini taqqoslash orqali idrok etishga aytiladi. Iqtisodiy tafakkur iqtisodiy birlashmalarning (xo'jaliklar, firmalar) xarajat va foydalarini taqqoslash asosida oqilona qarorlar qabul qilishni o'rganadi. Iqtisodiyotga oid har qanday harakatlar xarajatlar bilan bog'liq. Ya'ni bir tovarni sotib olish yoki ishlab chiqarish va boshqa tovarni sotib olish yoki ishlab chiqarishdan ko'ra iqtisodiy jihatdan foydaliroq yoki zararli ekanligini fikrlashdir. Masalan, yangi televizor sotib olish uchun ma'lum miqdordagi mablag' va bu pulga muqobil tovarlarni (muzlatgich, changyutgich)

xarid qilishdan voz kechish kerak. Insonlar qaysi tovarlarni qancha miqdorda ishlab chiqarish, sotib olish yoki sotish, o'z vaqtlarini qanday o'tkazish haqida oqilona qaror qabul qilishi, ya'ni o'qish yoki ishlash, agar ish bo'lsa, unda qayerda va qanday sharoitlarda ishlash yoki boshqa muqobillarini tanlashda qanday foyda va xarajatlar borligini taqqoslashadi. Har bir harakatning taxmin qilingan foydasi va uning kutilayotgan qiymati o'rtasidagi nisbat oshganida insonlar bu harakatni darhol qabul qilishadi. Chunki bu harakat inson uchun ko'proq foydali bo'ladi.

Iqtisodiy tafakkur quyidagi asosiy belgilar orqali tavsiflanadi:

1. Har bir inson hayoti davomida iqtisodiy tafakkuri orqali tanlovni amalga oshiradi. Iqtisodiy tanlov masalasi mikroiqtisodiyotning asosiy masalalaridan biridir.

2. Iqtisodiy tanlov birinchi navbatda individual shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Iqtisodiy tanlov iqtisodiy tafakkur sohasidagi asosiy tushunchadir. Xo'jaliklar va firmalarni boshqarishda kollektiv qarorlarni qabul qilish ham shaxslarning iqtisodiy tafakkuri bilan belgilanadi. Shu bilan birga, jamoada optimal yechimni tanlashda guruh manfaatlari va ijtimoiy tanlovlar muhim rol o'ynaydi.

3. Ratsional qaror qabul qilish. Har bir kishi muqobil oqilona tanlovni amalga oshirishga intiladi. Ya'ni maksimal darajada foyda olish uchun xarajatlar va foydalarni taqqoslab samaradorlikka erishishga harakat qiladi. Aslida insonlarning harakatlari har doim aqlidrokka asoslanadi. Lekin ba'zida ularning xatti-harakatlariga hissiyotlar, jismoniy va psixologik holati, boshqa odamlarning fikrlari va voqealar rivojlanishi istiqbollari to'g'ri baholay olmaslik ham ta'sir qiladi.

4. Iqtisodiy tanlov to'liq erkin ravishda amalga oshirilmaydi. U jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarga, iqtisodiy qonun va qoidalarga bog'liq.

Iqtisodiyotga oid tadqiqotlarni o'tkazishda, ayniqsa, yangi boshlagan iqtisodchilar uchun ratsional iqtisodiy tafakkurning shakllanishiga salbiy ta'sir etuvchi muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Birinchiidan, ular kundalik hayotda ishlatiladigan muomalada va iqtisodiyotda ba'zi atamalar va tushunchalarning turli xil talqin qilinishi bilan bog'liq. Masalan, "kapital" tushunchasi odatda kundalik hayotda ishlatiladigan muomalada faqat pul shaklida tushuniladi.

Ammo iqtisodiyot nazariyasida kapital iqtisodiy manba sifatida odamlar tomonidan yaratilgan real kapital, ishlab chiqarish vositalari sifatida tushuniladi.

Ikkinchidan, iqtisodiy tafakkurning to‘g‘ri shakllanishiga insoniyat tajribasi natijasida vujudga kelgan va hozirda obyektiv iqtisodiy tahlilga to‘sqinlik qilayotgan noto‘g‘ri g‘oyalar sabab bo‘ladi. Masalan, sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasidagi munosabatni iqtisodiy kategoriya sifatida o‘rganayotgan inson mahsulotni xaridorlarga aldab sotib ham foyda olish mumkin degan noto‘g‘ri fikr yuritishi mumkin.

Iqtisodiy tafakkurning shakllanish darajasini baholashning muhim usullaridan yana biri tahlil va sintezdir. Tahlil va sintez deyarli barcha fanlar uchun samarali qo‘llash mumkin bo‘lgan usullardan hisoblansada, iqtisodiy munosabatlar sharoitida iqtisodiy tafakkurni o‘rganish uchun uning ahamiyati juda beqiyosdir.

Tahlil – o‘rganilayotgan bir butunni alohida qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan o‘rganish. Tadqiqotchi voqea-hodisaning mohiyatini chuqur anglashi, u haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishi uchun uning ichki tarkibiy qismlarga kirib borishi zarur. Bu esa tadqiqot obyektini alohida tarkibiy qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan o‘rganish orqali amalga oshiriladi.

Sintez o‘rganilgan qismlardan olingan xulosa va natijalarni yaxlit jarayon deb qarab umumiy xulosa chiqarishdir. Murakkab iqtisodiy tizimlar shu yo‘l bilan o‘rganiladi, iqtisodiy tizim to‘liq tasvirlab beriladi²⁷.

4.2. Tushunchalarning shakllanishi va qo‘llanishi

Yuqorida ta’kidlanganidek, tafakkurning birinchi shakli tushuncha hisoblanadi. Tushuncha bu predmet va hodisalarning umumiy va muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakli hisoblanadi. Belgilar esa narsa va hodisalarni bir-biridan ajratuvchi yoki bir-biriga o‘xshashligini ko‘rsatuvchi xususiyatlaridir. Masalan, avtomobil tushunchasida avtomobillarning barchasini qamrab oladi. Lekin ularning har biriga xos bo‘lgan individual belgilarni ifodalamaydi,

²⁷ N.I. Xasanxonova. Iqtisodiy tafakkurni shakllantirish usullari va ularning tavsifi. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2014 yil.

balki predmetlarning umumiy va muhim belgilarini ifodalaydi. Aynan shu belgilar avtomobilni boshqa predmetlardan ajratib turadi. Shuningdek, har bir tushuncha hissiy bilish natijasi emas, balki analiz, sintez va umumlashtirish kabi mantiqiy usullardan foydalanish natijasida vujudga kelgan tafakkur shaklidir. Analizda (tahlil) narsa yoki hodisalar qismlarga yoki tomonlarga ajratilib alohida o'rganiladi. Sintez esa aksincha, qismlarga yoki tomonlarga ajratilib o'rganilgan hosil bo'lgan ma'lumotlarni birlashtirishdir. Umumlashtirish esa narsa va hodisalarning umumiy hamda muhim belgilariga ko'ra birlashtirilishi natijasida bitta tushuncha bilan bir sinfdagi barcha predmet va hodisalarni tushunish imkoni paydo bo'ladi. Tushunchaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri u bir so'z yoki bir nechta so'zlarning birikmasidan iborat bo'lishi mumkin. Masalan, "daraxt" yoki "Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti".

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, har bir tushuncha o'zining hajmiga va mazmuniga ega. Tushunchaning hajmiga shu tushunchada ifodalanayotgan barcha narsa va hodisalarning yig'indisi kiradi. Masalan, "telefon" tushunchasining hajmiga mavjud "Samsung", "Ayfon", "Mi" kabi barcha telefonning turlari kiradi.

Tushunchaning mazmunini shu tushunchada ifodalanayotgan narsa va hodisaning muhim belgilari tashkil etadi. Masalan, "telefon" tushunchasining mazmuniga uning aloqa vositasi ekanligi kabi telefonga xos bo'lgan umumiy va muhim belgilar kiradi.



4.2.1-chizma.

Tushunchaning mazmuni va hajmiga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri shuki, ular bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro teskari nisbatda shakllangan. Jumladan, tushunchaning hajmi qanchalik kengaytirilsa, uning mazmuni shunchalik torayadi va aksincha, tushunchaning hajmi qanchalik toraytirilsa, uning mazmuni shunchalik kengayadi. Shuningdek, tushunchalar mazmuni va hajmiga ko‘ra bir qancha turlarga bo‘linishini unutmaslik lozim. Masalan, yakka va umumiy, abstrakt va konkret, nisbatsiz va nisbatdosh kabi tushunchalarga bo‘linadi.


Mantiqda tushunchalarning mazmuni va hajmi o‘rtasidagi teskari nisbat qonuniga mos ravishda tushunchalarni chegaralash va umumlashtirish kabi amallar olib boriladi.

Tushunchani chegaralash, ya’ni hajmi keng tushunchadan hajmi tor tushunchaga tomon harakatlanishdir. Masalan, “telefon” tushunchasidan “Samsung” telefoni tushunchasiga o‘tsak, telefon tushunchasining hajmini chegaralagan bo‘lamiz. Agar “Samsung” telefonidan “Samsung A21” telefoni tushunchasiga o‘tsak, telefon tushunchasini yanada chegaralagan bo‘lamiz. Tushunchani chegaralashni davom ettiradigan bo‘lsak, yangi hosil bo‘lgan har bir tushuncha eskisiga nisbatan tur tushuncha hisoblansa, har bir eski tushuncha yangisiga nisbatan jins tushuncha hisoblanadi. Tushunchani chegaralash amalini toki yakka tushuncha hosil bo‘lgunga qadar davom ettirish mumkin va oqibatda yakka tushunchaga nisbatan tur tushuncha bo‘lmaydi. Masalan, tushunchani chegaralash amalining strukturasi keltiramiz.

A – Telefon.

B – “Samsung” telefoni.

C – “Samsung A21” telefoni.



4.2.2-chizma.


Tushunchalar ustida tushunchani umumlashtirish amallari ham bajariladi. Bu amal tushunchani chegaralashning aksi bo‘lib, hajmi tor tushunchadan hajmi keng tushunchaga qarab harakatlanadi.

Masalan, tushunchani umumlashtirish amalining strukturasi keltiramiz.

A – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.

B – Universitet.

C – Oliy ta’lim muassasasi.



4.2.3-chizma.

Berilgan tushunchani tur tushuncha deb qabul qilib, uning mazmunidan tur tushunchani hosil qiluvchi belgilarni chiqarib tashlasak mazmun jihatidan unga nisbatan tor, lekin hajmiga ko‘ra keng tushuncha, ya’ni jins tushuncha hosil bo‘ladi. Masalan, “Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti” tushunchasi mazmunidan faqat ungagina xos bo‘lgan tur belgilarni chiqarib tashlasak, “universitet” tushunchasini hosil qilamiz. Keyin “universitet” tushunchasi mazmunidan faqat ungagina xos bo‘lgan tur belgilarni chiqarib tashlasak, “oliy ta’lim muassasasi” tushunchasini hosil qilamiz. Umumlashtirish amalining chegarasi eng umumiy tushuncha, ya’ni kategoriya bilan tugallanadi.

Umuman olganda, tushunchalarni chegaralash va umumlashtirish amallari kundalik hayotimizda va ilmiy bilishning turli darajalarida keng foydalaniladi.

4.3. Tushunchalar bilan bajariladigan mantiqiy amallar va xatoliklar

Dunyodagi barcha narsa va hodisalar bir-birlari bilan o‘zaro aloqada bo‘lganligi uchun ularni aks ettiruvchi tushunchalar ham o‘zaro turli xil munosabatlarga ega. Bu munosabatlarning turlarini

aniqlash uchun taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan tushunchalarning farqini bilish talab etiladi.

Taqqoslanadigan tushunchalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular umumiy belgilarga ega bo'lib, hajmi va mazmuni jihatidan bir-biriga yaqin bo'ladilar. Masalan, "o'qituvchi" va "o'quvchi" tushunchalari taqqoslanadigan tushunchalar hisoblanadi. Chunki bu tushunchalar umumiy belgilarga ega va mazmuni hamda hajmi jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalardir.

Taqqoslanmaydigan tushunchalar esa bir-biri bilan uzoq aloqada bo'ladi va ko'p hollarda moddiy bo'lishdan boshqa umumiy belgiga ega bo'lmagan predmetlarni aks ettiradi. Masalan, "Malibu avtomobili" va "olma daraxti" tushunchalari taqqoslanmaydigan tushunchalar hisoblanadi. Taqqoslanadigan tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy munosabatlar mantiq fanida o'rganiladi va ular esa o'z o'rnida hajm jihatidan sig'ishadigan va sig'ishmaydigan tushunchalarga bo'linadi.

Sig'ishadigan tushunchalarning hajmi bir-biriga uch xil usulda mos keladi. Shu asosda ular o'rtasidagi munosabatlar ham uchga bo'linadi. Bular moslik, qisman moslik va bo'ysunish munosabatlaridir.


Moslik munosabatidagi tushunchalar bir-biridan faqat mazmuni bilangina farq qiladi va bitta predmetlar sinfini ifodalaydi.

Masalan, "Toshkent" va "O'zbekiston Respublikasining poytaxti" tushunchalari moslik munosabatiga kirishadi.

Ushbu tushunchalar orqali moslik munosabatining strukturasi keltiramiz.

A – Toshkent.

B – O'zbekiston Respublikasining poytaxti.



4.3.1-chizma.


Qisman moslik munosabatiga kirishadigan sig'ishadigan tushunchalarning hajmi qisman umumiylikka ega ekanligi bilan ajralib

turadi. Masalan, “o‘qituvchi” va “tadbirkor” tushunchalari moslik munosabatiga kirishadi.

Tushunchalar o‘rtasidagi qisman moslik munosabatining strukturasi keltiramiz.

A – O‘qituvchi.

B – Tadbirkor.



4.3.2-chizma.

Bu strukturadagi doiralarning kesishgan qismi shaxsning bir vaqtning o‘zida ham o‘qituvchi, ham tadbirkor bo‘lganligini bildiradi.


Sig‘ishadigan tushunchalar o‘rtasidagi bo‘ysunish munosabatida tushunchalardan birining hajmi ikkinchisining hajmiga to‘liq kirib, uni tashkil qiluvchi qismga aylanadi.

Masalan, “mamlakat” va “AQSH” tushunchalari bo‘ysunish munosabatiga kirishadi.

Tushunchalar o‘rtasidagi bo‘ysunish munosabatining strukturasi keltiramiz.

A – mamlakat.

B – AQSH.



4.3.3-chizma.

Bo‘ysunish munosabatida tushunchalardan biri bo‘ysundiruvchi (A – “mamlakat”) va ikkinchisi bo‘ysunuvchi (B -“AQSH”) tushuncha hisoblanadi. Ya’ni “mamlakat” jins tushuncha, “AQSH” esa shu tushunchaga nisbatan tur tushuncha hisoblanadi. Umuman olganda, mantiq fanida har bir tushuncha o‘zidan umumiyroq tushunchaga nisbatan tur, kamroq umumlashgan tushunchaga nisbatan jins tushunchadir. Masalan, “universitet” tushunchasi “oliy ta’lim muassasasi”

tushunchasiga nisbatan tur, ammo “Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti” tushunchasiga nisbatan jins tushuncha hisoblanadi.

Yuqoridagi kabi munosabatlar sig‘ishmaydigan tushunchalar o‘rtasida ham mavjud. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, hajmi jihatidan umumiylikka ega bo‘lmagan, ammo bir sinfga kiruvchi har xil predmetlarni yoki predmetlar guruhini aks ettiruvchi tushunchalar sig‘ishmaydigan tushunchalar deyiladi. Sig‘ishmaydigan tushunchalar qarama-qarshilik, zidlik va birga bo‘ysunish munosabatlariga kirishadi.


Sig‘ishmaydigan tushunchalar o‘rtasidagi qarama-qarshilik munosabatida tushunchalarning hajmi bir-birini inkor qiladi va predmetning qarama-qarshi belgilarini aks ettiradi. Bu munosabatda ikki qarama-qarshi munosabatdagi tushunchalar asosiy (o‘zlari bo‘ysunayotgan) tushunchaning hajmini to‘liq ifodalay olmaydi.

Masalan, “yangi avtomobil” va “eski avtomobil” tushunchalari “avtomobil” tushunchasining hajmini to‘liq qoplay olmaydi.

A – avtomobil.

B – yangi avtomobil.

C – eski avtomobil.



4.3.4-chizma.


Shuningdek, sig‘ishmaydigan tushunchalar o‘rtasida zidlik munosabati mavjud bo‘lib, ushbu munosabatda birinchi tushunchadagi predmetga xos bo‘lgan belgi ikkinchi tushunchada inkor qilinadi. Zidlik munosabatidagi tushunchalarning qarama-qarshilik munosabatidagi tushunchalardan farqi bu munosabatda tushunchalar asosiy (o‘zlari bo‘ysunayotgan) tushunchaning hajmini to‘liq ifodalay oladi.

Masalan, “rangli qog‘oz” va “rangsiz qog‘oz” tushunchalari “qog‘oz” tushunchasining hajmini to‘liq qoplay oladi.

A – Odam.

B – E'tiqodli odam.

C – E'tiqodsiz odam.



4.3.5-chizma.


Bundan tashqari sig'ishmaydigan tushunchalar o'rtasida birga bo'ysunish munosabati ham mavjud bo'lib, bu munosabatda hajmi jihatidan umumiy xususiyatga ega bo'lmagan tushunchalar birgalikda asosiy (o'zlari bo'ysunayotgan) tushunchaga bo'ysunadi.

Masalan, "Toshkent" va "London" tushunchalari "poytaxt" tushunchasining hajmiga bo'ysunadi.

A – poytaxt.

B – Toshkent.

C – London.



4.3.6-chizma.

Umuman olganda, tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish tushunchalarni o'zaro bog'lash orqali mulohazani shakllantirishga va ularning mazmuni va hajmini aniqlashga yordam beradi.

Shuningdek, tushunchalarning hajmini ajratish orqali tushunchalarni bo'lish amali ham bajariladi. Tushunchalarni bo'lishning dixotomik bo'lish, tasniflash, ta'riflash kabi turlari ham mavjud.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Mantiq fanining o'rganish obyektini tushuntirib bering.
2. Tafakkurning qanday shakllari mavjud?
3. Tushunchaning mazmuni va hajmi deganda nima tushuniladi?

4. Sig'ishadigan tushunchalar o'rtasida qanday munosabatlar mavjud?
5. Tushunchalar o'rtasidagi moslashuv munosabatini tushuntirib bering.
6. Tushunchalarni umumlashtirish va chegaralash deganda nimani tushunasiz?
7. Sig'ishmaydigan tushunchalar o'rtasida qanday munosabatlar mavjud?
8. Tushunchalar o'rtasidagi zidlik munosabatini tushuntirib bering.
9. Analiz va sintez o'rtasidagi farq nimadan iborat?
10. Mulohaza (hukm)ning qanday turlari mavjud?

Testlar:

- 1. Mantiq fanining o'rganish obyekti aniqlang.**
 - A) tafakkur, uning shakllari va to'g'ri fikr yuritish qonunlari
 - B) dunyoqarash va uning shakllari
 - C) ong va uning shakllari
 - D) aqliy bilish va uning bosqichlari

- 2. Tafakkurning mantiqiy shakllarini aniqlang.**
 - A) tushuncha, mulohaza (hukm) va xulosa chiqarish
 - B) tushuncha va uning turlari
 - C) mulohaza (hukm) va uning turlari
 - D) xulosa chiqarish va uning turlari

- 3. Mulohazaning tarkibiy tuzilishini aniqlang.**
 - A) predmet (S) ya'ni subyekt va predmetga xos bo'lgan belgi (P) predikat
 - B) predmet (S) ya'ni subyekt
 - C) predmetga xos bo'lgan belgi (P) predikat
 - D) predmet (O) ya'ni obyekt

- 4. «Hamma S–Pdir». Ushbu formula hukmning qaysi turiga tegishli ekanligini aniqlang.**
 - A) Umumiy tasdiq hukm

- B) Umumiy inkor hukm
- C) Juz'iy tasdiq hukm
- D) Juz'iy inkor hukm

5. Sig'ishadigan tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlang.

- A) moslik munosabati, qisman moslik munosabati, bo'ysunish munosabati
- B) moslik munosabati, bo'ysunish munosabati
- C) qisman moslik munosabati, bo'ysunish munosabati
- D) moslik munosabati, qisman moslik munosabati

Esse mavzulari:

1. Tafakkurning mantiqiy shakllari.
2. Iqtisodiy tafakkurning mohiyati.
3. Tushunchalarning shakllanishi.
4. Mulohaza (hukm)ning mohiyati.
5. Xulosa chiqarishda mulohazaning tutgan o'rni.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. M. Sharipov, D. Fayzixodjaeva, M.Safarboyev. Mantiq. O'quv qo'llanma. –T.: 2008. B. 4.
2. N.I. Xasanxonova. Iqtisodiy tafakkurni shakllantirish usullari va ularning tavsifi. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2014-yil.
3. Yoqubov T. Matematik logika elementlari. – T.: "O'qituvchi", 1983.
4. Benthem, J. F. A. K. van. (2011). Logical Dynamics of Information and Interaction. Cambridge: Cambridge University Press. Retrieved from <http://search.ebscohost.com/login.aspx?direct=true&site=eds-live&db=edsebk&AN=409031>
5. Анисов А.М. Темпоральный универсум и эго познание. – М., 2000. – 209 с. ИСБН 5-201-02034-8 - Режим доступа: [хттп://знаниум.ом/аталог/продут/346754](http://знаниум.ом/аталог/продут/346754)

6. Xayrullayev M., Haqberdiyev M. Mantiq. – T.: O‘qituvchi”, 1993.
7. Skirbekk, G., Gile, N. Falsafa tarixi. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent, “Sharq”, 2002.
8. Sharipov M., Fayzixo‘jayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2004.
9. Бочаров В.А., Маркин В. И. Основы логики. – М., 1994.
10. Сидоренко Э.А. Релевантная логика (предпосилки, исчисления, семантика). - М., 2000. - 244 с. - ИСБН 5-201-01925-0 - Режим доступа: [хттп://знаниум.ом/аталог/продут/345461](http://znaniyum.om/atalog/produt/345461)
11. Ивин А. А. Искусство правильно мыслит. – М., 1990.
12. https://studme.org/1843062410945/ekonomika/ekonomichesk_oemyshlenie_trudnosti_ratsionalnogo_ekonomicheskogo_myshleniya

5-MAVZU. PRAGMATIZM–TADBIRKORLIK FALSAFASI SIFATIDA

Reja

5.1. Pragmatizm tushunchasi va uning mohiyati. Pragmatizm va merkantillik.

5.2. Pragmatizm falsafasi namoyandalari. Pragmatizm prinsiplari.

5.3. Iqtisodiyotda pragmatizm.

5.1. Pragmatizm tushunchasi va uning mohiyati.

Pragmatizm va merkantillik

Pragmatizm (yunon tilidan *πραγμα* – harakat, ish, faoliyat) – Amerikada shakllangan falsafiy oqim sifatida amaliy faoliyatni falsafaning metodologik prinsipi sifatida qaraydi. Eng nufuzli falsafalardan biri bo‘lib, yunoncha «pragma» (pragmatos) sifatida talqin etilgan pragmatizm 1870-yillar shakllanib, XX asrning birinchi yarmida falsafiy yo‘nalish sifatida e‘tirof etildi. Ushbu yo‘nalish vakillari sifatida Ch.S.Pirs, U Jeyms, J.Devilar mashhur. Pragmatizm atamasi fanda I.Kant tomonidan o‘zining “Amaliy tafakkur tanqidi” asarida tilga olingan bo‘lsada, Amerika falsafasiga Ch.Pirs tomonidan olib kirilib, ilmiy muomalada o‘z o‘rnini topa boshladi.

XX asrning falsafiy maktablari orasida, shubhasiz, eng mashhurlaridan biri bu ko‘pincha ishbilarmon kishining falsafasi yoki chinakam Amerika falsafasi deb nomlangan pragmatizm yoki instrumentalizmdir. Ba’zida pragmatizmni pozitivizmning Amerikacha ko‘rinishi ham deyishadi. Ushbu falsafiy yo‘nalish XIX asrning oxirida shakllanishiga qaramasdan XX asrning birinchi yarmida Amerika intellektual doiralarida e‘tibor qozondi. Pragmatizm Amerika falsafasi olamida hukmron bo‘lgan an’anaviy sxolastik ta’limotlarga hamda Yevropa falsafiy olamida hukmron bo‘lgan an’anaviy metafizik konsepsiyalarga isyon sifatida maydonga keldi. Natijada, pozitiv falsafaning Amerikacha ko‘rinishi sifatida ommaviy tus ola boshladi. Uning asoschilari o‘zlari ilgari surgan nazariya va usullar jamiyat taraqqiyotida intellektual salohiyatning o‘rnini yuksaltirishni ta’minlaydi, degan konseptual g‘oyani ilgari suradilar. Pragmatizm

falsafasining markaziy tushunchasi qobiliyat bo‘lib, u inson tafakkurida mavjud bo‘lgan tug‘ma yoki tajriba asosida shakllangan bo‘lishi mumkin. Bunda falsafaning vazifasi ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qobiliyatni mukammallashtirib borishdan iborat.

Pragmatizm tushunchasi ilmiy muomalaga ingliz tilidan kirib kelgan bo‘lib, tarjimada “harakat”, “ish”, “faoliyat” degan ma’nomlarni anglatadi. Dastlab, pragmatizm falsafa fanida qo‘llanilib, hayotiy voqelikdan uzilgan abstrakt falsafiy qarashlarga qarshi maydonga kelgan bo‘lsa, bugun fan tarmoqlarining ko‘plab sohalarini qamrab olayotganligi e’tiborlidir. Shu nuqtayi nazardan pragmatizm – harakat va maqsadli faoliyatni inson mohiyatiga xos xususiyat sifatida qaraydi.

Pragmatizm pozitivizm tushunchasi bilan ham o‘zaro aloqador. Pozitivizm – fransuzcha “positivism”, yunoncha “positivus” – ijobiy degan ma’noni anglatib, empirik, ya’ni tajribaga asoslangan bilimlarning haqiqiylikini tan oluvchi, ya’ni haqiqiy bilimning birdan-bir manbasi empirik tadqiqotlarga asoslanuvchi bilim ekanligiga urg‘u beruvchi falsafiy yo‘nalishdir. Shu nuqtayi nazardan pragmatizm va pozitivizmning o‘zaro aloqasini, bog‘liqligini tan oluvchi tadqiqotchilarning fikrini inkor etib bo‘lmaydi. Bunday qarashlarda ham o‘ziga xos haqiqat mavjud. Ya’ni, pragmatizm va pozitivizmning umumiylik mohiyatini ta’minlab turuvchi, bog‘lovchi halqa – empirizmdir. Ma’lumki, empirizm tushunchasi fransuz tilida “empirisme”, yunon tilida “empeiria” – tajriba degan ma’noni anglatib, amaliy faoliyatga moyillik, tajribadan foydalanish orqali biror-bir natijalarga erishishdir.

Shunday qilib, pragmatizm – XIX asrning oxirida Amerikada vujudga kelgan falsafiy oqim bo‘lib, asosiy mohiyati zamirida har qanday g‘oya, hukm, mulohaza amaliy qiymatga ega bo‘lgan taqdirdagina qadriyatga aylanadi, degan konseptual fikr yotadi. Ya’ni amaliy ahamiyatga ega bo‘lmagan qarashlar esa ijtimoiy voqe’lik tomonidan qabul qilinmaslikka, ya’ni rad etilisha mahkumdirlar, – degan qarashni ilgari suruvchi yo‘nalish. Pragmatizm – bu ma’lum bir falsafiy dunyoqarash bo‘lib, uning mohiyati narsalar, g‘oyalar yoki harakatlarni faqat ularning amaliyligi va maqsadga muvofiqligi nuqtayi nazaridan baholashdir. Pragma, ya’ni ish, harakat, faoliyat tushunchalarining mohiyatidan kelib chiqib, insonning harakatlari, faoliyati, uning dunyoni shaxsiy idrok etishining tahlili pragmatizmning asosidir, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Bu yerda xatti-

harakatlardagi asosiy mazmun faoliyatning samaradorligi hamda muvaffaqiyatidir. Falsafa insonga o'z harakatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga, har qanday ishda muvaffaqiyat qozonishga tafakkur imkoniyatlari bilan faoliyatning yaxlitligini ta'minlashga yordam berishi lozimligini ta'kidlaydi. Pragmatizm yuqoridagi maqsadlarga yo'naltirilganligi bilan ham metodologik, ham empirik xarakterdagi yo'nalishlarning faoliyatlarini umumlashtirishi bilan e'tibori ortib bormoqda. Pragmatistik tafakkur bo'yicha shaxs zimmasidagi mas'uliyat – jamiyatda o'zining munosib o'rnini topishdan iborat bo'lib, ushbu masalada falsafa unga yo'nalish berishi lozim. Inson faoliyatining asosiy kriteriyasi – o'z yutuqlarini ta'minlab borishdan iborat. Bunday intilishlar uning hayotiy muvaffaqiyatlarini yaratib borib, hayotda o'z o'rnini, o'z "men"ini topishiga ko'maklashadi. Buning uchun diniy omil va e'tiqodning mukammal yuksalishni ta'minlovchi jihatlardan foydalanish lozimligi g'oyasi ilgari suriladi. Ushbu jihatlari orqali dunyoqarash sifatida falsafani o'rnatilgan an'anaviy nazariy-sxolastik yo'nalishlaridan isloh qilib, inson hayotini ijobiy lashtirishga yo'naltiruvchi konsepsiyalarni ilgari surishdan iborat. Pragmatizm oqimining asosiy g'oyasi – har bir individ hayotiga mas'uliyat bilan yondashib, o'z turmushidan, umuman hayotdan qoniqish asosida farovonlik darajalarini ta'minlab borishdan iborat. Tarix fanida pragmatizm o'tmish voqealarini sharhlash bilan bir qatorda bunday voqealarga undagan tarixiy shaxslar siyosiy arboblarning roliga urg'u berish lozimligi sifatida qaraladi. Kundalik turmushda esa pozitiv natija va amaliy naf ko'rishga yo'naltirilgan qarashlar va intilishlarni yetakchi o'ringa qo'yuvga strategik faoliyat sifatida baholamoq lozim. Demak, pragmatik – hayotga bo'lgan qarashlarini hamda o'z harakatlari tizimini foydali amaliy natijalarini ta'minlashga yo'naltirgan optimist shaxs bo'lib, o'ziga va o'zgalarga qadriyat sifatida qarab, ehtirom asosida munosabatda bo'ladi. Pragmatiklik esa – tanlagan hayotiy strategiyasini amaliy intilishlar asosida ta'minlovchi rejali faoliyatdir.

Pragmatistik falsafa zamonaviy ilm-fanga xos bo'lib, ijtimoiy faoliyatni ta'minlaydigan bilish usulini yaratishga hissa qo'shganligi ijobiy holdir. Ilm-fan vakillari nuqtayi nazaridan, bizni behuda fikr yuritishni emas, balki harakat qilishni ham o'rgatadigan pragmatizm, ya'ni fikrlash bilan bir qatorda amaliy faoliyatning ham muhimligi

g‘oyasini ilgari suruvchi pragmatik dunyoqarash falsafaning azaliy muammosini to‘g‘ri tushunishga imkon beradi. Ya‘ni, “Haqiqat nima?” – degan savolga javob sifatida tafakkur kengliklaridagi maqsad bilan amaliy faoliyatdagi uyg‘unlikni ta‘minlay olish mahoratidir, deya bilish. Bunday javob pragmatistik falsafa zamirida yetilganligi bilan ham pragmatizm, shaxs, jamoa, jamiyat muvaffaqiyatini ta‘minlashga yo‘naltiruvchi oqim sifatida ham e‘tiborni tortadi.

Haqiqatni aniqlashda pragmatistlar aksiologiyaga, qiymat xususiyatlariga e‘tibor qaratishadi. Pragmatizm falsafasi inson xulq-atvorini o‘rganishga qiziqishni kuchaytiradi. Ularning nuqtayi nazari bo‘yicha, bu imon, odat yoki e‘tiqod bilan belgilanadi. Jamiyatni va odamni o‘zgartirishning universal usuli bu odatlarni ijobiy va ijodiy faoliyat bilan o‘zgartirib, boyitib borishdir. Falsafada pragmatizm fan faqat real hayotdan olis bo‘lgan nazariy masalalar bilan shug‘ullanmasdan insonning amaliy faoliyati uchun xizmat qiluvchi muammolar yechimi bilan shug‘ullanishi lozimligi haqida fikrni ilgari suradi.

Pragmatizm o‘z navbatida merkantilizm tushunchasi bilan ham ma‘lum yo‘nalishda kesishadi. Merkantilizm tushunchasi fransuzcha “mercantilisme”, “mercantile” – savdo, italyanча “mercante” – savdogar, tijoratchi ma‘nolarini anglatib, Angliya, Fransiya, Italiya va boshqa davlatlarda buyuk kashfiyotlar davri, kapitalning dastlabki jamg‘arilishi davrida vujudga kelgan. Yangi geografik hududlarning o‘zlashtirilishi hamda nisbatan qoloq davlatlarni koloniya sifatida egallash natijasida savdo kapitalining vujudga kelishini ta‘minladi. Bu jihat esa o‘z navbatida yangi iqtisodiy dunyoqarashning shakllanishiga olib keldi. Natijada merkantilizm tushunchasi o‘sha davr iqtisodiy hayotini ifodalovchi nuqtayi nazar sifatida ijtimoiy-siyosiy leksikonda mustahkam o‘rin egallay boshladi. Pragmatizm bilan merkantilizmning farqi shunday iboratki, merkantidizm faqatgina moddiy foyda olishga asoslansa, pragmatizm amaliy faoliyatdan faqatgina moddiy foyda emas, balki ruhiy qoniqish, savob ishlarni bajarib yurishni ham ifodalaydi.

Merkantilistlar mavjud iqtisodiy nazariyaga bir qator muhim qoidalarni kiritdilar. Ular har bir millat boyligining mustahkam poydevorini tabiiy mahsulotlarni ko‘paytirishda emas, balki pul (oltin va kumush tangalar) to‘plashda ko‘rdilar. Bunday yig‘im va to‘plamlar manbayi, ularning fikriga ko‘ra, savdoda vujudga keluvchi foyda deb

hisoblaydilar. Ammo agar tovarlarni pulga almashtirish mamlakat ichida sodir bo'lsa, unda ba'zi odamlar boshqalar hisobiga boyib ketishlari mumkin, ammo milliy boylikning umumiy miqdori ko'paymaydi. Merkantilistlarning fikriga ko'ra, davlatning maqsadli tashqi savdo siyosati tufayli boylik ko'payadi va boylik manbai boshqa davlatlar bilan savdo aloqalari tufayli ko'payib boradi, deb hisoblaganlar.

Merkantilizmning dastlabki ko'rinishi sifatida (XV asrning so'nggi choragi – XVI asrning o'rtalarida) pul tizimi deb belgilanib, xarakterli belgi sifatida aktiv pul balansi, ya'ni mamlakatga olib kiriladigan pul miqdorining mamlakatdan olib chiqib ketilayotgan pul qiymatidan oshib ketishi ijobiy hol sifatida qaraladi. Shu maqsadda chet mamlakatlardan iloji boricha ko'proq mablag' jalb qilib, oltinni mamlakatda saqlash, pul mablag'larini oltin zaxiralaridan kam sarflash va boshqa davlatlarga oltin eksport qilishni taqiqlash, chet el savdogarlari faoliyatini qat'iy nazorat qilish, chet el tovarlarini olib kirishni cheklash, yuqori bojlarni belgilash kabi xarakterli xususiyatlar xos edi.

Merkantilizm Angliyada yuqori darajada rivojlanishga erishdi. Uning rivojlanishining dastlabki bosqichi Uilyam Stafford nomi bilan bog'liq. Monetarizm konsepsiyasini ishlab chiqishda Uilyam Stafford chet elga pullarning chiqib ketishini salbiy holat sifatida baholadi. U pul boyligini saqlash va to'plash muammolarini asosan ma'muriy choralar orqali hal qilishni taklif qildi, ya'ni pulni eksport qilishni taqiqlash, bezaklar va ziynatli tovarlarni olib kirish va hokazo. Milliy tovarlar ishlab chiqarishni kengaytirib, ularning eksportini yo'lga qo'yish g'oyalari ham monetarizm konsepsiyasining xarakterli xususiyati edi.

Bozor munosabatlari sharoitida pragmatizm va merkantillik birbirini to'ldirib keluvchi faoliyat sifatida e'tiborni tortadi. Zero, bozor iqtisodiyoti maqsadli amaliy faoliyatni, ya'ni dunyoqarashning empirik xarakterini xush ko'radi. Bunday amaliy faoliyat esa jamiyatda qabul qilingan axloqiy normalar asosida bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, savdo yoki biznesning biror-bir turi bilan shug'ullanishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan pragmatizm va merkantilizm shaxs, jamoa va jamiyatning moddiy taraqqiyotini ta'minlovchi omil

sifatidagi, ya'ni moddiy olam osmonida parvoz qiluvchi burgutning ikki qanoti sifatida ahamiyatli.

5.2. Pragmatizm falsafasi namoyandalari. Pragmatizm prinsiplari

Pragmatizm AQSHda vujudga keldi va keng tarqalib, Amerika hayot tarzining o'ziga xos mafkuraviy asosiga aylandi. Pragmatizm falsafasining boshlang'ich asoslari 1870-yillarda amerikalik faylasuf, matematik va mantiqchi Charlz Pirs (1839–1914) tomonidan yaratilgan. Ammo mukammal falsafiy ta'limot sifatida pragmatizm XX asrning boshlarida shakllana boshladi, uning taniqli vakillari Uilyam Jeyms (1842–1910) va Jon Devi (1859–1952) edilar.

5.2.1-jadval

Pragmatizm asoschilari

Charlz Pirs,
Amerika faylasufi
(1839–1914-yy.)
Asarlari

Uilyam Jeyms,
Amerika faylasufi
(1842–1910-yy.)
Asarlari

Jon Devi
Amerika faylasufi
(1859–1952-yy.)
Asarlari



Bizning g'oyalimizni qanday tushunarli qilish kerak (1878); "Insonga tegishli bo'lgan ba'zi qobiliyatlarning nisbiyligi masalalari" (1868); To'rt qobiliyatsizlikning ba'zi oqibatlari (1868); "Ishonchlilik asoslari" (1868); E'tiqodni mustahkamlash (1878).



Psixologiyaning asoslanishi (1890); E'tiqodga ixtiyor (1897); Diniy qobiliyatning ko'pqirraligi (1902); Pragmatizm (1907); Plyuralistik koinot (1909)



Falsafadagi rekonstruksiya (1920); Qobiliyat va tabiat (1925); To'g'rilikni izlash (1929)

Pragmatizm falsafasining shakllanishi shubhasiz, XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida amerikalik tadqiqotchilar Charlz Pirs va Uilyam Jeymslar tomonidan falsafiy ta’limotlar – ontologiya, epistemologiya, metodologiya, ijtimoiy falsafa va antropologiya bilan bog‘liq bo‘lgan an’anaviy bilimlarning empirik qirralarini ochib beruvchi nazariya sifatida vujudga keldi.

Charlz Pirs va Uilyam Jeyms falsafiy qarashlari markazida o‘z tashvishlari, kechinmalari va manfaatlarini mujassamlashtiruvchi shaxs turadi. Charlz Pirs pragmatizm g‘oyalarini ifodalovchi:

1. "Ishonchga shubha qilish nazariyasi"
2. "Ma’no nazariyasi" asarlari ilmiy doiralarda keng tilga olinadi.

Ch.Pirsning "Ishonchga shubha qilish nazariyasi"ga ko‘ra, inson ongida haqiqatni aks ettirmaydi, balki hayot uchun tug‘ma instinktlarning rivojlanishini, ya’ni atrof-muhit sharoitlariga javob berish odatini rivojlantirishga qaratilgan biopsixologik funksiyani, bu odat o‘z navbatida e’tiqodni vujudga keltiradi. Fikrlashning yagona maqsadi esa barqaror ishonchga erishishni ta’minlashdir. Harakat jaholatdan bilimga emas, balki shubhadan qat’iy fikrga va mustahkam e’tiqodga aylanadi.

"Ma’no nazariyasi"da Charlz Pirc tushunchalarning ma’nosini lug‘at bo‘yicha emas, balki insonning amaliy harakatlarida, ya’ni ma’lum bir atama mohiyatini anglash va uni aniqlash masalasini shaxs faoliyati bilan bog‘laydi.

Uilyam Jeyms «radikal empirizm» konsepsiyasini ilgari surib, bunda inson qobiliyati va reallik bir butun tushuncha sifatida qaralib, bunda insonning tashvishli hayoti realliklardan tashqarida bilimga bo‘lgan ehtiyoj deb qaraladi. Demak, mutafakkir inson o‘z qobiliyatini yo‘lga qo‘ya olmaslik (o‘z realliklaridan tashqarida qolishi) – uning tashvishlarining bosh sababchisi, bu tashvishdan chiqish yo‘li esa ilmdir. Shu nuqtayi nazardan ilm inson manfaatlariga xizmat qilishi kerak. Olim pragmatizmni haqiqat nazariyasining aniq komponenti sifatida qarab, e’tiqodni har bir insonning o‘zining hayoti kabi shaxsiy ishi deb baholaydi.

Pragmatizm vakili Uilyam Jeymsning falsafiy ta’limotlari Amerikaning Yevropa madaniyatiga qo‘shgan hissasi sifatida, ya’ni amerikanizm ruhining ifodasi sifatida qaraladi. Jeymsning eng mashhur asarlari orasida: “Diniy tajribaning xilma-xilligi” (1902),

«Ong mavjudmi?» (1904), «Pragmatizm» (1907), «Koinot plyuralizm nuqtayi nazaridan» (1909) asarlari ajralib turadi. Uning psixologik tushunchalari Pirsning ta'sirida shakllandi, ular o'zaro yaqin munosabatda bo'lib, "metafizik klub" deb atalgan Garvarddagi matematiklar, tabiatshunoslar, huquqshunoslar, ilohiyotchilar guruhining a'zolariga aylandi. Pirsning murosasiz empirikligi ta'siri Jeyms tomonidan "Psixologiya tamoyillari"da ishlab chiqilgan "ong oqimi" tushunchasida ham seziladi. Shuningdek, Jeyms psixologiya rivojlanishining ma'lum natijalarini empirik fan sifatida umumlashtirishga urinishda uning pragmatizmi yaqqol namoyon bo'ladi.

Uilyam Jeyms tomonidan ilgari surilgan "ong oqimi" tushunchasida his-tuyg'ularni yetakchi o'ringa qo'yib, "radikal empirizm" deb ataydi. Tajriba falsafaning asl tushunchasidir, shuning uchun Uilyam Jeyms o'zining falsafasini "radikal empirizm" deb atab, tajriba inson hayotining barcha sohalarini va uning faoliyatining barcha turlarini qamrab oladi, – deydi.

Nima anglansa bu tajriba, bu hislar, hissiyotlar, hayajonlar tajribalari oqimi sifatida tushuniladi. Uilyam Jeyms Gegelning ta'limotiga ergashib, tajriba konsepsiyasining mazmunini kengaytiradi. Uilyam Jeymsning fikriga ko'ra, ilm ham, din ham tajribaga asoslanadi. Biroq, dunyoning diniy va ilmiy qiyofalari shunchalik farq qiladiki, ularni yarashtirish umuman imkonsiz bo'lib tuyuladi. Bundan tashqari, insoniyat tajribasi sohasini kelishuvga yetkazish uchun ishlab chiqilgan falsafa o'zi juda ko'p qarama-qarshi ta'limotlarga bo'linadi, degan fikrni ilgari suradi.

Pragmatizmning yana bir vakili Jon Devi (1859–1952) bilish muammolarini o'rganar ekan, pragmatizmning markaziy konsepsiyasi – tajriba ekanligi, va bu jihat inson hayotiy faoliyatining asosiy qirrasini ekanligi g'oyasini ilgari suradi. Pragmatizmni ontologik muammolar qiziqitirmaydi, deydi Jon Devi. Falsafa odamlarning haqiqiy ehtiyojlari, ularning manfaatlari, ularni faylasufga aylantiruvchi hayotiy muammolar, turmush keskinliklari yechimi bilan bog'liq bo'lishi kerak, – deydi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, pragmatizm falsafasining asosida qobiliyatni rivojlantirib borish yotadi. Bu borada Jon Devi qobiliyatni rivojlantirishning uch yo'lini ko'rsatadi, bular:

- qobiliyatni yuksaltirishda ilmiy usullarni, chunonchi yuksak texnologiyalarni qo‘llash;
- tafakkurni yuksaltirish;
- ijtimoiy rekonstruksiya, ya’ni jamiyatni mukammallashtirish (kambag‘allikka qarshi kurashish, inson huquqlarini ta’minlash, boshqaruv mahoratini takomillashtirish, ziddiyatlarni yumshatish).

Falsafaning markazi Jon Devining fikriga ko‘ra, gnoseologiya. Falsafaning boshlanishi har doim faoliyatdagi murakkabliklar bo‘lib, falsafiy metodologiya inson harakatlarining muvaffaqiyatini ta’minlashga mas’ul. Shuning uchun har bir shaxs tafakkurida olamni bilishning bitta emas, balki ko‘plab metodlari yoki usullari, harakatlarning samaradorligi va uning muvaffaqiyatini ta’minlaydigan vositalar bo‘lishi kerak.

Pragmatizmning tamoyillari sifatida tajriba yoki amaliyotning ustuvorligi, nazariya va konsepsiyalarni moddiylashtirish mumkin emasligi, naturalizm va antikartezianlik prinsiplari ilgari surilgan.

Amaliyotning ustuvorligida pragmatist insonning nazariy qobiliyatidan kelib chiqadi, bu uning intellektual amaliyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Faoliyatning turli sohalari sifatida nazariya va amaliyot bir-biriga qarshi emas, aksincha, nazariya va tafakkurdagi tahlil hayotda to‘g‘ri yo‘lni topish uchun vosita yoki "xarita"dir. Jon Devi ta’kidlaganidek, nazariya va amaliyotni ajratmaslik kerak; aksincha, intellektual amaliyot va ma’lumotsiz, savodsiz amaliyotni ajratish mumkin. U shuningdek Uilyam Montagey haqida "uning faoliyati ongni amalda qo‘llashda emas, balki amaliyotni intellektuallashtirishdan iborat" degan fikrni ilgari surgan. Nazariya bevosita tajribaning mavhum ifodasidir va nazariya o‘z navbatida tajribani o‘z ma’lumotlari bilan boyitishi lozim.


Nazariya va konsepsiyalarni moddiylashtirish mumkin emasligi tamoyili sifatida Jon Devi o‘zining "To‘g‘rilikni izlash" asarida kategoriyalarni (aqliy yoki jismoniy) ustuvor deb qabul qiladigan faylasuflarni, ular ma’lum muammolarni hal qilish uchun inson tomonidan o‘ylab topilgan har qanday tushunchalarning nominal mohiyatini tushunmasliklari, ularni mutlaqlashtirish sababli tanqid qiladi. Bu metafizik yoki konseptual chalkashlikka olib keladi, – deydi Jon Devi. Bunga Gegelchilarning mutlaq borliq haqidagi qarashlari,

yoki mantiqning aniq fikrlashdan kelib chiqadigan mavhumlik sifatida tafakkur bilan umuman aloqasi yoʻqligi haqidagi fikrini ilgari suradi.

Naturalizm va antikartezianlik tamoyilida pragmatik faylasuflar doimo falsafani unga ilmiy uslubni kiritish orqali isloh qilishga intilganlar. Ular materialistlarni ham, idealistlarni ham insoniyatda mavjud bilimlar ilm bera oladigan bilimlarga nisbatan koʻproq ekanligi gʻoyasiga sodiq boʻlganliklari uchun ham tanqid qiladilar. Bunday urinishlar asosan Kant falsafasiga borib taqaladigan fenomenologiyaga va bilim bilan haqiqatning mosligi nazariyasiga boʻlinadi (yaʼni bilim obyektiv haqiqat bilan uyqashligi).

5.2.2-jadval

Pragmatizmning asosiy xususiyatlari



Pragmatizmning prinsiplaridan kelib chiqqan holda uning asosiy xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

- Gumanizm, yaʼni individual shaxs hamma narsaning oʻlchovi sifatida qaraladi;
- Haqiqat mezonini amaliyotda koʻrish, verbalizmning har qanday koʻrinishini rad etish (verbalizm bu yerda – qogʻozbozlik, qogʻozlarda ifodalangan farovonlik, haqiqat va adolat haqidagi nazariy qarashlar nazarda tutiladi);

- Plyuralizm – mutlaqlashtirilgan konsepsiyalardan voz kechish, yangidan yangi alternativ konsepsiyalarni ilgari surish;
- Radikal empirizm – faqatgina idrokda shakllangan qarashlarga bog‘lanib qolmasdan, tajriba va qobiliyatni rivojlantirishga e‘tibor qaratish;
- Personalizm – shaxsning ustuvorligini insonning yaratuvchi bilan aloqasi orqali erkinlik va axloqiy tarbiyani yuksaltirish;
- Ongli antropomorfizm – tafakkur orqali organizmni atrof-muhitga moslashtirish.

Demak, pragmatizmning e‘tiborli tomoni shundan iboratki, unda falsafa faqat nazariy qoidalar bilan cheklanib qolmasdan, nazariy qarashlar amaliyotning rivojiga xizmat qilishi lozimligi haqidagi falsafada konseptual yo‘nalish sifatida ham XIX asrning ikkinchi yarmi, hamda XX asrda falsafaning rivojlanishiga hissa qo‘shib keldi. Va bugungi kunda ham nazariya va amaliyotning uyg‘unligini ta‘minlashda o‘ziga xos o‘rin tutmoqda.

5.3. Iqtisodiyotda pragmatizm

Pragmatizm amaliy faoliyatning ustuvorligiga tayanuvchi konsepsiya sifatida bugungi bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy faoliyatning muvaffaqiyatini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, shaxs, jamoa va jamiyatning iqtisodiy faoliyati amaliy harakat va faoliyatdan foyda ko‘rish xususiyati bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois, mamlakatimiz aholisi, xususan yoshlarda pragmatik dunyoqarashni yuksaltirib, ular faoliyatini bozor munosabatlari talablari bilan muvofiqlashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. Shu nuqtayi nazardan aholi, xususan yoshlar orasida tadbirkorlik, oilaviy biznes va kasanachilikni rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ma‘lumki, hozirgi davr yoshlarining bilim darajasi, fikrlashi, dunyoqarashi, ma‘naviy qiyofasiga qarab o‘sha jamiyatning ertangi kunini aniq tasavvur etish mumkin. Zero, yoshlar jamiyatning tub negizi, aholining ilg‘or qatlami, kelajakning ishonchli egalaridir. Bozor munosabatlariga o‘tish davrida ustuvor hisoblangan davlat ilmiy-texnika siyosatining mohiyati respublika ichki talabini tez qondiradigan, jahon bozorida raqobatdosh bo‘la oladigan, iqtisodiyot

tarmoqlari tubdan yangilanishiga imkon beradigan ilmiy va texnologik tadqiqotlarga ko‘maklashishdan iborat bo‘ldi.

Davlat innovatsion siyosati mahalliy mahsulotlar raqobatdoshligini oshirish, barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash, aholining turmush sifati va darajasini oshirish, texnologik va ekologik xavfsizligini ta‘minlash uchun innovatsion faoliyat ustuvorliklarini tan olishdan kelib chiqib shakllantiriladi va amalga oshiriladi. Davlat innovatsion siyosatining asosiy maqsadi innovatsion faoliyat uchun mahalliy mahsulotlar raqobatdoshligining o‘shishi, fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalarini hal etishni ta‘minlaydigan iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratish hamda mamlakatning mudofaa qobiliyatini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini mustahkamlashdan iborat bo‘lib, ushbu jihatlar pragmatik g‘oyalarni o‘zida mujassam etganligi bilan ham e‘tiborni tortadi.

Pragmatik konsepsiyalarga asoslangan ilmiy faoliyat davlat siyosatining eng faol sohasi bo‘lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. Bugungi yangilanishlar sharoitida davlat biznesning ta‘minlash funksiyasini, aniqrog‘i, pragmatik dunyoqarash bilan sug‘orilgan ilmiy bilimlar va g‘oyalar bilan ta‘minlashni o‘z zimmasiga olmoqda. Aynan shuning uchun ilg‘or mamlakatlar rasmiy hujjatlarida ilmiy-texnika taraqqiyotiga yagona zanjir, ilmiy g‘oya ishlab chiqarish, innovasiya biznesini keng ko‘lamda qo‘llash yoki foydalanish sifatida qaraladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham ilmtalab va yuksak texnologiyalarga asoslangan mahsulotlarga ehtiyoj katta. Shu bois butun dunyoda yangi va ilg‘or texnologiyalarning bozori oshmoqda. Mamlakatimiz aholisining asosiy qismi, ya‘ni 64 foizdan ko‘proq qismi yoshlardan tashkil topganligi va bu o‘z navbatida mehnatga yaroqli aholining ko‘pligi katta intellektual imkoniyatlarga egaligini ham namoyon etadi. Davlatimiz rahbarining ilm-fanni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratayotgani tufayli ushbu salohiyat yuksalib bormoqda. Har yili istiqbolli ilmiy g‘oya va loyihalarni amalga oshirish uchun davlat grantlari va tenderlar ajratilmoqda. Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida ro‘yobga chiqarilayotgan fundamental va amaliy tadqiqotlar mamlakat ilm-fani uchun ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlarimizni tadbirkorlikka jalb qilishda ularning bilim darajasi, kompyuter texnologiyalaridan foydalanishi muhim ahamiyatga ega.

Yoshlar siyosatini amalga oshirishda innovatsion-pragmatik tizimning o'rnini fan va texnologiyalarni rivojlantirish, innovatsion loyihalar va biznes, interaktiv munozaralar (davra suhbatlari), aqlli shaharlarni bunyod etishda namoyon bo'ladi. Bunda turli ijtimoiy ahamiyatga ega sohalarda yoshlar tashabbuslari va innovatsion loyihalarini qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratish lozim. Ochig'ini aytish kerak, bugun mamlakatimizda yoshlar muammolarini yechishga qaratilgan dastur va tadbirlarni amalga oshirishda, voyaga yetib kelayotgan yosh avlodning hayotda o'ziga munosib o'rin topishi, ularni ish bilan ta'minlash, sog'lom turmush kechirishi uchun imkoniyat tug'dirish, yoshlar ongida zamonaviy dunyoqarashni qaror toptirish, ijtimoiy hayotdagi muammo va to'siqlarni bartaraf etish, ularning huquq va erkinliklarini to'la amalga oshirishlari uchun sharoit yaratib berish kabi o'ta muhim masalalar mavjud.

Hozirgi kunda yoshlarni pragmatik g'oyalari asosida innovatsion iqtisodiy faoliyatga jalb qilish va ularning malakalarini oshirish maqsadida bir qator hamkor tashkilotlar bilan innovatsion loyihalar amalga oshirilmoqda.

Bu loyihadan quyidagi natijalar kutilmoqda:

– hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda tadbirkorlar va fuqarolar hissasi oshadi;

– yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etiladi, ish o'rinlari yaratiladi;

– fuqarolarga o'z biznesini tashkil qilishida amaliy yordam ko'rsatiladi;

– respublikaning barcha hududlaridagi ilg'or tadbirkorlar elektron bazasi yaratiladi va undan keng foydalanish yo'lga qo'yiladi;

– biznesda hamkor topish imkoniyati kengayadi.

Innovatsion-pragmatik g'oyalarni iqtisodiy hayotga qo'llashda, jumladan yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etishda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi:


– yoshlarga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining kreditlar, xomashyo resurslari, shuningdek, davlat xaridlari tizimidan foydalanish imkoniyatini kengaytirish;

– yoshlar orqali kichik biznesning eksport salohiyatini rivojlantirish uchun zarur va qulay bo‘lgan tashkiliy, huquqiy, moliyaviy mexanizm va sharoitlarni yaratib berish;

– davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan yoshlarning o‘z biznesini boshlashi uchun maqsadli kreditlar ajratish va ularning sarfini ta‘minlashda tizimli nazoratni yo‘lga qo‘yish;

– yoshlar o‘rtasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish orqali o‘rta sinfni shakllantirish va mustahkamlashga qaratilgan zarur huquqiy-me‘yoriy hujjatlarni zamon talablari asosida yanada takomillashtirish.

5.3.1-jadval



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, kasanachilik, hunarmandchilik, chorvachilik, parrandachilik,

dehqonchilik, shaxsiy tomorqa xo‘jaligini tashkil etish va amalga oshirishning holati to‘g‘risidagi zarur ma‘lumotlarni belgilangan tartibda olish va bu bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar bilan axborot almashib turish lozim bo‘ladi. Kasb-hunar kollejlari va oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilarining, xususan, qishloq joylardagi yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish borasida mamlakatimizdagi iqtisodiy-ijtimoiy o‘zgarishlarda chuqur bilimli, yuksak saviyali, yangicha fikrlaydigan yoshlarning ishtirok etishini ta‘minlash barchamizning birinchi navbatdagi vazifamiz hisoblanadi. Chunki:

1) bugungi kunda O‘zbekiston aholisining yarmidan ko‘prog‘ini 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etadi;

2) bugungi yoshlar – ertangi kunimizning, kelajagimizning bunyodkorlaridir;

3) bozor iqtisodiyotining asosini tashkil etuvchi tadbirkorlik faoliyati o‘z mohiyatiga ko‘ra tavakkalchilik, harakatchanlik, ishbi-larmonlik kabi sifatlarni taqozo etadiki, bularning aksariyati ko‘pincha yoshlarda mujassamlashgan bo‘ladi;

4) inson mehnatining sermahsulligi darajasi, uning yaratuvchanlik qobiliyati yoshlik davrida nisbatan yuqori bo‘ladi.

Iqtisodda pragmatizmni yuksaltirish asosida innovatsion faoliyatni yo‘lga qo‘yishda mamlakatimizda ishonchli va barqaror institut hisoblangan mahallani xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, hududda tadbirkorlik faoliyatini qonun hujjatlari talablari asosida samarali tashkil etish va amalga oshirish, shu jumladan shaharcha, qishloq, ovul va shahardagi mahalla fuqarolar yig‘ini tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kichik korxonalar, sartaroshxonalar, poyabzal ta‘mirlash va tikish ustaxonalari, xalq hunarmandchiligi sexlarini va aholiga maishiy xizmat ko‘rsatuvchi boshqa korxonalarni tashkil etish va qayta tashkil etish bo‘yicha fuqarolar yig‘ini kengashiga takliflar kiritish yaxshi natija beradi va hozirda shunday qilinmoqda. Jamiyatimizda ko‘p ukladli iqtisodiyotning shakllanishi va xususiy tadbirkorlik sektorining vujudga kelishi yoshlarning erkin kasb tanlash, istagan faoliyat turi bilan shug‘ullanishi uchun keng imkoniyat yaratib beradi. Ayniqsa, ularning iqtisodiyotdagi sog‘lom raqobatning manbayi sifatidagi kichik korxonalarni tashkil etishdagi roli bu borada ulkan salohiyat hisoblanadi.

Biroq, shuni ta'kidlash joizki, ko'pchilik yoshlarimizning iqtisodiy faollik, tadbirkorlikni amalga oshirish borasidagi huquqiy va iqtisodiy bilimlari yetarli bo'lmayapti. Ba'zida bu faoliyatga intilish bo'lgani bilan, ma'lum maslahatlar, yo'l-yo'riq va moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida taqchiliklar sezilmoqda. Shunga ko'ra, fikrimizcha, mamlakatimizdagi yoshlarning iqtisodiy faolligini yanada kuchaytirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish juda muhim hisoblanadi:

1. Maktablar, o'rta maxsus hamda oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy va huquqiy ta'lim berishni yanada kuchaytirish.

2. Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida yoshlarning ijodiy markazlari, konstruktorlik va texnologik byurolari, ilmiy g'oyalarning amaliy tatbiqini yo'lga qo'yuvchi bo'linmalarni tashkil etish.

3. Respublikadagi yoshlar bilan shug'ullanuvchi muassasalar, jamoat tashkilotlari, huquq-tartibot organlarining o'z maqsad yo'nalishidan kelib chiqqan holda faoliyatlarini jonlantirish.

4. Mamlakatimizdagi korxonalarining o'quv yurtlaridagi bo'lg'usi mutaxassislar bilan o'zaro aloqasini yo'lga qo'yish.

5. Korxonalarda yoshlarning o'z ijodiy va ichki imkoniyatlarini to'liq namoyish eta olishlari, moddiy, madaniy va maishiy ehtiyojlarini qondira olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

6. Respublika shahar va tumanlaridagi mehnat bilan bandlik xizmatlari faoliyatida yoshlarga alohida e'tibor ajratish, o'ziga xos ijtimoiy guruh sifatidagi xususiyatlarini nazarda tutgan holda turli yo'nalishdagi xizmatlarni tashkil etish.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan yo'nalishdagi tadbirlarning amalga oshirilishi yoshlarning mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishdagi hissalarini yanada oshirishda, ularning milliy g'oya hamda umumxalq manfaatlarining faol kurashchisiga aylanishida muhim omil vazifasini bajaradi. Ushbu jihat o'z navbatida iqtisodda pragmatik g'oyalarning muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Pragmatizm deganda nimani tushunasiz?
2. Pragmatizm va pozitivizm orasida umumiylik va farqiyat nimalardan iborat?
3. Pragmatizm falsafiy oqim sifatida qayerda shakllandi?

4. Pragmatizmning asoschilari kimlar?
5. Charlz Pirsning qanday asarlari bor?
6. Uilyam Jeyms o'zining qaysi asarlari bilan pragmatizm rivojiga hissa qo'shgan?
7. Jon Devining qaysi asarlarini bilasiz?
8. Pozitivizm prinsiplari nimalardan iborat?
9. Pozitivizmga xos xususiyatlarni sanab bering.
10. Merkantillik deganda nimani tushunasiz?

Testlar:

1. Pragmatizm, bu –

- A) Ish-harakat, faoliyat
- B) Iqtisodiy taraqqiyot
- C) Ilmiy tafakkur
- D) Dunyoqarash

2. Pragmatizm falsafiy oqim sifatida qayerda shakllandi?

- A) Amerikada
- B) Germaniyada
- C) Angliyada
- D) Gollandiyada

3. Merkantilizmning Angliyadagi rivoji kimning nomi bilan bog'liq?

- A) Charlz Pirs
- B) Uilyam Jeyms
- C) Jon Devi
- D) Charlz Pirs

ANSWER: A

4. Charlz Pirsning qanday asarlarini bilasiz?

A) Bizning g'oyalarimizni qanday tushunarli qilish kerak (1878).
 Insonga tegishli bo'lgan ba'zi qobiliyatlarning nisbiyligi masalalari" (1868); To'rt qobiliyatsizlikning ba'zi oqibatlarini (1868); "Ishonchlilik asoslari" (1868); E'tiqodni mustahkamlash (1878)

B) Psixologiyaning asoslanishi (1890); E'tiqodga ixtiyor (1897);

- Diniy qobiliyatning ko‘pqirraligi (1902); Pragmatizm (1907);
Plyuralistik koinot (1909)
C) Falsafadagi rekonstruksiya (1920); Qobiliyat va tabiat (1925);
To‘g‘rilikni izlash (1929)
D) E‘tiqodni mustahkamlash (1878); Falsafadagi rekonstruksiya
(1920);
Qobiliyat va tabiat (1925); E‘tiqodga ixtiyor (1897)

5. Merkantillik, bu –

- A) Savdo, savdogar tijoratchi
- V) Iqtisodchi, bankir, tadbirkor
- S) Faylasuf, olim, tadqiqotchi
- D) Pragmatist, optimist, tadbirkor

Esse mavzulari:

1. Pragmatizm–tadbirkorlik falsafasi sifatida.
2. Pragmatizm va pozitivizm.
3. Pragmatizm va merkantillik.
4. Zamonamizning pragmatik insonlari.
5. Iqtisodiyotda pragmatizm.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. Tom 4. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2020. - 456 b.
2. Abdurahmonov Q.X. Inson taraqqiyoti. Darslik. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2013. - 476 b.
3. Abduqosimov H., Abduqosimov M. Iqtisodiy xavfsizlik: nazariya va amaliyot. – Toshkent: «Noshirlik yog‘dusi» nashriyoti, 2019. – 620 b.
4. Кирющенко В. В. Язык и знак в прагматизме. СПб.: Издательство Европейского университета в Санкт-Петербурге, 2008. — 199 с. .
5. Мелвил Ю. К. Чарлз Пирс и прагматизм.– М., 1968.
6. Франк С.Л. Прагматизм как гносеологическое учение. — В сб.: Новые идеи в философии. СПб, 1913, сб. 7, с. 115—157.

7. G‘ulomov S.S., Alimov R.X., Salimov B.T., Xodiyev B.Yu., Ishnazarov.A.I. Mikroiqtisodiyot. Darslik. – T.: “SHARQ” nashriyoti, 2001. - 320 b.

8. З. Зотов А.Ф., Мелвил Ю.К., Западная философия XX века, 1998.

9. Qo‘chqorov V.H. Yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilishning g‘oyaviy-siyosiy asoslari. –Toshkent, 2014. – 150 b.

6-MAVZU. FALSAFIY ANTROPOLOGIYA (INSON FALSAFASI). FALSAFADA “HOMO ECONOMICUS” (“IQTISODIY ODAM”) TUSHUNCHASI

Reja:

6.1. Falsafiy antropologiyaning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, predmeti va vazifalari.

6.2. “Homo Economicus” (iqtisodiy odam) tushunchasi va modeli.

6.3. “Homo Economicus”ni shakllantiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy muhit.

6.4. Individual iqtisodiy xatti-harakatlarning falsafiy tahlili.

6.1. Falsafiy antropologiyaning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, predmeti va vazifalari

Falsafiy antropologiya keng ma’noda inson haqidagi falsafiy ta’limotdir. Falsafiy antropologiya insonning alohida borliq manbayi sifatida kelib chiqishi, tadrijiy rivojlanishi va mavjudligining o‘ziga xos xususiyatlariga doir falsafiy qarashlarni aks ettiradi.²⁸ Shu boisdan bu fan insonni tushunishning u yoki bu usullari, “mohiyati” va “tabiati” doirasida taqdim etilganligi uchun butun falsafa tarixini va uning tendensiyalarini qamrab oladi.

Falsafiy antropologiya 1920–1950-yillarda, asosan nemis tilida so‘zlashadigan mamlakatlarda rivojlangan falsafiy tizim sifatida shakllandi. Aniqrog‘i, bu fan XX asrning 20-yillarida asosan M.Sheler, A.Gelen, X.Plesner asarlari ta’sirida uzul-kesil vujudga keldi. Xususan, M.Shelerning “Insonning kosmosdagi o‘rni” asarida inson haqida fundamental fan yaratish lozimligi qayd etiladi va uni bilish dasturi taklif qilinadi²⁹.

Falsafa tarixida insonga murojaat etmagan, inson moddiy va ma’naviy borlig‘ining turli tomonlarini bevosita yoki bilvosita tahlil qilmagan faylasuf va falsafiy yo‘nalishni topish deyarli mumkin emas. Chunki, inson – biologik va ijtimoiy tizimlarning tarkibiy qismi

²⁸ Falsafa. Sh. Madaeva va boshqalar. –T.: “Mumtoz so‘z”, 2019, 315-bet.

²⁹ Falsafa. Sh. Madaeva va boshqalar. –T.: “Mumtoz so‘z”, 2019, 315-bet.

bo‘lgan murakkab integral tizimdir. U tabiat hodisalari dunyosidan ajralib turadigan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Inson nafaqat o‘ziga xos xususiyatlari bilan, balki mohiyatining o‘zi bilan ham ajralib turadi, ya’ni bu vujudning immanent usullari, mavjudligining ichki qonunlaridir. Shuning uchun falsafiy antropologiya ushbu masalaga doir savollarga javob berishning xilma-xil ilmiy usullari va insonparvarlik yondashuvlarini falsafiy jihatdan birlashtirishga yoki tanqid qilishga intiladi.


XX asrning 60–70-yillarida falsafiy antropologiya shunday bir g‘oyaviy harakatga aylandiki, uning doirasida olimlar insonning hozirgi holatini nazariy jihatdan anglab yetish va talqin qilish, uning tabiatiga nisbatan yangicha yondashuvni ilgari surishga harakat qildilar. Bu davrda yuz bergan fan-texnika taraqqiyoti va insonning o‘z ilmiy va amaliy faoliyati natijalari uchun javobgarlik tuyg‘usining kuchayishi falsafiy antropologiyaning rivojlanishiga qo‘shimcha turtki berdi. Shunday qilib, u endi inson haqidagi bilimlarning umumiyroq majmui – umumiy antropologiyaning tarkibiy qismiga aylandi.³⁰

Azal-azaldan falsafa tarixida ko‘pgina mutafakkirlar antropologiyaning (yoki inson tabiatining) nimaligini to‘g‘ri anglashiga qaramasdan, “falsafiy antropologiya” o‘ziga xos fan sifatida so‘nggi davrlarda shakllandi. Bu, avvalo, falsafada tabiiy va gumanitar fanlar taraqqiyoti bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan yangi usullar va yondashuvlar rivojlanishi natijasida yuzaga keldi. Falsafiy antropologiyaning eng zamonaviy rivoji fenomenologiya va ekzistensializm maktablarida namoyon bo‘ldi.

Falsafiy antropologiya uzoq davrlardan beri inson mohiyatini tushunishning usuli sifatida “Inson nima?” va “Men kimman?” kabi ikkita savolga javob berishga intilib keladi. Birinchi savolga an’anaviy falsafada turli javoblar berilgan bo‘lsa-da, eng mashhur ta’rif Arastu tomonidan berilgan klassik ta’rifligicha qolmoqda, ya’ni insonning mohiyati “aqli hayvon”dir.

³⁰ Falsafa. Sh. Madaeva va boshqalar. –T.: “Mumtoz so‘z”, 2019, 317-bet.

Inson mohiyatini aniqlashga doir asosiy yondashuvlar



6.1-rasm. Inson mohiyatiga doir asosiy yondashuvlar.

Nemis faylasufi Immanuel Kant insonga doir asosiy muammolarni oʻrtaga chiqardi:


- nimani bilishim mumkin? (bilim)
- nima qilishim kerak? (axloq)
- nimaga umid bogʻlashim mumkin? (eʼtiqod)
- odam qanday mavjudot?

Koʻrinib turibdiki, inson uchta asosiy prinsipning birligi: biologik, ijtimoiy va aqliy. Shu bilan birga, yuqoridagilardan hech birini olib tashlash mumkin emas, aks holda insonning mohiyati yoʻqoladi.

Falsafiy antropologiyada insonni oʻrganishning asosiy yondashuvlari quyidagicha:

- gnoseologik, insonning olamni bilish chegaralari;
- ontologik, insonning tabiat olamidagi oʻrni, insonning biologik mohiyati;

Falsafiy antropologiya asosiy muammolari



6.1-rasm. Falsafiy antropologiyaning asosiy muammolari.

– aksiologik, hayotning qiymati va hayotning ustuvor yoʻnalishlari;

– ijtimoiy-falsafiy, jamiyat va madaniyat dunyosidagi shaxs.

Antropogenez muammosi. Hozirgi vaqtda insonning kelib chiqishi muammosi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi: olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida antropologik hodisalarni izlash, olamdan boshqa olamlarda hayot olib borish imkoniyati oʻrganilmoqda, insonning yaratilishiga boʻlgan ishonch diniy gʻoyalarda oʻzgarmaydi. Demak, birgalikda yaratilish, paleovizit, evolutsion kelib chiqishning asosiy taxminidir.

XX asr falsafasida inson “animalrationale” (Devidson), animalsymbolicum (Kassirer), oʻynayotgan odam (Xeyzinga Y. «Chelovek igrayushiy»), homopictus (rasm chizgan, tasvirlaydigan kishi, (X. Jonas), homoviator (sayohatchi odam, Marsel), Homoinsciens (tajribasiz odam, X. Ortega Gasset) kabi metaforalar bilan ifodalangan. Ammo, XX asr falsafasidagi antropologik konstruksiyalarning barcha tashqi xilma-xilligi va oʻzaro qarama-qarshiliklari bilan ular ichki izchil yaxlitlik sifatida qayta tiklanishi mumkin, bu savolning umumiy shakllanishi va bir qator aksiomatik takliflarga asoslanadi. XX asr falsafiy antropologiyasini birlashtirgan asosiy savol – bu shaxsni aniqlash masalasi (ham uning aniq ishonchini izlash maʼnosida, ham mantiqiy taʼrifi maʼnosida).

Unga nisbatan insonning tabiati, uning mavjudligining mazmuni, insonning hayot shakli sifatida hayotning boshqa shakllaridan farqi yoki oʻziga xos insoniy yashash usuli toʻgʻrisidagi savolni ikkinchi darajali deb hisoblash mumkin. Insonning u yoki bu falsafasi “ruh”, “jon”, “erkinlik”, “shaxsiyat”, “borliq”, “najot”, “mavjudlik”, “hayot” va boshqalardan kelib chiqqanidan qatʼi nazar, baʼzi hollarda, savollar bitta yoʻnalishda – inson nima ekanligini aniqlashda ochiladi.

Falsafiy antropologiya, yakuniy tahlilda, dunyoning oʻziga xos insoniy tajribasi tuzilmalarini oʻrganish, uning tanqidiy aniqlanishi va asoslanishini nazarda tutadi.

Ikkinchi jarayonda quyidagi asosiy fikrlar ajratib koʻrsatiladi:

1) inson ongli mavjudotdir; bu postulat markscha kalitda (“ongli mavjudot” sifatida) yoki Gusserlda (ongning borligi yoki “ongning borligʻi” sifatida) qanday talqin qilinmasin, uni aksiomatik deb

hisoblash mumkin; inson nafaqat o‘zi, balki ma’lum bir tarzda uning borligi bilan bog‘liqdir;

2) inson ongi – bu o‘z-o‘zini anglash. Agar ongni ichki narsalarni tashqi tomondan ajratish qobiliyati sifatida hayvonlarga nisbatan ham gapirish mumkin bo‘lsa, unda odamning o‘ziga xosligi aks ettirish qobiliyatida, ya’ni ongni o‘ziga qaratish;

3) inson tajribasi bu amaliy faoliyat tajribasi. Inson o‘zi yashaydigan dunyoni yaratadi. Shu ma’noda Gehlen va Plesner ta’kidlashicha, inson “yashamaydi”, balki “hayotni boshqaradi”. Xuddi shu ma’noda, neo-marksizm odamlarning borligi haqida “amaliyotning ta’rifi” deb aytadi;

4) insonning yashash tartibi – bu imkoniyat. Inson o‘zini o‘zi namoyon qiladigan darajada “o‘zi”. Shu nuqtayi nazardan, odamlarning “o‘z-o‘zini ishlab chiqarishi” haqidagi marksistik tezis, Xaydeggerning “loyiha” va “Dasein – tarjimasini “borliq” haqida, Sartrning insonni “o‘zi uchun borliq” deb tushinishi (mutlaqo tabiiy “o‘z-o‘zidan”). Yaspersning “mavjudlik”ni “o‘zini o‘zi bo‘lish” imkoniyati sifatida ta’riflashi (Selbstsein – können), Bloxning borliqqa nisbatan ustunlik haqidagi aforizmi ularga alohida ta’rif berilgan.

Zamonaviy antropologik falsafada ikkita asosiy paradigma kuzatilishi mumkin: “hayot” paradigmasi va “mavjudlik” paradigmasi. Birinchisi Nisshega, ikkinchisi Kerkegaardga qaytadi. Hayot paradigmasi inson hayotiy mavjudot ekanligi, shuning uchun hayotning ajralmas qismi (ya’ni, oxir-oqibat tabiiy) ekanligini ta’kidlash bilan bog‘liq.

Ushbu paradigma doirasida juda xilma-xil antropologik tushunchalar Bergsonning spiritizm vitalizmi va L. Klajening biologik vitalizmi, mexanistik evolutsionizm va ijtimoiy darvinizmga, falsafiy yo‘naltirilgan biologiyadan biologik yo‘naltirilgan falsafaga (G. Drish) qadar rivojlanadi. Ushbu barcha mutafakkirlarga xos bo‘lgan narsa falsafiy antropologiyani fan sifatida tushunishdir. Bu insoniyat falsafasi uchun “ruh” va “mavjudlik” kabi an’anaviy tushunchalarni rad etishga olib keladi. Idealizm ham, ekzistensializm ham insonni to‘g‘ri tushunishga xalaqit beradi. Idealizm Xudo, erkinlik va o‘lmaslik haqidagi metafizik taxminlar bilan band; ekzistensializm, garchi u avvalgi metafizika bilan uzilishni e’lon qilsada, odamning tirik konkretligidan yiroq aks ettiradi.

Shellerning fikriga ko'ra, inson va boshqa tirik mavjudotlar o'rtasidagi asosiy farq "tashqi" bilan mos kelmaydigan "ichki" mavjudlikda emas (bu allaqachon o'simliklarga xos), "ong"da emas, ya'ni tajriba va "o'z organizmlarining holatlari to'g'risida mulohaza bildirish" qobiliyatida (bu allaqachon hayvonlar egalik qiladi) va ularning ruhiy holatlarini obyektivlashtirish qobiliyatida (ya'ni o'z-o'zini anglashda). "O'zi"dan uzoqlashish xususiyati tufayli inson tanaga "ega" bo'lgan yagona mavjudotdir (Körperhaben); hayvon, uning tanasi bilan bir xil (Lein), faqat "borliq-tan", "tanaviy mavjudot" (Leibsein). Agar hayvon atrof-muhit bilan chambarchas bog'liq bo'lsa (umweltgebunden), demak, inson dunyoga ochiq (weltoffen). Ularning bevosita atrof-muhit bilan uzilishi, eksentriklik (hayvonlarning "markazligi"dan farqli o'laroq) va insonning kosmosdagi alohida pozitsiyasini belgilaydi.

M. Sheler odamlarning o'ziga xosligini ko'rsatish uchun an'anaviy "ruh" falsafiy va diniy atamasidan foydalanadi. Ammo Sheler ta'limotidagi ushbu atamaning mazmuni ahamiyatsiz emas. Sheller nasroniy-asketik an'alariga rioya qilgan holda ruhni "umuman butun hayotga zid bo'lgan tamoyil" deb ta'riflaganga o'xshaydi; uning eng muhim xarakteristikasi "ekzistensial mustaqillik", "yorqinlik", "hayotdan va hayot bilan bog'liq bo'lgan barcha narsalardan ajralib qolish ehtimoli, shu jumladan," drayvlar bilan bog'liq bo'lgan o'z aqlidan." Ammo Shellerning asosiy g'oyalari biri "ruh va hayotning birligini" namoyish etishdir, bu Dekartga borib taqaladigan va Yevropa falsafasida qaror topgan ratsional (kengaytirilmagan, noaniq) va moddiy (tana, kengaytirilgan) moddalar orasidagi farqni yo'q qilishni anglatadi.

6.2. "Homo Economicus" (iqtisodiy odam) tushunchasi va modeli

Inson faoliyatining barcha sohalarida bo'lgani kabi iqtisodiyotda ham iroda, ong va hissiyotlarga to'la odamlar bor. Shuning uchun, iqtisodiy fan odatda "inson modeli" nomi ostida birlashtirilgan iqtisodiy agentlarning harakatlari motivlari va usullari to'g'risida ma'lum taxminlarsiz amalga oshira olmaydi. Shaxsning iqtisodiy fandagi talqini umuman iqtisodiy tizimning faoliyati to'g'risidagi

ma'lum g'oyalari va iqtisodiy siyosat sohasidagi tavsiyalar bilan uzviy bog'liqdir. Adam Smitning o'tmishdoshlari orasida ma'lum bir inson modeli haqida faqat shartli ravishda gapirish mumkin, garchi ba'zi g'oyalarni allaqachon Aristotelda va o'rta asr sxolastikasida uchratish mumkin. Gap shundaki, quldorlik va feodalizm davrida iqtisodiyot hali jamiyatning mustaqil quyi tizimi emas edi, balki uning ijtimoiy tashkiloti vazifasi edi. Shunga ko'ra, odamlarning iqtisodiy sohadagi ongi va xulq-atvori jamiyatda mavjud bo'lgan axloqiy va birinchi navbatda diniy me'yorlarga bo'ysundi (davlatning kuchi va hokimiyati tomonidan qo'llab-quvvatlanadi).

XVI asrning boshlariga qadar, ya'ni natural xo'jalik va iste'mol ustun bo'lgan davrda bironta nazariya yaratilmagan bo'lsa-da, mahsulot ishlab chiqarish, tovar-pul munosabatlari o'sishi bilan, Yevropada Uyg'onish davri, Buyuk geografik kashfiyotlar, mustamlakachilik bilan hamohang ravishda dastlabki merkantilizm ta'limoti yaratildi.³¹ XVII–XVIII asrlarda iqtisodiy nazariyaning boshlanishi va tegishli inson modeli elementlari yoki davlat siyosati bo'yicha tavsiyalar (merkantilizm) doirasida yoki umumiy axloqiy nazariya doirasida ishlab chiqilgan. Inson tabiati to'g'risida ma'lum bir g'oyani ajralmas nazariy tizimning asosi sifatida qo'ygan birinchi iqtisodchi aynan A.Smit bo'lganligi odatda tan olingan. U "Millatlar boyligining tabiati va sabablarini o'rganish" asarining boshida u insonning iqtisodiy faoliyatining barcha turlarini belgilaydigan xususiyatlari haqida yozadi:

- 1) bitta buyumni boshqasiga almashtirish tendensiyasi;
- 2) shaxsiy manfaatdorlik, egoizm, "barcha odamlarning o'z holatlarini yaxshilashlari uchun bir xil doimiy va abadiy istagi". Inson tabiatining xususiyatlari Smit uchun muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. Birinchisi, mehnat taqsimotiga olib keladi. Ikkinchisi, shaxsni o'z mahsuloti boshqa sohalarga qaraganda ko'proq qiymatga ega bo'lgan kasbni tanlashga undaydi. Shu bilan birga, Smit odamlarning naqd pul ishlashiga bo'lgan qiziqishini kamaytirmadi: kasb tanlashga qo'shimcha ravishda o'rganish osonligi va qiyinligi, mashg'ulotning yoqimli yoki yoqimsizligi, uning doimiyligi yoki noaniqligi,

³¹ Раззоков А. Иқтисодий тафаккур сарчашмалари. –Т.: "Ўзбекистон" НМИУ, 2011. 8-бет.

jamiyatdagi katta yoki kichik obro‘si va nihoyat, muvaffaqiyatning katta yoki kichikligi.

Shuni ta’kidlash kerakki, Smit tadbirkorni ideallashtirmagan. U kapital egalarining barcha rejalari va loyihalarining yakuniy maqsadi foyda ekanligi va foyda darajasi, qoida tariqasida, ijtimoiy farovonlik bilan teskari bog‘liq bo‘lganligi sababli, savdogarlar va ishlab chiqaruvchilar manfaatlaridan jamiyat manfaatlari yo‘lida kamroq darajada foydalanish mumkinligini ta’kidladi. Bundan tashqari, bu sinfiy raqobatni cheklash maqsadida “odatda jamiyatni yo‘ldan ozdirishdan va hatto ularga zulm o‘tkazishdan manfaatdor”.

Ammo agar davlat raqobat erkinligini ta’minlasa, unda “ko‘rinmas qo‘l”, ya’ni tovar iqtisodiyoti qonunlari, natijada alohida ishlaydigan egoistlarni umumiy farovonlikni ta’minlaydigan tartiblangan tizimga birlashtiradi.

Hozirgi davrda barchaga yaxshi ma’lum bo‘lgan “ko‘rinmas qo‘l” iborasi bilan birga “iqtisodiy odam” tushunchasi ham kiritilgan. Unga ko‘ra, shaxsiy manfaatlar tufayli savdo va almashuv jarayoni amalga oshadi. “Menga kerak bo‘lgan narsani bersang, men senga kerak bo‘lgan narsani beraman” qabilida, ya’ni shaxsiy manfaatlarning talabini qondirish yo‘li tutiladi, gap kimningdir saxiyligida emas.³²

David Rikardo “Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish tamoyillari” tadqiqotida foyda taqsimotini tartibga soluvchi obyektiv qonunlarni aniqlash vazifasini qo‘ydi. Uni amalga oshirish uchun u endi inson tabiati to‘g‘risida hech qanday taxminlar qilmadi, shaxsiy manfaatdorlikka intilish o‘z-o‘zidan ravshan va hatto eslatib o‘tishning hojati yo‘q deb hisobladi. Rikardo bilvosita kelib chiqqan inson tabiati konsepsiyasi, asosan, Smit tushunchasiga to‘g‘ri keldi. Uning uchun asosiy raqam “o‘z mablag‘laridan foydali foydalanishni izlayotgan kapitalist”dir. Smit singari shaxsiy manfaatdorlik faqat pul manfaatlari bilan cheklanib qolmaydi, bu esa turli sohalarda turli xil daromad stavkalariga olib keladi. Smit singari, Rikardo ham alohida sinflarning iqtisodiy xatti-harakatlaridagi katta farqni qayd etdi, ular orasida faqat kapitalistlar o‘zlarining manfaatlari mantig‘iga muvofiq harakat qilishadi. Ishchilarga kelsak, ularning xatti-harakatlari, Rikardo ta’kidlaganidek, odatlarga va “instinktlarga” bo‘ysunadi, yer egalari

³² Razzoqov A., Sh.Toshmatov, N.O‘rmonov. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. –T.: Moliya. 2002. 175-bet.

esa bo‘sh turgan ijara oluvchilar bo‘lib, ularning iqtisodiy ahvoli ustidan nazorat yo‘q.

Ingliz klassiklari asarlarida foydalanilgan inson modeli odatda “iqtisodiy odam” tushunchasi deb ataladi. Bu quyidagilar bilan tavsiflanadi:

1. Iqtisodiy xatti-harakatlarni rag‘batlantirishda shaxsiy manfaatdorlikning belgilovchi roli.

2. Iqtisodiy subyektning o‘z ishidagi vakolati.

3. Xulq-atvorning sezilarli sinfiy farqlari.

4. Iqtisodiyotning monetar bo‘lmagan omillarini hisobga olgan holda, daromadni maksimal darajaga ko‘tarish motivi bo‘yicha tadbirkor uchun hukmronlik qilgan.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mohiyatan “iqtisodiy odam” modeli faqat tadbirkorga tegishli, Smit va Rikardo iqtisodiy subyektning ushbu xususiyatlarini har bir shaxsga xos va ayniqsa, tadbirkorlar orasida rivojlangan deb hisoblashgan. Karl Marks ushbu konsepsiyani rivojlangan tovar iqtisodiyotiga asoslangan burjua jamiyatining mahsuli deb baholadi, bunda “odamlar o‘rtasida faqatgina qiziqishdan tashqari boshqa bog‘liqlik yo‘q, xudbinlik hisobidan tashqari, hayotni birgalikda tartibga soluvchi boshqa sabab yo‘q”.

Shuni ta’kidlash kerakki, tovar iqtisodiyoti jamiyatning boshqa turlariga xos bo‘lganligi sababli, “iqtisodiy odam” modeli boshqa tarixiy sharoitlarda ham qo‘llaniladi. Iqtisodiy odam modelining iqtisodiy fikr tarixi uchun ahamiyati shundaki, uning yordami bilan siyosiy iqtisod axloqiy falsafadan o‘ziga xos predmeti – iqtisodiy odam faoliyati bo‘lgan fan sifatida ajralib chiqdi. Klassik maktab metodikasi va birinchi navbatda “iqtisodiy odam” tushunchasi Jon Styuart Mill asarlarida fundamental nazariy tushunchalarni boshdan kechirdi. Klassik siyosiy iqtisod maktabi “taqsimot masalalarini axloqiy aspektdan, u yoki bu boylikning taqsimlanishidagi adolat va adolatsizlik tomonidan obyektiv iqtisodiy munosabatlar tomoniga ko‘rib chiqishni o‘tkazdi”.

A.Smitning iqtisodiy odam modeli. Aynan A.Smit iqtisodiy odam ixtirosiga loyiq deb topilgan, garchi uning ishida odamlarning iqtisodiy xulq-atvori deganda nimani nazarda tutganligi haqida aniq ta’rif berilmagan. Ammo A.Smit, haqiqatan ham, iqtisodiy hayotda odam o‘zini o‘ziga xos tarzda tutadi va bunday xatti-harakatlar butun

iqtisodiy munosabatlar tizimining asosidir degan tezisni ilgari suradi. Smit konsepsiyasining ma'nosini tushunish uchun ushbu turdagi xatti-harakatlarning mohiyati nimada va nima uchun A.Smitning fikriga ko'ra, bu iqtisodiy shaxsga xos ekanligini yana bir bor aniqlash kerak.

Birinchidan, A.Smit inson tabiati umuminsoniy ekanligi, qobiliyat va didning xilma-xilligi tug'ma kelishmovchiliklar oqibatidan ko'ra ko'proq mehnat taqsimoti natijasidir: "Turli xil odamlar bir-birlaridan o'zlarining tabiiy qobiliyatlari bilan biz taxmin qilganimizdan ancha kam farq qiladilar. Xuddi shu turga mansub deb tan olingan ko'plab hayvonlarning tabiati, odat va ta'lim ta'siridan xalos bo'lsagina, odamlarda kuzatilgandek, qobiliyatlardan ancha farq qiladigan farqlari bilan ajralib turadi. Ushbu eslatma A.Smit qurayotgan iqtisodiyotning butun tizimi uchun juda muhim bo'lib tuyuladi, chunki u ishchi kuchining sifat jihatidan bir xilligini va shuning uchun bozor mexanizmlarining ishlashi uchun juda zarur bo'lgan ishchi kuchi taklifining moslashuvchanligini, xususan kapitalning bir sohadan ikkinchisiga erkin oqimini ta'minlashni talab qiladi.

J.S.Millning "Iqtisodiy odam" modeli. J.S.Millning ishida iqtisodiy odam muallifning mutlaqo boshqa mantiqqa amal qilishi natijasida paydo bo'ladi. Bu olim ilmiy nazariyani yaratish uchun o'z zimmasiga olgan ongli mavhumlik natijasidir. Shuning uchun M. Blaugning yozishicha, J.S.Mill uchun birinchi marta iqtisodiy shaxs namuna sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, J.Bukenen modelidagi egoizm va axloq o'rtasidagi tanlov ushbu tanlovning iqtisodiy foydasini hisoblashga asoslanganligini aniqlashtirish kerak. Shu bilan birga, u axloqiy xatti-harakatlarning mumkin bo'lgan ichki qiymatini ataylab o'z ichiga olmaydi, garchi u uning mavjudligi mumkinligini tan olsa-da, shu bilan birga "hamkorlikning foydalari"ni hisobga oladi, ya'ni, guruhning axloqiy xulq-atvorining foydalari. J.S.Mill – ilmiy iqtisodiy bilimlarni yaratishga mutlaqo yangi yondashuvni aniq shakllantirgan va qo'llagan birinchi muallif.

Agar A.Smit real iqtisodiyotni tasvirlashga intilsa va buni nazariyaning mantiqiy uyg'unligiga zarar yetkazadigan bo'lsa, D. Rikardo, aksincha, nazariya idealini aynan uning uyg'unligi va izchilligida ko'radi, lekin ko'pincha realizmga zarar yetkazadi va har ikkala muallif ham buni anglamaydilar, hech bo'lmaganda ularning asarlari sahifalarida, ularda muhim metodologik muammo sifatida

paydo bo‘ladigan qiyinchiliklar, keyin J.S.Mill nazariyasi haqiqatni ongli ravishda konseptualizatsiya qilishdir, bu qat’iy mantiqiy bilim bo‘lib, u o‘zining murakkabligi tufayli haqiqiy faktlarni aks ettiradigan ko‘rinishga ega emas.

“Iqtisodiy odam” modeli.

Iqtisodiy odam modeli aynan shu induksiya va mantiqiy fikrlashning aralash usulini iqtisodiyotdagi odamlarning xatti-harakatlariga tatbiq etish jarayonida paydo bo‘ladi. J.S.Millning yozishicha, “odam o‘zini bir vaqtning o‘zida unga yoqadigan va yoqtirmaydigan turli xillik ta’sirida o‘zini qanday tutishini baholash uchun, u ularning har birining eksklyuziv ta’siri ostida qanday harakat qilishini bilishi kerak”.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, iqtisodiyot inson hayoti va xulq-atvorining faqat bir tomonini o‘rganadi. U faqat bitta motivga e’tiborni qaratadi, bu uning iqtisodiy faoliyatida dominant rol o‘ynaydi va shu tariqa “inson harakati qanday bo‘lishini ko‘rsatish, agar bu rag‘batlantiruvchi bo‘lsa, barcha inson harakatlarining mutlaqo xo‘jayini bo‘lgan bo‘lsa”. Shunday qilib, iqtisodiyot “insonning boshqa barcha ehtirolari va impulslaridan butunlay mavhum”.

6.3. “Homo Economicus”ni shakllantiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy muhit

Iqtisodiy shaxs modeli J.S.Millda A.Smit nazariyasiga qaraganda ancha aniqroq shakllangan. Birinchidan, mavzu doirasi aniq belgilangan. J.S.Milning yozishicha, iqtisodiy fan odamni boylikka egalik qilish istagi bilan ko‘rib chiqadi va barcha “insoniyat faqat boylik orttirish va iste’mol qilish bilan shug‘ullanadi”. Shunday qilib, motivatsiya qat’iy iqtisodiy maqsadlar bilan cheklanadi. Shu bilan birga, J.C.Mill faqat shaxsiy manfaatiga e’tibor qaratish haqida gapirmaydi. Model shuningdek, asosiy motivga qarshi bo‘lgan kuchlarni o‘z ichiga oladi. Bular “boylik istagi bilan qarama-qarshilikda” bo‘lgan ikkita omil: mehnatga antipatiya va “hozirgi kunda qimmat imtiyozlardan foydalanish” istagi. Ammo ushbu fikrlar Smit va Rikardoning “shaxsiy manfaatdorlik”ning abadiyligi va tabiiyligi haqidagi sodda e’tiqodidan yiroq edi. Uning ta’kidlashicha,

siyosiy iqtisod odamlarning jamiyatdagi barcha xatti-harakatlarini qamrab olmaydi.

“U uni faqat boylikka ega bo‘lishni xohlaydigan va ushbu maqsadga erishish uchun turli xil vositalar samaradorligini taqqoslay oladigan mavjudot sifatida ko‘radi. U odamning boshqa har qanday ehtirolari va motivlaridan butunlay ajraladi ...”.

Mill, Smit va Rikardoning yondashuvini bir tomonlama deb hisobladi: insonning haqiqiy xulq-atvori ancha murakkab, ammo u “asosiy maqsad yagona deb qaralganda” bunday mavhumlik ijtimoiy hodisalarni tahlil qilishning chinakam ilmiy usuli ekanligini ta’kidladi. Millning fikriga ko‘ra, siyosiy iqtisod mavhum fan, geometriya singari, uning boshlang‘ich nuqtasi faktlar emas, balki apriori zaruriy shartlar (faqat boylikka intilgan odamning mavhumligini uzunlikka ega, ammo kengligi bo‘lmagan to‘g‘ri chiziqning mavhumligiga o‘xshatish mumkin). Millning iqtisodiy odamni nazariy mavhumlik sifatida tushunishi burjua siyosiy iqtisodiyoti metodologiyasining yanada rivojlanishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatdi. Shuni ta’kidlash kerakki, J.Mill, avvalgilariga o‘xshab, “iqtisodiy odam” modeli ishlaymaydigan holatlarga katta e’tibor bergan. Ingliz utilitarizmining asoschisi Jeremi Bentem boshqa yo‘lni bosib o‘tdi. U, aniq aytganda, iqtisodchi emas edi, lekin “falsafada iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashdan ko‘ra munosib mashg‘ulot yo‘q...” va uning burjua siyosiy iqtisodidagi inson qiyofasiga bo‘lgan haqiqiy ta’siri Smit ta’siridan qolishmaydi. Insoniyatning barcha harakatlarining maqsadi va “har bir sezgir va fikrlaydigan har qanday fikrning mavzusi”ni Bentem “u yoki bu shaklda farovonlik” deb e’lon qildi. Bentem ushbu farovonlikka erishish ilmi yoki san’ati – “evdemonika”ni yagona universal ijtimoiy fan deb hisobladi.

Muallif ma’lum vaqt davomida lazzatlanishdan aziyat chekish miqdorini kamaytirish orqali farovonlikni o‘lchashni taklif qildi. Smitdan farqli o‘laroq, Bentem yakka tartibdagi “farovonlik yo‘llarini” yarashtirish uchun bozor va raqobatga ishonmadi. U buni qonunchilikning vakolati deb bildi. Ammo merkantilistlar qonun chiqaruvchi tomonidan himoya qilinadigan shaxs manfaatlariga qarshi jamiyat manfaatlariga qarshi bo‘lgan bo‘lsa, unda Bentem jamiyat manfaatlari fuqarolarning manfaatlari yig‘indisidan boshqa narsa emas va ideal qonunlar kodeksi “hamma uchun maksimal baxt” tamoyili

asosida qurilishi kerak, deb hisoblar edi. Bentemga ko‘ra, inson tabiati konsepsiyasining asosiy xususiyatlari (Smit va Rikardoning modeli bilan taqqoslaganda):

1. Ko‘p qirrali bo‘lish uchun da’vo. (Klassiklar faqat iqtisodiy soha bilan cheklangan edi.)

2. Superklass xarakteri: Bentem odami shunchalik mavhumki, kapitalistlar, ishchilar va yer egalari tegishli bo‘lishi u uchun ahamiyatsiz.

3. Gedonizm – odamning zavqlanishiga erishish va qayg‘u-alamdan qochish uchun barcha motivlarini izchil qisqartirish. (Umuminsoniylikka asoslanib, boylik faqat lazzatlanishning alohida holati sifatida qaraladi.)

4. Ratsionalizmni hisoblash: har bir inson maksimal baxtni olish uchun zarur bo‘lgan barcha arifmetik operatsiyalarni bajarishi mumkin va xato faqat arifmetik, noaniq baho yoki xurofot qobiliyati yetarli emasligi natijasida sodir bo‘ladi.

5. Iste‘molchining passiv yo‘nalishi – bu gedonizmning natijasi. “Bentam odami” tezda iste‘mol qilishga qaratilgan bo‘lib, ishlab chiqarish sohasiga unchalik qiziqmaydi.

6. Iqtisodiy tahlilda inson tabiati tushunchasi egallaydigan joy. Klassiklarga “iqtisodiy odam” narsalarning “tabiiy tartibi”ni obyektiv o‘rganish uchun faqat dastlabki shart sifatida kerak edi.

Bentam siyosiy iqtisodni “evdemonika”ning xususiy tarmog‘i deb hisobladi va butunlay “axloqiy” yo‘nalishda qoldi. Umuman olganda, gedonist hisoblagich tushunchasi o‘sha davr burjua jamiyatining mahsulidir. Biroq, bu sun‘iy mavhumlik o‘zini abadiy haqiqat deb da’vo qilib, klassiklar orasida “iqtisodiy odam” tushunchasidan ko‘ra tirik iqtisodiyotdan va umuman hayotdan ancha uzoqroq turadi. “Odamlarning barcha xilma-xil munosabatlarining befoyda ko‘rinishda yagona foyda munosabatlariga tushishi – bu metafizik ko‘rinishda mavhumlik zamonaviy burjua jamiyatida barcha munosabatlar amalda faqat bitta mavhum pul-merkantan munosabatlariga bo‘ysunishidan kelib chiqadi”. Ushbu mavhumlik kapitalizmning o‘ziga xos qonunini – kapitalistlarning maksimal foyda olishga intilishini “insoniyatning barcha faoliyatining asosi bo‘lgan eng katta foyda olishga intilishning universal tabiiy qonuni”ga aylantiradi.

6.4. Individual iqtisodiy xatti-harakatlarning falsafiy tahlili

Ba'zi iqtisodchilar “klassik iqtisodchilar” fikrlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiy qonunlar tizimini tarixiy maktabning evolutsion-tanqidiy yondashuvi bilan birlashtirishga harakat qildilar. “Ijtimoiy va huquqiy maktab” asoschisi A.Vagnerning asarlari bunga misoldir. “Siyosiy iqtisod darsligi”da Vagner “inson iqtisodiy mohiyati”ning asosiy xususiyati – ehtiyojlarning mavjudligi, ya’ni “tovarlarning yetishmasligi hissi va uni yo‘q qilish istagi”. U ehtiyojlarni ikki guruhga ajratdi: birinchi tartib, o‘zini o‘zi himoya qilish instinkti bilan shartlangan va boshqalar, shaxsiy manfaat motivi bilan shartlangan. Vagnerning fikriga ko‘ra, odamlarning iqtisodiy faoliyati, shuningdek, “xudbinlik” motivlari bilan boshqariladi: foyda olish istagi va muhtojlikdan qo‘rqish, ma’qullash umidlari va jazodan qo‘rqish, ornomus hissi va sharmandalikdan qo‘rqish, faollikka intilish va bekorchilik oqibatlaridan qo‘rqish; va “beg‘araz” burch tuyg‘usi va pushaymon bo‘lish qo‘rquvi. Vagnerning antroposentrik yondashuvi uning Karl Marks tomonidan yozilgan obzorida ta’kidlangan. Unda ta’kidlaganidek, Vagner nazariyasidagi odam mavhum, u “tabiat bilan amalda emas, balki nazariy jihatdan aloqador bo‘lgan professor shaxsidan boshqa narsa emas”. Ushbu “umumiy odam” o‘ziga xos ehtiyojlarga ega bo‘lolmaydi, chunki ehtiyojlar faqat jamiyatda paydo bo‘ladi”.

XVIII asr boshida, proteksionizm, ya’ni davlatning o‘z iqtisodiyotini chet el raqobatidan himoya qilishga qaratilgan siyosat ta’sirida tarixda ilk bor banklar tashkil topdi, qimmatli qog‘ozlar muomalaga chiqdi. Bu davrga kelib klassik ta’limot vujudga keldi, unda avvalgi merkantalizm g‘oyalari jiddiy taftish qilindi va to‘ldirildi.³³ Shuning uchun 1870-yillardagi “marjinal inqilob” burjua siyosiy iqtisodiyotining rivojlanishidagi muhim bosqich deb hisoblanadi. Ushbu tendensiyaning asosiy vakillari Karl Menger, Oygen Bem-Baverk, Fridrix fon Vizer va Uilyam Stenli Jevons edi. Marjinalistlar nazariyalarida markaziy o‘rin ishlab chiqarish va taqsimlash sohasi emas, balki iste’mol tovarlarini iste’mol qilish va almashtirish sohasi egallagan. Ishlab chiqarish va taqsimlash

³³ Razzoqov A. Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2011. 8-bet.

jarayonida aniqroq ko‘rinadigan odamlar va sinflarning bir-biri bilan munosabatlari emas, balki shaxsning iste‘mol jarayonlarining ko‘rinadigan tarkibini tashkil etadigan narsalar, tovarlar, “tovarlar”ga aloqasi birinchi o‘ringa chiqdi. Shaxsiy iste‘mol sohasi siyosiy iqtisodni tahlil qilishning qonuniy sohasi deb hisoblanmadi, chunki an‘ana, urf-odatlar va boshqalarning kuchli ta‘siri bor edi, bu esa “iqtisodiy odam” mavhumligini qo‘llashni qiyinlashtirdi. Shakl jihatdan qat‘iy ilmiy bo‘lgan shaxsiy iste‘mol nazariyasini yaratish uchun marjinalistlar inson faoliyatining ushbu sohasiga oqilona xatti-harakatlarni kiritishlari kerak edi. Marjinalistlar – kamdan-kam uchraydigan tovarlar bozorida narxlarni belgilashning ma‘lum bir holatini bekor qildilar, shu asosda taqsimot muammolarini hal qilishga, qisman ular iste‘mol va ayirboshlashni tahlil qilishda foydalanadigan subyektiv toifalar yordamida ishlab chiqarishga harakat qildilar.

Tabiiyki, ular iqtisodiy subyektning modeli sifatida “iqtisodiy odam” – tadbirkorni emas, balki universal, sinfdan tashqari shaxs – Bentemning iste‘molchisini olishdi. Biroq, marjinalistlar Bentemning inson tabiati haqidagi konsepsiyasiga muhim qo‘shimchalar kiritdilar: A.Smitning eng kam xarajat bilan maksimal farovonlikka intilish haqidagi og‘zaki formulalari va Bentam gedonistining arifmetik harakatlari, ular yuqori matematikaning aniq tilini almashtirdilar – differensial hisoblash usuli bilan optimallashtirish masalasini hal qilish.

Marjinal optimizatorning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

1. Eng katta foyda yoki (yoki eng kam yuk va xarajatlar) uchun intilish.

2. Shaxsiy imtiyozlar tizimining o‘z vaqtida o‘zgarmasligi va tashqi ta‘sirlardan mustaqilligi.

3. Maqsadlarni ularga erishish vositalari bilan solishtirish va eng yaxshi variantni tanlash qobiliyati.

4. Eng yaxshi variantni topishga imkon beradigan to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lish va xatosiz bashorat qilish qobiliyati.

5. Tashqi sharoit o‘zgarishiga darhol javob berish. Iqtisodiy mavzuni o‘ziga xos “yarim xudo”ga aylantirgan to‘liq ma‘lumot, shubhasiz bashorat va tezkor reaksiya (haqiqiy bo‘lmagan) shartlari ko‘pincha G‘arb adabiyotida tanqid qilinadi.

A.Smit va D.Rikardo uchun “iqtisodiy odam” tushunchasi tadqiqotning umumiy uslubiy prinsipi bo‘lgan. Bozor mexanizmi faoliyatining xuddi shu iqtisodiy tahlilida ushbu asos faol ishlatilmadi. Marjinal foydalilik nazariyasidagi iqtisodiy subyekt tushunchasi butunlay boshqa pozitsiyani egallaydi. “Inson optimizatori”ning xususiyatlari “iste’molchilar tanlovi nazariyasi” shaklini olgan narxlarning marjinalistik nazariyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Inson modeli bu yerda “umumiy” bo‘lib, “umumiy metodologik old shart” rovidan oshib ketadi. Shu bilan birga, binolarning realizmi, marjinalizm asoschilarining niyatlariga kiritilmagan, ular asosan o‘zlarining nazariyasining qat’iyligi va universalligi uchun minimal taxminlar bilan intilishgan. Natijada, inson modeli kapitalistik ishlab chiqarishning haqiqiy agentlari bilan bevosita aloqani yo‘qotdi. Aftidan marjinalistlar tomonidan siyosiy iqtisodni “bentamizatsiya qilish”ning obyektiv ildizlarini 19-asrning oxirlaridan qidirish kerak. Insonning ishlab chiqarishdan va uning mehnati mahsulidan begonalashishi, natijasi ishlab chiqarishni iste’moldan ajratish va ikkinchisini inson mavjudligining eng yuqori maqsadiga aylantirish va mehnatni zaruriy yovuzlikka aylantirishdir, u bilan ehtiyojni qondirish uchun yarashishi kerak. Biroq, marjinalistlar ehtiyojlarning odamlar ustidan ko‘rinadigan kuchidan kelib chiqib, ushbu hodisaning boshqa tomonini – ishlab chiqaruvchining ehtiyojlar ustidan hukmronligini kapitalistik ommaviy ishlab chiqarishning ajralmas xususiyati sifatida sezmadilar.

19-asr oxiri inson optimizatori qiyofasining paydo bo‘lishiga yordam berishi mumkin. Renta qatlami, uning nuqtayi nazaridan ishlab chiqarish jarayoni deyarli ko‘rinmas va ayirboshlash sohasida sodir bo‘lgan kapital qo‘yilmalar jarayoni sifatida taqdim etilgan. Renterlarning asosiy xususiyatlari – iste’molchilar psixologiyasi, individualizmning kuchayishi va ijtimoiy falokatlardan qo‘rqish marjinalistik maktab metodologiyasini juda eslatadi, ikkinchisi marjinalistlar orasida tarixiy hamma narsani rad etishda namoyon bo‘ladi. Biroq, ma’lum tarixiy ildizlarga qaramay, 19-asr oxirida barcha iqtisodiy hayotni tushuntirish uchun inson optimallashtiruvchi marjinalist tushunchasi noodatiy hol bo‘lib qolmoqda, chunki o‘sha paytda iqtisodiyotni avvalgiga qaraganda shaxsning uning kommunal funksiyasini maksimal darajada oshirishi bilan izohlash mumkin edi: u

aniq o‘ta individual kuchlar – sinfiy, monopolistik va davlat – byurokratik kuchlarning ustunligi bilan shakllangan.

Inson optimizatori konsepsiyasi marjinalistlar orasida muhim yukni ko‘targan.

Birinchidan, Mark Blaug ta’kidlaganidek, marjinalizm marksizmning qadriyatlar nazariyasining asosiy oqimidagi ta’sirining kuchayishiga javob bo‘ldi. Marjinalizm Karl Marksning obyektiv qiymat nazariyasini inson optimizatori xususiyatlariga asoslangan izchil subyektiv nazariyaga doimiy ravishda qarshi qo‘ygan.

Ikkinchidan, insonning marjinalistik modeli umumiy iqtisodiy muvozanat tushunchasi bilan uzviy bog‘liqdir. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar bir vaqtning o‘zida o‘zlarining maqbul holatiga mos keladigan muvozanatli uyg‘un dunyoda maksimal foyda olishlari mumkin.

Bu jihatdan marjinalistlar “ko‘rinmas qo‘li” bilan A. Smitga juda yaqin. Ammo Smit individual va jamoat manfaatlarini uyg‘unlashtirishning haqiqiy qiyinchiliklarini bilar edi va marjinalistlar nazariy jihatdan birjaning har bir ishtirokchisi maksimal foyda olishga erishadigan “olamlarning eng yaxshisi” mavjud bo‘lishi mumkinligi haqida mavhum matematik dalillar bilan kifoyalanishdi. Inson optimizatorining mavhum tushunchasi har tarafdin tanqid qilindi. Ammo marjinal foyda nazariyasi tarafdorlari o‘zlari vaziyatdan chiqish yo‘lini izlashdi va undan chiqib ketish ikki yo‘nalishda sodir bo‘ldi. Ba’zi iqtisodchilar (V.Pareto, X.Davvenport, I.Fisher) iqtisodiy nazariyadan nafaqat gedonizmni, balki psixologiyani ham chiqarib tashlashga harakat qilishdi, faqat ratsional tanlovning rasmiy-ratsional “shaxssiz” mantig‘ini qoldirishdi. Boshqalar (Alfred Marshall) gedonist-optimizator modelining asosiy xususiyatlarini saqlab, uni iqtisodiy agentlarning haqiqiy xususiyatlariga iloji boricha yaqinlashtirishga intilishdi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Falsafiy antropologiyaning kelib chiqishi va rivojlanishi haqida nimalarni bilasiz?

2. Falsafiy antropologiyaning predmeti nima va uning vazifalari nimalardan iborat?

3. “Homo Economicus” (“iqtisodiy odam”) nima?
4. Homo Economicusni shakllantiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy muhit nima uchun muhim?
5. Shaxsning iqtisodiy xulq-atvorini falsafiy tahlil qiling.
6. Inson optimizatori deganda nimani tushunasiz?
7. Marjinalistlar g‘oyasining o‘ziga xosligi.
8. 1870-yillarda ro‘y bergan “marjinal inqilob”ning asosiy vakillari kimlar?
9. Qaysi iqtisodchi olimlar iqtisodiy nazariyadan psixologiyani ajratib chiqarishga harakat qilganlar?
10. Gedonizm tushunchasining mohiyati.

Testlar:

1. Fanda inson va kishilik jamiyatining vujudga kelishi to‘g‘risidagi masala qanday nomlanadi?

- A) Antropologiya
- B) Antropososiogenez
- C) Biogenetika
- D) Antropogenez

2. Inson o‘z-o‘zini muttasil kamol toptirishining muhim sharti nimada?

- A) O‘zlikni anglashda
- B) Ruhiy zo‘riqishda
- C) Jismoniy barkamollikda
- D) Kamolot darajasida

3. Sharq falsafasi tarixida, xususan, Forobiy falsafasida inson qanday talqin qilinadi?

- A) Inson butun borliq taraqqiyotining mahsuli sifatida talqin qilinadi.
- B) Baxtli bo‘lish va baxtli qilishga intilgan tafakkur tufayli yuz beradi.
- C) Ilm va ma’rifat orqali erishish mumkinligi bayon etilgan.
- D) Barcha javoblar to‘g‘ri

4. Ong strukturasiining oliy elementi nima?

- A) Tafakkur
- B) Intuitsiya
- C) Sezgi
- D) Idrok

5. Hozirgi zamon antropologik falsafasida inson mohiyati qanday xulosa qilingan?

A) Inson tabiatda noyob, universal bo‘lib, inson uchun instinkt ham, nozik did ham, ulug‘vorlik va yaratuvchanlik xosdir.

B) Insonda ichki va tashqi olam mujassamlashgan bo‘lib, mehnat, muloqot, badiiy ijod, xulq-atvorlarda namoyon bo‘lmaydi.

C) Inson tarixiy mavjudot emas, chunki uni har doim inqirozlar, omadsizliklar ta‘qib etadi.

D) Inson mas‘uliyat hissidan qochib qutulishi mumkin, chunki u gumanistik pozitsiya va individuallikni uyg‘unlashtira olmaydi.

Esse mavzulari:

1. Falsafiy antropologiyani mohiyati.
2. “Homo Economicus” (iqtisodiy odam) tushunchasi.
3. “Homo Economicus”ni shakllantiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy muhit.
4. Falsafiy antropologiyani paydo bo‘lishi.
5. Individual iqtisodiy xatti-harakatlarning falsafiy tahlili.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Falsafa. Sh. Madayeva va boshqalar. –T.: “Mumtoz so‘z”, 2019, 315-bet.

2. Razzoqov A. Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2011. 8-bet.

3. Razzoqov A., Sh.Toshmatov, N.O‘rmonov. Iqtisodiy ta‘limotlar tarixi. –T.: Moliya. 2002. 175-bet

4. Нисше Ф. Человеческое, слишком человеческое. Книга для свободных умов. Соч. в 2 т. - М., 1990.

5. Автономов В.С. Человек в зеркале экономической теории. – М.: Наука Блауг М., 2004.
6. Основы политической экономии, т. ИИИ – М.: Прогресс. 2011. 214 с.
7. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: ЭксмоХаек Ф., 1992.
8. Iqtisodiyot ilmi osmonida yulduzga aylanganlar. Ilmiy-ommabop risola [Matn] –Т.:”Ma’naviyat”, 2021. – 352 bet.

7-MAVZU. JAMIYAT VA OILA FALSAFASI

Reja:

7.1. Jamiyat falsafasining tuzilishi va funksiyalari. Jamiyat taraqqiyotiga doir yondashuvlar. Tarixda shaxsning roli.

7.2 Oila – jamiyat tayanchi. Oilaning vazifalari. Oila o‘zbek xalqining yuksak milliy va diniy qadriyati.

7.3. Davlatning oila tinchligi va barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni. Oila-ta’lim-mahalla tizimi.

7.1. Jamiyat falsafasining tuzilishi va funksiyalari. Jamiyat taraqqiyotiga doir yondashuvlar. Tarixda shaxsning roli

Falsafa jamiyatni obyektiv olamning tarkibiy qismi sifatida o‘rganadi. Jamiyat rivojlanuvchi tizim sifatida faylasuflarni har doim qiziqtirib kelgan. Jamiyat haqidagi bilimlar keyinchalik sotsiologiya nomi bilan mustaqil tadqiqot sohasi sifatida falsafadan ajralib chiqdi. Shundan so‘ng jamiyatni, uning individual jihatlarini o‘rganish boshlandi va keyinchalik u “jamiyat haqidagi bilimlar tizimi” deb ta’riflandi.


Mamlakat taraqqiyotini belgilab olish jarayonida davlat tuzilmalari bilan birgalikda jamiyatni ham isloh qilish, rivojlantirish, uning unsurlarini va institutlarini takomillashtirish zarurligi talabi qilib qo‘yilmoqda. Bu holat esa o‘z-o‘zidan mazkur jarayonlarni tartibga solish, boshqarish yuzasidan huquqiy asoslarni yaratish va takomillashtirishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan ham avvalo “jamiyat” deganda nima tushuniladi, uning o‘ziga xos jihatlarini, institutlari, rivojlanishi masalalarini aniqlab olish nihoyatda zarur. Har bir yangi davrda jamiyat mohiyatini yangicha idrok etish, yangicha yondashish zaruriyati paydo bo‘ladi. Turli tarixiy davrda yaratilgan jamiyat to‘g‘risidagi falsafiy ta’limotlarda davr ruhi, jamiyatning ma’naviy salohiyati o‘z aksini topadi. Shu boisdan jamiyat g‘oyat murakkab ijtimoiy organizmdir. U odamlar o‘rtasida amal qiladigan axloqiy, diniy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, mafkuraviy va h.k. munosabatlarning, tarixan tarkib topgan oila, din, davlat, axloq va sh.k. ijtimoiy institutlarning majmuasidir. Jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotini

bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish ham, ulardan birini muhim, boshqasini nomuhim deb hisoblash ham birday xatodir. Jamiyat hayotining ma‘naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalari bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq. Ularni boshqarish va takomillashtirishda davlat, jamiyat tashkilotlari va o‘z-o‘zini boshqarish organlari muhim rol o‘ynaydi. Har bir tarixiy davrda jamiyatning ma‘naviy-intellektual salohiyati, siyosiy va huquqiy madaniyatiga muvofiq ravishda siyosiy boshqarish usuli shakllanadi va amal qiladi.

Demokratik jamiyat iqtisodiy bozor munosabatlari vositasida boshqariladi, davlat siyosati iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishga yordam beradi. Ijtimoiy raqobat, manfaatdorlik iqtisodiy rivojlanishning muhim qonuniyati sifatida amal qiladi. Demokratik davlat jamiyat ma‘naviy hayotini takomillashtirish, jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ilm-fanni taraqqiy ettirish haqida ko‘proq g‘amxo‘rlik qiladi. Davlat jamiyat ma‘naviyatining homiysi sifatida ta‘lim-tarbiya sohasida tub islohotlarni amalga oshiradi. Yuksak ma‘naviyat taraqqiyotning asosi. Jamiyat tarkibini turli sinflar, sotsial qatlamlar va guruhlar tashkil etadi. Jamiyat ijtimoiy tarkibining xilma-xilligi mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi, mulkchilik turli shakllarining mavjudligi bilan bog‘liqdir. Demokratik jamiyatda mulkdorlar sinfi demokratik davlatning siyosiy va ijtimoiy tayanchi, iqtisodiy farovonlikni ta‘minlovchi kuchi hisoblanadi. Demokratik jamiyatning shakllanishi va taraqqiyotini ma‘rifatli-huquqiy davlatsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ijtimoiy farovonlik va ijtimoiy totuvlik komil inson shaxsini shakllantirishga, fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishga, huquqiy bilim va madaniyatni rivojlantirishga bog‘liqdir. Jamiyatda iqtisodiy hayotni erkinlashtirish muqarrar ravishda siyosiy hayotni erkinlashtirishni taqozo etadi. Fuqarolik jamiyati barpo etish, demokratik institutlarni rivojlantirish, komil inson shaxsini shakllantirish demokratik jamiyat taraqqiyotining bosh maqsadidir.

“Jamiyat” tushunchasini bir ma‘noda ta‘riflaganimizda bir qancha nazariy, metodologik va etimologik murakkabliklarga duch kelamiz. Avvalo, bu tushuncha hajmi va mazmuni jihatdan juda keng, abstrakt falsafiy kategoriyadir. Ikkinchidan, bu tushuncha dinamik, ya‘ni rivojlanish xususiyatiga ega. Uchinchidan, jamiyat faqat falsafa fanining predmeti bo‘lmasdan, barcha ijtimoiy fanlar majmuining

predmetidir. To‘rtinchidan, “jamiyat” atamasi turli ma’nolarda ishlatilishi mumkin.



7.1-chizma. Jamiyat tizim sifatida.

Jamiyat deganda, avvalambor, odamlarning turli darajadagi jamoalar guruhlarida birga yashashi sifatida tushuniladi. Jamiyat – bu ba’zi bir umumiylik bilan bog‘langan insoniyatning ma’lum bir shaxslar to‘plamini aniqlash uchun keng qo‘llaniladigan tushunchadir: u yoki bu barqaror xususiyatlar va yaxlitlik majmuasiga ega bo‘lgan turli darajadagi tizimlar (masalan: agrar jamiyat, sanoat jamiyati, axborot jamiyati); ma’lum bir jamoaga ega bo‘lgan odamlar birlashmalari (masalan: kelib chiqishi, mavqei, manfaatlari, maqsadlari, faoliyati, yashash hududi, millati bo‘yicha). Shu bilan birga biror davlat hududidagi odamlar hayoti, sivilizatsiyaning muayyan davrlaridagi turmushga nisbatan ham ushbu tushuncha qo‘llaniladi. Zamonaviy postmodernistik ta’limotlarda “jamiyat” tushunchasi universal maqomga da’vo sifatida amalda foydalanishdan chetlatilgan.


Jamiyatni inson hayoti sohasi sifatida tushunish, uning mohiyati va xususiyatlari uzoq yo'lni bosib o'tdi. Jamiyat mohiyatini va uning mazmunini aniqlashga qaratilgan yondashuvlarning xilma-xilligi jamiyatning o'ta murakkab dinamik ko'p o'lchovli shakllanishda ekanligi bilan izohlanadi. Jamiyatni tushunishga yagona yondashuvning yo'qligi tarixiy jihatdan uning tabiati haqidagi g'oyalarning ko'p o'zgaruvchanligi bilan bog'liq bo'lib, ularning har biri har xil (shu jumladan mafkuralashtirilgan) pozitsiyalardan "jamoat" obrazini, shuningdek, jamiyat rivojlanishining obyektiv xususiyatlarini beradi.

Jamiyat falsafasining muhim masalalaridan biri bu tarixiy taraqqiyotni davriylashtirish muammosi. Insoniyat tarixini davriylashtirish muammosiga ikkita asosiy yondashuv mavjud. Ulardan birinchisi – bosqichma-bosqich (yoki chiziqli), jahon tarixiga insoniyatning ilgarilab boruvchi yuksalishining yagona jarayoni sifatidagi qarashdan iborat bo'lib, unga muvofiq insoniyat tarixining ma'lum bosqichlari ajratib olinadi. Odatda sivilizatsiya deb ataladigan ikkinchi yondashuv shundan iboratki, insoniyat tarixida bir nechta mustaqil sivilizatsiyalar mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos, mutlaqo mustaqil tarixga ega.

Jamiyat (arabcha – umumiy) – tabiatning bir qismi, borliqning alohida shaklini ifodalaydigan falsafiy tushuncha; odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qiladigan ko'plab munosabatlar majmuasi, jamiyat o'zida moddiylik va ma'naviylikni, obyektivlik va subyektivlikni, tabiiylik va ijtimoiylikni mujassamlashtiradi. Insoniyatning ulug' mutafakkirlari doimiy o'zgarish va rivojlanishda bo'lgan jamiyatning tub mohiyatini bilishga, insonning jamiyatdagi o'рни va rolini belgilashga, taraqqiyot mantig'ini anglashga harakat qilganlar. Turli tarixiy davrlarda jamiyat mohiyati mifologik, diniy ta'limotlar orqali izohlangan. Jamiyat mohiyatini ilmiy-falsafiy bilish, jamiyatning yaxlit ilmiy manzarasini yaratish insoniyat ma'naviy taraqqiyotining buyuk yutug'i bo'ldi. Ilmiy bilimlar va falsafiy tafakkurning rivojlanishi bilan jamiyat mohiyatini ilmiy asosda o'rganish imkoniyati vujudga kelgan. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino singari ulug' mutafakkirlar jamiyatning paydo bo'lishi, mohiyati va istiqbollari to'g'risida ilg'or ilmiy qarashlarni ilgari surdilar. Forobiyning ideal (fozil) jamiyatni barpo etish to'g'risidagi g'oyalari

ijtimoiy falsafa rivojida muhim o‘rin tutadi. Ibn Sino jamiyatning paydo bo‘lishi kishilarning birdamlikka bo‘lgan tabiiy ehtiyojidan kelib chiqqanligini, ijtimoiy tengsizlik, tabiiy holat, mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi jamiyat taraqqiyotining asosi ekanligini ko‘rsatdi. Beruniy birinchi bo‘lib sivilizatsiyalarning paydo bo‘lishida tabiiy-geografik omilning hal qiluvchi rol o‘ynaganligini asoslashga harakat qildi, jamiyat hayotida oila, til va madaniyatning ahamiyatini ko‘rsatdi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy ta‘limotlari keyinchalik yevropalik olimlar tomonidan rivojlantirildi. XIX asr o‘rtalariga kelib jamiyatni ilmiy asosda tadqiq etish, undagi ijtimoiy muammolarni oqilona hal etishda fan yutuqlaridan foydalanish, jamiyat istiqbolini oldindan ko‘rish hayotiy zaruriyatga aylandi. G.Spenser, E.Dyurkgeym, Gegel, M.Veber, V.Pareto singari faylasuflar jamiyatni tabiiy-tarixiy jarayon, murakkab ijtimoiy tizim sifatida tadqiq etdi. Xususan, Gegelning fikricha, jamiyat falsafa orqali o‘zligini anglaydi. Shunday qilib, jamiyat tushunchasini tahlil etishda yana bir qancha ta‘rif va yondashuvlarni uchratish mumkin. Masalan, jamiyat – bu, kishilar orasidagi ijtimoiy munosabatlarning tarixiy taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan ijtimoiy borliqdir. Boshqa bir ta‘rifga ko‘ra, jamiyat – bu o‘z hayotiy zarur ehtiyojlarini qondirishda o‘zaro aloqador bo‘lgan kishilarning birgalikda yashashining muayyan tizimidir. Yana bir ta‘rifga ko‘ra, jamiyat – bu, aql-idrokka ega bo‘lgan kishilar o‘rtasidagi moddiy va ma‘naviy munosabatlar va tabiat bilan o‘zaro bog‘lanishlarga asoslangan murakkab dinamik sistemadir. Shuningdek, jamiyat tushunchasiga quyidagi yondashuvlarni kuzatish mumkin: jamiyat kishilar orasidagi shunday o‘zaro ijtimoiy munosabatlar mahsuli, o‘zaro aloqadorlik bo‘lib, bu ijtimoiylikning natijasi hisoblanadi (M.Veber); jamiyat – bu, kishilar o‘rtasidagi shunday munosabatlar tizimiki, uning birlashtiruvchi asosi qadriyat va normalar hisoblanadi (T.Parsons).



7.2-chizma. Jamiyat haqida qarashlarning rivojlanish bosqichlari.

Nemis faylasufi Maks Veber (1864–1920) fikricha, jamiyat insonlarning o‘zaro ta’siridan, ya’ni ijtimoiy xatti-harakatlardan tashkil topgan tizim bo‘lib, boshqa odamlarning xatti-harakatiga qarshi javob tariqasida yo‘naltirilgandir.

U jamiyat rivojining asosini ijtimoiy faoliyatda, deb hisoblaydi. Amerika sotsiologi Tolkott Parsons (1902–1979) fikricha, jamiyat qadriyatlar va me’yorlar bilan bog‘langan odamlarning munosabatiga asoslangan tizimdir. Inson shularga asoslanib o‘z ijtimoiy faoliyatini amalga oshiradi. Fransuz faylasufi va sotsiologi Emil Dyurkgeym

(1858–1917)ning fikricha, “jamiyat – bu individlarning oddiy yig‘indisidan iborat bo‘lmay, maxsus xususiyatlarga ega bo‘lgan, ularning birlashmasidan tashkil topgan tizim bo‘lib, reallikni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan “sui generis” aks ettiradi”. Taniqli faylasuf P.A.Sorokin (1889–1968) jamiyatga individlar va ijtimoiy guruhlarning o‘z ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyati bilan belgilanadigan, bir-biri va jamiyat bilan o‘zaro munosabatlari natijasida vujudga keladigan integral yaxlitlik sifatida ta’rif beradi. Uning fikricha, “jamiyat mavjud bo‘lishi uchun hech bo‘lmasa ikki kishi bo‘lishi va ular bir-birlari bilan o‘zaro ta’sir bog‘lanishida bog‘langan bo‘lishi kerak. Bu eng oddiy jamiyatning ko‘rinishidir...”. P.A.Sorokin jamiyatni gorizontal, vertikal yo‘nalishlarda va fluktuatsiya tarzida murakkab harakatda bo‘lgan ijtimoiy-madaniy tizimlarning rang-barangligini tan olish nuqtayi nazaridan tavsiflagan.

Shuningdek, R.Aron, D.Bell, P.Blau, E.Giddens, R.Darendorf, G.Zimmel, T.Kun, K.Levi-Stross, K.Manngeym, R.Merton, X.Ortegai-Gasset, K.Popper, E.Fromm, K.Yaspers va boshqalar ham jamiyat to‘g‘risidagi o‘ziga xos fikrlarini bildirganlar. Ko‘pchilik mutafakkirlar jamiyatning mohiyatini bir yoki bir nechta asosiy prinsip orqali tushuntiradilar. Masalan, O.Shpannda bu prinsip – bir butunlik, O.Toﬀlerda – plyuralizm, U.Rostouda – bosqichma-bosqichlik, K.Popperda – ochiqlik, R.Mertonda – universallik. Lekin masalaga jiddiy qarovchi faylasuflar hatto o‘zlarining prinsiplarini ham mutlaqlashtirmaydilar. Masalan, K.Popper ochiqlik prinsipi to‘g‘risida shunday deb yozadi: “Ochiq jamiyatlar... hali mukammallikdan yiroqda..., balki avlodlarimiz bir necha yuz yillardan so‘ng axloqiy jihatdan bizdan ancha o‘tib ketsalar kerak. Bularning barchasi ro‘y berishi mumkin, deb hisoblasam-da, shunga qaramay, yana qaytaraman: hozirgi davrda biz yashab turgan ochiq jamiyatlar – qachonlardir mavjud bo‘lgan jamiyatlarning eng yaxshisi, eng erkin va adolatlisi, o‘z-o‘zini tanqid qiluvchi va islohotlarni eng tez qabul qiluvchilardir”³⁴

Jamiyatning barcha tarkibiy qismlari o‘rtasida barqaror aloqalarning mavjudligi, ularning yakdilligi hech qachon faylasuflarda shubha uyg‘otmagan. Shunday bo‘lsada, jamiyatning yaxlitligi,

³⁴ К.Поппер. Открытое общество и его враги. —М., 1992, Т.2, С.276-277.

butunligi xarakteriga nisbatan turli yondashuvlar mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi. Falsafa tarixida jamiyatning “atomli” nazariyasi, “ijtimoiy guruhlar” nazariyasi, ijtimoiy institutlar va tashkilotlar nazariyasi, jamiyatning “jamiyat organizm kabi” nazariyasi singarilar ma’lum. Bugungi kunda ko‘plab faylasuflar jamiyatning tizim sifatidagi nazariyasidan foydalanadilar. Ushbu tizim alohida sifatlarga ega, ya’ni:

– integrallik (tizim yaxlitlik sifatida, o‘zining elementlaridan yuqori);

– funksionallik (har bir elementning roli uning tizim ichidagi o‘rniga bog‘liq);

– tuzilmaviylik (tizim elementlari aloqalarining va munosabatlarining nisbatan barqarorligi);

– tashqi muhit bilan o‘zaro bog‘liqligi (har qanday tizim bir muncha kattaroq tizimning elementi hisoblanadi va bir tomondan ushbu katta tizimning impulslariga bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomondan, o‘zi ham tashqi muhitga ta’sir ko‘rsatadi). Yuqoridagi barcha belgilar insoniyat jamiyatiga mos keladi.

Jamiyat ko‘p darajali bo‘lib, asosiy darajalari quyidagicha namoyon bo‘ladi:

Birinchi daraja – bu ijtimoiy o‘zaro munosabatlar strukturasi belgilab beradigan ijtimoiy rol.

Ikkinchi daraja – ushbu ijtimoiy rollar taqsimlangan turli ijtimoiy guruhlar va institutlar.

Uchinchi daraja – ko‘plab avlodlar tomonidan tajribadan o‘tkazilgan, inson faoliyati namunalarini ko‘rsatadigan me’yorlarni qo‘llab-quvvatlaydigan va ishlab chiqadigan madaniyat.

To‘rtinchi daraja – huquqiy aktlar bilan tartibga solinadigan va ijtimoiy tizim ichida aloqalarni mustahkamlaydigan siyosiy tizim.

“Jamiyat” tushunchasi yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ma’nolardan tashqari: biologik tizimlarning eng rivojlangan bosqichi; konkret aniq sosium; ijtimoiy aloqalar va o‘zaro ta’sirlar shakli va boshqa shakllarda namoyon bo‘ladi. Eng keng ma’noda, jamiyat – bu odamlar birlashuvining hamma shakllari va ularning o‘zaro aloqalari va o‘zaro ta’sirlarining hamma usullari majmuidir. Demak, “jamiyat” tushunchasi o‘zida quyidagi ma’nolarni qamrab olgan:

1. Jamiyat tushunchasida nafaqat hozir yashab turgan kishilarning faoliyatlari, balki ularning o‘tmishi hamda kelajak avlodlar hayoti, ya’ni insoniyat tarixining ilk boshlanishidan tortib, uning kelajagigacha bo‘lgan barcha jihatlari aks etadi.

2. Bu tushunchada muayyan xildagi jamiyatlarning o‘ziga xos jihatlari ham ifodasini topadi. Masalan, “antik davr jamiyati”, “Yevropa jamiyati”, “Osiyocho jamiyat” va hokazolar.

3. Mazkur tushunchada bir-biriga bevosita bog‘lanmagan holda mavjud bo‘lgan jamiyatlar ham ifodalanadiki, bunda ularning makon va vaqt bilan aloqador jihatlari e’tiborga olinadi. Bularga misol tariqasida qadimgi saklar, O‘rta Osiyodagi jamiyatlar, Yaqin Sharqdagi arab jamiyatlari yoki G‘arbiy Yevropadagi jamiyatlar va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Hozirgi ko‘rinishda jamiyat takror ishlab chiqarish, o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini o‘zi tashkil qilish ichki mexanizmlariga ega bo‘lgan tarixan muayyan, yaxlit va barqaror tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Jamiyat – bu, insonlarning shunday birlashmasiki, uning yaxlitligi ijtimoiy ishlab chiqarish, ya’ni insonlarning umuman ishlab chiqarish, o‘z hayotini quvvatlash va takror ishlab chiqarishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati bilan ta’minlanadi³⁵.

Jamiyat ijtimoiy tizim sifatida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- hayotiy ne’matlarni ishlab chiqarish;
- ishlab chiqarishni tizimlashtirish;
- takror ishlab chiqarish va insonni ijtimoiylashtirish;
- mehnat natijalarini taqsimlash;
- davlatning boshqaruv faoliyatining qonunga muvofiqligini ta’minlash;
- siyosiy tizimlarni strukturalash;
- mafkuralarni shakllantirish;
- madaniyatlar va ma’naviy qadriyatlarining tarixiy davomiyligini ta’minlash.

Jamiyatning mazmun-mohiyati va kelib chiqish sabablari hamda omillariga doir bir qator qarashlar va konsepsiyalar yuzaga kelgan. Jamiyatning kelib chiqishiga oid teologik, idealistik, materialistik konsepsiyalar ham bu masalani o‘z holicha to‘liq tushuntirib bera

³⁵ Shermuxamedova N. Falsafa: o‘quv-uslubiy majmua. –T., NOSHIR, 2012. –B.509-510.

olganlaricha yo‘q. Shunday bo‘lsada, ushbu konsepsiyalar birgalikda uning mohiyatiga kirib borish imkonini beradi.

Jamiyatning kelib chiqishiga oid markscha materialistik nazariyada mehnat, mehnat qurollari, so‘ngra burro nutq inson jamiyatining yuzaga kelishida bosh omil sifatida ko‘rsatiladi. Marksistik konsepsiyada tarixiy jarayonni davriylashtirish ijtimoiy-iqtisodiy shakllanishlarning o‘zgarishi orqali berilgan: ibtidoiy kommunal, qul egasi, feodal, kapitalistik va kommunistik. Tarixga formatsion yondashish haqida gap ketganda, bu nimani anglatadi. Tarixni ijtimoiy davrlashtirishning zamonaviy konsepsiyasi odatda postindustrial jamiyat konsepsiyasi deb ataladi (Bell, Toffler, Bzejnskiy va boshqalar). Insoniyat tarixida postindustrialistlar uchta bosqichni ajratib ko‘rsatadilar:

- agrar jamiyat;
- industrial jamiyat;
- postindustrial jamiyat.

Tarixiy jarayonni davriylashtirishga birinchi – bosqichma-bosqich yondashish doirasida tarixni butun insoniyat uchun umumiy bo‘lgan bosqichlarga ajratishga ustunlik beriladi. Ikkinchi yondashuv – sivilizatsiyalash nuqtayi nazaridan turli xil xalqlar va butun mintaqalar o‘rtasida evolutsiyaning o‘xshashligi ta’kidlangan.

Sivilizatsiyaga bo‘lgan yondashuvlarning farqli jihatlariga qaramasdan, uning eng ko‘p tan olingan xususiyatlari shundan iboratki, sivilizatsiyaga o‘tish madaniyatning shakllanishida muhim omili hisoblanadi. Sivilizatsiya, varvarlikdan farq qiladigan jamiyat shakllanganda, jamiyatning to‘g‘ri ijtimoiy tashkilotiga o‘tishni anglatadi. Sivilizatsiya jamiyat taraqqiyotining juda muhim iqtisodiy parametri bo‘lsa ham, faqat bittasi bilan cheklanib qolmasdan, har bir sivilizatsiyaning o‘ziga xosligi va madaniy, geografik, ma’naviy kabi muhim nuqtalarini ham o‘z ichiga oladi. “Sivilizatsiya” tushunchasi fanga XVIII asrda yevropalik olimlar tomonidan kiritilgan bo‘lib, birinchi navbatda, G‘arb madaniyatidagi o‘zlikni anglash jarayonini aks ettiradi.³⁶ Oldingi an‘analarda ro‘y bergan sivilizatsiyani anglashning turli xil yondashuvlariga asoslanib, shuningdek, ushbu muammoning hozirgi holatini hisobga olgan holda, biz ushbu murakkab konsepsiyaga quyidagi ta’riflarni bera olamiz. Ya’ni, “Sivilizatsiya”

³⁶ Ergashev Sh. Qadimgi sivilizatsiyalar. T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. 3-bet.

atamasi (lot. tilidan “sivilis” – fuqarolik, davlat) bir necha ma’noda ishlatiladi:

- insoniyatning varvarlikdan keyingi tarixiy rivojlanish bosqichi (Morgan, Engels, Toffler);
- madaniyatning sinonimi (Toynbi va boshqalar);
- mintaqa yoki ma’lum bir etnik guruhning rivojlanish darajasi (bosqichi) (masalan, qadimiy silvilizatsiya);
- mahalliy madaniyatlar rivojlanishining ma’lum bir bosqichi, ularning tanazzulga uchrashi (Shpengler).

Fransuz ma’rifatparvarlari (Volter, Russo) silvilizatsiya jamiyatini aql va adolat tamoyillariga asoslangan jamiyat deb atashgan. Ular tarix konsepsiyasini insoniyatning izchil rivojlanib borishi, hunarmandchilik, ilm-fan, san’at, axloq, qonuniyatlar, yashash sharoitlari, ongni ma’rifatning takomillashib boradigan doimiy jarayoni sifatida ishlab chiqdilar. Ular uchun insoniyat jamiyati tarixi inson ongining taraqqiyot tarixidir. 19-asrda “silvilizatsiya” tushunchasi butun kapitalistik jamiyatni tavsiflash uchun ishlatilgan. Biroq, bu silvilizatsiya g’oyasi umuman qabul qilinmadi. XIX asrning ikkinchi yarmida allaqachon jahon tarixining yangi talqinlarini izlashga, silvilizatsiyalar (yoki buyuk madaniyatlar) tarixiga ilmiy qiziqishning kuchayishi tomon burilish yuz berdi, bu esa tarixiy jarayonni yangidan anglash uchun favqulodda ehtiyoj borligidan dalolat berdi. Tarix, arxeologiya va madaniy tarixga oid ulkan empirik material, yangi ma’lumotlar asosida har xil mualliflar tarixiy tuzilishdagi universalni ajratib olishga urinishlarida jahon-tarixiy jarayonining rivojlanishining chiziqli konsepsiyalari yordam berishi mumkin bo’lgan alohida va birlikni chetga surib qo’yishdi. Tarixning ma’nosini izlash. 19-asrning oxirlarida G’arb jamiyatida yuzaga kelgan inqiroz, asosan, yevrosentrik chiziqli tushunchalarning asosini yo’q qildi. Tarixiy taraqqiyotning sivilizasion konsepsiyasi shakllana boshlaydi, uning asosiy vazifasi tarixiy taraqqiyotning o’zgaruvchan mohiyatini, insoniyat tarixining xilma-xilligi va o’ziga xosligini tushuntirish, yevrosentrik standartlar va ustuvor yo’nalishlarni yo’q qilish va boshqa dunyo tartibining asosiy imkoniyatlarini postulatsiya qilishdir. Silvilizatsiya rivojlanishining

eng yetakchi nazariyalari Danilevskiy, Shpengler, Toynbi, Sorokin tomonidan yaratilgan.

Arxeologiya, etnografiya, qiyosiy tilshunoslik va boshqa fanlar tomonidan 20-asrda to'plangan ulkan materiallar, shuningdek, tarixning "chiziqli" yo'nalishi va birinchi jahon urushi ta'sirida aksariyat ziyolilar boshdan kechirgan liberal progressivizm haqidagi illuziyalar inqirozi tarixni anglash uchun, sivilizasion yondashuvni shakllantirish uchun zarur shart bo'lib xizmat qildi. An'anaviy tarixiy fanning ufqlarini kengaytirish, Yevropa madaniyatining boshqa madaniyatlar qatoridagi o'rnini aniqlash zarur edi. Silvilizatsiyalashgan yondashuvning mohiyati shundan iboratki, insoniyat tarixi bir necha butunlay mustaqil shakllanishlarga bo'lingan – ularning har biri o'ziga xos mustaqil tarixga ega bo'lgan mahalliy silvilizatsiyalar, tarixiy hodisalarning o'ziga xosligi, madaniy va tarixiy voqealarning o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Hozirda jahon tarixini talqin qilish uchun integratsion yondashuv zarur. Bunda insoniyat tarixiy taraqqiyotining progressiv tabiati, uning rivojlanishi, xronologiyasi, barcha madaniyatlar va silvilizatsiyalarning ko'p qirraliligi, murakkabligi, o'ziga xosligi, insoniyat jamiyatining rivojlanishi hisobga olinadi. Faqatgina ushbu yondashuv doirasida tarixiy jarayonni uning xususiyatlarining barcha xilma-xilligi, tarixiy rivojlanishning o'zgaruvchanligi, madaniyatlarning plyuralistik yo'nalishi va silvilizatsiya rivojlanish istiqbollari asoslash bilan ko'rib chiqish mumkin. Zamonamizning global muammolari oldida insoniyat tobora ko'proq uning birligi va jahon tarixining birligi to'g'risida xabardor bo'lib bormoqda.

Ba'zi tadqiqotchilar insoniyat jamiyati tarixini tushunishga integratsiyalashgan yondashuvni mahalliy silvilizatsiyalarning o'zaro ta'sirining ma'lum bir bosqichidagina dunyo tarixi hodisasi paydo bo'ladi va ekumenik yagona silvilizatsiya shakllanish jarayoni boshlanadi. Jahon tarixining haqiqati, nemis olimi va faylasufi K.Yaspersning fikriga ko'ra, avvalo insoniyatning ma'naviy birligi bilan bog'liq. U jahon tarixining boshlanishini "eksenel vaqt" deb nomlaydi (miloddan avvalgi 800-yildan 200-yilgacha), antik davrning buyuk madaniyatlarida, ularning ta'siri sohasida butun insoniyatning universal ma'naviy asoslari shakllana boshlaydi. Bir-

biridan mustaqil ravishda turli joylarda – Hindiston, Xitoy, Fors, Falastin va Qadimgi Yunonistonda ma'naviy jarayonlar vujudga keladi, ular hozirgi kungacha mavjud bo'lgan shaxs turini shakllantirishga yordam berdi. "Asosiy davrda" butparastlik o'rnini bosuvchi dunyo dinlari va mifologik ong o'rnini bosadigan falsafa paydo bo'ldi. Bu ruhning uyg'onishi, insoniyatning umumiy tarixining boshlanishi bo'lib, u shu vaqtgacha mahalliy, o'zaro bog'liq bo'lmagan madaniyatlarga tarqalib ketdi. Yaspers o'z tarixini yaratib, insonning yagona ma'naviy mohiyati va uning haqiqiy tarixiga asos solgan eksenel xalqlarni (xitoylar, hindular, eronliklar, yahudiylar, yunonlar) ham ajratib turadi. Ushbu yondashuv doirasida "silvilizatsiya" tushunchasiga, biz ko'rib turganimizdek, dunyo-tarixiy talqin berilgan.

19-asr oxiri va ayniqsa 20-asrda jahon tarixining rivojlanishidagi integratsiya tendensiyalari aniq namoyon bo'ldi va individual silvilizatsiyalarning "aloqa nuqtalari" va o'zaro ta'siri paydo bo'ldi. Yaspers jahon tarixining birligi g'oyasini ta'kidlab, endi butun dunyo muammo va vazifaga aylanganini ta'kidladi. Shunday qilib, tarixning to'liq o'zgarishi sodir bo'ldi, Yer shari bitta bo'ldi, yangi xavf va imkoniyatlar paydo bo'ldi, mavjud bo'lgan barcha muammolar global bo'ldi.


Silvilizatsiya rivojlanishining zamonaviy bosqichi o'zida insoniyat tomonidan to'plangan barcha tarixiy tajribalarni, uning ijtimoiy rivojlanishining turli yo'llari va shakllarini o'zida jamlaydi va "butun insoniyat tarixi" prizmasi orqali tarixiy voqealarning o'ni, yo'nalishi va mazmuni, uning yaxlitligi va o'zaro bog'liqligi, individual silvilizatsiyalarning dunyo tarixiy jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlari va rolini tushunishga imkon beradi.

Hozirgi bosqichda silvilizatsiyaning quyidagi turlarini ajratish mumkin: G'arbiy, Sharqiy Yevropa, musulmon, hind, afrika, xitoy, yapon, Lotin Amerikasi.

Silvilizatsiyalar ikki darajani o'z ichiga oladi: mintaqaviy va mahalliy. Shunday qilib, mintaqaviy darajada G'arb silvilizatsiyasi tarkibiga Shimoliy Amerika, Fransiya, Germaniya va boshqa mahalliy silvilizatsiyalar kiradi. Noyob, o'ziga xos ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga ega bo'lish, maxsus psixologik muhitni yaratish va faqat

o'ziga xos fazilatlarga ega bo'lgan tipik, noyob shaxslarni shakllantirish, mahalliy sivilizatsiyalar, go'yo filmga tushirilgan shaklda mintaqaviy darajada ushbu turga xos bo'lgan ba'zi bir moddiy va ma'naviy narsalarni aniqlashga imkon beradi.

Sivilizatsiya – bu umumiy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va madaniy an'analar, moddiy, ishlab chiqarish va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning o'xshashligi, turmush tarzi va shaxs turining o'ziga xos xususiyatlari, aksariyat hollarda umumiy etnik xususiyatlarning mavjudligi va tegishli geografik asoslar bilan tavsiflangan odamlarning barqaror madaniy va tarixiy birligi.



7.3-chizma. Tarixiy jarayon (sivilizatsiya).

Jahoniy-tarixiy yondashuv tarafdorlari nuqtayi nazaridan ta'kidlanishicha, mahalliy sivilizatsiyalarning o'zaro ta'sirining ma'lum bir bosqichidagina dunyo tarixi fenomeni paydo bo'ladi va yagona global sivilizatsiya shakllanishining juda murakkab va ziddiyatli jarayoni boshlanadi. Shunday qilib, zamonaviy jamiyat davrimizning global muammolarini hal qilishda doimo madaniy plyuralizm zarurati bilan duch keladigan ajralmas va o'zaro bog'liq dunyo ekanligi ta'kidlanadi.

Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy sivilizatsiya yutuqlari va ziddiyatlarini aniqlash, "an'anaviy jamiyat" xususiyatlariga e'tibor berish, Sharq va G'arb mamlakatlari rivojlanayotgan asosiy modellarini baholash muhimdir.

Jahon tarixi nuqtayi nazaridan Sharqning asosiy xususiyatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: mulk va ma‘muriy hokimiyatning ajralmasligi, jamiyatning davlatga bo‘ysunishi, xususiy mulk va fuqarolarning huquqlari kafolatlarining yo‘qligi, shaxsni kollektiv, iqtisodiy va siyosiy hukmronlik tomonidan to‘liq singdirishi va ko‘pincha despotik davlat tushuniladi.

Zamonaviy Sharq mamlakatlari rivojlanayotgan bir nechta modellarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

Birinchi rivojlanish modeli Yaponiya bo‘lib, unga ko‘ra Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong kabi mamlakatlar rivojlanishga erishgan. Ular erkin raqobatbardosh bozorning to‘liq hukmronligi, mamlakat iqtisodiyotining samarali ishlashini ta‘minlaydigan davlat, urf-odatlar va yangiliklardan uyg‘un foydalanishni, ya‘ni o‘zgartirilgan an‘anaviy tuzilmalarni, xatti-harakatlar normalarini (masalan, yaponiyaliklar o‘rtasida mehnat intizomi konsepsiyasi, Konfutsiyalik me‘yorlaridan kelib chiqqan holda) va elementlarning sintezi bilan tavsiflanadi. (G‘arbiy Yevropa modeli (shu jumladan, demokratik institutlar, huquqiy va boshqa standartlar).

Rivojlanishning ikkinchi modeli – bu o‘z ichiga an‘anaviy Sharqiy mamlakatlar kiradi, ular o‘zlarining an‘anaviy ichki tuzilishini chuqur tiklamay, G‘arbiy Yevropa yo‘lida rivojlanib kelmoqda. Bu yerda G‘arb modelining eng muhim elementlari – ko‘p partiyaviylik tizimi, demokratik proseduralar, yuridik protseduraning Yevropa turi – va mamlakat aholisining katta qismi uchun odatiy bo‘lgan hayotning an‘anaviy asoslari va me‘yorlari simbiozi mavjud bo‘lib, to‘siqdan o‘tib bo‘lmaydi. Rivojlanishning ushbu bosqichidagi mamlakatlar – Hindiston, Tailand, Turkiya, Pokiston, Misr, arab neft ishlab chiqaruvchi monarxiyalar guruhi va boshqalar – prinsipial ravishda ma‘lum muvozanat, barqarorlik holatida; ularning iqtisodiyoti mamlakat va xalq mavjudligini ta‘minlashga qodir. Siyosiy barqarorlik ushbu modeldagi aksariyat mamlakatlar uchun juda muhimdir (Turkiya, Tailand).

Rivojlanishning uchinchi modeli afrikacha yo‘li bo‘lib, rivojlanish va inqiroz sharoitida bo‘lgani kabi, rivojlanish va barqarorlik jihatidan unchalik farq qilmaydigan mamlakatlarning rivojlanish modeli. Bunga Afrikaning aksariyat mamlakatlari, shuningdek, Osiyodagi eng qashshoq davlatlar, masalan, Afg‘oniston, Bangladesh va boshqalar

kiradi. Ushbu mamlakatlarning aksariyatida G'arb tuzilmalari iqtisodiyotda muhim mavqega ega bo'lishiga qaramay, bu yerda qoloq, ba'zan yarim ibtidoiy periferiya ko'proq ahamiyatga ega. Tabiiy boyliklarning yetishmasligi, rivojlanishning boshlang'ich darajasining pastligi, bu yerda ma'naviy, diniy va sivilizatsion poydevorning yo'qligi yoki kuchsizligi, hayot darajasi past bo'lgan, o'z-o'zini ta'minlashga qodir bo'lmagan, kompensatsiya qilinmagan mavjudlik holatini belgilaydi. Afrika modelidagi aksariyat mamlakatlarning rivojlanish inqirozi hali ham o'ta dolzarbdir.


7.2. Oila jamiyat tayanchi. Oilaning vazifalari. Oila o'zbek xalqining yuksak milliy va diniy qadriyati

Oila – jamiyat tayanchi hisoblangan muqaddas dargohdir. Jamiyatning mustahkamligi, davlatning barqarorligi, birinchi navbatda, oilaning sog'lomligiga, ushbu muqaddas maskandagi ahillikka, otionalarning farzandlari uchun yuksak mas'uliyatlarini to'la va chuqur his etishlariga bog'liqdir. Oilada millat davomiyligi, milliy qadriyatlarining boqiyliqi saqlanadi. Oilada avlodlar umr zanjirini mustahkamlovchi avlod dunyoga keladi, kamol topadi.³⁷ Shu sababli, oila – hayotiy qadriyatlar va tajriba saqlanib, uzatiladigan birinchi tarbiya maktabi hisoblanadi. Ilmiy nuqtayi nazardan oila va oilaviy qadriyatlar shaxsiy fazilatlarni shakllantirish uchun asosdir va insonning moyilligi va qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy sharti sifatida tasavvur qilish mumkin.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida inson hayotining barcha sohalarida jadal o'sish va o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Keskin ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va axloqiy o'zgarishlar jamiyat rivojlanishining yangi bosqichiga o'tgan degan fikrni tobora ko'proq tasdiqlamoqda. Bu, ayniqsa, oila va oilaviy munosabatlarning inqirozida aks etgan qiymatlar tizimidagi o'zgarishlarning namoyon bo'lishida yaqqol ko'rinadi. Oila ijtimoiy buyurtmaning birligi va ijtimoiy munosabatlar majmuasining o'ziga xos markazi sifatida tarbiyaning muhim vositasi sifatida paydo bo'ladi va kelajak avlodning ma'naviy, axloqiy asoslarini rivojlantirish sohasidir. Shaxsni

³⁷ Saifnazarov I. Saifnazarova F. Yoshlar va oila - vatan tayanchi. –T.: "Ta'lim nashriyoti" MChJ, 2018. 3-bet.

shakllantirishning murakkab va eng muhim jarayoni oilada ko‘plab yo‘nalishlarida yotadi, masalan: mehnat, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiya. Hayotiy qarashlar faqat oilada shakllanadi, lekin shaxsiyatning qirralari azaliy va ma’naviy qadriyatlarni izchil tanishtirish orqali rivojlanadi. Faqatgina oilada bola birinchi marta qadriyatlarni, me’yorlarni, fikrlash uslublarini, tilni o‘rganadi.



7.4-chizma. Jamiyatning ijtimoiy tizimi (nikoh va oila).

Bugungi kunda pedagogika fani bola shaxsini rivojlantirishda oilaviy ta’limning shubhasiz ustuvorligini ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy qadriyatlar va oilaning o‘ziga xos muhiti bu to‘laqonli tarbiya uchun muhimmi, bolaning mustaqil rivojlanishi va o‘zini o‘zi anglashi uchun asos bo‘ladimi-yo‘qligini aniqlaydi. Oilaviy sharoitda puxta o‘ylangan muhit kelajak avlodni har tomonlama tarbiyalash va rivojlantirish

uchun asosdir. Oila bolaning hissiy kayfiyatini, aqliy faoliyati va xulq-atvorini shakllantirish va bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun asos sifatida belgilanadi.

Oiladagi tarbiya eng muhim ijtimoiy omillardan biridir. Ko'pgina boshqa shaxsiy ta'lim muassasalaridan farqli o'laroq, oila butun hayot davomida shaxsning barcha jabhalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Oila – bu muloqot qobiliyatlariga ega bo'lgan birinchi ijtimoiy jamiyat. Shu sababli, oilada ishonch va o'zaro qiziqish muhitini yaratish ahamiyatlidir.

Oila va unda shakllangan muhit shaxsning ko'plab shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ma'lumki, shaxsiyatni rivojlantirishning asosiy omili irsiyat, tarbiya va atrof-muhit hisoblanadi. Ushbu omillar, u yoki bu tarzda, oilaga bevosita bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida bola tarbiyasi va shaxsini shakllantirishga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Oila muhitida nafaqat bolalarning, balki kattalarning ham shaxsiy fazilatlari shakllanadi. Bolani tarbiyalash jarayoni ota-onalarning shaxsiy fazilatlarini boyitadi, shu bilan birga ularning ijtimoiy tajribasini oshiradi.

Shu ma'noda oila - har birimiz uchun muqaddas maskan. Qadim zamonlardan beri o'zbek xalqi oilaviy rishtalarni xalqning boyligidan biri sifatida ardoqlagan va asrab kelgan, chunki sog'lom oila asosida kuchli davlat shakllanadi. Oilada insonning axloqiy tarbiyasi va madaniy rivojlanishining asoslari qo'yiladi, keyinchalik uning xulq-atvor normalarini shakllantiradi, ichki dunyosini boyitadi. Oila uning ijtimoiy va ijodiy faoliyatini juda rag'batlantiradi, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga hissa qo'shadi. Oila institutining barqarorligi mamlakatning muvaffaqiyatli va har tomonlama rivojlanishining garovidir. Har bir millatning oilaga doir urf-odatlar va ular bilan bog'liq huquqiy munosabatlari mavjud. O'zbek oilasining o'ziga xos xususiyatlari bor. Shulardan biri sharaf, qadr-qimmat uchun o'zlarini ayamagan buyuk ajdodlarimizning hayoti va ishlari tarixda muhrlanib qolgan. To'maris avvalo, sha'ni, oilasi va erkinligini himoya qilish uchun bosqinchilarga qarshi fidokorona kurash olib bordi. Alpomish sevimli Barchinoyini ozod qilish uchun uzoq Qalmoq dashtlariga bordi. Buyuk sarkarda Amir Temur oilaning sha'ni va qadr-qimmatini hamma narsadan ustun qo'ygan. O'zbek xalqi tomonidan yaratilgan tarbiya tizimi har doim oldingi avlodlar

toʻplagan ijtimoiy tajribani koʻplab tarixiy davrlarga olib oʻtish uchun kuchli vosita boʻlib xizmat qilgan. Oʻzbek xalq pedagogikasi nihoyatda boy folklor materiallariga ega: epik sheʼrlar, turli xil ertaklar, qoʻshiqlar, maqol va matallar, topishmoqlar. Ularning barchasi doimiy bilim va tarbiyaviy ahamiyatga ega, bu hozirgi paytda oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodining barcha janrlarida bola va uning tarbiyasi muhim oʻrin tutadi. Maqollar va soʻzlarda tugʻilgan bolaga boʻlgan quvonchli munosabat, unga boʻlgan muhabbat, uning kelajagi haqida qaygʻurish aniq ifoda etilgan: “Odob – kishining zebu-ziynati”, “Har bir ishning chamasi bor, har daryoning kemasi bor”, “Soʻz kishining – oʻzagi, odob kishining bezagi”. Bu maqollarda farzandning toʻgʻri tarbiyasi uchun javobgarlik taʼkidlangan. Mehnat taʼlim jarayonining asosiy shartidir. Yoshlar orasida mehnatsevarlikni shakllantirish insonda aqliy yetuklik, jismoniy salomatlik, axloqiy va estetik tamoyillarni shakllantirish bilan bogʻliq.

Oʻzbek oilasining asosiy tamoyillari – bu nikohning muqaddasligi, ota-onalarning farzand tarbiyasi uchun masʼuliyati va bolalarning ota-onalar oldidagi burchlari, oʻzaro hurmat va totuvlik, oilaning shaʼni va qadr-qimmatini himoya qilish. Anʼanalar Oʻzbekiston xalqi turmush tarzi va milliy madaniyatining ajralmas qismidir, ular qadriyatlar va qarashlar tizimida yuqori oʻrinni egallaydi. Eng kuchli oilalar mahalliy urf-odatlar va anʼanalarga asoslangan. Oʻzbekiston mustaqilligi yillarida jamiyatimizda tarixiy madaniy qadriyatlar va oʻziga xos milliy urf-odatlar, shu jumladan oila instituti bilan bogʻliq boʻlgan narsalar nafaqat saqlanib qoldi, balki yanada rivojlandi. Oʻzbekiston fuqarolari buni xalqning asl manbalariga qaytish, milliy oʻzlikni anglashning oʻsish jarayoni deb bilishadi. Bugun oʻzbek xalqining oilaviy qadriyatlari yana tiklandi. Oʻzbek oilalarida ota-onalarga nisbatan yuqori obroʻ-eʼtibor va hurmat saqlanib qolgan.

Statistik maʼlumotlarga koʻra, mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi oilalarning soni ikki barobar koʻpayib, 3,5 milliondan 7 millionga yetgan.³⁸ Yurtimizning har ikkinchi aholisi oilani yaratish uchun yangi turmush qurganlarning moddiy mustaqilligi va oʻzaro muhabbat zarurligiga amin. Biroq, turmush qurgandan soʻng, oʻgʻil bolalar bir-birlariga va kenja oʻgʻli odatda qoladigan ota-onalariga

³⁸ Saifnazarov I. Saifnazarova F. Yoshlar va oila – vatan tayanchi. –T.: “Taʼlim nashriyoti” MChJ, 2018. 22-bet.

doimiy ravishda yordam berish uchun otasining uyiga yaqinlashishga moyil.

Bugungi kunda har bir oila mustahkam oʻrnatilgan oilaviy aloqalarni uning mulki deb biladi va shuning uchun bolalarda oilaviy tuygʻularni tarbiyalashga katta eʼtibor qaratadi. Fuqarolarimizning aksariyati oila totuvlik, tinchlik va osoyishtalik, oʻzaro tushunish va oʻzaro hurmat, muhabbat va qarindoshlik rishtalarini mustahkamlashga harakat qilishadi, shuningdek, turmushda moddiy farovonlikni muvaffaqiyatli va baxtli deb oila omili deb biladi. Agar oilada farzandlar koʻp boʻlsa, oila yanada baxtli boʻladi. Bola hayotining asosiy qismi oilada kechadi. Ona, ota, aka-uka, opa-singillar va boshqa qarindoshlar bilan muloqot qilish jarayonida bolaning shaxsiy tuzilishi hayotning birinchi kunlaridanoq shakllana boshlaydi. U ota-onalarning u bilan, bir-birlari bilan, boshqalar bilan qanday munosabatda boʻlishini koʻradi va shu asosda bola oʻz dunyosini, oʻz munosabatlar tizimini rivojlantiradi. Oilaning axloqiy iqlimi va uning farovon ahvoli ham turmush oʻrtoqlar oʻrtasidagi uygʻun munosabatlar, ularning tengligi va oʻzaro tushunish kabi tarkibiy qismlardan iborat. Va bu jarayonda biz oila farovonligini taʼminlashda, oilaning iliqlik, mehr-oqibat, farovonlik va farovonlik ramzi boʻlgan ayollarning oila farovonligini taʼminlashdagi asosiy roli va xizmatlarini unutmasligimiz kerak. Hozirgacha “alla” beshik kuyini ijro etish anʼanasi saqlanib kelmoqda. Beshikda yotgan bola uchun hali ham tushunarsiz boʻlsa-da, muloyim soʻzlar, muloyim ohang unga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. U yoshi ulgʻaygan sayin, qoʻshiqning maʼnosini, onaning buyruqlari va istaklarini tushunishga kirishadi. Oʻzaro munosabatlar, atrof-muhit, oiladagi atmosfera – kelajakda toʻlaqonli muvaffaqiyatli odam uchun boʻlgani kabi, bola uchun ham muhimdir. Oʻzbek adabiyotining yetuk namoyandasi Gʻofur Gʻulom, farzandning qanday inson boʻlib voyaga yetishi, uning jamiyatda munosib oʻrin egallashi ota-onaga bogʻliq deb hisoblagan. Uning soʻzlariga koʻra, bolalarni oʻrganishni qatʼiy nazorat qilish, ularni mehnatga joriy etish, oilaviy tarbiyada xalq pedagogikasining koʻp asrlik anʼanalariga tayanish zarur. Ota-onalarning xulq-atvori, ularning odamlarga boʻlgan munosabati, bolalarga nisbatan talabchanligi, qadr-qimmatini hurmat qilish bola shakllanishini taʼminlovchi muhim omillardir. Buyuk oʻzbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy oʻz asarlarida oʻzbek oilasi, uning

mehmondo‘stligi, oilaviy odob-axloq, oilaviy munosabatlar, kattalarga hurmat, ayol – Ona haqida yozgan.

Shu boisdan ushbu muhim ijtimoiy institutni, ayniqsa yosh oilalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlash O‘zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Qarindoshligidan qat’i nazar, o‘zaro yaqin aloqada yashash an’anasi ham saqlanib qolgan. Ushbu an’ana o‘zbeklarning milliy madaniyati, ularning xarakteri va psixologiyasining xususiyatlaridan biriga aylandi.

7.3. Davlatning oila tinchligi va barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni. Oila-ta’lim-mahalla tizimi

O‘zbekiston Respublikasida aholining 40 foizini 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar, 64 foizini esa 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Shu munosabat bilan inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bolalar va yoshlarning ma’naviy, jismoniy va aqliy rivojlanishi uchun eng yaxshi va qulay shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek ko‘p bolali oilalar, yetim bolalar va oilaviy qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi. O‘zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarga, shu jumladan sog‘liqni saqlash, ta’lim va tarbiya, sport, onalik va bolalikni muhofaza qilish, odamlarning turmush darajasi, sifati va madaniyatini oshirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, ayniqsa bolalar tarbiyasi uchun katta e’tibor qaratilmoqda. Respublikada izchil tizimli va innovatsion asosda davlat miqyosida “Sog‘lom ona – sog‘lom bola” shiori ostida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu muhim yo‘nalishlarda boshlagan ishlarni davom ettirish va yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida 2021-yilga mamlakatimizda **“Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”** deb nom berildi.

Reproduktiv salomatlik, onalik va bolalik sohasidagi dasturning asosiy yo‘nalishlari:

1. Aholining reproduktiv salomatligini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish.

2. Ona va bola skriningi.

3. Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, mutaxassislarning malakasini oshirish va aholining mahsuldor sog'liqni saqlash sohasidagi bilim darajasi, oilada tibbiy madaniyatni oshirish.

4. Ayollarning reproduktiv salomatligini yaxshilash, bolalar tug'ilishi va tarbiyalash bo'yicha xalqaro hamkorlikni kengaytirish.

5. Bolalar muassasalari va akusherlik muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.

Shu maqsadda 2021-yildan boshlab 15 yoshgacha bo'lgan bolalar va homilador ayollarga 7 turdagi vitaminlar, bolalar uchun parazitlar kasalliklarga qarshi dori vositalari bepul tarqatiladi. Bu jarayon bilan 2021-yilda – 11 million nafar, 2022-yilda – 17 million nafar aholi qamrab olinadi va bu ishlarga 100 milliard so'm mablag' yo'naltiriladi.³⁹

Ijtimoiy himoya tizimining muhim tarkibiy qismi – barkamol shaxsni tarbiyalash va tarbiyalash sohasida bolalar huquqlarini himoya qilish. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bolalarga bepul umumiy ta'lim olish imkoniyatini va ularning bepulligini kafolatlaydi. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning asosiy g'oyalari va bolalarning ta'lim olish huquqiga oid konstitutsiyaviy qoidalar O'zbekiston Respublikasining qonunlarida yanada takomillashtirildi. "Ta'lim to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida", "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida", "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida", "Oila kodeksi" va "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Prezident qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar amalda qo'llanib kelinmoqda.

Respublikada ijtimoiy siyosatning eng muhim elementi mahalla fuqarolarining o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, an'anaviy ravishda hayotiy muammolarni hal qilish uchun oilalarni birlashtiradi. Tarixiy va zamonaviy tushunchada u subyektlari yashash joyi, urf-odatlar, aloqa shakllari, huquqiy, iqtisodiy va oilaviy munosabatlarning birligi bilan o'zaro bog'liq bo'lgan jamoat subyekti vazifasini bajaradi. Aholi osoyishtaligini ta'minlash, oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish, nuroniylar ijtimoiy

³⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

faolligini oshirish, mahallani jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari roli va mavqeini yanada mustahkamlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda mahalla instituti fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish tizimining asosi bo‘lib, jamiyatning dolzarb masalalarini hal qilishda xalqning ishtirokini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Tarixiy va zamonaviy ma‘noda mahallaga har doim yagona yashash joyi, umumiy ijtimoiy va boshqa manfaatlar bilan bog‘langan odamlarning aniq ifoda etilgan ijtimoiy, madaniy va ma‘naviy birligi sifatida qaraladi. Aynan shu yerda ko‘pincha iqtisodiyot, ijtimoiy va madaniy hayotning dolzarb masalalari bo‘yicha jamoaviy fikr shakllanadi va jamiyatdagi odamlarning o‘zini tutish qoidalari belgilanadi. “Mahalla hamma uchun ota va onadir” deydi dono xalqimiz. Mahalla fuqarolarning yashash joyidagi uyushmasi bo‘lib, dunyoda o‘xshashi yo‘q, jamiyatdagi umumiy muammolarni barchaga birdek hal qilishga yordam beradigan mo‘tabar maskan hisoblanadi.

Qadim zamonlardan buyon mahallada, bir tomondan, inson jamoasining qoidalari va me‘yorlari aniqlandi, tasdiqlandi va tartibga solindi, mafkuraviy, dunyoqarash qarashlari tizimlari yaratildi, jamoatchilik fikri shakllandi, boshqa tomondan, davlat va oila o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqlik, diniy imtiyozlar, nazorat davlat hokimiyati organlarining qarorlarini bajarish, madaniyat va ta‘lim tashkilotlari bilan aloqalar, qonuniylik va boshqalar. Shuni ta‘kidlash kerakki, oilaviy farovonlik barkamol shaxsni shakllantirish va tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanida aniq oilaviy muammolarni hal qilishning ko‘plab usullari mavjud. Ular “tarbiyasi og‘ir” bolalar tushunchasi tez-tez uchraydigan, kam ta‘minlangan oilalarning mavjud tasniflarida aks ettirilgan tushunchadir. Mutaxassislar fikriga ko‘ra, “bunday oila duch keladigan muammolar yondashuvlarning turli jihatlari bilan bog‘liq: pedagogik, psixologik, ijtimoiy, huquqiy, moddiy, tibbiy va boshqalar. Bunday bolalardagi noto‘g‘ri xatti-harakatlarning oldini olish yoki o‘zgartirish uchun intizomni tarbiyalash muhimdir. Shu munosabat bilan “oilam- maktab- mahalla” muassasalarining ilmiy va

amaliy integratsiyasini ta'minlash zarur. Voyaga yetmagan "tarbiyasi og'ir" bolalarning ota-onalari ko'pincha buni tushunmaydilar yoki ushbu muassasalarning birgalikdagi sa'y-harakatlarini e'tiborsiz qoldiradilar. Ular ko'pincha bolalarining harakatlariga to'g'ri e'tibor berishmaydi. Qiyin o'spirinlar bilan tarbiyaviy-profilaktika ishlarini amalga oshirish uchun psixologik-pedagogik maslahat va ular bilan suhbatlar amaliyotiga asoslangan tavsiyalardan foydalanish zarur bo'ladi. Buning uchun avvalo har bir bola bilan ishonch munosabatlarini o'rnatish zarur. Rejalashtirilgan suhbatlar unga ta'limiy yordam ko'rsatish maqsadida o'tkazilishi kerak va undan olingan javoblar hech kimga yetkazilmasligi zarur. Shu bilan birga, xatti-harakatlardagi og'ishlar, sodir etilgan salbiy harakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risida so'rash qabul qilinishi mumkin emas. Bunda uning tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlariga ta'sir qiladigan shaxsiy rejaları va muammolariga e'tibor qaratish lozim. Shu munosabat bilan o'spirinlar bilan ishlashning dolzarb muammolaridan biri ularda yangi qadriyatlarni shakllantirishdir, bu yerda o'z-o'zini tarbiyalash, uning istiqboli ularning muvaffaqiyatli o'zini anglashi, shaxsini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur va muhim shartdir. Huquqiy bilim va madaniyatni shakllantirish, qabul qilinayotgan yangi qonunlar va amaldagi qonunchilikka o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishining mohiyati to'g'risida doimiy ravishda tegishli tushuntirishlarni olib borish bo'yicha aniq choralarni ko'rish zarur. "Oila-maktab-mahalla" integratsiyasini yanada takomillashtirishda, shaxsning qonunga bo'ysunuvchi xatti-harakatlarini ta'minlash uchun tegishli choralarni ko'rish kerak bo'ladi. Voyaga yetmaganlarni tarbiyalashda "oila-ta'lim-mahalla" institutini birlashtirishning muhim yo'nalishi quyidagilardan iborat:

- yoshlarning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga ko'maklashish;
- yoshlar uchun huquq va imkoniyatlarning tengligini ta'minlash;
- yoshlarda vatanparvarlik, fuqarolik ruhi, bag'rikenglik va tinchlik hissini tarbiyalash;
- yoshlarni tarixiy va milliy urf-odatlar, O'zbekiston xalqining ma'naviy qadriyatlari va jahon madaniyati yutuqlari bilan tanishtirish;

– yoshlarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish, voyaga etmaganlar o‘rtasida huquqbuzarlikni kamaytirish;

– yoshlarning sog‘lom rivojlanishini, ratsional va xavfsiz ovqatlanishini ta‘minlash;

– kasalliklarning oldini olish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, ularga bepul malakali tibbiy yordam ko‘rsatish va boshqalar.

Ma‘lumki, oilaning bola shaxsiyatiga ijobiy ta‘sir shundan iboratki, unga onasi, otasi, akasi, singlisi, buvisi, bobosidek yaxshi munosabatda bo‘lmaydi, chunki eng yaqin odamlardan boshqa hech kim u haqida unchalik g‘amxo‘rlik qilmaydi. Shu bilan birga, agar oilaviy iqlim noqulay bo‘lsa, demak, bu holat bolaga salbiy ta‘sir qiladi. Ota-onalarning farzandlarga bo‘lgan munosabatidagi ko‘pgina xatolar ularning ota-ona rolini yetarli darajada tushunmasligida ko‘zga tashlanadi. Jiddiy va aslida oilaviy psixokreksiya vazifasi ota-onalarga tashxis qo‘yish, ularning muvaffaqiyatsizligi uchun baho berish emas, balki ularga “yaxshi ota-ona” bo‘lish zarurligini tushunishda yordam berishdir. Bu ota-onalarga quyidagilarni o‘rgatishni anglatadi:

– bolani tinglash va uning his-tuyg‘ulari va ehtiyojlarini tushunish qobiliyati;

– bola bilan yuzaga keladigan nizolarni tahdid va jazosiz hal qilish, uning tushunchasiga binoan ishonish va ziddiyat tufayli yuzaga kelgan his-tuyg‘ularini bo‘lishish, ularni tushuntirish istagi;

– bolaning muvaffaqiyatini saqlab qolish;

– nomuvofiq talablarni, boladan noroziligini bildirishni istisno qilish.

Xulosa sifatida ta‘kidlash lozimki, bolaning barcha ehtiyojlari va qiziqishlari uning hayotida qanchalik muhim bo‘lmasin, oila orqali yoki “oila-maktab” munosabatlarida qondirilishi mumkin emas. Muloqotga ehtiyoj, yangi ma‘lumot olish, faol ijodiy faoliyat, mehnat, innovatsion sohada o‘z qobiliyatlarini, ko‘nikmalarini va malakalarini oshirish va boshqalar, bularning barchasi bola nihoyatda keng ijtimoiy tuzilmalarga: maktabga, sportga, bo‘sh vaqt va san‘at sohasiga, madaniyatga, ijtimoiy foydali mehnatga va boshqa ko‘pgina narsalarga kiritilganda amalga oshiriladi. Voyaga yetmaganlarning butun majmuasini, hayotining barcha sohalarini ilmiy-uslubiy tashkil etish “oila-maktab-mahalla” institutining integral faoliyatiga bog‘liq.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Jamiyat falsafasining tuzilishi va vazifalari qanday?
2. Jamiyat tiplari deganda nimani tushunasiz?
3. Jamiyatni tiplashtirishda qanday mezonlarga asoslaniladi?
4. Formatsiyali tiplar va silvilizatsiyali tiplar borasidagi metodologik tafovutlarni ko'rsating.
5. Ijtimoiy institutlar deganda nima tushuniladi va ular jamiyatda qanday funksiyalarni bajaradi?
6. Shaxsning jamiyat tarixi rivojlanishidagi roli qanday?
7. Nega oilani jamiyatning asosi deymiz?
8. Oilaviy vazifalar haqida nimalarni bilasiz?
9. Nega oila o'zbek xalqining muhim milliy va diniy qadriyati hisoblanadi?
10. Oilada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda davlatning rolini ko'rsating.

Testlar:

1. Jamiyat tushunchasining mohiyati va mazmuni nimadan iborat?

A) Jamiyat (arab. umumiy) – tabiatning bir qismi, ijtimoiy borliqning alohida shaklini ifodalaydigan falsafiy tushuncha, odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qiladigan juda ko'plab munosabatlar yig'indisi.

B) Jamiyat (fran. umumiy) – kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyati majmui. Jamiyatdagi hamma narsa moddiy va ma'naviy boyliklar, insonning hayoti uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish va boshqalar kiradi.

C) Jamiyat – odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qiladigan ko'plab munosabatlar majmui.

D) A va C javoblar to'g'ri.

2. Jamiyatning falsafiy tuzilishi qanday elementlardan tashkil topgan?

A) Jamiyat tarkibi turli sinflar, sosial qatlamlar va guruhlar hamda moddiy va ma'naviy boyliklardan tashkil topgan.

B) Jamiyat moddiy va ma'naviy munosabatlar birligidan iborat.

C) Jamiyatning tarkibi oila, davlat, ta'lim-tarbiya, mahalla, din va diniy tashkilotlar, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalaridan iborat.

D) Barcha javoblar to'g'ri.

3. Jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi sivilizatsion nazariyalarni toping?

A) AQSH faylasufi O. Toffler tomonidan ilgari surilgan agrar jamiyat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyat

B) K.Marks va F.Engels tomonidan ilgari surilgan ibtidoiy, quldorlik, feodal, kapitalistik, sotsialistik jamiyat.

C) Jamiyat taraqqiyoti to'g'risida formasion va sivilizatsion jamiyatlar mavjud.

D) To'g'ri javob yo'q.

4. "Materializmdan inson ruhining tabiatini tushuntiruvchi tamoyil sifatida foydalanish hech qachon mumkin emas", ushbu so'zlarning muallifi kim?

A) I.Kant

B) K.Marks

C) F.V.Gegel

D) Feyerbax

5. Qaysi olim jamiyatni gorizontalar yo'nalishlar va fluktatsiya tarzida murakkab xarakterda bo'lgan ijtimoiy-madaniy tizimlarning rang-barangligini tan olish nuqtayi nazaridan tavsiflagan?

A) P.Sorokin

B) O.Shpengler

C) N.Danilevskiy

D) A.Toynbi

Esse mavzulari:

1. Jamiyat falsafasi.

2. Oila – jamiyat tayanchi.

3. Mening oilam – mening baxtim.

4. Oila-ta'lim-mahalla tizimi.

5. Jamiyat taraqqiyotiga doir yondashuvlar.

6. Oila o'zbek xalqining yuksak milliy va diniy qadriyati.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Falsafa. Sh.Madayeva va boshqalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: Mumtoz soz, 2019.
2. Nazarov Q. Falsafa asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: Tafakkur, 2018. – 280 b.
3. Shermuxamedova N. Falsafa. Darslik. –T.: “Idris Abdurauf Nashr”, 2021. 664 b.
4. Ergashev Sh. Qadimgi silvilizatsiyalar. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. 3-bet.
5. Saifnazarov I., Saifnazarova F. Yoshlar va oila – Vatan tayanchi. –T.: “Ta’lim nashriyoti”. 2018.
6. Saifnazarova F. O‘zbek oilasi: ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlar –T.: “Yurist-media”. 2007.

8-MAVZU. DIN FALSAFASI. O‘ZBEKISTONDA DAVLATNING DIN VA DINIY TASHKILOTLAR BILAN MUNOSABATI

Reja:

- 8.1. Din falsafasining obykti va predmeti.
- 8.2. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari. O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan diniy konfessiyalar va tashkilotlar.
- 8.3. Dinlarning tarixiy ildizlari va shakllari. Zardushtiylik va yahudiylik dinlari.
- 8.4. O‘rta Osiyoga Buddaviylik va Xristianlik dinlarining kirib kelishi.
- 8.5. Vijdon erkinligining huquqiy asoslari.

8.1. Din falsafasining obykti va predmeti

“**Din**” arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “ishonch”, “itogat”, “jazo” degan ma‘nolarni anglatadi.


Din falsafasi – dinning vujudga kelishi, tarixiy takomili va namoyon bo‘lish shakllarining falsafiy mazmun-mohiyati diniy g‘oyalar va tamoyillarning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni va ro‘lini har tomonlama va chuqur tahlil qilish asosida shakllangan falsafiy bilimlar; falsafaning eng qadimgi shakllaridan biri, din hodisasining falsafiy tahlili, xususan, dinning bilish nazariyasi, mantig‘i.⁴⁰ Yoxud boshqacha aytganda, dinning mazmun-mohiyati, ijtimoiy hayotdagi o‘rnini tushuntirishga yo‘naltirilgan falsafiy bilim sohasidir. Din hamisha falsafiy tahlil obykti bo‘lib kelgan. Din haqidagi falsafiy qarashlar dastlab muayyan ta‘limotlarda aks ettirilgan XVIII–XIX asrlarga kelib, din falsafasi alohida fan sifatida shakllandi. Bunda B.Spinoza, F. Shelling, G. Hegel, L. Feyerbax kabi faylasuflar hamda F.Shleyermaxer, T.Til, S.Kerkegor kabi teologlarning xizmati katta bo‘lgan. Hozirgi davr falsafiy ta‘limotlarida ham din falsafasi o‘ziga xos tarzda talqin va tahlil etilmoqda. Bunday yondashuvlarda zamonaviy Sharq falsafiy ta‘limotlari, G‘arb maktablari (naturalizm

⁴⁰ Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. –1-kitob.–T.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2012.–323-bet.

materializm, ekzistensializm, pragmatizm, pozitivizm, analitik falsafa kabi) ta'siri katta. Hozirgi vaqtda din falsafasi o'z muammolari, tadqiqot predmeti va obyektiga ega bo'lgan, nisbatan mustaqil falsafiy bilim sohasiga aylandi.


Dinning obyekt. Falsafada din – ijtimoiy-tarixiy hodisa, kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo'lgan ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida talqin etiladi. Dinning mohiyati turlicha izohlansada, uning asosida ishonch, e'tiqod tuyg'usi yotadi.

Din falsafasining predmeti. Tabiat, jamiyat, inson va uning ongini, yashashdan maqsadi hamda taqdirni bevosita qurshab olgan, atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, insonni yaratgan, ayni zamonda unga birdan-bir “to'g'ri”, “haqiqat” va “odil” hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash, ta'limotdir.



8.1.1-chizma.

Din va diniy qarashlarni o'qitishdan maqsad – talabalarni dinlarning turlari, tarixi, rivojlanishi, ta'limoti, asosiy manbalari, o'tmish va hozirgi kunda xalqlar hayotida tutgan o'rini o'rgatish orqali o'z xalqi va Vatani tarixini yaxshi biladigan, boshqa millat va elatlar oldida buyuk allomalarning avlodlari bo'lgan yuksak madaniyat va ma'naviyatli xalq farzandi ekanligini namoyon eta oladigan insonlar qilib tarbiyalashdan iborat.



Tabiat, jamiyat, inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri insoniyatni bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo‘lgan, uni yaratgan, ayni zamonda insonlarga to‘g‘ri, haqiqiy, odil hayot yo‘lini ko‘rsatadigan va o‘rgatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash, ta’limotdir.

8.1.2-chizma.

Din falsafasi talabalarda din, uning turli shakllari, ta’limotlari, yo‘nalishlari, mazhablari haqida to‘g‘ri ilmiy xulosalar chiqara oladigan, diniy va dunyoviylik munosabatlarini asosli tahlil qila oladigan dunyoqarashni shakllantiradi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun, Jinoyat, Fuqarolik, Oila kodekslaridagi din va vijdon erkinligi haqidagi ko‘rsatmalar, qoidalar dasturulamal bo‘lib xizmat qilinishi lozim. Din va qonun o‘zaro munosabatlarini yaxshi bilish respublikada demokratik, huquqiy davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Din insoniyat ma’naviy hayotining tarkibiy qismidir. O‘zbekiston Respublikasida ziyolilar oldiga ma’naviy barkamol insonni shakllantirish vazifasi qo‘yilgan bir paytda din masalasini chetlab o‘tish mumkin emas. Mazkur masalani hal etishda ilgari dinga agressiv hujum etish uslubining asossizligi hammaga ochiq-oydin. Lekin keyingi paytda paydo bo‘lgan diniy bo‘lmagan masalalarni diniy deb atash, har qanday, hatto bir-biriga zid bo‘lgan, fikrlarni tahlil qilmasdan turib maqtash uslubi ham o‘zini oqlamaydi. Demak, ushbu masalaga prinsipial, professional, ilmiy yondashuv darkor⁴¹.

Din falsafasining asosiy maqsadi


1. Din nima va u qanday paydo bo‘lgan, nega u yashaydi, degan savollarga javob berish.

⁴¹ I. Saifnazarov, T. Sultonov, J. Ilhomjonov, R. Xalimmetova. “Dilshunoslik”, O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISODIYOT”, 2019. – 9-b.

2. Dinning ijtimoiy-iqtisodiy, gnoseologik va psixologik ildizlari haqida bilim berish.
3. Dinning jamiyatda bajaradigan ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy vazifalari haqida tushuncha hosil qilish.
4. Ibtidoiy, milliy va jahon dinlari tarixi haqida ma'lumot berish.
5. Milliy va jahon dinlari asoslari haqida ma'lumotlar berish.
6. Dinning mohiyati va uning kishilik jamiyati taraqqiyoti turli bosqichlarida tutgan mavqei haqida tushuncha berish.
7. Jamiyatni ma'naviy kamol toptirishda diniy qadriyatlarning ahamiyatini yoritish.
8. Islomda Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi manba hisoblangan Hadis ilmini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan, butun islom olami tan olgan ulug' zotlarni keng talqin qilish.
9. Ulug' hamyurtlarimizning tasavvuf takomilida buyuk xizmatlarini ko'rsatish.
10. Islom dinining Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatiga ta'siri haqida ma'lumot berish.
11. Mustaqillik yillarida milliy-diniy qadriyatlarning tiklanayotganligini yoritish.
12. Dunyoviy davlat va dinning o'zaro munosabatlari, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqida tushunchalar berish va hokazo.

Dinning jamiyatdagi vazifalari

1. Dinning jamiyatga ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy ta'siri haqida bilimlar berish.
2. Ibtidoiy diniy tasavvurlar, milliy va jahon dinlari ta'limotlari haqida mantiqiy bilim berish.
3. Dinning mohiyati va uning kishilik jamiyati rivojidagi turli tarixiy bosqichlarda tutgan mavqei haqida tushuncha hosil qilish.
4. Jamiyat ma'naviy takomilida diniy qadriyatlarning ahamiyatini ko'rsatish.
5. Dunyoviy davlat bilan dinning o'zaro munosabatlarini yoritish.
6. Dunyoviy aqidaparastlik, ekstremizm va fanatizm kabi salbiy oqimlarning salbiy mohiyatini ko'rsatish hamda ularga qarshi yoshlarda g'oyaviy immunitetni shakllantirish.
7. O'zbekistonda dinga nisbatan tub o'zgarishlar, diniy qadriyatlar tiklanganliklari haqida tasavvur hosil qil.




8.1.3-chizma.

Dinshunoslik ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanib, rivojlangan va hozir ham bu jarayon davom etmoqda.

1. Dinshunoslikning falsafa bilan bog‘liqligi. Falsafada din ijtimoiy-tarixiy hodisa, kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo‘lgan ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida talqin etiladi. Din islom ta’limotiga ko‘ra, tabiat va insonni yaratgan, ayni vaqtda insonga to‘g‘ri, haqiqiy hayot yo‘lini ko‘rsatadigan va o‘rgatadigan ilohiy qudratga ishonchni ifoda etadigan ta’limot.

Dinning mohiyati turlicha izohlansada, uning asosida ishonch, e’tiqod tuyg‘usi yotadi. Falsafa tarixida din turli shakllarda namoyon bo‘lgan. Dinning dastlabki ko‘rinishlari fetishizm, totemizm, animizm, sehrgarlik va boshqalar falsafada o‘rganiladi. Din falsafasida – dinning mazmun-mohiyati, ijtimoiy hayotdagi o‘rnini tushuntirishga yo‘nal-


tirilgan falsafiy bilim sohasidir. Din haqidagi falsafiy qarashlar dastlab muayyan ta'limotlarda aks ettirilgan bo'lsa, XVIII-XIX asrlarga kelib, din falsafasi alohida fan sifatida shakllandi.



8.1.4-chizma.

2. Ma'naviyat asoslari fanida ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash g'oyalari, vatanparvarlik, insonparvarlik va o'z millatiga sadoqat mezonlari, imon, diyonat, adolat, mehr-shafqat, e'tiqod, poklik, halollik va vafodorlik kabi fazilatlar, milliy o'zlikni anglash,

uni mustahkamlash va millatlararo totuvlikni ta'minlash kabilar "Ma'naviyat asoslari" fanining asosiy mavzulari bo'lsa, ular dinshunoslik fanining kategoriyalari hamdir.



8.1.5-chizma.

Ma'naviyat va din – ma'naviyat mezonlaridan biri bo'lgan, insonning iymon va tafakkurini kamol toptirish, mustahkam e'tiqod va dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladigan diniy qadriyatlar kishilarning yuksak ma'naviy ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlari bilan uzviy bog'liq tarzda rivojlanadi, Din ma'naviyat takomilida, milliy madaniyat va turmush tarzi, urf-odat va qadriyatlar, an'analarning bevosita saqlanishi hamda asrlar mobaynida xalq qalbiga chuqur o'rnashishida ma'naviy omil bo'lib kelgan. Insoniylik, mehr-oqibat, yaxshilik, qanoat, saxovat, mehr-shafqat kabi fazilatlar ko'plab boshqa omillar qatori diniy qadriyatlar ta'sirida ham rivojlanadi. Islom dinining asoslarini o'rganish, uning ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarini rivojlantirish, mo'tadil e'tiqod negizlarini ishlab chiqishda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturudiy, Bahouddin NAQSHband, Xoja Ahmad Yassaviy, Burhoniddin Marg'ioniy, Najmiddin Kubro kabi ulug' ajdodlarimizning xizmati singgan. Ularning merosi bebaho ma'naviy boyligimizdir. Shu boisdan

ham milliy ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlardan biri muqaddas Islom bilan bog'liqdir.

3. Psixologiya fani bilan uzviy bog'liq. Avvalo diniy ong diniy psixologiya bilan qo'shib ketgan. Diniy psixologiya – kishilarning diniy his-tuyg'ulari, odatlari, an'analari va kayfiyatlari majmui bo'lib, kishi ruhiyati barqaror voqelik emas, chunki ijtimoiy jarayonlar ta'sirida o'zgarib turishi mumkin. Diniy psixologiya taraqqiy etgan sayin diniy tasavvurlar ham takomillashib boradi. Diniy tasavvurlardan diniy g'oyalar shakllangan. Oqibatda qadimgi diniy e'tiqod shakllari: sehrgarlik, animizm, fetishizm, shomonlik va boshqalar kelib chiqqan.


4. Milliy g'oya fani bilan bog'liqlik. Diniy ideologiya (g'oya) esa diniy tashkilotlar orqali malakali diniy ulamolar targ'ib etadigan turli diniy g'oyalarning muayyan tizimidir. Diniy ideologiya muayyan tushuncha va qarashlarning tartibli tizimidir. Diniy ideologiya insoniyat taraqqiyotining nisbatan yuqori bosqichlarida yuzaga keladi. Uni ruhoniylar, koinlar, dinni o'rganuvchi faylasuflar ishlab chiqdilar va targ'ib qiladilar. Diniy ideologiya ayrim manbalarda teologiya deb yuritilgan. Teologiyaning asosini muqaddas kitoblar (Tavrot, Zabur, Injil, Qur'oni karim kabilar) tashkil qiladi. "Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasini ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan".⁴²

5. Sotsiologiya fani bilan bog'liqlik. Ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri tizimini, xalqning kayfiyati, davlat va diniy tashkilotlar, shaxs va dinning ijtimoiy holatlarini o'rganish sotsiologik tadqiqotlar o'tkazib bilib olish mumkin.

6. Huquqshunoslik fani siyosiy qarorlarni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini o'rgansa dinshunoslikda Qur'on, Hadis ilmining ijtimoiy mohiyatini o'rganadi va hokazo.

Umuman, dinshunoslik fani boshqa siyosiy fanlar, tabiiy va aniq fanlar, gumanitar fanlar bilan ham chambarchas bog'lanib ketgan.

⁴² Mirziyoyev Sh.M. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir.// "Xalq so'zi", 2021 20 yanvar.



8.1.6-chizma.

Dinning asosiy manbalari:

“**Avesto**” – zardushtiylarning muqaddas kitobi (miloddan avvalgi XII–XIII asrlar orasida, 3-minginchi yillar oxiri, 2-minginchi yillar boshlarida). Zaratushtra – o‘zini payg‘ambar deb e‘lon qilgan. 124 mingdan ko‘proq payg‘ambar o‘tgan. YUNESKO tomonidan 2001 yilda “Avesto” ning 2700-yilligi Xiva shahrida nishonlandi. Eramizdan avvalgi VI asrda Xorazmda yashagan, chorvador oilasi (Pitama urug‘idan, Beruniy fikricha (XI asr): bu muqaddas kitob 3 qismdan iborat:


- 1) Yashta (sinfy jamiyatgacha bo‘lgan ko‘pxudolik davri).
- 2) Gita – yagona yaxshilik xudosi Axura Mazda haqida.
- 3) Ko‘p xudolik Yashta va yagona xudolik Gita o‘rtasidagi kurash.

1. Tavrot (qadimgi ibriy tilida “Tora” – Qonun) – iudaizm dini (yahudiylik)ning Xudovand Muso payg‘ambarga nozil qilingan ilohiy muqaddas kitobi. U Muso payg‘ambarning ilohiy qonunlarini o‘z ichiga olgan 5 kitob: 1) Muqaddas Kitob (Bibliya)ning “Ibtido”, 2)

“Chiqish”, 3) “Levit”, 4) “Cho‘lda” va 5) “Amrlar” degan kitoblardan iborat. Bibliyani ham “Tavrot” deb ishlatish hollari bor. Pasxa – yahudiylarning Misr asoratidan qutlgan kunini nishonlaydigan bayrami hisoblanadi.

2. Injil – nasroniy (Xristianlik) dinining asosiy bosh kitobi (I – asr boshlarida Alloh taolo tomonidan hazrat Iso alayhissalomga 30 yoshida nozil etilgan).

3. Qur‘oni karim – Islom dinining (VII asr) asosiy ilohiy muqaddas kitobi. Islom ta‘limotiga ko‘ra Qur‘on Allohning kalomi bo‘lib, uning har bir kalomi Alloh tarafidan so‘zma-so‘z (23 yil davomida) nozil etilgan va hazrati Jabroil alayhissalom orqali payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomga yuborilgan.



8.1.7-Chizma

Xudo olamni, butun borliqni, barcha jonli-jonsiz mavjudotlarning yaratuvchisi – Parvardigori olamning umumiy nomi bo‘lib turli xalqlarda quyidagi atamalar bilan nomlanadi:

- 1) Forslarda – “Xudo”.
- 2) Turkiylarda – “Tangri”.
- 3) Arablarda – “Alloh”.
- 4) Islomdan avvalgi Eronda – “Yazdon”, “Ezid”, “Xurmuzd”, “Xudoygon”.
- 5) Yahudiylarda – “Yahve”.
- 6) Slavyanlarda – “Bog”, “Gospod”.
- 7) Hindlarda – “Dayuto”.
- 8) Inglizlarda – “Govd” tarzida zikr etilgan.

Shuningdek, Mashriqzamin manbalarida asosan: “Rabbim”, “Rabb”, “Mavlo”, “Haq”, “Haq taolo”, “Haqsubhonahu va taolo”, “Alloh taboraka va taolo”, “Xudo taolo”, “Xudovand”, “Xudovando”, “Xudo buzurg”, “Parvardigor”, “Tangri taolo”, “Rabbil olamiyn”, “Tangri subhonahu va taolo”, “Alloh taolo”, “Tangri azza va jalla”, “Mavlo jalla jaloluhu”, “Zuljalol” kabi sifatlar bilan ham tavsiflanadi.

4. Zabur (sanolar, ya’ni psalomlar ma’nosida) – hazrat Dovud (Isroilning ulug‘ podshosi) alayhissalomga Alloh taolo tomonidan nozil etilgan, mil. avvalgi 1050–900-yillar orasida kitobat qilingan.

Dinlar tasnifi. Dinlar unga e’tiqod qiluvchilarning soni, miqyosi, o‘zining ma’lum millatga yoki xalqqa xosligi yoxud millat tanlamasligiga ko‘ra turli guruhlarga bo‘linadi. Bugungi kunda nazariy va son jihatdan qancha yetuk bo‘lishidan qat’i nazar ularni mutlaqlashtirib bo‘lmaydi. Chunki, har qanday tasnif ma’lum bir jihatga e’tibor berib, uning boshqa qirralarini qamrab ololmaydi.

Hozirgi kunda din tipologiyasida dinlarning quyidagi tasniflari mavjud

Tarixiy-geografik jihatga ko‘ra
1. Etnik jihatga ko‘ra
2. E’tiqod qiluvchilarning soniga ko‘ra
Hozirgi davrda mavjudligi jihatiga ko‘ra (tirik va o‘lik diniy tizimlar) va h.k.

8.1.8–chizma.

1. Tarixiy-geografik tasnifiga ko'ra

<p>1) O'rta yer dengizi havzasi dinlari: A) Grek. B) Rim. D) Ellinistik.</p>	<p>4) Hindiston dinlari: A) Vedalar dinlari. B) Hinduizm. D) Hind buddizmi (teravada, maxayana). E) Jaynizm.</p>
<p>2) Qadimiy Yaqin va O'rta Sharq dinlari: A) Misr. B) Shumer. D) Akqad. E) G'arbiy-somiy. F) Islomgacha arablar dinlari.</p>	<p>5) Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo dinlari: A) Shri-Lanka, Tibet, Janubiy-Sharqiy Osiyo havzasi buddizmi. B) Xitoy dinlari (daosizm, konfutsiylik, buddizm maktablari). D) Koreya va Yaponiya dinlari.</p>
<p>3) Yaqin va O'rta Sharqning payg'ambarlik dinlari: A) Zardushtiylik. B) Yahudiylik. D) Xristianlik. E) Manixeizm. F) Islom.</p>	<p>6) Amerika hindulari dinlari: A) Toltek va atsteklar dinlari.</p>

8.1.9-chizma.


1. Etnik tasnifiga ko'ra:

1) **Urug'-qabila dinlari** – totemistik, animistik tasavvurlarga asoslangan, o'z urug'idan chiqqan sehrigar, shomon yoki qabila boshliqlariga sig'inuvchi dinlar. Ular millat dinlari va jahon dinlari ichiga singib ketgan bo'lib, hozirda Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba'zi qabilalarda saqlanib qolgan.

2) **Millat dinlari** – ma'lum millatga xos bo'lib, boshqa millat vakillari o'ziga qabul qilmaydigan dinlar. Ularga yahudiylik (yahudiy millatiga xos), sintoizm (yaponlarga xos), hinduiylik (hindlarga xos) kiradi.

3) **Jahon dinlari** – dunyoda eng ko'p tarqalgan, kishilarning millati va irqidan qat'i nazar unga e'tiqod qilishlari mumkin bo'lgan dinlar. Unga buddaviylik, xristianlik va islom dini kiradi.

Bundan tashqari dinlar ta'limotiga ko'ra **monoteistik** – yakka-xudolik (yahudiylik, islom) va **politeistik** – ko'pxudolik (hinduiylik, konfutsiyalik) dinlariga bo'linadi.



8.1.10-chizma.

Odamzodning paydo bo'lishi haqida juda ko'p g'oyalari ham mavjud:

1. Diniy qarashdagi g'oya... (Ruhiy olam mavjudligi, uning oldin paydo bo'1.)

2. Darwin ta'limoti... Bu ta'limot olimlar tomonidan hozirda turli bahslarga sabab bo'lmoqda.

3. Panspermiya (Yerga tiriklik urug'ining meteoritlar orqali kelgani) g'oyasi o'zining juda ko'p tarafdorlariga ega. Bu qarashni asoslashga urinib bir necha kitoblar yozgan olim Erix fon Deniken o'z taxminlarini qisqacha shunday bayon qiladi: Bizning erimizga juda qudratli kelgindilar uchib kelishgan, ular bir juft yovvoyi ikki oyoqlini ushlab, ular ustidan genetik tajriba o'tkazishib, keyin o'z hollariga qoldirishgan. Ulardan tug'ilgan bolalar odamzod nasliga asos solgan. Shundan keyin kelgindilar bir necha marta Yerga tushib, o'z tajribalariga muayyan o'zgartirishlar kiritishgan, Aftidan, bu jarayon hozir ham davom etayotir, deydi Erix fon Deniken.

4. Bundan tashqari, yana odamzodning Yerga paydo bo'lishi bilan bog'liq ko'plab taxminlar mavjud. Ularning aksariyatida biz yerliklar ma'lum bir yulduzlardan kelib qolganligimiz "bashorat" qilinadi. Biroq eng obro'li odamlarning bu boradagi, aytish mumkinki, yakdil xulosalari shunday: Odamzodning Yerga paydo bo'lishi bilan

bog‘liq muammolar hozircha ochiq qolayotir, aslida nima bo‘lgan, e’tirozlarga o‘rin qoldirmaydigan aniq javob yo‘q. Izlanishlar esa davom etmoqda (“O‘zAS”. 2001-yil 22-iyun).

5. Marksizm ta’limoti. Oldin materiya, keyin inson paydo bo‘lgan.

6. Idealistik ta’limot, oldin ruh, keyin materiya paydo bo‘lgan kabi va h.k.

Sotsiologiya nuqtayi nazaridan qaraganda, din jamiyat uchun zarur narsa, ijtimoiy hayotning ajralmas qismi. Ijtimoiy munosabatlarni yuzaga keltiruvchi va amalga oshiruvchi omil. Din ijtimoiy vazifalarni bajaradi.

Dinning kelib chiqishi haqidagi nazariyalar:

1. Dinning tarixiyliigi masalasiga 2 xil javob berganlar:

1) Marksistik ta’limotga ko‘ra, qandaydir muddatda insoniyat dinsiz yashagan va jamiyatning muayyan bosqichida, yuqori poleolit davrida, bundan 20-40 ming yil ilgari paydo bo‘lgan.

2) Dinning kelib chiqishi insoniyatning paydo bo‘lishi bilan bevosita bog‘liq.

2. E. Taylarning evolutsion nazariyasiga ko‘ra, “faylasuflik qilgan yovvoyi odam”ga taqaydi, shundan so‘ng ruhlar, xudolar, farishtalar paydo bo‘lgan.


3. Birinchi yolg‘onchi birinchi nodonni uchratganda din paydo bo‘lgan. Yomon niyatli insonni toptash natijasida ibtidoiy odam yuzaga kelgan.

4. “Bir odam boshqalarni aldash natijasida kelib chiqqan” degan fikrlar tanqidga uchradi.

8.2. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari. O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan diniy konfessiyalar va tashkilotlar

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 18-oktabrda shunday degandi: **“O‘zbekistonda mustaqil va kuchli davlat qurishdan asosiy maqsad inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadigan va hurmat qilinadigan adolatli jamiyat**

barpo etishdir. Ayni vaqtda musulmon olami va jahon hamjamiyatidagi munosib o‘rnimizni yanada mustahkamlashdir”.⁴³



8.2.1-chizma.

Islom (arab. – bo‘ysunish, itoat etish, o‘zini Alloh irodasiga topshirish) – buddaviylik va xristianlik bilan birga jahonda keng tarqalgan uch dinlardan biri. Unga e‘tiqod qiluvchilar arabcha “muslim” (“islomni qabul qilgan”, “itoatli”, ko‘pligi “muslimin”) deb ataladi. *“Islom – haqiqatni anglash demakdir, u odamzotni ezgu amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo‘lishni o‘rgatadi”*⁴⁴.

⁴³ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 2017.-31-bet.

⁴⁴ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.-30-bet.

Islom VII asrda Hijoz (gʻarbiy Arabiston)da paydo boʻldi. Musulmonlarning uchdan ikki qismidan koʻprogʻi Osiyoda, qariyb 30 foizi Afrikada istiqomat qiladi. Dunyodagi musulmon jamoalari mavjud boʻlgan 120 dan ortiq mamlakatlarning 40 dan ziyodi musulmonlar aholining koʻpchiligini tashkil qiladi. Maʼlumotlarga koʻra, Indoneziyada 210 million, Pokistonda 150 million, Bangladeshda 110 million, Nigeriyada 80 million, Eron va Turkiyada 65 million, Misrda 60 million, Marokash va Jazoirda 30 milliondan koʻproq musulmonlar yashaydi. Rossiyadagi musulmonlarning soni 20 milliondan, Hindistonda esa 140 milliondan ortiq.

1. Davlatning diniy va mafkuraviy manbalardan mustaqil ekanligining qonun asosida mustahkamlanganligi.
2. Har qanday diniy mafkuraning davlat boshqaruvining mutlaq suverenitetiga qarshi qoʻyilishiga yoʻl qoʻymasligi.
3. Mafkurani targʻib qilishga yoʻnaltirilgan diniy birlashmalarning davlatdan ajratilganligi.
4. Majburiy din yoki mafkuraning yoʻqligi.
5. Diniy tashkilotlarning erkin faoliyat yuritishi uchun qonuniy sharoit yaratilganligi.
6. Diniy birlashmalarning qonun oldida tengligi.
7. Davlat taʼlim tizimining dunyoviy xarakterga ega ekanligi.
8. Din yoki mafkuraning majburan oʻrnatilishiga yoʻl qoʻyilmasligi kabi xususiyatdir.


Zamonaviy dunyoviy davlat modellari:

1. Amerika modeli.
2. Fransuz modeli.
3. Nemis modeli.
4. Yaponiya modeli.
5. Shved modeli va hokazo.

Amerika modeli. Bu model liberal va din erkinligini maksimal darajada taʼminlashga harakat qiladi. Din davlatdan toʻliq ajratilganligini aniqlay olmaymiz. AQSHda hozirga qadar Kongress palatalari majlisi nasroniylar jamoasi tomonidan ochiladi. Prezident oʻz lavozimiga kirishi oldindan ruhoniylar oldida muqaddas Injil

kitobiga qasamyod qiladi, sudda, armiyada qasamyod qilishda ham nasroniylar dinining formulalari saqlab qoling⁴⁵.

Bir necha zamonaviy dunyoviy davlatning modeli



8.2.2-chizma.

16.Fransuz modeli. Dunyoviy davlatning ushbu modeli bugungi kungacha bir necha bosqichlarni bosib o'tgan, 1789-yilgi Deklaratsiyadan boshlangan, rasmiy ravishda cherkov va davlatning ajralishi e'lon qilingan. 1905-yilgacha Katolik cherkovi davlat dini bo'lib qoldi. Konstitutsiya 1958-yilda Fransiyaning dunyoviy davlat deb e'lon qildi va quyidagi asosiy tamoyillarni tasdiqladi: vijdon erkinligi va din erkinligi; qaysidir cherkovning rasmiy hukmron mavqega ega bo'lishi taqiqlanadi va barcha cherkovlarning qonun oldida tengligi ta'minlanadi; diniy e'tiqodni ochiq ifodalash uchun qonuniy erkinlik beriladi.

⁴⁵ Doniyorov X. O'zbekiston milliy demokratik davlatchilik taraqqiyotida dunyoviylik va diniylik mutanosibligining ahamiyati. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy daraja olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2020. -32-34-betlar.

17. Nemis modeli. Germaniyada 1949-yil qabul qilingan Konstitutsiya davlat va konfessiyalar munosabatining huquqiy asosi hisoblanadi. Asosiy qonun quyidagi prinsipial holatlarni o‘z ichiga oladi: “...davlat cherkovi bo‘lmaydi. Diniy jamiyatda birlashmalarning erkinligi kafolatlanadi. Diniy jamiyat uyushmalari faoliyatiga hech qanday cheklov qo‘yilmaydi”.⁴⁶ Umumiy davlat ta’lim tizimi “Din” fanini majburiy ravishda o‘qitishni nazarda tutadi.

18. “Yapon modeli”.

19. “Shved modeli”.

Ko‘pgina davlatlarning davlat va din munosabatlarini hal etish metodlari hamda mexanizmlarini o‘rganish natijasini optimallashtirgan holda dunyoviy taraqqiyot modelini 3ga bo‘lish mumkin:

1) **Klassik modeli.** Fransiya, Rossiya, O‘zbekiston

2) **Indifferensial** (lot. “indifferntia” – farqsiz, farqi yo‘q). AQSH, Yaponiya. Bu model “dunyoviy yoki fuqaroviy din” tushunchasini anglatadi.

3) **Preferensial** (lot. “Praeferens”, “Praeferentis” – afzal, afzallik). Italiya, Isroil, Germaniya, Polsha, Ispaniya.

Sekulyarizm – O‘zbekistonda din va davlat munosabatlarini tartibga solishning asoslari yoxud ilmiy paradigmalari:

1. **Din va davlat munosabatlari** ratsional muvozanatni saqlashda din tabiatidan emas, balki inson tabiatidan kelib chiqishi lozim. Inson tabiati ziddiyatlaridir. Inson tabiatida agressivlik, zo‘ravonlik va kuch ishlatishga moyillik xususiyatlari mavjud. Inson bir vaqtning o‘zida yaratuvchi, yakson qiluvchi mavjudotdir⁴⁷.

2. **Din va davlat munosabatlarida ratsional muvozanatni saqlash**, umuman, davlat va din o‘rtasidagi muvozanatni saqlash uzluksiz va muntazam tarbiyani taqozo etadi. Demak, inson zotida qonun, qoida, amrga itoat etmaslik qusuri azaldan mavjud.

3. Din va davlat dixotomiyasida inson ichki ziddiyati faqat ma’rifiy usulda hal qilinishi mumkin. Inson vujudi uch turlik – rahmoniy, hayvoniy, shaytoniy quvvatlar bilan yaratilishidir. Demak,

⁴⁶ Цит. по: Мирошникова Е.М. Государство и нетрадиционные религиозные движения в ФРГ. Тула, 1997. – С.1.


⁴⁷ Alixonto‘ra Sog‘uniy, Ahadxon to‘ra G‘afforov. Bizdan emasdirlar, vatanni sevmaganlar. – Toshkent, “Movarounnahr”, 2005. – B. 16.

ma'rifat insonning ichki ziddiyatini bartaraf etish uchun eng ma'qul yo'ldir.

4. Din va davlat munosabatlari din uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lib, bu munosabat uzoq tarixiy an'anaga ega – islomning ilk davrida xorijiyar degan ratsional islomiy oqimi vujudga kelishining o'zi buni ta'kidlaydi.

5. Din va davlat o'rtasidagi muvozanatga faqat ma'rifiy, demokratik davlat sharoitidagina erishiladi. Demokratik davlat sharoitida vijdon erkinligi huquqiy jihatdan ta'minlanadi, diniy e'tiqod taqiq va ta'qib ostida bo'lmaydi.

O'zbekistonda davlat va din munosabatlari 5 ta prinsipga asoslanadi



8.2.3-chizma.

Aholisining asosiy qismi musulmon bo'lmagan o'lkalarda ham islomga e'tiqod qiluvchilar soni ortib bormoqda. Masalan, AQSHda 10 million, Fransiya 6 million, Braziliya 5 million, Germaniyada 3,5 million, Buyuk Britaniya 1,5 Italiya 1 milliondan ortiq musulmonlar yashaydi. Yevropa Ittifoqi bo'yicha jami dinga e'tiqod qiluvchilarning 15 millioni musulmonlardan iborat. Hozirgi kunda ularning soni 50 million atrofida.

XX asrda musulmonlar dunyo aholisining 15–16 foizini tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich Er yuzidagi har besh kishidan birini tashkil etmoqda. 2025-yilga borib, bu dunyo aholisining 30 foizini islomga e'tiqod qiluvchilar tashkil etishi mumkin.

Misr, Quvayt, Saudiya Arabistoni kabi bir qator mamlakatlarda islom davlat dini (yoki rasmiy din) sifatida tan olingan bo'lsa, "islom" so'zi davlatning rasmiy nomi tarkibiga kiritilgan: Eron Islom Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi⁴⁸.

O'zbekiston aholisining taxminan 92 foizini, ya'ni asosiy qismini musulmonlar tashkil etadi. Shu boisdan ham davlat va nodavlat tashkilotlari diniy bag'rikenglik g'oyasini o'zining "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot" barpo etish bosh g'oyasining asosiy g'oyalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston davlati dunyoviylik asosida shakllangan va barcha dinlar teng hisoblanib, diniy bag'rikenglik rivojlangan. Hamma dinlarga hurmat bilan qaraladi. O'zbekiston aholisining asosiy qismi musulmonligi sababli islom diniga alohida e'tibor beriladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, dunyoviy davlat sifatida, din davlatdan ajratilgan bo'lsa-da, lekin dindor jamiyatdan ajratilmaganligi bois barcha dinlar, shu jumladan, islom diniga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabat to'g'ri yo'lga qo'yildi. Ya'ni vijdon erkinligiga e'tibor qaratildi. Dinga ishonuvchilar va ishonmaydiganlar o'rtasidagi munosabatlar to'g'ri yo'lga qo'yildi. Bu BMT ustavi hamda 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasiga mos tushadi. Qisqasi, din dunyoviy davlat tizimi bilan nafaqat murosa qilish, balki

⁴⁸ Diniy bag'rikenglik va mutaassiblik (Yuz savolga-yuz javob). –T.: Toshkent Islom universiteti, 2007.–6–7-betlar.

umummilliy taraqqiyot yoʻlida, u bilan samarali hamkor boʻlishi mumkin.

Din va dunyoviy davlat orasidagi munosabat haqida gap ketar ekan, eng avvalo, dinning davlatdan ajratilishi tamoyili uning asosini tashkil etishini taʼkidlash zarur. Bu haqda Konstitutsiyamizning 61-moddasida shunday deyiladi: “Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi.” Mazkur moddada muhim qoidalar mustahkamlab qoʻyilgan. Avvalo diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqligidan qatʼi nazar, bir xil huquqiy maydonda faoliyat olib boradi. Qolaversa, diniy birlashmalar faoliyatini tashkil etish ularning ichki ishi hisoblanadi va davlat nazoratidan xolidir.

Davlatning dinga boʻlgan munosabatini ifodalovchi boshqa bir tamoyil shundan iboratki, davlat dinni xalq maʼnaviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Shundan kelib chiqib, uning rivoji uchun tegishli shart-sharoit yaratishga harakat qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 61-moddasida: ***“Diniy tashkilot va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalar faoliyatiga aralashmaydi”, deb taʼkidlangan.***

1991-yil 11-aprel – Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan “Ramazon hayiti” dam olish kuni deb eʼlon qilindi.

1991-yil 14-iyun – Oʻzbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar toʻgʻrisida”gi Qonuni qabul qilindi.

1991-yil 20-iyun – Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan “Qurbon hayiti” dam olish kuni deb eʼlon qilindi.

1991-yil iyul – Buyuk yurtdoshlarimiz, muhaddislar sultoni Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriyning islomda Qurʼondan keyingi ikkinchi kitob hisoblangan “al-Jomiʼ as-sahih” (Ishonarli toʻplam) asarining birinchi jildi ilk bor Zokirjon Ismoil tomonidan oʻzbek tiliga oʻgirildi va Qomuslar Bosh tahririyati tomonidan 200 ming nusxada chop etildi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizning barcha fuqarolari haqiqiy eʼtiqod erkinligini his eta boshladilar. Bugungi kunda Oʻzbekistonda turli din vakillarining hech qanday toʻsiqlarsiz oʻz dinlariga eʼtiqod qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Sobiq shoʻro davrida respublikamizda bor-yoʻgʻi 87 ta masjid va 2 ta madrasa faoliyat koʻrsatgan boʻlsa, hozir

O‘zbekiston musulmonlari idorasi boshqaruvi ostida rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan, barcha qulayliklar yaratilgan 2054 (2019-y.)dan ortiq masjid, 10 ta madrasa va Toshkent Islom isntituti faoliyat ko‘rsatib turibdi. Mustaqillik yillarida 110 mingdan ortiq musulmon haj va 80 mingdan ortiq Umra safarini amalga oshirdilar⁴⁹.

Shuningdek, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ziyod millat va elat vakillari ham o‘zlari e‘tiqod qilayotgn dinlarida emin-erkin ibodat qilmoqdalar. Bugun O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy tashkilotlar (16 ta konfessiyaga taalluqli). Jami 2274 ta; shundan: islomiy diniy tashkilotlar – 2092 (92 foizi); xristian tashkiloti – 165 ta; yahudiy jamoasi – 8 ta, bahoiiy – 6ta; krishnaiylar jamiyati, budda ibodatxonasi, konfessiyalararo O‘zbekiston Bibliya jamiyati 1 tadan tashkil etadi⁵⁰. ***“Hozirgi vaqtda diyorumizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari o‘zaro hamjihat yashamoqda, 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda”.***⁵¹


1999-yil 7-aprel Prezident Farmoniga asosan Toshkent Islom universiteti tashkil etildi. Har yili mazkur Oliy o‘quv yurti islom tarixi va falsafasi, diniy qonunchilik, iqtisod va tabiiy fanlar fakultetlariga 100 dan ortiq abiturentlarni talabalikka qabul qiladi. Universitet qoshida islomshunoslik ilmiy tadqiqot markazi, manbalar xazinasini hamda akademik litsey faoliyat ko‘rsatmoqda. Toshkent Islom instituti va Buxorodagi Mir Arab oliy madrasasida 366 talaba tahsil oladi. O‘qituvchilardan 87 tasidan 12 tasi fan nomzodi, 38 tasi fan magistri. O‘rta maxsus islom bilim yurtlarida 1071 talabaga 246 pedagog dars beradi. Ularning 12 tasi fan nomzodi, 33 tasi magistr. (“Xalq so‘zi”, 2017-yil 16-dekabr). Umuman, din hozirgi sharoitda muhim ijtimoiy-madaniy hodisadir. Dinning jamiyat ma’naviy-ma’rifiy hayotida tutgan o‘rnini bilish uchun uning jamiyat va shaxs hayotida qanday o‘rin egallashini, dinning davlatga va shaxsning dinga munosabatini tarixan qanday o‘zgarib borganligini ilmiy tahlil qilish lozim bo‘ladi.

⁴⁹ Ayupov Orif. Dunyo. Siyosat. Jamiyat. – Guliston, 2017. 124-bet.

⁵⁰ Xalq so‘zi, 2019 yil 11 dekabr..

⁵¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.-1-jild. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.-138-bet.

Ilmiy jihatdan qaraganda dinning jamiyat hayotiga ta'sirining 2 tendensiyasi mavjud



8.2.4-chizma.

I. “Sekulyarizm – inson dunyoviy ishlari uchun g'am-xo'rlik qiluvchi, biroq Xudoga e'tiqod qilish va istiqboldagi holatdan tashqari bo'lgan axloqiy ta'limot” deb, tariflanadi. Sekulyarizmning ilk ma'nosi bilan bugungi ma'nosi o'rtasida farq mavjud. Agar o'zining ilk ishlatilishida sekulyarizm mazmun jihatidan quydagi uch tarkibiy qismni qamrab oladi.

1. Cherkov qarmog'ida, tasarrufida bo'lgan yerlarni davlat hisobiga musodara qilish, davlat ixtiyoriga o'tkazish.

2. Dinni dunyoviy turmush tarziga moslashtirish (uni “dunyoviy lashtirish”).

3. Kishini diniy ongdan ozod qilish, ya'ni uning dunyo-qarashini shakllantirishda cherkov ta'sirini cheklash, fanga cherkov aralashuviga chek qo'yishini qamrab oladi⁵².

8.2.5-chizma.

⁵² Saifnazarov I., Obidov A. Dinlararo hamjihatlik – ijtimoiy bag'rikenglik omili. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi, 2019. 34-37-betlar.



“Sekulyarizm” atamasi, lotincha “Secular”, “Secularus” soʻzidan olingan boʻlib, “dunyoviy tamoyil”, dunyoviylik degan maʼnoni anglatadi



II. “Resekulyarizatsiya” – din va davlat munosabatlarida ateizm, dahriylik siyosati hukm surgan davrlarga barham berish, din va davlat oʻrtasida ziddiyatni emas, balki oʻzaro dialogni qoʻllab-quvvatlash bilan bogʻliq siyosatdir. Tarix nuqtayi nazaridan resekulyarizatsiya din va davlat munosabatlarida uch asosiy bosqichga boʻlinadi.



1. **Islom dinining ilk rivojlanish** va jahon uzra tarqalish davri (VII–VIII asr) bilan bogʻliq boʻlib, islom dini asoschisi Muhammad (s.a.v.) vafotidan soʻng davlat va din oʻrtasida yuzaga kelgan munosabat bilan bogʻliq.
2. **Markaziy Osiyoda XI–XII asrdan** boshlab jamiyat hayotida ruhoniylar ulamolar mavqeining oshib borishi, hayotida dunyoviy qadriyatlarga nisbatan diniy qadriyatlar, shariat qonunlari ustuvorligining oshishi bilan bogʻliq boʻlib, bu davr XIX asr 2-yarmi – jadidchilik harakatlarining yuzaga kelishi bilan yakunlanadi.
3. **Markaziy Osiyoda bu bosqich Chor Rassiyasi istilosi**, 1917-yil oktabr inqilobi, natijada jamiyatda dahriylik mafkurasining rasmiy davlat siyosati darajasiga koʻtarilishi nafaqat islom, xristianlik va buddaviylik kabi jahon dinlari, balki yahudiylar kabi milliy dinlarning taʼqib qilinishi, shoʻro tuzumining parchalanishi, MDH yuzaga kelishi, dinga yangicha munosabat shakllanishi, milliy, diniy qadriyatlarning koʻtarilishi bilan bogʻliq.

8.2.5-chizma.

Din axloqiy tarbiya sohasida muhim ahamiyatga ega vazifani bajaradi. Biroq diniy siyosiy maqsadlar uchun niqob qilib olish, diniy davlat barpo etish vositasida yana oʻrta asr sakralizatsiya tendensiyasini ijtimoiy hayotda tiklashga urinish dunyoviy qadriyatlarga asoslangan konstitutsiyamiz va amaldagi qonunlarimizga ziddir.

Respublikamizda diniy tashkilotlar va fuqarolarning diniy eʼtiqod bilan bogʻliq muammolar faqatgina din sohasidagi mavjud muammolar bilan cheklanmaydi, balki unga kompleks yondashuv zarur. Bu muammolarni bartaraf etish uchun:

Diniy eʼtiqod bilan bogʻliq muammolarga kompleks yondashuv zarur:

1. Mamlakatda demokratiyani rivojlantirish, jamiyatni demokratlashtirish, mavjud siyosiy tizimni barqaror rivojlantirishni taqozo qiladi.

2. Bozor iqtisodiyotini rivojlantirish asosida aholi moddiy turmush darajasini yaxshilash qoloq davlatlarda keskin tus olmoqda.

3. Aholining madaniy saviyasini oshirish zarur, chunki diniy aqida-parastlikning muhim manbalaridan biri bu – jaholatdir.

“Muqaddas dinimiz, milliy qadriyatlarimizni, buyuk aziz avliyolarimizning xotirasi, merosini tiklash, qadamjolarni obod qilish boʻyicha juda koʻp ishlar qilindi va qilinmoqda”,⁵³ degan edi davlatimiz rahbari.

1992-yili Vazirlar Mahkamasining “Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi din ishlari boʻyicha qoʻmita tashkil etish toʻgʻrisida”gi qarori qabul qilindi.

1. Vazirlar Mahkamasining “Bahouddin NAQSHband tavalludining 675 yilligiga tayyorgarlik koʻrish va uni oʻtkazish haqida”gi qarori qabul qilindi.

2. 1995-y. Vazirlar Mahkamasining “az-Zamaxshariyning 920 yilligi va Najmiddin Kubroning 850 yilligi oʻtkazish” boʻyicha farmoyish chiqdi.

3. 1996-y. Toshkentda Evangel-xristian cherkovining 100 yilligi nishonlandi.

⁵³ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. 1-jild. –T.: “Oʻzbekiston” NMIU, 2017.-466-bet.

4. Nemis Evangel-lyuteranlar cherkovining (Kirxasi)ning 100 yilligi nishonlandi.

5. 1997-y. Vazirlar Mahkamasining “Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Birgina 2017 yilning o‘zida:

6. O‘zbekiston Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi Qarori bilan “Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” tashkil etildi.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 19-maydagi “Muborak Ramazon oyini munosib tarzda o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qarori bilan uning ijrosi ta‘minlandi.

8. O‘zbekiston Prezidentining Qarori bilan 2017-yil 23-iyunda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston Islom madaniyati markazi” tashkil etildi.

10. 2017-yil 15-dekabr Prezident Qarori bilan “O‘zbekiston Islom Akademiyasi” tashkil etildi.

11. Toshkent shahrida Islom silvilizatsiyasi markazi barpo etildi.

12. Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy tadqiqotlar markazi tuzildi.

13. “Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2018-yil 16-aprelda) Prezident Farmoni qabul qilindi.

14. “To‘y-hashamlar, oilaviy tantanalar, ma‘raka va marosimlar, marhumlarning xotirasiga bag‘ishlangan tadbirlar o‘tkazilishini tartibga solish to‘g‘risida”gi Oliy Majlis Senatining (2018-yil -yun) qarori qabul qilindi.

Umuman, O‘zbekiston xalqi qadimdan bag‘rikeng xalq bo‘lgani sabab qadimda ham bugungi kunda ham boshqa din va konfessiya vakillari bilan tinch-totuv yashab kelmoqda.

Afsuski, ushbu tinchlikni ko‘ra olmaydigan ba‘zi g‘araz niyatli kuchlar xalqimizni asl ildizlaridan mahrum qilish maqsadida dinni niqob qilgan holda turli aqidaparastlik va missionerlik g‘oyalarini xufyona targ‘iboti bilan shug‘ullanayotganlari ham bor gap. Ulardan missionerlarni oladigan bo‘lsak ular, eng avval dinidan uncha xabardor bo‘lmagan, dinga yengil munosabatda bo‘lgan yoki o‘zini musulmon hisoblasa-da, hayotida musulmonchilikning biron-bir belgisi qolmagan shaxslar, shuningdek, kam ta‘minlangan, bemor, yolg‘iz qolgan fuqarolar, hatto kar, soqov nogironlar orasida targ‘ibot olib boradilar.

Zimmasidagi fuqarolik majburiyatlari, haq-huquqlari va dinimizning asosiy tartib-qoidalaridan yaxshi xabardor bo‘lgan kishiga yaqin ham borishmaydi. Ha, shariatda ilmning har bir mo‘min va mo‘mina uchun farz qilib belgilangani bekorga emas.

Buyuk ajdodimiz Imom Buxoriy hazratlarining “Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmaydi ham” degan hikmatlarini yodda tutib, yoshlarimizni dunyoqarashi keng, imon-e‘tiqodi mustahkam bo‘lishi uchun ilmga yo‘naltirish barchamizning dolzarb vazifamizdir. Chunki barcha xatolar va muammolarning boshi ilmsizlikdir.

“Bag‘rikenglik” tushunchasi ilmiy faoliyat va ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan, siyosat va siyosatshunoslik, sotsiologiya, falsafa, ilohiyat, qiyosiy dinshunoslik kabi sohalarda keng istifoda etiladigan tushunchalardan biri hisoblanadi. Lotincha “tolerare”, ya’ni “chidamoq”, “sabr qilmoq” ma’nosini anglatgan bu so‘z, asosan bir insonning boshqa inson dunyoqarashiga toqat qilishini bildirsa-da, etimologik tahlil har doim ham uning tom ma’nosini ochib beravermaydi.

Islom dini o‘zining ilk davridanoq bag‘rikenglik dini sifatida namoyon bo‘ldi. Islomda e‘tiqod erkinligi ochiq-oydin e‘lon qilingan: “Baqara” surasining 256-oyatida “Dinda zo‘rlash yo‘q”, deyilgan.

Umuman olganda, Qur‘onning 50 dan ortiq surasidagi yuzlab oyatlarda musulmonlar mo‘min-qobillik, tinchlikparvarlik va boshqa e‘tiqod vakillariga nisbatan bag‘rikenglik da’vat etilgan.

Muhammad alayhissalom ham o‘z hayotlari davomida hech qachon hech kimni islomga kirishga majbur qilmaganliklarini, biron marta u yoki bu harbiy harakat diniy e‘tiqod tufayli bo‘lmaganini ham yoddan chiqarmaslik lozim.

Tarixdan ma’lumki, har qanday davlatning barqarorligi undagi xalqlar, millat va elatlarning huquq va erkinliklari faqatgina qonuniy hujjatlarda belgilanishiga emas, balki ularning amalda qay darajada o‘z tasdig‘ini topishiga ham bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mamlakatimizda fuqarolarning vijdon erkinligi bilan bog‘liq huquqlari nafaqat qonun bilan mustahkamlab qo‘yilgani, balki amaliyotda uning asosiy tamoyillarga qat’iy rioya qilinayotgani hayotiy dalillar bilan tasdiqlanayotganini ta’kidlash zarur.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida ta’kidlaganidek,

“Birlashgan Millatlar Tashkilotining fuqaroligi bo‘lmagan insonlar sonini ko‘paytirishga qaratilgan chaqirig‘iga javoban 2020-yilning o‘zida 50 ming yurtdoshimizga O‘zbekiston fuqaroligi berilgan”⁵⁴.

8.3. Dinlarning tarixiy ildizlari va shakllari. Zardushtiylik va yahudiylik dinlari

Dinning ildizi – dinning vujudga kelishi, uning qayta tiklanish zaruriyati va imkoniyatini, umuman, uning salohiyatini yaratuvchi omillar yig‘indisidir. Bu ildizlar uch qismdan iborat. Ularning birontasisiz dinning vujudga kelishi mumkin emas edi.

Markaziy Osiyo xalqlarining shakllanish tarixining murakkab va o‘ziga xos tomonlari mavjud. Bu vaziyat ularning diniy turmushlarida ham o‘z aksini topdi. Bu tarixiy jarayonning mazmuni dinning qadimgi shakllari, ko‘rinishlari turli xildir. Markaziy Osiyo hududi xalqlarining dastlabki manzilgohlari Farg‘ona vodiysi tosh davrida – eramizgacha bo‘lgan 1 million 500 minginchi yillarda vujudga kelib, Teshiktosh, Sherobod va boshqa yerlarda madaniyat shakllana boshlagan.



8.3.-chizma.

⁵⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 23 sentyabrdagi BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. //Xalq so‘zi, 2020 yil 24 sentabr.

O‘zbekiston ko‘p millatli va ko‘pkonfessiyali mamlakat. Bu jihat ko‘hna tarix, Markaziy Osiyo xaqqlarining ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti, Buyuk Ipak yo‘li ta’sirida turli madaniyatlarning o‘zaro ta’siri va muloqoti natijasida shakllangan.

Taniqli faylasuf, professor Q.Nazarov ta’kidlaganidek, “insoniyat tarixida shunday g‘oyalar borki, ular buyuk ishlarga tayyor millatlarni o‘zining yo‘lboshchilari yetakchiligida, tarixning muayyan qisqa bosqichlarida ming yillarda qo‘lga kiritish mumkin bo‘lgan natijalarga erishishga undaydi”⁵⁵.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 15-iyunda “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqida shunday degan edi: **“Biz bugun amalga oshirayotgan Harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo‘nalishida ham millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash bo‘yicha eng muhim vazifalar belgilab berilgan”**.⁵⁶

Konfutsiyalik (asoschisi milod. av. 551–479-yillarda yashagan xitoylik Kun-Fuszi) – ijtimoiy-axloqiy g‘oyalari bilan mashhur bo‘lgan Xitoydagi yetakchi falsafiy maktablardan biri. Konfutsiyalikda inson tarbiyasida murosa, sabr-qanoat, kechirimlilik, bag‘rikenglik g‘oyalari muhim o‘rin tutishiga e’tibor qaratilgan. **Konfutsiyalik** – Xitoydagi axloqiy-siyosiy ta’limot. Keyinchalik 3 asosiy falsafiy-diniy oqimlardan biri (daosizm va buddizm bilan birga). Konfutsiyalik ta’limotidagi **“Shaxs o‘zi uchun emas, balki jamiyat uchun shaxsdir”** degan g‘oyasi hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Shu boisdan ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 18-oktabrda Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqida shunday degan edi: **“Bu g‘oya “Beshikdan qabrgacha ilm izla” degan mashhur hadisga hamohangdir”**.⁵⁷

⁵⁵ Nazarov Q. G‘oyalar falsafasi. – T.: Akademiya, 2011. – 21-b

⁵⁶ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yaxshi bosqichga ko‘taramiz.-1-jild. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.-465 bet.

⁵⁷ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.-1-jild. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.-27-bet.

Dinning ilk shakllari

1. **Totemizizm** – hindular tilida “uning ruhi”: hayvon va o‘simliklarga ishonish. Shimoliy Amerikada yashaydigan Ojibva qabilasi tilida “uning ruhi” ma’nosini angalatadi.

- 1) odamlar jamoalari birligini totem yordamida yanada mustahkamlagan. Ularni “o‘ziniki” va “begona”larga ajratish orqali o‘zligini tushuntirishga yordam bergan;
- 2) insonni tabiatga hurmat ruhida tarbiyalagan va u bilan uyg‘un yashashga o‘rgatgan;
- 3) asosiy vazifasi birlashtiruvchilik, tartibga solish funksiyasini bajargan.

1. **Animizm** (lot. ruh) – kishi ruhi, jonning birligiga ishonish. Ruh istagan vaqtda tark etishi mumkin. Ruh odam vafot etishi tufayli tanani tark etgach insonlarga turlicha munosabatda bo‘ladi, dastlab odamlarga zarar yetkazishi mumkin. Lekin vaqt o‘tishi bilan odamlarga munosabati o‘zgaradi.

1. **Shomonlik yoxud sehrgarlik.** “Shomon” tunguscha so‘z bo‘lib, “o‘ta hayajonlangan”, “jazavali kishi” ma’nosini anglatadi. Shomon – u yoki bu qabilaning “ruhoniysi”. O‘ziga xos umumiyligi – shomonlarning alohida ilohiy qudratlarga ishonishidir. Shomonlikka da’vogar odam “shomonlik kasali”ga (ruhiy kasal) yo‘liqishi kerak. Ba’zan shomonning chaqirig‘i bilan ruhlarning o‘zi shomonning oldiga keladi, tanasiga kiradi, pichirlab gaplashadi. Shomonizm uchun xos bo‘lgan xususiyat – ruhga ishonish. Tajribali shomonlik elementlarining bugungi kundagi ko‘rinishlari: iste’dodli gipnozchilar, folbin, ko‘zbo‘yamachi, qo‘shiqchi, shoir, baxshilar bo‘lishi ham mumkin.

Sehrgarlik – odam, hayvon va tabiatga g‘ayritabiiy yo‘l bilan ta’sir o‘tkazish maqsadida bajariladigan xatti-harakatlar va bid’atlar. Turlari:

- 1) birovga ziyon-zaxmat yetkazish (dushmanga);
- 2) harbiy sehrgarlik;
- 3) muhabbat (issiq-sovuq qilish, jins sehrgarligi hamdir);
- 4) davolash sehrgarligi;
- 5) ob-havo sehrgarligi;
- 1) xo‘jalik sehrgarligi va hokazo

2. **Fetishizm** – portugal, fransuzcha so‘z – “sehrli narsa”, jonsiz narsaga ishonish. Jonli va jonsiz fetishlarga sig‘inish. Jonli fetishlar: ilonga, qarg‘a, bo‘ri, ayiq, ho‘kizga sig‘inish. Fetishizm ko‘rinishlaridan biri butparastlikdir. Hayvon qiyofasidagi predmetga sig‘inish. Bizda hozir ham sedana, tasbeh, munchoq, qalampirmunchoq, isiriq, ko‘ztikan, piyoz, sarimsoq, qora murch; daraxtlardan: yong‘oq, chinor, anjir, jiyda, archa va hokazolarga e’tibor berish hozirgacha yashab keladi.

1. **Urug‘ – qabila dinlari.**

2. **Milliy dinlar:**

- 1) Iudaizm.
- 2) Hinduizm.
- 3) Sintoizm.
- 4) Daosizm.
- 5) Konfutsiylik.

8.3.2 - Chizma

“Agar sen xalqingni bir yil boqmoqchi bo‘lsang, bug‘doy ek, o‘n yil boqmoqchi bo‘lsang daraxt ek, agar asrlar davomida boqmoqchi bo‘lsang bilim, ilm ek”.

Konfutsiy, Xitoy faylasufi (miloddan avvalgi 551-479-yillar)

Konfutsiya falsafiy g‘oyalari-ning ijodiy rivoji, uning muqobil ko‘rinishi bo‘lgan moizm ta’limotida o‘z ifodasini topgan (asoschisi Mo-szi bo‘lib, miloddan avvalgi 479–43-yillarda yashagan). Bu maktab nomayondalari etika muam-

molariga alohida e‘tibor berib, axloqiy me‘yorlarning bajarilishi uchun qattiqqo‘l hokimiyat lozim, deb hisoblagan. Konfutsiya yoshlar tarbiyasida ma‘naviy kamolotning o‘rnini mutlaqlashtiradi. Shu bilan birga, u ijtimoiy tenglik bo‘lishi uchun jamiyatning barcha a‘zolari uchun umumiy majburiy me‘yorlar, hamma uchun manfaatli mezonlar zarur deb hisoblaydi⁵⁸.

Keyinchalik Konfutsiyalik maktabi vakillari bu ta’limotni rivojlantirdi:

1. **Men-szi ta’limotiga ko‘ra:** hukmdorning shaxsiy manfaatidan mamlakat, xalq manfaati ustunligi hamda noinsof podshoni ag‘darib tashlashga xalq huquqi borligi g‘oyasini shakllantirdi. Ijtimoiy tenglik osmonning irodasi mavjudligi bilan asoslanadi.


2. **Syun-szi ta’limotiga ko‘ra,** “osmon” – tabiatning bir qismi bo‘lib, u onggga ega emas. Inson narsalarning yashash qonunlari (“dao”) ni bilib olgach, ulardan o‘z manfaati uchun foydalanishlari lozim.

Konfutsiyalikda qonun inson manfaatlariga xizmat qilmog‘i kerak, deyiladi.

Konfutsiyalik milodiy I asrda davlat ta’limotiga aylandi. IX asrda buddizm, XI asrda daosizm ustidan to‘la g‘alaba qozondi. Bunga, ayniqsa, Sun davri (960–1279) da neokonfutsiyalik rivojlanganligi tufayli erishildi.

Markaziy Osiyodagi falsafiy g‘oyalarni **moniylik va mazdakiylik** ta’limotida ham ko‘ramiz, ular jamiyatda adolat, erkinlik, teng huquqlilik tamoyillarini qaror toptirishga da‘vat etgan. Bu g‘oyalar Vatan ozodligi uchun kurashgan Muqanna boshchiligidagi harakatning ma‘naviy manbalaridan biri bo‘lib xizmat qilgan.

⁵⁸ Milliy g‘oya: targ‘ibot texnologiyalari va atamalar lug‘ati. –T.: “Akademiya”, 2007. 175–176-betlar.



8.3.3-chizma.

Mamlakatimiz tarixi islom dini yurtimizga kirib kelguniga qadar ham ming yillar mobaynida amal qilib kelgan turli g'oyalar tizimiga ega bo'lganidan dalolat beradi. Arablar yurtimiz hududini bosib olganlaridan so'ng o'zlarining g'oyalariga mos kelmaydigan juda ko'p ma'naviy boyliklarni ayovsiz yo'q qilishgan. Bu haqda Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida yozganidek, "Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimni boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib va butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun ham u (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyingi haqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi".

Zardushtiylik dini Mamlakatimizga xos ilk g'oyalar zardushtiylik tarzidagi diniy-falsafiy ta'limot sifatida shakllangan. Uning g'oyalari bilan bog'liq qadriyatlar bugungi kungacha yashab kelmoqda va xalqimiz turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlarini belgilashda nafaqat uning ma'naviy-ma'rifiy merosi, u bilan birga xalqimizning ma'naviy ruhiy tiklanishi va qadriyatlarimizni asrab-avaylashning negizi hamdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 18-oktabrda "Ta'lim va ma'rifat tinchlik va bunyodkorlik sari yo'l" nutqida ta'kidlanganidek, ***"Tarixiy merosni asrab-avaylash,***

o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosati-ning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir".⁵⁹

Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan 4 mingdan ziyod moddiy-ma'naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Qariyb 3 ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan, "Avesto" deb atalgan bebaho ma'naviy obida alohida o'rin tutadi. Qadimgi Xorazm, So'g'diyona va Baqtriyada ilk bor shakllangan, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan dastlabki yozma manba – "Avesto" kitobida ham ezgulik g'oyalari ilgari surilgan.

Zardushtiylikka taxminan 2700 yil oldin Xorazmda yashagan tarixiy shaxs Zardush Sepitama asos solgan. U ijtimoiy-sosiy va iqtisodiy munosabatlarga mos diniy tizimning asosini ishlab chiqqan. "Zardush" so'zi qadimgi fors tilida tuya, zarat, sariq, ya'ni keksa tuyachi, tuyachilar avlodi degan ma'noni anglatadi. "Zardushtiylik" atamasi mazkur dinga nisbatan O'rta asrlardan boshlab qo'llanilgan.

"Avesto" – mil.av. VII–VI asrlarda Markaziy Osiyo hududida, Xorazm vohasida yaratilgan va "Avesto", ya'ni "Hayot yo'riqnomasi" deb nom olgan kitob, zardushtiylik dinini shakllantirishga asos bo'lgan nazariy manbalarning umumiy nomi va bu dinning asosiy kitobi. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi davrlardagi moddiy va ma'naviy hayoti, diniy qarashlari, olam va odam to'g'risidagi tasavvur, urf-odatlar va qadriyatlari haqida ma'lumot beradi. Mil.av. XIII asrdan to milodning IV asrigacha bo'lgan davrdagi tarixiy voqealarni aks ettirgan.


O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida "Avesto"ning tub ma'nomohiyatini belgilab beradigan "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" degan tamoyili hozirgi zamon uchun ham behad ibratlidir,⁶⁰ degan edi. "Avesto"da ma'naviy yuksaklikka da'vat etish, odamlar o'rtasida mehr-oqibat tuyg'ularini mustahkamlashga oid fikrlar, ezgu g'oyalar, ma'budalar sha'niga aytilgan madhiyalar, duolar ham o'z ifodasini topgan. Dualizm, ruh va moddiy hayotning o'zaro uyg'unligini tan olishga asoslangan zardushtiylik diniga ko'ra, butun olam yorug'lik va

⁵⁹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017.-29-bet.

⁶⁰ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.-32-bet.


zulmat, hayot va o‘lim, tana va jon, yaxshilik va yomonlik, erkinlik va tobelik singari qarama-qarshi hodisalar o‘rtasida azaliy va abadiy kurash asosiga qurilgan. Bu kurash yaxshilik xudosi Axura Mazda bilan yomonlik tangrisi Axriman orasidagi doimiy olishuv timsolida hech qachon to‘xtamaydi.

Bu ta’limotda ezgulik sari qo‘ygan odam uch asosiy tamoyil, ya’ni niyatning ezguligi, so‘z va shartlarning butunligi, amallarning insoniyligiga asoslansagina maqsadga yetishi ta’kidlanadi. Bular jamiyat va inson uchun o‘ta muhim bo‘lgan qadriyatlar hisoblanadi “Avesto”dagi madhiya, rivoyat va hikoyatlar nafaqat Turon o‘lkasida, balki Eron, Hindiston va Kichik Osiyo, hatto Yunoniston hududida vujudga kelgan afsona va dostonlarning yaratilishida ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan.



8.3.5-chizma.


Tarixchi Ma'sudiyning yozishicha, podsho Doro ibn Doro xazinasida "Avesto"ning 12 ming oltin taxtaga, Balxiyning "Forsnoma" kitobi va Abu Rayhon Beruniyning asarlarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 12 mingta mol terisiga tilla suvida yozilgan 32 ta kitobdan iborat nusxasi bo'lgan. Makedoniyalik Aleksandr mil.av. 334–329-yillarda Markaziy Osiyoni zabt etgan davrda "Avesto"ning ko'pgina sahifalari yoqib yuborilgan. Aleksandr kitob nima ekanini, unda aks etgan g'oyalar odamlarga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini yaxshi bilgan. Shu bilan birga, u o'z qo'shiniga qattiq qarshilik ko'rsatgan yurtimiz xalqlarining g'oyalari "Avesto"da o'z ifodasini topganini, o'sha davrdagi avlod-ajdodlarimizning istibdodga bosh egmasdan, kitobdagi ushbu g'oyalarga tayangan holda, tez orada yana istiqloq uchun kurashga chiqishini nihoyatda yaxshi tushungan.⁶¹




8.3.6-chizma.

⁶¹ Назаров К. Ғоялар фалсафаси. -Т.: Akademiya, 2011-18-19-бетлар.

Axura Mazda yaratgan xudolar keyinchalik diniy tizimda Quyosh xudosi Mitra odamlarning himoyachisi sifatida Eronda uning o'rnini bosgan. Masalan, Qadimgi Gretsiyada, Qadimgi Rimda Mitra keng tarqalgan. Diniy ta'limotda dunyoning tuzilishi, yaratilishi tarixi 12 ming yillikdan iborat 4 bosqichga bo'linadi. Ularning har biri 3 ming yil davom etgan.



8.3.7-chizma.



8.3.8-chizma.

Qadimgi ajdodlarimizning ezgu g'oyalari va milliy davlatchilik an'analari aks etgan bu kitob faqat mustaqillik yillarida haqiqiy qadr-qimmat topdi. Respublika hukumati tashabbusi bilan YUNESKO ning 1999-yil noyabridagi bo'lib o'tgan 30-sessiyasida "Avesto" yaratilganining 2700-yilligini dunyo miqyosida nishonlash haqida qaror qabul qilindi. Shuningdek, "Avesto"ning insoniyat madaniyati rivojida, xalqimiz va milliy davlatchiligimiz tarixidagi ulkan ahamiyatini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Avesto" kitobi yaratilganining 2700-yilligini nishonlash to'g'risida" (2000-yil 29-mart, 110-sonli) qaror qabul qildi va 2001-yilda bu sana keng nishonlandi. VIII asrda Markaziy Osiyoga islom dini kirib kelib, keng tarqalguniga qadar zardushtiylik mahalliy xalqlarning asosiy dini hisoblangan.

Moniylik dinining asoschisi Surayk Patik (216-277) hisoblanadi. Keyinchalik unga Moniy – "Ruh" laqabi berilgan. Moniylik dinining asosini nur va zulmat o'rtasidagi azaliy kurash, nurning zulmat ustidan g'alaba qozonishiga ishonish g'oyasi tashkil etadi. Moniy o'zini "Samo nuri elchisi" deb hisoblagan hamda o'z ta'limotida odamlarni o'zaro urishmaslikka, mol-dunyo to'plamaslikka da'vat etgan.

Mazdakiylikning asoschisi Mazdak (470–529) bo'lib, bu din asosida xudo oldida har qanday inson teng, jamiyat boyliklari hamma uchun barobar degan g'oya yotadi. Shundan kelib chiqib, ijtimoiy tengsizlik yovuzlik alomati deb hisoblangan. Jamiyat a'zolari o'zaro yordam, adolat va tenglikka chaqirilgan. Boylikka ruju qo'yish, shaxsiy manfaatlar uchun kurash inkor etilgan. Bu din V asr oxirlarida Markaziy Osiyo va Eron hududlarida ijtimoiy tengsizlikni yo'qotish uchun kurash sifatidagi harakatga aylangan.

Yahudiyluk dini ta'limoti. Yahudiyluk dini bo'lgan iudaizm (Iuda qabilasi nomidan olingan) dini miloddan avvalgi 2-ming yillikning oxirlarida – 1 ming yillikning boshlarida vujudga kelgan. "Iudaizm" atamasi yahudiy qabilalari ittifoqiga kirgan (Ruvit, Simon, Livin va Iuda singari) 12 qabilaning eng katta nomidan olingan. Miloddan avvalgi X asrda ular Iuda qabilasi atrofida birlashtirilgan. Qabila vakili Dovud Isroil – yahudiy davlatining podshohi lavozimini egallagan. Yahudiylar o'troqlashgan davr Falastin davlati deb nomlangan va yahudiy davlati vujudga kelgan. Bu din yahudiy payg'ambari va qonunshunosi Muso sharafiga bag'ishlangan bo'lib, ba'zan Muso dini deb ataladi.

Yahudiy dini jahon diniga aylanmaganligining 2 sababi mavjud:

1) bu din marosimlari nihoyatda ko‘p, ularni bajarish nazoratga olingan;

2) bu dinda yahudiylar klassik (mumtoz) g‘oyasi zo‘r berib targ‘ib qilinib, yahudiylarning boshqa millat vakillari bilan nikohga kirishi man qilingan.

**Markaziy Osiyo hududida islomgacha quldorlik tizimi
yemirilishi arafasida keng tarqalgan dinlar**

1. Moniylik dini, ta'limoti (asoschisi Surayk Patal: 216–277)

Keyinchalik unga Moniy-Ruh laqabi berilgan. Zardushtiylik ichidagi yangi oqim bo‘lib, uning g‘oyasi:

1) Borliqning ikki substansiya ruhiy asosini:

A) yorug‘lik va zulmat (nurning zulmat ustidan g‘alabasi)

B) yaxshilik va yomonlik (urishmaslik, yomonlik qilmaslik)

D) ezgulik va yovuzlik tashkil qilgan

2) Bu din zardushtiylik va xristianlikning sintezi hisoblanadi.

3) Xristianlar moniylikdan missionerlik g‘oyasini o‘zlashtirgan

4) Hukmron mafkura qarshiligiga uchragan. U zardush ruhoniylari tomonidan jazolangan.

5) Pessimizm (hayotdan voz kechish)ni targ‘ib qilgan.

6) Odamlarni urushmaslik, mol-dunyo to‘plamaslikka da'vat qilgan.

2. Mazdakiylik V–VI asr (asoschisi Mazdak: 470–529) da u din ta'limoti Markaziy Osiyo va Eron hududida ijtimoiy tengsizlikni yo‘qotish g‘oyasi bilan bog‘liq:

1) U somoniylarga qarshi dehqonlar (huquqlarini himoya qilib)ga boshchilik qilgan.

2) Barcha insonlar Xudo oldida teng.

3) Adolat va tenglik, o‘zaro yordam g‘oyasi.

4) Jamiyat boyliklari hamma uchun barobar bo‘lishi kerak.

5) Jamiyatda ijtimoiy tengsizlik – bu yovuzlik alomati hisoblanadi.

6) Ezgulik va yovuzlik o‘rtasida kurash, yaxshilik bilan tugaydi.

7) Boyliklarga ruju qo‘ymaslik g‘oyasi va hokazo.

8.3.9-chizma

Diniy hayot yahudiy (Quddus) ibodatxonasida markazlashtirilgan. Mil.avv. X asrda Yahudiy davlati podshosi Yaxve (Quddus) ibodat-

xonasini qurdirgan edi. Podsho endi xudoning yerdagi o'g'li, vakili deb e'lon qilingan va mil. avv. 621-yilda din ishlari markazlashtirildi.

Mil.avv. 586 yili Vavilon podshosi Ierusalim shahrini bosib olib, yahudiylarning ma'lum qismini Vavilonga haydab ketadi. Mil. avv. 538-yili Eron podshosi Kir yahudiy asrlarini Falastinga qaytaradi. Ierusalim ibodatxonasi qayta tiklanadi.

Rim imperiyasi mil.avv. 66–70-yillarda yahudiy davlatini bosib olib, shafqatsiz jazoladi. Yahudiylar Falastindan haydab chiqariladi, ular turli mamlakatlarga tarqalib ketadi. Ular qaysi davlatda yashamasin o'z jamoasini tuzadi.

Ko'chmanchi yahudiy qabilalari dastlab ko'pxudolik (politeistik) e'tiqodlari va marosimlari asosida vujudga kelgan. Miloddan avvalgi 13-asrda Falastinni bosib olgandan so'ng dehqonchilik bilan shug'ullangan. So'ngra ko'chmanchi yahudiylar o'troqlashgan davri Falastin davri deb nomlangan. Miloddan avvalgi X asrda yahudiy davlati vujudga kelgan.

Iuda qabilasining xudosi Yaxve (Quddus)ga sig'inish joriy etilgan. Yahve butun olamni boshqaruvchi yagona xudo deb e'lon qilingan. Shu tariqa umumdavlat (X asr mil.avval.) diniga aylangan. Mil. avv. X asrda Yahudiy davlati podshosi Solomon hashamatli Yaxve (Quddus) ibodatxonasini qurdiradi. Yahve hayoti ham insonlar singari tasvirlangan, bir necha xotini va bolalari bo'lgan. Uning farzandlari yerga tushib go'zal qizlarga aylangan. Podsho endi xudoning yerdagi o'g'li, vakili deb e'lon qilingan. Tartib xudo tomonidan yerda o'rnatilgan.

“Yahudiylar bugun azob cheksada o'zlari aybdor, vaqti kelib Yahve ularni kechiradi, barcha xalqlardan ustun xalq bo'lib qoladi”, deyilgan.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, ***“Yurtimizda hukm surayotgan diniy bag'rikenglik muhiti tufayli mamlakatimizda 2 ming 200 dan ortiq turli diniy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Turli din vakillari o'rtasida o'zaro hurmat va do'stona munosabatlarni rivojlantirish, fuqarolar qaysi din va e'tiqodga mansubligidan qat'i nazar, ularning teng huquqligini ta'minlash***

bundan buyon ham eng muhim vazifalarimizdan biri bo'lib qoladi".⁶²

Rim imperiyasi yengilgach "Talmud" (yahudiycha "o'rganish") iudaizm g'oyasi diniy, huquqiy tasavvurlarni birlashtirgan diniy kitob yaratildi. Keyinchalik "Talmud"ga sharh bilan "Tavrot" deb nomlandi.

Iudaizm dinining muqaddas kitoblari

1. **Bibliya (yun. Biblia – kitoblar)** – Qadimgi Ahd va "Talmud"dir. Bibliya – "Qadimgi Ahd"ning 5 kitobi bo'lib, u "Musoning 5 kitobi" deb nom olgan. Bu 5 kitob:

- 1) **"Borliq" kitobi** – olam, inson Xudo tomonidan yaratilgan, gunoh qilmaslik, jannatdan haydalanish;
- 2) **"Chiqish" kitobi** – Musoning hayoti, faoliyati, misrliklardan ozod etish, xudoning 10 vasiyati;
- 3) **"Sonlar"** – qonunchilik, Yahudiylarning Misrdan olib chiqib ketilishi, to Falastin bosib olingangacha bo'lgan davr;
- 4) **"Lovi"** – oilaviy hayot haqidagi kitob;
- 5) **"Ikkinchi qonun"** – bu diniy qonunlar kitobi.

1. **Bibliya xristian dinining ham muqaddas kitobi** bo'lib, bu ikki dinning kitobi bir nom bilan atalsada 2 ga bo'linadi:

- 1) **Bibliya** – "Qadimgi Ahd" deb.
- 2) **Xristian dini kitobi** "Bibliya" esa "Yangi Ahd" deb ataladi.

8.3.10-chizma.

Isroil davlati tashkil topgach (1948-y.) iudaizm davlat dini deb e'lon qilindi. Iudaizm dinida Muso, Navin, Ibrohim, Ishoq kabi payg'ambarlar mavjud. Diniy ta'limotga ko'ra, xudo Yahve iudaizm qonun-qoidalarini Muso orqali odamlarga tarqatgan. Yaxve Musoga Misrda qul bo'lib yurgan yahudiylarni olib chiqib ketishda yordam beradi. Sino tog'ida 10 ta vasiyat bitigini beradi. Vasiyatda ajnabiy xudolarga sig'inmaslik, butxonalarni vayron etish, quyma xudo (but)

⁶² Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-1-jild. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017.-47-bet.

lar yasamaslik aytilgan. Axloq normalari: ota-onalarni e'zozlash, qotillik qilmaslik, aralash nikohlar, o'g'rilik, fohishalik, yolg'on guvoh berish, birov mulkiga ko'z olaytirish qoralangan.

Judaizm son-sanoqsiz buyruq, taqiq, marosimlarga ega. Har bir dindor 365 ta taqiqni, 248 buyruqni bilishi kerak. Chaqaloq 8 kunidayoq sunnat qilinishi lozim. Bu dindagilar tuya, cho'chqa, quyon go'shtini yemaydi. Yeyiladigan go'shtlarda qon dog'i bo'lmasligi kerak. Shanba kuni ishlamaslik, ovqat pishirilmaydi, olov yoqilmaydi, pulga qo'l tegizilmaydi. Pasxa bayrami, o'rim-yig'im, yangi yil bayrami, 7 kunlik kuz bayrami. Ayol kishi erining itoatkori. Har iudaist erkak ayol bo'lib yaratilmagani uchun duo o'qiydi. Ayol eriga itoat etuvchi qilib yaratilgani uchun xudoga minnatdorchilik bildiradi va hokazo.

“Sionizm” (Sion tog'i nomidan olingan) “Xudoning arzandasi” degan da'voni bayroq qilib olgan.

8.4. O'rta Osiyoga Buddaviylik va Xristianlik dinlarining kirib kelishi

Jahon dinlari: buddaviylik, xristianlik, Islom dinlari o'zining paydo bo'lgan hududdagina amal qilib qolmay, bu dinlar yer yuzining boshqa hududlarida ham o'z e'tiqod qiluvchilarini vujudga keltira olgan. Bu dinlarga e'tiqod qiluvchilar milliy, etnik, til, irq, tug'ilgan joyi, fuqarolik kabi xususiyatlarni hisobga olmaydi. Bir ijtimoiy iqtisodiy formatsiyadan ikkinchi bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaga o'tish davrida, jahon imperiyasi uchun jahon dini yaratish ehtiyoji tug'ilgan paytda paydo bo'ldi.


Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 24-yanvarda Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25-yilligiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqida shunday degan edi: *“Bizning Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda O'zbekiston Respublikamizning barcha fuqarolari millati, tili va dinidan qat'i nazar, teng huquq va erkinliklarga ega ekani mustahkamlab qo'yilgan. Ularga o'z milliy madaniyati, an'ana va urf-odatlarini saqlash*

hamda har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan".⁶³

1. **Buddaviylik** (Budda nomidan olingan) – diniy-falsafiy ta'limot, vujudga kelish jihatidan ilk jahon dini. Buddaviylik asoschisi – shahzoda Sidxartxa Gautama (mil.av. 567–488-yillarda) vafotidan so'ng "Haqiqat najotkori" — "Budda" deb atala boshlagan. Buddaviylik dini miloddan avvalgi VI asrda Hindistonda vujudga kelgan. Ya'ni miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalarida Hindistonda paydo bo'lgan.

Buddaviylik (sanskrit tilida budda – osoyishtalikka va buyuk haqiqatga erishgan degan ma'noni bildiradi). Bu dinning paydo bo'lishi Hindistonda davlat hokimiyatini (mayda knyazliklar) markazlashtirishga harakatlar kuchayishi natijasida vujudga kelgan.

Buddizm (sanskrit tilida Budda – osoyishtalikka va buyuk haqiqatga erishish)ning muqaddas manbalari, matnlari



8.4.1-chizma.

Hozirgi davrda Buddaning ko'zga ko'ringan nazariyotchisi va faylasufi Suzuki hisoblanadi.

Buddaviylikning asosi "Hayot – bu azob-uqubatdir" va "najot yo'li mavjud" degan g'oyadir. Buddaviylik qonuniyatlariga ko'ra, inson o'ziga moslashgan mavjudot bo'lib, o'zida tug'iladi, o'zini o'zi halok qiladi yoki qutqaradi. Bu narsa Buddaning ilk da'vatida mujassamlashgan 4 haqiqatda o'z ifodasini topgan

Birinchi haqiqat – "Azob-uqubat mavjuddir" (hayot iztiroblardan iborat). Tug'ilish – qiynoq, kasallik – qiynoq, o'lim – qiynoq, yomon narsaga duch kelish – qiynoq yaxshi narsadan ayrilish – qiynoq, o'zi xohlagan narsaga ega bo'lmaslik – qiynoq va hokazo.

⁶³ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-1-jild. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017.-296-bet.

Har qanday narsa, hodisa moddiy va ma'naviy bo'lsin Draxmalardan tuzilgan. Draxmalar mavjudlikning 5 ta formasini yaratadi: tana, sezgi, his-tuyg'u, harakat, anglash.

Ikkinchi haqiqat: “qiynoqlarning sabablari mavjuddir”. Azob-uqubat (hayot iztiroblardan iborat) – haqidagi ta'limot. Ya'ni iztiroblarning manbayi ehtiros va istaklarga to'la hayot.

Yaxshi yoki yomon niyatlardan tuzilgan hayot daryosi, orzular va intilishlar sababli kelajak hayot uchun karma hozirlaydi. Demak, qayta tug'ilish, yangitdan qiynoqlarga duchor bo'lish davom etadi.

Buddistlar fikricha, Buddadan keyin hech kim Nirvana (sanskrit tilida o'chish, so'nish) holatiga **Uchinchi haqiqat:** “Qiynoqlarni tugatish mumkin”. Azob-uqubatlardan ozod bo'lish haqidagi ta'limot. Ya'ni iztiroblardan nirvanaga erishish orqali xalos bo'lish. Bu qayta tug'ilishdan to'xtaydi. “Men” degan fikrdan ajraladi.

To'rtinchi haqiqat: qiynoqlardan qutulishning najot yo'li mavjud. Bu ta'limot yechimi

Najotning olijanob sakkizlik yo'li:

1) taqvodorlik e'tiqodi – to'g'ri e'tiqod, istak va ehtirolarni ongli ravishda cheklash;

2) taqvodorlik qat'iyati – to'g'ri yo'l, inson o'z hayot yo'lini to'g'ri tanlay bilish;

3) taqvodorlik so'zi – to'g'ri so'z, insonning gapi samimiy va adolatli bo'lishi;

4) taqvodorlik ishi – to'g'ri ish, kuch ishlatishga yo'l qo'ymaslik;

5) taqvodorlik turmush tarzi – to'g'ri – tinch, pokiza va adolatli bo'lishi;

6) taqvodorlikka intilish – to'g'ri fikr – inson o'z fikrining to'g'ri ekanligini nazorat qilish;

7) taqvodorlikni orzu qilmoq – to'g'ri niyat, yomonlikning jismimizda mujassamlashganligini bilish;

8) taqvodorlik fikri – xayoli bilan yashash – to'g'ri mushohada meditatsiya va mushohada qilishning to'g'ri yo'lini tanlash. Bu 8 narsaga amal qilish meditatsiya deb nomlanadi.

Buddaviylik ta'limoti asosan 3 qismdan iborat:

1. Meditatsiya (8 lik qoidasiga amal qilish).

2. Axloq.

3. Donolik.

Donishmandlik – bu buddaviylikning asosiy maqsadi bo‘lib, narsalar tabiatini to‘g‘ri tushunish.

Demak, najotning “olijanob yo‘li” taqvodorlik hayoti bo‘lib, uning mohiyati shundan iboratki, odam o‘zidagi har qanday hayotiy intilishni, har narsaga ko‘ngil qo‘yishni so‘ndirish, batamom taqvodorlik (tarkidunyochilik, zohidlik) yo‘liga o‘tishi, hatto yaqinlashib qolgan najotdan ham quvonmaslik. Najotning bu 8 lik yo‘liga amal qilgan odam oxir-oqibatda yuksak kamolotga erishadi.


Buddaviylikda olam 3 bosqichli deb ta’riflanadi

1. Eng yuqori nirvana (o‘chish, so‘nish)dir. Bu mutlaq osoyishtalik hukm suradigan olam. U yerda inson barcha turmush tashvishlaridan xalos bo‘ladi. Uning hayotiy istaklarini ham, tuyg‘ulari ham, ehtirolari ham bo‘lmaydi. Jonning ko‘chib yurishi, mutlaq osoyishtalik. Demak, buddaviylikda jon abadiy emas.

2. Ikkinchi olam – bu bodisatvadir, ya’ni ruhiy mavjudotlar bilan to‘lgan jannatdir. Unda Amitabhma (5 ta oliy buddaning biri jannatning yaratuvchisi). Bu olamda ruh gunohdan xalos bo‘lgan, lekin eng oliy olamga ko‘tarilmagan avliyolar yashaydilar. Olamning shu qismidan kishilarga yo‘l ko‘rsatish uchun Buddha ta’limoti yuboriladi, deyiladi.

3. Uchinchi olam – bu eng quyi olamdir. Unda odamlar va hayvonlar yashaydi. Olamning bu qismida ruh qafasda yashaydi. U changaldan qutulish va yuqori olamga ko‘tarilishga harakat qiladi. Ruh o‘z-o‘zidan emas, balki odamlarning savobli ishlari orqaligina ko‘tariladi. Agar odamlar buddaviylikka e’tiqod qilsalar, ularning joni bir necha qayta tug‘ilishlardan so‘ng jannatga va so‘ngra nirvanaga ko‘tariladi. Yomon kishilarning ruhlari esa quyi dunyoda azoblanib qafas ichida yuraveradi. Yuqori olamga ko‘tarila olmaydi.

Buddaviylik ta’limotiga ko‘ra, o‘lim insonni azob-uqubatlardan xalos eta olmaydi. Chunki o‘limdan keyin ham insonni qayta tug‘ilish kutadi.



8.4.2-chizma.

Buddizmda ikki asosiy yo‘nalish mavjud:

1) xina yana (kichik arava ma’nosini bildiradi).

2) maxayana – bu juda ko‘p sekta va mazhablarga bo‘linadi. Katta arava ma’nosini bildiradi.

Buddizmga bugungi kunda taxminan 500 milliondan ortiq kishilar e’tiqod qiladi.

Umuman, buddaviylik dini Markaziy Osiyo, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida va Uzoq Sharqda tarqalgan. Hozirgi kunda buddizm Shri Lanka, M’yanma (Birma), Tailand, Laos, Kambodje, Butan va Yaponiya kabi davlatlarning, Tibetning asosiy dinidir. Buddizm muayyan tarixiy davrlarda Xitoy, Hindiston, Koreya va Indoneziyada, deyarli butun Osiyo xalqlari, ya’ni jahonning salkam uchdan ikki qismi aholisi ma’naviy qadriyatlariga katta ta’sir ko‘rsatgan.


Shunday qilib, buddaviylik eramizdan avvlgi 1 ming yillikning oxirlarida Shri-Lanka va O‘rta Osiyo hamda Old Osiyoni o‘z ichiga olgan Kushon imperiyasiga kirib keldi. Bizning diyorumizda olib borilgan arxeologiya qazish ishlari asnosida O‘ratepa, Dalvarzintepa, Quva, Zartepa, Qorovultepa, Ayritom mavzalaridan topilgan. Shak-yamuni sanamlari, hayvon haykalchalari, ramziy g‘ildiraklar va stupa qoldiqlarining guvohlik berishicha, Kushon imperiyasida buddaviylikka katta ahamiyat berilgan.

2. Xristianlik dini buddaviylik va islom dinlari qatorida jahon dini hisoblanadi. Bu din o‘ziga e’tiqod qiluvchilarning soni jihatidan jahon dinlari orasida eng yirigi hisoblanadi. Unga e’tiqod

qiluvchilarning soni 2 milliarddan ortiq. Bu son dunyo aholisining deyarli uchdan biriga to'g'ri keladi.

Xristianlik dini asosan Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya qit'alarida hamda qisman Afrika qit'asining janubiy qismida va Osiyo qit'asining sharqiy qismida tarqalgan.

Xristianlik eramizning boshlarida Rim imperiyasining sharqiy qismida Falastin yerlarida vujudga keldi. Iso Masih (Iisus Xristos) Bibliyaning xabar berishiga ko'ra, xristianlik ta'limotining asoschisi bo'lib, u Rim imperiyasi tashkil topganining 747-yili Falastinning Nazaret qishlog'ida bokira qiz Maryamdan Xudoning amri bilan dunyoga keldi. Yangi eraning boshlanishi ham Iso Masihning dunyoga kelishi bilan bog'liq.



8.4.3-chizma.

Xristianlik IV asr boshlariga kelib, Rim imperiyasining davlat diniga aylangan va 325-yilda Rim imperatori Buyuk Konstantin tomonidan Birinchi Nikey soborida davlat dini sifatida e'tirof etilgan. Xristianlikning asosiy g'oyalardan biri – Iso Masih (Xudo O'g'il)ning samodan yerga tushib, odamlarni dastlabki gunohdan xalos etish uchun

qiynoqlarga va o‘limga rozi bo‘lgani, ya’ni tirilib, osmonga ko‘tarilib ketgani haqidagi ta’limotdir.


Xristianlikdagi 3 yo‘nalish

1. Katoliklik, katolitsizm (yun. umumiy, jahon, koinotga oid) – xristianlikdagi diniy oqimlardan biri. Katoliklik faqat muqaddas yozuv (Bibliya)ni emas, balki muqaddas rivoyatni ham o‘z ta’limotining manbai sifatida e’tirof etadigan g‘oyalar ta’sirida shakllandi. Unga ko‘ra, Rim papasi Isoning erdagi noibi, uning hokimiyati esa jahon ibodatxonalari hokimiyatidan yuqori hisoblanadi. Ruhoniylarning uylanmasligi Bibi Maryamni bokira bo‘la turib Isoni tug‘ishi, Isoning vaqtincha osmonga ko‘tarilib ketganligini e’tirof etadi. Katolik cherkovi yagona markazi – **Vatikan** davlatiga ega, uning boshlig‘i esa Rim papasidir. Asosan 800 milliondan ziyod odamlar e’tiqod qiladi. Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Fransiya, Belgiya, Polsha, Vengriya, Chexiya, Slovakiya, Boltiq bo‘yi mamlakatlari, Avstraliya, Lotin Amerikasi davlatlarida yashaydi, shu oqim tarafdori. Katoliklar Muqaddas Ruh-Xudo ham Ota-Xudodan, ham O‘g‘il-Xudodan kelib chiqqan deb hisoblaydi.

2. Pravoslavi – Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Bolqon mamlakatlarida keng tarqalgan xristianlikdagi yo‘nalish. Uning ta’limotini asosiy muqaddas yozuv (bibliya) va muqaddas rivoyatlarga ishonch tashkil etadi. Bu oqim olamning yaratuvchisi va boshqaruvchisi muqaddas uchlik (troitsa)dan iborat yagona xudo ekanligi, narigi dunyo to‘g‘risidagi, dastlabki gunoh tufayli azob-uqubatlarga duchor qilingan insoniyatni najot topishga imkon beruvchi Iso-Masihning xaloskorlik missiyasi haqidagi aqidalarni tan oladi. Cherkov Xudoga va odamlar o‘rtasidagi vositachilik roliga e’tibor beradi. Bu oqimda 7 sirli marosimi mavjud. Muqaddas ruh faqat Ota-Xudoga – e’tirof etilmaydi. Pravoslaviyada yagona markaz, yagona boshliq yo‘q. 15 mustaqil cherkov mavjud. Pravoslavlar esa, Muqaddas Ruh-Xudo faqat ota-xudodan kelib chiqqan, degan ta’limotni tan oladi.

3. Protestantizm (“protest – narozilikni bildiradi”) – xristianlikdagi uch yo‘nalishdan biri. Katoliklarga qarshi reformatsiya davrida vujudga kelgan, mustaqil cherkov va sektalarni o‘z ichiga oladi. Cherkovlarni tugatmay, uni “tuzatish”, isloh qilish, o‘z manfaatiga muvofiqlashtirish maqsadini qo‘ygan. Bu oqim Xudoning borligi,

uning uch qiyofada namoyon bo‘lishi, jonning o‘lmasligi, jannat va do‘zah haqidagi vahiy va boshqalar to‘g‘risidagi umumxristian tasavvurlarni e‘tirof etadi. Bu oqim 3 ta yangi prinsip: 1) shaxsiy e‘tiqod bilan najot topishi; 2) dinga ishonuvchi barcha kishilarning ruhoniy bo‘lish mumkinligi; 3) Bibliyaning oliy nufuzi uni yaxshilik qilish qobiliyatidan mahrum etadi. Shuning uchun u xayrli ishlar bilan emas, asketizm yo‘li bilan emas, gunohini so‘rab olish uchun o‘zini qurbon qilgan Isoga shaxsiy e‘tiqod qilish bilan gunohlardan ozod bo‘lish mumkin emish.



8.4.5-chizma.

Protestanizmدا ruhoniylar bilan qavm o'rtasidagi aqidaviy farq tan olinmaydi, cherkov iyerarxiyasi rad etiladi. Ruhoniylar qavmlarini gunohlardan forig' etish huquqidan mahrum bo'lib, u jamoaga hisob beradi. Samoviy huzur-halovat ta'limotini rad etadi. O'lganlarga bag'ishlab duo o'qish, avliyolarga sig'inish, ular sharafiga bayramlar o'tkazish, murda va butlarga topinish bekor qilindi. Ibodat uylari ortiqcha bezashlardan, qo'ng'iroqlardan olib tashlandi. Muqaddas rivoyatlar rad etildi. Hozirgi vaqtda bu oqim tarafdorlari Skandinaviya mamlakatlarida, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Kanada, Shvetsariya keng tarqalgan. Protestanizmning jahon markazi – AQSHda joylashgan. Xristianlik ta'limotiga ko'ra, kelajakda Isoning ikkinchi marta qaytib kelishi kutiladi. Bu din ahliga Isoning o'gitlariga, vasiyatlariga amal qilish, hayot mashaqqatlariga u kabi bardosh berish kerakligi, buning evaziga, ular kelajakda, narigi dunyoda ajr (mukofot)ga erishishlari to'g'risidagi fikr singdiriladi. Xristianlik mafkurasining tarkib topishiga sharq diniy e'tiqodlari, yahudiylarning messianizm xarakteridagi sektalar, yahudiy-yunon falsafasi hamda o'sha davr stoiklari qarashlari sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Iso o'giti: jannat va do'zah mavjud, jonning o'lmasligi.

Dastlabki xristianlikda keyinroq paydo bo'lgan uchlik (troitsa), dastlabki gunoh, xudoning zuhr bo'lishi, cho'qintirish marosimi, non va vino totish marosimi haqidagi tasavvurlar va boshqa aqidalar ma'lum emas edi. Xristianlik aqidalarining shakllanish jarayoni bir necha asrlarga cho'zildi. Uning Nikey va Konstantinopol jamoa soborlari ishlab chiqqan qonun-qoidalar ko'p marta to'ldirildi va o'zgartirildi.

Salb yurishlari vaqtida Sharqni talab orttirilgan boylik G'arbiy Yevropa feodal jamiyatining rivojiga va pul-tovar munosabatlarining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

8.5. Vijdon erkinligining huquqiy asoslari

Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

*O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasining 31-moddasi.*

Vijdon erkinligi insonning xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqini ta'kidlovchi, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1981-yil 25-noyabrda qabul qilingan 36-55-Rezolyutsiyasida qayd qilingan insonning asosiy huquqlaridan biri. Mazkur huquq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-

ning 31-moddasida qayd qilingan va 1998-yil 1-mayda hamda № O'FQ – sonli 2021-yil 5-iyuldagi qayta tahrirda qabul qilingan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi qonun tomonidan tartibga solingan. Mazkur qonunning 1 va 4-moddalari fuqarolarga o'zlarining dinga bo'lgan munosabatini erkin belgilash, marosim va udumlarni bajarish va qonun oldida dinga bo'lgan munosabatlaridan qat'iy nazar, barchaning tengligiga kafolat beradi. O'zbekistonda din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan. O'zbekiston Respublikasida kuch ishlatishni targ'ib qilish, millatlar va diniy tashkilotlar orasiga nizo solish uchun dindan foydalanish va konstitutsiyaviy tuzum asoslariga qarshi qaratilgan harakatlar man etiladi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, **“Ma'lumki, yurtimizda vijdon va e'tiqod erkinligi, turli millat vakillarining huquqlari keng kafolatlanib, diniy bag'rikenglik muhiti mustahkamlanmoqda”**.⁶⁴

O'zbekiston davlatining din sohasidagi siyosati BMT Nizomidan tortib, barcha xalqaro hujjat va shartnomalar bilan bog'liq bo'lgan ana shu Deklaratsiyaning asosiy tamoyillariga mos tushadi. Dunyoviy davlatimizning din sohasidagi siyosati turli dunyoqarash, e'tiqodi bo'lgan kishilar o'rtasidagi, davlat bilan din, diniy tashkilotlar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarning amalda huquqiy ta'minlanishini nazarda tutadi. Davlat qonunlarida diniy e'tiqod har kimning xususiy ishi deb belgilangan.

⁶⁴ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -1-jild. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017.-138-bet.

Diniy tashkilotlarning huquqiy

1. 1948-yil 10-dekabrda "Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi"ning 18–19-moddalari bilan bog'liq.

2. 1991-yil 14-iyunda (mustaqillikkacha) "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunda diniy tashkilotlar tuzish ta'kidlanadi...

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining (1992-yil 8-dekabr) 18, 29, 31, 61-moddalarida bayon qilindi.

4. 1993-yil 3-sentabrda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunga ba'zi bir qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi hamda u 1998-yilga qadar amalda bo'lib keldi. 1990-yillarning boshlarida hukumatimiz tomonidan berilgan imkoniyatlarning suiiste'mol qilinishi, masjid qurish kompaniyaga aylanib ketishi oqibatida ularning soni 89 tadan 5 mingtaga yetdi. Ularning aksariyati hujjatlari to'liq ramiylashtirilmagan (95,8 foiz diniy ma'lumotsiz) va zarur sharoitlar bo'lmagan holda faoliyat yurguzib, turli "peshvo"lar masjidlardan g'arazli manfaati yo'lida foydalanganlar.


5. 1998-yil 1-mayda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunning yangi tahririga muvofiq bir qator o'zgartirishlar kiritildi. U 33 moddadan iborat.

6. 2021-yil 5-iyuldagi № O'RQ – 699-sonli "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

7"Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun (2018-yil 30-iyul) qabul qilindi.

8.5.1-chizma.

Har bir inson fikri, vijdon va din erkinligi huquqiga ega; bu huquq o'z dini yoki e'tiqodini o'zgartirish erkinligini va ta'limotda, toat-ibodat qilishda va diniy rasm-rusum hamda marosimlarni ommaviy yoki xususiy tartibda ado etish, o'z dini yoki e'tiqodiga yakka o'zi, shuningdek, boshqalar bilan birga amal qilish erkinligini o'z ichiga oladi.
Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi 18-modda.



8.5.2-chizma.

“Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni (2021) har bir fuqaroga sanab o‘tilgan 3 imkoniyatdan xohlaganini, ongli ravishda tanlab olishini kafolatlaydi.

Parlamentimiz tomonidan 2021-yil 5-iyulda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun yangi tahrirda ishlab chiqildi va qabul qilindi. Bu Qonun 6 bob 35 moddadan iborat. Qonun vijdon erkinligi me‘yorlarini aniq ko‘rsatib, fuqarolarning xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmasligini ta‘minlaydi. Shuningdek, har qanday dinga zo‘ravonlik bilan kiritishni taqiqlaydi.

Demokratik davlatlar qatorida, qonun ustuvorligi tamoyilidan kelib chiqib, O‘zbekistonda ham dinning siyosatga aralashishi hamda dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda aniq ko‘rsatilgan.

Qonunni tayyorlashda bu boradagi xalqaro me‘yor va talablar, birinchi navbatda, **Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro fakt** hamda BMT ning Inson huquqlari bo‘yicha qo‘mitasining **umumiy tartibdagi sharhlari** puxta o‘rganilib, ulardagi asosiy qoida va tamoyillar inobatga olindi.

Yurtimizda tarixan shakllangan an‘ana, urf-odat va qadriyatlarni hisobga olgan holda, Qonunda hamkorlarimiz – Yevropa Kengashi-ning Venetsiya komissiyasi, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik

tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar ekspertlari tomonidan berilgan tavsiyalar o'z aksini topdi.

Qonunda prinsipial yangiliklar haqida gapirganda, ular diniy-ma'rifiy sohada olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlarning izchil davomi sifatida, avvalo, har bir insonning vijdon erkinligini ta'minlash uchun qulay shart-sharoitla yaratishga, huquqni qo'llash amaliyotiga aniqliklar kiritishga alohida e'tibor qaratilganini qayd etish lozim.

Qonunda quyidagi yangiliklar, o'zgartishlar kiritildi:

Birinchidan, Qonun asosida diniy tashkilotlarni ro'yxatdan o'tkazish va tugatish bilan bog'liq tartib soddalashtirilib, bu borada muhim yengilliklar joriy etildi. Xususan, mahalliy diniy tashkilotlar, jumladan, masjidlar va boshqa konfessiyalarning ibodatxonalarini tashkil etish bo'yicha tashabbuskor fuqarolar soni 2 barobar kamaytirilib, **50 nafardan kam bo'lmagan** etib belgilandi. Shuningdek, diniy tashkilotning markaziy boshqaruv organi va diniy ta'lim muassasalarini tuzish uchun ham **100 nafar** tashabbuskor bo'lishi haqidagi talab bekor qilindi.

Diniy tashkilotni davlat ro'yxatidan o'tkazish bilan bog'liq xizmatlar to'liq elektron shaklda, inson omilisiz amalga oshirilishi joriy etildi. Ro'yxatdan o'tkazuvchi adliya idoralariga taqdim etiladigan hujjatlar soni keskin qisqaradi, ularni ko'rib chiqishning muddati esa 3 barobarga kamaydi, ya'ni 3 oydan 1 oyga tushirildi. Bu bilan diniy tashkilot tuzish tashabbuskorlariga qulay, tez va sifatli xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratildi, ortiqcha byurokratik to'siqlar bartaraf etildi⁶⁵.

Diniy tashkilotni davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish asoslari Qonun bilan belgilanib, unda ko'rsatilmagan asoslarga ko'ra rad etishga yo'l qo'yilmasligi ta'minlandi.

Shu bilan birga, diniy tashkilotning faoliyatini to'xtatib qo'yish va tugatish faqatgina sud orqali bo'lishi, ro'yxatdan o'tkazadigan va boshqa davlat organlari bunga haqli emasligi, mansabdor shaxslarning muayyan diniy tashkilot qonuniy manfaatlarini buzuvchi xatti-harakatlari ustidan sudga murojaat qilganda, diniy tashkilot davlat

⁶⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 iyuldagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun //: "Xalq so'zi", 2021 yil 6 iyul.

bojini to'lashdan ozod etilishi kabi **qo'shimcha kafolatlar** nazarda tutildi. Bu ham ilgari tariximizda bo'lmagan mexanizmlardir.

Ikkinchidan, diniy ta'limning professional maqomi rasman e'tirof etildi, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning, dinga bo'lgan munosabatidan qat'i nazar, dunyoviy ta'lim olish huquqi ta'minlanishi qayd etildi.

Har qanday shaxsning "o'zicha" aholiga diniy ta'lim berishi noan'anaviy aqidalarning tarqalishiga, mutaxassis bo'lmagan shaxslar tomonidan sof diniy masalalar bo'yicha biryozlama tushunchalar berilishiga olib keladi.

Bu esa jamiyatda diniy masalalar bilan bog'liq ixtiloflar kelib chiqishiga, aholining yot g'oya va qarashlar ta'siriga tushishiga sabab bo'ladi. Shu maqsadda, diniy ta'lim muassasasidan tashqarida diniy ta'lim berish **noqonuniy faoliyat sifatida** belgilandi.

Uchinchidan, amaldagi qonunchilik hujjatlarida "ibodat libosi" tushunchasining huquqiy ta'rifi mavjud emasligi sababli jamoat joylarida ibodat libosida yurishga taqiq Qonundan chiqarib tashlandi. Shu bilan birga, amaldagi boshqa qonunchilik hujjatlariga asosan, davlat ularning ichki hujjatlari bilan tartibga solinadi.

To'rtinchidan, diniy tashkilotni tuzish uchun talab etib kelingan mahalla fuqarolar yig'inlari roziligini olish tartibi bekor qilindi. Diniy tashkilot tuzish tashabbuskorlari **ortiqcha xat-hujjatlarni** yig'ishdan xalos bo'ldilar.

Beshinchidan, bugungi kunda dunyoning ko'pgina mintaqalarida notinch vaziyat hukm surayotgani tufayli diniy omildan g'arazli maqsadlarda foydalanish kuchayib borayotganini inobatga olib, O'zbekiston hududida buzg'unchi g'oyalarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik uchun diniy mazmundagi bosma audio va video mahsulotlarni ekspertizadan o'tkazish dolzarb bo'lib kelmoqda. Qonunda turli yot qarashlarni targ'ib qilayotgan guruhlarining faoliyati, ular tomonidan tarqatilayotgan buzg'unchi g'oyalarning salbiy ta'siridan aholini himoya qilish maqsadida diniy mazmundagi materiallarni dinshunoslik ekspertizasining ijobiy xulosasini olgandan keyin tayyorlash, olib kirish va tarqatish belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari, davlat idoralari tomonidan qonun normalari noxolis talqin qilinishi va turlicha qo'llanishining oldini olish maqsadida **atama va tushunchalarga ta'riflar** keltirildi, ular aniq va

ravshan tarzda bayon etildi. Negaki, qonun atamalarining noto‘g‘ri talqin qilinishi natijasida turli tushunmovchiliklar, masalaga noxolis yondashuv holatlari vujudga kelishi mumkin. Shu kabi omillardan kelib chiqib, Qonunda har bir insonning Konstitutsiyamiz bilan kafolatlangan huquqlariga mos ravishda, fuqarolarga diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmasligi qat’iy belgilandi. Ushbu qo‘shimchalar jamiyatda turli konfessiyalar o‘rtasida o‘zaro do‘stlik va hamjihatlik aloqalarini yanada mustahkamlashga, yuz berishi mumkin bo‘lgan turli tushunmovchiliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Qonunda diniy qarashlar va ta‘limotlarning turlicha talqin qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida “noqonuniy diniy faoliyat” bilan “qonuniy diniy faoliyat” o‘rtasidagi chegara aniq belgilab qo‘yildi, hamda “diniy ta‘lim” tushunchasiga huquqiy jihatdan aniqlik kiritildi.

Shuningdek, Qonun bilan belgilab qo‘yilayotgan vijdon erkinligini ta‘minlash sohasidagi asosiy ustuvorliklar konfessiyalar o‘rtasida tinchlik va totuvlikni ta‘minlash, dunyoviy davlatchilik tamoyilini kafolatlash, shuningdek, aholi ongi va qalbiga yot g‘oyalarning singdirilishiga qarshi ma‘rifat yo‘li bilan kurashishni nazarda tutadi.

Qonunda fuqarolarning huquqlarini ro‘yobga chiqarish va jamiyatda tinch-totuvlikni ta‘minlashga, fuqarolarning munosib hayot kechirishiga shart-sharoit yaratishga davlatning kafil ekani qayd etildi.

Albatta, bu Qonun diniy bag‘rikenglik va konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlashga, dinning asl mohiyatini anglashga, buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi immunitet hosil qilishga, ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligini ta‘minlashga munosib hissa qo‘shadi.

Umuman olganda, ushbu Qonun inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlar bilan kafolatlangan, diniy sohada umume‘tirof etilgan huquq va erkinliklar, yurtimizdagi hozirgi diniy vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlari va bevosita O‘zbekistonda dinlararo munosabatlar shakllanishining tarixiy sharoitlarini o‘z ichiga olgani bilan ahamiyatlidir.

Qonun turli dinlarga e‘tiqod qiluvchi mamlakatimiz fuqarolari o‘rtasidagi o‘zaro do‘stlik va hamjihatlikka asoslangan munosabatlarni saqlab qolishi va yanada mustahkamlash, ularning diniy e‘tiqod bilan bog‘liq qadriyatlari, urf-odat va an‘analari hurmat qilinishi hamda to‘liq ta‘minlanishini kafolatlaydi. Bu esa, hech shubhasiz,

yangi O‘zbekistonni barpo etish va uni dunyoga tarannum qilishning eng muhim sharti va garovidir.

Xulosa qilib aytganda, yangi tahrirdagi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi 2021-yil 5-iyulda kuchga kirgan qonunni hayotga tatbiq etish va sohaga oid amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar natijasida diniy tashkilotlarni ro‘yxatga olish hamda ularga rahbarlik qilish, noan‘naviy diniy oqimlar yoyilib ketishining oldini olish, diniy ta‘lim tizimini takomillashtirish, shuningdek, diniy adabiyotlarni chop etish va tarqatish kabi diniy hayot barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan vazifalarni bajarish uchun zamon talablariga mos huquqiy mexanizm yaratildi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Din falsafasi va dinlarning tasnifini bayon eting.
2. Dinlarning ijtimoiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Dinning asosiy funksiyalarini gapirib bering.
4. Diniy ong nima?
5. Ma‘naviyat va din uyg‘unligini izohlab bering.
6. Diniy e‘tiqod tushunchasi.
7. Dinning jamiyatdagi vazifasi.
8. Diniy e‘tiqod va urf-odatlarining uyg‘unlashuvi.
9. Konfutsiyachilik falsafiy ta‘limoti.
10. Avesto zardushtiylik muqaddas kitobi.

Testlar:

1. 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasining millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaati va amaliy ruhdagi tashqi siyosat deb nomlangan soha nechanchi yo‘nalishni tashkil etadi?

- A) Beshinchi yo‘nalish
- V) Ikkinchi yo‘nalish
- S) Uchinchi yo‘nalish
- D) Birinchi yo‘nalish

2. Din jamiyatda qanday vazifani bajaradi?

- A) Milliy va jahon dinlari ta'limotlari haqida bilim berish
- B) Faqat dunyoviy o'zaro munosabatlarni yoritish
- C) Faqatgina milliy dinlar haqida tushuncha berish
- D) Sekulyarizatsiya (lot. dunyoviylik) prinsipini chetlab o'tish g'oyasini ilgari surishi

3. Din falsafasining ijtimoiy vazifasini toping.

- A) Integratorlik, regulatorlik, kompensatorlik, legitimlik vazifalarni bajaradi
- B) Gnossologik, integrasiyalovchi, futurologik, prognostik vazifalarni bajaradi
- C) Pragmatistik, eksiztensiyalistik, ratsionalistik vazifalarni bajaradi
- D) Demokratik, liberalistik, monarxistik vazifalarni bajaradi

4. Buddizmning muqaddas manbalari, matnlari qaysilar?

- A) Suttapitaka (duolar), Abxidxammapitaka, "Lalitavistara" (Budda hayoti), "Tripitaka" (Uch savet donolik), "Vinopitaka" (Axloqiy me'yorlar)
- B) Visprat, Yasnya, Videvdat, Yasht
- C) "Borliq", "Chiqish" kitoblari, "Sonlar kitobi", "Loviy"
- D) "Qadimgi Ahd", Tripitaka "Ikkinchi qonun", Suttapitaka

5. Xristianlikning asosiy yo'nalishi qaysilar?

- A) Katoliklik (katolisizm), pravoslaviya, protestanizm
- B) Muayyan shaxs xudoga ishonishi, xohlagan dinga e'tiqod qilish mumkin
- C) Xudoga va dinga ishonmasligi, ularga nisbatan betaraf bo'lish mumkin
- D) Dahriy, ya'ni hech bir dinga e'tiqod qilmasligi yoki ularni inkor etishi mumkin

Esse mavzulari:

1. Din falsafasi.
2. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari.

3. Dinlarning tarixiy ildizlari va shakllari.
4. O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan diniy konfessiyalar va tashkilotlar.
5. Vijdon erkinligining huquqiy asoslari.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qodirov A.Q., Norbekov A.V. Dinshunoslik. Ma’ruzalar matni. –T., 2003.
2. Norbekov A.V. Dinshunoslik asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008. – 240 b.
3. Len Woods. Handbook of World Religions. Barbour Publishing, Ohio. 2008. – 266p.
4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 80 b.
5. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun. Xalq so‘zi. 2020-yil 24-sentabr.
6. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni, 2021-yil 6-iyul.
8. I. Saifnazarov, T. Sultonov, J. Ilhomjonov, R. Xalimmetova. “Dinshunoslik”. O‘quv qo‘llanma. –T.: “IQTISODIYOT”, 2019. –220 b.

9-MAVZU. ISLOM TA'LIMOTI ASOSLARI. ISLOMDAGI MAZHAB VA YO'NALISHLAR

Reja:

- 9.1. Islom ilohiyoti, uning asosiy aqidalari. Kalom falsafasi.
- 9.2. Islom dinining muqaddas manbalari. Tasavvuf (sufizm) ta'limoti va tariqatlari.
- 9.3. Islomdagi mazhablar va yo'nalishlar.
- 9.4. O'zbekiston allomalarining islom ta'limoti va dunyoviy fanlarni rivojlantirishdagi tarixiy xizmatlari.

9.1. Islom ilohiyoti, uning asosiy aqidalari. Kalom falsafasi

Johiliya (arab. – bilimsizlik, jaholat) – **arablar tarixining islomdan ilgarigi davriga berilgan nom**. Johiliya tushunchasi Qur'onning bir necha suralarida uchraydi. ("Oli – Imron", 154; "Moida", 50; "Azzob", 33; "Fath", 26). Atamaning paydo bo'lishiga muayyan sabablar bo'lgan. Zero, islomdan oldingi arablarning ko'pchiligi **"jahl" tuyg'usiga xos bo'lgan**.


Bu boshqalarga nisbatan beshafqat va vahshiyona munosabatda bo'lishda o'z ifodasini topgan (qasos olish zarurati, go'dak qizlarni tiriklayin ko'mish, o'zga qabila vakiliga dushman sifatida qarash va boshqa). Johiliya arablari narigi dunyoga ishonmagan. Islom g'alabasidan so'ng ular dahriylar yoki mushriklar (Allohga boshqa xudolarni sherik qiluvchilar) degan nomlarni olgan. Islom vujudga kelishi arafasida Janubiy Arabiston aholisining e'tiqodida katta o'zgarishlar yuz berdi. Arabiston yarim orolining janubida ham, shimolida ham aksariyat aholi har xil but-sanamlarga sig'inardi, ya'ni ko'pxudolik e'tiqodida edi. Ammo arablarning butparastligi faqat totemizm, fetishizm kabi ibtidoiy, ilk din shakllari emas, balki uzoq yo'lni bosib o'tgan, nisbatan rivojlangan ko'pxudolik edi. Totemizmning yaqqol dalili sifatida arab qabilalarining nomini keltirish kifoya: asad (arslon), kalb (it), bakr (bo'taloq), sa'lab (tulki), zib (bo'ri) va hokazo. Fetishizm qadimgi arablarda asosan meteorit va vulqoniy toshlarni muqaddaslashtirish, ularga

sig‘inishda o‘z ifodasini topdi. “Johiliya” adabiyotida marhumlar-ning “joni” yoki “arvohi” haqida ko‘plab rivoyatlar bor. Ba’zi badaviy qabilalar qadimgi misrliklar singari inson vafotidan so‘ng, uning “joni” yashashda davom etishiga ishonganlar.

Sharq Uyg‘onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy (873–950) “Fozil odamlar shahri” risolasida shahar davlatini ikki toifaga: fazilatli Madina shahri va fazilatsiz (jaholatli) Madina shahriga bo‘lib, ularning har biriga izoh berib o‘tadi. Forobiy “aholilarining diniy e‘tiqodlari xurofiy, xato dunyoqarashlarga asoslangan shaharlarni jaholatdagi yoki adashgan shaharlar deymiz”⁶⁶, deydi.

Fozillar shahrining ziddi bo‘lgan shaharlar:

1. Johillar shahri. *Qur’oni karim johiliya davridagi*
2. Benomuslar shahri. *barcha salbiy, jaholat holatlariga*
3. Ayirbosh qiluvchilar shahri. *barham berib, oilani mustahkamladi.*
4. Adashgan, zalolatdagi odamlar shahri.



9.1.1-chizma.

⁶⁶ Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2016.- 261-bet.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev **“Jaholatga qarshi ma’rifat va ta’lim-tarbiyani kuchaytirish bilan kurashish zarur ekanini ta’kidladi”** (1-jild, 428-bet) .

Diniy nuqtayi nazarga ko‘ra, din ilohiy kuchlarga, xudoga, payg‘ambarlarga, farishtalarga, muqaddas kitoblarga, oxiratga, butun yaxshi-yomonlik Yaratganning irodasi bilan bo‘lishiga ishonmoqlik, shayton va iblislardan saqlanishdir.

Islom dini payg‘ambar Muhammad ibn Abdulla (s.a.v.) tomonidan (s.a.v.) Arabistonda targ‘ib etilgan.

Islom diniga e’tiqod qiluvchilar arabcha “muslim” (“sadoqatli”;

ko‘pligi “muslimun”) deb ataladi. “Muslim”, “muslimun” so‘zini boshqa xalqlar orasida o‘zgacha talaffuz

“Islom” so‘zi ma’nolari

1. Itoat va bo‘ysunish.
2. Ixlos va turli ofatlardan salomat bo‘lish.
3. Sulh va omonlik.
4. Alloh buyurgan diniy e’tiqodga iymon keltirish.


etish (masalan, forslarda – musulmon, o‘zbeklarda – musulmon, qirg‘iz va qozoqlarda – musulmon, Ukraina va Rossiyada – musulman) natijasida bu dinga e’tiqod qiluvilar turli nom bilan ataladi. Lekin bularning ichida hozir musulmon iborasi keng tarqalgan.

Jahonda 1,77 mld (2017) kishi Islomga e’tiqod qiladi. Musulmonlarning uchdan ikki qismining ko‘prog‘i Osiyoda yashaydi va bu qit’a aholisining 20 foizdan ortiqrog‘ini tashkil etadi. Qariyb 30 foiz musulmonlar Afrikaga to‘g‘ri keladi (qit’a aholisining deyarli yarmi). Dunyoda musulmon jamoalari mavjud bo‘lgan 120 dan ortiq mamlakatdan 35 tasida aholining aksariyat qismi musulmonlardan iborat.

Shimoliy Afrika, G‘arbiy Osiyoning barcha mamlakatlari (Kipr, Livan, Isroil mustasno, Senegal, Gambiya, Niger, Somali, Afg‘oniston, Pokiston, Bangladesh, Indoneziya va boshqalar)da aholining 80 foizdan ortig‘i musulmonlardir. Bir qancha mamlakatlarda musulmonlar aholining 80 foizigachani tashkil qiladi (Gvineya, Mali, Livan, Chad, Sudan). Malayziya va Nigeriyada qariyb yarmi, ba’zi bir mamlakatlarda musulmonlar ozchilik bo‘lsa ham, ta’sir doirasi kuchli (Gvineya-Bisau, Kamerun, Burkina Faso, Sera-Leone va boshqalar). Musulmonlar soni jihatidan eng yirik davlatlar – Indoneziya, Hindiston, Pokiston va Bangladesh. Musulmonlarning anchasi Xitoy,

Tailand, Efiopiya, Tanzaniya, Kiprda, **Yevropaning ayrim mamlakatlari** (Albaniya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va boshqalar). **Shimoliy va Janubiy Amerika qit'asi mamlakatlari** (AQSH, Kanada, Afg'oniston, Braziliya, Gayana, Surinam, Trinidad va Tobago)da, **Avstraliyada, Fidji orollarida yashaydi.**⁶⁷

Islomning paydo bo'lishi VI asr oxiri va VII asr boshlarida Arabiston yarim orolida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy ahvol bilan bevosita bog'liqdir.



9.1.2-chizma.

Bu ijtimoiy-iqtisodiy ahvol:

Birinchidan, arablarning katta-kichik qabila va urug'larga bo'linib ketishi ular o'rtasidagi doimiy o'zaro urushlarning asosiy omiliga aylanganligi tufayli faqatgina vayronalik keltirmoqda edi.

Ikkinchidan, qo'shni davlatlar – Vizantiya imperiyasi, Sosoniy Eroni va Habashiston Arabiston yarim orolida siyosiy birlikning yo'qligidan foydalanib doimiy ravishda bu o'lkaga hujum qilardilar.

Arab davlatini vujudga keltirish xalqning kuchini tashqi bosqinchilarga qarshi kurash uchun birlashtirish hamda o'zaro ichki urushlarga barham berish vazifasini hal etish lozim edi. Bunday siyosiy birlashuv faqatgina yakkaxudolik dini orqaligina amalga oshirilishi mumkin edi. Chunki VII asrda Arabistonda ko'pxudolik dinlari mavjud edi.

⁶⁷ Islom. Ensiklopediya. – T.: “O‘zbek milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 218 – bet.

Xanafiylarning markaziy gʻoyasini – yakka xudoga ishonish, qabila xudolariga va mahalliy xudolarga sigʻinishdan voz kechish tashkil etardi. Xanafiylar arablarni “ogʻir ahvoldan qutqaruvchi xaloskor”ning kelishini bashorat qilardi.

Arabiston yarim orolining Makka, Madina, Toif, Xaybar singari bir qancha shaharlari orasida Makka karvon yoʻli markazida joylashganligi sababli uning hamma tomoni togʻlar bilan oʻralgan, shaharni tashqi hujumdan himoya qilish uchun daraga soqchilar qoʻyilishining oʻzi kifoya edi. Kaʼbaga bora-bora arablar Makkani Allohning qudrati bilan yaratilgan, muqaddas joy deb bayon etgan va aylantirgan. Savdo-sotiq tufayli Makka taraqqiyotining oʻsishiga olib keldi. Ammo Janubiy Arabistonni egallab turgan bosqinchi habashlar 570-yilda Makkaga qarshi hujum qiladi, shahar aholisi shaharni tashlab ketishga harakat qilishadi. Ammo quyidagi 2 muhim sabab Makkani hujumdan saqlab qoladi:

Habashlar hujumidan Makkani saqlab qolgan ikki sabab


- 1. Habashlar yollagan badaviy arab jangchilarining muqaddas hisoblangan Makka hududiga qurol bilan kirishdan bosh tortganligi.***
- 2. Habashlar qoʻshinida chechak kasali tarqalganligi***

9.1.3-chizma

Natijada (Qurʻonning “Fil” surasida uning sabablari Alloh qoʻllab-quvvatlaganligi ekani bayon etilgan) Makkadagi quraysh qabilasi sharaflilari “al-ilohi”, xudo yorlaqagan qabila nomini oldi. Makka zodagonlari ichida Abad al-Mutallib (Muhammad Paygʻambarning bobosi, Hoshimiylar xonadoni vakili) habash lashkarboshchisi bilan uchrashganligi tufayli eng katta obroʻ qozondi. U habashlardan kelgan oʻljaning talay qismini oʻziga oldi. Bu yoʻqsil qabiladoshlariga xayriyalar qilish imkonini berdi. Muhammad Paygʻambar ajdodlari obroʻsi baland boʻlganligi tufayli ham bu muhim rol oʻynaydi. Lekin Yevropaga oʻtiladigan savdo yoʻllari qaroqchilar tufayli Makkani aylanib oʻtishga majbur boʻlgan. Natijada Makka zodagonlari sudxoʻrlilikni kuchaytirgan. Bunday ahvoldan qutulish yoʻli arab qabila-

larini birlashtirish asosida yagona, kuchli davlat barpo etish orqali jahon maydoniga chiqish edi. Buni yakkaxudolik g'oyasi bilangina amalga oshirish mumkin edi. Shunday sharoitda Islom dini vujudga kelgan. Uning asoschisi keyinchalik Payg'ambar (Rasululloh) deb nom olgan Muhammad ibn Abdulloh (570–632) bo'ldi.

Islom ta'limoti: Islom ta'limoti uning muqaddas kitobi – Qur'oni karimda bayon etilgan. Islom ta'limoticha, Qur'on Alloh tomonidan farishta Jabroil orqali Muhammad payg'ambarga vahiy (xudo tomonidan yuborilgan) qilingan.



9.1.4-chizma

VII asrda islom 2 ta yirik oqimga bo'lingan:

- 1) Sunniylik (islom an'analari tarafdori)
- 2) Shialik (guruh, partiya, tarafdor, ya'ni Ali k.v.guruhi)

Shia yo'nalishidagi musulmonlar esa 5 ta aqidaga asoslanadi:

1. Yakkaxudoga.
2. Payg'ambarlikka.
3. Taqdirga.
4. Oxiratga.
5. Imomatga ishonadilar.

Islomda quyidagi diniy bayramlar mavjud:

1. Ro'za hayiti (Ramazon): yuz bergan gunohlar kechiriladi (arabchada Iyd al-fitrat).
2. Qurbon hayiti: qurbonlik qilinadi, Alloh yo'liga bag'ishlanadi (iyd al-adha). Qurbon hayit katta hayit hisoblanadi.
3. Mavlud (Muhammad Payg'ambar tug'ilgan kuni) kabilar.
4. Juma (dam olish kuni)⁶⁸.

Islom ma'naviy dunyosi 3 taraqqiyot bosqich davrini

1. Qur'on davri.
2. Umuminsoniy xarakterdagi mazhab va firqalar paydo bo'lishi VI asr hukmronligida davom etdi.
3. Musulmon dunyosi "chekka" o'lkalarga ham kirib borganligi, ahamiyati va o'rni ortganligi bilan bog'liq.

Savob ishlar:

1. Machit qurish.
2. Ko'chat o'tkazish.
3. Ilm o'rganish. Kitob yozish.
4. Solih farzand (ota-ona haqlariga duo).

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 15-iyunda "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumandagi nutqida shunday degandi: *"Islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida biz azim poytaxtimiz Toshkent shahrida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini barpo etishga qaror qildik. Nega deganda, "Jaholatga*

⁶⁸ I. Saifnazarov, T. Sultonov, J. Ilhomjonov, R. Xalimmetova. "Dinshunoslik": O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISODIYOT", 2019. – 52-53-b.

qarshi – ma’rifat” shiori ostida mana shunday markazni tashkil etishni bugungi davrning o‘zi taqozo etmoqda.”⁶⁹

Kalom (aqida) ilmining mazmun-mohiyati

1. Kalom (arab. – gap, nutq, bayon) – islomiy e’tiqod va dunyoqarashga oid masalalarni aqliy mulohazaga tayanib dalillash va xulosalashdir.

2. Dastlabki davrlarda islom dini ta’limoti aql va tafakkurga tayanib emas, ilohiy ko‘rsatmalarga, faqat **Qur’on va Sunna ta’limoti** bilan cheklangan.

3. Abu Hanifaning e’tiroficha, kalom ilmini Amir Ubayd boshlab bergan.

4. Kalom munaqqidlari fikricha, Qur’oni karim va Hadisi shariflarda islom ta’limoti, mafkurasi, e’tiqodiy-nazariy qarashlar bayon etilib, har qanday diniy, falsafiy, mantiqiy, aqliy nazariyalar bekor qilingan.

5. O‘zini mo‘min-musulmon sanagan kishi **Muhammad (s.a.v.)ning** Alloh taolo tomonidan keltirilgan ilohiy ta’limotdan tashqariga chiqmasligi, islomgacha shakllangan yunon, fors, Sharq falsafasi kalom ilmidan voz kechish lozim hisoblangan.

6. Islom dini dunyoning ko‘p mamlakat, xalqlariga tarqalishi va islom mafkurasining turli noislomiy mafkuralar bilan to‘qnashuvi natijasida ularga raddiya berish muammolari kelib chiqqan.

7. Islom aqida va ahkomlarini tushuntirib, asoslab berish uchun oyat va hadislarning o‘zi kifoya qilmagan. Islom aqidasi muxolif fikr yurituvchi oqim va toifalar kalom, mantiq, jadal, munozara kabi aqliy dalil-hujjatlarga suyanishga to‘g‘ri kelgan.

8. Vaqt o‘tib kalom ilmi islom dunyosida keng o‘rganilib, bu sohada ham dunyoga mashhur islom mutafakkir, faylasuflari paydo bo‘la boshlagan.

9. Abu Mansur Moturudiy, Abulhasan Ash’ariy, Abu Bakr Roziy, Forobiy, Beruniy, ibn Sino, ibn Rushd, ibn Xaldun, Jurjoniy kabi ko‘plab allomalar yetishib chiqdi. Ular kalom ilmi rivojiga ulkan hissa qo‘shdi.

10. Imom Buxoriy vafotidan so‘ng Imom Moturudiy (870–944) uning nurli qalamini olib, u zotning xayrli ishlarini davom ettirdi. Imom Moturudiy o‘rta asrlardagi g‘oyani xatarli, tahlikali bir vaziyatda o‘z hayotini xavf ostiga qo‘yib ma’naviy jasorat ko‘rsatdi. Islom olamida

⁶⁹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.-1-jild. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. 468–469-betlar.

“Musulmonlarning e’tiqodini tuzatuvchi” degan yuksak sharafga sazovor bo‘ldi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 15-iyunda shunday degandi: *“Ma’lumki, bizning mintaqamiz, avvalambor, bugungi O‘zbekiston zamini Islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi”* (1-jild, 468-bet).

Kalom ilmida “shirk”, “kufr”, “qiyomat” tushunchalari

1. **Shirk (arab. – birga qatnashish, sheriklik;** Allohning sherigi bor deb hisoblash, ko‘pxudolik) – shirk keltirish. Shirkning sha’riy tushunchasi – Allohning zoti, sifatlari, ismlari, ishlari va hukmlarida sherigi bor deb e’tiqod qilish. Islomda shirk kechirilmas gunoh hisoblanadi. Shirkning turlari: 1) ibodatda shirk keltirish; 2) duoda shirk keltirish; 3) rabbiylikda shirk keltirish; 4) hukmda shirk keltirish; 5) mulk va sultondagi shirk keltirish; 6) xalq – yaratishdagi shirk keltirish; 7) itoatda shirk keltirish; 8) tangriga shirk keltirish.

2. **Kufr (arab. – yashirish; noshukrchilik; kofirlik)** – islomiy e’tiqodga ko‘ra, islom dinini yoki Alloh, borliq va inson to‘g‘risidagi islomiy dunyoqarashni tan olmaslik, yagona Alloh, uning farishtalari, payg‘ambarlari, ilohiy kitoblari, qazo va qadariga ishonmaslik hamda bunday dunyoqarash va aqidaga qarshi kurashish; imonsizlik, kofirlik, Ko‘p hollarda kufr Allohga ishonmaslik. Allohga shirk keltirish (masalan, ko‘pxudolik, yagona Allohdan boshqa narsalarga – o‘simlik, hayvon, jonsiz mavjudotlar va boshqalarga sig‘inish), islom payg‘ambarlari va muqaddas kitobi Qur’onni tan olmaslik, islomiy e’tiqodda Alloh tomonidan harom qilingan narsalarni halol deb e’tiqod qilish va hokazo. Kufrning 3 turi mavjud:

1. **Haqiqiy kufr – dilida ham, tilida ham o‘zining kofirligini inkor etish.**

2. **Inodiy kufr** – Allohning haqligini, Muhammad (s.a.v.)ning haqiqiy payg‘ambarligini bila turib, qaysarlik qilib imon keltirmaslik.

3. **Hukmiy kufr** – ba’zan shariatga xilof ishlarni qilish yoki kufr so‘zlarini bilib-bilmay gapirib qo‘yish sababli kufrga hukm qilinuvchi holat.

Hozirgi vaqtda islom dinini niqob qilib olgan, buzg‘unchi-ekstremist “Tolibon”, “IShID” va h.k.

3. **Qiyomat (arab. – o‘liklarning tirilishi; tik turishi, o‘rindan turishi)** – ko‘plab diniy ta’limotlar jumladan islomda ham dunyoning tugashi va oxirat kunining boshlanishi haqidagi ta’limot. Bu ta’limot

Qur'on suralarida oxirat kunining boshlanishi bilan bog'liq dahshatli hodisalar, barchaning halok bo'lishi, keyin odamlarning tirilishi, o'rindan turishi, birma-bir so'roq qilinib, savob va gunohlar o'lchanishi, shunga qarab odamlarning jannat yoki do'zaxga kiritilishi, do'zax azoblari va jannat rohatlari va hokazolar bayon etilgan.

Jannat va do'zax

1. Jannat (arab. – bog', bo'ston, uch moh; fors. – behisht; dor us-salom, dor ul-baqo, dor ul-oxir, dor ul-muqoma, dor ul-muttaqin, bog'i eram, firdavs, illiyun va boshqa.) – taqvodor insonlar narigi dunyoda rohat va farog'atda yashaydigan joy. Qur'onda jannat haqida bir necha yerda bayon qilingan (47: 15-55, 46-78; 76:11-12). Islom dini aqidasi bo'yicha, bu dunyodagi hayoti davrida imonli holida ezgu ishlar bilan shug'ullangan kishilarga Alloh tomonidan jannatdan joy beriladi. Jannatda hayot abadiy bezavodir. Jannatdagilarni Alloh turli ne'matlar bilan ta'minlaydi. U yerda g'am-g'ussa va tashvish yo'q. Odamlarning yaxshi ko'rgan barcha narsasi muhayyo etiladi, hatto juftlari ham birga bo'ladi. Qur'onda jannat daraxtlar ostidagi ariqlardan zilol suvlar oqib turadi, deb ta'riflanadi. U yerda insonlar qarimaydi va kasal ham bo'lmaydi. Jannatda havzi Kavsar mavjud bo'lib, uning xislatlari ta'riflanadi. Havzi Kafardan jannat ahli suv ichadi.

Jannatning 8 eshigi bor deb yuritiladi. Bular: 1) payg'ambarlar, shahidlar, siddiq bandalar va saxiylar; 2) namozxonlar; 3) zakot beruvchilar; 4) amri ma'ruf, nahiy munkar qilgan mo'minlar; 5) nafsu shahvatini jilovlab yurganlar; 6) haj va umra qilganlar; 7) Alloh yo'lida jiddu jahd qilganlar; 8) taqvodor va ota-onasini rozi qilganlar va ro'zadorlar kiradigan darvozalardir. Jannatni qo'riqlovchi farishta "Rizvoni jannat" deb ataladi. Jannatda eng oliy ne'mat – Allohning diydorini ko'rishlik hisoblanadi.

2. Do'zax (fors.; arab. – nor, jahannam, jahim, saqar; turkiy tilda – tamug') – din talablarini bajarmagan gunohkorlar oxiratda jazolanadigan joy. Islom dinidagi asosiy tushunchalardan biri. Qur'onda do'zax haqida bir necha o'rinda ta'kidlab o'tilgan (6: 128; 11: 106, 107). Do'zax Alloh kofirlar va gunohkor bandalarga jazo berish uchun yaratgan. Diniy tasavvurga ko'ra, do'zax dahshatli chuqurlik, ichida olov yonib turadi. Do'zaxga mahkum qilingan bandalar shu olovga tashlanadi, ular qaynoq suv ichida, u yerda o'sadigan zaqqum daraxtining (shayton boshiga o'xshagan) mevasi bilan ovqatlanadi, cheksiz azob chekadi, terilari kuyadi, Qur'onda shunday ta'kidlanadi: "Qachonki terilari kuyib bitishi bilan haqiqiy azobni totib ko'rishlari uchun o'rniga boshqa terilarni almashtiramiz" (4:56). Do'zax azoblaridan yana biri achishtiruvchi sovuqdir. Do'zax bir necha tabaqadan iborat bo'lib, har bir gunohkor o'z gunohiga qarab tabaqalarda azoblanadi. Islom diniga ko'ra do'zaxning 7 darvozasi bor: 1) hoviya – eng chuqurlikda joylashgan bo'lib, unga munofiqlar, Fir'avnga o'xshagan kofirlar kiradi; 2) jahim – mushriklar; 3) saqar – dindan qaytgan murtdalar; 4) Lazo – shayton – iblis, uning do'stlari va majuslar; 5) xutama – Allohning amriga bo'ysunmagan kofir kimsalar; 6) sair – Allohga shirk keltirgan nasroniylar; 7) jahannam – gunohi kabiralar qilib, tavbasiz o'tgan musulmonlar kiradigan darvozalardir. Do'zaxni qo'riqlovchi farishta Moliki do'zax deb ataladi. Qalbida Allohga iymoni bo'lgan bandalar do'zaxda ma'lum vaqt azob tortganlaridan so'ng o'sha imonlari sharofati bilan do'zaxdan chiqarilib, jannatga kiritiladi. Faqir-fuqaro, yetim-yesirlarga rahm-shavqat qilish, musulmonlar va inson bolasining og'irini yengil qilish ko'plab bandalarning do'zaxdan ozod etilishi uchun sabab bo'ladi. Ammo imonsiz kishilar, kofir va mushriklar do'zaxdan chiqmay azobda qoladi.

9.1.6-chizma.

Mo'jiza va karomat

1. **Mo'jiza (arab. aqlni ojiz qoldiruvchi hodisa)** – payg'ambarlarning, haqiqatan ham, Alloh tomonidan bandalarga yuborilgan elchilar ekaniga dalil-hujjat sifatida yuz beradigan g'ayritabiiy hodisa. Masalan, Muso (a.s.) ning hassasi tayoq sifatida qo'y haydashdan tashqari, kerak paytda boshqa shaklga kirib, daryoga ko'prik bo'lgan yoki ajdarga aylanib, payg'ambar podasiga xizmat qilgan. Qo'llari qo'yniga suqib olingach, tunda yo'lni yoritishdek yog'du sochgan. Iso (a.s.) ga og'ir, bedavo kasalliklarni ham bir nafas bilan tuzatish, murdalarni tiriltira olish kabi mo'jizalar ato etilgan. Muhammad (s.a.v.) esa bir necha o'nlab mo'jizalarga ega bo'lganlar. Ularning ichida eng ulug'i – o'qish, yozishdan mutlaqo xabari yo'q savodsiz (umumiy) shaxsning Qur'oni karim oyatlarini yoddan tilovat etishi va ularning nazm va mazmun jihatidan bashariyat imkonida yo'q oliy darajada aytilgan ilohiy vahiy ekanidir. G'ayritabiiy hodisalar deganda, havoda bevosita uchish, suv betida yurish, uzoq masofani bir lahzada bosib o'tish, jonsiz narsalarni gapirtirish, zarur hojatlarning ravo bo'lishi, duosining ijobat etilishi kabi ishlar nazarda tutiladi
2. Bu xildagi hodisalar aziz-avliyolardan sodir bo'lsa, u karomat deyiladi.

1) **Karomat (arab. – karomat, ikrom qilinish, yuqorilik, sharaf)** – islom istilohiga ko'ra, aqlni lol qoldiradigan g'ayritabiiy hodisalar. Shu hodisalar payg'ambarlardan namoyon bo'lsa – mo'jiza, aziz-avliyolardan sodir bo'lsa – karomat deyiladi. G'ayridin, kufr ahliidan sodir bo'lsa, sehr-jodu, ko'zbaxshilik (fokus) yoki istidroj (vaqtincha omadli bo'lish) deb ataladi. Masalan, Muso payg'ambar qo'lidagi hassasini toshga urganda undan suv otilib chiqqani, hassa ajdohoga aylanib, sehrgarlar yasagan ilonlarni yutib yuborgani mo'jizadir. Muhammad (s.a.v.)ga berilgan mo'jizalarning eng ulug'i – Qur'oni karim sanaladi. Karomatlar tasavvuf shayxlari, tariqat peshvolari, aziz-avliyolarning uzoq masofani oz muddatda bosib o'tishlari, suv ustida, havoda bemalol yura olishlari, hojatlari tezda ravo bo'lishi va hokazolar bilan izohlanadi. Karomat 2 xil: 1) asliy va 2) kasbiy.

Asliy karomat quyidagi oyatda o'z ifodasini topgan: “Darhaqiqat, (biz) Odam farzandlarini (aziz va) mukarram qildik va ularni quruqlik va dengizga (ot-ulov va kemalarga) mindirib qo'ydik hamda ularga pok narsalarni rizq berdik va ularni O'zimiz yaratgan ko'p jonzotlardan afzal qilib qo'ydik” (“Isro” surasi, 70-oyat). Ushbu karomat mo'min bo'lsin, kofir bo'lsin, bashariyatning hamma a'zolari uchun umumiydir.

Kasbiy karomat quyidagi oyatda ifodasini topgan: “Ey, insonlar! Darhaqiqat, Biz sizlarni bir erkak (Odam) va bir ayol (Havvo)dan yaratdik hamda bir-birlaringiz bilan tanishingiz uchun sizlarni (turli-tuman) xalqlar va qabila (elat)lar qilib qo'ydik. Albatta, Alloh nazdida (eng azizu) mukarramrog'ingiz taqvodorrog'ingizdir. Albatta, Alloh biluvchi va xabardor zotdir” (“Hujurot” surasi, 13-oyat). Bu karomat taqvodor mo'minda hosil bo'ladi. Odatdan tashqari ishlarga karomat deyish majoziydir. Chunki Alloh taolo o'sha ishlarni taqvodor mo'minning ikromi uchun uning tomonidan sodir etadi. Karomatning zohir bo'lishidagi hikmat: karomat sodir bo'lganidan so'ng valiyning ishonchi yana ham ziyoda bo'lib, dunyodagi zuhdi taqvosi kuchayib, havoyi nafs davosi yo'qolishidir.

9.1.7-chizma.

Hadislardan namunalar

Yenglar, ichinglar, kiyinglar, sadaqa qilinglar, ammo isrof qilmanglar, mag'rurlanmanglar.

Tonggi uyqu rizqni qirqadi.

Garchi Xitoyda bo'lsa ham, ilmga intilinglar, chunki ilm talab qilishga harakat qilish har bir musulim va musulimalar uchun farzdir.


Ilmni yozib qo'yish bilan bog'lab olinglar.

Beshikdan qabrgacha ilm izla

9.2. Islom dinining muqaddas manbalari. Tasavvuf (sufizm) ta'limoti va tariqatlari

Shariat (to'g'ri yo'l, ilohiy yo'l, qonunchilik) – islomning diniy huquqi, ya'ni barcha musulmonlar uchun amal qilish va bajarishi majbur bo'lgan qonunlar, huquqiy-axloqiy ko'rsatmalar majmuasi.

Shariat diniy marosimlarni qanday bajarish talablaridan tashqari dunyoviy va huquqiy hayot masalalarini qanday hal etish yo'llarini ham ko'rsatib beradi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev "Ta'lim va ma'rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo'l" nutqida shunday degan edi: **"Islom – haqiqatni anglash demakdir, u odamzodni ezgu amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo'lishni o'rgatadi"**.⁷⁰



9.2.1-chizma.


⁷⁰ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-1-jild.- T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017.-470-bet.

1. Qur'on (arabcha qiroat, o'qish) – Islom dinining muqaddas kitobi. Uning mazmuni Allohning osmondan vahiy qilingan so'zi deb tushuniladi. Bu kitob 30 pora (qism), 114 sura, 6236 oyat, 77439 kalima, 325743 harfdan iborat to'plam. Qur'oni karim makkaviy va madinaviy suralarga bo'linadi. Qur'oni karimning 86 sura, 4613 oyati Makkada 610–622-yillarda, 28 sura, 1623 oyat Madinada 622–632-yillarda nozil qilingan. Qur'oni karimda avvalgi zamondagi payg'ambarlar hayotidan ibrat va saboqlar keltirilib, odamlar tavhidga (yakkaxudolikka) chaqiriladi. Qur'oni karim oyatlarini o'z vaqtida yozib borish uchun Muhammad (s.a.v.) o'zlariga 4 kotib (Ali ibn Abu Tolib, Muoviya ibn Abu Sufyon, Ubay ibn Ka'b, Zayd ibn Sobitlarni tayin etganlar. Qur'oni karimning mushafi Usmoniy nusxalaridan biri Toshkent shahridagi Hazrati Imom Majmuasi muzeyida saqlanib kelmoqda.

Qur'on 114 ta suradan iborat. Har bir sura, o'z navbatida Alloh o'gitlaridan iborat oyat (arabcha mo'jiza)larga bo'linadi. Qur'ondagi birinchi suradan tashqari qolgan barcha suralar hajmi jihatidan torayib, kichiklashib, ixchamlashib boradi. Eng uzun sura Qur'onning boshida va eng qisqa suralar esa oxirida joylashtirilgan. Shuning uchun unda xronologik va mantiqiylik tartibi yo'q. Har bir sura doirasida oyatlar tartib bilan raqamlangan. Suralarda oyatlarning soni turlicha. Oyatlarga suralar kabi nom berilmagan. Hajmi jihatidan oyatlar ikki so'zning birikmasidan (masalan, 82-suraning 1–5-oyatlari) yoki tugal fikrni ifodalovchi katta jumalardan tuzilgan. Ko'p oyatlar mazmuni bir-birini takrorlaydi. Bunga sabab, o'sha davrda ma'lum g'oya, rivoyat va ko'rsatmalarni takror aytish keng qo'llanilgan. Suralar matniga o'zgartishlar kiritmasdan oyatlarga taqsimlash XX asr boshlarigacha davom etgan. Shu bois Qur'onning har bir tarixiy davrdagi oyatlarning soni turlicha ko'rsatilgan. Diniy rivoyatlarga ko'ra, Qur'onning matni Muhammadga 22 yil davomida vahiy qilinganligi sababli tarixiy davr va sharoit ta'sirida undagi ayrim ko'rsatmalar o'zgarib borgan. Davlatimiz rahbari *Shavkat Mirziyoyev* 2017-yil 15-iyunda shunday degan edi: ***“O'z vaqtida Sohibqiron Amir Temur bobomiz yurtimizga olib kelgan muqaddas Qur'oni***

karimning Usmon nusxasi mazkur muzeyning (Hazrati Imom masjidi) markazida nur sohib, butun zalni charog'on etib turadi."⁷¹

O'z mazmuniga ko'ra, Qur'on turli qonun-qoidalar majmui, an'ana va udumlar, afsona va rivoyatlardan iborat bo'lib, ularning ko'pchiligi arab aholisi o'rtasida keng tarqalgan. Qur'on asosan yakka-yagona yaratuvchi xudo – Alloh va uning irodasiga so'zsiz itoat etish lozimligi haqida gapiriladi. Qur'onga binoan, Olloh olamni 6 kun davomida yaratgan:



9.2.2-chizma.

Qur'onda aytilishicha: Olloh 7 olamni yaratib, ularni ustma-ust joylashtirgan. Eng quyi olamda Quyosh va Oyni mustahkamlagan. So'ng u yerni odamlar oyog'i ostiga gilam kabi to'shagan va uning surilib ketmasligi uchun ustiga tog'larni bostirib qo'ygan. Insonni yaratish xudoning faoliyatidagi eng oliy ish hisoblangan. Olloh dastlab barcha go'zal narsalarni, keyin odamni yaratishga kirishgan. U inson jismni tuproq va loydan yasab muayyan tuzilish ato etgan, so'ng ko'z, quloq, yurak bilan to'ldirib, muqaddas ruhiy hayot bag'ishlagan.

Qur'oni karim ijtimoiy hayotning barcha o'zgarishlarini to'liq qamrab olgan emas. Shu boisdan pand-nasihatlar yig'indisi – Sunnat (arabcha, odat, an'ana, xatti-harakat) vujudga kelgan. Sunnat

⁷¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017.-30-bet.


Qur'ondan keyin turadi. U Muhammad (s.a.v.)ning so'zlari va xatti-harakatlari bayon qilingan muqaddas rivoyatlardan iborat. Sunnat VII asrning o'rtalarida vujudga kelgan. Ular Muhammad payg'ambarning hayoti, faoliyati va ko'rsatmalari haqida rivoyatlardan iborat.

2. **Hadisi sharif.** Hadis (arab. gap, hikoya, xabar, suhbat) – Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) aytgan gaplari, qilgan ishlari va boshqa qilingan ishlarga munosabati haqida sahobalar, Payg'ambar alayhissalomni ko'rgan kishilar qilgan rivoyatlarni anglatadigan tushuncha. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 18-oktabrda shunday degan edi: *“Islom olamida Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom hadislarini to'plamining ishonchli manbayi deb e'tirof etilgan “Al-jome' as-sahih” to'plami barcha muhaddislar ustozlari bo'lmish Imom Buxoriyning ko'p yillik fidokorona izlanishlari samarasidir. O'n ikki asrdirki, ushbu asar ahamiyatiga ko'ra, muqaddas Qur'ondan keyin islom dini haqidagi ikkinchi ishonchli yozma manba bo'lib qolmoqda. Nafaqat bizning yurtimiz, balki boshqa mamlakatlardan ham minglab, millionlab musulmonlar bu tabarruk zot tug'ilgan Buxoroi sharifga borish va uning Samarqanddagi qabrini ziyorat qilishga intilishi bejiz emas, albatta”* (1-jild, 28–29-betlar).

Hadislar mazmun-mohiyatiga ko'ra odamlarni ezgulik, o'zaro hamjihatlik, birodarlik, adolatparvarlik kabi yuksak insoniy fazilat va sifatlarga ega bo'lishga chorlaydi. O'n to'rt asrdan ziyod vaqt davomida Hadislar insonlarni jaholat va zalolat botqog'idan hidoyat va najot yo'liga da'vat etib kelmoqda. Hadis musulmonlarda **Qur'ondan keyingi ikkinchi muqaddas manbadir.**


VII–VIII asrlarda Hadislar to'plama boshlandi. Hadislar tanlanib, tartibga solina boshlangan Islomda “Sahih”, ya'ni “Ishonarli to'plam” va “G'ayri Sahih”, ya'ni “Ishonarsiz to'plam” hadislarini vujudga kelgan. Ishonarli hadislarining 6 ta to'plami vujudga kelgan.

Hadislar bir necha turga bo'linadi. Payg'ambarimiz (s.a.v.) ba'zi Hadislarni aytgan paytlarida oldilarida bitta kishi bo'lgan. O'sha kishi Rasululloh (s.a.v.) aytgan gaplarini boshqalarga yetkazgan.



9.2.3-chizma.

Payg‘ambarimiz davrida Hadislar tartibga solinmagan va kitob holiga keltirilmagan. Birinchi Hadislar to‘plami Malik ibn Anasning “Muvatto”, ash-Shofiyning “Al-Musnad” asarlaridir.



9.2.4-chizma.

Tasavvuf (So‘fiylik) yoki tasavvuf tariqatlari. Tasavvuf, so‘fiylik – islomda insonni ruhiy va axloqiy komillik sari yo‘llovchi ta‘limot. 30 dan ortiq tasavvuf (ya‘ni so‘fiylik) tariqatlari mavjud. Tasavvuf atamasi (so‘fiylik qiluvchi) tasavvuf izidan boruvchi so‘zlaridan kelib chiqqanligi haqida turli taxminlar mavjud. Tasavvuf, suvf – jun, po‘stin so‘zidan olingan. Ilgari zamonda tarki dunyo qilgan zohid, o‘zini Xudoga bag‘ishlagan odam, odatda, dag‘al jundan kiyim kiyib yurgan. Tasavvufga (so‘fiylikka) asos solgan tarkidunyochilik islom dini bilan deyarli bir vaqtda paydo bo‘lgan. Muhammad (s.a.v.)

ning ayrim safdoshlari Abu Dardo, Abu Zarr, Huzayra ibn Yamon va boshqalar shunday kayfiyatda bo'lgan. Islomda zohidlik oqimi 8-asr o'rtalari va 9-asr boshlarida shakllangan. So'fiylik (tasavvuf) namoyandalari Qur'on oyatlari mazmuni ustida mushohada qilish, ilohiy kitob va Muhammad (s.a.v.) hadislari ko'rsatmalariga qat'iy rioya qilgan. Bog'dod va Xurosonda so'fiylik maktablari mavjud bo'lgan. Inson va uning Xudoga munosabati qanday bo'lishi kerakligi haqidagi ta'limotni yaratgan.

So'fiylik (tasavvuf) tariqatlari:

1. Markaziy Osiyoda.

- 1) NAQSHbandiylik.
- 2) Yassaviylik.
- 3) Kubraviylik keng tarqalgan

2. Sharq mamlakatlarida:

- | | |
|------------------|--------------------------------|
| 1) Qodiriylar. | 7) Shoziliylar. |
| 2) Bektoshiylar. | 8) Chishiylar. |
| 3) Rifo'iylar. | 9) Safaviylar. |
| 4) Tayfuriylar. | 10) Hamdariylar. |
| 5) Suhravardiya. | 11) Ne'matullohiylar. |
| 6) Mavlaviylar | 12) Jaloliylar keng tarqalgan. |

Arab mamlakatlari, Afrika, Janubiy-Sharqiy Osiyo xalqlari orasida ham ko'p tariqatlar tarqalgan:

- | | |
|---------------------------|-----------------|
| 1) Salafiylar. | 7) Ammoriylar. |
| 2) Shartariylar. | 8) Hamoliylar. |
| 3) Rashidiylar. | 9) Muridiylar. |
| 4) Rahmoniylar. | 10) Barqiylar. |
| 5) Tayyibiylar. | 11) Idrisiylar. |
| 6) Tinoniylar. | 12) Sanusiylar. |
| 13) G'ufriylar va hokazo. | |

***Yosh avlodni turli terrorchi va radikal tuzilmalar faoliyatiga jalb qilishga yo'l qo'ymaslik borasida birgalikda aniq chora-tadbirlarni kuchaytirish zarur.*⁷²**

⁷² Мирзиёев Ш.М. Мииллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд.-Т.: "Ўзбекистон" НМИУ, 2017.-422-бет.

Markaziy Osiyoda soʻfiylik (tasavvuf) tariqatlari

1. Naqshbandiylik – tasavvuf tariqatlaridan biri Bahouddin Naqshband (1318–1389) Buxoro viloyati Kogon tumanida tugʻilgan, naqshbandiya tariqati asoschisi. Abdul Xoliq Gʻijduvoni hamda Bahouddin Naqshband tomonidan yaratilgan, keyinchalik “Naqshbandiya” tariqati deb nom olgan tamoyillar 11 nomdadir.

1. Hush dar dam – har bir nafasni hushyorlik bilan olish.
2. Nazar bar qadam – har bir qadamni ehtiyotkorlik bilan bosish.
3. Safar dar vatan – oʻz vatanida, uyida boʻla turib fikran va zikran butun borliq haqida tafakkur yuritish.
4. Xilvat dar anjuman – oʻzi xalq ichida anjumanda boʻla turib, xilvatda oʻtirgandek Allohning zikrida boʻlish.
5. Yod kard – til va dil bilan zikr qilish.
6. Boz gasht – zikr paytida xotirni parishon qilmay, Allohning yodida boʻlish.
7. Nigoh dosht – bir nafasda “Kalimai tayyiba”ni dil huzuri bilan tilda takror qilish.
8. Yod dosht – Allohni mudom yod etib, gʻaflatdan saqlanish.
9. Vuqufi zamoniy – oʻz holidan ogoh boʻlib, shukr va uzrda boʻlish.
10. Vuqufi adadiy – zikrlarda muayyan adadga rioya qilish.
11. Vuqufi qalbiy – dilni Alloh zikri bilan ogoh qilish.

Naqshbandiylikning asosiy mohiyati “Qoʻl ishda, Alloh dilda boʻlsin”, yaʼni “Dil ba yoru, dast ba kor” (“Diling – Allohda, qoʻling – mehda boʻlsin”) shiori edi. 1993-yilda Bahouddin Naqshbandning 675 yillik yubileyi nishonlandi.

9.2.5-chizma.

“Diling – Ollohda, qoʻling – mehnatda boʻlsin” degan daʼvat buyuk Bahouddin NAQSHband bobomiz tomonidan ayni shu maqsadda aytilgan, desak, oʻylaymanki, adashmagan boʻlamiz”⁷³, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev.

2. Yassaviylik tariqati. Xoja Ahmad Yassaviy (1105–1166) Sayramda (Qozigʻistonning Turkiston viloyati) dunyoga kelgan. Yassaviylik – tasavvufdagi tariqatlardan biri. Yassaviy turkiyzabon shoir sifatida ham mashhur. Yassaviy tasavvufda “Yassaviya”

⁷³ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. 1-jild.- T.: “Oʻzbekiston” NMIU, 2017.-494-bet.

tariqatiga asos solgan. Yassaviy tariqatining barcha aqidalari uning asari “Hikmat”da bayon etilgan.

Yassaviy ta’limotidagi poklik, halollik, to’g’rilik, mehr-shafqat, o’z qo’l kuchi, peshona teri va halol mehnati bilan insonni ham botinan, ham zohiran har tomonlama takomillashtirish kabi ilg’or umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilgan.

Yassaviy mol-dunyo to’plashga mutlaqo qiziqmagan, kambag’al-parvar va g’aribparvar bo’lgan. Yassaviy zamonining ezilgan toifasi “g’arib”, “yetim”, “faqir”larning homiysi deb hisoblaydi. Mol-dunyo, boylikka va davlat orttirishga mukkasidan ketgan, xasis va ochofat kishilarni beayov tanqid qilgan.

Yassaviy ta’limotida insonning o’zligini bilishni ustun qo’yadi. O’zini bilsa erdi Haqni biladi, Xudodan qo’rqadiyu, insofga keladi. Lekin Haqqa etishish oson emas, uning o’ziga xos qiyinchiliklari bor. Yagona to’g’ri yo’l, u aslida Xudo yo’lidir. Har bir inson komil inson bo’lib yetishishida “shayton vasvasasi”dan qutulish uchun o’z jonini ham, mol-mulkini ham ayamasligi lozim.

3. Kubraviylik – tasavvuf tariqati. XIII asr boshida Xorazmda Najmiddin Kubro (1145-1221) asos solgan Kubroviya tariqati. Kubro buyuk vatanparvar inson edi. U 1221-yilda Xorazmga hujum qilgan Chingizxon qo’shinlariga qarshi jangda shahid bo’ladi. Uning aqidasi ko’ra, inson “olami sug’ro”, ya’ni kichik olam bo’lib, unda “olami kubro”ning, ya’ni katta olamning barcha xususiyatlari mujassamdir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida shunday degan edi: *“Jamiyatimizda diniy konfessiyalar o’rtasida hamjihatlik va fuqarolar totuvligini mustahkamlashni biz bundan buyon ham eng dolzarb va ezgu vazifamiz deb bilamiz. Shu maqsadda mamlakatimizdagi diniy tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish bo’yicha zarur chora-tadbirlar ko’riladi”*.⁷⁴

⁷⁴ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд.- Т.: “Ўзбекистон”, 2018.-142-бет.

Kubraviylik – tasavvuf tariqatiga ko‘ra, kamolotga erishish uchun inson ma‘lum riyozatli yo‘llarni o‘tishi zarur. Buning uchun har bir kishi quyidagi 10 asosga tayanmog‘i kerak:

→ 1. **Tavba** – barcha amallarning ibtidosi. Tavba qilgan kishi o‘z gunohlarini anglab yetadi.

→ 2. **Zuhdi** – bu taqvo, parhez demakdir. Tavba qilgan kishi haromdan hazar qiladi. Man etilgan ishlarni qilmaydi.

→ 3. **Tavakkul** – o‘z amallari, fikri va ishlarida yolg‘iz, Allohga suyanish demakdir.

→ 4. **Qanoat** – kamolotning eng maqbul yo‘li, oz narsa bilan cheklanish, hirsdan yuz o‘girish.

→ 5. **Uzlat** – tanholikda ruhni mustahkamlashdir.

→ 6. **Tavajjuh** – butun ichki mohiyatni Allohga qaratish, unga cheksiz muhabbat qo‘yish, undan boshqa narsa borligini his etmaslikdir. Murid hamma vaqt yaratganga yuzlanib, undan madad so‘rab, unga qalban intilmog‘i kerak.

→ 7. **Sabr** – muridlarning toqat va bardoshini sinashdir. Haq yo‘li og‘ir va mushkul yo‘l, uning azobu izzatlariga chidagan kishilargina maqsadga erishadilar.

→ 8. **Muroqaba** – tafakkurga g‘arq bo‘lish demakdir va ma‘rifatini oshirib borish.

→ 9. **Mulozamat az-zikr (uzluksiz zikr)** – bu o‘z xohishicha Allohning ismini fikrida yod qilib turish va butun qalbini u bilan band qilish. Shunday qilganda, pastkashlik, hasad, ochko‘zlik, ikki yuzlamachilik kabi razilliklar ko‘ngilga yo‘l topa olmaydi.

→ 10. **Rizo**. Murid o‘zini butunlay Alloh irodasiga topshiradi va Alloh zikri bilan huzurlana boshlaydi. Haq unga va u Haqqa yaqinlashadi. Najmiddin Kubroning tasavvufdagi yana bir buyuk xizmati – uning **javonmardlik g‘oyalarini** tariqatga joriy etganligidir.

9.2.6-chizma.

9.3. Islomdagi mazhablar va yo‘nalishlar

VII asrda islom 2 ta yirik oqimga: sunniylik va shialikka bo‘linib ketdi. Bu bo‘linishning asosida turli hukmron guruhlarining hokimiyat uchun olib borgan kurashlari yotadi. Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) ning kuyovi, to‘rtinchi xalifa Ali vaqtidayoq (656–661) xalifa hokimiyati tan olingani bilan hokimiyat tepasiga Muhammad payg‘ambar avlodlarigina kelish huquqiga egadirlar, deb hisoblangan.

1. Xalifalar hokimiyati tarafdorlari (ya'ni xalifalarning Muhammad avlodiga mansubligi shart emas, deb hisoblovchilar) bo'lgan ummaviylar islomdagi an'anaviy diniy ta'limotga amal qiluvchilarni da'vo qilganlar sunniylikni tashkil qildilar.


2. Ali (4-xalifa) va uning avlodlari hokimiyatining tarafdorlari esa shialikni tashkil qildilar.

Davlatimiz Rahbari Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 15-iyunda shunday degan edi: ***“Muqaddas Qur’oni karimda musulmonlarga qarata firqalarga bo‘linmang, degan mazmundagi ko‘rsatmalar bor. Shuning o‘zi turli oqimlarga bo‘linib, odamlarni to‘g‘ri yo‘ldan adashtirishga dinimiz mutlaqo qarshi ekaniga yaqqol dalil emasmi?”*** (1-jild, 485-bet.)

Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) ogohlantirib aytganlarki, “Yahudiylar 71 firqaga, nasroniylar 72 firqaga bo‘linib ketgan edilar. Mening ummatim 73 firqaga bo‘lingaylar. Ulardan bittasigina najot topib omon qolur, qolganlari esa do‘zax ahlidirlar”.

Buxoriy, Muslim, Abu Dovud va Termiziy rivoyatlari.


ISLOMDAGI ASOSIY BO‘LINISHLAR



9.3.1-chizma.

1. Sunniylik siyosiy oqimi (“Sunna” so‘zidan olingan bo‘lib, asl islom an‘analari tarafdorlari degan ma‘noni bildiradi) – tarafdorlari o‘zlarini ahl as-sunna, ya‘ni sunna ahli deb ataydilar va Muhammad payg‘ambar (s.a.v.)ning shialar tomonidan buzilayotgan an‘analariga faqat bizgina amal qilyapmiz, deb hisoblaydilar. Islomning Muhammad (s.a.v.) davridayoq shakllangan ta‘limotining to‘g‘riligini, Sunnani (Hadisni) Qur‘ondan keyingi ilohiyoti va shariatning ikkinchi

manbayi deb tan olgan, islomning an'anaviy diniy marosimlariga, maishiy, ijtimoiy qoidalariga amal qiladigan har bir musulmon sunniy hisoblanadi. Bugungi kunda sunniylar butun jahon musulmonlarining asosiy qismini tashkil etishadi.



9.3.2-chizma.

Islom davlatlari hududlarining kengayib borishi, turli din, toifa, mazhab va mafkura tarafdorlarining musulmon bo'lishi oqibatida aqidaviy masalalar yana ham murakkablashib ketgan. Buning ustiga turli tomonlardan musulmonlar aqidasi buzishga urinish va tanqid qilish ham avj olgan.⁷⁵ Ana shunday murakkab holatda Sunniylik (ya'ni Ahli Sunna val-jamoa) aqidasi va fikrlarini ilmiy asosda jamlash va tartibga solishni taqozo etgan. Bu ishni musulmon olamining mashriq tomonida Abu Mansur Moturudiy va ikkinchi tomondan Abulhasan Ash'ariy uddasidan chiqqan. Ahli sunna val-jamoa (sunnilylik)ning aqidaviy masalalari shu ikki olim shaxsiga nisbat berilib (ash'ariylik, moturudiylik) nomlanadigan bo'lgan. Ahli Sunna val-jamoa faqatgina aqida bobida emas, balki boshqa sohalarida ham o'ziga hos mazhablarni birlashtirgan.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 18-oktabrda shunday degan edi: *“X asrda samarqandlik mutafakkir, “Imom al-Huda” (Hidoyat yo‘lining imomi) deb shuhrat qozongan Abu Mansur Moturudiy tomonidan asos solingan Moturudiya ta’limoti butun islom olamida keng tarqalgan. Moturudiya ta’limoti ilm egallash jarayonida bag‘rikenglik g‘oyasi asosida inson aql-zakovatining o‘rni va ahamiyatiga yuksak e’tibor qaratadi. Bu o‘z navbatida ushbu ma’limotlarning keng ommalashuvida muhim o‘rin tutgan. Bunday g‘oyalarga bugungi kunda ham insoniyat katta ehtiyoj sezmoqda”*.⁷⁶

Ahli Sunna val-jamoaning o'ziga xos tavsif maktabi ham bor. Ularning mashhur tavsiflari jumlasiga Abu Mansur Moturudiyning “Ta’vilotu ahli sunna”, Abul Barokot Nasafiyning “Madorik ut-Tanziyl”, Ismoil Haqqiyning “Ruh ul-bayon” tavsiflari va boshqalar kiradi. Sunniylik (ahli sunna val-jamoa)ning o'ziga xos hadis sharhi maktabi ham yuzaga kelgan. Bu maktabning yirik namoyandalari ichida Asqaloniyy, Badriddin Ayniy, Mulla Ali Qori kabilar bor. Shunga o'xshash islomiy ilmlarning barcha sohalarida Ahli Sunna val-jamoaning o'z maktablari mavjud.

XX asr oxirida islomning dunyodagi siyosiy mavqei kuchayishi natijasida sunniylik va shialik o'rtasidagi munosabatlar ham keskin-

⁷⁵ Islom. Ensiklopediya. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. -81-bet.

⁷⁶ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.-29-bet.

lashgan. Bunday holat mamlakatlar o'rtasidagi (Eron–Iroq), shuningdek, turli mamlakatlarning ichki hayotida (Saudiya Arabistoni Livan) ham ko'zga tashlanib, ko'p holatlarda uchinchi darajali ahamiyat kasb etgan (Eron–Iroq) yoki osongina hal etilgan. Sunniylikning ko'pgina o'ziga xos xususiyatlari hozirgi vaqtda islomning haqiqiy demokratik din ekanligini isbot qilishda dalil sifatida ko'rsatilmaydi. Islom olamidagi davlatlar aholisining ko'pchiligini (Eron va Iroqdan tashqari) sunniylar tashkil etadi.

2. Shialik (arab, guruh, tarafdorlar, partiya, ya'ni Alining guruhi degan ma'noni anglatadi) – islomdagi ikkinchi yo'nalishdan biri. Ali va uning avlodini Muhammad payg'ambar s.a.v.ning birdan-bir qonuniy vorislari deb tan olinadigan turli yo'nalish va sektalarning umumiy nomidir. O'zining tarqalishi va ijtimoiy-siyosiy mohiyati jihatidan sunniylikdan keyingi o'rinda turadi. Jahondagi musulmonlarning taxminan 8% i shialikka mansub. Shialik VII asr o'rtalarida xalifa Ali ibn Abu Tolib (k.v. – karramallohu vajxaxu) hokimiyati tarafdorlaridan iborat guruh sifatida vujudga kelgan. VII asr oxiriga kelib Iroq va Eronda keng tarqalgan va islomdagi mustaqil diniy yo'nalishga aylangan.

Safaviylar sulolasining birinchi shohi Ismoil XVI asr boshlarida shialikni Eronning rasmiy dini deb e'lon qilgan. Hozir ham u Eronda hukmron e'tiqod shakli hisoblanadi. Iroq, Afg'oniston, Hindiston, Pokiston, Ozarbayjon, Tojikistonda ozroq, Livan va boshqa davlatlarda keng tarzda yoyilgan. Shialar bilan sunniylar o'rtasidagi asosiy farq imomat tushunchasining talqin qilinishidadir. **Imomat** – shialikda davlat boshqarish huquqi haqidagi ta'limot, e'tirof etilgan 5 aqidadan biri. Unga ko'ra, musulmonlar jamoasi yoki davlatida faqat Muhammad payg'ambar (s.a.v.) avlodi (kuyovi Ali bilan qizi Fotimadan tarqalgan avlod) hukmron bo'lish huquqiga ega deb hisoblanadi.

Shialik oqimidagi musulmonlar 5 aqidaga ishonadi va uning sunniylik oqimidan farqi

1. Shialikdagi 5 aqida:

- 1) Allohning yagonaligi (ya'ni tavhid).
- 2) Adolat (adl)ga ishonish, ya'ni taqdir aqidasi.
- 3) Oxirat (qiyomatga) va o'lganlarning tirilishiga ishonish.
- 4) Payg'ambarlik (Nubuvvat)ka ishonish.

5) Imomatga (imomlar hokimiyatini e'tirof etish) ishonadi. Ali avlodlariga aloqador "abadiy ilohiy nur"ning namoyon bo'lishidir, ular ilohiy mohiyatga, beayb va g'ayriinsoniy bilimga ega.

2. Shialar aqidasi binoan, "imomlar" oddiy insonlar jumlasidan bo'lmay, quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladilar:

1) Faqat Muhammad payg'ambarning (s.a.v.) qizlari Fotimadan tug'ilgan zotlar va ularning bolalari Payg'ambar oilasi hisoblanib, imomlik vakolatining haqiqiy va qonuniy egalaridirlar.

2) Imom Payg'ambar emas. Ammo Payg'ambar bilan oddiy insonlar o'rtasida turadi.

3) Imom har qanday gunohlardan pok bo'lib, hech qachon gunoh va xato qilishi mumkin emas.

4) Imom barcha bo'lib o'tgan va qiyomat kunigacha yuz beradigan ishlardan ilhom orqali voqifdir.

5) Qur'onni tafsir qilish faqat imomga xosdir.

3. Shialarga, ayniqsa, ja'fariya mazhabiga xos bo'lgan bir qator xususiyatlar:

1) Imomat – davlat boshqaruvini imomlarga xos deb ishonish.

2) Qur'onni va undan keyin o'z imomlari tomonidan rivoyat qilingan hadislarni asosiy manba sifatida qabul qilib, ijmo' va qiyosni rad etish.

3) Ayrim namozlarni bir vaqtda qo'shib o'qish.

4) Tahorat qilishda oyoqlarni yuvmasdan unga masx tortish.

5) Vaqtincha nikohni qonuniy deb bilish (Eron Islom Respublikasida).

6) Taqiya, ya'ni xavfli joylarda o'z e'tiqod va mazhabini yashirish.

7) Azon aytishda "ashhadu anxa Aliyan vali-yulloh" (guvohlik beraman Ali Allohning valiyisi, ya'ni do'stidir) iborasini qo'shib aytish.

8) Nasroniy va yahudiy ayollarga uylanish harom deb bilish.

Shuningdek, taloq 2 odil kishi guvohligida qonuniy kuchga ega bo'ladi.

4. Shuningdek, farqli belgilari:

1) Sunniylikda odamlar tomonidan saylanadigan yoki tayinlanadigan diniy yoki dunyoviy rahbar hisoblanadi.

2) Sunniylikning kalimasi: "Ashhadu an la iloha illallohu va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rasuluh".

3) Shialikda “Ollahning inoyati” bo‘lib, u bir imomdan ikkinchisiga o‘tadi. Shialar Ali (to‘rtinchi) (xalifa) va uning avlodlaridan iborat 12 imom (eng oliy rahnamo) hokimiyatini tan oladi. Dastlabki xalifalar Abu Bakr, Umar va Usmonni hokimiyatni zo‘rluk bilan egallab olgan shaxslar deb hisoblab, ularni tan olmaydi. 874–878-yillar orasida 7–9 yoshida bedarak yo‘qolgan (o‘ldirilgan bo‘lishi mumkin deb) 12-imom Muhammad al-Mahdiyni ular yashiringan, zamona oxir bo‘lganda u qaytib keladi va adolat o‘rnatadi, deb hisoblaydi.

4) Shialar Qur’onni ilohiy deb e’tirof etadi.

5) Shialar kalimai shahodatga “Aliyan valiulloh” so‘zini qo‘shib aytadilar.

6) Shialar Sunniylarning Hadislarini tan olmaydi. Shu boisdan Muhammad va uning avlodlari nomi bilan bog‘liq Hadislardan “Axbor” deb nomlangan to‘plam tuzganlar. Bu to‘plam Qur’ondan keyingi ikkinchi muqaddas manba hisoblanadi.


7) **Shialar Sunniylar kabi Makka va Madinani** muqaddas hisoblash bilan birga, Karbalo, Najaf shaharlarida joylashgan shia imomlari qabrlarini ham ziyorat qiladilar. Bu imomlar xalifalar tomonidan o‘ldirilgan deb hisoblaydilar. Din yo‘lida shahid bo‘lganlar, deb motam (Ashuro) marosimini o‘tkazib aza tutadilar. Ular muharram oyining 10-kuni Alining o‘g‘li imom Husayn Iroqdagi Karbalo dashti jangida halok bo‘lgan deb hisoblaydilar. Shu boisdan shialar muharram oyining dastlabki 10 kunligida motam tutadi. Unda “Shoh Husayn, voh Husayn” (shaxse-vaxse) deb qichqirib motam yig‘ilishi o‘tkazadi.

8. **Shialik sharoitida ja’fariylik** mazhabi hukmron O‘rta asrlarda shialikda yuz bergan. Bulardan zaydiylar, ismoiliylar va boshqalar hozir ham mavjud.

Xorijiylar (arab. – ajralib chiqqan, isyonchi) – islomdagi ilk radikal oqim tarafdorlari. Xalifa Ali (k.v.) bilan ummaviylar o‘rtasidagi kurash davomida VIII asr ikkinchi yarmi boshlarida vujudga kelgan. Ular o‘z saflariga qo‘shilmaganlarni “dindan qaytgan” deb ayblab, ularga qarshi murosasiz kurash olib borgan diniy-siyosiy oqim.

Umaviy va abbosiy xalifalar VII–IX asrlarda xorijiylarga qarshi kurash olib borib, ularni qirib tashlagan. Ularning qolganlari Shimoliy Afrikada o‘z davlatini vujudga keltirgan. Xorijiylar xalifalikdagi ko‘p-gina qo‘zg‘olonlarda (Zinjiylar, Abu Muslim qo‘zg‘oloni) qatnashgan. Hozirgi davrda xorijiylarning ibodiylar firqasi G‘arb mamlakatlari

(Jazoir, Tunis va boshqalar)da, Ummon, Tanzaniyada uchraydi (Islom. Ensiklopediya, 2017, 547-bet).



9.3.4-chizma.

4. Mu'tazaliylar (arab. ajralib chiqqan, uzoqlashganlar) – islomdagi ilohiyot oqimlaridan biri. VIII asr o'rtalarida Arab xalifaligida vujudga kelgan. Asoschilari Vosil ibn Ato va Amr ibn Ubayd. Qur'onni diniy haqiqatning manbayi deb e'tirof etadi, uni so'zma-so'z emas, majoziy talqin qiladi. Xalifa Ma'mun (813–833) Mu'taziyalar ta'limotini davlat dini deb e'lon qilgan. Mu'tazaliylar aqidasi (xususan, Qur'on yaratilishi)ni tan olmaganlarni ishdan bo'shatgan. Maxsus jazo muassasasi – mihna tashkil etilgan. Ammo Mu'tazaliylar ta'limoti xalifalikda umuman "shakkoklik" deb e'lon qilingan. Mu'tazaliylar aql-idrokni ilohiyot asosi, deb e'tirof etgan, tasavvufni inkor etishga uringan. Yakkaxudolik va adolat (adl) tarafdorlari deb atalgan. Mu'tazaliylarning asosiy g'oyalari shia islomshunoslari tomonidan o'zlashtirib olindi. Keyinchalik Iroq va Eronda XI–XII asrlarda, Markaziy Osiyoda XIII–XIV asrlarga kelib yo'qolib ketgan. Mu'tazaliylarning gunohi kabira, qabr azobi, avliyolar karomati kabi o'ziga xos qarashlari mavjud. Alloh "Meni ko'ra olmaysan" degan bo'lsada, chiroyli amal qilgan kishilar ko'rishi haqida dalillashga harakat qilgan. Mu'tazaliylar keyinchalik bir necha firqalarga bo'linib ketgan.

5. Qadariylar (arab. qadar, taqdir) – islomdagi oqimlardan biri (qadariya) tarafdorlari. Bu oqim islomda aqidaviy masalalar qatori taqdir

va iroda erkinligi g'oyasini ilgari suradi. Taqdir oldindan belgilanadi g'oyasi asosiy o'rinda turadi. Bu oqim jabariylarga qarshi kurashib odillik Allohning asosiy sifatlaridan biri, Allohdan faqat adolatli ishni kutish mumkin, gunoh ishlar esa inson faoliyati bilan bog'liq, degan g'oyalarni ilgari surgan VIII asr oxirlarida mu'taziylar bu g'oyani davom ettirgan.

1. Jabariylar, jabariya (arab. jabr qiluvchi, majbur qilish) – VII asr oxiri VIII asr boshida islom ilohiyotida paydo bo'lgan oqim tarafdorlari. Jabariya islomda taqdir masalasida adashgan deb tan olingan firqalardan biri hisoblanadi. Sunniylikdagi taqdir masalasini inkor qiladi. Xudo taqdirni oldindan belgilab qo'ygan, insonda hech qanday iroda va faoliyat erkinligi yo'q, bular faqat Xudoda mavjud, inson esa ana shu faoliyatni o'zlashtirib olish imkoniyatiga ega g'oyasini ilgari suradi. Jabariyani hokimiyat tepasida turgan umaviylar qo'llab-quvvatlab, ularga qarshi bo'lgan diniy firqa va siyosiy guruhlar ta'qib ostiga olingan.

2. Mushabbiha (arab. o'xshatuvchilar, o'xshatish tarafdorlari) – islom ilohiyotda Xudoni odamga o'xshatib tasvirlaydigan ta'limot. Mushabbiha e'tiqodicha, Alloh inson suratida bo'lib, uning sochi, tirnoqlari, ajin, ikki qoshi va undan boshqa a'zolari ham bor. Ular Allohning Qur'oni karimda kelgan sifatlarini to'g'ridan to'g'ri o'z aqidalari bilan talqin qilgan. Allohning ham inson kabi badan va a'zolari bor, u ham inson kabi o'tirish uchun kurashga muhtoj degan xulosa chiqargan islom ilohiyoti – kalom tarafdorlari mushabbiha tarafdorlarini rad etib, ularga qarshi kurash olib borgan va ularni sanamga sig'inuvchilar deb qaragan.

Islomdagi oqim va yo'nalishlarning hozirgi kundagi ko'rinishi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev “Ta’lim va ma’rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo’l” nutqida shunday degan edi: *“Muqaddas dinimiz bundan buyon ham xalqimizni birlashtirib, millati va tilidan qat’i nazar, ma’naviy poklanish, odamlarni tinchlik, ezgulik, bag’rikenglik, o’zaro hurmat va totuvlikka undaydigan, o’rnini hech narsa bosa olmaydigan vosita bo’lib xizmat qilishi shubhasizdir”*.⁷⁷

Qur’oni karim, Hadisi sharif, ijmo‘ (arab. ittifoq bo’lish), qiyos va boshqa qo’shimcha manbalardan, har kim ham hukm chiqarib ololmaydi. Fiqh deb mazkur (4 ta) manbalardan to’g’ri hukm chiqarishga aytiladi. Hatto bir oyat ustida sahobalarning turli fikrda bo’lganliklari haqida

⁷⁷ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-1-jild. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.-31-bet.

rivoyatlar bor. Lekin Muhammad a.s. (a.s. – alayhissalom) vafotlaridan so‘ng sekin-asta ixtiloflar, nizoli masalalar ko‘paya bordi. Hijratning 2-asridan boshlab islom shariatini mukammal talqin qila oladigan yirik allomalar (fiqh olimlari, huquqshunoslar) yetishib chiqa boshladi. Ularning eng yiriklari qo‘yidagilardir:

1. Imom A‘zam (Abu Hanifa No‘‘mon ibn Sobit): 699–767-yy.

2. Imom Molik (Abu Abdulloh Molik ibn Anas Asbahiy): 713–795-yy.

3. Imom Shofiiy (Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris): 767–820-yy.

4. Imom Ahmad (Abu Abdulloh Ahmad ibn Muhammad ibn Hanbal): 780–855-yy.

Bulardan tashqari ko‘plab fiqh olimlari o‘tganlar, lekin ularning ijodiy ishlari kitob shakliga keltirilmagan va shuhrat topmagan. Faqat mazkur 4 buyuk zotni yetuk ulamo va fuzalo sifatida vojib deb sanalgan. Chunki shunday qilinmasa 4 ta emas 400 mazhab paydo bo‘lishi mumkin edi.

Bugungi kunda dunyodagi taxminan 1,77 milliard musulmon aholisining 92,5 foizini sunniylar tashkil etib, ular mazhablar bo‘yicha quyidagi nisbatda bo‘linadilar: hanafiylar 47 foizi, shofiylar 21 foizi, molikiylar 17 foizi, hanbaliylar 7,5 foizini tashkil qiladi.

To‘rt mazhab o‘rtasida uncha katta farqlar yo‘q, ko‘p masalalarda bir xillik mavjud. Chunki hammasining ham hukm oladigan manbalari bir. Faqat juz‘iy ixtiloflargina mavjud. Masalan, janobatdan g‘usl qilishning farz ekanligida ular o‘rtasida ixtilof yo‘q. Ammo g‘uslda necha farz bor, degan masalada fikrlar turlicha. Imom A‘zam mazhablarida g‘uslda 3 ta farz: og‘izni chayqash, burunga suv olib tashlash va butun jasadni yuvish. Imom Shofiiy mazhablarida esa farz bitta – butun jasadni yuvish. Og‘iz-burun bu zot nazdida ichki a‘zolari hisoblanadi. Imom A‘zam rahmatullohi alayh nazdlarida esa og‘iz bilan burun tashqi a‘zoldan, deb bilinadi. Shuning uchun ularni ham yuvish farz. Movarunnahr musulmonlari islom dini kirib kelgan vaqtdan boshlab Imomi A‘zam (Hanafiy) mazhabiga taqlid qilib kelganlar. O‘tgan ulamolarning deyarli hammasi ham shu mazhab asosida asarlar bitib qoldirgan.

Islom sunniyligidagi oqim va yo'nalishlar, ko'rinishlari va g'oyalari

1. Hanafiylik mazhabi. Asoschisi Imom A'zam (699–767):

- 1) Fiqhning 4 manbai: 1) Qur'on; 2) Sunna va fikr faqat sahii rivoyatlari asosidagi; 3) Ijmo' (ittifoq); 4) Qiyosga tayanadi.
- 2) G'usl (cho'milish)da 3 ta farz: og'izni chayqash, burunga suv olib tashlash va butun jasadini yuvish. Chunki og'iz bilan burun tashqi a'zolar hisoblanadi.
- 3) Ilm yo'lini tutish g'oyasi ustuvor.
- 4) Ixtiloflar aniqlashtirilgan.
- 5) Aqid (aqida) muammolarini aqliy va falsafiy dalillar bilan isbotlash, ya'ni ilmiga berilish yo'lidan emas, balki fiqh (huquqshunoslik) ilmi va unga tegishli fanlarni o'zlashtirish orqali odamlarga xizmat qilish va ularning hayotiy muammolarini yechishni ustun bilgan.
- 6) Fiqhni tartibli usulga keltirib, barcha dunyoviy masalalarda foyda va zarar ko'rishda sog'lom aqida ta'limotini shakllantirish.
- 7) Hanafiya bir necha vasiyatnoma "Musnad" nomidagi hadis to'plamlari, "Fiqhi akbar" nomli aqidga doir asarlar qoldirgan.
- 8) XI asrda Hanafiylik Sharq G'arb, shimolu janubga o'z nufuzini o'tkazdi. Abbosiylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Mamluklar, Temuriylar, Boburiylar, Shayboniylar davlatlari va Usmoniylar imperiyasi tomonidan rasmiy mazhab sifatida qabul qilindi.
- 9) Ko'pincha sud ishlari ushbu mazhab asosida olib boriladi.

2. Molikiylik mazhabi. Asoschisi Imom Molik (713–795):

- 1) Madinadagi huquq maktabiga tayanib, mazhabga asos solgan. Uning mashhur "Al-Muvatto" kitobi molikiylik mazhabining asosi. Hadis uslubini qabul qiladi.
- 2) U oyat, hadis va ijmo'aga asoslanib hukm chiqargan. Uning ilmiy-huquqiy tafakkuri ko'pincha to'g'ri va uyg'unlashgan. Hanafiy mazhabi kabi urf-odatlarini tan oladi va ilohiy qonunlar bilan uyg'unlashtirish yo'lini tutadi. Ushbu mazhab Ispaniyada keng tarqalgan.

3. Shofiiylik mazhabi. Asoschisi Imom Shofiiy (767–820):

- 1) G'uslda farz bitta-butun jasadni yuvish. Og'iz-burun bu zot nazdida ichki a'zolar hisoblanadi.
- 2) Bu mazhabda qiyos va ra'y cheklab qo'llanadi, Qur'on va sunnani yagona manba deb biladi.
- 3) Hadis yoki ijmo'ga tayanib ish ko'rish mumkinligi aytiladi.
- 4) Fiqh bo'yicha uning mashhur asari "Kitob al-Umm" (Ona kitob, ya'ni asosiy kitob) va usul-ul-fiqh bo'yicha "Ar-Risola" asari Shofiiy mazhabining asosiy manbayi hisoblanadi.
- 5) Olimlar ijmo'sini (ittifoqini) rad qildi, lekin shofiiylik maktabining iste'dodli olimlari ijmo'ni qabul qilishga majbur bo'ldi.


4. Hanbaliy mazhabi. Asoschisi Imom Ahmad ibn Xanbal (780–855):

- 1) Diniy masalalarda erkin fikr yuritishga qarshi bo'lib, shariat qoidalariga qat'iy rioya qiladi.
- 2) Qur'on va Hadislarni erkin talqin etishni qoralagan, shu sabab, bu mazhab keng tarqalmagan.
- 3) Ahmad ibn Hanbal o'z davrida "imomul-muhaddisin" (muhaddislar imomi) deb tan olingan va shuhrat qozongan.
- 4) Manbasi "al-Musnad" kitobini yozgan.
- 5) Imon qalb bilan tasdiqlash, til bilan iqror etish, badan a'zolari bilan amal qilishdir. Amal imonning juz'i bo'lgani uchun u ko'payib ozayadi.

9.3.4-Chizma

Mustaqillik yillarida nafaqat islom dini jamiyatimizda tiklandi, balki uning rivoji bilan bogʻliq boʻlgan buyuk shaxslar – Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Imom Termiziy, Ahmad Yassaviy, Moturudiy, Burxoniddin Margʻinoniy kabi allomalar asarlari, taʼlimotlaridan xalqimiz ilk bor bahramand boʻldi⁷⁸.

1. Hanafiylik – sunniylikdagi diniy – huquq mazhablaridan biri. Abu Hanifa asos solgan. Undan keyin hanafiylik mazhabi qoidalari Abu Yusuf Yoqub, Muhammad Shayboniy, Quduriy (vaf. 1036) va boshqa asarlarida ishlab chiqilgan. Bu mazhab tarafdorlari fiqhning 4 asosiy manbayini eʼtirof etish bilan birga boshqa oqimlar vakillariga nisbatan fiqh talablariga rioya etishning qiyos va ijmoʻ usullaridan kengroq foydalanadi.



9.3.5-chizma.

Hanafiylik mazhabi oddiy huquq (urf)dan ham huquqning keng mustaqil yordamchi manbayi sifatida foydalanishga sharoit yaratadi. Bu hol hayotiy ehtiyojlar va mahalliy odatlarni hisobga olib huquqiy qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bu mazhab qoidalari birmuncha yengil bagʻrikengligi, qulayligi, xalqlar mahalliy anʼanalarini eʼtiborga olganligi sababli XI asrdan Shimol va Sharqqa keng yoyilgan. Kichik Osiyo, Bolqon, Shimoliy Kavkaz, Qora dengiz, Volga boʻylari, Markaziy Osiyo, Afgʻoniston, Hindiston va Xitoyning olis keng

⁷⁸ Saifnazarov I., Obidov A. Dinlararo hamjihatlik – ijtimoiy barqarorlik omili. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2019. – 32- bet.

hududlariga tarqalgan.⁷⁹ Mamluklar, Temuriylar, Boburiylar, Shayboniylar davlatlari va Usmoniylar imperiyasi tomonidan rasmiy mazhab sifatida qabul qilinib, sud ishlari ushbu mazhab asosida olib borilgan.

Hozirgi kunda hanafiylarning jug'rofiy hududi Markaziy Osiyo davlatlaridan boshlanib, Xitoy, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Eron, Iroq, Arabiston, Yaman, Misr, Jazoir, Tunis, Marokash, Turkiya, Indoneziya va boshqa musulmon o'lkalariga yetib borgan. Misrda Hanafiy mazhabining buyuk muftiylari ma'naviy rahbarlik maqomida turib, "shayxul-islom" nomi bilan ataladi. Hanafiylik mazhabi tarafdorlari Hindistonda 48 mln. dan oshiq. Janubiy Amerika va Braziliyada 25 mln. dan ko'p hanafiy musulmonlari mavjud⁸⁰.

2. Molikiylik mazhabi – sunniylikdagi diniy-huquqiy mazhablardan biri. Ushbu mazhab (713–795) Imom Molik ibn Anas qadimiy Madina huquqiy maktabiga tayanib asos solgan. Uning mashhur "Al-Muvatto" kitobi molikiy mazhabiga bag'ishlangan.

Molikiylik Madinada paydo bo'lgan, Arabiston yarim oroliga, keyin Misr, Shimoliy Afrika va Andalusiyaga tarqalgan. Molikiylik tarafdorlari Muhammad (s.a.v.) hayotliklari vaqtida ilk islomda shakllangan fiqh me'yorlarini tan olgan, fiqhning asosiy manbayi sifatida Qur'on va sunnatga tayanadi. Madinaning savodli aholisi yakdillik bilan ma'qullagan qoidalarnigina ijmo' (ittifoq bo'lish) deb hisoblaydi. Shariat hukmlariga monelik qilmaydi. Hozirgi vaqtda ham bu mazhab qoidalarining Marokash, Tunis, Jazoir va Liviyada nikoh-oila va mulkka oid huquqiga sezilarli ta'siri bor. U Livianing bir qator jinoyat qonunlari asosini tashkil etadi (Islom. Ensiklopedik lug'at, 2017, 310-bet.)

3. Shofiiylik mazhabi asoschisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris ibn Abbos (ibn Usmon) ash-Shofiy (767–820) G'azoda tug'ilib Misrda hayotdan ko'z yumgan. Shofiiylik – sunniylikdagi diniy-huquqiy mazhablardan biri. Bu mazhab hanafiylik va molikiylikning diniy-huquqiy ta'limotini o'ziga singdirgan bo'lsada, ko'proq molikiylikka yaqin turadi. Shofiiylikda qiyos va ra'y cheklab qo'llanadi, Qur'on va sunnaga yagona manba sifatida qaraladi. Shofiiylikka ko'ra, Sunnat Qur'onni to'ldiradi, xalos, sunnatning o'zi qiyoslab o'rtacha

⁷⁹ Jo'zjoniy A.Sh. Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo fiqhlari. –T., 2002.

⁸⁰ Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. –T.: "Sharq", 2013. – 33–34-betlar.

hukm chiqarish uchun asos bo‘lmaydi. Shofiiylik tarafdorlari madinalik roviylarning hadislarini ustuvor hisoblab, ular aytgan hadis yoki ijmo‘ga (ittifoq) tayanib ish ko‘rish mumkin deb biladi. Bu g‘oya o‘rta asrlarda Yaqin Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan. X–XII asrlarda Movarounnahrning ayrim viloyatlarida, Shoshda tarqalgan. XIII asr oxiridan Hanafiylik bu hududda ustun bo‘lgan. Keyinchalik bu mazhab ta’siri torayib borgan. Hozirgi vaqtda Misr, Indoneziya, Shimoliy Kavkaz musulmonlari orasida, Sharqiy Afrika mamlakatlarida, qisman Suriyada va Janubiy arab sultonliklarida shofiiylik mazhabi diniy-huquqiy tizimiga amal qiluvchilar bor.

4. Hanbaliy mazhabi. Hanbaliylik – sunniylikdagi diniy-huquq mazhablaridan biri. Imom Abu Abdulla Ahmad ibn Muhammad ibn Hanbal (780–855). Bu mazhab diniy masalalarda erkin fikr yuritishga qarshi bo‘lib, shariat qoidalariga rioya qat’iy turishi bilan ajralib turadi. Hanbaliylik tarafdorlari Qur’on va hadislarini erkin talqin etishni qoralagan, shu sabab bu mazhab keng tarqalmagan. Faqat IX asr 2-yarmida arab xalifaligida mu’taziliylar va ilohiyotdagi hurfikrlikning ta’qib qilinishi tufayli Hanbaliylik ta’siri kengaydi. XII asrda mustaqil mazhabga aylangan. X asrda Eronda, XI–XV asrlarda Suriya va Falastinda Hanbaliylik izdoshlari ko‘p bo‘lgan. Undan keyingi asrlarda Hanbaliylik tarafdorlari yana kamayib ketgan. Hozirda Hanbaliylik Saudiya Arabistonida rasmiy e’tirof etilgan, boshqa mamlakatlarda kam uchraydi (Islom. Ensiklopediya, 2017. 644-bet).

Umuman, mazhablar haqida fikr yuritar ekanmiz, Hanafiylikdagi bag‘rikenglik g‘oyalari mavjud. Abu Hanifa (699–767) kalom ilmida Aqoid muammolarini aqliy va falsafiy dalillar bilan isbotlash, ya’ni kalom ilmiga berilish yo‘lidan emas, balki fiqh, ya’ni huquqshunoslik ilmi va unga tegishli bo‘lgan fanlarni o‘zlashtirish orqali odamlarga keng ko‘lamda xizmat qilish va ularning hayotiy muammolarini yechib berishga erishish imkonini ustun qo‘ydi. Fiqhni tartibli usul holiga keltirib, barcha dunyoviy masalalarning foyda va zarar ko‘rinishlaridagi holatlarini yuzaga chiqarib, sog‘lom aqida asosida ta’limotni shakllantirdi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 7-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasida ta’kidlaganidek, *“Maqsadimiz – islom dinining haqiqiy*

insonparvarlik mohiyatini, ma'rifiy islomni bolalarimiz ongiga singdirish. Shu yo'lda bizning buyuk ajdodlarimiz qanday ulug' ishlarni amalga oshirganlari haqida ular yana shunday maskanlarga kelib o'zlari uchun kerakli bo'lgan, eng muhim bo'lgan bilim va tasavvurlarga ega bo'ladi".⁸¹

Ijtihod (arab. g'ayrat qilish, intilish) – faqih tomonidan shar'iy hukmni hosil qilish uchun barcha bilim va toqatini ishga solish. Ijtihod shar'iy hukmi kelmagan ishning maxsus qoidalarni ishga solib shar'iy hukmini aniqlash uchun qilinadi. Muhammad (s.a.v.) tirikligida u kishidan boshqa odam ijtihod qilmagan. Bu mumkin emas edi. Ijtihod Muhammad (s.a.v.) davrlarida vujudga kelib, sahobalarning Muhammad (s.a.v.) faoliyatlari, aytgan so'zlari xabarlarida ixtilof paydo bo'lgan. Bundan tashqari musulmon jamoasidagi hayot tarzi-ning o'zgarishi tufayli ko'plab huquqiy muammolar tug'ilgan. Shuning uchun ijtihodning asosiy maqsadi yangi yoxud o'tmishdoshlari tomonidan hal etilmagan masalalarni topish, islomga tayanilgan va uni quvvatlagan holda hal etish bo'lgan.

Ijtihod, asosan fiqhga oid masalalarda qo'llangan. Aqida va falsafaga oid masalalarda ijtihod qilish mumkin bo'lmagan. Keyinchalik ijtihod eshigi berkitilgan. Hanafiylardan Kamol ibn Humon ijtihodni da'vo qilgan. Ba'zi zamondosh ulamo va ilmiy muassasalar shaxsiy ijtihod emas, allomalar jamoat bo'lib ijtihod qilish tarafdori bo'lmoqda. Masalan, ijtihodni Islom davlatlari uyushmasi, IHT, Islom fiqhi akademiyalari tashkil qilishi mumkin. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev *“Biz islom dinidan zo'ravonlik va xunrezlik maqsadlarida foydalanishga urinayotgan kimsalarni keskin qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Muqaddas dinimizni doimo himoya qilamiz”* (1-jild, 30-bet).

Fatvo (arab. – tushuntirish, izoh) – shariat, din qonun-qoidalari asosida ulamolar (muftiy, shayx ul-islom) tomonidan biror diniy, huquqiy, siyosiy hamda ijtimoiy masala yuzasidan chiqariladigan hukm, qaror, izoh, ko'rsatma. Fatvo chiqarish huquqiga ega bo'lgan kishi “muftiy” (“fatvo chiqaruvchi”) deb ataladi. Islomning dastlabki davrlarida Muhammad (s.a.v.) safdoshlari, ayniqsa, dastlabki 4 xalifaning turli huquqiy masalalar yuzasidan bergan izohlari, fiqhga

⁸¹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir.-2-jild. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2018.-25-bet.

doir chiqargan qarorlari fatvo deb atalgan. Undan keyingi davrlarda e'tiborli faqihning ijthod yo'li bilan biror masala yuzasidan yoki amaliy ahamiyatga ega bo'lgan biror savolga javob tariqasida bildirilgan fikriga nisbatan fatvo deb atalgan.

Fatvo ilmiy bahslarning natijalari bilan birga ijmo' (ittifoq)ni shakllantiruvchi omillardan biriga aylangan. Bu g'oya turli fiqhiy maktablar birlashishiga olib kelgan. O'tmishda fatvo biror masalada ikkilangan hokim, amaldor yoki oddiy kishi so'roviga ko'ra aniq bir shaxsga bog'liq bo'lmagan holda yozma tarzda va umumiy ko'rsatma shaklida chiqarilgan. Bunday fatvolar asosida ma'muriy qarorlar qabul qilingan yoki tasdiqlangan. XI asrdan boshlab keyingi avlodlar uchun muhim darslik va qo'llanmalar bo'lib xizmat qilgan fatvolar to'plamlari tuzila boshlandi. Marvarudiy (vaf. 1069), Muhammad ibn Rushd (vaf. 1126), Umar al-Buxoriy (vaf.1141), Hasan al-Marg'inoniy (vaf. 1203) kabi fiqhlar tomonidan tuzilgan to'plamlar islom olamidagi ilk va eng mashhur fatvolar to'plamlari hisoblanadi⁸².

Sunniylik islomda ortodoksal (haqiqatga asoslangan) diniy ta'limot hisoblangan, o'rta asrda undan firqalar ajralib chiqmagan. O'rta asr oxirlari va yangi davrga kelib unda firqa va oqimlar paydo bo'lgan va jamiyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsata boshlagan. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev bu haqda shunday degan edi: *“Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olishi, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”* (1-jild, 27-bet).

Islomdagi oqim va yo'nalishlarning hozirgi kundagi ko'rinishlari va ularning islom birligiga tahdidi. 1. Ravshaniylar firqasi. Asoschisi Piri Ravshan (1560–1638). Afg'onistonda vujudga kelgan islom dinidagi firqa. Ravshaniylar an'analari islom an'analariidan birmuncha farq qilgan. Ta'limoti pushtu dehqonlarining mahalliy hukmdorlar va boburiylar siyosatiga qarshi

⁸². Islom. Ensiklopediya. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 506-507 – betlar.

qaratilgan harakat. Bu firqa XVIII asr 30-yillarigacha davom etgan, keyinchalik bostirilgan. Ravshaniylar aqidasi sof islom aqidalaridan farq qiladi.

2. Ahmadiylik firqasi. Asoschisi G‘ulom Ahmad Qodiyoniy (1835–1908). Hindistonning Panjob viloyati Qodiyon qishlog‘ida tug‘ilgan. U islom asoslaridan chetlashib, g‘ayriislomiy g‘oyalarni yaratgan. Diniy ilmlarni mustaqil o‘rgangan va islomga mutlaqo yot aqida va jamoaga asos solgan. Ingliz mustamlakachilariga xizmat qilgan. So‘ngra payg‘ambarlik da‘vosi bilan chiqqan va o‘zini, sof islom ta’limoti himoyachisi qilib ko‘rsatgan.

3. Vahhobiylik firqasi – aqidaparast oqimlardan biri. Asoschisi Muhammad ibn Abdulvahhob (1703–1791). Vahhobiylik “dinni tozalashga, Muhammad (s.a.v.) davridagi asl holiga keltirish”ga harakat qiladi. “Ilk islom axloqlaridan chekingan” musulmonlarga qarshi “kurashadi”. Payg‘ambarlikni da‘vo qilgan. Makka va Madinani egallab tarixiy obidalar, sahobalar dafn etilgan joylarni vayron qilgan, ular fikricha, turli xil obida, mozorlar va avliyolarga sig‘inishni islomga zid deb hisoblaydilar. XVIII asr oxiri va XIX asr birinchi choragida vahhobiylar tarafdorlari batamom qirib tashlandi. Vahhobiylik va “Hizb-at-tahrir” o‘rtasidagi farq:

1) vahhobiylik – asosan payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) zamonidagi islomga qaytish da‘vosi;

2) vahhobiylar davlatni xalifalik tarzida boshqaruv tarafdori emas. Hizbchilar esa aynan xalifalik boshqaruvini o‘rnatishni istaydi;


3) har ikki oqim aqidada farq qiluvchi fikrga ega;

4) vahhobiylik oqimida jihad e‘lon qilish ko‘zda tutilsa, “Hizb at-tahrir” bunday harakatni asta-sekin, bosqichma-bosqich amalga oshirishni targ‘ib qiladi.

4. Nurchilar firqasi. Asoschisi Badiuzzamon Said Nursiy (1873–1960), Turkiyaning Bitlis viloyati Andol shahri Nurs qishlog‘ida kurd millatiga mansub oilada tug‘ilgan. Turkiyada dunyoviy davlat o‘rniga islom davlatini tuzish g‘oyasini ilgari surgan Nurchilar mustaqillik yillarida (1991–1998) O‘zbekistonga ham kirib kelgan. “Turk litseylari” o‘qituvchilari bu oqim

(turkiyalik) tarafdorlari edi. Bularga 2000-yil yanvarida chek qo'yildi.

5. Shuningdek, panislomizm, panturkizm, paneronizm, pansovetizm kabi oqimlar ham mavjud.



9.3.6-chizma.

Islomdagi asosiy yo'nalishlar bir-biridan farqlanuvchi 5 turga bo'linadi:

1. Islomda 3 asosiy yo'nalish vujudga kelgan:

- 1) Sunniylik;
- 2) Shialik (arab. guruh, tarafdorlar);
- 3) Xorijiylar (arab. ajralib chiqqan, isyonchi) – islomdagi ilk radikal oqim tarafdorlari, o'rta asrlarda ko'p firqalarga ajralib chiqqan, keyinchalik yo'qolib ketgan, faqat ibodiylar (abodiy) firqasi saqlanib qolgan.

2. Islomdagi firqalar, mohiyatan aqidaviy ta'limot va marosimchilik masalalarida oz yoki ko'p darajada bir-biridan farq qiladigan diniy guruhlar. Islomda firqalarning eng ko'pi shialikdan ajralib chiqqan. Bular:

1. Shialik:

- 1) Qarmatiylar.
- 2) Ismoiliylar.
- 3) Zaydiylar.
- 4) Nusayriylar.
- 5) Aliilohiylar.
- 6) Druzlar va h.k.

Yangi davrda vujudga kelganlari:

- 1) Bobiylar.
- Bahoiylar.

2. Sunniylik

Sunniylik islomda ortodoksal (haqiqatga asoslangan) diniy ta'limot hisoblangan va o'rta asrda firqalar ajralib chiqmagan. O'rta asr oxirlari va yangi davrga kelib unda firqa va oqimlar paydo bo'lgan. Bulardan:

- 1) Ravshaniylar (XVII asr).
- 2) Ahmadiya, voisovchilar firqalari (XIX asr).
- 3) Vahhobiylik.
- 4) Mahdiylik.
- 5) Panislomizm kabi diniy-siyosiy oqimlar.

9.3.7-chizma.**3. Mazhablar, shariat mazhablari ham islomdagi ajralishning alohida shaklidan iborat.**

Shuningdek, ilohiyat oqimlari mavjud bo'lib, ular islom ilohiyotining shakllanish bosqichida ilohiyatga doir ayrim masalalar bo'yicha ixtiloflar tufayli vujudga kelgan. Bulardan:

- 1) Jabariylar.
- 2) Qadariylar.
- 3) Sifatiylar.
- 4) Murji'iyalar.
- 5) Mu'taziliylar.

Ortodoksal (haqiqatga asoslangan) ilohiyot ta'limoti bo'lgan Kalom shakllanib hukmron rol o'ynagach, ilohiyot oqimlarining barchasi yo'qolib ketgan.

9.4. O'zbekiston allomalarining islom ta'limoti va dunyoviy fanlarni rivojlantirishdagi tarixiy xizmatlari

Islom dinining asosi bo'lgan Qur'ondan keyingi manba – Hadis buyuk bobolarimiz tomonidan to'plangan. Ular islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan.

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) nomlaridan 14 mingga yaqin hadis to'qilgan. Shu bois ular qayta-qayta tekshirilib olimlarimizning betinim mehnati natijasida asl holiga keltirilgan. Hadis

ilmining rivojida oltin davr hisoblangan hijriy uchinchi (milodiy IX–XII asr) asr katta bosqich bo‘ldi.

Islomni nazariy jihatdan rivojlantirishda Markaziy Osiyoda: Imom al-Buxoriy, al-Moturudiy, al-Marg‘inoniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro kabi mutafakkirlarni islom olami, dunyo tanidi.

Vatanimizda butun islom dunyosida eng nufuzli manbalar deb tan olingan 6 ta ishonchli hadislar to‘plamining mualliflari yashab ijod qilganlar:

1. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810–870).
2. Imom Muslim ibn al Hajjogi (819–875).
3. Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (824–892).
4. Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy (817–880).
5. Imom Ahmad an-Nasoiy (830–915).
6. Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazib ibn Mojja (824–886) kabi.

Ushbu muhaddislarning har biri Hadis ilmining rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan benazir olimlardan hisoblanib, ularning tabarruk nomlari abadul-abad yashaydi.

Abu Mansur Moturudiy (870–944). Imom Buxoriy vafotidan so‘ng uning nurli qalamini Imom Moturudiy olib, ul zotning xayrli ishlarini davom ettirdi. Islom olamida **“Musulmonlarning e’tiqodini tuzatuvchi”** degan yuksak sharafga sazovor bo‘lgan. Ul zot asos solgan moturudiya maktabi Sharq mamlakatlarida bunday katta shuhrat topishining sababi shundaki, unda ilgari surilgan g‘oyalar islom dinining asosini to‘g‘rilik, ezgulik va insoniylikdan iborat deb biladigan jamiki mo‘min-musulmonlarning qarash va intilishlari bilan hamohang edi. Shavkat Mirziyoyev bu haqda shunday degan edi: *“X asrda samarqandlik mutafakkir, “Imom al-Huda” (Hidoyat-yo‘lining imomi) deb shuhrat qozongan Abu Mansur Moturudiy tomonidan asos solingan moturudiya ta’limoti butun islom olamida keng tarqalgan” (1-jild, 29-bet).*

Ilohiyot muhaddis olimlari

1. Imom al-Buxoriy (810-870) zehni o'tkirligi va yodlash qobiliyatining kuchliligi bilan shuhrat qozongan. 6000 mingdan ziyod hadis to'plagan va uning 7275 tasini "ishonarli" deb topgan. 300 mingdan ortiq hadisni yod olgan. Hasadchilar tufayli Buxoro amiri bilan ixtilof kelib chiqib, Samarqandga ko'chishga majbur bo'ladi. 62 yoshida vafot etadi. Undan 20 dan ortiq asar qolgan. Ular ichida:

- 1) **"Al-Jome' as-sahih"** (Ishonarli to'plam) islom olamida Qur'ondan so'ng ikkinchi muqaddas manba kitob, deb e'tirof etilgan. XII asrdirki, bu kitob millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo'liga chorlab kelmoqda.
- 2) **"Al-Adab al-mufrad"** (Adab durdonalari) eng mashhurdir.

2. Iso At-Termiziy (824-892)ning hadislar to'plami – "Al Jome' as-sahih" deb ataladi. At-Termiziy hadislarini 3 guruhga ajratadi. Ular; 1) "Sahih"; 2) "Hasan" va 3) "zaf" deb atalgan. "Sunnani Termiziy" asari ham musulmon olamida yuksak qadrlanadi. Olimu fuzalolarga dastur bo'lib kelgan insof va adolat, insonparvarlikni targ'ib etuvchi g'oyalari hozir ham muhim ahamiyatga ega.

3. Muslim an – Nishopuriy (817-875) qalamiga mansub hadislar to'plami ishonchli deb tan olingan.

9.4.1-chizma.

1. Al-Moturudiy konsepsiyasining ahamiyati shundaki, u sof din doirasidan chiqib, aql-idrokni ulug'laydi va mantiqan asoslangan bilimning ahamiyatini ta'kidlaydi. Uning "Kitob at-tavhid" asari bor. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev fikricha, *"Moturudiya ta'limoti ilm egallash jarayonida bag'rikenglik g'oyasi asosida inson aql-zakovatining o'rni va ahamiyatiga yuksak e'tibor qaratdi. Bu o'z navbatida ushbu ta'limotning keng ommalashuvida muhim o'rin tutgan. Bunday g'oyalarga bugungi kunda ham insoniyat katta ehtiyoj sezmoqda"* (1-jild, 29-bet).

2. Burhoniddin al-Marg'inoniy (1123–1197) islom huquqshunosligida fundamental asar yaratgan. "Hidoya" (1178) asari sud-huquq amaliyotida asosiy qo'llanmadir.

3. Yusuf Hamadoniy (1048–1140) yassaviya, nAQSHbandiya, kubraviya, bektoshiya kabi tariqatlarni yuzaga keltirgan.

4. Najmiddin Kubro (1145–1221)ning ta’limoti kubraviya nomi bilan bog‘liq.

5. Xoja Muhammad Bahovuddin NAQSHband (1318–1389) ta’limotida ixtiyoriy faqirlik yotadi. “Dil ba yoru, dast ba kor”, ya’ni “doimo ko‘ngling Allohda, qo‘ling esa mehnatda bo‘lsin” degan va hokazo. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev *“Qashqadaryo zaminida buyuk alloma, moturudiya ta’limotining yirik vakili Abu Muin Nasafiy bobomiz yashab o‘tganlar. U kishi uzoq muddat Buxoro va Samarqandda tahsil olib, kalom ilmi, ya’ni islomiy e’tiqod pokligi masalasida 15 ga yaqin kitob yozganlar. Ana shu kitoblarida, bundan ming yil oldin din masalasida adashganlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatganlar”* (1-jild, 467-bet), degan edi.

Abu al-Mu’iyn an-Nasafiy va uning ilmiy merosi Nasafiy (1068–1142 hijriy). Uning 3 kitobdan iborat (100 bosma taboq hajmda): “Taysir fit-tafsir” (“Tafsir eshitishdagi qulayliklar”), shuningdek, tasavvufga doir “Risolayi Najmiya” kitobi bizgacha yetib kelgan bo‘lib, ular yetarli tadqiq etilmagan.

Musulmon olamida Nasafiy asarlariga qiziqish qadimdan katta bo‘lgan. Uning she’riy shaklda, aruzning rajaz bahrida yozilgan “Kelishmovchiliklar haqida An-Nasafiy manzumasi” asarida mazhablar va ular o‘rtasidagi munozarali masalalar haqida fikr yuritiladi.

Iyjiy (vaf. 1355), Sa’duddin Taftazoniy (vaf. 1390) va boshqa ko‘plab taniqli olimlar Nasafiy ta’limotiga tayangan holda faoliyat ko‘rsatib, kalom ilmida barakali ijod qilib, yetuk olimlar darajasiga ko‘tarilgan hamda o‘z davrining faqihi va usulchi olimi sifatida ham shuhrat qozongan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Assambleyasi 75-sessiyasidagi nutqida shunday degan edi: *“Mamlakatimizda diniy erkinlik borasida ham vaziyat keskin yaxshilandi. Millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglikni yanada mustahkamlash biz uchun doimiy muhim vazifadir”*.⁸³

Yurtimizda diniy e’tiqod erkinligi ta’minlangani, diniy ta’lim muassasalari faoliyat yuritayotgani, turli millat va elat, din va konfessiya vakillari o‘rtasida do‘stlik hamda hamjihatlik muhitini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilayotgani O‘zbekistonning diniy bag‘rikenglik siyosati natijasidir. Davlatimiz rahbari tomonidan

⁸³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambliyasining 75-sessiyasidagi nutqi// “Xalq so‘zi”, 2020 yil 24 sentabr.

2017-yilni sentiabrida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida islom dinining dunyo miqyosidagi o'rnini, ajdodlarimizning dinimiz rivojiga qo'shgan hissasiga yuksak baho berilib, "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" nomli rezolutsiya hamda "Yoshlar huquqlari to'g'risida"gi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish taklifi ilgari surildi. 2018-yilning 12-dekabrida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyusiyasi qabul qilindi. Ayni vaqtda BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya loyhasi ishlab chiqilib, xalqaro miqyosda muhokama qilinmoqda, 2018-yilda Samarqand shahrida Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi bo'lib o'tgani hamda ushbu xalqaro anjuman yakunida qabul qilingan Inson huquqlari bo'yicha Samarqand deklaratsiyasi BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasining rasmiy hujjati maqomiga ega bo'lgani O'zbekiston yetakchisi tomonidan ilgari surilgan xalqaro miqyosdagi tashabbuslarning amaliy natijasi bo'lgan.

Yurtimizda ezgu niyatlar bilan muqaddas islom dinining asl g'oyalarini xalqimizga yetkazish maqsadida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, Mir Arab oliy madrasasi, Hadis ilmi maktabi, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining tashkil etilganini aytib o'tish o'rinli⁸⁴.

Ham ziyorati kvotasi 5 mingdan 7200 nafar oshirildi; safar bilan bog'liq xarajatlar esa kamaytirildi. Umradan esa kvota umuman olib tashlandi va hozirgi yilning istalgan vaqtida umra ziyoratini amalga oshirish imkoni paydo bo'ldi. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun qayta yangilanmoqda. O'tgan davr mobaynida O'zbekistonda diniy tashkilotlarni ro'yxatga olish jarayoni soddalashtirildi. Jumladan, ularni ro'yxatga o'tkazish uchun davlat boji miqdori 50 foiz kamaytirilib, talab etiladigan hujjatlar soni qisqartirildi. Shuningdek, endi yiliga 4 marta emas bir yilda bir marta hisobot berish belgilandi.

Ixvon as-Safo (arab.– sof birodarlar) – IX asrda Basrada paydo bo'lgan va Ola Buya sulolasi hukmronligi (946-1055) davrida faoliyat

⁸⁴ Ismoil Saifnazarov, Azamat Muhtarov, Tursunboy Sultonov, Abdurauf. Tolibov. Religious toberance, unity of Knowledge and faith issues highlghlightingin Iman Bukhari Hadiths. International Jomol of Advanced Science and Technology. Vol. 29.№.5 (2020). PP. 1846-1853.

olib borgan diniy-falsafiy maktab⁸⁵. Uning vakillari o‘z nomlarini e‘lon qilmasdan 52 ta risola yozib tarqatgan. Ularning maqsadi falsafiy, tabiiy-ilmiy bilimlarni yoyish bo‘lgan. “Risolar to‘plami” X asrda Movarounnahr va Xurosonda keng tarqalgan. U chuqur falsafiy mazmunga ega bo‘lib, omma uchun emas ziyolilarga mo‘ljallangan. Bu to‘lgan bizgacha yetib kelgan va 1995-yilda Eronda chop etilgan. 1150-yilda xalifa Mustanjid risolalarning barchasini yondirishga buyruq bergan, lekin ko‘p nusxalari saqlanib qolgan, forsiy va turkiyga tarjima qilingan. Risolar riyoziyot va mantiq, tabiatshunoslik va ruhshunoslik hamda ilohiyot va shariatga bog‘langan Ixvon as-Safo vakillari o‘zi orzu qilgan insonni tarbiyalash tizimini ishlab chiqqan. Ixvon as-Safo risolalari barcha musulmon mutafakkurlari va tasavvuf ahliga katta ta‘sir ko‘rsatdi. XVI asr oxiriga kelib mustaqil yo‘nalish sifatida yo‘qolib ketgan.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Islom dinining asosiy aqidasi nimalardan iborat?
2. Qur‘oni karim qachon nozil bo‘la boshladi?
3. Qur‘on qanday qism va bo‘limlardan iborat?
4. Islom ma‘naviy dunyosi taraqqiyot bosqichlari.
5. Kalom falsafasi hamda islom dinining muqaddas manbalarini bayon eting.
6. Hadislarning turlari.
7. Moturudiya ta‘limoti va uning mazmun-mohiyati.
8. Islomda jannat va do‘zax eshiklari tushunchalari.
9. Islomdagi ilk bo‘linish, Ixvon as-Safo falsafiy maktabi.
10. Tasavvuf (so‘fiylik) tariqatlari.

Testlar:

- 1. “Jaholatga qarshi-ma‘rifat” markazi qachon tashkil etildi?**
 - A) 2018-yilda
 - B) 2019-yilda
 - C) 2017-yilda
 - D) 2020-yilda

⁸⁵ Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi.-1-kitob. –T.: “Ma‘naviyat” nashriyoti, 2019.-546-bet.

2. “Din”, bu –

A) O‘zbek tilida “ishonmoq”, xudo yoki g‘ayritabiiy kuchlar mavjudligiga ishonmoq, degan ma’nalarni anglatadi.

B) Arab tilida ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, bo‘ysunish degan ma’noni bildiradi.

C) Uyg‘urcha so‘z bo‘lib, itoat etish ma’nosini bildiradi.

D) Tojikcha so‘z bo‘lib, ishonmoq ma’nosini bildiradi.

3. “Islom” so‘zi asosan uning ma’nalari nimani bildiradi?

A) Itoat, bo‘ysunish, ixlos, sulh va omonlik, iymon keltirish ma’nalarni anglatadi.

B) Yaxshilik, muruvvat, samimiylik, xayr-sadaqa, hadiya etish ma’nalarni bildiradi.

C) Ehson va qiyomat-marhumlarining qayta tirilish ma’nosi.

D) Jannat va do‘zax haqidagi bilimlarni anglatadi.

4. Sufiylik (tasavvuf) tariqatlari qaysilar?

A) NAQSHbandiylik, yassaviylik, kubroviylik

B) Qodiriylar, Bektoshiylar, Safaviylar

C) Salafiylar, Rashidiylar, Rahmoniylar

D) Mavloviylar, Suhravardiya, jaloliylar

5. Kubraviylik – tasavvuf tariqatining asoslari qaysilar?

A) Tavba, zuhdi, tavakkul, qanoat, uzlat, tavajjuh, sabr, rizo, muroqaba, uzluksiz zikr

B) Qur’on hikmatlari, Hadis ilmi, insofu adolat, halollik, to‘g‘rilik, oriflik, oshiqlik, xilvat va uzlat

C) Allohni zikr qilish, har bir qadamiga nazar solish, eslash, Allohni esdan chiqarmaslik, maqsadim sensan, qalb haqdan xabardor bo‘lishi, zohiran xalq bilan

D) Iymon, tahorat, namoz, zakot, ichimliklar, Hadiyalar, jihod.

Esse mavzulari:

1. Islom dinining muqaddas manbalari.

2. Islomdagi mazhablar va yo‘nalishlar

3. Tasavvuf (sufizm) ta’limoti va tariqatlari.

4. O‘zbekiston allomalarining islom ta’limoti va dunyoviy fanlarni rivojlantirishdagi tarixiy xizmatlari.

5. Kalom falsafasi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dinshunoslik asoslari. O‘quv qo‘llanma / Ochildiyev A. va boshqalar. –T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 320 b.

2. Основы религиоведения: Учеб./ Г.Т.Тулеметова, Э.Ф. Ибрагимов / Отв. ред. Хасанов А.А. – 2-э изд., перераб. и. доп. –Изд. «Ташкент ислом университети» нашриёт-матбаабирлашмаси. 2015. – 265 с.

3. I. Saifnazarov, T. Sultonov, J. Ilhomjonov, R. Xalimmetova. “Dinshunoslik”: O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISODIYOT”, 2019. – 220-b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevori. – T.: «O‘zbekiston», 2018. – 64 b.

4. Qur’oni karim ma’nolari tarjimasi. Tarjima va izohlar muallifi Mansurov A. – T.: Sharq, 2012.

5. Islom. Ensiklopediya. – T.: “O‘zbek milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 218 bet.

6. Farfiyev B.A. O‘zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida islom ratsionalizmi omili. Monografiya. –T.:”O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2019. -228 b.

7. Jo‘rayev T., Paxrutdinov Sh. Dunyoviy davlatchilik va siyosiy-lashgan diniylik: azaliy muxolifat. – T.: «Akademiya», 2008. – 84 b.

8. Nizomiddinov N. Sharqiy Osiyo diniy-falsafiy ta’limotlari va Islom. Nizomiddinov N.G‘., Hasanov A. – T.: O‘zR FA davlat Adabiyot muzeyi, 2006. – 152 b.

9. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. –T.: Sharq, 2014.–536 b.

10. Tulepov A. Internetdagi tahdidlardan himoya: Yordamchi o‘quv qo‘llanma. Mas’ul muharrir A.Hasanov. –Toshkent: “Movarounnahr”, 2016. – 672 b.

11. Hasanboyev O‘. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo‘nalishlari. – T.: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. – 552 b.

10-MAVZU. MISSIONERLIK VA PROZELITIZM, DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZM: MAFKURA VA AMALIYOT, ULARGA QARSHI KURASH STRATEGIYASI

Reja:

10.1. Missionerlik va prozelitizmning mazmun-mohiyati. Diniy sektalar va ular faoliyatining oqibatlari.

10.2. Ekstremizm, terrorizm tushunchalarining mazmun-mohiyati. Diniy ekstremizm va terrorizmning moliyaviy manbalari.

10.3. O‘zbekiston Respublikasida diniy ekstremizm va terrorizm xavfining oldini olishning huquqiy asoslari.

10.4. Yangi diniy harakatlarning noqonuniy faoliyatlari. O‘zbekiston Respublikasida faoliyati aniqlangan norasmiy jamoalar.

10.1. Missionerlik va prozelitizmning mazmun-mohiyati. Diniy sektalar va ular faoliyatining oqibatlari

Missionerlik (lot. missiya – yuborish, topshiriq; arab. tobshar, mubashshirlik so‘zidan) – biror-bir dinga e‘tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ‘ib qilish.⁸⁶ Ushbu so‘z lotin tilidagi “missio” fe‘lidan olingan bo‘lib, “yuborish”, “vazifa topshirish”, missioner esa “vazifani bajaruvchi” degan ma’nolarni anglatadi. Missionerlik esa belgilangan vazifalarni hal qilishga qaratilgan nazariy va amaliy faoliyat majmuini bildiradi. Har yili qayta nashr qilinadigan “Jahon kitobi” (“World Book”) ensiklopediyasida “Missioner biror diniy guruh tomonidan boshqalarni o‘z diniga targ‘ib qilish va kiritish uchun”, degan fikr qayd etilgan. Moskvada nashr qilingan “Kirill va Mefodiyning katta ensiklopediyasi”da esa “Missionerlik biror diniy birlashma vakillarining o‘z e‘tiqodini boshqa din vakillari orasida yoyish harakati”, degan ta’rif keltirilgan. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, *“Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo*

⁸⁶ Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. -1-kitob. –T.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2019.-815-bet.

bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir" (1-jild, 27-bet).

Missionerlik, asosan, nasroniylikka xos, IV asrda paydo bo'lgan. XIII–XVI asrlarda nasroniy missionerligi Hindiston, Xitoy, Yaponiyaga kirib bordi. Katolik cherkovida missionerlik Ispaniya va Portugaliya imperiyalari tashkil topgach (XIII–XVI asrlar), faoliyatini kuchaytirdi. Missionerlik Rim imperiyasiga yangi yerlarni o'z ta'siri ostiga olishda katta yordam berdi. Katolik missionerligiga rahbarlik qilish uchun papa Grigoriy XV 1662-yilda Diniy targ'ibot kongregatsiyasini ta'sis etdi. Missionerlar XIX asrda faollashdi, ayniqsa nasroniy missionerlari Afrikada faoliyatlarini kuchaytirdilar va o'z mamlakatlarining siyosatini o'tkazishga yordam berdilar⁸⁷.

O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi (1998) Qonuni 5-moddasiga ko'ra, O'zbekistonda missionerlik faoliyati man etilgan.

Yuqoridagi xristian missionerlik ko'rsatma va aqidalar konkret tarixiy sharoitlar bilan bog'liq bo'lib, u o'z davri uchun to'g'ri hisoblanadi. Vaqt, sharoit o'zgarishi bilan u o'zining birlamchi ahamiyatini yo'qotgan. Bunday ko'rsatmalar o'sha davrdagi tarixiy vaziyatni tushunish va baholashda himmatdorlik kasb etadi. Ya'ni, o'sha davrda (eramizning 1 minginchi yillarida) Iso Masih tomonidan qilingan bunday da'vatlar ko'p xudolik o'rniga yakka xudolikni targ'ib qilish bilan bog'liq edi. Bugungi kunda jahon ahlining mutlaq ko'pchiligi yakka xudolikka asoslangan dinga e'tiqod qiladi. Demak, shunday ekan hozirgi davrda missionerlik bilan shug'ullanish uchun g'oyaviy asos qilib olish tarix haqiqatiga zid.

⁸⁷ Islom. Ensiklopediya. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017 y. - 306-bet.

	<p>Missionerlik (lot. missiya) ning mazmun-mohiyati. Missionerlik – bir dinga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ'ib etish</p>
→	<p>1. Missionerlik (asosan xristianlikka xos) faoliyatining asosiy manbayi, obyekti: yoshlardir. Chunki, yoshlar faol ijtimoiy kuch, turli mafkuraviy tashqi ta'sir va tazyiqlarga tez beriluvchan, harakatchan qatlam. Butun dunyo universitet va kollejlarda 37 milliondan ortiq talaba tahsil olib, ular 20 yildan so'ng yirik mansablarni egallaydi.</p>
→	<p>2. Missionerlikning qadimiy va samarali usuli jamiyatning muhtoj qatlami orasida “beg'araz” xayriya yordami ko'rsatish orqali, turli tadbirlar uyushtirib, so'ngra ular bilan maqsadli ish olib borish. Masalan, xalqimiz keng nishonlaydigan “Yangi yil”, “8-mart – xalqaro xotin-qizlar kuni”, “Navro'z”, “Xotira va qadrlash kuni” va hokazo “Yordamlar”ni shu bayramlarga moslashtirishga harakat qiladi.</p>
→	<p>3. Uyma-uy yurib “Xushxabar” yetkazish usuli. Bugungi kun dolzarb masalalari bilan suhbatlashib, ularning dardlariga qiziqish bildirib, ushbu muammolardan chiqish yo'lini taklif qiladi, o'z tashkilotiga jalb qiladi.</p>
→	<p>4. Yaqin qo'shnilar orasida uyma-uy yurib, kitob tarqatish, maktab, kollej, litsey, oliy o'quv yurtlari yoshlari orasida maqsadli targ'ibotga alohida e'tibor beradi, moddiy va ma'naviy yordam berib, o'zlariga qiziqtiradi.</p>
→	<p>5. Ta'lim-tarbiya sohasida missionerlarning maqsadi o'z g'oya va qarashlarini tadrijiylik bilan maqsadli olib boradi. Masalan, adventistlarning (xristianlikka doir) dunyo bo'yicha 5 mingdan ortiq o'quv markazlarida, “Xudo assambleyalari” cherkovlarida, Bibliya maktablariga egalik qilayotganligi bilan izohlash mumkin.</p>
→	<p>6. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida missionerlar turli volantyor tashkilotlar niqobi ostida ta'lim tizimiga kirib olishga urinishdi, turli til, kompyuter, sport to'garaklari tashkil qilish niqobi ostida o'z dinlarini targ'ib qilishga uringan.</p>
→	<p>7. Missionerlik tashkilotlari o'z dinlarini targ'ib qilishda audio, video, elektron mahsulotlar, gazeta-jurnallar, teledasturlar, internetda onlayn o'quv kurslari tashkil etish orqali o'z g'oyalarini singdiradi.</p>
→	<p>8. Missionerlikning bugungi kundagi o'ziga xos ko'rinishi mutaassiblikdir. Mutaassiblik – (mutaassiblik-fanatizm, o'z e'tiqodi to'g'riligiga o'ta qattiq ishonish, boshqa diniy e'tiqodlarga murosasiz munosabatda bo'lishdir).</p>
→	<p>9. Xristian missionerligi tayanadigan g'oyaviy-aqidaviy asoslari: 1) “Missionerlik har bir dindor uchun shart” g'oyasi. “Injil”da keltirilgan quyidagi so'zlar asos qilib olinadi: “...15. Iso shogirdlariga dedi: “Butun jahon bo'ylab yuringlar va hamma tirik jonga injil xushxabarini targ'ib qilinglar”. 2) “19. ... barcha xalqlardan shogird orttiringlar. Ularni Ota, O'g'il va Muqaddas Ruh nomi bilan cho'qintiringlar”. “20. Men Sizlarga buyurgan hamma narsalarga amal qilishni ularga o'rgatinglar...”</p>

10.1.1-chizma.

O‘zbekiston Respublikasi Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, *“Muqaddas Islom dinimizning bag‘rikenglik va insonparvarlik g‘oyalarini tarannum etish, uning tinchlik va barqarorlik, dinlar va millatlararo totuvlik tamoyillariga asoslangan din ekanligini keng targ‘ib etish, musulmon mamlakatlarining birdamligini mustahkamlash, umumiy islom merosini asrab-avaylash yo‘lida hamkorlikni kuchaytirishdan iborat”* (1-jild, 417–418-betlar).

Prozelitizm – biron-bir dinga ishongan fuqaroni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘z dinidan voz kechishga va o‘zga dinni qabul qilishga majbur qilishni anglatuvchi atama.⁸⁸ U o‘z mohiyatiga ko‘ra, missionerlikning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Prozelitizm keltirib chiqarayotgan salbiy oqibatlarini ayrim hayotiy misollarda ham ko‘rish mumkin. Xususan, bizga qo‘shni bo‘lgan ayrim davlatlarda xristian dinini qabul qilgan kishilar vafot etganda jasadni qabristonga qo‘yish bilan bog‘liq muammolar kelib chiqmoqda. Mayitning mozoriga dafn etishni xohlamaganlari, musulmonlar esa xristian dini vakili jasadini o‘z musulmon birodarlari yotgan joyga qo‘yishni istamaganliklari natijasida kelishmovchiliklar yuzaga kelmoqda.


Shuningdek, xristian dinini qabul qilgan kishi o‘z o‘g‘lini xatna qildirishni xohlamagani, uning otasi esa, o‘z nabirasini musulmon urf-odatlariga ko‘ra xatna qildirishni istagani tufayli otabola o‘rtasida janjallar kelib chiqqani ham ma’lum.

Xristian yoki boshqa dinni qabul qilgan qizning turmushga chiqishi ham muammoga aylanmoqda. Oilada qizning ota-onasi musulmon. Albatta, ular o‘z qizlarini musulmon kishiga turmushga chiqishini istaydilar. Ammo xristianlikni qabul qilgan qizga musulmon kishining uylanishi amri mahol.

Yuqoridagi kabi misollarni yana davom ettirish mumkin. Ammo shularning o‘zi ham missionerlikning tarkibiy qismi bo‘lgan prozelitizm harakatlari boshqa dinni qabul qilgan tub millat vakillari oilalarida nizolar va janjallarning avj olishiga hamda xristianlikning ayrim yo‘nalishlari vakillariga nisbatan dushmanlik hissiyotlarining

⁸⁸ Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 2-kitob. –T.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2019.-88-bet.

paydo bo'lishi orqali dinlararo nizolarning kelib chiqishiga zamin yaratishi mumkinligini yaqqol tasavvur qilish imkonini beradi.



10.1.2-chizma.

Ayrim xalqaro tashkilotlar o'z hukumatlari tomonidan moliyalashtirilgan dasturlarga binoan MDH davlatlaridan talaba va

o‘quvchilarni u yoki bu mamlakatga yuborib, ularni dindor fuqarolarning oilalariga joylashtirish va shu yo‘l bilan bir yil davomida ularni prozelitizmga aylantirishdek maqsadlarni ko‘zlab faoliyat olib borganini ko‘rsatadi. Ayrim missionerlik bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar e‘tiqodiy o‘zgarishlar obyektini qilib tanlangan davlatlarga o‘z hukumatlari qo‘llab-quvvatlashiga tayanib, kirib borishga harakat qilayotganliklarini ham ko‘rsatadi.

Diniy sektalar va ular faoliyatining oqibatlari. Diniy sekta deganda e‘tirof etilgan yirik diniy yo‘nalishlarning rasmiy aqidalardan farqli tarzda faoliyat olib boradigan diniy guruhlar tushuniladi. Yoxud, boshqacha aytganda sekta – ma‘lum bir dindagi rasmiy aqidalarga zid ravishda ajralib chiqqan yoki mavjud dinlar va konfessiyalarga umumiy aloqasi bo‘lmagan holda din bayrog‘i ostida faoliyat ko‘rsatadigan guruhlardir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, *“Barchamiz qat’iy ishonamizki, xavfsizlik yagona va bo‘linmasdir va uni faqat birgalikdagi sa’y-harakatlar bilan ta’minlash mumkin. Biz xavf-xatarlarning ba’zi birlarini “o‘zimizniki”, boshqasini esa, “birovniki”, deb qabul qilmasligimiz kerak, aniqroq aytganda, bunday qilishga haqqimiz yo‘q”*.⁸⁹

Bugungi kunda missionerlik faoliyati bilan asosan turli sektalar shug‘ullanadi. Hozirgi kunda 5000 atrofida sektalar faoliyati aniqlangan.

Sekta, bu – faqat o‘zini haq din, insonlarni najotga yetaklovchi deb da’vo qiladigan, aslida esa muayyan siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni ko‘zlaydigan guruh hisoblanadi. Psixologlar mazkur sektalarni “ommaviy ijtimoiy-psixologik qirg‘in quroli” deb ta’riflaydilar. Ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston bilan chegaradosh bo‘lgan davlatlarda birgina Rossiyaning o‘zida “Богородичий центр”, “Серков объединения”, “Серков Иисуса”, “Серков Нового Завета”, “Белое братство”, “Божественный орден Первого Ангела”, shuningdek, “Farhat ata”, “Dianetika” kabi yuzlab diniy sektalar faoliyat olib bormoqda. Ayniqsa, ma’lumotlarga ko‘ra, o‘ta xavfli

⁸⁹ Ochilidiev A. Najmiddinov J. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo‘llari (yuz savolga-yuz javob). – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2009. – 21-22-betlar.

bo‘lgan bu sektaning Rossiyada 100 ming, yer yuzida 5 milliondan ortiq tarafdorlari bor⁹⁰.

Mazkur sektalar aholining diniy bilimlari pastligidan foydalanib, oxiratning yaqinligi bilan qo‘rqitish hamda asosan yoshlar va moddiy ahvoli nochor bo‘lganlar ichida tashviqot olib borish yo‘li bilan o‘z tarafdorlarini ko‘paytirishga harakat qilmoqda.

Boshqa dinlarda bo‘lgani kabi musulmonlar ichida ham sektalar, firqalar bor. Payg‘ambarimiz aytganlaridek, islom dinida 73 ta firqa bo‘linish yuz bergan. Ularning bittasigina to‘g‘ri yo‘lda (Ahli sunna va-jamoa) Sunniylik, qolganlari esa, zalolatda hisoblanadi. Qur‘on oyatlari va Hadislar firqalarga bo‘linmaslikka buyuradi.

**DINIY SEKTALAR O‘Z
MAQSADLARIGA ERISHISH UCHUN
AMAL QILADIGAN**


insonning ma'naviy va jismoniy kamolotga erishishga bo‘lgan intilishidan foydalanish
aholining diniy bilimlari pastligidan foydalanish
oxiratning yaqinligi bilan qo‘rqitish
asosan yoshlar va moddiy ehtiyojmand kimsalarni o‘z ta'sirlariga olish
yashirin faoliyat olib borish va sekta ichida bo‘layotgan voqealarning ko‘pchilikka ma'lum bo‘lib qolmasligini qattiq nazorat qilish.

10.1.3-chizma.

Missionerlik faoliyatlarini amalga oshirishning moliyaviy manbalari. Missiyani moddiy-moliyaviy ta‘minlashda ishlab chiqarish tuzilmalarining, missioner kadrlar tayyorlash va ko‘ngilli homiylarni topishda missionerlik bazalarining ahamiyati beqiyos. Moliyaviy manbalari: talon-taroj, qaroqchilik, o‘g‘rilik, bosqinchilik, qora bozordagi neft savdosi, odamlarni qul qilib sotish (IShID) va shu kabilar. Mana shunday kuch va tayyorgarlik bilan xalqaro missiya

⁹⁰Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. -2-jild. -T.; "O‘zbekiston" NMIU, 2018.-363-bet.

istalgan mamlakatda tegishli targ'ibot-tashviqot ishlarini samarali tashkil etishga urinadi.



10.1.4-chizma.

Qayd etilgan xususiyatlar ham zamonaviy xalqaro missiyalar o'z faoliyatini tizimli va tadrijiy tashkil etayotgani haqida xulosa chiqarish imkonini beradi⁹¹.

Missionerlikka qarshi kurashning huquqiy-amaliy asoslari.

So'nggi yillarda mamlakatimizda tashkil etilgan Islom silvilizatsiyasi markazi, Xalqaro Islom akademiyasi, Mir Arab oliy madrasasi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari boy ilmiy-tarixiy merosimizni o'rganish va targ'ib qilishga xizmat qilmoqda. "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillash-tirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi" tasdiqlandi (2018-yil 16-aprelda).

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev shunday degan edi: *"Adashib jinoyat yo'liga kirgan yoki sodir etgan qilmishlaridan chin dildan pushaymon bo'lgan insonlarga yana bir bor imkon berish, ularni jamiyatga, oilasi bag'riga qaytarish muhim ijtimoiy*

⁹¹ Ochil'diev A., Najmiddinov J. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo'llari (yuz savolga-yuz javob). – T.: "Toshkent islom universiteti", 2009. – 67-68-betlar.

masalalardan biri hisoblanadi. Nega deganda, ular ham O‘zbekiston fuqarolari, shu yurt farzandlaridir” (2017-yil 7-dekabr).

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, O‘zbekiston musulmonlari idorasining O‘zbekiston islom akademiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti negizida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etildi (2018-yil 16-aprelda). Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tuzilmasi 15 shtat birligidan iborat Diniy-ijtimoiy jarayonlarni o‘rganish axborot-tahlil Markazi tashkil etildi. Axborot-tahlil markazi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning diniy mavzularga oid adabiyotlar, internet va ommaviy axborot vositalari materiallarini chuqur tahlil qilish, diniy-ijtimoiy muhitning barqarorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish faoliyatini amalga oshiradi. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq diniy-ma‘rifiy soha faoliyatida “Jaholatga qarshi ma‘rifat” ulug‘vor g‘oyasi dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilat, qadriyatlarini ifoda etadi⁹².

“2017-yilning 10 oyi davomida sudlar tomonidan 191 nafar shaxsga nisbatan oqlov hukmlari chiqarildi. Holbuki, ilgari bitta oqlov hukmi chiqarish ham sudlar faoliyatida o‘ta kam uchraydigan hodisa edi” (Shavkat Mirziyoyev, 2017-yil 7-dekabr). “Men Prezident sifatida o‘zimning konstitutsiyaviy vakolatimdan foydalanib, sudlar tomonidan hukm qilingan 2 ming 700 nafar shaxsni afv etish to‘g‘risidagi Farmonni imzoladim. Bunday Farmon O‘zbekiston tarixida birinchi marta qabul qilindi”⁹³. 2018-yil 30-avgustda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tayotgan, qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat‘iy o‘tgan bir guruh shaxslarni avf etish to‘g‘risida”gi Farmoni bilan hamda O‘zbekiston mustaqilligining 27 yilligi bayrami arafasida 261 nafar fuqaro afv etildi (“Xalq so‘zi” 2018 yil 31 avgust).

⁹² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 apreldagi “Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // “Xalq so‘zi”, 2018-yil 17-aprel.

⁹³ Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. – T. : “O‘zbekiston”, 2018. – 11,16 – betlar.

O‘zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridanoq missionerlik va prozelitizmning salbiy oqibatlariga olib kelishini hisobga olgan holda bu borada tegishli qonuniy asoslar ishlab chiqildi. Qonunlarda missionerlik harakatlari taqiqlandi.

Ma’lumki, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonun (yangi tahriri) kishilarning vijdon erkinligini huquqiy kafo-latlash bilan birga diniy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishga xizmat qiladigan hamda davlat va din munosabatlarini tartibga soladi-gan muhim hujjat hisoblanadi. Qonunga binoan «Bir diniy konfes-siyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek, boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar» (5-modda, 3-band).

Mazkur moddadan kelib chiqib, «O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi»ga noqonuniy diniy xatti-harakatlarning oldini olish bilan bog‘liq bir qator moddalar kiritilgan. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev *“Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va ba’zi mintaqalarda yuzaga kelgan notinch vaziyat aholi migratsiyasi kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa jinoyatchilik, odam savdosi, terrorizm, ekstremizm, narkotrafik kabi illatlarning hamda o‘ta xavfli yuqumli kasalliklarning ko‘payishiga olib kelmoqda”* (1-jild, 45-bet).

10.2. Ekstremizm, terrorizm tushunchalarining mazmun-mohiyati. Diniy ekstremizm va terrorizmning moliyaviy manbalari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘ri-sidagi Farmoni (2017-yil 7-fevral) asosida ishlab chiqilgan 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish” deb nomlangan 5-ustuvor yo‘nalishida O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan. “Dunyoning turli joylarida, ayniqsa, Yaqin

Sharq mintaqasida qonli to‘qnashuv va nizolar davom etmoqda. Ming afsuski, bunday notinch keskinlik o‘choqlari kamayish o‘rniga ko‘payib bormoqda”⁹⁴. Shu boisdan ham “Biz boshimizdan kechirayotgan hozirgi globallashuv davri o‘ta shiddat bilan o‘zgarayotgani va turli tahdidlar ko‘pligi bilan oldimizga hal etishni kechiktirib bo‘lmaydigan g‘oyat murakkab vazifalarni qo‘ymoqda”⁹⁵.

Shu boisdan ham hozirgi yosh avlodni O‘zbekistonning barqaror rivojiga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan tahdidlardan ogoh etish va ularning ekstremizm, aqidaparastlik, fundamentalizm, terrorizm, diniy ekstremizm kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini bilishini taqozo qiladi.

⁹⁴ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Т.: “Ўзбекистон”. НМИУ, 2018. -73-бет

⁹⁵ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 45-бет.

1. Mutaassiblik, ekstremizm tushunchalari, uning mazmun va mohiyati

1. Mutaassiblik, fanatizm – o‘z e‘tiqodi to‘g‘riligiga o‘ta qattiq ishonish, boshqa diniy e‘tiqodlarga murosasiz munosabatda bo‘lish. Mutaassiblikka yo‘liqqan odamlar yoki guruhlar jamiyatda beqarorlikni vujudga keltirishga urinadi. O‘z e‘tiqodidan g‘arazli maqsadlarda foydalanadi. Ular jamiyatda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy muammolar hal qilinmaganligini ro‘kach qiladi. Mutaassiblikning asosiy sabablaridan biri ular diniy ilm – Qur‘on, hadis shariatni bilmaslikdan kelib chiqqan va uni jahon quroliga aylantirishga chaqiradi.

Fanatizm (lot. asabiylashgan, jazavaga tushgan) - o‘taketgan mutaassiblik, johillik, diniy e‘tiqodlarga yoki biror nazariy qarashlarga tish-tirnog‘i bilan yopishib olib, boshqa har qanday qarashlarni mutlaqo rad etish, masalan, diniy fanatizm.

2. Ekstremizm (lot. Extremuz – o‘ta, keskin) – siyosat va mafkurada ashaddiy, favqulodda harakat hamda qarashlarga asoslanib faoliyat yuritish. Turli ko‘rinishlari:

1) Siyosiy ekstremizm – g‘arazli maqsadiga kuch ishlatish usulidan foydalanadi. “Din” niqobi ostida balandparvoz shiorlar, chaqiriqlar bilan terrorchilik va partizanlik harakatini qo‘llab-quvvatlaydi. Mavjud siyosiy tuzilmalarni yo‘qotish uchun “jihod”ga chaqiradi. Uning rahbarlari har qanday murosasiz va kelishuvlarni rad etadi. Siyosiy ekstremizm ko‘rinishlari:

A) millatchilik – turli millat, etnik guruhlarini inkor etadi.

B) Separatizm (ayirmachilik)ni keltirib chiqaradi, keskinlik, xalqlar o‘rtasida mojarolarni uyushtiradi.

2) Diniy ekstremizm, avvalo boshqa diniy konfessiyalarga, ularning vakillariga toqatsiz bo‘ladi. Dunyoviy davlat qurishni rad qiladi va xalifalikka chaqiradi. Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mintaqasidagi turli diniy tashkilotlar bilan bog‘liq. Ko‘rinishlari:

A) “Hizb ut-tahrir”.

B) “O‘zbekiston islom harakati”.

D) Iroq va Shom islom davlati

(IShID).
qo‘yadi.

Bular vaqtincha qiyinchiliklarni ro‘kach


qilib ko‘rsatadi. Farzandlarni yo‘ldan urib

ota-onasi, aka-ukasiga, davlatga qarshi qilib

10.2.1-chizma.

2017-yil 10-noyabr Samarqand shahrida o‘tkazilgan “Markaziy Osiyo; yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferensiyada so‘zlagan nutqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Markaziy

Osiyoda barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlashning ustuvor yo'nalishi – ekstremistik g'oyalarga qarshi qat'iy kurashishdan iboratdir. Ko'pincha hayotga endi qadam qo'yayotgan yoshlar uning ta'siriga tushib qolmoqda".



10.2.2-chizma.

Ma'lumki, diniy ekstremistlarning asl maqsadi – islom dini aqidalarini buzib talqin qilish orqali islom dinidan sobiq sho‘ro daxriylik mafkurasi yaratgan qulay sharoitdan foydalanib kishilar ongini, ayniqsa din haqida aniq tasavvur va tushunchaga ega bo‘lmagan yoshlarni zaharlash, mash'lum o'rta asr qabilidagi xalifalikni tiklash vasvasasidir⁹⁶.

⁹⁶ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir.-2-jild. -T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018.-270-bet.

4. Terrorizm atamasi va uning mazmun-mohiyati

4. **Terrorizm** (lot. terror – qo‘rquv, dahshat) – yuksak ma’naviy tamoyillarga zid ravishda yovuz maqsadlar yo‘lida kuch ishlatib, odamlarni garovga olish, o‘ldirish, ijtimoiy obyektlarni portlatish, xalqni qo‘rquv va vahimaga solishga asoslangan zo‘ravonlik usulini anglatuvchi tushuncha (Ma’naviyat lug‘ati, 2009, 553-bet.) Qo‘rqitish va dahshatga solish orqali o‘z hukmini o‘tkazishga urinish terrorizmga xos. Shakllari: siyosiy, iqtisodiy, diniy, g‘oyaviy, irqiy, milliy, guruhiy va individual terrorizm kabi.

Terrorizmning ko‘rinishlari: Klassik terrorizm turlari:

- 1) Diniy terrorizm (o‘rta asr salb yurishlari va h.k.).
- 2) Individual terrorizm (Rossiyada narodniklar va keyin eserlar-ning siyosiy terroristik harakati va h.k.).
- 3) Bolshevizm ham terrorizmdan foydalangan.
- 4) Shovinizm (millatchilikning o‘ziga xos shakli).
- 5) Ekstremizm – muammoni keskin hal qilish.
- 6) Fundamentalizm – an’anaviy eski g‘oyalarda qolish.
- 7) Fanatizm (fran. ibodat) – muayyan g‘oyalar to‘g‘riligiga ishonish.
- 8) Fashizm (ital.) – tajovuzkor g‘oya, nazariya.
- 9) Davlat terrorizmi (SSSRda Stalin, Germaniyada Gitler va hokazo).

Terrorizmning zamonaviy ko‘rinishlari:

- 1) Xalqaro terrorizm.
- 2) Mintaqaviy terrorizm.
- 3) Milliy terrorizm.
- 4) Siyosiy terrorizm.
- 5) Diniy ekstremizm va fundamentalizm.
- 6) Neofashizm (yangi fashizm).
- 7) Narkoterrorizm.
- 8) Bioterrorizm.
- 9) Ijtimoiy terrorizm.
- 10) Kiberterrorizm (kiber-urush) – kompyuter tizimlariga hujum.

5. Xalqaro terrorizm. Biron-bir davlatdagi terrorchilarning o‘z harakatlarini yoki bu davlat hududidan tashqari chiqib, davom ettirishdir. Xalqaro terrorizmning o‘ziga xos xususiyatlari:


1) **Terrorchilar** ham, jinoyat qurbonlari ham bir davlatga mansub yoki bir necha davlatga tegishli bo‘lishi mumkin, ammo jinoyat shu davlatdan tashqarida sodir etilgan bo‘ladi.

2) **Terrorchilik harakati** xalqaro himoya ostidagi shaxslarga qaratilgan bo‘ladi.

3) **Terrorchilik harakatlariga** tayyorgarlik bir davlatda amalga oshirilib, jinoyatning o‘zi esa ikkinchi davlat hududida sodir etiladi.

4) **Terrorchilar bir davlat hududida** terrorchilik harakatini sodir etib, ikkinchi davlat hududiga o‘tib yashirinishi mumkin (masalan, 2001-yil 11-sentabrda Afg‘onistondagi Usoma bin Lodin, Umarshayx kabi terroristlar keyinchalik Pokistonda yashirinishdi va 2010-yil AQSHning raketa hujumidan halok bo‘ldi).


Diniy ekstremizm va terrorizmning moliyaviy manbalari



10.2.3-chizma.


1. **Diniy ekstremizm** barcha dinlar doirasida rivojlangan. Diniy ekstremistik ruhdagi qarashlarni: katoliklar, protestantlar, pravoslavlar

orasida ham uchratish mumkin. Diniy ekstremizm islom olamida ham keng tarqalgan. **Diniy ekstremizm** – ekstremizmning din niqobida namoyon bo‘lish shakli.



10.2.4-chizma.

Diniy ekstremizm muammolarni hal etishda o‘ta keskin chora-tadbirlarni, fikr-qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyotni anglatadi. Diniy ekstremistlar qayerda va qaysi din bayrog‘i ostida faoliyat ko‘rsatmasin, asosiy maqsadi diniy davlatni barpo etish bo‘lib, bu maqsadni o‘zaro nizolar, ixtiloflar, qurolli to‘qnashuvlar orqali, qon to‘kish va zo‘rlilik bilan erishishni ko‘zlaydi.



10.2.5-chizma.

Ular mustaqillikka ham, jamiyat taraqqiyotiga ham katta g'ov bo'ladi. Yagona maqsadi hokimiyatni qo'lga olish. XVIII asrda papa qo'shinlari Fransiyaning janubida 20 ming kishini qirib tashladilar, ayniqsa ilg'or fikrli ziyolilarga qarshi inkvizitsiya sudi joriy etilib, mustaqillik uchun kurashuvchi Yan Gus o'ldirildi, osmon ilmi daholaridan biri Jordano Bruno o'tda kuydirildi. Galileo Galiley 5 oy qiynoqqa solinib, tavbasiga tayantirildi. Lekin bari bir u "Yer aylanadi" degan fikrdan qaytmadi. Sharqda Nasimiyni tovonidan so'ydilar...

Umuman, islom ekstremizmi, fundamentalizmi tomonidan O'zbekiston xavfsizligiga mustaqillik yillarida qilingan tahdidlar va hozirgi vaqtda ham mavjud urinishlari

1. Dindor musulmonlarning islohotchi davlatga ishonchini yo'qotish, demokratik jamiyatni obro'sizlantirish, barqarorlikni va milliy totuvlikni buzish.

2. Asossiz da'vatlar orqali yoshlarni mutelik, erksizlik holiga tushirib qo'yish, aqliga va taqdiriga hukmron bo'lish.

3. Qarama-qarshilikni keltirib chiqarish, mamlakatni parchalab tashlash (separatizm).

4. Din uchun kurashuvchi jangarilarning yangi avlodini vujudga keltirish.

5. Musulmon va nomusulmon mamlakatlar orasida O'zbekiston obro'sini to'kish, obro'sizlantirish.

6. Islom va boshqa silvilizatsiyalar o'rtasida ziddiyatlarni keltirib chiqarish.

7. Omma ongida soxta tasavvurlarni qaror toptirish.

8. Diniy radikal kuchlarning terroristik jinoiy harakatlari. 1991-yil 9-dekabrda Namangan shahrida bir guruh qo'poruvchi kuchlar viloyat ijroiya qo'mitasini egallab, O'zbekistonni Islom davlatiga aylantirishdagi da'volariyu 1990–1992-yillarda Namangan viloyatida "Otavali-xon" jome masjidida Abdulla O'tayev, Tohir Yo'ldoshevlar oqimlari:

1) Hizb-ut Tahrir; 2) Akromiyalar; 3) "Nurchi"lar; 4) "Tavbach"lar; 5) Islom lashkarlari; 6) "Adolat" diniy uyushmasi va hokazo.

9. 2001-yil 11-sentabrda AQSHning Nyu-York shahrida terrorchilik harakatlarida 3 ming kishi halok bo‘ldi.

10. Fashizm o‘z maqsadlarini oshkora e‘lon qilib, zo‘ravonlik yo‘li bilan singdiradi.

1. “Terrorizm” tushunchasi terror tushunchasi bilan bir xil ma’noda qo‘llangan. Ammo ayrim hollarda ularda ma’lum tafovutlar bo‘lgan. Masalan, “terrorizm” terrorni amalga oshirish deb tushunilgan. Terrorizmga muxolif qurollangan siyosiy guruhlariga xos faoliyat deb qaralgan. Muxolifatchilar davlatning siyosiy yon berishiga erishish uchun fuqarolarga, shu jumladan, chet el fuqarolariga nisbatan zo‘rluk ishlatadilar yoki zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitadilar. XX asrning oxirida surunkali terrorchilik harakatlarini uyushtiruvchi tashkilotlar paydo bo‘ldi. “Terrorizm” tushunchasi orqali asosan siyosiy qotilliklar uyushtirish bilan shug‘ullanadigan muxolif tashkilotlar, “terror” tushunchasi bilan esa davlat apparatining repressiv harakatlari belgilana boshlandi.

Xalqaro terrorizmning o‘ziga xos xususiyatlari:

1. Terrorchilar ham, jinoyat qurbonlari ham bir davlatga mansub yoki bir necha davlatga tegishli bo‘lishi mumkin, ammo jinoyat shu davlatdan tashqarida sodir etilgan bo‘ladi.

2. Terrorchilik harakati xalqaro himoya ostidagi shaxslarga qaratilgan bo‘ladi.

3. Terrorchilik harakatlariga tayyorgarlik bir davlatda amalga oshirilib, jinoyatning o‘zi esa ikkinchi davlat hududida sodir etiladi.


4. Terrorchilar bir davlat hududida terrorchilik harakatini sodir etib, ikkinchi davlat hududiga o‘tib yashirinishi mumkin.

Pokistonda 37 ta, Afg‘oniston hududida 22 ta alohida lagerda terrorchi jangchilar tayyorlangan. 1990–1999-yillar davomida 29 mingdan ortiq Hindiston fuqarolari shu terrorchi guruhlar tomonidan o‘ldirilgan. Hindiston Bosh vaziri Rajiv Gandi (1944–1991) esa Maxatma va Indira Gandilarga (1917–1984) bo‘lgan suiqasddan keyin mitinglarda shaffof tito parda orqasidan turib gaplashar edi. Saylovdan oldin: “Xalqim meni sevadi, o‘z xalqimdan yashirinamanmi”, deya


Bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida tobora keskinlashib borayotgan qonli mojarolar va ziddiyatlar, terrorizm va ekstremizm xavfi bizdan doimiy ogoh va hushyor bo‘lishni talab etmoqda.

*Shavkat Mirziyoyev
1-jild, 138-139-bet, 2017.*

ochiq soʻzga chiqadi. U soʻzini tugatgach, katta guldasta koʻtargan goʻzal ayol unga yaqinlashadi. Ayolning chiroyli qomati va tabassumi qoʻriqchilarni ham sehrlab qoʻyadi goʻyo. Ular ayolni oʻtkazib yuboradilar. Ayol Rajiv Gandini quchoqlaganicha birgalikda portlab ketadi (1991-yil 21-may). Terrorchilar guruhi aʼzolari oʻz jonini gʻoyasi uchun qurbon qilishni oʻzlariga sharaf deb biladilar.



10.2.6-chizma.



10.2.7-chizma.

BMT hisob-kitoblariga ko‘ra, 2014-yil boshidan beri IShID jangarilari 700 ga yaqin bolaning, minglab asirlar va ko‘plab tinch aholining hayotiga zomin bo‘ldi (2015)⁹⁷.

Kiber terrorizm (kiber jinoyatchilik, kiber urush): 1) kompyuter va internet tizimlariga hujum qilish; 2) zamonaviy axborot kommunikatsion – media texnologiyalaridan foydalangan holda shaxs, jamiyat va davlatga tahdid solish ma’nosini anglatadi. Kiber terrorizmning maqsadi: a) kompyuterdan foydalanuvchilar faoliyatida uzilishni keltirib chiqarish; b) kompyuter sistemasidagi dasturlarni tarqatish; d) muhim, zaruriy axborotlarni yo‘qotish yoki o‘ziga xizmat qildirish; e) insoniyatning intellektual, iqtisodiy, ma’naviy salohiyatini o‘z ta’siriga olish va uni nazorat qilish.⁹⁸

Terroristik tashkilotlarga umumiy tasnif

1. Siyosiy maqsadlari:

- imperializm va kapitalizmga qarshi;
- globallashuv va transmilliy kompaniyalarga qarshi;
- biror diniy konfessiya yoki etnik guruhga qarshi;
- o‘z hukumatiga qarshi;
- millat yoki din sofligi uchun kurashish;
- ayirmachilik maqsadida va o‘z davlatini tuzish uchun kurashish;
- biror dunyoqarashga qarshi (ekologiyaning buzilishiga qarshi va hokazo).

2. Diniy yo‘nalish (aslida o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida dindandaniqob sifatida foydalanadilar):

- soxta islom;
- yangi din o‘ylab topish;
- soxta xristianlik;
- dinlarni inkor etish;
- soxta iudaizm kabilardir.

3. Kelib chiqish sabablari:

- muxolifatni siqib qo‘yish;

⁹⁷ Tulepov A. IShID fitnasi. -T.: Movaraunnahr, 2015.-49-bet.

⁹⁸ Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob. -T.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2019.-585-bet.

- mafkuraviy bo‘shliq;
- davlatlararo ziddiyatlar;
- tashqi davlatlarning qo‘llashi;
- etnik va diniy ziddiyatlar;
- globallashuvga qarshilik;
- ayirmachilik va mustaqillik uchun kurashish;
- qashshoqlik va ishsizlik;
- amerikacha siyosat, iqtisodiy va madaniy gegemoniyaga qarshilik.

4. Ijtimoiy tarkibi:

- asosan qishloq aholisi (kam uchraydi);
- ziyolilar va talabalar (ko‘p uchraydi);
- ziyolilar va ishchilar (kam uchraydi);
- aralash tarkib (ko‘p uchraydi).

5. Etnik tarkibi:

- turli millat vakillari (ko‘p uchraydi);
- asosan bir etnik guruh vakillari.

6. Terrorchilik guruhidagi a‘zolar soni:

- 10 kishigacha (kam uchraydi);
- 50-100 kishi (ko‘p uchraydi);
- 10-50 kishi (ko‘p uchraydi);
- 100 kishidan ortiq (kam uchraydi).

7. Tashkiliy tuzilishi:

- qat’iy iyerarxiya (kam uchraydi);
- tashkilot bir-biridan mustaqil 5-7 kishidan iborat jangovar shoxobchalardan iborat bo‘ladi.


8. Faoliyat yuritish makoni:

- bir davlat hududida, biror mintaqada, hatto global doirada ham faoliyat ko‘rsataveradi;
- asosan shahar sharoitida ish olib boradi.

9. Ish usullari:

- jamoatchilik joylarida portlashlar sodir etish;
- mahalliy aholi vakillarini yoki xorijiy fuqarolarni garovga olish;
- ekstremistik mazmundagi varaqalar tarqatish;

- siyosiy qotilliklarni amalga oshirish;
- tartibsizliklar keltirib chiqarish;
- kimyoviy yoki bakteriologik qurollardan foydalanish.



10.2.8-chizma.

2. Moliyaviy manbalari: Diniy ekstremist va terroristlar zarur mablagʻlarni dastavval sekta, guruh, jamiyatning har bir aʼzosi daromadidan maʼlum hissasini ajratish, badavlat shaxslardan koʻpincha oʻch olish tahdidi ostida olinadigan ionalar hisobiga toʻplangan. Diniy ekstremizm va terrorizm tarixining birinchi bosqichida shuning oʻzi yetarli boʻlgan. Biroq vaqt oʻtgan sayin uyushgan terrorchi guruhlarining maqsad va vazifalari koʻlami kengaydi, binobarin, ularning moliyaviy ehtiyojlari ham ortib bordi. “Adolat uchun kurashchilar” banklarni, zargarlik doʻkonlarini talay boshlashdi, jinoiy faoliyatning boshqa turlaridan ham qaytishmadi. Shu tariqa terrorizm uyushgan jinoyatchilik bilan yaqinlashib bordi.

Diniy ekstremizm va terrorizmning moliyaviy manbalari

1. Narkobiznes savdosi. “Giyohvand moddalar davri” 1968-yilda boshlanib hozirgacha davom etmoqda. Afgʻoniston hududida saqlanib, kuchayib borayotgan oʻta xavfli tahdidlardan biri – bu narkobiznesdir. Bu mamlakatda giyohvand modda qadimdan yetishtirilgan va tayyorlangan. Koʻknori va heroin, boshqa sintetik moddalar yetishtirish XX asr 90-yillaridan sanoat asosida yoʻlga qoʻyilgan. Giyohvand moddalar umumiy hajmining 50–75 foizidan ortigʻi Afgʻoniston hissasiga toʻgʻri keladi. Jinoiy guruhlar boylik orttirish uchun ana shu narkobiznesni oʻz nazoratiga olishgan. Afgʻonistondan AQSHga narkotik moddalar

Amerika Qurolli kuchlar kontingenti faoliyati davomida 3 ta asosiy natija (2001–2014-yillarda) kuzatilgan:

Narkotik moddalar ishlab chiqarishning fenomal o‘sishi 40 marta oshgan.

Mintaqaviy harbiylashish yuzaga kelgan.

Siyosiy nomutanosiblik tufayli gumanitar halokat yuz bera boshladi.

Bugungi kunda Afg‘onistondan giyohvand moddalarni olib ketishning 3 xalqaro yo‘lagi kuzatilgan:

Afg‘oniston – Pokiston – Eron – Ozarbayjon.

Afg‘oniston – Eron – Ozarbayjon.

Afg‘oniston – O‘rta Osiyo (Markaziy Osiyo) – Ozarbayjon.

Keyingi yillarda Afg‘onistonda ko‘knori yetishtirish 32 viloyatdan 24 tasida plantatsiyalar hajmi 10 marta oshdi. Yetishtirilgan ko‘knorning 90 foizi asosan 5 ta viloyatga to‘g‘ri keladi. Bular Xilmond (38 foiz), Nangarhar (30 foiz), Badahshon (9 foiz), O‘ruzgon (7 foiz), Qandahor (5 foiz). (2005-yil manba).

2. Nolegal qurol-yarog‘ savdosi – bu giyohvand moddalardan farqli ravishda asosan “badavlat Shimoldan” “nochor Janubga” qarab boruvchi tovarlar oqimi. Bu savdoda afg‘on guruhlar alohida o‘rin tutadi. Xitoyda ishlab chiqarilgan AK-47 avtomat bir donasi 5000 rupiy (100 dollar) erkin sotishmoqda. Amerika 1980-yillarda Kolumbiya va Peru partizanlariga qurol-aslaha sotishni taqiqlab qo‘ygan. Nolegal qurol-aslaha aslida 2 sektorga bo‘linadi: 1) jinoiy, mafiyaga tegishli (“qora”); 2) kvazi-jinoiy (“kulrang”) sektorlar. Dastlabki bozor yengil qurollarni kichik-kichik partiyada yetkazib berish. Qudratli qurol-aslaha turlari (raketa, to‘p, snaryad, vertolyot) ulgurji yetkazib berish. SSSR parchalanishidan keyin harbiy texnikalarning ayrim qismi Afg‘onistonga nolegal yetkazib berilgan va sotilgan.

3. Antiqa buyumlar va madaniy boyliklarni kontrabanda qilish, xalqaro pornobiznes (“jonli tovar savdosi”) pulni jinoiy yo‘l bilan qonuniylashtirish, farzandlikka olish uchun bolalar savdosi, avtomobil kontrabandasi va hokazo.

4. “Iroq va Shom islom davlati” (IShID- 2014-2015) terrorchi to‘dasining qing‘ir moliyaviy manbalari: talon-toroj, qaroqchilik, o‘g‘irlik, bosqinchilik, qora bozordagi neft savdosi, odamlarni qul qilib sotish va shu kabilar. 2014-yilda BMT ma‘lumotiga ko‘ra, birgina

2014-yil oktabr oyida terrorchilar 1273 kishining umriga zomin bo‘lgan. Ularning 856 nafari oddiy fuqaro, 417 nafari harbiylar edi.⁹⁹

“O‘zgalar qonini to‘kish hisobiga mo‘may daromad olishni istovchilar batamom yo‘q bo‘lib ketadigan zamonlar kelishiga hali ancha borgan o‘xshaydi. Bu toifaga kiruvchi “bizneschilar” uchun qon va nopok siyosat qorishgan pul dunyoning turli burchaklarida xalqaro qotillarni yollash va sinab ko‘rish mumkin bo‘ladigan mojarolarni rag‘batlantirish borasida eng qulay vosita ekanligini gapirmasa ham bo‘ladi”.

Islom Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida...

5. Islom dini niqobi ostidagi xalqaro ekstremistik guruhlar
“O‘zbek islomchilari” deb atalgan, ammo ko‘plab jinoyatlar qilib O‘zbekistonni tark etgan guruhlarini har taraflama qo‘llab-quvvatlashga urinib kelindi. Xorijiy mamlakatlardagi qon-qardoshlik, g‘oyaviy-siyosiy tamoyillarga asoslangan diniy, siyosiy partiyalar diniy ekstremistlarni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlab kelgan. Masalan, Turkiyaning “Refax” partiyasi rahbari, shu mamlakat sobiq Bosh vaziri N. Erbaqon 1997-yilda Tohir Yo‘ldoshga 100000 dollar miqdorida mablag‘ ajratgan. Turkiya Bosh vaziri N. Erbaqonning qo‘llab-quvvatlashi tufayli Germaniyada harakat qilayotgan turkiyalik muhojirlarning tijorat tashkiloti – “Milliy guruh”ning kotibi Muhammad Kuchak orqali T. Yo‘ldoshevga qurollanish uchun bir necha yuz ming dollar berilgan. Qurol-yarog‘larni yetkazish esa bir necha siyosiy partiyalar orqali amalga oshirilgan. MDH ga a‘zo davlatlar hududlaridagi diniy ekstremistik va terrorchilik tashkilotlariga 60 ga yaqin xalqaro tashkilotlar, 100 dan ortiq xorijiy kompaniyalar va o‘nlab bank guruhlari yordam berishgan (2004).

Usoma Bin Lodin boshliq “Butunjahon jihod fondi” ana shunday tashkilotlardan biri edi. Bu terrorchilik tashkiloti turli mamlakatlarda jangarilarni tayyorlash uchun maxsus mashg‘ulot lagerlari tashkil etgan. “2000-yil 14-dekabrda u jangarilarni tayyorlashga 20 million dollar ajratganini e‘lon qildi”¹⁰⁰.

1996-yilda ana shu xalqaro ekstremistik tashkiloti tomonidan Juma Namangoniya 250 ming dollar miqdorida “sadaqa” berilgan. Usoma Bin Lodin 1999-yilning iyun oyida Tohir Yo‘ldosh bilan

⁹⁹ Tulepov A. ISHID fitnasi. –T.: Movaraunnahr, 2015.-49–54-betlar.

¹⁰⁰ Safarova N. Terrorizm (tarixiy-falsafiy tahlil). – T.: Noshir, 2009. -75–76-betlar.

Qunduz shahrida uchrashib, unga 500000 AQSH dollari in'om qilingan ("Xalq so'zi", 2000-yil 20-sentabr).

5. "O'zbek islomchilari"ning moliyaviy manbalari

5.1. "O'zbek islomchilari" niqobi ostidagi ekstremistik guruhlar xorijiy gumashtalari bilan ko'plab jinoyatlar qilib, O'zbekistonni tark etgan guruhlarini har taraflama qo'llab-quvvatlashga urinib kelgan. Xorijiy mamlakatlardagi qon-qardoshlik, g'oyaviy-siyosiy tamoyillarga asoslangan diniy, siyosiy partiyalar diniy ekstremistlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlab kelgan. Masalan, Turkiyaning "Refak" partiyasi rahbari, shu mamlakat sobiq Bosh vaziri N. Erbaqon 1997-yilda Tohir Yo'ldoshga 100000 dollar miqdorida mablag' ajratgan. Turkiya sobiq Bosh vaziri N. Erbaqonning qo'llab-quvvatlashi tufayli Germaniyada harakat qilayotgan turkiyalik muhojirlarning tijorat tashkiloti – "Milliy guruh"ning kotibi Muhammad Kuchak orqali Tohir Yo'ldoshga qurollanish uchun bir necha yuz ming dollar berilgan. Qurol-yarog'larni yerkazish esa bir necha siyosiy partiyalar orqali amalga oshirilgan. MDHga a'zo davlatlar hududlaridagi diniy ekstremistik va terrorchilik tashkilotlariga 60 ga yaqin xalqaro tashkilotlar, 100 dan ortiq xorijiy kompaniyalar va o'nlab bank guruhlarini yordam bergan (2004).

5.2. Usoma bin Lodin boshliq "Butunjahon jihod fondi" terrorchilik harakatlarini doimo qo'llab-quvvatlab kelgan. Bu terroristik tashkilot turli mamlakatlarda jangarilarni tayyorlash uchun maxsus (Afg'oniston va boshqa mam.) mashg'ulot lagerlari tashkil etgan. "2000-yil 14-dekabrda u jangarilarni tayyorlashga 20 million dollar ajratganini e'lon qildi".

1996-yilda ana shu xalqaro ekstremistik tashkiloti tomonidan Juma Namangoniyga 250 ming dollar miqdorida "sadaqa" bergan. Usoma bin Lodin 1999-yilning iyun oyida Tohir Yo'ldosh bilan Quduz shahrida uchrashib, unga 500 ming dollar in'om qilgan ("Xalq so'zi", 2000-yil 20-sentabr). Uni Afg'onistondagi muxolifat Umarshayx tolibon qo'shinlari qo'llab-quvvatlagan.

Bin Lodin Afg'onistondagi "Tolibon" harakati bilan yaqin hamkorlik qilgan. Tolibonlar jahonda ishlab chiqariladigan afyunning 80 foizini o'z nazoratiga olgan. Rahbar cho'ntagiga 90 milliard dollar

kelib tushardi. XX asr oxiriga kelib Usoma bin Lodin go‘yoki “shovinistlar va xristianlar alyansi tomonidan musulmonlarga qilinayotgan adolatsizlikni bartaraf qilish uchun kurashyapmiz... Biz rahmdil va hamma narsaga qodir Ollohdan bizga g‘alaba tuhfa etishini iltijo qilamiz” (1996-yil 23-avgustdagi nutqida) shiori musulmon mamlakatlariga tarqatildi. Amerikaliklar buni urush e‘lon qilish deb baholadi.

2001-yil 11-sentabrda AQSHga qilingan terroristik guruh rahbari Usoma bin Lodin boshchiligida qilingan terakt edi. Natijada bu teraktdan AQSHning 3 ming odami nobud bo‘ldi.

10.3. O‘zbekiston Respublikasida diniy ekstremizm va terrorizm xavfining oldini olishning huquqiy asoslari

Diniy ekstremizm va terrorizm xavfi oldini olish, eng avvalo, ko‘p jihatdan diniy mutaassiblik va fundamentalizm, ekstremizm va terrorizm o‘z tarixiy-ijtimoiy kelib chiqishi, ba‘zi juz‘iy jihatlari bilan bir-biridan ma‘lum darajada farq qilsada, ular umumiy bir zanjirning halqalaridir. Diniy fundamentalizm va ekstremizm mavjud ekan, terrorchilik xavfi hamma vaqt saqlanib qoladi.

Diniy fanatizmning “otilib chiqishi”ga sof diniy ziddiyatlardan ko‘ra ko‘proq ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammolarning hal qilinmaganligi sabab bo‘ladi. Aslini olganda, ayni shu muammolar boshqacha fanatizmni, deylik, bolshevistik, millatchilik ruhida fanatizmni keltirib chiqaradi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev shunday degan edi: *“Markaziy Osiyo mintaqasida va butun dunyoda murakkab vaziyat yuzaga kelayotgan, terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib borayotgan bugungi sharoitda doimo hushyor va ogoh bo‘lish, mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini, Qurolli Kuchlarimizning salohiyatini har tomonlama mustahkamlash xavfsizlik va barqarorlikni, xalqimizning osoyishta hayotini ta‘minlashning eng muhim sharti va kafolati ekanini barchamiz yaxshi bilamiz”*.¹⁰¹

¹⁰¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.-1-jild. –T.; “O‘zbekiston” NMIMU, 2017.-47-bet.

Diniy ekstremizm va terrorizm vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari va ijtimoiy-g'oyaviy ildizlari

1. Bolshevistik mafkuraning dinga va dindorlarga nisbatan qatag'on siyosatini qo'llashi odamlar ongidan diniy e'tiqodni chiqarib, kommunistik e'tiqodni singdirish edi. Islom ma'rifatini taqiqladi.

2. Islom dinining o'n minglab mo'tabar ruhoniylari qatag'on qilindi. Minglab masjidlar, yuzlab madrasalar buzib tashlandi.

3. Sho'ro tuzumi kommunistik aqidaparastlikka asoslangan edi. Aqidaparastlik – bu ekstremizmdir.

4. Kommunistik tuzum mafkurasi dahriylik (dinsizlik) bo'lgani uchun u har qanday dinga qarshi ayovsiz kurash olib bordi. G'arazli, ma'naviyatga zid mafkura sobiq ittifoq tugatilganidan keyin ham o'zining salbiy rolini o'ynab, diniy fanatizm va an'anaviylik uchun sharoit yaratdi. Ayrim diniy konfessiyalar (Rus pravoslav, Rim-katolik, Arman-grigorian, Lyuteran cherkovlarida, baptistlik va boshqa joylarda ham shu hol ro'y berdi).

5. Odamlar XX asr 80–90-yillari o'rtalariga qadar Qur'oni karimdan bahramand bo'lmagan edi. Ateistik tarbiya kuchaytirildi. O'zbekistonda diniy ulamolar asosiy qismi jismoniy jihatdan mahv qilindi. Natijada chala mullalar paydo bo'ldi. Ular xalqimiz islom dinining haqiqiy mohiyati va bexabarligidan foydalanib, turli g'arazli mafkura maqsadlari yo'lida "ko'prik"ka aylandi. Natijada ayrim yoshlar "chala mullalar"ga ergashib adashdilar

10.3.1-chizma.

Xalqaro terrorizmning Markaziy Osiyoga, O'zbekistonga xavfi

Avvalo xalqaro terrorizmning Markaziy Osiyoga, xususan O'zbekistonda xavfini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin:

1. Markaziy Osiyoda beqarorlikni vujudga keltirish, buning uchun teraktlar, bosqinchilik harakatlarini amalga oshirish terrorizm maqsadidir.

**Islom Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida...” asari
mazmuni**

<p>1.bob. Xavfsizlikka tahdid:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mintaqaviy mojarolar. 2. Diniy ekstremizm va fundamentalizm. 3. Buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik. 4. Etnik va millatlararo ziddiyatlar. 5. Korrupsiya va jinoyatchilik. 6. Mahalliychilik va urug‘-aymoqchilik munosabatlari. 7. Ekologik muammolar. 8. Koronavirus pandemiyasi Hozirgi davrda (2019–2020-yillarda). 	<p>Keltirib chiqaruvchi sabablar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O‘tish davri islohotlaridagi iqtisodiy qiyinchiliklar. 2. Aholi ob'ektiv talabaqalanish jarayoni va mulkdorlik belgisidagi tafovutlar. 3. G‘oyaviy bo‘shliq. 4. Ayrim odamlar ongining sayozligi. 5. Siyosiy beqarorlik. 6. Ijtimoiy notenglik. 7. O‘tish jarayonidagi muammolar. 8. O‘zlikni to‘la anglab olmaganlik. 9. Mamlakat ichki va tashqi muammolari va h.k.
--	--

10.3.2-chizma.

Asarda ta’kidlanganidek, o‘tgan yillar mantiqi hozirgi kunda 3 ta asosiy savolga murojaat qilishga undamoqda. O‘zbekistonning kelajagi ana shu savollarga qanday javob berishga bog‘liq.

1. Xavfsizlikni qanday saqlab qolish lozim?
2. Barqarorlikni qanday ta’minlash darkor?
3. Taraqqiyot yo‘lidan sobitqadam rivojlanishga nimalar hisobiga erishish mumkin?

1. Xavfsizlikni qanday saqlab qolish lozim? savoliga javob:

1. **Xavfsizlik** – uzluksiz holatdir, hadsiz-hududsizdir. Bu milliy xavfsizlikni tashkil etadi.

2. “Sovuq urush” barham topgach, endilikda: yalpi xavfsizlikka asosiy tahdid: etnik, mintaqaviy, mahalliy mojarolar va davlatlar ichidagi jangovar separatizm.

3. O‘zbekiston o‘zining jug‘rofiy-siyosiy holati jihatidan kollektiv xavfsizlik tizimi izchil yo‘lga qo‘yilmagan mintaqada joylashgan.

4. Mintaqaviy nizolar ko‘pincha: terrorizm va zo‘ravonlik, narko-biznes va qurol-yarog‘ bilan qonunsiz savdo qilish, inson huquqlari buzilishi, bularning bari chegaralarni tan olmaydi.

6. Har bir davlat o‘z milliy manfaatlariga muvofiq o‘z mustaqilligini ta‘minlash uchun kollektiv xavfsizlik shartnomasida qatnashish huquqini o‘zi belgilaydi.

7. Ekologik va yadroviy xavfsizlik muammolari alohida e‘tibor talab etadi va h.k.

2. Barqarorlikni qanday ta‘minlash darkor:

1)Ma‘naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglashning tiklanishi.

2)Davlatchilikni shakllantirish va mudofaa qobiliyatini mustahkamlash.

3)Demokratik institutlarni va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish.

4)Bozor munosabatlarining qaror topishi va mulkdorlar sinfining shakllanishi.

5)Kuchli ijtimoiy siyosat va aholi ijtimoiy faolligini oshirish.

6) Jug‘rofiy-strategik imkoniyatlar va tabiiy-xomashyo resurslari.

7)Inson salohiyati, ijtimoiy va ishlab chiqarish infrastrukturasi.

8)Keng ko‘lamli o‘zgarishlar va hamkorlik kafolatlari.

9)Jahon hamjamiyati bilan hamkorlik.

2. Sobotqadam rivojlanishimiz:

1)Jug‘rofiy-strategik imkoniyatlar, tabiiy-xomashyo resurslariga;

2)Inson salohiyati (Inson kapitaliga);

3)Hamkorlik;


4)O‘z imkoniyatimiz orqali va hokazolarga bog‘liq/

2. Markaziy Osiyo hududida xalqaro narkobizneschilar uchun narkotrafikni yaratish. Narkotik moddalar Markaziy Osiyo orqali Rossiya va Yevropadagi iste‘molchilarga yetkazib berish arzon va qulaydir. BMT ma‘lumotlariga ko‘ra jahondagi giyohvand opiumning 75 foizi bevosita Yevropaga tarqalgan.

3. Xalqaro qurol-yarog‘ biznesi bilan shug‘ullanuvchilar Markaziy Osiyo hududida ziddiyat bo‘lib turishidan manfaatdordirlar.

Xalqaro terrorchilar Markaziy Osiyo hududida dindorlarni, aholini davlatga va davlat tashkilotlariga qarshi qo‘yishga va pirovardida hokimiyatga qarshi doimo oppozitsiyani shakllantirishga harakat qilib kelganlar. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev *“Bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida tobora keskinlashib borayotgan qonli mojaro va ziddiyatlar, terrorizm va ekstremizm xavfi bizdan*


doimiy ogoh va hushyor bo‘lishni talab etmoqda” (1-jild, 138–139-betlar).



10.3.3-chizma. Terrorizm xavfi va unga qarshi kurash to‘g‘risida.

Turli xil diniy e'tiqodlarni inson, xususan, yoshlar ongiga singdirish orqali siyosiy maqsadlarga erishish – mafkuraviy tajovuzning bir shakliga aylanmoqda. “Hozirgi paytda insoniyat hayotiga katta xavf tug‘dirayotgan xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, narkoagressiya va OITS singari ofatlarni ko‘pchilik yaxshi biladi. Lekin bugungi kunda hamma ham bilavermaydigan, oshkora ko‘zga tashlanmaydigan, ma’naviy hayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar ham borki, hoziroq ularning oldini olmasak, keyin kech bo‘ladi. Bular g‘arb olamida keng tarqalgan egosentrizm va erkinlik niqobidagi axloqsizlik falsafasidir”.¹⁰² **Egosentrizm** – o‘taketgan xudbinlik bo‘lib, faqat o‘zini, o‘z manfaatlarini o‘ylab yashash, boshqa hech narsani tan olmaslikdir. Bu zararli illat jaholat va aqidaparastlikdan aslo qolishmaydi”. **Egosentrizm** (lot. “ego” – “men”, “centrums” – “markaz” so‘zlaridan) – induvidualizm tushunchasiga yaqin bo‘lib, ma’nosiga ko‘ra hamma narsani o‘zi va o‘z manfaati bilan bog‘lab yashashni anglatadi... egosentrizm o‘zlarining xohish va istaklari bilan hisoblashmaslik, o‘z fikrini noto‘g‘riligini bilsa ham, o‘zgalar fikrini inobatga olmaslik tamoyillariga asoslanadi.¹⁰³

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev *“Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo‘l qo‘ymaslik, jinoyatga jazo albatta muqarrar ekani to‘g‘risidagi qonun talablarini amalda ta‘minlash bo‘yicha qat‘iy choralar ko‘rishimiz zarur”* (1-jild, 141-bet).



10.3.4-chizma.

¹⁰² Quronov M., Qodirov A., Akramova Sh. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish. -Toshkent: “Ma’naviyat”, 2018.-11-bet.

¹⁰³ Saifnazarov I., Saifnazarova F. Mafkuraviy xurujlar nima?–T.: “Ma’naviyat”, 2015.-7-bet.

Diniy ekstremizm va terrorizmni bartaraf etishning huquqiy asoslari:

1. 1977-yil 27-yanvarda qabul qilingan “Terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha Yevropa konvensiyasi”da terrorizm, uning sabablari, maqsadlaridan qat’iy nazar jinoyat deb ta’riflandi.

2. 1978-yili Bonn shahrida kuchli “Yettilik” davlatlari terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida bayonot qabul qildi.

3. 1981-yili Ottava shahrida, 1984-yili Londonda, 1986-yili Tokioda, 1996-yili Parijda bo‘lib o‘tgan kuchli “sakkizlik” davlatlarining rahbarlari xalqaro terrorizm to‘g‘risida deklaratsiya qabul qildilar.

4. 2000-yil oktabrida Toshkentda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari “Markaziy Osiyoda narkotiklarning noqonuniy savdosi, uyushgan jinoyatchilik va terrorchilikka qarshi kurash bo‘yicha hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi hujjat qabul qilindi.

5. 2000-yil 15-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. O‘zR Jinoyat Kodeksining 2-bo‘limi “Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar” deb nomlanib, unga qarshi kurash yo‘llari bayon etildi.

6. 2001-yil 15-iyunda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) tomonidan 3 ta yovga qarshi “Xalqaro terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurash haqida” Konvensiya qonuni qabul qilindi.

7. 2004-yilning 17-yanvarida Toshkentda ShHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi ijroiya qo‘mitasi ish boshladi.

8. “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonun (2012-yil 25-dekabr).

9. “Ma’muriy qamoqni o‘tash tartibi to‘g‘risida”gi qonun (2017-yil 3-yanvar) qabul qilindi.

10. “Sudlar to‘g‘risida”gi qonun (2017-yil 12-aprel) qabul qilindi.


11. “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonun (2017-yil 3-yanvar) qabul qilindi.

12. “Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida”gi qonun (2017-yil 31-may) qabul qilindi.

13. “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi (Yangi tahrir) qonuni (2017-yil 11-sentabr) qabul qilindi.

14. “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonuni (2018-yil 12-aprel) qabul qilindi.

15. “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida” (2018-yil 30-iyul) qonuni qabul qilindi va hokazo.



10.3.5-chizma.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash tashabbuskori

1. Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasi (Toshkent)da “Ta’lim va ma’rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo‘l” nutqi (2016-yil 18-oktabr)da: “Ommaviy qirg‘in qurolini tarqatmaslik muammosi bugungi kunda eng keskin masalalardan biri bo‘lib qolmoqda, – dedi. – O‘zbekiston 1993-yildayoq Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hududni tashkil etish tashabbusini ilgari surgan. Mazkur tashabbus O‘zbekiston va qo‘shni davlatlar tomonidan 2006-yilda imzolangan Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud to‘g‘risidagi shartnoma, shuningdek, BMT Xavfsizlik kengashining doimiy beshta a‘zosi 2014-yilda imzolagan Kafolatlar to‘g‘risidagi protokolda o‘zining amaliy ifodasini topgan” Mirziyoyev Sh.M.(1-jild, 39-bet).

2. O‘zLiDeP partiyasining VIII syezdidagi (2016-yil 19-oktabrda) ma’ruzasida O‘zbekistonning barqaror rivojiga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan, o‘z yechimini kutayotgan eng muhim 6 ta muammoli masalalarga e’tibor qaratdi Mirziyoyev Sh.M. (1-jild, 45-46-betlar).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning. “Bir makon, bir yo‘l” – manfaatlarimiz mushtarak xalqaro forumida 2017-yil 14–15-maydagi nutqida.

4. Qozog‘iston poytaxti Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan ShXT Davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida so‘zlagan nutqida, 2017-yil 8–9-iyun.

5. BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida (2017-yil 19-sentabr).

6. 2017-yil 10-noyabrda Samarqand “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferensiyada so‘zlagan nutqida.

7. Afg‘oniston bo‘yicha “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusidagi Toshkent konferensiyasi (2018-yil 27-mart)dagi ma‘ruzasida.


8. O‘zbekiston–AQSH: Yangi ufq va marralar sari dadil qadamlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 15–17-mayda AQSH Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan Vashingtonda bo‘lishi va boshqa ma‘ruza, nutqlarida Markaziy Osiyo hududida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy barqarorlik uchun, qo‘shni davlatlar bilan har tomonlama hamkorlik yo‘lida betinim faoliyat olib bormoqda.

Jaholat – ma‘rifat kushandasi. Shu boisdan ham ana shu ma‘naviy tahdidni bartaraf etish uchun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yilda “Jaholatga qarshi ma‘rifat” konsepsiyasi ilgari surildi.

1. 2017-yil 28-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi qarori bilan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining 1) Respublika targ‘ibot markazi hamda; 2) Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi birlashtirish yo‘li bilan ularning negizida Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat Markazi tashkil etildi hamda uning vazifalari belgilab berildi.

2. 2018-yil 16-aprelda O‘zbekiston Prezidentining “Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni munosabati bilan “Jaholatga qarshi ma‘rifat” ulug‘vor g‘oyasi insonparvarlik mohiyati nuqtayi nazaridan yana bir bor ilgari surildi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev “Buyuk

ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy "Olijanob kishilar uzrni qabul qilur", – deb ta'kidlagan ekanlar. Xalqimiz – mard va olijanob xalq, kim chin dildan uzr so'rasa, tavba qilsa, albatta gunohidan kechadi. Shuning uchun hozirgi kunda qancha adashganlarni kechirib, to'g'ri yo'lga solyapmiz. Birini o'qishga, birini ishga, birini kasbga qaytaryapmiz" (1-jild, 477-bet).



10.3.6-chizma.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish" konsepsiyasiga ko'ra:

1. O'tgan ikki yil ichida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan 300 mingdan ko'proq adashganlar gunohi kechirildi. Yaxshi yo'lga qaytdi.

2. 2017-yilda sudlar tomonidan 373 ming 256 ta ish ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, shundan 169 ming 289 tasi yoki 45 foizi sayyor sud muhokamasida ko‘rildi¹⁰⁴.

3. Tergov organlari tomonidan 238 ta holatda jinoiy hodisa yuz bermagani aniqlangan. Umuman, 3,5 mingdan ortiq jinoyat ishi tugatilgan.

4. Ilgari qariyb 90 foiz jinoiy ishlar qayta tergovga yuborilgan. Endilikda sudlar tomonidan jinoyat ishlarini qo‘shimcha tergovga qaytarish tartibi bekor qilindi.

5. Prezident farmoni bilan sudlar tomonidan hukm qilingan 2 ming 700 nafar shaxs afv etildi (2017-yil 7-dekabr).

6. Keyingi besh yil ichida (2013–2016) bor-yo‘g‘i 7 shaxs oqlangan bo‘lsa, 2017-yilning o‘zida 300 shaxsga nisbatan oqlov hukmlari chiqarilgan. 2018-yilning 4 oyi ichida 172 shaxs oqlangan.

7. 2017 yilda mahalla fuqarolari yig‘inlari kafilligi ostida – 152 nafar, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi kafilligida 3 nafar, jami 172 nafar fuqaroga nisbatan jazo tayinlashda jamoatchilik kafilligi e‘tiborga olindi. (Prezidentning Konstitutsiya 25 yilligi bo‘yicha ma‘ruzasi, 2017-yil 7-dekabr, 10-16-betlar).

8. “Jaholatga qarshi – ma‘rifat” shiori ostida Toshkent shahri Xasti Imom majmuasi hududida Islom madaniyati markazi tashkil etildi (2017).

9. “O‘z uyingni o‘zing asra!” degan da‘vatga bugun “O‘z bolangni o‘zing asra!” degan qo‘shimcha kiritildi.

10. “Bir bolaga etti mahalla ham ota, ham ona” degan maqolning haqiqiy ma‘nosini anglaydigan vaqt keldi (Sh. Mirziyoyev, 1-jild, 486-bet).


11. “Diling – Ollohda, qo‘ling – mehnatda bo‘lsin” (“Dil ba yoru, dast ba kor”) shiorini qoida qilib olish lozim.

12. Ko‘plab o‘zbekistonlik fuqarolar peshonasiga yozilgan “diniy ekstremist” tamg‘asi olib tashlandi.

¹⁰⁴ Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustaqil poydevori. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 10-11- bet.

10.4. Yangi diniy harakatlarning noqonuniy faoliyatlari. O‘zbekiston Respublikasida faoliyati aniqlangan norasmiy jamoalar

Mustaqillik arafasida va undan keyingi sharoitlarda mamlakatimizda yangi diniy harakatlar noqonuniy faoliyat yuritdilar. Ya’ni, O‘zbekiston Respublikasida norasmiy faoliyati aniqlangan musulmon diniy oqim va sektorlari, jamoalar quyidagilardan iborat:



10.4.1-chizma.

1. **Vahhobiylar** harakati sunniy mazhablarning eng kichigi bo‘lib, radikal yo‘nalish hisoblangan Hanbaliylik (4) ichidan o‘sib chiqqan, dunyoviy qadriyatlarga nisbatan o‘ta murosasiz diniy-mafkuraviy oqim. Bu oqim XVIII asrda Markaziy Arabistonning Najd vohasida yuzaga kelgan. Vahhobiylar din nomidan ish ko‘rib, go‘yoki payg‘ambar davridagi “asl holatiga” qaytarish, barcha arablarni yashil bayroq ostida birlashtirish g‘oyasini ilgari surgan. Vahhobiylar dunyoviy madaniyatga qarshi turib, musiqa, teatr va tasviriy san’atni rad qiladi. 1803-yili vahhobiylar Makkani, keyin Madina shahrini bosib oldi. Makkayu Madinadagi barcha qabrtoshlar, hatto Bibi Oysha, Bibi Fotima qabrtoshlarini buzib tashlashdi. Karbaloda talon-taroj 8 soat davom etdi, 4 ming odam qilichdan o‘tkazildi. Vahhobiylar biz odamlarni qabrga sig‘inishdan qaytarmoqchi edik, deyishgan. Mustaqillikning dastlabki yillarida Vahhobiylik firqalari O‘zbekiston va boshqa qo‘shni respublikalarda uni yangidan tuzishga bo‘lgan intilish kuchaygan edi. Buning oldi olindi.


2. Hizb at-Tahrir al-islomiy (Hizbut tahrir). Hizbut tahrir 1952-yili Quddus shahrida falastinlik ilohiyotchi Taqiy ad-din an-Nabahoniy (1909–1979) tomonidan asos solingan diniy-siyosiy partiya. U Hayfada tugʻilib oʻsgan, Qohiradagi «al-Azhar» universitetida taʼlim olgan.

Hizbning asosiy maqsadi – avval arab davlatlari miqyosida, keyin islom dunyosi miqyosida va nihoyat jahon miqyosida xalifalik shaklidagi islom davlatini tuzish. Ularning asosiy daʼvosi – Mustafo Kamol Otaturk tomonidan 1924-yili Usmoniy xalifa Ikkinchi Abdulmajid (1922–1924) xalifalikdan gʻayriqonuniy chetlatildi. Davlat diniy-islomiy qonunlar asosida xalifa tomonidan idora etilishi lozim. Hizb dasturi 187 banddan iborat boʻlib, asosiy maqsadi – hokimiyatga erishish. Bundagi asosiy yoʻl – islomiy fikrlovchi shaxslarni shakllantirish. Ularga islomiy taʼlim-tarbiya berish ikki bosqichdan iborat: 1) u bilan islom taʼlimotini oʻrgatish yoʻlida madaniy-maʼrifiy ishlar olib borish; 2) siyosiy faoliyatga tortish.

Oʻzbekiston hududida 1992-yildan boshlab partiyaning boshlangʻich boʻlinmalari tashkil etila boshlagan. Hizb safiga kiruvchilar oʻz partiyalari haqidagi maʼlumotlarni hech qachon oshkor etmaslikka, oʻz mushrifi buyurgan vazifalarni soʻzsiz bajarishga Qurʼon bilan qasam ichadilar. Hizb mutasaddilari oʻz tarafdorlarini koʻproq ziyolilar, ilmiy xodimlar, talaba yoshlar orasidan qidiradilar.

Shavkat Mirziyoyev (2018-yil 27-martda) tashabbusi asosida Afgʻoniston Islom Respublikasi bilan birgalikda Toshkent shahrida “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusida xalqaro konferensiya oʻtkazildi va unda nutq soʻzladi. Afgʻoniston boʻyicha “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusidagi Toshkent konferensiyasining deklaratsiyasi qabul qilindi. BMT Xavfsizlik Kengashining tegishli rezolutsiyasidan kelib chiqib, keng qamrovli tinchlik jarayonini uchta oʻzaro bogʻliq darajada amalga oshirish koʻzlandi:

1. Afgʻoniston mamlakati darajasida.
2. Mintaqaviy darajada.
3. Global darajada.



10.4.2-chizma.

3. “Akromiylar” oqimi. Asoschisi Akrom Yo‘ldoshev, 1963-yilda Andijon shahrida tug‘ilgan “Jihotchilar”ning g‘oyaviy rahnamosi. “Hizbut tahrir”chilar bilan kelisholmay A. Yo‘ldoshev undan ajralib chiqqan hamda “Islom nizomi”, “Xalifalik”, “Izzat va sharaf sari” nomli adabiyotlardan foydalanib, “Imonga yo‘l” risolasi va harakat dasturini ishlab chiqqan. “Akromiylar” o‘z saflariga jalb qilinuvchi shaxslarga ruhiy ta’sir o‘tkazib, ularni g‘oyaviy jihatdan birlashtirgan. O‘z ish faoliyatini quyidagi bosqichlarda amalga oshirgan:

1) “Sirli” yoki “Mahfiy” (o‘z tarafiga munosib nomzodlarni jalb qilgan);

2) “Moddiy” yoki “Iqtisodiy” (Iqtisodiy yordam va ish bilan ta’minlash, topgan foydadan 1/5 qismini jamoa uchun “baytulmol”ga ajratish);

3) “Ma’naviy” yoki “Siyosiy” (g‘oyaviy jihatdan qayta ishlov, din va siyosatni qo‘shib o‘rganish);

4) “Uzviy maydon” (tayyor bo‘lgan a’zolari “zarur joylarga qo‘yish, faoliyatini kengaytirish”);

5) “Oxirat” yoki “To‘ntarish” (asl va asosiy maqsad: vaziyat yetilgach, mavjud tuzum o‘rniga o‘z hokimiyatlarini o‘rnatish). Bu bosqichlar maxfiy, ijrosi qat’iy qilib qo‘yilgan.

“Birodarlar” daromadining 20 foizidan tushadigan mablag‘lar jamg‘armasining asosiy qismini yangi ish o‘rinlari tashkil etish va a‘zolar safini kengaytirish. Hibsga olingan A. Yo‘ldoshev amnistiya tufayli 1998-yil dekabrda ozodlikka chiqib, o‘z izdoshlarini yana 1999-yil 16-fevral voqealarini sodir etib, jinoiy javobgarlikka tortiladi. Akromiylar o‘z aloqalarini mustahkamlash maqsadida tadbirkorlik bilan shug‘ullanadi. “A. Yo‘ldoshev va uning atrofida gilar bizni ish, yaxshi maosh va bepul, ovqatlanish bilan ta‘minladilar” deb chet el axborot vositalariga intervyu berdilar. “Akromiylar” 2005-yil 12-13 mayda Andijon voqeasini sodir etishdi.

4. “Nurchilar” faoliyati. Asoschisi turkiyalik – Said Nursiy. Bu oqimning asl maqsadi mavjud hokimiyat uchun qarshi chiquvchi o‘ta diniy, mutaassib kishilarni tarbiyalashdan iborat “Nurchilar” jamoasi faoliyati siyosatdan uzoq fikrini bersada, aslida siyosatga aralashuv edi. 1992-yildan boshlab oqim g‘oyalari turkiyalik ekstremistlarning moddiy va ma‘naviy ko‘magida yetkazilgan. Oqim, ayniqsa Termiz va Denov shaharlarida kengroq tarqalgan. Termizda “Nurchi”lar yig‘iladigan manzil aniqlangan. Ta‘lim sohasida “Nur” harakati Turkiyada Milliy ta‘lim vazirligidan keyingi o‘rinni egallaydi. “Nurchi”lar O‘zbekistonda Turk litseylarida faol qatnashdi. Bu oqimga 2000-yil yanvarida chek qo‘yildi. Hozir bu oqim Turkiyada mavjud.

5. “O‘zbekiston islom harakati” (O‘IH) 1996-yilda tashkil topgan. Uning tarkibiga (1992-1993 yillarda respublikada faoliyati tugatilgan). 1990-yillarda “Islom lashkarlari” (Namangan), “Adolat uyushmasi” (Namangan), “O‘zbekiston Islom uyg‘onish partiyasi”, “Odamiylik va insonparvarlik” (Qo‘qon) va boshqa ekstremistik tashkilotlar tarkibida faoliyat yuritgan. “Harakat” rahbari (“amir”) Tohir Yo‘ldoshev, birinchi o‘rinbosari uning kuyovi D. Hojiyev (laqabi “Usmon”) asosan moliya masalalari bilan shug‘ullangan.

Bu harakat a‘zolari 1991-yilning 9-dekabrda Namanganda viloyat ijroiya qo‘mitasi binosini egallab olib, hukumat vakillariga quyidagi talablarni qo‘yadi:

1. Dunyoviy tuzumdan voz kechish va O‘zbekistonni islomiy davlat deb e‘lon qilish.

2. Dunyoviy qonunlarni bekor qilish va mamlakatda shariat arkonlarini joriy etish.

3. Dunyoviy maktablarni yopish va o'g'il bolalar hamda qiz bolalar alohida o'qitiladigan maktablar ochish.

4. Islomiy kiyinishga o'tish, ayollarning hijobda yurishlarini joriy etish.

5. Namangandagi sobiq siyosiy ta'lim muassasalari binolarini islom radikallari ixtiyoriga berish va hokazo.

Ular jami 15 ta talab asosida hokimiyatni miyasi diniy radikalizm bilan zaharlangan kuchlarning qo'lga berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Hokimiyatning ularga berilishi ularning nazarida jehod qilinishi lozim bo'lgan insonlarning – o'zga dindagilarni, o'zgacha fikrlovchilarni, dunyoviy taraqqiyot tarafdorlarining, qisqasi, ko'ngillariga yoqmaganlarning istisnosiz tarzda qirib tashlanishiga olib kelgan bo'lar edi.

Shuni aytish kerakki, o'z vaqtida O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning qat'iyati va jasorati binoni boshiga ko'tarib baqir-chaqir qilib yotgan minglab eng ashaddiy ekstremistlarni ham sarosimaga solib qo'ygan edi.

6. “Iroq va Shom islom davlati” (IShID) terrorchilar to'dasi. “Xalifalik” o'rnatish soxta iddaosi bilan musulmonlarni kofirga chiqarib, zulm qilib, tinch aholiga zo'ravonlik o'tkazgan. Niqob qilgan nomlari: “Iroq islom davlati” (2006), “Iroq va Shom islom davlati” (2013), “Islom davlati” (2014) deb atalmoqda. Aqidasi: xorijiyalar toifasidan bo'lmish azraqiylar hamda rofiziylar kabi adashgan firqalar aqidasi. To'da qarorgohi: Suriyaning Raqqa shahri. To'daboshi: “Abu Bakr Bag'dodiy” laqabli shaxs.¹⁰⁵

Soxta da'vo va belgilari: “Islom davlati” yoki “Xalifalik” qurishni iddao qilib, hatto islom dinining muqaddas kalimalarini qora bayroqlarga yozib olib, jirkanch maqsadlari yo'lida foydalanishmoqda. IShID terrorchilik to'dasiga ba'zi o'zbekistonlik yoshlarning tushib qolishi achinarli hol.

Mafkura maqsadi: musulmonlarni kofirga chiqarib tuhmat orqali yo'q qilish, o'zlari yashaydigan joydan boshqa yer kufr diyori deb hijrat qilishga chorlab, jehod va shahidlik niqobi ostida razil maqsadlarini amalga oshirish.


¹⁰⁵ Tulepov A. IShID fitnasi.-T.: Movaraunnahr, 2015.-20-21-betlar.

Qing'ir moliya manbalari: talon-taroj, qaroqchilik, o'g'rilik, bosqinchilik, qora bozordagi neft savdosi, odamlarni qul qilib sotish va shu kabilar.

Hozir ayrim rasmiy ro'yxatdan o'tgan yoki norasmiy faoliyat yuritayotgan noislomiy diniy jamoalarning vakillari tomonidan ham missionerlik faoliyati amalga oshirilishi kuzatilmoqda. Missionerlar aksariyat holatlarda o'z jamoasiga jalb qilishda turli o'qish kurslarini ochib, o'z diniga targ'ib qilish, xorijga o'qishga yoki ishga jo'natish, yoz faslida bolalarni dam olish lagerlariga jalb qilish, hayriya yordam ko'rsatish, bepul tibbiy yordam berish va gazeta, jurnal, kitoblar tarqatish kabi usullardan foydalanmoqda. Ularning diniy ta'limotida Davlat ramzlarini hurmat qilish, Konstitutsion burchni bajargan holda harbiy xizmat o'tash, jamoat ishlarida qatnashish man etilgan. Bunday holat xalqimiz uchun noan'anaviy bo'lgan diniy jamoa va sekta vakillarining maqsadi jamiyatimiz a'zolarining fuqarolik faolligini so'ndirish va qaram qilib olishga yo'naltirilganidan yaqqol dalolat beradi. Shuningdek, ayrim noislomiy diniy jamoalarda ushbu jamoaga a'zo bo'lgan shaxs bilan oila qurishi, jamoadan tashqaridan kelayotgan barcha ma'lumotlarni yolg'on va zararli deb bilish belgilab qo'yilgan, ba'zilarida oila qurish umuman ma'qullanmay, ular daromadlarining deyarli barchasini ushbu jamoa rahbariyatiga topshirishi lozim. Ushbu faktlar mazkur diniy jamoalardagi tartib shaxs, oila va jamiyat uchun naqadar zararli ekanini tasdiqlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 27-martda shunday degan edi: ***“Bugun biz ham davrimizning eng o'tkir mintaqaviy va global muammolaridan biri – Afg'onistondagi qarama-qarshilikni hal etishni amaliy ruhda muhokama qilib, birgalikda umumiy bir yechim ishlab chiqishga qodirmiz. Ming afsuski, jafokash Afg'oniston zaminidagi bu to'qnashuv qariyb 40 yildan buyon davom etmoqda”*** (2018-yil 27-mart).

Umuman olganda, yuqoridagi kabi sektalar, missionerlik tashkilotlari faoliyatiga chek qo'yish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bir qator mamlakatlarda sektalar va missionerlar faoliyati natijasida jabr ko'rganlarga moddiy va ma'naviy ko'mak berish maqsadida maxsus markazlarning tuzilgani, afsuski, yuqoridagi kabi holatlarning ko'payib borayotgani va xatarli

ko‘lam kasb etib, jamiyatdagi ijtimoiy-ma‘naviy muhitga o‘ta salbiy ta‘sir ko‘rsatayotganini kuzatamiz.




10.4.3-chizma.

Amaldagi qonunchiligimizga ko‘ra, muayyan hollarda birinchi marta qonunni buzgan shaxs yoki tashkilotga ma‘muriy jazo qo‘llaniladi. Agarda o‘sha shaxs yoki tashkilot shundan keyin ham qonunni buzishda davom etsa, unga endi jinoyat kodeksidagi choralari qo‘llaniladi. Masalan, «O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi» normalariga ko‘ra, «O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi»ning yuqorida qayd etilgan

bandlaridagi harakatlar ma'muriy jazo qo'llangandan keyin yana sodir etilsa, bu «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi»da belgilanganidan ko'ra og'irroq jazolar qo'llanishiga olib keladi.

Shu bilan birga, «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi»da «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi»da nazarda tutilmagan bir qator harakatlar uchun ham jazolar belgilanganini qayd etish zarur. Jumladan:



10.4.4-chizma.

Mamlakatimizda missionerlik va prozelitizmning oldini olish, ayniqsa yoshlarni bunday zararli oqimlar domiga tushib qolishlarining oldini olish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirishni taqozo qilmoqda. Bu vazifani muvaffaqiyatli hal etishda yosh avlodni hozirgi davrda mamlakatimizda din sohasida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, yaratilgan imkoniyatlar bilan muntazam asosda tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, qiziqishlari, bilim darajalarini inobatga olgan va differensial yondashgan holda yoshlarning din, shu jumladan, xalqimiz asrlar davomida e'tiqod qilib kelgan islom dini haqidagi bilimlarni va milliy-diniy an'analar asoslarini sog'lom asosda egallashlariga ko'maklashish ham bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunday bilimlar obyektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi va o'z mohiyatiga ko'ra, Vatan va millat manfaatlari bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i kerak. Yoshlarimizning missionerlikning mohiyati haqida xolis va yetarli bilimga ega bo'lishlari unga qarshi immunitetni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Tahlillar hech bir mintaqa, hech bir davlat bunday tahdiddan xoli emasligini ko'rsatadi. Bunday holatlarning oldini olish uchun esa missionerlikning mohiyatini to'g'ri va chuqurroq anglash, uni bartaraf etish yo'lida maqsadli, tizimli va tadrijiy faoliyat olib borish zarur bo'ladi. Egallangan bilimlar qanchalik xolis va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga keladigan baholar, qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Shakllangan qadriyatlar tizimi esa turli tahdidlarning oldini olishga xizmat qiladi.

So'nggi 2 yil davomida missionerlikka qarshi, terrorizm, diniy ekstremizm, islom fundamentalizmiga qarshi jinoyat ishlarini liberallashtirishga doir quyidagi ayrim huquqiy-amaliy asoslar ishlab chiqildi:

1. "Ichki ishlar to'g'risida"gi qonun (2016-yil 16-sentabr).
2. "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonun (2012-yil 25-dekabr).
3. "Ma'muriy qamoqni o'tash tartibi to'g'risida"gi qonun (2017-yil 9-yanvar).
4. "Sudlar to'g'risida"gi qonun (2017-yil 12-aprel).
5. "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun (2017-yil 3-yanvar).
6. "Konstitutsiyaviy sud to'g'risida"gi qonun (2017-yil 31-may).
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman).
8. "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi qonun (2017-yil 7-sentabr).
9. "Bolalarni ularning sog'ligiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonuni (2017-yil 8-sentabr).

10. “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) qonun (2017-yil 11-sentabr).

11. “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonun (2017-yil 8-yanvar).

12. “O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksini tasdiqlash haqida”gi qonuni (2018-yil 22-yanvar).

13. “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi qonuni (2018-yil 5-aprel).

14. “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonuni (2018-yil 12-aprel).

15. “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni (2018-yil 30-iyul).

“Biz diniy jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish kerakligi haqida ko‘p gapiramiz. Bu – to‘g‘ri, albatta. Lekin ma’rifat, ma’rifiy bilimlar qayerda – avvalo ota-bobolarimiz bizga qoldirib ketgan mana shunday mo‘tabar kitoblarda emasmi?”

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 24-dekabrda: **“1995-yilgacha O‘zbekistonga kelgan va shundan buyon istiqomat qilayotgan shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi avtomatik tarzda berilishi darkor. Shu tariqa 50 mingga yaqin yurtdoshlarimizning fuqarolik bilan bog‘liq uzoq yillardan buyon yechilmasdan kelayotgan muammolari hal etildi”**.¹⁰⁶ Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy islohotlar konsepsiyasi g‘oyalari amalga oshirilmoqda.

“Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish maqsadida ushbu yo‘nalishda alohida qonun qabul qilindi (“Ma’muriy qamoqni o‘tash tartibi to‘g‘risida”gi qonun, 2017-yil 9-yanvar). Shu asosda aniq maqsadlarga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan davlat dasturi izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Ana shunday ishlarimiz natijasida shu yilning (2017) 9 oyida korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar o‘tgan (2016) yilga nisbatan 33 foizga kamaydi. Biz bunday natijalarni korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi uzoq va davomli faoliyatimizning dastlabki samarasi, deb qabul qilishimiz, bu yo‘lda yanada qat’iy ish olib borishimiz shart”¹⁰⁷.

¹⁰⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 14-bet.

¹⁰⁷ O‘sha joyda, 22-bet.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida diniy e‘tiqod erkinligiga qanday munosabat bildirilgan?
2. Diniy e‘tiqod erkinligi haqida Konstitutsiyaning qaysi moddasida so‘z yuritiladi?
3. Diniy ekstremizm, aqidaparastlik, terrorizm tushunchalarining mazmun-mohiyati nimada?
4. Fundamentalizm tushunchasi qachon paydo bo‘lgan?
5. Missionerlik tashkilotlari o‘z dinlarini qanday targ‘ib qilishadi?
6. “Ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonun haqida nimalar bilasiz?
7. O‘zbekiston Afg‘oniston muammosini birgalikda bartaraf etish bo‘yicha asosiy maqsad va vazifalari.
8. “O‘zbekiston islom harakati” (O‘zIH) va “Iroq va Shom davlati” (IShID) terrorchilar to‘dasi.
9. Diniy ekstremizmni keltirib chiqaradigan ijtimoiy-siyosiy omillar.
10. Terrorizmni bartaraf qilishning umumiy yo‘llari.

Testlar:

- 1. Missionerlikning mazmun-mohiyatini aniqlang.**
 - A) Lotincha missiya – bir dinga e‘tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ‘ib etish.
 - B) Inglizcha, mas‘uliyatli topshiriq, islom diniga e‘tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ‘ib etish.
 - C) Yunoncha, jiddiy vazifa, bu to‘g‘ridan to‘g‘ri biror dinga ishongan fuqoroni o‘z dinidan voz kechishga va o‘zga dinni qabul qilishga majbur qilishdir.
 - D) Arabcha, yuborish, bu boshqa diniy e‘tiqodga ega bo‘lgan aholini o‘z diniga og‘dirib olishlik bo‘yicha diniy tashkilotlar vakillari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat.

2. Prozelitizm atamasi nimani anglatadi?

A) Lotincha, majbur qilish, bu to'g'ridan to'g'ri biror dinga ishongan fuqaroni o'z dinidan voz kechishga va o'zga dinni qabul qilishga majbur qilishdir.

B) Yunoncha, mas'ulyatli topshiriq bir dinga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ'ib etish.

C) Inglizcha, mas'ulyatli, jiddiy vazifa, islom diniga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ'ib etish.

D) Arabcha, yuborish, bu boshqa diniy e'tiqodga ega bo'lgan aholini o'z diniga og'dirib olishlik bo'yicha diniy tashkilotlar vakillari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat.

3. Bugungi kunda missionerlik va prozelitizmning zamonaviy shakllarini toping.

A) Zamonaviy texnika va texnologiya, OAV imkoniyatlaridan samarali foydalanish, soxta insonparvarlik ko'rsatish, tibbiyot ta'lim-tarbiya sohasida maxsus kadrlar orqali "tayanch nuqta"ni topish.

B) Sport to'garaklari tashkil qilib, xristianlikni targ'ib qiluvchi maxsus buklet va sovg'alar topshirish.

C) Xayriya yordam bilan aholining nochor qatlamini moddiy, tibbiy yordam ko'rsatish, xalqaro huquq normalarini ro'kach qilib, himoya qilish orqali.

D) A, B, C javoblar to'g'ri.

4. Sekta (diniy sekta) – bu

A) Faqat o'zini haq din, insonlarni najotga yetaklovchi deb da'vo qiladigan, aslida esa muayyan siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni ko'zlaydigan guruh hisoblanadi.

B) Bu to'g'ridan to'g'ri biror dinga ishongan fuqaroni o'z dinidan voz kechishga va o'zga dinni qabul qilishga targ'ib qiluvchi guruhdir.

C) Ijtimoiy guruh, tabaqa va guruhlarining tub manfaatlarini o'z faoliyatida ifoda etuvchi, ularni muayyan maqsad-manfaatlarini himoya qilish uchun kurashga qaratilgan diniy uyushma.

D) Bu siyosiy va ijtimoiy rivojlanish jarayoniga nisbatan aks ettiruvchi, ma'naviy ekspansionizm bilan ajralib turuvchi jamaviy ongning alohida bir turidir.

5. Islom ekstremizmi va fundamentalizmi tushunchalari nimani anglatadi?

- A) Ilk islom g'oyalari va an'analarini qayta tiklash g'oyasini.
- B) Terrorchilik g'oyasini.
- C) Islomni yangilash g'oyalari ostida harakat qiluvchilarni.
- D) Islom partiyalarini anglatadi.

Esse mavzulari:

1. Missionerlik va prozelitizmning mazmun-mohiyati.
2. Ekstremizm, terrorizm tushunchalarining mazmun-mohiyati.
3. O'zbekiston Respublikasida diniy ekstremizm va terrorizm xavfining oldini olishning huquqiy asoslari.
4. Yangi diniy harakatlarning noqonuniy faoliyatlari.
5. Diniy sektalar va ular faoliyatining oqibatlari.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Shermuhamedov K., Karimov J., Najmiddinov J. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. –Toshkent: “Movarounnahr”, 2016. – 224 b.
2. Ochildiyev A., Najmiddinov J. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo'llari (yuz savolga – yuz javob). – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2017. – 200 b.
3. Hillary Rodrigues, John S. Harding. Introduction to the study of Religion. Routledge, USA, 2009. – 177 p.
4. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. – T.: Sharq, 2014. – 536 b.
5. Tulepov A. Internetdagi tahdidlardan himoya: Yordamchi o'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir A.Hasanov. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2016. – 672 b.
6. Hasanboyev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari. – T.: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. – 552 b.
7. G'oyibnazarov Sh. Islom terrorizmga qarshi. [Matn] Monografiya. –T.:”O'zbekiston” NMIU,2021. – 320 b.

8. www.nber.com – AQSH iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi sayti.
9. [www. webofscience.com](http://www.webofscience.com) – Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi
10. www.scopus.com – Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi
11. www.elibrary.ru – Rossiya ilmiy maqolalari indeksi
12. [www.mgm.uz.](http://www.mgm.uz) – Fuqarolik jamiyatining shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti

11-MAVZU. DINIY TOLERANTLIK MADANIYATI, UNING JAMIYAT RIVOJIDAGI AHAMIYATI. KIBERMAKONDA DIN OMILI

Reja:

11.1. Diniy tolerantlik madaniyatining mohiyati. Diniylik va dunyoviylik muvozanati jamiyat rivojining muhim omili.

11.2. Kibermakon va din. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarga ta'siri.

11.3. Global tarmoqdagi g'oyaviy xurujlarning oldini olish.

11.4. Yoshlar tolerant dunyoqarashini shakllantirishning innovatsion usullari.

11.1. Diniy tolerantlik madaniyatining mohiyati. Diniylik va dunyoviylik muvozanati jamiyat rivojining muhim omili

Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalari asoslanadi, u halollik, tinchlik, yaxshilik va do'stlik kabi bir qancha ezgu fazilatlarga tayanadi. Insonlarni halollik va poklik, mehr-oqibat, insonparvarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi. Istiqloq yillarida erishgan eng katta boyligimiz – xalqimizning tinch va osuda hayotidir. Jamiyatimizdagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat va bag'rikenglik kabi oliyjanob fazilatlar xalqimizga xosdir.

O'zbekiston xalqlari tabiatiga xos bo'lgan tolerantlik va totuvlik tuyg'ulari tarixiy ildiz va mustahkam qonuniy asoslarga ega. Millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik g'oyalari O'zbekistonda yashayotgan millat va elat vakillarining o'zaro ahillikda, hamjihatlikda, birdamlikda yashashga chorlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni (2017-yil 7-fevral), "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoyishi (2017-yil 15-avgust)ning "Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish" deb nomlangan 5-yo'nalish doirasida Diniy sohadagi davlat siyosati

konsepsiyasini ishlab chiqish nazarda tutilgan. Mustaqillik islom ma'rifatining rivoji uchun sharoit yaratdi.

O'zbekistonda dunyoviylik bilan diniylik o'rtasida andoza sifatida qo'llash mumkin bo'lgan yangi nisbatning shakllanishi natijasida dinlararo bag'rikenglik va millatlararo totuvlikning ta'minlangani, qolaversa, tabarruk zaminimizning azaldan umumjahon tamadduni markazlaridan biri bo'lgani barchaga ayon. ***“Mamlakatimizda diniy erkinliklar borasida ham vaziyat keskin yaxshilandi. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni yanada mustahkamlash biz uchun doimiy muhim vazifalarimizdir”***¹⁰⁸ (qarang 11.1.1-chizma. “Harakatlar strategiyasi”).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoniga binoan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilingan bo'lib, uning beshinchi ustuvor yo'nalishi “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosatni yuritish” deb nomlangan. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish

axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o'z vaqtida va munosib qarshilik ko'rsatish

fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash

davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish

atrof va tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarning oldini olish; favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish

11.1.1-chizma. Harakatlar strategiyasi

¹⁰⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi//“Xalq so'zi” 2020-yil 23-sentabr.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi” deb belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev xalqimizning dunyoqarashida tobora chuqur va mustahkam o‘rin egallayotgan bag‘rikenglik tamoyili to‘g‘risida "Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqida shunday deydi: “Sizlarga yaxshi ma‘lum, bizning davlatimiz ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali davlat. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo‘lgan bag‘rikenglik an‘analari muhim rol o‘ynamoqda. Ana shu haqiqatning tarixiy tasdig‘i sifatida bir misol keltirmoqchiman.

Samarqand shahrida Sohibqiron Amir Temur davrida bunyod etilgan, Doniyor payg‘ambar nomi bilan ataladigan maqbara islom, xristian va yahudiylik dini vakillari tomonidan birdek e‘zozlanadi.

El-yurtimiz necha asrlardan buyon bu qutlug‘ qadamjoni asrab-avaylab, obod qilib, unga hurmat-ehtirom ko‘rsatib kelmoqda. Shu birgina misolning o‘zi olijanoblik, ezgulik va tom ma‘nodagi bag‘rikenglik fazilati xalqimiz tabiati, mentaliteti asosini tashkil etishidan dalolat beradi. Bizning Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda, millati, tili va dinidan qat‘i nazar, barcha fuqarolarimiz teng huquq va erkinliklarga ega ekani kafolatlab qo‘yilgan. Ularga o‘z milliy madaniyati, an‘ana va urf-odatlarini saqlash, har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Ko‘p millatli O‘zbekiston davlati tamoyillaridan biri tolerantlik, diniy bag‘rikenglik g‘oyalaridir (qarang 11.1.2-chizma va 11.1.2-chizma).

Respublikamizda turli din vakillarining hech qanday to‘siqlarsiz o‘z dinlariga e’tiqod qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Fuqarolar e’tiqodlaridan kelib chiqqan holda diniy tashkilotlarga birlashib, mustaqil huquqiy shaxs sifatida faoliyat yuritishi, diniy mutaxassislar tayyorlashlari va adabiyotlarni nashr etishlari, diniy

bayram va marosimlarini o‘tkazishlari, muqaddas joylarga ziyoratlar tashkil etishlari kafolatlandi.

Tolerantlik tafakkuri millatlar, elatlar, xalqlar, madaniyatlar, qarashlar, mafkuralar xilma-xilligi sharoitida o‘zaro hamkorlik va bir-birini qabul qilish, anglash jarayoni hamda o‘zaro barqarorlik tafakkurini bildiradi. O‘zbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o‘z e’tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o‘rtasida qadimiy mushtarak an’analarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda.

Tolerantlikni zamonaviy tushunish va anglash jarayonlari XX asrning so‘nggi choragidan boshlangan. 1995-yili 16-noyabrda Parij shahrida YUNESKO tashkilotining yigirma sakkizinchi Sessiyasida 185 dunyo davlatlari ishtirokida “Tolerantlik tamoyillari Deklaratsiyasi imzolandi. Ushbu deklaratsiya YUNESKO tashkilotining Bosh Assambleyasi konferensiyasining Rezolutsiyasi bilan tasdiqlandi. Mazkur hujjat tolerantlikni dunyo rang-barangligi asosidagi erkinlik huquqi sifatida baholaydi. Shu davrdan boshlab har yili 16-noyabrni dunyo miqyosida tolerantlik kuni sifatida nishonlash an’anaga aylandi.

11.1.3-chizma. Tolerantlik tafakkuri.

Yoshlarda diniy bag‘rikenglik tafakkurini shakllantirishda milliy, diniy urf-odat, rasm-rusum va aqidalarning o‘rni juda katta. Tinchliksiz taraqqiyot va demokratiya bo‘lmagani kabi, bag‘rikengliksiz tinchlik ham bo‘lmaydi. Yoshlarga tinchlik va bag‘rikenglikning ulug‘ ne’mat ekani, uni qadriga yetish, jamiyat tinchligi va xavfsizligiga tahdid soluvchi omillar to‘g‘risida zarur ma’lumotlarni berish, ularda O‘zbekistonning madaniy rang-barangligi, yurtimizdagi millat va elatlarning urf-odatlari va an’alarini hurmat qilish, shuningdek, ana shu madaniy turfaxillikni asrab-avaylash kabi ijobiy fazilatlarni shakllantirish muhim.

Milliy qadriyatlarimiz tarkibida eng qadimgi davrlardan boshlab har doim diniy bag‘rikenglik xususiyatlari ustuvorlik qilib kelgan. Chunki millatimizning o‘zini anglashi birinchi navbatda, o‘zi bilan bir makonda istiqomat qilayotgan etnik birliklarni tan olishida namoyon

bo‘ladi. Kishilarning o‘z vatanparvarligini namoyon qilishi ularga nisbatan yoshi, millati, irqi, jinsi, nasl-nasabidan qat’i nazar bir xil munosabatda bo‘lishida ifodalanadi. Xalqimiz bugungi kunda avlod-ajdodlarimizdan bizga meros bo‘lib qolgan yuksak ma’naviyatimizni munosib ko‘rsata olishmoqda (qarang 11.1.4-chizma).

“Bag‘rikenglik” tushunchasi ilmiy faoliyat va ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan, siyosat va siyosatshunoslik, sotsiologiya, falsafa, ilohiyot, qiyosiy dinshunoslik kabi sohalarda keng ifoda etiladigan tushunchalardan biri hisoblanadi. Lotincha “tolerare”, ya’ni “chidamoq”, “sabr qilmoq” ma’nosini anglatgan bu so‘z, asosan bir insonning boshqa inson dunyoqarashiga toqat qilishini bildirsa-da, etimologik tahlil har doim ham uning tom ma’nosini ochib beravermaydi.


11.1.4-chizma. Bag‘rikenglik.

Islom dini o‘zining ilk davridanoq bag‘rikenglik dini sifatida namoyon bo‘ldi. Islomda e’tiqod erkinligi ochiq-oydin e’lon qilingan: “Baqara” surasining 256-oyatida “Dinda zo‘rlash yo‘q”, deyilgan.

Umuman olganda, Qur’onning 50 dan ortiq surasidagi yuzlab oyatlarda musulmonlar mo‘min-qobillik, tinchlikparvarlik va boshqa e’tiqod vakillariga nisbatan bag‘rikenglik da’vat etilgan.

Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ham o‘z hayotlari davomida hech qachon hech kimni islomga kirishga majbur qilmaganliklarini, biron marta u yoki bu harbiy harakat diniy e’tiqod tufayli bo‘lmaganini ham yoddan chiqarmaslik lozim.

Tarixdan ma’lumki, har qanday davlatning barqarorligi undagi xalqlar, millat va elatlarning huquq va erkinliklari faqatgina qonuniy hujjatlarda belgilanishiga emas, balki ularning amalda qay darajada o‘z tasdig‘ini topishiga ham bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mamlakatimizda fuqarolarning vijdon erkinligi bilan bog‘liq huquqlari nafaqat qonun bilan mustahkamlab qo‘yilgani, balki amaliyotda uning asosiy tamoyillarga qat’iy rioya qilinayotgani hayotiy dalillar bilan tasdiqlanayotganini ta’kidlash zarur.



11.1.5-chizma. Diniy bag'rikenglik.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda diniy tashkilotlarning soni o'sdi. Xususan, 1990-yilda respublikamizda 119 ta diniy tashkilot (89 ta islomiy va 30 ta noislomiy) mavjud bo'lgan bo'lsa, 1991-yilda 179 taga (146 islomiy va 33 noislomiy) etdi, 2015-yilga kelib esa, ularning soni 2224 tani (2049 ta islomi, 175 ta noislomiy) tashkil etdi.

Noislomiy diniy tashkilotlar qatoriga Rus Pravoslav cherkovi, Rim-katolik cherkovi, Nemis Evangel-lyuteranlar cherkovi, Arman Apostollik cherkovi, yahudiylar va Bahoiylar diniy jamoalari, Buddaviylar ibodatxonasi, Bibliya kitob jamiyati, Krishnani anglash jamiyati kabi tashkilotlarni sanash mumkin.

Mamlakatimiz hududida musulmonlar bilan birga 16 ta din va konfessiyalarga e'tiqod qiladigan 130 dan ortiq millat va elatlar yashaydi. O'zbekiston xalqi qadimdan bag'rikeng xalq bo'lgani sabab qadimda ham bugungi kunda ham boshqa din va konfessiya vakillari bilan tinch totuv yashab kelmoqda.

Mamlakatimizda fuqarolarning boshqa huquq va erkinliklari qatori vijdon va e'tiqod erkinligini ta'minlashga ham alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. 2017–2021-yillar mobaynida respublikamizda 49

ta yangi jome masjid ochildi. Jumladan, 2021-yilda 9 ta yangi masjid o‘z faoliyatini boshladi. Hozirda masjidlarning umumiy soni 2088 tani tashkil etadi. Ulardan, 2016 tasi jome’, 72 tasi esa mahalliy masjid maqomida. Umuman olganda ushbu davrda 69 ta diniy tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tgan. Jumladan, 49 ta yangi masjidlar va 3 ta madrasa tashkil etildi hamda boshqa konfessiyalarga mansub 17 ta diniy tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tkazildi va ularning umumiy soni 191 taga etdi. 2021-yil 26-yanvar kungi ma’lumotga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi masjidlar soni 53 taga etdi. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning rasmiy telegram kanali. 21.04.2021 yilgi ma’lumot).

2017–2021-yillar davomida O‘zbekiston musulmonlari idorasi va tizimdagi tashkilotlar va diniy soha xodimlarining 58 ta veb-sayti, 166 ta “Telegram” kanali, 200 ta "Feysbuk" sahifasi hamda “Youtube” videoxostingida 21 ta kanali faoliyat olib bormoqda. Tahlillarga ko‘ra, umumiy Internet foydalanuvchilarning qamrovi 5 mln.dan ortadi.

Afsuski, tinchlikni ko‘ra olmaydigan ba’zi g‘arazli maqsadga ega kuchlar xalqimizni asl ildizlaridan mahrum qilish maqsadida dinni niqob qilgan holda turli aqidaparastlik va missionerlik g‘oyalari xufyona targ‘iboti bilan shug‘ullanmoqdalar. Ulardan missionerlarni oladigan bo‘lsak ular, eng avval dinidan uncha xabardor bo‘lmagan, dinga yengil munosabatda kun kechirayotgan yoki o‘zini musulmon hisoblasa-da, hayotida musulmonchilikning biron-bir asorati qolmagan shaxslar, shuningdek, kam ta’minlangan, bemor, yolg‘iz qolgan fuqarolar, hatto kar, soqov nogironlar orasida harakat olib boradilar. Zimmasidagi fuqarolik majburiyatlari, haq-huquqlari va dinimizning asosiy tartib-qoidalaridan yaxshi xabardor bo‘lgan kishiga yaqin ham borishmaydi. Ha, shariatimizda ilmning har bir mo‘min va mo‘mina uchun farz qilib belgilangani hikmati bekorga emas (qarang 11.1.5-chizma).

Bugun barcha baralla “Sharq – madaniyat o‘chog‘i” deb aytishgan oliyjanob fikrdan faxrlansada, kundalik ongda unga nisbatan ko‘nikma hosil qilib bo‘lgan. O‘zbekiston fuqarolari sharq madaniyati va yuksak g‘oyalarda tarbiya topganini, o‘zining axloqiy tarbiyasida isbotlab berdi.

Oilalarda, maktabgacha ta’lim muassasalarida qolaversa xalq va oliy ta’limda o‘sib borayotgan yosh avlodning ma’naviy, madaniy

tarbiyasiga ularning ilmiy tolerant tafakkurining shakllanishiga juda katta e'tibor berilayotgani jamiyatimizning taraqqiyotida o'z isbotini topmoqda.

Buyuk ajdodimiz Imom Buxoriy hazratlarining “Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmaydi ham” degan hikmatlarini yodda tutib, yoshlarimizni dunyoqarashi keng, imon-e'tiqodi mustahkam bo‘lishi uchun ilmga yo‘naltirish barchamizning dolzarb vazifamizdir. Chunki barcha xatolar va muammolarning boshi ilmsizlikdir.

11.1.5-chizma. Imom Buxoriy ilm haqida.

Xalqimizning millat urf-odatlariga, qadriyatlariga amal qilishida tartib-intizom ustuvor masaladir. Millatimizda madaniy tolerant tafakkur mavjud. Mentalitetimizdagi milliy qadriyat hisoblanayotgan ma'naviy fazilatlarimiz millat madaniyatini rivojlantiruvchi omil hisoblanadi. Kiyinish madaniyatidagi “uyat”, or-nomusdagi “iffat”, o‘zbekona muomaladagi “ibo-hayo” qonunga amal qilishdagi “itoatkorlik”, o‘zaro munosabatdagi “ibrat”, tarbiya jarayonidagi “sabr-toqat”, hamkorlikdagi “birodarlik” sanoqdagi chegara bilmas bu qadriyatlarimiz bugungi kunda ilmiy ta'rifiga va izohiga ega. Shu kabi qadriyatlarni hayotga amaliy tarzda yetkazib berishda axloqiy tarbiyaning o‘rni juda katta. “Tolerantlik” tushunchasining pedagogik jihatlarini madaniy, ilmiy tadqiq etish asosida mazkur jarayonda avvalo insonning ichki munosabatlariga nisbatan tashqi olamning ijobiy va anglangan munosabati hamda ular o‘zaro hamkorligini o‘rnatishga qaratish lozim.

Ilmiy tolerant tafakkur insonlarning turli iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy, ma'naviy, ruhiy munosabatlarni ratsional tuzishda yordam beradi (qarang 11.1.7; 11.1.8; 11.1.9-chizmalar).

**Millat
madaniyatini
rivojlantiruvchi
omillar**

milliy qadriyat, ma'naviy fazilatlar, kiyinish madaniyati, uyat, or-nomus, iffat, o'zbekona muomala, ibo-hayo, itoatkorlik, ibrat, sabr-toqat, birodarlik

11.1.6-chizma. Millat madaniyatini rivojlantiruvchi omillar.

Tolerantlik

Tolerantlik urf-odat, madaniyat, qarash va mafkuralarga nisbatan xolis munosabat bildiradi, dunyo rang-barangligini tan oladi. Tolerantlik tushunchasi juda keng tushuncha ekanligini Markaziy Osiyoda rivojlangan tarixiy, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar tizimida o'zini to'laroq namoyon etadi.

11.1.7-chizma. Tolerantlik.

Tolerantlik



(lot. tolerantia — sabr-toqat), bag'rikenglik — o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lish.

11.1.8-chizma. Tolerantlik.

Tolerantlik dunyoviy davlatning eng zarur ijtimoiy-ma'naviy xususiyatlaridan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi dunyoviy davlat va axborotlashgan jamiyat qurish yo'lidan borar ekan, tabiiy ravishda, madaniy, ilmiy tolerant tafakkurini butun aholi, xususan yoshlar ongida shakllantirish masalasi dolzarb hisoblanadi.



11.1.9-chizma. Tolerantlik tafakkuri.



11.1.10-chizma. Diniy tolerant madaniyat tarkibi.

Hozirgi davrda leksikonimizga va turmush tarzimizga “raqamli iqtisodiyot”, “raqamli ta’lim”, “raqamli tibbiyot” kabi tushunchalar kirib keldi.

Yoshlarda bunday tafakkurni shakllantirishning asosiy maqsadi ularda dunyoviy va diniy bag'rikenglik, o'zga din va millat vakillariga hurmat, o'zga madaniyatlarni qadrlash, milliy boyliklarga hurmat bilan qarash, kitob o'qish madaniyatini shakllantirish, bilim – boylik ekanligini uqtirish, sabr-toqatli bo'lish, do'stlik munosabatlarini o'rnatish va qadrlash, oila va jamiyatda bardoshlilik ko'nikmalarini

ko'rsata olish, birodarlik, hamdardlik, hurfikrlilik, sadoqat, e'zoz, birovlarini kamsitmaslik, o'zgalari xatolari ustidan kulmaslik, o'zgalarni xo'rlamaslik, o'z kuchiga haddan ziyod ishonmaslik, tinchlik va totuvlikni qadrlash, insonlarni barqarorlikka safarbar eta olish kabi ko'nikmalarni tarbiyalashga qaratilgandir. Inson – ijtimoiy voqelikdir. Uning hayoti faqat jamiyat tarkibidagina real voqelikka aylanishi mumkin. Insonning turli iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, oilaviy munosabatlarga kirisha olish qobiliyati undan konstruktiv muloqot qila olish ko'nikmalarining shakllantirilishini talab etadi. Ilmiy tolerantlik ana shunday muloqot olib borish ko'nikmalari va san'ati hisoblanadi.

Bugungi kunda “dunyoviylik” va “diniylik” tushunchalari hamda ularning ijtimoiy-falsafiy mazmunini tahlil qilish o'ta dolzarb ijtimoiy-gumanitar muammolardan biri hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, dunyoviylik va diniylik tushunchalari qadimdan ko'pgina olimlar, mutafakkirlar va diniy ulamolar tomonidan bir-birini inkor etuvchi hamda qarama-qarshi tushuncha va aspektlar sifatida o'rganildi, bir-biriga zid ikki tamoyil sifatida anglab kelindi.

Din abadiy va haqiqiy dunyo sifatida g'ayritabiiy dunyoni e'tirof etadi va insonning real dunyodagi hayotini abadiy dunyoga o'tish yo'lida bir vosita deb o'rgatadi. Dunyoviylik esa obyekt sifatida moddiy olamni o'rganish va o'zgartirishga harakat qiladi. Ammo diniylik va dunyoviylik tushunchalarini bir-biriga qarshi qo'yish emas, balki bir-birini taqozo qiluvchi jarayon sifatida o'rganish lozim. Buning uchun ushbu tushunchalarning mohiyatini falsafiy jihatdan tahlil qilish ularning konsensusga erishishini ta'minlaydi. Mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni va demokratik taraqqiyotni ta'minlashning metodologik asosi dunyoviylikdir. Dunyoviylik dahriylik emas, ayni vaqtda diniylik ham emas. U o'z ichiga tolerantlikni qamrab olgan bo'lib, qarama-qarshi tomonlarning yakdillikka erishishi uchun zamin yaratadi. Tarixdan bugungi kungacha dunyoviylik va diniylik tushunchalariga nisbatan turlicha yondashuvlar bo'lgan. Ularning mohiyatini ontologik va gnoseologik nuqtayi nazardan tahlil qilish diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga nisbatan yangi mexanizmlarning yaratilishiga xizmat qiladi. Tadqiqotchi-olim T.Karim fikriga ko'ra, kishilarning dunyoga munosabatlari mazmunan to'rt xilda namoyon bo'ladi: 1) diniy mutaassiblik; 2) diniy bag'rikenglik; 3) dunyoviylik; 4)

dahriylik¹⁰⁹. Shu o‘rinda bir narsani alohida ta’kidlash joizki, dunyoviylik bag‘rikenglik tushunchasini ham o‘z ichiga qamrab olishini hisobga olsak, bizning nazarimizda, kishilarning dunyoga munosabatlarini uchga bo‘lish mumkin. Bular dunyoviylik, diniy mutaassiblik va dahriylikdir. Ulardan qaysi biri jamiyatda yetakchi mavqeni egallashi diniylik va dunyoviylik o‘rtasidagi munosabatni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, jamiyatda diniy mutaassiblik hukmron bo‘lganida, har qanday dunyoviy tamoyillar inkor etiladi. Shu bilan birga, dahriylik ham dinni jamiyat uchun afyun deb hisoblashgan davr ham bo‘ldi. Dunyoviy demokratik qadriyat va tamoyillarga asoslangan jamiyatlarda bag‘rikenglikning har qanday shakli, jumladan diniy bag‘rikenglik ham muhim qadriyat sifatida ta’minlanadi.

Din dastlab ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning paydo bo‘lishi va shakllanishida muhim omil hisoblanadi, shu bilan birga jamiyatning barqaror rivojiga yordam bergan hamda uning o‘zgarishiga, rivojiga turtki bo‘lgan. Falsafiy, huquqiy, ilmiy dunyoqarashlar ajralib chiqib boshlagach, dinning ular bilan munosabati, o‘zaro ta’sir jarayoni kechgan. Jamiyat ehtiyojlari va imkoniyatlariga bog‘liq holda diniylik va dunyoviylik o‘rtasidagi munosabat o‘ziga xos tarzda shakllanib borgan. Din insoniyat moddiy va ma’naviy hayotining barcha muammolari bilan bog‘liq holda o‘ziga xos yondashuv sifatida shakllanadi. Din ijtimoiy hayotning turli talablariga, muammolariga u yoki bu nuqtayi nazardan berilgan javob yoki yechim hisoblanadi. Uning shakllanishida o‘z davrining dunyoviy-falsafiy tasavvurlari muhim rol o‘ynagan. Turli millatlar, sinflar yoki davlatlar diniy qarashlarini rivojlantirishda, uning g‘oyalarini talqin qilishda o‘zlarining dunyoviy manfaatlaridan kelib chiqqanlar.

Dinning mohiyatini to‘liq yoritish uchun avvalo “dunyoviylik” tushunchasini ham ijtimoiy-falsafiy nuqtayi-nazardan tahlil qilish kerak bo‘ladi.

Dunyoviylik tushunchasining ilmiy ta’rifini keltirish juda murakkab vazifadir. Hozirgi kunda dunyoviylik tushunchasini keng izohlab beruvchi umume’tirof etilgan ta’rif yo‘q.

¹⁰⁹ Karim T. Dunyoviylik falsafasi // Dunyoviylik falsafasi: Maqolalar to‘plami. – Toshkent, TDIU, 2007. – B. 26.

Dunyoviylik

borliqni tashkil etuvchi narsa va hodisalarga xos bo'lgan sifat va belgilarni o'qib-o'rganish orqali olingan ilmiy bilimlar natijasidir.

11.1.11. Dunyoviylik

Agressiv ateizm g'oyasi hukmron bo'lgan sobiq sovet tuzumi davrida ham bu tushuncha aniq va teran izohlab berilmagan. Lekin bir narsani alohida ta'kidlash lozimki, shu vaqtgacha ko'pgina olimlar tomonidan "dunyoviylik" tushunchasiga berilgan ta'riflarga uchta xususiyat xos: 1) dunyoviylik tushunchasi aksariyat hollarda diniylik tushunchasiga qarama-qarshi muxolif tushuncha sifatida o'rganilgan; 2) din salbiy ma'noda ifodalangan; 3) tushunchaning mazmunini ifodalashda qarama-qarshiliklar mavjud va ichki ziddiyatlarga to'la. Umuman olganda, dunyoviylik tushunchasi semantik mazmunining asosi uning dinga nisbatan o'ziga xos munosabatini ifodalashda yotadi.

Yevropa XVIII–XX asr ijtimoiy fikr taraqqiyotida "dunyoviylik" mohiyatini talqin etishning uchta asosiy turini farqlashimiz mumkin:

1. Diniylikka qarshi dunyoviylik. Bu dunyoviylikning dinga nisbatan yashirin yoki oshkora qarama-qarshiligini bildiradi. Ushbu izohga ko'ra dinni mutlaqo inkor etish, ateizm tamoyiliga asoslanish ushbu talqinning o'ziga xos xususiyatidir. Akademik L.N.Mitroxinga ko'ra dunyoviylik va diniylik "nur" hamda "zulmat" sifatida ko'riladi. Shu bilan birga agressiv xususiyatga ega bo'lib, "kim biz bilan bo'lmasa, bizga qarshi" tamoyiliga asoslanadi¹¹⁰. Ushbu turda "dunyoviylik" va "diniylik" bir-biriga zid aspektlar sifatida ta'riflanadi.

¹¹⁰ Arabadjyan A.3. Istoki duxovnosti. Religiya i ateizm. –Moskva, Nauka, 1993.- S. 112.

2. Diniy bo‘lmagan dunyoviylik. Bu dunyoviylik tushunchasining nisbatan kengroq talqini bo‘lib, dinga qarshi emas, ammo dindan oraliq masofani saqlash tamoyiliga asoslanadi. Ya’ni dinga qarshi dunyoviylik talqinining liberallashtirilgan variantidir. Ushbu talqinga ko‘ra faqat “diniy” deb atalmagan kontentni “dunyoviy” deb atash mumkin yoki aksincha.

3. Diniylikni inkor etmagan dunyoviylik. Bu dunyoviylik talqinining eng keng, mafkuraviy jihatdan betaraf va falsafiy nuqtayi nazardan ta’riflangan variantidir. Ushbu talqin dunyoviylikning dindan mustaqilligini ta’kidlaydi. Dunyoviylikning bu talqini asosida dinning obyektiv yo‘qligi yoki subyektiv rad etilmasligi, shu bilan birga “dunyoviylik dahriylik emas, ayni vaqtda dinsizlik ham emas” tamoyiliga asoslanganligi bilan xarakterlanadi.

Birinchi ikkita ta’rifdan farqli o‘laroq, uchinchi ta’rif dunyoviy va diniy munosabatlarga nisbatan ko‘proq mustaqil va xolisdir. Shuning uchun uchinchi talqin obyektiv, falsafiy va ilmiy yondashuvni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv nuqtayi nazaridan “dunyoviylik” o‘z mazmuniga ega bo‘ladi, bu esa dinga salbiy qaramligining yo‘qligini anglatadi. Boshqacha aytganda, dunyoviylikning bu talqini diniylik va dunyoviylikning xususiyatlarini birlashtirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Sharqshunos, dinshunos olim Z.Minovarov dunyoviylik to‘g‘risida o‘zining quyidagi xulosasini bayon qilgan: “Bizning fikrimizcha, taraqqiyotning dunyoviy yo‘li sobiq mafkura qoliplariga tushmasligi, ya’ni uning dahriylik ham, diniylik ham emasligi bilan bog‘liq. Bundan dunyoviylik mohiyatan, zikr etilgan ikki qarama-qarshi qutbning oralig‘ida joylashgan ma’naviy-madaniy holat degan xulosaga kelish mumkin, chunki u diniylikni ham, dahriylikni ham inkor etmaydi, ularning har ikkalasini obyektiv ijtimoiy hodisa, deb e’tirof etadi. Bundan kelib chiqadigan mantiqiy xulosa shuki, dunyoviylik tushunchasi, plyuralistik, ya’ni hurfikrlilik tamoyiliga asoslanadi”¹¹¹. Bizning nazarimizda professor Z. Minovarovning “dunyoviylik” tushunchasiga bergan ta’rifi falsafiy nuqtayi nazardan ancha keng yoritilgan.

¹¹¹ Minovarov Z. Dunyoviylik jamiyat va din. Islom: bag‘rikenglik va mutaassiblik. –Toshkent, 1998.- B. 8.

Olim Tohir Karimning fikricha, dunyoviylik tushunchasini ilmiy-falsafiy muloqotga kiritgan mutafakkir, shubhasiz qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi Platon hisoblanadi¹¹². Dunyoviylik tushunchasi qadimgi Sharq allomalarining asarlarida turli atamalar orqali bayon etilsa-da, Platon asarlaridan so'ng falsafada bilish ta'limotining asosiy tushunchasi sifatida konkret mazmun kasb eta boshlagan.

Platon ta'limotiga ko'ra, dunyoning mohiyati dastavval moddiy bo'lmagan fikr va g'oyalar tarzida mavjud bo'lib, aql yordamida bilib olinadi. Lekin dunyoning tub mohiyatini anglash alohida qobiliyat egalariga xosdir. Biroq Platon o'z ta'limotida dunyoning mohiyatini narsa va hodisalarning sifat va xususiyatlarini o'rganish asnosida ham bilib olish mumkinligini inkor etmaydi, ya'ni tevarak-atrofimizdagi buyumlar bilan inson bevosita sezgi a'zolari orqali o'zaro muloqotda bo'ladi hamda bu bilish jarayoni mashaqqatli bo'lib, kishilardan mehnat va vaqt talab qiladi. U his qilish a'zolari orqali narsa va hodisalarning belgilarini qiyosiy tahlil qiladi, umumlashtiradi, lekin ularning o'zgaruvchan xususiyati sababli, nisbiy xarakter kasb etadi. Shuningdek, Platonning fikricha, aqlga nisbatan ikkinchi darajali hisoblangan hissiy bilish dunyoning mohiyatini to'g'ridan to'g'ri aks ettirmaydi. Platonning shogirdi Aristotel esa ustozidan farqli ravishda, dunyoning mohiyati ana shu dunyoni tashkil etib turgan narsa va hodisalarni o'rganish orqali oydinlashadi¹¹³, degan fikrni ilgari suradi.

Demak, ushbu faylasuflarning ta'limotlaridan ko'rinadiki, dunyoviylik borliqni tashkil etuvchi narsa va hodisalarga xos bo'lgan sifat va belgilarni o'qib-o'rganish orqali olingan bilimlar natijasida ro'yobga chiqadi degan fikrni ilgari sursalar, din esa borliqning mohiyatini anglatuvchi barcha bilimlar alohida kishilarga g'oyibdan tayyor holda maxsus beriladi va insonlar unga so'zsiz ishonsalar hamda ortidan ergashsalargina haqiqatga erishadilar, degan g'oyani ilgari suradilar.

Bugunga kelib dunyoviylik va diniylik tushunchalari, ularning nisbati masalasining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan ko'pgina fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan

¹¹² Dunyoviylik falsafasi. Maqolalar to'plami. - Toshkent, TDIU, 2007. -157 b./T. Karim. Dunyoviylik falsafasi.- B.5.

¹¹³ Dunyoviylik falsafasi. Maqolalar to'plami. - Toshkent, TDIU, 2007. - B. 157./T. Karim. Dunyoviylik falsafasi. - B. 7.

bo‘lib, umuman xorij falsafasida ham dunyoviylik va diniylik tushunchalari qadimdan o‘rganilgan. Birinchi galda bu tushunchalarning chegaralarini belgilash G‘arbiy Yevropada sekulyarlashuv deb atalmish davrda sodir bo‘lgan.

Umuman olganda, diniy e‘tiqod garchi inson ma‘naviy poklanishi uchun muhim va zarur bo‘lsa-da, u dunyoviy ehtiyojlarni har doim ham qondira olmaydi. Dunyoviylikdan dinni ajratish g‘oyasi umuminsoniy g‘oya bo‘lib, u nasroniylikda ham aytilgan. Masalan, nasroniy, pravoslav cherkovida “Kesaryu-kesarevo, Bogu-bogovo”, degan ibora mavjud. Ushbu ibora buyuk so‘fiy Bahovuddin NAQSH-bandning “Dil ba-yoru, dast ba-kor”, degan iborasiga mazmunan hamohangdir. Boshqacha aytganda, “Diling – Allohda, qo‘ling – mehnatda bo‘lsin” degan da‘vat buyuk bobomiz Bahovuddin NAQSH-band tomonidan ayni shu maqsadda aytilgan”¹¹⁴. Masalaning gnoseologik jihati shundaki, yaratuvchanlik axloqi insoniyat taraqqiyotida ustun kelgan. Din vositasida dunyoviy muammolarni hal qilish inkonsiz ekanligini XX asrning tiniq va sog‘lom fikrlovchi barcha olimlari ham e‘tirof etishadi.

Taniqli amerikalik sotsiolog, futurolog Samuel Xantingtonning “silvilizatsiyalar to‘qnashuvi” muqarrarligi to‘g‘risidagi XX asrning 80-yillaridagi bashorati qisman o‘z isbotini topdi. Lekin bugungi kunda silvilizatsiyalar to‘qnashuvi emas, balki, o‘zaro muloqoti, bir-birlariga ijobiy ta‘siri, o‘zaro uyg‘unlashuvi masalasi kun tartibida turmog‘i lozim. Yuqoridagi fikrlarimiz hazrat Jaloliddin Rumiyning “Dunyo g‘aflat bilan qoimdir. G‘aflatsiz – bu olamdan asar ham qolmaydi. (Ya‘ni agar dunyoga kelgan jon o‘z mohiyatini bilsa edi (g‘aflatda bo‘lmasa edi), bu olam ham bo‘lmas edi). (Chunki) Tangri zavqi (ishqi), oxirat tushunchasi, sarxushlik, u olamning me‘morlaridir. (Ya‘ni, ruhiy olam bu dunyoga nisbatan kishini mislsiz xushnud etuvchi, zavqlantiruvchidir.) (Shuning uchun) Agar ularning barchasi yuz ochsa (ya‘ni, jonlar buni bilib qolsalar), bizning hammamiz butunlay u olamga ketamiz, bu yerda qolmaymiz. Ulug‘ Olloh (har) ikki olamning bor bo‘lishi uchun bu erda yashashimizni istaydi...”¹¹⁵ degan g‘oyalariga hamda Muhammad Payg‘ambarning

¹¹⁴ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.-Jild 1. -Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,2017.- B. 494.

¹¹⁵ Jaloliddin Rumi. Ichingdagi ichingdadur. – Toshkent, Yangi asr avlodi. 2003.-B. 102.

“Bu dunyoni deb u dunyodan, u dunyoni deb bu dunyodan voz kechmang” degan soʻzlari bitilgan hadis maʼnolariga mutlaqo monandir.

Umumiy xulosa sifatida shuni taʼkidlash lozimki, bugungi kunda jahon rivojlanish tendensiyasi globallashtirishda, bu oʻzaro yaqinlashuvni taqozo etmoqda. Chunki, insoniyatni dunyoviy taraqqiyotgina oʻzaro global xavflar (ekologik, yadroviy, toza ichimlik suvi tanqisligi, oziq-ovqat bilan taʼminlash, choʻlga aylanish xavfi, global isish) taʼsiridan qutqarib qoladi. Globallashtirishning shiddatli tus olishi davlatlararo oʻzaro hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirmoqda, davlatlar oʻrtasidagi tafovutning oʻsishiga olib kelmoqda. Buning oqibatida tinchlik va barqarorlikka tahdid solayotgan, mohiyati va koʻlamiga koʻra transmilliy xususiyatga ega turli xatti-harakatlar rivojlanmoqda. Shu bois diniylik va dunyoviylikning mutanosibligini taʼminlash, dunyoviy taraqqiyotda dindan ham oʻrinli foydalanish gnoseologik jihatdan maqbuldir.

Hozirgi davrda diniy dunyoviylikka qarshi qoʻyish, uni siyosiy-lashtirish xatarli, u insoniyatni boʻlinishga olib keladi. Tarixan sinalgan gnoseologik yechim – demokratik sekulyarizmdir. Uning istiqbolliligi shundaki, u tom maʼnoda insonning eʼtiqod huquqi va erkinligini taʼminlaydi.

11.2. Kibermakon va din. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarga taʼsiri

Kibermakon kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydonini ifodalovchi voqelik sifatida 1990-yildan boshlab keng miqyosda rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Kibermakon tushunchasini dastlab kanadalik yozuvchi Uilyam Gibson 1982-yil “Xrom yondirilishi” (“Sojjenie Xrom”, “Burning Chrome”) nomli hikoyasida yozadi.

Kibermakon

kompyuter tarmog‘i orqali bir-biri bilan bog‘langan va bir vaqtning o‘zida turli geografik nuqtada kesishuvchi har qanday mavjud kompyuterning grafik sifatidagi ma'lumotlariga o‘ralashib qolgan kishilar jamoasi tushuniladi.

11.2.1-chizma. Kibermakon

Keyinchalik, bu tushuncha Gibsonning 1990-yilda yozib tugatgan “Neuromancer” (“Asabli manzaralar tasvirlovchisi”, “Nervo-sochinitel”) nomli texno-utopik fantastik trilogiyasida ham qo‘llanilgan. Bu asardagi kibermakon tushunchasi millionlab odamlarning jamoaviy sarob, xayolparastlikning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida tasvirlangan. Bu yerda jamoaviy sarob yoki xayolparastlik inson ongida subyektiv psixologik holat sifatida namoyon bo‘ladi.

Hozirgi davrda fan, texnika va asosan kompyuter taraqqiyoti mahsuli bo‘lgan kibermakon va uning boshqaruvchi qiyofasi «superkorporatsiya» texnologiyalarning insoniylikdan begonalashuvi natijasida din niqobidagi ijtimoiy va madaniy buzg‘unchilikni sodir etishga bo‘lgan urinishlar tobora kuchayib bormoqda. Jumladan, bugungi kunda kiberterrorchilik tuzilmalari o‘z g‘arazli maqsadlari yo‘lida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga urinmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch” asarida quyidagicha ta’kidlangan: “Taassufki, ba’zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g‘arazli maqsadda ularni teng qo‘yish kabi holatlar ham ko‘zga tashlanmoqda. Shu bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib

ulgurmagan, tajribasiz, g‘o‘r yoshlarni o‘z tuzog‘iga ilintirib, boshko‘zini aylantirib, ulardan o‘zining nopok maqsadlari yo‘lida foydalanmoqda. Bunday nojo‘ya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning sha‘niga dog‘ bo‘lishini, oxir-oqibatda esa ma‘naviy hayotimizga salbiy ta‘sir ko‘rsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur”.

“Kibermakon”da din niqobidagi “kiberhujum”lar tahdidi: din niqobi ostidagi ekstremistik saytlarda asosan davlat to‘ntarilishi va xunrezlik urushlari haqida gap boradi. Jumladan, bugungi kunda dunyoda eng katta xavf solib turgan IShID guruhining internet kibermakonidagi axborot hujumi va tahdidini keltirib o‘tish mumkin. Ularda IShID go‘yo Islom yo‘lida “qurbon” bo‘layotgani aks etgan videolavhalar va fotosuratlar joylashtirilgan.

Terrorchilarning targ‘ibot-tashviqotlari jamiyatning ma‘naviy, ma‘rifiy, madaniy taraqqiyotiga eng avvalo salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. “Odnoklassniki”, “Facebook”, “Instagram”, “Twitter”, “Vkontakte” ijtimoiy tarmoqlarida buzg‘unchilik va yot g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi yuzlab guruhlar mavjudligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Shuningdek, Islom dinini noto‘g‘ri, qabih maqsadlarda talqin etish, dinga siyosiy tus berib, hokimiyatni qo‘lga kiritish hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya bolani jismonan baquvvat, kuchli, sog‘lom etib tarbiyalasa, ma‘naviy tarbiya orqali unda yuksak axloq, ezgulik, insonparvarlik, shijoat, rahmdillik va mehnatsevarlik sifatlari shakllanadi. Ma‘naviy tarbiya farzandning o‘zligini saqlashga, uning botiniy olamini ma‘rifiy boyitishga xizmat qiladi. Buyuk alloma, vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy aytganidek, “Inson tabiatning eng oliy zoti, kamolotidir, inson zoti barcha hayvonlardan yuqori turadi. Insonga katta sharaf ko‘rsatilgan – unga aql-zakovat va kuch berilgan. Shu sababdan, insonning ma‘naviy olami uning oldiga qo‘yilgan vazifalarga mos bo‘lishi uchun u yuksak axloqli, bilimli, ma‘rifatli bo‘lmog‘i darkor”. Demak, farzand tarbiyasi avvalo, uning ma‘naviy poydevori qanchalik mustahkamligi bilan belgilanadi. Darhaqiqat, go‘zal xulq ila tarbiyalangan bola hayotda aql-idrok bilan ish tutadi, imon-e‘tiqodida sobit turadi, erkin va mustaqil fikrlaydi, har xil aldovlarga uchmaydi hamda g‘arazli tashviqotlarga berilmaydi.

Hozirgi kunda yoshlarimiz dunyoning eng o‘tkir, faol, uddaburon, Vatanparvar yoshlariga aylanishi, ularni fidoyilik, vatanparvarlik,

tadbirkorlik, millatparvarlik, sadoqatga o'rgatish ko'p jihatdan ota-onalarga ham bog'liq. Bu borada, albatta, ota-onaga yordam berishda butun jamoatchilik – mahalla faollari, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi, profilaktika noziri, Xotin-qizlar qo'mitasi va Yoshlar ijtimoiy harakati kabi tashkilotlarning joylardagi mas'ullari birgalikda faol ish olib bormoqdalar.

Respublikamizda qaror topgan tolerantlik muhitini afkor ommaga obyektiv ko'rsatib berish, e'tiqod erkinligi sohasida O'zbekistonda olib borilayotgan siyosatni keng targ'ib qilish, diniy-ekstremistik oqimlar tomonidan targ'ib qilinayotgan vayronkor g'oyalarga qarshi islom manbalariga asoslangan ilmiy raddiyalar berish, diniy mutaassiblik tamoyillarining jamiyatga tahdidi, uning zamiridagi g'arazli geosiyosiy maqsadlar, ularni amalga oshirayotgan buzg'unchi kuchlarning kirdikorlarini fosh etishga qaratilgan ishlanmalar yaratish yoki ularni aholi orasida targ'ib etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, har bir insonning o'z ishini sidqidildan amalga oshirishi, loqaydlik, beparvolikning oldini olishi, yon-atrofida bo'layotgan voqea-hodisalarga hushyorlik bilan qarab, Vatan tinchligi yo'lida sergak va ogoh bo'lib yashashi, yoshlarimizning ongu qalbini jaholatdan, yot va zararli g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ajdodlarimizga armon bo'lib qolgan, biz erishgan mustaqillik va tinchlik-osoyishtalikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashning muhim omili hisoblanadi. Buni hech qachon unutmasligimiz, tinchlik uchun doimo o'zimizning bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etib yashashimiz lozim.

Internet fan-texnika taraqqiyoti natijasi, madaniyat evolutsiyasining hosilasi hisoblanadi. Hozirgi kunda hayotimizni internetsiz tasavvur qilish juda mushkul. Ayniqsa, yoshlar hayotida global tarmoqning o'рни tobora oshib bormoqda. Internet dunyoning turli nuqtalarida yashovchi odamlarning o'zaro muloqotini hamda axborot almashinuvini mukammal darajada osonlashtirdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha internetdan eng ko'p foydalanuvchilar aynan 21 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar hisoblanar ekan.

Yurtimizda ham Internet tizimi rivojlanib, undan foydalanuvchilar safi jadal sur'atlar bilan kengayib bormoqda. So'nggi o'n yilda global tarmoqdan foydalanuvchilar o'n barobarga oshgan. Tarmoq orqali

axborot izlash, qabul qilish, uzatishning juda qulay va ommabopligi undan foydalanuvchilar sonining tobora ortib borishini ta'minlamoqda.

Internet yoshlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq-atvorlariga ta'sir ko'rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Internetning bugungi kundagi rivoji yoshlarga g'oyaviy ta'sir o'tkazishning miqyosi va ko'laminin keskin darajada o'sishiga olib keldi.

Global tarmoq – ulkan resurs. Biroq, bu resursdan kim va qanday maqsadlarda foydalanishi ham juda jiddiy masalalar sirasiga kiradi. Xususan, ma'lumotlarda keltirilishicha, bugungi kunga kelib, internet tarmog'ida ma'naviy-axloqiy tubanlikni targ'ib etuvchi sahifalarning soni bir necha yuz millionni tashkil etgan.

Ushbu fakt va raqamlar internet sanoati rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kishilarning axborotlarga nisbatan juda ehtiyotkorlik, ogohlik va ziyraklik bilan munosabatda bo'lishlarini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, kishilarimizda, ayniqsa, yoshlarimizda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Aynan shu taraqqiyot vositasidan ustamona foydalanib, qalblarni zabt etishda diniy omilning roli yuqori. Shuning uchun ham turli diniy-ekstremistik va terrorchi uyushmalar o'z g'oyalarini targ'ib qilishda internetni eng samarali vosita sifatida qo'llamoqda.

Bunda diniy-ekstremistik oqimlar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan keng foydalanish, internet orqali turli tillarda targ'ibot olib borish va puxta ishlangan strategiya asosida virtual jamoatlar tuzish asosiy vazifaga aylangan. Masalan, bugungi kunda bir necha yirik terrorchi tashkilotlar o'z saflariga faol tarzda ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan 17–35 yosh oralig'ida bo'lgan kishilarni yollamoqda. Bunda psixologik ta'sir samaradorligini yanada oshirish maqsadida ijtimoiy tarmoq a'zolarining sahifalari, qo'yilayotgan rasmlar, sharh va izohlar hamda olib borilayotgan suhbat mavzularini puxta o'rganadi va shu asosda "nishon"ga olingan shaxsga mavzuga oid materiallar internetning Facebook, Odnoklassniki, VKontakte, Telegram, Twitter, WhatsApp kabi keng auditoriyaga ega bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar orqali (yozma xabar, matn, fotosurat, stiker rasmlar, audio-video rolik) jo'natiladi va o'zaro aloqa yo'lga qo'yiladi.

Yoshlar orasida mutaassiblikka yo'g'rilgan bunday forumlarning tobora ommalashuvi hamda ularda turli ko'rinisdagi buzg'unchi "fatvo"larning berib borilishi muammoning naqadar jiddiy ekanini namoyon etadi. Chunki dunyo aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil qiladi. Yoshlar katta kuch hisoblanadi. Ularning endi shakllanib kelayotgan ongiga nimani singdirilsa, o'sha toshga o'yilgan AQSHdek muhrlanadi. Shuning uchun ham radikal oqimlar aynan yoshlarni tuzog'iga ilintirishga harakat qiladi. Ulardagi ishonuvchanlik, kuch-g'ayrat, qiziqqonlik ularning maqsadini amalga oshirishda qo'l keladi.

Ming afsuski, bunday manfur kuchlar asosan ilm va ma'rifatdan yiroq, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmagan kishilarni, asosan yoshlarni jalb etishga intilib, ijtimoiy tarmoqlar orqali "jihod", "takfir", "shahidlik", "hijrat" tushunchalarini noto'g'ri talqin etgan holda o'z Vatanlarini tark etishga urinmoqda. Shuningdek, ayrim kimsalar tomonidan maqsadli ravishda islom mohiyatiga zid bo'lgan turli xil asossiz axborotlar, manbasi aniq bo'lmagan diniy tushunchadagi xabarlar yoki kishilarni vahimaga soluvchi foto va videolavhalar keng targ'ib etilmoqda. Bunda ba'zi yoshlarning axborot vositalari orqali tarqatilayotgan milliy va diniy qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabarlar, aniq manbasi ko'rsatilmagan, asossiz axborot va ma'lumotlarga ishonib qolishayotgani, mulohaza qilmasdan ko'r-ko'rona qabul qilayotgani undan ham keskin oqibatlarini keltirib chiqarmoqda.

Bugun axborot iste'mol qilinadigan tovarga aylangan ekan, har bir inson o'zida uni iste'mol qilish madaniyatini tarbiyalashi lozim. Yoshlar shaxsiy xarakterdagi axborot himoyasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, o'zi foydalanayotgan salbiy axborotlardan himoyalana olishi zarur. Ana shu maqsadda 2011-yildan boshlab, Toshkent islom akademiyasining bakalavriat va magistratura bosqichining barcha yo'nalishlarida «Axborot iste'moli madaniyati» nomli maxsus kursning o'qitilishi joriy etildi.

Axborot iste'moli madaniyati, eng umumiy ma'noda, axborot oqimidan inson manfaatlari, kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni qabul qilish, saralash, tushunish va talqin etishga xizmat qiladigan bilimlar, qobiliyat va malaka tizimini anglatadi.

Inson o‘zida bunday madaniyatni tarbiyalashi uchun u yoki bu axborotni eshitar ekan, hech bo‘lmaganda “Bu axborotni kim uzatayapti?”, “Nima uchun uzatayapti?” va “Qanday maqsadda uzatayapti?” degan savollarni o‘z-o‘ziga berishi, unga asosli javob topishga harakat qilishi kerak.

Shundagina turli g‘oyalar ta‘siriga tushib qolish, taqdim etilayotgan ma‘lumotlarga ko‘r-ko‘rona ergashishning oldi olinadi. Shakllangan axborot iste‘moli madaniyati milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimizga zid bo‘lgan xabar, ma‘lumotlarga nisbatan o‘ziga xos qalqon rolini o‘taydi, shaxs dunyoqarashi va xulqidagi sobitlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Yosh avlodda bu jihatlar shu darajada shakllangan va qaror topgan bo‘lishi lozimki, ular virtual makonda umummilliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni tanlay olsin. Axborot iste‘moli madaniyatiga ega yoshlar, salbiy va noxolis axborotlar ta‘siriga tushib qolmaydi, chunki ularda bunday axborotlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanadi.

Bugungi kunda yoshlarda axborot olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasini shakllantirish hayotiy-amaliy ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, islom dini ko‘rsatmalarida ham naql qilingan biror xabarga ishonishdan avval uni tekshirib, aniqlab olish talab etiladi. Jumladan, Qur‘oni karimda shunday deyiladi: **Ey, mo‘minlar! Agar sizlarga biror fosiq kimsa xabar keltirsa, sizlar (haqiqiy ahvolni) bilmagan holingizda biror qavmga aziyat yetkazib qo‘yib, (keyin) qilgan ishlaringizga pushaymon bo‘lmasligingiz uchun (u xabarni) aniqlab (tekshirib) ko‘ringiz!** (*Hujurot, 6*).

Bu haqida Qur‘oni karimning yana bir oyatida insonlar uchun muhim ko‘rsatma kelgan bo‘lib, unda ham turli vositalar orqali olinayotgan xabar va ma‘lumotlarga ko‘r-ko‘rona ergashishdan qaytariladi: **(Ey, inson!) O‘zing (aniq) bilmagan narsaga ergashma! Chunki quloq, ko‘z, dilning har biri to‘g‘risida (har bir inson) mas‘ul bo‘lur (javob berur)** (*Isro, 36*). Demak, inson ko‘rgan, eshitgan har bir ma‘lumotiga ishonishi, unga ergashishi oqibatida Alloh oldida ham so‘raladi.

Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)dan rivoyat qilingan bir necha hadislarda ham shunday deyiladi: «*Xabarni tekshirish Allohdan, (unda) shoshqaloqlik qilish shaytondandir*», deganlar. Shuningdek,

Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilingan boshqa bir hadisda esa, Rasululloh (s.a.v.): «Kishining yolgʻonchi ekanligiga uning eshitgan har bir narsasini gapiraverishi kifoya qiladi» deganlar.

Demak, har bir olingan maʼlumotni tekshirib, asosli yoki asossiz ekanini aniqlamay turib, oʻsha maʼlumotga qarab ish tutish islom mohiyatiga koʻra, shayton yoʻliga kirish hamda yolgʻonchi boʻlib qolish bilan barobar boʻladi. Chunki bunda xabar tarqatayotgan kishining gʻarazli maqsadini amalga oshirishiga zamin yaratib qoʻyiladi.

Shunday ekan, dunyoning turli mintaqa va hududlarida roʻy berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ziddiyatli toʻqnashuvlarga teran qarash hissini oshirish, har qanday koʻrinishdagi tahdidlarga qarshi maʼnaviy-maʼrifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, ayniqsa bu borada kelajagimiz hisoblangan yosh avlodni, bir soʻz bilan aytganda har birimiz uchun muqaddas boʻlgan oilamizni din niqobi ostidagi yot gʻoyalar taʼsiridan asrash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz lozim.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, falsafa fanlari doktori I.Saifnazarovning taʼkidlashicha, – “internet mafkuraviy immuniteti shakllanib ulgurmagan yoshlar uchun xavfli tahdidga aylangan. Terrorchilik, pornografiya, turli illatlarning urchishi, tekshirilmagan, koʻpincha gʻarazli axborotlar oqimi mana shu koʻrinmas “toʻr”lar orqali koʻpaymoqda. Jahonda soʻnggi vaqtlarda sodir boʻlayotgan oʻta noxush voqealar, hatto davlat toʻntarishlarini amalga oshirishda ham internetdan foydalanilayotgani, ayniqsa bizni tashvishga solyapti”.¹¹⁶ Tarmoqda oʻz joniga qasd qilishning 2018-yilgi maʼlumotga koʻra 9 ming, shahvoniy mazmundagi 4 mingdan ziyod saytlar mavjud boʻlsa, kompyuter oʻyinlarining 49 foizi zoʻravonlik va yovuzlikni targʻib qilayotir. Xalqaro ekspertlar dunyo miqyosida 42% bolalar va oʻsmirlar onlayn tarzida tarqatiladigan pornografiya taʼsiriga butunlay tobe boʻlib qolganligi, 38% bola zoʻravonlik ruhidagi saytlarga, 26% millatchilik xarakteridagi veb-sahifalarga muntazam kirishi haqida bong uryapti.

Internetdagi onlayn oʻyinlar esa yoshlar ongini egallab, zaharlab, vaqtlarini oʻgʻirlamoqda. Virtual olamdagi qirgʻinbarot urush, jinoyatchilik bilan bogʻliq oʻyinlar yoshlarda zoʻravonlik va tajovuzkor xatti-

¹¹⁶ Ismoil Saifnazarov, Farida Saifnazarova. Yoshlar va oila – Vatan tayanchi. –T.: ”Taʼlim nashriyoti”, 2018. 88-b.

harakatlarning yuzaga kelishini kuchaytiradi. Quoldan o‘q uzib, yoki qilichbozlik bilan “dushman”ni, “raqibi”ni o‘ldirish o‘yiniga mukkasidan ketgan o‘spirin hayotda ham mojaroli vaziyatlarga echim topishning yagona to‘g‘ri yo‘li va vositasi o‘ldirish, zo‘ravonlik ko‘rsatish, degan xulosaga kelishi haqiqatdan yiroq emas.¹¹⁷

Internet “kiberjinoyatchilik” deb nomlangan yangi turdagi jinoyatlarga ham yo‘l ochib bermoqda. Virus va boshqa zararli dasturlar, g‘arazli va uydirma axborotlar tayyorlash va tarqatish, xakerlik hujumi, veb-saytlarga noqonuniy kirish, firibgarlik, mualliflik huquqini buzish, kredit kartochkalari raqami va bank rekvizitlarini o‘g‘irlash kabi jinoyatlar ko‘lami tobora kengayib boryapti.

Milliy qonunchiligimizda, xususan, Jinoyat kodeksida bu kabi jinoyatlarga nisbatan muqarrar jazo choralari belgilangan. Shunga qaramay qonunchiligimiz davr talablaridan kelib chiqib, mukammallashtirib borilyapti.

Jumladan, 2017-yil 8-sentabrda “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. 6 ta bob, 27-moddadan iborat yangi qonun mazmun-mohiyatiga ko‘ra, bolalar sog‘lig‘iga zarar etkazuvchi axborotdan ularni himoya qilish borasidagi munosabatlarni tartibga solishga, uning o‘ziga xos xususiyatlari, ko‘lami va ishtirokchilari bilan bog‘liq jihatlarni qamrab oladi.

Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, o‘z bolamizni o‘zimiz asrashimiz kerak. Bu har birimizning insoniy burchimiz ekanligi bilan bir qatorda, kerak bo‘lsa konstitutsiyaviy majburiyatimiz hamdir.

11.3. Global tarmoqdagi g‘oyaviy xurujlarning oldini olish

Insonlararo o‘zaro munosabatlardagi har qanday ziddiyat – bu axborotlar ziddiyatidir. Qadim davrlardan buyon axborotni o‘zaro urush va nizolar jarayonida hujum uyushtirish yoki himoyalanih resursi sifatida talqin etishga urinishlar bo‘lib keladi. Biroq hozirga kelib ilmiy doirada “axborot urushi” kategoriya sifatida rasmiylashdi. Bunday urushlarning mohiyatini anglashga doir metodologik yondashuvlar, nazariyalar shakllandi. Bugungi kunda axborot urushlari

¹¹⁷ Mamatova Ya., Sulaymonova S. O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyoti yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. –T.: Extremum-press, 2015.-25-b

haqida ko‘p yozilmoqda. Bu tushunchaning paydo bo‘lish tarixi, ilk marotaba qo‘llanilishi haqida turli, ba’zida bir-biriga zid fikr-mulohazalar mavjud. Ularga alohida ravishda to‘xtalmagan holda, bu boradagi ayrim nuqtayi nazarlarga e’tiborni qaratish joiz (qarang 11.3.1 va 11.3.2-chizmalar). Hujjatda mutaxassis axborot infratuzilmasi AQSH iqtisodiyotining muhim komponentiga aylanib borayotgan axborot sohasi ham urush, ham tinchlik holatlarida nozik, zaif tarmoq bo‘lib qolayotganini ta’kidlagan.

Axborot har qanday qaror qabul qilish uchun eng muhim unsur bo‘lib, u nafaqat, to‘qnashuv paytida optimal xatti-harakatlarni amalga oshirish, balki, maqsadga yo‘nalgan faoliyatni boshqarish imkonini beradi. Tizim mavjudligi va barbod bo‘lishini belgilovchi omillaridan biri hisoblanadi.

11.3.1-chizma. Axborot.

Axborot urushi - atamasi ilk bor 1976-yilda “Boeing” kompaniyasi uchun tayyorlangan “Qurol tizimi va axborot urushi” deb nomlangan hisobotda Tomas Rona tomonidan ishlatilgan.

11.3.2-chizma. Axborot urushi.

T.Rona tomonidan ilgari surilgan ushbu g‘oya harbiylar ommaviy axborot vositalari xodimlarida katta qiziqish uyg‘otdi, bu borada ilmiy tahlillar, intervyular, chiqishlar avj oldi. 1980-yillarga kelib esa jamoatchilikda axborotning maqsad hamda qurol, vosita sifatida namoyon bo‘lishi haqida yagona xulosa shakllandi.

“Sovuq urush”ning nihoyasi va AQSH oldida yangi vazifalar paydo bo‘lishi bilan “axborot urushi” atamasi mudofaa vazirligi hujjatlariga kiritildi. 1991-yil “Sahrodagi bo‘ron” operatsiyasi mobaynida axborot texnologiyalari ilk marotaba harbiy harakatlarning vositasi sifatida ishlatildi.

Axborot har qanday qaror qabul qilish uchun eng muhim unsur bo‘lib, u nafaqat, to‘qnashuv paytida optimal xatti-harakatlarni amalga oshirish, balki, maqsadga yo‘nalgan faoliyatni boshqarish imkonini beradi. Tizim mavjudligi va barbod bo‘lishini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi.

1996-yil Pentagon eksperti Robert Banker AQSH mudofaa kuchlarining XXI asr uchun yangi harbiy doktrinasiga bag‘ishlangan ma‘ruza qiladi. Unda mutaxassis harbiy harakatlar teatrini an’anaviy harbiy makon hamda kibermakondan iborat ikki muhim asoslarda tashkil etish g‘oyasini ilgari surdi.

Boshqacha aytganda, R.Banker raqib harbiy kuchlarini bostirish, neytrallashga qaratilgan an’anaviy harbiy konsepsiyalarning tabiiy to‘ldiruvchisi sifatida xizmat qilishi zarur bo‘lgan “kibermanyovr” doktrinasini taklif etadi. Shu tariqa, quruqlik, dengiz, havo yo‘llaridan tashqari harbiy harakatlar tizimiga “infomakon” – axborot makoni ham qo‘shiladi. Bunday yangi shakl va mazmundagi urushlarda raqib tomonning axborot infratuzilmasi va ruhiyati asosiy obyekt (nishon) bo‘ladi.

1998-yil oktabrda AQSH mudofaa vazirligi “Axborot operatsiyalarining birlashgan doktrinasini”ni amalga oshirishga kirishdi. Aslida, ushbu doktrina avval “Axborot urushining birlashgan doktrinasini” deb nomlangan edi. Keyinchalik uning nomi o‘zgartirildi. Bunga sabab esa, “axborot operatsiyalari” va “axborot urushi” tushunchalarining o‘zaro munosabatiga oydinlik kiritish edi. Shu tariqa axborot operatsiyasi – o‘z axborot tizimlarini himoya qilish jarayonida raqib tomonning axborotni to‘plash, qayta ishlash, uzatish va saqlash borasidagi ishlarini murakkablashtirish maqsadida amalga oshiriladigan xatti-harakat; axborot urushi esa, qarama-qarshi tomonning siyosiy va harbiy boshqaruv tizimi hamda rahbariyatiga qaratilgan kompleks ta’sirlar, axborot operatsiyalari majmui, deb ta’riflandi. Bunday ta’sirlar orqali tinchlik va urush holatlarida raqib tomon rahbariyatini

informatsion ta'sir o'tkazayotgan tomonga maqbul qarorlar qabul qilishiga erishish maqsadi ko'zlanadi.

Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, axborot urushi milliy harbiy strategiyani ta'minlashda axborot borasida ustunlikka erishish maqsadida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni ifoda etadi. Bunda raqib tomon axborot tizimlariga ta'sir o'tkazish bilan bir vaqtda o'z axborot infratuzilmasini mustahkamlab boradi.

Axborot sohasidagi ustunlik muayyan holat haqida axborotni uzluksiz to'plash, qayta ishlash va tarqatish qobiliyatini anglatadi. Bunday qobiliyat, o'ziga xoslik esa, raqib tomonga xuddi shunday xatti-harakatlarni amalga oshirishda to'sqinliklar qilish, qarshiliklar ko'rsatishda namoyon bo'ladi. Shuningdek, axborot sohasidagi ustunlik harbiy holat haqida real tasavvurga, raqib xatti-harakatlarining aniq va interfaol manzarasiga ega bo'lish imkonini beradi.

Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunga kelib, axborot sohasi ko'plab davlatlar siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Bu borada davlatlar tomonidan axborot agressiyasidan himoya tizimi, ommaviy madaniyat ekspansiyaga qarshi chora-tadbirlar bilan bog'liq keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ham axborot resurslaridan foydalanish, axborot almashinuvi va umuman, axborotlashtirishga doir qonun hujjatlari majmui shakllantirildi. Jumladan, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida "Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan" – degan qoida o'z aksini topgan.

Hozirda mazkur yo'nalishdagi qonunchilik amaliyoti boshqa davlatlar siyosatida ham keng o'rin egallagan.

11.4. Yoshlar tolerant dunyoqarashini shakllantirishning innovatsion usullari

Har bir mamlakat oldida turgan muhim vazifalardan biri yoshlarga oid davlat siyosati milliy modelini ishlab chiqishdir. Ma'lumki, yoshlar jamiyatning eng faol qatlami hisoblanib, ular ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga sabab bo'ladigan, bunyodkorlik g'oyalari

hayotga tatbiq etuvchi asosiy omil va salohiyatli kuch hisoblanadi. “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi hozir mavjud bo‘lgan va kelajakda tuziladigan bu uyushmalarning barchasini birlashtirib, ularga nafaqat moliyaviy, moddiy-texnik nuqtayi nazardan, avvalo, g‘oyaviy-uslubiy, ma‘naviy jihatdan amaliy yordam ko‘rsatadigan, ularning ishini muvofiqlashtiradigan asosiy tashkilot sifatida faoliyat olib boradi”¹¹⁸. Yoshlarni ijtimoiy, ma‘naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularning huquqlarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashlari uchun qulay sharoitlar yaratish orqali yoshlarni Vatan taqdirini hal etuvchi katta kuchga aylantirish mumkin. Bu boradagi muammolarni hal etish nafaqat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, balki butun mamlakat xavfsizligining kafolati ham hisoblanadi.

Jahondagi mamlakatlarning yoshlarga oid davlat siyosati turlichadir. Bu holat ularning yoshlarga oid davlat siyosatini belgilashda o‘zlarining urf-odatlariga, qadriyatlariga va mentalitetiga suyanganligi bilan xarakterlanadi. Masalan, Amerika Qo‘shma Shtatlarining yoshlar borasidagi davlat siyosatini tahlil qiladigan bo‘lsak, yoshlarning o‘zlari hukumat tomonidan yoshlarga oid siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda bevosita faol ishtirok etishi bilan boshqa mamlakatlardan ajralib turadi.

Yevropaning kuchli davlatlari orasida Germaniyaning yoshlarga oid siyosati ham o‘ziga xos xususiyatga ega. Ushbu davlatning yoshlar borasidagi siyosatining o‘ziga xosligi shundaki, unda asosiy e‘tibor 18-27 yoshdagi aholining ijtimoiy bandligini ta‘minlashga qaratilgan. Germaniyada yoshlarga oid siyosatning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri fuqarolarning qonuniy himoyasi hamda ularning ijtimoiy va individual rivojlanishiga jiddiy e‘tibor qaratilganligidir.

Osiyoning eng rivojlangan davlatlaridan biri Yaponiyada yoshlarga oid davlat siyosati milliy siyosat darajasiga olib chiqilganligini kuzatish mumkin. Mamlakatda yoshlar borasidagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun Milliy assambleya tashkil etilgan. Bu tashkilotning asosiy vazifasi 4 ta dastur asosida ish olib borish hamda yoshlar va ularning huquqlarini himoya qilishga asoslangandir.

¹¹⁸ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. -Jild 1. -Toshkent: "O‘zbekiston"NMIU, 2017.- B. 518.

O‘zbekistonning milliy demokratik davlatchilik taraqqiyotida yoshlar hal qiluvchi kuch bo‘lib hisoblanadi. Binobarin, mamlakat aholisining aksariyatini yoshlar tashkil etib, Statistika qo‘mitasi tomonidan nashr etilgan “O‘zbekistonning yillik demografik to‘plami”da 30 yoshgacha bo‘lgan aholining soni 17 mln. 771 ming nafardan ziyod va o‘rtacha yoshi 27,8 yoshni tashkil etishi O‘zbekistonning rivojlanishida yoshlarning tutgan o‘rni qanchalik salmoqli ekanligini isbotlaydi¹¹⁹. Respublikamizda yoshlarga oid davlat siyosatining milliy modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, 1991-yil 20-noyabrda ilk qonuni “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingan. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun 2016-yil 14-sentabr, O‘RQ-406-son bilan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plamida e‘lon qilingan¹²⁰ va ushbu faoliyatning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qildi. Ushbu qonunda nafaqat yoshlar bo‘yicha davlat siyosatining maqsad va vazifalari, balki, bu jarayonda bevosita yoshlarning ishtirokini ta‘minlash masalasi ham o‘z aksini topgan edi. Iqtidorli o‘g‘il-qizlarni rag‘batlantirish, yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, ular uchun zarur ijtimoiy xizmatlar tizimini yaratish, yosh oilalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish, voyaga yetmaganlar, shuningdek, yoshlar qatlamining ayrim toifalarini ijtimoiy muhofaza qilish ana shular jumlasidandir.

Yoshlar tarbiyasi, ular orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, jinoyatchilikning oldini olishda, bandlikni ta‘minlashda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi¹²¹, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”¹²², “Ta‘lim to‘g‘risida”¹²³, “Aholi bandligi to‘g‘risida”¹²⁴, “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”¹²⁵, “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi

¹¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston demografik yillik to‘plami. – Toshkent, 2017. – B.55.

¹²⁰ “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun 24.07.2018 y., 03/18/486/1559-son
O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. № 463-I, 1997-yil 29 -vgust
O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun. 11.03.2020y.,
03/20/608/0278

¹²³ O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.

¹²⁴ O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonun. 02.04.2021 y., 03/21/681/0264-son

¹²⁵ O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun. (yangi tahriri) 04.12.2020y.,
03/20/653/1592-son

to'g'risida"¹²⁶, "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi¹²⁷ kabi bir necha qonun va dasturlarning qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston uchun eng muhim masalalardan biri yoshlarimizni global muammolardan hisoblangan din niqobidagi ekstremizm va terrorizmdan asrash hamda ularning ongida kuchli mafkuraviy immunitetni shakllantirish va eng muhimi, dunyoviylik hamda diniylik o'rtasidagi muvozanatga nisbatan pozitsiyasini mustahkamlashdir.

Islom ijtimoiy va siyosiy hayotga ta'sir qiluvchi eng muhim omillardan biriga aylangan bugungi kunda ushbu muammoning qanchalik dolzarb ekanligi hech kimga sir emas. Yaqin Sharqda bo'lib o'tgan "arab bahori", xususan, Suriya, Liviya va Iroq hududida kechayotgan jarayonlar insoniyat taraqqiyotining XXI asrdagi ijtimoiy yo'nalishini aks ettiruvchi hodisalardir.

Islom mafkurasining zamonaviy dunyo taraqqiyotiga ta'sirini hisobga olmay turib yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini to'g'ri belgilash mumkin emasligini anglagan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash hamda ularni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va din niqobidagi ekstremizm g'oyalaridan himoya qilish vazifalarini Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida belgilab berdilar. O'zbekiston aholisining 94%i musulmonlar ekanligini inobatga olsak, bu nihoyatda muhim. Chunki aksariyat ekstremistik va terroristik tashkilot hamda oqimlarning nishoni yoshlar va bolalar bo'lib qolmoqda.

Amerikalik tadqiqotchi Agata Kristiyan terrorchi tashkilotning g'oyaviy targ'ibotida bolalar asosan aziyat chekkanlar, jangarilar qo'lidagi vosita-qurol va qul obrazlarida tasvirlanishini qayd etadi¹²⁸. Targ'ibot materiallarida bolalar o'z tengdoshlariga ma'ruza qilayotgani, omma oldida qo'shiq kuylayotgani tasvirlanadi. Bundan

¹²⁶ O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonun. 13.09.2019 y., 03/19/567/3737-son.

¹²⁷ O'zbekiston Respublikasining "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonun. 28.09.2020 y., 03/20/638/1333-son.

¹²⁸ Agathe Christien. The Representation of Youth in the Islamic State's Propaganda Magazine Dabiq. Journal of terrorism research. Volume 7, Issue 3. September 2016. - R. 5.

xulosa sifatida aytish mumkinki, terrorchi tashkilot shu yo‘l bilan o‘z g‘oyalarini odamlar orasida keng yoyish, yangi a‘zolarini jalb etish va jamoatchilikning faol qo‘llab-quvvatloviga erishishni maqsad qiladi. Chunki bolalardan targ‘ibot maqsadlarida foydalanish ishonchli va ta‘sirchan bo‘lib, tengdoshlarini jangari faoliyatga og‘dirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

“Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunning bolani axborot olish huquqi kafolatlari to‘g‘risidagi 16-moddasida pornografiya, shafqatsizlik va zo‘ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, ularga zararli ta‘sir ko‘rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo‘luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish taqiqlanishi yozib qo‘yilgan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasida yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta‘sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat‘iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash hamda yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va din niqobidagi ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida belgilangan¹²⁹.

2017-yilda “Ijtimoiy fikr” tadqiqot Markazi tomonidan o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijasi sifatida “Yoshlarning din niqobidagi ekstremistik mafkuralar ta‘siri ostiga tushib qolishining asosiy sabablari bo‘lishi mumkin bo‘lgan” empirik ma‘lumotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2017-yilda respondentlarning 31%i tomonidan bunday sabablar qatorida, eng avvalo, “buzg‘unchilik mohiyatiga ega bo‘lgan turli internet-saytlar va portallarning salbiy ta‘siri” ajratib ko‘rsatiladi. So‘ralganlarning salkam 16%ining fikricha, “ishsizlik va moddiy qiyinchiliklar tufayli yoshlarning bir qismi ekstremistlar ta‘siri ostiga tushib qoladi” (2016-yilda – 20,7%). 14% so‘ralganlarning fikricha (2016-yilda – 12,3%), muayyan qism yoshlarning “katta pul”

¹²⁹ “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun 24.07.2018 y., 03/18/486/1559-son

ishlashga intilishi buning sababi hisoblanadi. Respondentlarning yana 13%i ”ota-onalarning nazorat qilmasligi va oilaviy tarbiyadagi kamchiliklar buning sababi hisoblanadi”, deb ko‘rsatdi.

11% respondentlarning fikricha, “mustaqil fikrga ega bo‘lmagan yoshlarning o‘zgalar ta’siriga yengil tushib qolishi” ayrim yoshlarning din niqobidagi ekstremistik guruhlariga qo‘shilib qolishining yana bir sababi hisoblanadi¹³⁰.



11.4.1-chizma.

Shu nuqtayi nazardan, din niqobidagi ekstremizm va terrorizmning kuchayishi asosan diniy bilimlarning yetishmasligi bilan bir qatorda jamiyatda tobora avj olayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga ham bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining ekstremizmga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2018-yil 30-iyulda O‘zbekiston Respublikasining “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi 489-sonli Qonuni qabul qilindi¹³¹.

¹³⁰ “Aholining dindorlik darajasi” mavzusidagi monitoring sotsiologik tadqiqoti natijalari bo‘yicha axborot-tahliliy ma’ruza. “Ijtimoiy fikr” tadqiqot Markazi. 2017-yil. - B.38.

¹³¹ “Экстремизмга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонун. 2018 йил 30 июль, ЎРҚ-489-сон.// “Халқ сўзи”, 2018 йил 31 июль.

Yuqoridagi muammoning ildizlaridan kelib chiqib, hukumatimizning “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonunida yoshlarni ijtimoiy himoya qilish kafolatlari (23-modda) va yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash (26-modda) masalalariga asosiy e‘tibor qaratganligini alohida ta’kidlash joiz.

Ayni vaqtda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan din niqobidagi ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishda “jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyilining ijrosi yangi bosqichga ko‘tarildi. Davlatimiz rahbarining “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq, umuman:

1) “jaholatga qarshi ma’rifat” g‘oyasi insonparvarlik nuqtayi nazaridan yana bir bor ilgari surildi;

2) diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi;

3) Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tuzilmasida 15 ta shtat birligidan iborat “Diniy-ijtimoiy jarayonlarni o‘rganish axborot-tahlil markazi” tashkil etildi;

4) Toshkent islom universiteti negizida “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi” tashkil topdi;

5) O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi bitiruvchilariga umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarida sohaga tegishli fanlar bo‘yicha pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi berildi;

6) O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Samarqand, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida mintaqaviy filiallariga ega bo‘lgan Malaka oshirish markazi tashkil etildi;

7) O‘zbekiston musulmonlar idorasi va O‘zbekistondagi Islom silvilizatsiyasi markazining Oliy diniy-ma’rifiy ta’lim muassasasi shaklidagi “Hadis maktabi” tashkil etildi;

8) O‘zbekiston musulmonlari idorasi huzurida “Vaqf hayriya jamoat fondi” tashkil etildi;

9) “Imom Buxoriy” davlat mukofoti ta’sis etildi.

Shuningdek, Prezidentning «Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2018-yil

16-apreldagi 5416-sonli Farmonining ijrosini ta'minlash, islom dini va hadis ilmi rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk vatandoshlarimizning boy merosini chuqur o'rganish, ular tomonidan asos solingan hadis ilmi maktablari faoliyatini qayta tiklash va rivojlantirish hamda islom dini asoslari va hadis ilmini mukammal o'zlashtirgan oliy ma'lumotli yetuk mutaxassislarni tayyorlash maqsadida 2018-yil 11-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Hadis ilmi maktabi faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 896-sonli Qarori ajdodlarimizning boy merosini chuqur o'rganish, ular tomonidan asos solingan hadis ilmi maktablari faoliyatini tartibga soluvchi kuchli mutaxassislarni tayyorlash, hadisshunoslik maktabi shakllanishi va rivojlanishi, uning ilmiy-ma'naviy asoslarini har tomonlama chuqur o'rganish, tadqiq etish maktabning asosiy vazifalari etib belgilandi¹³².

Funksional jihatdan din niqobidagi ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashni preventiv, regulyativ (siyosiy yoki huquqiy uslublar bilan barham berish yoki "yumshatish") va repressiv (jinoyatchilikni tiyib turish, jinoyatchilarni jazolash) turlarga ajratish mumkin. Keng ma'noda preventiv kurash turi din niqobidagi ekstremizm va terrorizm barcha ko'rinishlarining oldini olishga qaratilgan¹³³. O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligi manfaatlaridan kelib chiqqan holda, mafkuraviy tahdidlar o'ta xatarli va nozik tus olgan bir sharoitda aholi, ayniqsa, yoshlar ichida g'oyaviy tarbiyaga yo'naltirilgan targ'ibot va aksiltarg'ibot ishlarining dolzarb yo'nalishlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

– g'araz maqsadlarda amalga oshirilayotgan g'oyaviy ta'sirlarga qarshi har bir fuqaroda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish, mavjud ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarni to'g'ri baholash, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqara olish qobiliyatini shakllantirish;

– kuchayib borayotgan mafkuraviy tahdidlarga nisbatan doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashashni o'rgatish;

– fuqarolarning milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, davlat va jamiyat manfaatlariga sadoqat, or-nomus, uyat va andisha kabi axloqiy

¹³² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Hadis ilmi maktabi faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 896-sonli Qarori. 2018 yil 1 noyabr.

¹³³ Устинов В. Обвиняется терроризм. – Москва, ОЛМА-ПРЕСС, 2002. – С. 10.

tuyg‘u va tushunchalarning ma‘no-mazmunini chuqur anglab yetishiga va amal qilishiga erishish;

– beparvolik va loqaydlikning oldini olish, hushyorlik va jonkuyarlikni tarbiyalash, mamlakat taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini kamol toptirish¹³⁴ kabi dolzarb yo‘nalishlardir.

Bu masalada ta‘lim muassasalarida ijtimoiy fanlar hal qiluvchi rol o‘ynashi aniq.

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida yoshlarning mustaqil fikrlashlarini takomillashtirish orqali ma‘naviyatini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetni shakllantirish bo‘yicha e‘tiborga loyiq tajriba to‘plangan. Universitet “Ijtimoiy fanlar” kafedrasining professor-o‘qituvchilari tomonidan ularga falsafa, dinshunoslik va milliy g‘oya fanlaridan saboq beriladi. Ushbu fanlarning talaba-yoshlarning axloqi, dunyoqarashi, tafakkuri, madaniyati, estetik didi, g‘oyaviy immunitetini shakllantirish, mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini hosil qilishdagi ahamiyati beqiyosdir. Talaba-yoshlarda ma‘naviy qadriyatlarni e‘zozlash, turli g‘arazli mafkuraviy xurujlarga qarshi mustahkam immunitet hosil qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy fanlar bo‘yicha mashg‘ulotlarning zamonaviy pedagogik texnologiyalari, interfaol usullaridan foydalan-gan holda tashkil etilayotganligi samarasini ko‘rsatmoqda. Jumladan, kafedra professori I.Saifnazarov boshchiligida, professor A.Muxtarov va dotsentlar N.Rahimbabaeva, D.Ernazarov, katta o‘qituvchi F.Usmonov va boshqa kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va mualliflik huquqini qo‘lga kiritilgan loyihalar asosida talabalarning mustaqil faoliyatlari shakllantirilmoqda. Ushbu talabalarning mustaqil faoliyatlari quyidagi mavzularda amalga oshirilmoqda: “Mening oilam–mening baxtim”, “Mening oilam–mening g‘ururim”, “Mening oilam–mening faxrim”, “Ustozim–hayotim chirog‘i”, “Mahallam–mening faxrim”, “Mening hayot falsafam”, “Pandemiya – mening oilam taqdirida” va boshqalar. Talabalarning mustaqil faoliyatlari amaliy ish shaklida bajarilmoqda. Bunda talabalar o‘z fan o‘qituvchilari bilan mahallalarga, o‘zi o‘qigan maktab, kollej va akademik litseylarga borib, ma‘lumotlar yig‘adilar va albom, videorolik, slaydlardan iborat taqdimotlar tayyorlab, shu

¹³⁴ Ochildiev A. Mafkuraviy tahdidlar va g‘oyaviy tarbiyaning dolzarb masalalari // Ma‘naviy va diniy yetuklik – davr talabi / to‘plovchilar Islomov Z., Shojalilov Sh. – Toshkent, Toshkent islom universiteti, 2009, 444 bet. – B. 381–382.

joyini o'zida himoya qiladilar. Maqsad talabalarning o'quv xonalarda ijtimoiy fanlardan olgan nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lashdir. Bunda talaba-yoshlar hayot haqiqati, ya'ni falsafasi bilan tanishadilar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni madaniy boyliklarimizni qadrlashni o'rganadilar. Ularning mehr-oqibat, o'zini anglash, vatanparvarlik kabi ma'naviy sifatlarining yanada rivojlanishi, o'z fikrini to'g'ri ifoda etishi hamda estetik didining yuqori darajada rivojlanishi kuzatiladi.¹³⁵

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Tolerantlik tafakkuri deganda nimani tushunasiz?
2. Tolerantlik madaniyatining ta'rifini ayting.
3. Tolerantlik nima tushuntiring?
4. Dunyoviylik deganda nima tushuniladi?
5. Diniylik deganda nima tushuniladi?
6. Dunyoviylik va diniylik o'rtasidagi uyg'unlikni izohlang.
7. Vijdon erkinligining mazmun va mohiyatini tushuntiring.
8. O'zbekistonda diniy erkinlik borasida qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?
9. Millat madaniyatini rivojlantiruvchi omillarni ayting.
10. Diniy tolerant madaniyat tarkibini tushuntiring.

Testlar:

1. Tolerantlik nima?

A. Bag'rikenglik — o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lish

B. Kompyuter tarmog'i orqali bir-biri bilan bog'langan va bir vaqtning o'zida turli geografik nuqtada kesishuvchi

C. Diniy ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlar faoliyatlari, diniy qadriyatlardir

D. Dunyoviylik borliqni tashkil etuvchi narsa va hodisalarga xos bo'lgan sifat va belgilarni o'qib-o'rganish orqali olingan bilimlar natijasidir

¹³⁵ Исмоил Саифназаров, Фарида Саифназарова. Ёшлар ва оила – Ватан таянчи. –Т.: "Ta'lim nashriyoti" 2018. 80-б.

2. Tolerant tafakkur nima?

A. Millatlar, elatlar, xalqlar, madaniyatlar, qarashlar, mafkuralar xilma-xilligi sharoitida o‘zaro hamkorlik va bir-birini qabul qilish, anglash jarayoni

B. Sezgi, idrok, tasavvurni shakllantirgan – hissiy bilish shakli

C. Tushuncha, hukm, xulosani shakllantirgan – mantiqiy bilish shakli

D. Kompyuter tarmog‘i orqali bir-biri bilan bog‘langan va bir vaqtning o‘zida turli geografik nuqtada kesishuvchi tafakkur egalari

3. Bag‘rikenglik atamasi nimani anglatadi?

A. Lotincha “tolerare”, ya’ni “chidamoq”, “sabr qilmoq” ma’nosini anglatadi

B. Yunoncha “chidamoq”, “sabr qilmoq” ma’nosini anglatadi

C. Fransuzcha “chidamoq”, “sabr qilmoq” ma’nosini anglatadi

D. Arab tilidan olingan, “chidamoq”, “sabr qilmoq” ma’nosini anglatadi

4. Dunyoviylik deganda nima tushuniladi?

A. Dunyoviylik borliqni tashkil etuvchi narsa va hodisalarga xos bo‘lgan sifat va belgilarni o‘qib-o‘rganish orqali olingan bilimlar natijasidir

B. Kompyuter tarmog‘i orqali bir-biri bilan bog‘langan va bir vaqtning o‘zida turli geografik nuqtada kesishuvchi

C. Diniy ta’limotlar, his-tuyg‘ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlar faoliyatlari, diniy qadriyatlaridir

D. Bag‘rikenglik — o‘zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his tuyg‘ulari, fikr mulohazalari, g‘oyalari va e’tiqodlariga nisbatan toqatli bo‘lish

5. Diniy tolerantlik madaniyati tarkibi ko‘rsatilgan qatorni belgilang.

A. Din, bag‘rikenglik, tinchlik, diniy urf-odat, diniy aqidalar, diniy rasm-rusumlar

B. O‘shish, o‘zgarish, rivojlanish, madaniy taraqqiyot, diniy manbalar

C. Inson tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar, rasm-rusumlar, aqidalar

D. Milliy bayramlar, millat iftixorlari, milliy va diniy qadriyatlar

Esse mavzulari:

1. Diniy tolerantlik madaniyatining ijtimoiy-ma'naviy xususiyatlari.

2. Bag'rikenglik – oliyjanob fazilat.

3. Ijtimoiy barqarorlik va Islom.

4. Imom Buxoriyning “Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmaydi ham” hikmatining ilmiy tolerant tafakkur rivojidadagi o‘rni.

5. “Dunyoviylik” va “diniylik” tushunchalari hamda ularning ijtimoiy-falsafiy mazmuni.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent, O‘zbekiston. 2018. - B.19-21.

2. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun 24.07.2018-y., 03/18/486/1559-son.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun. 11.03.2020-y., 03/20/608/0278.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonun. 02.04.2021 y., 03/21/681/0264-son.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun. (yangi tahriri) 04.12.2020-y., 03/20/653/1592-son.

7. O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun. 13.09.2019-y., 03/19/567/3737-son.

8. O‘zbekiston Respublikasining “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi Qonun. 28.09.2020-y., 03/20/638/1333-son.

9. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.-Jild 1. –Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017.- B. 31.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkilotining fan va texnologiyalar bo‘yicha birinchi sammitidagi nutqi. Xalq so‘zi. 2017-yil 10-sentabr.
11. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2018.- B. 9.
12. Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo‘llari / A.Hasanov, O.Yusupov, K.Shermuhamedov, U.G‘afurov, J.Karimov. – Toshkent: Movarounnahr, 2013. – 160 b.
13. Qo‘shayev U. Axborot iste‘moli madaniyati. – Toshkent: «Extremum-Press» nashriyoti, 2013. – 44 b.
14. Tulepov A. Internetdagi tahdidlardan himoya. Mas’ul muharrir A.Hasanov. – Toshkent: Movarounnahr, 2016. - 672 b.
15. Shermuhamedov K., Karimov J., Najmiddinov J. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. – Toshkent: «Movarounnahr» nashriyoti, 2016. – 224 b.
16. X.Doniyorov. Dissertatsiya. O‘zbekistonning milliy demokratik davlatchilik taraqqiyotida dunyoviylik va diniylik mutanosibligining ahamiyati. –Toshkent, 2020.
17. I.S.Saifnazarov, A.Obidov. “Dinlararo hamjihatlik – ijtimoiy barqarorlik omili”. Monografiya. Toshkent. 2019. – B. 96.
18. Ismoil Saifnazarov, Farida Saifnazarova. Yoshlar va oila – Vatan tayanchi. –T.; “Ta’lim nashriyoti” 2018-y. 132-b
19. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. «Qur’oni Karim» va o‘zbek tilidagi ma’nolari tarjimasini. «HILOL NASHR» nashriyot – matbaasi. 2017-yil. – B. 628.

12-MAVZU. KORRUPSIYA – GLOBAL MUAMMO SIFATIDA. O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING IQTISODIY-SIYOSIY VA IJTIMOIIY- HUQUQIY MEXANIZMLARI

Reja:

12.1. Korrupsiya tushunchasining mazmun mohiyati va namoyon bo‘lish xususiyatlari.

12.2. Korrupsiyaga qarshi kurashishda jahon tajribasi.

12.3. Korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari.

12.4. Korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratining roli.

12.1. Korrupsiya tushunchasining mazmun-mohiyati va namoyon bo‘lish xususiyatlari


Bugungi kunda korrupsiyaviy jinoyatchilikni nafaqat bizning davlatimizda, balki dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ham mavjud bo‘lgan an’anaviy va keng tarqalgan jinoyat turi deb atash mumkin. Korrupsiyaning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini o‘rganib chiqqan olimlarning fikriga ko‘ra, korrupsiya mamlakat iqtisodiyotining qulashi, davlat boshqaruvi va hokimiyatining yo‘q bo‘lishi, bozor islohotlarining buzilishi va jamiyatning huquqiy ongini jinoiy deformatsiyalanishiga olib keladi. Har qanday murakkab ijtimoiy hodisada bo‘lgani kabi, korrupsiya to‘g‘risida ham yagona kanonik ta’rif yo‘q. Lekin korrupsiyaning ko‘plab ta’riflari mavjud. Umuman olganda, korrupsiya (lotincha “corrumpere” so‘zidan olingan bo‘lib, “buzmoq” ma’nosini anglatadi) mansabdor shaxsning o‘ziga ishonib topshirilgan vakolatlari va huquqlaridan, belgilangan qonun va qoidalarga zid ravishda shaxsiy manfaatlari uchun foydalanishidir. Ehtimol bu ta’riflarning ichida eng qisqa va lo‘nda ta’rif sifatida mashhur kriminalist Jozef Senturiya (Joseph Senturia)ning “davlat hokimiyatidan shaxsiy manfaati yo‘lida foydalanish” degan ta’rifni keltirish mumkin. Korrupsiya insoniyatga qadim zamonlardan beri hamroh bo‘lib kelmoqda. Pora (poraxo‘rlik) uchun jazo berish Misr

fir'avnlarini tomonidan to'rt ming yil oldin o'rnatilgan Xamurappi qonunlarida ham o'z aksini topgan. Korrupsiyaning kelib chiqishiga tarixiy nuqtayi nazardan yondashadigan bo'lsak, boshliqlar va ruhoniylarga ularning foydasiga erishish uchun ularga sovg'a berishdan boshlangan. Qimmat sovg'a-salomlar sovg'a bergan odamni boshqa murojaat qiluvchilardan ajratib turgan va uning murojaati bajarilishiga katta yordam bergan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, korrupsiya dastlab ko'proq axloqiy muammo sifatida ko'rilgan. Xususan, Jan-Klod Vake tomonidan yozilgan "Korrupsiya. 1600–1770-yillarda Florensiyada axloq va hokimiyat" nomli kitobida korrupsiya davlat bilan emas, balki inson tabiati bilan bog'liq holat ekanligini tushuntirishga harakat qilgan. Qadimgi davrlarda davlat rahbarlarini sudyalarning korrupsiyaga qo'l urishi qattiq tashvishga solgan, chunki ular bu holat mulkni noqonuniy ravishda qayta taqsimlash va nizolarni qonunchilik doirasidan tashqarida hal qilishga intilish deb tushunganlar. Din peshvolarining sudyalar (qozilar)ning poraxo'rlikka qo'l urishlarini qoralashlari bejiz emas.

Tomas Gobbs yozganidek, korrupsiya bu har doim barcha jinoyatlarning ildizi bo'lgan va qonunlarning xo'rlanishiga olib kelgan. Keyinchalik davlatning shtat birliklari mukammallashib, ma'muriy boshqaruv apparati paydo bo'ldi. Hukmdorlarning buyrug'i bilan faqat belgilangan maosh bilan kifoyalanadigan amaldorlar faoliyat yurita boshladi. Lekin amalda ba'zi amaldorlar o'z lavozimlaridan foydalanib, yashirin ravishda daromadlarini oshirishga urinib keldilar.

Umuman olganda, jamiyatning rivojlanish tarixida har bir davlat o'zining huquqiy konsepsiyasi, rivojlanish tendensiyalaridan kelib chiqib korrupsiyaga qarshi kurashishda turli usullardan foydalangan. Korrupsiya masalasi bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti ham alohida shug'ullanib, maxsus qarorlar qabul qilgan hamda bu tushunchaga quyidagicha ta'riflar berilgan: 1) mansabdor shaxslar tomonidan davlat mulkini o'g'irlash, talon-taroj qilish va o'zlashtirish; 2) noqonuniy foyda olish uchun o'z xizmat lavozimini suiiste'mol qilish; 3) ijtimoiy burch va shaxsiy tamagirlik, manfaatlar o'rtasidagi ziddiyat. Shu boisdan korrupsiya jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga xavf soluvchi asosiy tahdidlardan biri hisoblanadi.



12.1.1-chizma.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va manfaatlar to'qnashuviga doir quyidagicha ta'rif berilgan, ya'ni korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini, yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishidir¹³⁶. Yuridik ensiklopediyada ta'riflanishicha, korrupsiya bu amaldor shaxslar o'zlariga berilgan lavozimlardan foydalanib, o'zining shaxsiy manfaatini o'ylab boylik orttirish maqsadida mamlakat qonunlariga zid keladigan har xil pora olish va pora berish jinoyatlari bilan shug'ullanishidir¹³⁷.

Korrupsiyaning boshqa jinoyat turlaridan ajralib turadigan o'ziga xos belgisi shundaki, bu mansabdor shaxsning xatti-harakatlari va uning ish beruvchisi manfaatlarini o'rtasidagi ziddiyat yoki saylangan shaxsning xatti-harakati va jamiyat manfaatlarini o'rtasidagi ziddiyat hisoblanadi. Korrupsiyaning eng ko'p uchraydigan turlari mansabdor shaxs tomonidan qilingan firibgarlikka o'xshaydi va bunday jinoyatlar davlat hokimiyatiga qarshi jinoyatlar toifasiga kiradi. Mansabdor shaxslarni korrupsiyaga undaydigan asosiy rag'batlardan biri bu hokimiyatidan foydalanish natijasida orttirgan iqtisodiy foyda hisoblanadi. Ularni korrupsiyadan qaytaruvchi asosiy omil muqarrar

¹³⁶ O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419 sonli Qonuni. 2017-yil 3-yanvar.

¹³⁷ Yuridik ensiklopediya . – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 258.

jazo hisoblanadi. Korrupsiya mamlakatda har qanday iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun eng katta xavf hisoblanadi. Mutaxassislarining fikricha, dunyoda korrupsiyaning juda ko‘p turlari mavjud.

BMTning korrupsiyaga qarshi xalqaro kurash to‘g‘risidagi hujjatida korrupsiyaga “shaxsiy maqsadlarda manfaatga erishish uchun davlat hokimiyatini suiiste’mol qilish” sifatida ta’rif beriladi.

Ushbu tushuncha o‘z ichiga poraxo‘rlikni (shaxsni burch yuzasidan yo‘ldan urish uchun mukofot berish), nepotizm (daromadli yoki foydali lavozimlarni qarindoshlar yoki “o‘z odamlari” egallashiga homiylik qilish) va shaxsan foydalanish uchun ommaviy mablag‘larni noqonuniy o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Korrupsiya tushunchasi AQSH olimlari tomonidan eng chuqur va har tomonlama o‘rganilgan. Amerikalik tadqiqotchilar korrupsiya muammosiga siyosiy arboblarni, davlat apparati xodimlari, tadbirkorlar va boshqa shaxslarning boylik orttirish va o‘z ijtimoiy mavqei yuksaltirish maqsadlarida, shaxsiy, oilaviy yoki guruh manfaatlari yo‘lida o‘z rasmiy majburiyatlari va davlat vazifalaridan bosh tortish singari hodisa sifatida ta’rif beradi:

mansabdor shaxsning rasmiy majburiyatlari va boshqa shaxslarning huquqlariga mos kelmaydigan qandaydir ustunlikni taqdim etish maqsadida sodir etiladigan qilmish;

mansabdor shaxsning o‘z maqomi yoki mavqeidan boshqa shaxslarning majburiyatlari va huquqlariga qarshi maqsadlarda o‘zi yoki boshqa shaxs uchun qandaydir ustunlikka erishish uchun noqonuniy va huquqqa ega bo‘lmagan foydalanish yo‘lidagi qilmishi¹³⁸.

Masalaning murakkab jihati shundaki, korrupsiya ko‘p hollarda davlat organlari faoliyatining o‘ziga xos turlarida amalga oshiriladi. Korrupsiyaning moslashuvchanlik qobiliyati nihoyatda kuchli bo‘lganligi uchun bu jinoyatning tagiga yetish anchayin mushkul ish. Buning ustiga bugungi kunda korrupsiya o‘zining ko‘rinishlarini muttasil o‘zgartirib bormoqda va mukammallashtirmoqda. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi kurashilganida odatda korrupsion tizimda ishtirok etgan eng past toifadagi aybdorlarga jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

¹³⁸ Elliott, Kimberly Ann (1950). ["Corruption as an international policy problem: overview and recommendations"](#) (PDF). Washington, DC: Institute for International Economics.

Dunyoning ko'pgina olimlari korrupsiyaning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini o'rganish orqali uni tasniflashga harakat qilgan. Jumladan, AQSHdan bo'lgan xalqaro ekspert S.Alatas korrupsiyani sinflarga ajratishda korrupsiyaning oqibatlari va tarqalish ko'lami nuqtayi-nazaridan ajratgan. Uning fikricha, korrupsiya uch sinfga ajratiladi:


1) Korrupsiyaning nisbatan cheklangan turi. U asosan hokimiyatning yuqori bosqichida jamlangan bo'lib ijtimoiy hayotning barcha sohalariga keng ta'sir ko'rsatmaydi;

2) Korrupsiyaning o'ta keng tarqalgan turi. Jamiyatda deyarli barcha narsa pora yordamida hal qilinadi va hayotning butun sohalarini qamrab oladi;

3) Korrupsiyaning bu turi ijtimoiy tuzumni butunlay vayron qiladi.

Yana bir amerikalik mutaxassis A.Xaydenxaymer korrupsiyani sinflarga ajratishda jamiyat tomonidan korrupsiyaga nisbatan mavjud munosabatga ko'ra (unga chidash yoki uni ma'qullamaslik) ajratadi. A.Xaydenxaymer korrupsiyaning uchta turini sanab o'tgan. Bular oq, qora va kulrang korrupsiyalardir. **Oq korrupsiya** – bunga nisbatan jamoatchilik fikrida rozilik mavjudligini: bu harakatlar qoralanmasligini, ular mohiyatiga ko'ra mentalitetga singib ketganligini hamda muammo sifatida idrok etilmasliginini anglatadi. **Qora korrupsiya** – bunda korrupsion aloqalar jamiyatning barcha qatlamlari tomonidan qoralanadi. **Kulrang korrupsiya** – korrupsiya borasida biron bir rozilik mavjud bo'lmagan amaliyotlardir. Aynan kulrang korrupsiya atrofida janjallar yuzaga keladi¹³⁹.

¹³⁹ Lawore B. Social Inequality in Nigeria: the Poor and the Rich / B. Lawore. — Unilag Sociologist, Lagos, 1976/77, 4, P. 2-3.



12.1.2-chizma.

Mamlakatda korrupsiya holatlarining ko‘payishi bir tomondan jamiyatda kuchli iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarsa, ikkinchi tomondan aholi o‘rtasida ma’naviy krizisni vujudga keltiradi. Bu holat o‘z-o‘zidan ishsizlik, adolatsizlik, qashshoqlikning kelib chiqishiga va natijada jamiyatda dunyoviylik va diniylik o‘rtasidagi muvozanatning buzilishiga, ya’ni diniy ekstremizm va terrorizm tarafdorlarining ko‘payishiga zamin yaratadi. Sotsiologlarning olib borgan tadqiqotlari natijasiga ko‘ra din niqobidagi ekstremizm jamiyatda tobora avj olayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga ham bog‘liq bo‘lib qolmoqda:

- aholi turmush darajasining pasayishi;
- yoshlar orasida ishsizlar sonining keskin oshishi;
- ish haqi va bozordagi narx-navoning nomuvofiqligi hamda ozuqa sifatining pastligi;
- ayrim hududlarda ijtimoiy xizmat ko‘rsatish darajasining pastligi yoki mavjud emasligi, shuningdek, ta’lim olish va sog‘liqni saqlash imkonining cheklanganligi;
- aholi orasida savodsizlik darajasining yuqoriligi;
- yashash sharoitlarining pastligi;

– adolatli soliq tizimining mavjud emasligi kabi muammolar shular jumlasidandir.

Shu boisdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo‘shma majlisidagi “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi ma’ruzasida “Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo‘l qo‘ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to‘g‘risidagi qonun talablarini amalda ta‘minlash bo‘yicha qat‘iy choralar ko‘rishimiz zarur”, deb bejiz ta‘kidlamaganlar¹⁴⁰.

Mamlakatimizda “korrupsiya” so‘zi ishlatilgan 207 ta normativ-huquqiy hujjat mavjud bo‘lib, ularning barchasida ushbu so‘z korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida ishlatilgan.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z lavozimiga kirishgandan so‘ng imzolagan dastlabki qonunlardan biri ekanligi barchamizga ma‘lum.

12.2. Korrupsiyaga qarshi kurashishda jahon tajribasi

Turli jamiyatlarning tarixiy taraqqiyot turlaridan ma‘lumki, har bir davlat o‘z fuqarolarining dunyoqarashi va o‘zining iqtisodiy rivojlanish omillaridan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashning turli usullaridan foydalanadilar. Lekin bugungi kungacha korrupsiyaga qarshi kurashishning eng samarali usullari yaratilmagan. Chunki korrupsiya oddiy jinoyat bo‘lib ko‘rinsa-da, uning kelib chiqishi va yashovchanlik sabablari murakkab obyektiv va subyektiv omillarga borib taqaladi.

Shu nuqtayi nazardan bir davlatda ijobiy natija bergan usul boshqa davlatda u qadar samara bermasligi mumkin. Shuning uchun har bir davlat va jamiyat korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘lini o‘zi belgilaydi, aniqrog‘i, qanday yo‘l to‘g‘ri ekanini davlat va jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar ko‘rsatadi.

Bugungi globallashuv jarayonida davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi hamkorlikning yangi ufqlari ochilyapti, milliy iqtisodiyotlar o‘zaro

¹⁴⁰ Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. 2016-yil 14-dekabr.

chambarchas bog‘langan holda taraqqiy etmoqda. Bugun har qanday davlat boshqa davlatlar bilan izchil hamkorlik qilmasdan, oqilona investitsiya va resurslarga tayanmasdan, jahonga chiqmasdan, ayni paytda dunyoga eshiklarini keng ochmasdan, odamlar bemalol ishlaydigan ishonchli makonga aylanmasdan yuqori natijalarga erisholmasligi barchamizga ma’lum. Shunday ekan, korrupsiyaga qarshi kurashishda rivojlangan davlatlar tajribasidan samarali foylanishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunga misol qilib biz Singapur davlatini keltirib o‘tishimiz mumkin. Xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan o‘tkazilgan so‘rovlar natijasida Singapurda korrupsiya va jinoyatchilik ko‘rsatkichi jahonda eng quyi darajada ekanligi aniqlangan. Singapur Respublikasi – qirq yillik milliy suverenitetidan keyin rivojlanayotgan emas, “rivojlangan mamlakat” maqomini olgan Janubiy-Sharqiy Osiyodagi yagona mamlakatlardan biri hisoblanadi¹⁴¹.

Elektron hukumatning joriy etilishi va uning imkoniyatlaridan keng foydalanish korrupsiyaga qarshi kurashishda eng samarali vosita hisoblanadi. AQSH, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Singapur, Norvegiya, Janubiy Koreya Respublikasi kabi mamlakatlar elektron hukumatni yaratish orqali korrupsiyaga qarshi kurashishda yuqori natijalarga erishgan. Yuqoridagi davlatlarning tajribalaridan xulosa chiqarish mumkinki, elektron hukumatni joriy qilish davlat boshqaruvi organlari faoliyatida oshkoralikni ta’minlashga katta yordam beradi.

Umuman olganda, korrupsiya – bu davlat va jamiyatning buzilishidan hosil bo‘lgan ijtimoiy hodisa bo‘lib, bunda davlat xizmatchilari davlat va boshqa boshqaruv vazifalarini, shu jumladan xususiy sektorda bajarishga vakolatli shaxslar shaxsiy boylik orttirish yoki guruh maqsadlarida o‘z xizmat maqomidan, egallab turgan lavozimi mavqei va nufuzidan xizmat manfaatlariga zid ravishda foydalanadi.

Biz korrupsiyani shartli tarzda bir qancha asosiy turlarga tasniflash mumkin deb hisoblaymiz:

1) subyektlar maqomiga ko‘ra:

- a) hukumat idoralaridagi korrupsiya;
- b) xususiy sektordagi korrupsiya;
- d) siyosatdagi korrupsiya yoki siyosiy korrupsiya.


¹⁴¹ Погадаев В.А. Малайский мир (Бруней, Индонезия, Малайзия, Сингапур). Лингвострановедческий словарь. – М.: Восточная книга, 2012. – С. 798.

2) darajalariga ko‘ra:

- a) quyidagi korrupsiya;
- b) yuqoridagi korrupsiya;
- d) vertikal korrupsiya.

3) ijtimoiy xatari darajasiga ko‘ra:

- a) korrupsiya-qilmish;
- b) korrupsiya-jinoyat.



12.2.1-chizma.

Hukumat idoralaridagi korrupsiya bu hokimiyatning buzilishidan iborat bo‘lgan ijtimoiy hodisa bo‘lib, bunda davlat vazifalarini bajarishga vakolatli bo‘lgan davlat xizmatchilari va boshqa shaxslar o‘z xizmat mavqei, egallab turgan lavozimidan shaxsiy boyish yoki guruh manfaatlari uchun g‘arazli maqsadlarda foydalanadi.

“Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali vositalaridan biri – kadrlarni tanlash va ishga qabul qilishning ochiq tizimini yo‘lga qo‘yishdan iborat. Ushbu tizim asosida kadrlarni tanlashda eski usullardan voz kechib, ularning intellektual salohiyatini, ma’naviy fazilatlarini baholaydigan ochiq va oshkora tanlov tizimi joriy etiladi.

Shuningdek, korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha davlat xizmatchilarini muntazam o‘qitish va bilimni baholab borish tizimi yo‘lga qo‘yiladi¹⁴².

¹⁴² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.

Jahon amaliyotidagi tajribalar bugungi kunda korrupsiyaning turli shakllarda namoyon bo'layotganligini isbotlab bermoqda. Bular orasida: poraxo'rlik, tovlamachilik, qarindosh-urug'chilik (nepotizm), jamoatchilik zaxiralarini noto'g'ri taqsimlash, noqonuniy xususiy-lashtirish, ijtimoiy kreditlar va buyurtmalarning asossiz berilishi, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarini noqonuniy moliyalashtirish kabilarni aytish mumkin. XXI asrda korrupsiyaning eng keng tarqalgan turlari sifatida ma'muriy, maishiy, korporativ, partiyaviy, siyosiy korrupsiyalarni ko'rsatish mumkin. Korrupsiyaning bugungi kunda "davlatni qo'lga olish" kabi ko'rinishi ham jahon amaliyotida kuzatilmoqda. Korrupsiyaning bu turi ham davlat, ham xususiy sektorlardagi ayrim shaxslar, guruhlar yoki firmalarning qonunlarni, qonunchilik hujjatlarini va davlat siyosatining boshqa vositalarini shakllantirishga ta'sir o'tkazish maqsadidagi harakatlarini ifodalaydi.

Jahon amaliyotida ro'y berayotgan o'ziga xos jarayonlardan biri mamlakatda kuchli islohotlar amalga oshirilayotganda yoki markazlashgan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida korrupsiyaning kuchli rivojlanishi kuzatiladi.

Bugungi kunda korrupsiyaning eng keng tarqalgan ko'rinishi poraxo'rlik bo'lib korrupsiyaning bu turi qandaydir xizmatlar ko'rsatish yoki raqobatli ustunliklarni taqdim etish uchun ma'lum bir moddiy vositani undirish hisoblanadi. Korrupsiya bugungi kunda ko'p hollarda o'tkazilayotgan tenderlarda va turli davlat xaridlarini amalga oshirishda ko'zga tashlanmoqda.

Yuqoridagi jarayonlarda foydani "arra" qilish, vakolatni oshirish, budget xarajatlari hisobidan amalga oshirilayotgan ishlarning qiymatini oshirib ko'rsatish yoki noqonuniy taqsimlash kabi usullardan foydalanib budget pullarini o'g'irlashlar korrupsiyaning eng keng tarqalgan ko'rinishlari hisoblanadi¹⁴³.

Mamlakatda "elektron hukumat"ning to'laqonli ishlashi davlat xaridlarining aksariyat qismini va aholi, biznes hamda davlat o'rta-sidagi munosabatlarning butun tizimini shaffof qilish imkonini beradi va bu tarmoqning hajmini sezilarli darajada kamaytiradi. Ikkinchidan, biznesni rivojlantirishga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Singapurda ko'plab zarur xizmatlarni, masalan, pasport va tug'ilganlik

¹⁴³ Коррупция и бюрократизм: истоки и пути преодоления. Тематический сборник. М.: РАГС. 1998. – С. 138.

haqidagi guvohnomani uyda zarur shakllarni to'ldirib, tegishli organlarga elektron pochta orqali yuborish orqali olishingiz mumkin. Hukumat bunday xizmatlarni Internet orqali taqdim etishi odatiy hol sifatida qabul qilinadi. Shuni ta'kidlash kerakki, agar fuqaro ushbu xizmatlarni olish uchun muassasaga shaxsan tashrif buyursa, u holda ushbu muassasaga alohida ehtiyojsiz kelganlik uchun unga jarima belgilanadi¹⁴⁴.

Mamlakatda korrupsiyani yo'q qilish uchun davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirish, davlat muassasalarida ishchi-xodimlarning maoshlari oshishiga erishish uchun ishchilar sonini bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan chora-tadbirlar asosida optimallashtirish lozim. Shuningdek, xodimlarning ish haqini oshirish (motivatsiya), muqarrar jazoning mavjudligi, kuchli monitoring, jamoatchilik nazorati va elektron hukumat kabi texnologiyalar ham jahon tajribasida keng qo'llanilgan va yuqori samara keltirgan. Korrupsiyaning oldini olishda avvalambor manfaatlar to'qnashuvining oldini olish nihoyatda muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida manfaatlar to'qnashuvi tushunchasining mohiyati to'liq ochib berilgan bo'lib unga ko'ra manfaatlar to'qnashuvi — shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat¹⁴⁵.

12.3. Korrupsiyaga qarshi kurashda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari

Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston Respublikasi o'tish davri va bozor munosabatlarini to'la amalga oshirish yo'lidan borar ekan korrupsiya va jinoyatchilikning ko'pgina turlari bu jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatib kelayotganligi hech kimga sir emas. Barcha

¹⁴⁴ Xamidov B. O'zbekistondagi korrupsiya xavfi bo'lgan sohalar // Ekonomicheskoe obozrenie №4 (244) 2020.

¹⁴⁵ O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonuni. 2017-yil 3-yanvar.

mamlakatlarda bo‘lgani singari korrupsiya va jinoyatchilikning ko‘pgina turlari O‘zbekiston Respublikasining ichki tizimida chuqur va mustahkam uya qurib olgan. O‘zbekiston uyushgan jinoyatchilikning "yashirin" iqtisodiyot, narkobiznes, terrorizm usullaridan foydalanish, faxsh savdosi kabi turlaridan xoli mamlakat emas.

Toshkent davlat yuridik universiteti o‘qituvchisi Igor Kudryavsev «bizning hududlarda jinoiy uyushmalarning asosan ikki turi mavjud bo‘lib, birinchisi: giyohvandlik moddalari bilan savdo qiladigan guruhlar va ikkinchisi; hokimiyatni bosib olish, ya’ni konstitutsiyaviy tuzumni ag‘darib tashlash maqsadida fitnalar uyushtirishni maqsad qilib olgan jinoiy uyushmalar»¹⁴⁶dir degan fikrlarni bildirgan. Lekin O‘zbekistonda uyushgan jinoyatchilikning eng xavfli bo‘lgan uchinchi ko‘rinishi ham mavjud. Bu korrupsiyadir.

O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilar keltirilgan:

1) aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;


2) davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

3) korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlash¹⁴⁷.

¹⁴⁶ Qonun himoyasida jurnali. Igor Kudryavsev Uyushgan jinoyatchilik va unga qarshi kurash muommalari maqolasi. 2002-yil 7-son.

¹⁴⁷ O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419 sonli Qonuni. 2017-yil 3-yanvar.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SIYOSATINING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDAGI ASOSIY YO‘NALISHLARI



Jahonda korrupsiyaga qarshi ko‘plab xalqaro normativ – huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, xalqaro mexanizmlar shakllantirilgan. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasining 51-sessiyasi 82-yalpi yig‘ilishida (Nyu-York, 1996-yil 12-dekabr) davlat mansabdor shaxslarining xalqaro axloqiy kodeksi, Strasburg shahrida 1999-yil 27-yanvarda korrupsiya bo‘yicha jinoiy javobgarlik, 1999-yil 4-noyabrda korrupsiya bo‘yicha fuqaroviy-huquqiy javobgarlik konvensiyasi, 2003-yil 15-mayda korrupsiya bo‘yicha jinoiy javobgarlik konvensiyasiga qo‘shimcha protokol, shu yili 31-oktabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasi qabul qilindi. Shuningdek, jahon hamjamiyati BMT Bosh Assambleyasining 2003-yil 21-noyabrdagi rezolutsiyasiga muvofiq, 2004-yildan boshlab 9-dekabr xalqaro Korrupsiyaga qarshi kurashish kuni sifatida nishonlanadi. Jahon bo‘ylab BMT a‘zolari bo‘lgan, korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasini tan olgan mamlakatlar shu kuni turli tadbirlar, aksiyalar uyushtiradi. Plakatlar va varaqalar chop etadi.

O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari

belgilangan bo‘lib bunday davlat organlariga O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari ham kiradi. Shuningdek, yuqoridagi Qonunning 6-moddasida Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati davlat dasturlari va boshqa dasturlar asosida amalga oshirilishi mumkinligi belgilab qo‘yilgan. Davlat dasturlari va boshqa dasturlar ushbu Qonunning qoidalari samarali ijro etilishini ta’minlash, korrupsiyaning holati hamda tendensiyalaridan kelib chiqqan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha kompleks va tizimli chora-tadbirlar ko‘rish maqsadida ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi¹⁴⁸. 2017-yil 2-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2752-sonli Qarori chiqdi. Qarorda «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Respublika idoralararo komissiyasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

1) korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

2) korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta’minlash;

3) aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

4) korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo‘yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta’minlash;

¹⁴⁸ O‘zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘RQ-419 sonli Qonuni. 2017-yil 3-yanvar.

5) korrupsiyaning holati va tendensiyalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘ish hamda tahlil etish;

6) korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash;

7) korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash;

8) korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish.

Shuningdek, ushbu qaror asosida 2017–2018-yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturi qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyunda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini tashkil etish haqidagi PQ – 4761-sonli Qarori chiqdi. Unga ko‘ra agentlik tarmoq va hudud rahbarlari bilan birga quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1) barcha viloyat, tuman (shahar) hokimlari o‘z hududlarida, tarmoq rahbarlari o‘z tizimlarida agentlik bilan birga bir oy muddatda Korrupsiyadan xoli dasturini ishlab chiqadi. Bunda ochiqlik va oshkoralikni ta‘minlash hamda sohalarni raqamlashtirish eng asosiy vazifa bo‘ladi;

2) korrupsiyaning oldini olishda ta‘sirchan parlament va jamoatchilik nazorati yo‘lga qo‘yiladi. Jumladan, agentlik korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining holatini tahlil qilib, har yili Prezident va Oliy Majlis palatalariga milliy hisobot kiritib boradi;

3) agentlik keng jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan birga aholi va tadbirkorlarning korrupsiyaga munosabatini o‘rganib borishi va davlat idoralari faoliyatini baholab boradi¹⁴⁹.

Umuman olganda O‘zbekiston Respublikasida ham islohotlar bosqichida turgan aksariyat davlatlarga xos bo‘lgan qiyinchiliklar mavjudligini va ular korrupsiyani vujudga keltiruvchi muammolar

¹⁴⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ – 4761 sonli Qarori. 2020-yil 29-iyun.

mavjud ekanligini inkor etib bo'lmaydi. Bunday muammolarga iqtisodiy tanazzulni bartaraf etish qiyinchiliklari, qonunchilikning nomukammalligi, hokimiyat idoralari institutlarining samarasizligi, fuqarolik jamiyatining o'ta zaifligi va rivojlanmaganligi, barqaror demokratik an'analarning mavjud emasligi kabi holatlarni kiritishimiz mumkin.

«Ijtimoiy fikr» Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan 2020-yil o'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik (83,2 foiz) respondentlar mamlakatda korrupsiya mavjudligini tan oladi va korrupsiya davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, fuqarolar, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy-axloqiy holatiga zarar yetkazadi, aholining davlat organlari va adolatga bo'lgan ishonchini pasaytiradi, deb hisoblaydi. 32,4 foiz ishtirokchilarning fikricha, korrupsiyaviy o'zaro munosabatlar fuqarolarning ishga joylashishi sohasida eng ko'p tarqalgan. So'rov ishtirokchilarining qayd etishicha, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, tashkilotlar va idoralar, firmalar va korxonalar rahbarlariga amalda kadrlarni tanlash, bo'shatish, ishga qabul qilish masalalarida cheklanmagan vakolatlar berilgan, demak, subyektiv yondashuv va korrupsiya holatlari bo'lishi mumkin, bular ishga kiruvchi shaxslardan moddiy foyda olishda ifodalanadi. 32,4 foiz fuqarolarning fikricha, sog'liqni saqlash tizimi korrupsiyaga duchor bo'lgan. Bu, ayniqsa, pullik va shifokorlar bepul ko'rsatishi kerak bo'lgan xizmatlar uchun ularga noqonuniy mukofot berishga, shuningdek, shifokorlarning farmatsevtik mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar yoki yetkazib beruvchilardan olinadigan mukofoti evaziga bemorlarga narxi qimmat dorilar yozib berishiga tegishlidir.

So'rov jarayonida aholining uchdan bir qismi ta'lim tizimida korrupsiya tarqalganligini qayd etdi. Korrupsiyaviy munosabatlar sohasiga yoshlarning qo'shib qolayotgani, ular uchun korrupsiyaviy amaliyot ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida takrorlanish tendensiyasiga ega bo'lgan hayotiy me'yorga aylanib borayotgani fuqarolarda alohida tashvish uyg'otadi, ta'lim muassasalarida korrupsiyaning tarqalishi yosh avlodning qadriyatlari va ideallarini soxtalashtiradi. Kompleks tadqiqotlar natijalarini hisobga olib, korrupsiyaga qarshi huquqiy ma'rifat sohasida tadbirlarni amalga oshirishni davom ettirish maqsadga muvofiq ko'rinadi.

Jamoatchilik fikri monitoringining aniqlashicha, korrupsiyaviy jinoyatlar uchun, bunday turdagi huquqbuzarliklarni eng samarali tiyib turish omili sifatida jinoiy javobgarlik choralari yanada kuchaytirish zarurligi haqidagi fikrda bo'layotgan fuqarolar soni yanada ko'paymoqda. Korrupsiyaning oldini olishning boshqa chora-tadbirlari qatorida: profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish, jumladan, mansabdor shaxslarning vakolatlarini cheklash, turli toifadagi fuqarolarning daromadlari va xarajatlarini nazorat qilish, xizmatdagi turli suiiste'molliklarning oldini olish va ularni bartaraf etish, jamiyatda aksikorrupsiyaviy dunyoqarashni va korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda ma'naviy-axloqiy sifatlar darajasini oshirish kabi choralar ko'rsatildi¹⁵⁰.

Bugungi kunda mamlakatimizda nepotizm, yuqori lavozimdagi amaldorlarning ulkan mulkiga ega bo'lgan soxta kompaniyalar va yuridik shaxslarning yaratish amaliyoti kundan kunga jadal kuzatilmoqda. O'z navbatida huquqni muhofaza qilish idoralari odatda bunday holatlarni yashirishga harakat qilmoqda. Jamiyatdagi bunday holatlar korrupsiyaning eng xatarli salbiy oqibatlaridan biridir.

12.4. Korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik nazoratining roli

Inson, jamiyat va davlat uchun katta xavfga ega bo'lgan va bir vaqtning o'zida jamiyat hayotining barcha sohalariga salbiy ta'sir o'tkazadigan korrupsiya omillari bugungi kunda nafaqat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir o'tkazadi, balki fuqarolarning konstitutsion huquqlari va erkinliklarining buzilishiga olib keladi hamda va tadbirkorlik muhitining rivojlanishi uchun to'sqinlik qiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olishda faqatgina davlat organlarining chora-tadbirlari yetarli bo'lmayotganligi tahlillar natijasida ma'lum bo'lmoqda. Bu sohada fuqarolik institutlarining o'zaro mustahkam hamkorligi nihoyatda muhim rol o'ynaydi. Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik institutlari

¹⁵⁰<https://uza.uz/uz/posts/jamoatchilik-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-borasida-amalga-oshirilaetgan-ishlar-togrisida-qanday-fikrda?q=%2Fposts%2Fjamoatchilik-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-borasida-amalga-oshirilaetgan-ishlar-togrisida-qanday-fikrda>

hozirgi kunda inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari va demokratik qadriyatlarni himoya qilishning eng muhim omiliga aylanmoqda. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashadi hamda fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun xizmat qiladi.

Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning jahon amaliyotida keng tarqalgan shakllari – bu davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatiga oid jamoatchilik eshituvlari, jamoatchilik muhokamalari, jamoatchilik ekspertizasi, jamoatchilik tahlili yoki monitoringi, jamoatchilik surishtiruvi, jamoatchilik tekshiruvi, jamoatchilik so'rovi, murojaatlar, jamoatchilik tashabbuslari hisoblanadi. Shuningdek, yana bir keng tarqalgan ko'rinishlaridan biri – bu davlatning mansabdorlar tomonidan o'z lavozimini suiiste'mol qilinishiga qarshi kurashishni bevosita amalga oshiruvchi organlari bilan jamoatchilik nazorati subyektlarining o'zaro hamkorligi bo'lib, mazkur amaliyot keyingi yillarda korrupsiyaning oldini olishda eng samarali mexanizmlardan biriga aylandi. Chunki, davlat organlari yoki huquqni muhofaza qiluvchi, nazorat qiluvchi organlar har doim ham to'rachilik, korrupsiya kabi illatlarga barham berish, ya'ni ularni muntazam nazorat qilish yoki kuzatib borish imkoniyatiga ega bo'lmaydi, ular odatda oldindan tuzilgan rejalar va tanlov asosidagi tekshiruvlar, shaxslarning murojaatlari kabilar orqali yoki huquqbuzarlik alomatlarini sezilgandagina xabardor bo'lishadi, jamoatchilik esa, aynan mansabdor shaxslar bilan har kuni, har soatda to'qnash keladi. Jamoatchilik nazorati davlat organlari faoliyatining qonuniyligini ta'minlash, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlovchi qonun hujjatlariga rioya etmaslik holatlarini aniqlashga qaratilgan jamoatchilik nazorati subyektlari tomonidan qonun doirasida olib boriladigan nazoratga oid chora-tadbirlar majmuidir.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik institutlariga keng vakolatlar berilayotgan bo'lsa-da, bu borada hali oldimizda hal qilinmagan muammolar ham yo'q emas. Ular sirasiga,

– fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan nazoratning o'rnatilmaganligi;

– fuqarolik jamiyati institutlari, OAV bilan davlat boshqaruv organlarining o‘zaro hamkorlik tizimining ishlab chiqilmaganligi;

– davlat boshqaruv organlarida korrupsiya darajasi va uning oqibatida kelib chiqayotgan muammolarning kundan-kunga ortib borayotganligi;

– korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bilan shug‘ullanuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar va xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni tashkil etish, muvofiqlashtirish va amalga oshirish sohasidagi muammolarning mavjudligi;

– fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruv faoliyatida ishtirokining sustligi, ta’sir choralarning kuchsizligi, aralashuvining yo‘qligi;

– korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoat nazoratini o‘rnatish bo‘yicha huquqiy asoslarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;

– fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining samarasizligi – “xo‘jako‘rsinga” tuzilganligi;

– antikorrupsion fuqarolik jamiyati institutining yo‘qligi;

– fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatining hamon pastligicha qolayotganligi;

– OAVning rolini kuchaytirish masalasi, ya’ni “jurnalist surishtiruv”, “jurnalist tergov”ning yetarli rivojlanmaganligi shular jumlasidandir¹⁵¹. Shunga ko‘ra, davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan kuchli jamoatchilik nazoratini amalga oshirish fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim shartlaridan hisoblanadi. Zotan, fuqarolarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga befarq bo‘lmasligi hamda har bir davlat xizmatchisining o‘z faoliyatini jamoatchilik nazorati ostida ekanligini chuqur his etib borishi fuqarolik jamiyatini mustahkamlashning muhim shartidir.

Bugungi kunda jamiyatimizning ko‘p sonli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy muammolari orasida korrupsiyaga qarshi kurash muammosi ayniqsa muhim o‘rin egallaydi. O‘zbekistonda hozir nafaqat modernizatsiya, balki ijtimoiy, davlat va iqtisodiy negizlarning tubdan o‘zgarish jarayonlari yuz berayotir. Shu bois mamlakatimizda rivojlanishning umumiy, shu jumladan salbiy qonuniyatlari kuzatila-

¹⁵¹ G.B.Nurmuhammedova. Korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratining ahamiyati. Huquqiy tadqiqotlar jurnali. 2017 №6. B. 82.

yotgani tabiiy bir holdir. Korrupsiyaga qarshi kurashda samarali chora-tadbirlar koʻrmaslik shunga olib kelishi mumkinki, u kriminal, iqtisodiy va ijtimoiy muammodan siyosiy muammoga aylanishi va mamlakatning konstitutsiyaviy asoslariga putur yetkazuvchi milliy ofat tusini olishi mumkin.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Korrupsiyaning mohiyatini tushuntirib bering.
2. Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida qaysi davlatlarning tajribasini bilasiz?
3. Korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratining oʻrni qanday?
4. Korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha qaysi xalqaro normativ-huquqiy hujjatlarni bilasiz?
5. Korrupsiyaning qanday turlarini bilasiz?
6. Jahonda korrupsiyaga qarshi qanday xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan?
7. Korrupsiyaga qarshi kurashishda “elektron hukumat”ning tutgan oʻrni qanday?
8. Oʻzbekiston Respublikasi davlat siyosatining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi asosiy yoʻnalishlarini ayting.
9. Oʻzbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida»gi Qonuni qachon qabul qilingan?
10. Korrupsiya boʻyicha xalqaro miqyosdagi fuqaroviy-huquqiy javobgarlik konvensiyasi qachon qabul qilingan?

Testlar:

1. Korrupsiyaning taʼrifi toʻliq yoritilgan javobni aniqlang.

A) mansabdor shaxsning oʻziga ishonib topshirilgan vakolatlari va huquqlaridan, belgilangan qonun va qoidalarga zid ravishda shaxsiy manfaatlari uchun foydalanishidir

B) mansabdor shaxsning oʻziga ishonib topshirilgan vakolatlari va huquqlaridan, belgilangan qonun va qoidalarga zid boʻlmagan ravishda shaxsiy manfaatlari uchun foydalanishidir

C) mansabdor shaxsning belgilangan qonun va qoidalarga zid ravishda shaxsiy manfaatlari uchun foydalanishidir

D) mansabdor shaxsning o'ziga ishonib topshirilgan vakolatlari va huquqlaridan foydalanishidir

2. Korrupsiya so'zining lug'aviy ma'nosi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

A) lotincha "corrumpere" so'zidan olingan bo'lib, "buzmoq" ma'nosini anglatadi

B) lotincha "corrumpere" so'zidan olingan bo'lib, "yangilamoq" ma'nosini anglatadi

C) lotincha "corrumpere" so'zidan olingan bo'lib, "o'rnatmoq" ma'nosini anglatadi

D) lotincha "corrumpere" so'zidan olingan bo'lib, "o'tkazmoq" ma'nosini anglatadi

3. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni nechanchi yilda qabul qilingan?

A) 2017-yil

B) 2018-yil

C) 2019-yil

D) 2020-yil

4. Nepotizm tushunchasining ta'rifi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

A) daromadli yoki foydali lavozimlarni qarindoshlar yoki "o'z odamlari" egallashiga homiylik qilish

B) shaxsni burch yuzasidan yo'ldan urish uchun mukofot berish

C) shaxsan foydalanish uchun ommaviy mablag'larni noqonuniy o'zlashtirish

D) daromadli yoki foydali lavozimlarni qarindoshlar yoki "o'z odamlari" egallashiga qarshilik qilish

5. Amerikalik mutaxassis A.Xaydenxaymer korrupsiyani qanday turlarga ajratgan?

A) oq, qora va kulrang korrupsiya

B) qora va kulrang korrupsiya

- C) oq va qora korrupsiya
- D) tizimli va tizimsiz korrupsiya

Esse mavzulari:

1. Korrupsiya tushunchasining mazmun-mohiyati.
2. Korrupsiyaning namoyon bo‘lish xususiyatlari.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashishda jahon tajribasi.
4. Jahonda korrupsiyaga qarshi kurashish uchun qabul qilingan xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar.
5. Korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik nazoratining roli.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-sonli Qonuni. 2017-yil 3-yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ – 4761 sonli Qarori. 2020-yil 29-iyun.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020.
<https://president.uz/uz/lists/view/4057>.
4. Islomov B., Gadoyev E. Korrupsiya va unga qarshi kurashishga oid atamalar hamda iboralar izohli lug‘ati. Ilmiy-amaliy qo‘llanma. –Toshkent. “Tafakkur” nashriyoti, 2019. – B. 118.
5. Yuridik ensiklopediya. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 258.
6. Elliott, Kimberly Ann (1950). "Corruption as an international policy problem: overview and recommendations" (PDF). Washington, DC: Institute for International Economics.
7. Lawore B. Social Inequality in Nigeria: the Poor and the Rich / B. Lawore. — Unilag Sociologist, Lagos, 1976/77, 4, P. 2-3.
8. Doniyorov X.T. “O‘zbekistonning milliy demokratik davlatchilik taraqqiyotida dunyoviylik va diniylik mutanosibligining ahamiyati” Dissertatsiya (PhD). –Toshkent, 2020. – B. 90.
9. Nurmuhamedova G.B. Korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratining ahamiyati. Huquqiy tadqiqotlar jurnali. 2017 №6. B. 82.
10. <https://uza.uz/uz/posts/jamoatchilik-korruptsiyaga-qarshi-kurashish-borasida-amalga-oshirilaetgan-ishlar-togrisida-qanday-fikrda?q=%2Fposts%2Fjamoatchilik-korruptsiyaga-qarshi-kurashish-borasida-amalga-oshirilaetgan-ishlar-togrisida-qanday-fikrda>
11. Qonun himoyasida jurnali. Igor Kudryavsev Uyushgan jinoyatchilik va unga qarshi kurash muammolari maqolasi 2002-yil 7-son
12. Коррупция и бюрократизм: истоки и пути преодоления. Тематический сборник. М.: РАГС. 1998. – С. 138. Xamidov B. O‘zbekistondagi korrupsiya xavfi bo‘lgan sohalar // Экономическое обозрение №4 (244) 2020.

IZOHLI LUG‘AT (GLOSSARIY)

Abu Nasr Forobiy (873-950) – musulmon Sharqida Arastudan keyin “ikkinchi muallim ” unvoniga muyassar bo‘lgan Markaziy Osiyoning yirik mutafakkiri va buyuk alloma. Uning qalamiga 160 dan ziyod asar mansub bo‘lib, ular asosan qadimgi yunon olimlari asarlaridagi tabiiy-ilmiy va falsafiy muammolarni sharhlash hamda bu sohalarning dolzarb masalalarini tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Abdulla Avloniy (1878-1934) – 19-asr oxiri 20-asr boshidagi o‘zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri, ma’rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi. 20-asr boshlarida Avloniy jadidchilik harakatiga qo‘shilib, Toshkentdagi jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri bo‘lib tanildi. U yangi usulda, yangicha maktab ochib, dars berdi va darsliklar yozdi.

“**Avesto**” – mil.av. VII–VI asrlarda Markaziy Osiyo hududida, Xorazm vohasida yaratilgan va “Avesto”, ya’ni “Hayot yo‘riqnomasi” deb nomlangan kitob; zardushtiylik dinini shakllantirishga asos bo‘lgan nazariy manbalarning umumiy nomi va bu dinning asosiy kitobi.

Agnostisizm – inson obyektiv borliqni to‘liq bilishi mumkin emas deb hisoblaydigan falsafiy ta’limot.

Adolat – shaxs va ijtimoiy guruhlar imkoniyatlari va talablari, huquqlari va farovonligining me’yorini, jamiyatning shaxs oldiga qo‘yadigan talablari me’yorini, turli sinflar va ijtimoiy guruhlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy voqealarga munosabatini xarakterlovchi tushunchasi.

Altruizm (frans. Altruisme, lot. alter - boshqa) – egoizmga qarama-qarshi axloqiy prinsip bo‘lib, u boshqa kishilarga beg‘araz xizmat qilishdan, ularning baxt-saodati uchun o‘z shaxsiy manfaatlarini qurbon etishdan iborat.

Amoralizm - (lot. a – yo‘q, moralis – axloq) — kishilar munosabatlarida axloq me’yorlarini inkor etish, umume’tirof etilgan xulq-atvor mezonlariga yengil-yelpi munosabatda bo‘lish.

Analogiya – ikki narsa va hodisaning bir yoki bir necha belgilarning o‘xshashligidan boshqa belgilarning ham o‘xshashligi to‘g‘risida hulosa chiqarishdir.

Antissientizm – fanning jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini salbiy baholaydigan falsafiy nuqtayi nazar.

Antroposentrizm – dunyoni bilishda insonni ustun qo‘yuvchi falsafiy yondashuv.

Antropologiya (yun. anthropos — odam va logos — ta’limot) — odamning kelib chiqishi va evolutsiyasi, odamzod irqlarining paydo bo‘lishi, odamning tana tuzilishidagi normal farq-tafovut, o‘zgaruvchanlik haqidagi fan. Ilmiy antropologiya mustaqil fan sifatida 19-asrda shakllangan.

Antropogenez (yun. anthropos va genesis – inson, kelib chiqish) – insonning kelib chiqish va rivojlanish jarayoni.

Antroposofiya (yun. anthropos – inson, sophia – donishmandlik, hikmat) – inson aqliga, odamzotning aqlli mavjudot sifatida ulug‘ va buyuk ishlarga qodir ekaniga ishonch asosida shakllangan g‘oya, qarashlar majmui. Asoschisi – nemis olimi R. Shteyner (1861-1925).

Arastu (Aristotel) (m.a. 384–322) – Qadimiy yunon faylasufi Arastu Frakiyaning Stagira shahrida tug‘ilgan. Shu tufayli ba’zan Arastuni Stagirit deb ham atashadi. Arastuning otasi Nikomax Makedoniya hukmdori Amint II ning shaxsiy tabibi bo‘lgan. Arastu Makedoniyaning bo‘lg‘usi hukmdori Filipp bilan bolaligidanoq birga o‘ynab katta bo‘lgan. U 17 yoshidan 37 yoshigacha (367–347-yillar) faylasuf Aflotunning Akademiyasida tahsil olgan. m.a. 343-yildan boshlab Arastu Iskandar Maqduniy (Aleksandr Makedonskiy)ga murabbiylik qila boshlaydi. Iskandar Maqduniy hukmdorlik taxtiga o‘tirgach, o‘z ustozini va do‘stiga atab haykal barpo etadi. Bu haykalning poyida shunday yozuvlar bor edi: «Iskandar ushbu yodgorlikni Nikomaxning o‘g‘li, buyuk donishmand va avliyo Arastu xotirasiga o‘rnatdi». Arastu havas qilarli darajada o‘tkir zehn sohibi bo‘lgan. U 445270 satrdan iborat 28 ta kitob yozgan. Faylasufning «Metodika», «Metafizika», «Jon haqida», «Poetika», «Osmon haqida», «Fizika», «Ritorika», «Sevgi haqida», «Uyqu va bedorlik haqida» asarlari shu kitoblar sirasiga kiradi. U tarixda “birinchi muallim” deb tan olingan.

Atribut (lot. attributum — baxsh etaman) — 1) obyektning zarur, muhim, xos xususiyati (mas., falsafada materiya atributi — harakat); 2) grammatikada — aynan.

Aflotun (Platon) (m.a. 428–347) – Qadimgi yunon faylasufi Aflotun Afina shahrida tug‘ilib o‘tdi. Uning asl ismi Aristokl bo‘lgan. «Platon» uning laqabi bo‘lib, yunoncha «keng yelkali», «bo‘lali» degan ma’noni anglatadi. Bu laqabni unga Suqrot bergan. Aflotunning oilasi badavlat bo‘lmasa-da, aslzodalar nasabidan edi. Otasi Ariston Afinaning oxirgi shohi Kodr avlodiga mansub bo‘lgan. Aflotun aslzoda afinaliklarga xos bo‘lgan riyoziyot, musiqa, grammatika va gimnastikadan ta’lim olgan.

Geraklit, Parmenid, Zenon falsafasi bilan tanishgan. M.a. 407-yilda Suqrot bilan uchrashgan. Suqrotning o'limigacha uning eng yaqin shogirdlari qatorida bo'lgan. Tarixda birinchi akademiya tashkil etgan.

Ko'p vaqtini she'riyatga bag'ishlagan. Manbalarga ko'ra, u qator dostonlar, lirik asarlar, fojia va komediyalarning muallifi bo'lgan. Uning 25 ga yaqin she'riy usulda bitilgan miniatyura-epigrammalari bizgacha yetib kelgan. Bundan tashqari, uning 23 ta asl nusxadagi va 11 ta uning qalamiga mansub deya taxmin qilinadigan suhbatlari, «*Suqrot madhi*» deb nomlangan nutqi, shuningdek, 13 ta maktubi ma'lum. Aflotunning suhbatlari quyidagilardan iborat: «*Protagor*», «*Fedon*», «*Parmenid*», «*Teetet*», «*Timey*», «*Kritiy*», «*Laxet*», «*Menon*», «*Davlat*», «*Siyosatdon*», «*Qonunlar*», «*Fedr*», «*Fileb*» va boshqalar.

Axloq (arab. xulqning ko'pligi; lot. moralis — xulq-atvor) — ijtimoiy ong shakllaridan biri. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o'zaro, shuningdek, jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig'indisi.

Aqidaparastlik (arab. qoida, forsha “parast” so'zlaridan olingan qoidaga ko'r-ko'rona berilish) – qoidalarga dalilsiz va isbotsiz, ko'r-ko'rona ishonishga, o'zgarmas tushuncha va qarashlarga asoslangan tafakkur uslubi va xatti-harakatlar ko'rinishlari.

Barqarorlik (ijtimoiy) — jamiyatdagi tinch-totuvlik va uni mustahkamlash uchun shart-sharoitning mavjudligi; ijtimoiy qatlamlar, kuchlar va siyosiy partiyalar o'rtasidagi hamjihatlik vaziyati; davlat, jamoat tashkilotlari, fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy kelishuv holatining muttasil davom etishi va barqarorlik. G'arb olimlari R.Darendrof va A.Kozer haqiqiy Barqarorlik yo'q, har qanday barqarorlik beqarorlikning arafasi yoki muayyan beqarorlikdan keyingi holati, jamiyatning yangi beqarorlik oldidan tin olish davri, degan fikrni ilgari surganlar.

Baxt — axloqiy ong tushunchasi; kishining o'z turmushidan mamnunlik, murodga yetganlik holati, hayotining bekam-ko'stligi va muayyan ma'no kasb etganligidan hosil qiladigan qanoati. Baxt qadimiy davrda evdemonizm falsafasining asosiy tushunchasi bo'lgan.

Belgi – boshqa bir predmet, xossa yoki munosabatni ifodalaydigan va muayyan xabarni uzatish, saqlash yoki unga ishlov berishda ishlatiladigan moddiy, hissiy idrok etiladigan predmet.

Bioetika – hozirgi zamon etikasining muhim yo'nalishlaridan biri – inson hayotini, eng oliy axloqiy qadriyat sifatida qaraydi. Shu bilan birga,

inson hayotini saqlash muammosini – yaxshilik va yomonlikni farqlashning muhim mezoni, deb hisoblaydi.

Byurokratiya (frans.byuro – devon, yun. Kratos — hokimiyat) — rasmiyatchilikka asoslangan boshqaruv guruhi, ma'muriyat tizimi. Alohida moddiy va ma'naviy imtiyozlarga ega ma'murlar guruhining faoliyatida namoyon bo'ladi.

Voqelik – real mavjud bo'lgan, yashab turgan narsa va hodisalardir.

Garmoniya (yunon. harmoniya – aloqa, uyg'unlik) – muayyan bir tizim elementlari, tarkibiy qismlari rivojlanishining muayyan bir davrida o'zaro muvofiq, mutanosib, uzviy chambarchas bog'liqlik va aloqadorlik holatini anglatuvchi tushuncha.

Gender (ing. Gender – urug') – inson jinsining ijtimoiy-madaniy jihatini ifoda etuvchi tushuncha. Gender jamiyatni sotsial-jinsiy jihatdan vertikal stratifikatsiya qilishdan farqli ravishda gorizontal stratifikatsiya qilishga yordam beradi. Gender xulq-atvorning sotsial o'ziga xosligini ifoda etadi.

Genotsid – (yun. genos – nasl-nasab va lot. saedere – o'ldiryapman, yo'q qilyapman) – insoniyatga qarshi qaratilgan eng og'ir jinoyatlardan biri. Aholining ayrim guruhlarini irqi, millati, etnik yoki diniy belgilariga qarab yo'q qilish, shu guruhlarini qasddan batamom yoki qisman qirib tashlashni ko'zda tutadigan maishiy shart-sharoitlarni vujudga keltirish, shuningdek, bolalar tug'ilishini cheklashga qaratilgan choralar ko'rish.

Gnoseologiya (gnosis — bilish, logos — ta'limot) falsafada dunyoni anglash, uning umumiy qonuniyatlarini bilish bilan shug'ullanadi. Bilish haqidagi falsafiy ta'limot bo'lib, unda bilish nazariyasi va bilish jarayonining falsafiy mohiyati hamda umumiy muammolariga doir masalalar muhokama qilinadi.

Gnostiklar – bu davr falsafasida o'z o'rniga ega bo'lgan gnostisizm eramizning 150 yillarida o'zining yuksak ravnaqiga erishadi. Ular shunday falsafiy ta'limot yaratdilar, ularning fikricha Xudo ruh sifatida yovuzlikda mutlaqo sof, inson esa o'z tabiatining ruhiy jhati bilan xudoga moslashgan.

Gnostitsizm – (yun. gnostikos — biluvchi) — 1—3-a. larda Rim imperiyasida tarqalgan diniy-falsafiy oqim. Uning tarafdorlari o'z diniy e'tiqodlarining asl mohiyatini «bilib olishga» intilishgan. Gnostisizm iudaizm diniy tafakkuridan tashqari Bobil, Misr va b. Sharq mamlakatlaridagi diniy-mifologik tasavvurlar bilan ham chatishib ketgan. Bunga stoiklar (q. Stotisizm), neoplatonizm va neopifagoreizm vakillarining falsafiy g'oyalari ham qo'shilgan. Gnostiklar xristianlik

aqidalarini Sharq mamlakatlaridagi diniy-falsafiy bilimlar bilan bog'lashga intilgan.

Globalashuv – ijtimoiy hayotning turli jabhalarida yaxlit tuzilmalarning dunyo miqyosida shakllanish jarayoni.

Gumanizm (lot. humanus – insoniylik) – 1) Yevropa madaniyati taraqqiyotidagi muayyan tarixiy bosqich (Uyg'onish davri)ga xos falsafiy-amaliy tafakkur tarzi; 2) borliqqa munosabat va uni idrok etish tizimi.

Davlat — butun mamlakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv apparatiga tayanadigan, barcha uchun qonunlar chiqaradigan va suverenitetga ega bo'lgan siyosiy tashkiloti. Davlat jamiyatning hokimiyat kuchiga, shuningdek, ijtimoiy ne'matlar hamda vositalarni taqsimlash imkoniyatlariga ega bo'lgan qismi hisoblanadi. Har bir davlat betakror ijtimoiy hodisadir. U tarixiy va ma'naviy taraqqiyotning hosilasi, muayyan bir xalqning o'ziga xos madaniy rivojining natijasidir.

Deduksiya – tadqiqot yoki tavsiflash usuli bo'lib, bunda ayrim qoidalar umumiy xulosalar, aksiomalar, qoidalar, qonunlardan tadrijiy yo'l bilan keltirib chiqariladi.

Dezintegratsiya – butunning ayrim qismlarga parchalanishi.

Dialektika – grek tilida bahs va suhbatlashish san'ati degan ma'noni anglatadi. Antik dunyo faylasuflari uni haqiqatga erishish yo'li va usuli sifatida talqin etganlar. Harakat, rivojlanish, o'zgarish, aloqadorlik haqidagi falsafiy ta'limot.

Din – arabcha ishonch, ishonmoq demakdir. Borliqni yaratuvchi va boshqaruvchi, adolatning yuksak namunasi, moddiy olamga xos bo'lmagan va ayni vaqtda barkamollikning oliy ko'rinishi sifatida tushuniluvchi oliy mavjudotga, ya'ni Xudoga nisbatan munosabat, tasavvur, urf-odat va marosimlar majmuidir.

Diniy ong – diniy tasavvurlar, g'oyalar, his-tuyg'u kayfiyatlarni ifodalaydigan qarashlar tizimi.

Diniy ekstremizm – ekstremizmning din niqobida namoyon bo'lish shakli.

Diniy dunyoqarash – olamdagi voqea va hodisalar sabablarini ilohiy kuchlar, oldindan belgilangan maqsadlar bilan bog'lab tushunishdir.

Diniy tashkilot – diniy ehtiyojlarni birgalikda qondirish yoki qondirishga ko'maklashish maqsadida tuziladigan va diniy marosimlarni ado etish asosida ish ko'radigan ixtiyoriy, teng huquqli va o'z-o'zini boshqaruvchi uyushma.

Din falsafasi – dinning mazmun-mohiyati, ijtimoiy hayotdagi o'rnini tushuntirishga yo'naltirilgan falsafiy bilim sohasidir.

Differensiatsiya – butunning turli-tuman qismlar, bosqichlar, shakllarga bo‘linishi, parchalanishi, ajralishi.

Dogmatika – yunoncha qotib qolgan ma’nosini anglatib, konkret shart-sharoitlarni hisobga olmay qo‘llaniladigan qoida, prinsip, fikrdir.

Dogmatizm – tanqidiy nuqtayi nazardan tekshirmay, aniq sharoitni hisobga olmay ko‘rko‘rona fikr yuritish usuli.

Dualizm – gnostitsizmning asosiy yo‘nalishi, bu oqim tarafdorlari moddiy va ruhiy dunyo o‘rtasida mustahkam chegara mavjud deb ta’kidlaydilar. Ular ta’limotida materiya hamma vaqt yovuzlik timsolidir. Bundan ular xudo hech mahal moddiy dunyoni yaratishi mumkin emas, deb hisoblaydilar. Dualizm (lotin tilida dua, ya’ni ikki degan ma’noni ifodalaydi) — olamning asosida ikkita asos, ya’ni modda va materiya bilan birga ruh va g‘oya yotadi deyuvchi qarash.

Dunyoqarash tushunchasi – Inson o‘zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi, unga baho berishi, xulosa chiqarishi bo‘lib, dunyoning inson ongidagi o‘ziga xos in’ikosidir. Insonning o‘ziga va uni qurshab turgan borliqqa bo‘lgan munosabatlarini ifodalaydigan ko‘nikmalari, malakalari, bilimlari hamda dunyoni amaliy va nazariy o‘zlashtirish hamdir.

Dunyoviylik – borliqni tashkil etuvchi narsa va hodisalarga xos bo‘lgan sifat va belgilarni o‘qib-o‘rganish orqali olingan bilimlar natijasidir.

Do‘zax (fors., arab.nor, jahannam, jahim, sakar) – din talablarini bajarmagan gunohkorlar oxiratda jazolanadigan joy.

Yoshlar – yosh xususiyatlari, ijtimoiy holatining o‘ziga xosligi bilan ajralib turuvchi ijtimoiy-demografik guruh. Hozirgi paytda 14 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar yoshlarga mansub deb hisoblanadi. Yoshlarning alohida ijtimoiy-ruhiy qiyofasi jamiyatning umumiy holati, ijtimoiylashuv qonuniyatlari, ta’lim-tarbiya imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Jamiyatning siyosiy tizimi – siyosiy institutlar, davlat hokimiyati, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari majmuasi. Davlat jamiyat siyosiy tizimning asosiy bo‘g‘inini tashkil etadi va o‘ziga xos o‘ringa ega.

Jamoatchilik fikri – ommaning, aholi ko‘pchilik qatlamining voqea-hodisalarga, ijtimoiy jarayonlarga nisbatan munosabatini ifodalovchi fikrlari, g‘oya, qarash va tasavvurlari.

Jannat (arab. bog‘, bo‘ston, moh; fors. – behisht;) – islom dini aqidalariga binoan dor us-salom, dor ul-baqa, dor ul-oxir kabi taqvodor insonlar narigi dunyoda rohat va farog‘atda yashaydigan joy.

Jarayon – voqea va hodisalar rivojidadagi uzluksizlikni ifodalovchi falsafiy tushuncha. Jarayon sotsial, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy, partiyaviy, etnik-milliy, demografik, axborot hamda ilmiy va boshqa sohalarga bo'linishi mumkin.

Idealizm – olamning asosida ruh yoki g'oyalar (ideyalar) yotadi, dunyo voqeligi va rivojida ideyalarni ustuvor deb ta'lim beradigan falsafiy ta'limot.

Iyerarxiya – (yun. Hieros – muqaddas va arche – hokimiyat) — koinotning tuzilishidan to davlat, jamiyat, tabiat, turli tizimlar va tashkilotlarning quyidan yuqoriga ko'tarilishi yoki yuqoridan quyiga, oddiydan murakkab yoki murakkabdan oddiy tuzilmalarga yetguncha mavjud zinalar, darajalar, tartiblar yo'nalishi.

Ijtimoiylashuv – inson tomonidan jamiyatda hayot kechirish imkonini beruvchi bilimlar, normalar va qadriyatlar tizimining o'zlashtirilishi jarayoni.

Ijtimoiy moslashuv (lot. socialis – ijtimoiylashgan) — shaxs tomonidan muayyan madaniyat an'alariga xos bo'lgan faoliyat va xulq-atvor me'yorini o'zlashtirish, qadriyatlar va tartib-qoidalarni anglash jarayoni.

Ijtimoiy stratifikatsiya nazariyasi (lot. stratum — qatlam va facio — qilmoq) — hozirgi zamon sotsiologiyasining tushunchalaridan biri. Jamiyat ijtimoiy tuzilishining elementlaridan biri bo'lib, undagi ma'lum tartiblarni ko'p o'lcham asosda tasniflashtirish. Stratifikatsiya turli belgilarga, shuningdek, guruhlarning jamiyat tuzilishidagi o'rnini aniq belgilashda qo'llaniladi.

Ijtimoiy struktura (tuzilish) — ijtimoiy qatlamlar, guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, mehnat taqsimoti, ijtimoiy institutlar xarakteri bilan belgilanadigan ijtimoiy tizim tarkibiy qismlari o'rtasidagi turg'un aloqalar tarmog'i.

Ijtimoiy falsafa (sotsial falsafa, jamiyat falsafasi) – falsafaning kishilik jamiyatining mohiyati, kelib chiqishi, tarkibi, insonning jamiyatdagi o'ni va roli to'g'risidagi alohida bir sohasi. Ijtimoiy falsafa jamiyat to'g'risidagi eng umumiy bilim va tushunchalar majmuasi bo'libgina qolmasdan, balki ijtimoiy rivojlanish yo'lida paydo bo'lgan muammolarni oqilona hal etishga, jamiyat istiqbolini oldindan ko'rishga imkon beradi.

Ijtimoiy fikr – jamoatchilik fikri – taraqqiyotning turli muammolari, xususiyatlari to'g'risida turli xil ijtimoiy guruh, yoki qatlamlarga mansub kishilarning munosabatini o'rganish natijasida hosil qilingan tasavvurlar yig'indisi.

Immanent – falsafiy kategoriya bo‘lib, biror obyekt yoki jism yaratilishida uning mohiyatiga singdirilgan ajralmas jihat. Immanent xususiyat iborasi ham mavjud bo‘lib, u jismning yaratilishida uning tabiatiga monand xususiyatning kasb etilishi bilan belgilanadi.

Informatsion (axbrotlashgan) jamiyat — jamiyatda informatsiya, (axborot), bilim hal qiluvchi ahamiyatga ega, degan sotsiologik-falsafiy va futurologik konsepsiya. Informatsion postindustrial jamiyat nazariyasining boshqacha talqin.

Induksiya – xulosa chiqarishning asosiy usullaridan va tadqiqot metodlaridan biri. Induktiv xulosa chiqarish bilimning juz’iy muhokamalaridan (hukmlardan) umumiylikka qoidalarga qarab harakat qilishidir. Ayrim fikrlardan umumiy xulosalar chiqarishda va mantiqiy tadqiqotlarda qo‘llaniladigan muhokama usuli. Xususiylikni o‘rganib, umumiylik bilib olinadi.

Innovatsion iqtisodiyot – moddiy ishlab chiqarish sohasida texnika va texnologiyalarning yangi turlarini joriy etish asosida mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, aholining turmush sifati va darajasini yuksaltirish, texnologik va ekologik xavfsizligini ta’minlashdan iboratdir. Innovatsion iqtisodda samarali faoliyatni ta’minlash uchun mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligining o‘sishi, fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalarini hal etishni ta’minlaydigan iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratishdan iborat bo‘lib, ushbu jihatlar pragmatik g‘oyalarni o‘zida mujassam etishi bilan e’tiborni tortadi. Pragmatik konsepsiyalarga asoslangan iqtisodiy faoliyat sharoitida davlat biznes uchun shart-sharoitlar yaratish, imtiyozli kreditlar tizimini joriy etish, biznes va tadbirkorlik uchun har qanday to‘siqlarni bartaraf etish, aniqrog‘i, pragmatik dunyoqarash bilan sug‘orilgan iqtisodiy siyosat, iqtisodiy va huquqiy bilimlar va g‘oyalar bilan ta’minlashning hissasi ortib boradi.

Iymon – e’tiqod, ichki ishonch.

Ijmo‘ – Qur’on va Hadisda aniq ko‘rsatma berilmagan huquqiy masalalarni hal etishda faqih va mujtahidlar to‘planib, yagona fikrga kelgan holda hukm chiqarish, ya’ni fatvo berishdir.

Islom (arab. – bo‘ysunish, itoat etish, o‘zini Alloh irodasiga topshirish) – jahonda keng tarqalgan uch dinlardan biri.

Irratsionalizm – borliqni oqilona mantiqiy bilish imkoniyatini rad etuvchi nuqtayi nazar.

Iqtisodiyot – yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “ekonomika” qishloq xo‘jalik asoslari haqida fan degan ma’noni anglatadi. “Ekonomika” so‘zi

ommaviy o‘zbek lug‘atiga o‘tilganda “iqtisodiyot” atamasi o‘zgaradi. Iqtisodiyot cheklanmagan ehtiyojlarni, cheklangan resurslardan samarali foydalanib boshqarishni o‘rganuvchi fandır.

Ilohiy kitoblar- muayyan dinda muqaddas va ilohiy hisoblanadigan kitoblar. Diniy ta’limotga ko‘ra, Alloh o‘tgan payg‘ambarlarning ba’zilariga sahifalar, ba’zilariga esa, kitoblar nozil etgan. 100 sahifa va 4 kitob – 100 sahifadan 10 sahifani Odam (as)ga, 50 sahifani Shis (as)ga, 30 sahifani Idris (as)ga, 10 sahifani Ibrohim (as) ga yuborgan. Muso (as)ga Tavrot, Dovud (as)ga Zabur, Iso (as)ga Injil va Muhammad (as)ga Qur’onni nozil qilgan.

Insonparvarlik – (“inson” – arabcha “parvar” – fors-tojikcha “lik” – o‘zbekcha – kishiga g‘amxo‘rlik, gumanizm) – odamzodning qadri, uning erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo‘lishi uchun kurashish, insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotni ta’min etishga intilish, insoniylikning barcha tamoyillari yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratish ma’nosini anglatadi. Insonparvarlik bu o‘zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir.

Istiqlol – har bir inson, jamoa, davlat, millatning rivojlanishi uchun zarur erkinlik sharoiti. “Istiqlol” so‘zi boshqalarga tobe bo‘lmay, o‘z erki bilan yashash, o‘zini o‘zi idora qilish, erkinlik ma’nosini bildiradi. “Istiqlol” so‘zi “Mustaqillik” so‘ziga nisbatan birlamchidir. “Istiqlol” so‘zi boshqalarga tobe bo‘lmay, o‘z erki bilan yashash, o‘zini o‘zi idora qilish, “erkinlik” ma’nosini bildiradi. Istiqlolga erishgan O‘zbekiston xalqi mustaqillikka erishdi.

Islom (arabcha – bo‘ysunish, itoat etish, o‘zini Alloh irodasiga topshirish) – jahonda keng tarqalgan uch din (buddaviylik va xristianlik bilan bir qatorda)dan biri. Islom diniga e’tiqod qiluvchilar arabcha “muslim” (“islomni qabul qilgan”, “itoatli”, “sadoqatli”; ko‘pligi “muslimum”) deb ataladi. “Muslim”, “muslimum” so‘zining boshqa xalqlar orasida o‘zgacha talaffuz etish (masalan, forslarda – musulmon, o‘zbeklarda – musulmon, qirg‘iz va qozoqlarda – musulmon, Ukraina va Rossiyada – musulmon) natijasida bu dinga e’tiqod qiluvchilar turli nom bilan ataladi. Lekin bularning ichida hozir musulmon iborasi keng tarqalgan. Jahonda qarib 1,5 mlrd.dan ortiq kishi Islomga e’tiqod qilishadi.

Islom fundamentalizmi – Qur’on va hadislarga so‘zma-so‘z talqin etuvchi, ilk islomga qaytishga qaratilgan aqidalarni targ‘ib qiluvchi diniy-konservativ ruhdagi oqim. Islom fundamentalizmi vakillari islomning fundamental (asosiy) tamoyillari jamiyatning taraqqiyot yo‘lini belgilab

beradi, deb hisoblaydilar va faqat ularga amal qilishga da'vat etadi. Keyingi paytlarda mutaassib musulmonlar "fundamentalistlar" deb atalmoqda.

Kalom (arab. – gap, nutq, bayon) – islomiy e'tiqod va dunyoqarashga oid masalalarni aqliy mulohazaga tayanib dalillash va xulosalash.

Konfliktologiya (lot. conflictus – to'qnashuv) – mojarolar mohiyatini o'rganish va ular muammolarining yechimiga qaratilgan optimal taklif va tavsiyalar ishlab chiqishi haqidagi bilim sohasi.

Korrupsiya (lot. sordumpere — buzmoq) – mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qonunchilik va axloqiy qoida, axloqiy me'yorlarga zid ravishda foydalanishi.

Korrupsiyachi (korrumpator) – alohida "nozik qobiliyat"ga ega bo'lgan davlat xodimlari va boshqa shaxslarga noqonuniy mablag' yoki mulk (huquq) beruvchi shaxs.

Korrupsioner – davlat yoki jamoat xodimi, o'zini o'zi boshqarish organlari yoki boshqa tashkilotda boshqaruv funksiyalarini amalga oshiruvchi shaxsning shaxsiy, tor guruh yoki korporativ maqsadlarga erishish uchun ma'lum bir haq evaziga vakolatlari, xizmatlari, aloqalari yoki lavozimidan foydalanadigan xususiy yoki yuridik shaxs.

Korruptolog – korrupsiya munosabatlarini o'rganish asosida korrupsiyaning kelib chiqish sabablari, korrupsiyani keltirib chiqarayotgan omillar, ishtirokchilar shaxsiyatining o'ziga xos xususiyatlari, jismoniy va yoki yuridik shaxslarning xarakterlari, xususiyatlarini tadqiq etish, jinoyatlarni hisobga olish, tasniflashni turli xil usullar bilan ilmiy jihatdan o'rganib, korrupsiyaga qarshi kurash choralarini tavsiya etish bilan shug'ullanuvchi mutaxassis.

Korrupsiyalogiya – korrupsiya va uning usullarini bilishga bag'ishlangan maxsus fan.

Korrupsiyaga qarshi mafkura – bu individual, ijtimoiy guruhlar, hukmron elita va jamiyatning korrupsiyaga qarshi siyosati va korrupsiyaga qarshi kurash munosabatlarini aks ettiradigan fikr, e'tiqod, qarashlar, tamoyillar va tushunchalarning ma'naviy tizimi.

Korrupsiyaga qarshi ma'rifat – bu davlat va jamiyatning korrupsiyani bartaraf etish (oldini olish) bo'yicha olib borilayotgan faoliyati haqida ishonchli va xolis bilimlarni ommaga etkazish.

Korrupsiyaga qarshi monitoring – korrupsiyaga qarshi kurash, korrupsiya omillari, shuningdek, korrupsiyaga qarshi siyosatni amalga oshirish bo'yicha umumiy va maxsus choralar ko'rish, tahlil qilish, baholash va prognozlash ishlari.

Korrupsiyaga qarshi tarbiya – bu shaxsning korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaga qarshi kurash tadbirlarini tayyorlash qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirish maqsadiga qaratilgan ma'naviy faoliyat.

Korrupsiyaga qarshi targ'ibot – og'zaki nutq, tarqatma materiallar va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish orqali aholining ongiga, kayfiyatiga va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish uchun korrupsiyaga qarshi kurash g'oyalari va fikrlarini tarqatish tadbirlari.

Konstitutsiya (lot. constitutio – o'rnatish, tuzilish) – davlatga, jamiyatga va insonga oid eng asosiy huquqiy munosabatlarni kompleks tartibga soladigan, shu borada boshqa qonunlar uchun huquqiy poydevor vazifasini o'taydigan, oliy yuridik kuchga ega bo'lgan, qat'iy tizimlashtirilgan mamlakat mustaqilligining kafolati bo'lgan asosiy qonun.

Kiberterrorizm (kiber urush) – kompyuter tizimi orqali tashkilotlardagi barcha hujjatlarni buzish, "virus"lashni yo'lga qo'yish, biron-bir muhim axborotlarni yo'qotish.

Kibermakon – kompyuter tarmog'i orqali bir-biri bilan bog'langan va bir vaqtning o'zida turli geografik nuqtada kesishuvchi har qanday mavjud kompyuterning grafik sifatidagi ma'lumotlariga o'ralashib qolgan kishilar jamoasi tushuniladi.

Kufr (arab. – yasharish, noshukurchilik, kofirlik) – islomiy e'tiqodga ko'ra, islom dinini yoki Alloh, borliq va inson farishtalari, payg'ambarlariga, ilohiy kitoblarga ishonmaslik.

Ma'rifat (arab. – bilish, anglash idrok etish) – kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma'lumotlar majmuasini ham bildiradi. Ma'rifat ilmu urfon ma'nosida ham ishlatiladi. Ma'rifat tushunchasi madaniyat, ma'naviyat tushunchalari bilan bog'liq. Ma'rifat ma'naviy qaramlikni bartaraf qiladi, insonga kuch-qudrat ato etadi. U kishilarni jaholatdan qutqaradi, buzuq ishlardan qaytaradi, yaxshi xulq va odob egasi bo'lishga yordam beradi. Ma'rifatli kishilardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topadi, kelajagi porloq bo'ladi. Ma'rifat — bilim va madaniyatning qo'shma mazmuni bo'lib, maorif uni yoyish vositasidir. Ma'rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Tasavvufda Ma'rifat sufiylarning ruhiy kamolotga erishuvining asosiy bosqichlaridan biri sifatida talqin etiladi.

Madaniyat – kishilarning tabiatni, borliqni o'zlashtirish va o'zgartirish jarayonida yaratgan moddiy, ma'naviy boyliklar hamda bu boyliklarni qayta tiklash va bunyod etish yo'llari va uslublari majmui.

Madaniyatli inson – o‘qimishli, zamon talablari asosida kiyinish va muomala me‘yorlariga amal qiluvchi, axloq normalariga to‘la amal qiladigan, ilg‘or falsafiy g‘oyalarga ega bo‘lgan, jahon va milliy madaniyat durdonalaridan xabardor bo‘lgan shaxsga aytiladi.

Madrasa – (arab – dars o‘qitiladigan joy, darsxona) – islomda o‘rta va oliy maxsus diniy o‘quv yurti. Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida ulamolar va maktabdorlar, davlat idora xodimlarini tayyorlagan. Islom mamlakatlarida Madrasa haqidagi ilk ma‘lumotlar X asrga oid bo‘lib, ular Xuroson va Movarounnahrda joylashgan. XI asrdan boshlab etakchi o‘quv yurtiga aylangan, bungacha ta‘lim masjidlarda va xususiy uylarda, shuningdek mehmonxonalar, kutubxonalar, kasalxonalarda olib borilgan.

Materializm – dunyoning moddiyligidan kelib chiqadigan falsafiy yo‘nalish.

Masjid (cherkov) – diniy qarashlar va g‘oyalarni ishlab chiqadigan, saqlaydigan, almashadigan, diniy faoliyatni tashkil etadigan, dindorlarni nazorat qiladigan, iyeararxiya tizimi asosida boshqariladigan dindorlar tashkiloti.

Ma‘naviyat – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmuidir. Ma‘naviyat insonning butun umri davomida uning kuchiga kuch qo‘shadigan, idrok va aql-zakovatini kengaytiradigan va mustahkamlaydigan vositadir. Ma‘naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi, chunki, ma‘naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi.

Manfaatlar to‘qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir ko‘rsatayotgan yoxud ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolar, tashkilotlar, jamiyat yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat.

Mafkura (arabcha – fikrlar majmui) –ijtimoiy jarayonlar ma‘no-mazmunini anglashni va uning boshqarish usulini bilishni da‘vo qiladigan, ong va xatti-harakatni yo‘naltiradigan ideallar, qadriyatlar maqsadlar, qarashlar yig‘indisidir. U ma‘lum maqsadni va unga erishish usullarining haqiqiyiligiga, amalga oshirish mumkinligiga ishonch tug‘diradi. Unda manfaatlari ifodalanadigan kuch va qatlamlarning o‘tmishi, bugungi kuni va istiqbollari haqidagi tasavvurlari o‘z ifodasini topadi.

Mentalitet (lotincha “mens” – aql, idrok) — jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma’naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan, ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvat. Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o‘ziga xos milliy an’analari, rasm-rusumlari, urf-odatlar, diniy e’tiqod va irimlarini ham qamrab oladi.

Metafizika – grekcha so‘z bo‘lib, lug‘aviy ma’noda «fizikadan keyin» degan mazmuni ifodalaydi. Bu tushuncha, falsafa tarixida birinchi marta, Qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi Aristotelning «Ilk falsafa» deb atalgan asarlariga nisbatan ishlatilgan.

Metod – yunoncha bilishning yo‘li – ilmiy bilish, ilmiy tadqiqotning usulidir.

Metodologiya – Biron fanda tadbiq etiladigan tadqiqot usullarining majmui. Ilmiy bilim va dunyoni o‘zgartirish metodi haqidagi ta’limot. Bilishning yangi metodlarini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish.

Merkantillik fransuzcha “mercantilisme”, “mercantile” – savdo, italyanча “mercante” – savdogar, tijoratchi ma’nolarini anglatib, Angliya, Fransiya, Italiya va boshqa davlatlarda buyuk kashfiyotlar davri, kapitalning dastlabki jamg‘arilishi davrida vujudga kelgan. Yangi geografik hududlarning o‘zlashtirilishi hamda nisbatan qoloq davlatlarni koloniya sifatida egallash natijasida savdo kapitalining vujudga kelishini ta’minladi. Bu jihat esa o‘z navbatida yangi iqtisodiy dunyoqarashning shakllanishiga olib keldi. Natijada merkantilizm tushunchasi o‘sha davr iqtisodiy hayotini ifodalovchi nuqtayi nazar sifatida ijtimoiy-siyosiy leksikonda mustahkam o‘rin egallay boshladi. Merkantilistlarning fikriga ko‘ra, davlatning maqsadli tashqi savdo siyosati tufayli boylik ko‘payadi va boylik manbayi boshqa davlatlar bilan savdo aloqalari tufayli ko‘payib boradi, deb hisoblaganlar.

Missionerlik (missiya so‘zidan olin.) – biron dinga e’tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ‘ib qilish.

Millat – til, ma’naviyat, milliy o‘zlikni anglash ruhiyati, urf-odatlar, an’analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi iqtisodiy aloqalar bilan bog‘langan mustaqil subyekt sifatida o‘ziga xos moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratuvchi kishilarning etnik birligi.

Mif – yunoncha mifhos so‘zidan olingan bo‘lib, afsona, rivoyat, hikoyat kabi ma’nolarini anglatadi. Ibtidoiy davr kishilari ongi va tushunchasida inson, tabiat, jamiyat va koinotning paydo bo‘lishi bilan bog‘lik voqealar, shuningdek, tabiat va jamiyat hodisalarining aks etishidir.

Mustaqillik (arab. tobe emaslik, ixtiyori o‘zidalik, qaram emaslik) – insonning erkin va ozod ravishda, o‘z ixtiyori bilan boshqalarga bo‘ysunmasdan ish yurita olishi, millat, davlat va jamiyat hayoti, ularning taraqqiyotini, ustuvor maqsad va vazifalarini mustaqil tarzda amalga oshirilishini anglatadigan tushuncha.

Nepotizm – zamonaviy jamiyatda qarindoshlik yoki boshqa belgilariga ko‘ra muayyan mansabdor shaxsga nisbatan yuqori rahbar tomonidan ustunlik berish sifatida ko‘riladigan korrupsiya shaklidir. Nepotizm – bu jamiyatdagi korrupsiyaning eng xavfli va yashirin shakllaridan biri. Uning ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlar ishonchli «o‘zaro javobgarlikni» ta‘minlaydigan va korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bilan shug‘ullanuvchi maxsus qarindoshlar yoki ichki yaqinlik asosida quriladi. Begona odamlar “oila a‘zolari” uchun «oila» farovonligini shakllantirish va ta‘minlashda vosita yoki vositalar rolini o‘ynaydi.

Oila — er-xotinlik ittifoqiga, qarindoshlik aloqalariga, umumiy xo‘jalik yuritadigan er va xotin, ota-ona va bolalar, aka-uka va opa-singillar va boshqa qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlarga asoslanadigan kichik ijtimoiy guruh; jamiyatning asosi, davlat qudratining manbai.

Ontologiya – borliq haqidagi falsafiy ta‘limot bo‘lib unda borliq va yo‘qlik, mavjudlik va nomavjudlik muammolariga doir masalalar muhokama qilinadi.

Pasayuvchi korrupsiya – yuqori mansabdor shaxs tomonidan mulki yoki mulkiy huquqlarini shaxsiy sodiqlik va keyin qo‘llab-quvvatlash uchun quyi darajadagi amaldorga o‘tkazib qo‘yishi.

Parsons —Tolkott (1902.13.12, Kolorado-Springs – 1979. 08.05, Myunxen) – amerikalik sotsiolog, G‘arbdagi strukturaviy-funksional sotsiologiyaning eng yirik vakillaridan, sosial harakat nazariyasining asoschisi.

Postindustrial jamiyat — ijtimoiy falsafa va sotsiologiya fanlari doirasida tarixiy jarayonga sivilizasion yondashuvni hamda silvilizatsiya taraqqiyotining hozirgi bosqichini ifodalash uchun qo‘llaniladigan tushuncha. Postindustrial jamiyat termini birinchi bo‘lib amerikalik sotsiolog, futurolog Daniel Bell (1919-y. tug‘ilgan) tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan.

Paradigma – mazkur davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan e‘tirof etilgan muayyan ilmiy tadqiqot yo‘nalishini belgilovchi tamoyillar majmui.

Pifagor (m.a. 576-496) – Janubiy Italiyaning Regiya shahrida tug‘ilib o‘sgan qadimgi yunon faylasufi Pifagor Mnesarx ismli kishining farzandi bo‘lgan. Otasi uni xizmat safariga doimo o‘zi bilan olib yurgan. Oqibatda

Pifagor qiziquvchan va yangi narsalarni bilishga intiluvchan bo‘lib o‘sadi. U faylasuflar Anaksimandr va Ferekidning shogirdi bo‘lgan. Pifagor uzoq vaqt davomida Misrda tahsil olgan. Zardushtiylik diniga juda qiziqqan. U Misrda ilm sirlarini o‘rganish uchun hatto xatna qildirishga ham rozi bo‘lgan. Aks holda uni kitoblarga yaqinlashtirishmasdi. U hech qachon yig‘lamagan va umuman ehtiros hamda his-hayajonga berilmagan. Pifagorning quyidagi asarlari ma‘lum: «*Tabiat haqida*», «*Davlat haqida*», «*Tarbiya haqida*», «*Jon haqida*», «*Olam haqida*», «*Ilohiy kalom*». Pifagor m.a. 496 yilda dushmanlari tomonidan o‘ldirilgan. Pifagor hayotning mazmuniga oid qarashlarga «falsafa», deb nom bergan birinchi donishmand edi.

Plyuralizm (lotin tilida plyural, ya‘ni ko‘plik degan ma‘noni anglatadi) — olamning asosida ko‘p narsa va ideyalar yotadi deb e‘tirof etadigan ta‘limotdir.

Pozitivizm – fransuzcha “positivism”, yunoncha “positivus” – ijobiy degan ma‘noni anglatib, empirik, ya‘ni tajribaga asoslangan bilimlarning haqiqiylikini tan oluvchi, ya‘ni haqiqiy bilimning birdan-bir manbasi empirik tadqiqotlarga asoslanuvchi bilim ekanligiga urg‘u beruvchi falsafiy yo‘nalish. Shu nuqtayi nazardan pragmatizm va pozitivizmning o‘zaro aloqasini, bog‘liqligini tan oluvchi tadqiqotchilarning fikrini inkor etib bo‘lmaydi. Bunday qarashlarda ham o‘ziga xos haqiqat mavjud. Ya‘ni, pragmatizm va pozitivizmning umumiylik mohiyatini ta‘minlab turuvchi, bog‘lovchi halqa – empirizmdir.

Pragmatizm – yunoncha «pragma» (pragmatos) so‘zidan kelib chiqib, ish, harakat ma‘nosini anglatadi. Pragmatizm XIX asrning oxirida shakllanishiga qaramasdan XX asrning birinchi yarmida Amerika intellektual doiralarda e‘tibor qozondi. Pragmatizm Amerika falsafa olamida hukmron bo‘lgan an‘anaviy sxolastik ta‘limotlarga hamda Yevropa falsafiy olamida hukmron bo‘lgan an‘anaviy metafizik konsepsiyalarga isyon sifatida maydonga keldi. Demak, pragmatizm – bu ma‘lum bir falsafiy dunyoqarash bo‘lib, uning mohiyati narsalar, g‘oyalar yoki harakatlarni faqat ularning amaliyligi va maqsadga muvofiqligi nuqtayi nazaridan baholashdir. Pragma, ya‘ni ish, harakat, faoliyat tushunchalarining mohiyatidan kelib chiqib, insonning harakatlari, faoliyati, uning dunyoni shaxsiy idrok etishining tahlili pragmatizmning asosidir, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Bu yerda xatti-harakatlardagi asosiy mazmun faoliyatning samaradorligi hamda muvaffaqiyatidir.

Pragmatizm asoschilari. Pragmatizm AQSHda vujudga keldi va keng tarqalib, Amerika hayot tarzining o‘ziga xos mafkuraviy asosiga aylandi.

Pragmatizm falsafasining boshlang'ich asoslari 1870-yillarda amerikalik faylasuf, matematik va mantiqchi Charlz Pirs (1839–1914) tomonidan yaratilgan. Charlz Pirs asarlari: “Bizning g‘oyalarimizni qanday tushunarli qilish kerak” (1878); “Insonga tegishli bo‘lgan ba’zi qobiliyatlarning nisbiyligi masalalari” (1868); “To‘rt qobiliyatsizlikning ba’zi oqibatlari” (1868); “Ishonchlilik asoslari” (1868); “E’tiqodni mustahkamlash” (1878). Pragmatizm mukammal falsafiy ta’limot sifatida XX-asrning boshlarida shakllana boshladi, uning taniqli vakillaridan biri Uilyam Jeyms (1842–1910), uning asarlari “Psixologiyaning asoslanishi” (1890); “E’tiqodga ixtiyor” (1897); “Diniy qobiliyatning ko‘pqirraligi” (1902); “Pragmatizm” (1907); “Plyuralistik koinot” (1909 y.) va Jon Devi (1859–1952) edilar. Jon Devi asarlari “Falsafadagi rekonstruksiya” (1920); “Qobiliyat va tabiat” (1925); “To‘g‘rilikni izlash” (1929).

Prozelitizm – bu to‘g‘ridan to‘g‘ri biror dinga ishongan fuqaroni o‘z dinidan voz kechishga va o‘zga dinni qabul qilishga majbur qilishdir.

Ratsionalizm – aqlni bilish va odamlar xulq-atvorining negizi deb e’tirof etadigan falsafiy yo‘nalish.

Relyativizm – bizning barcha bilimlarimiz, qadriyatlarimiz va xulosalarimizni nisbiy, shartli deb hisoblaydigan falsafiy yondashuv.

Refleksiya – o‘z fikrlari va kechinmalarini tahlil qilishga qaratilgan mulohaza.

Regress (lot. regressus — orqaga qaytish) — rivojlanishda orqaga ketish, eski shakllarga qaytish, taraqqiyotning quyi darajasiga tushib qolishni anglatuvchi tushuncha.

Rivojlanish – bu muayyan sistemaning muayyan vaqt va fazodagi yaxlit, kompleks, orqaga qaytmaydigan, ilgarilanma yo‘nalishga ega bo‘lgan, miqdoriy va sifatiy o‘zgarishidir.

Sartr Jan Pol (1905.21. Parij-1980.5.4.) — fransuz faylasufi, ekzistensializm maktabining yirik vakillaridan biri. E.Gusserl, M.Xaydegger qarashlarining izdoshi.

Sensualizm – hissiy bilishning rolini aqliy (ratsional) bilishning ahamiyatidan ustunroq qo‘yuvchi falsafiy yo‘nalish.

Simbioz – o‘zaro aloqadorlik shakli bo‘lib, ikki alohida holat yoki jarayon, yoki omil yoki partnyor imperativlar bir-biri bilan mavjudlik holatida biri-biridan foydalanadi, biri-biri bilan sinkretlashadi, ya’ni chambarchas bog‘liqlikni hosil qiladi, birining elementi ikkinchisining aylanib boradi.

Sillogizm – xulosa chiqarishning deduktiv usuli bo‘lib, unda ikki hukmdan yangi bir hukm – xulosa hosil qilinadi.

Siyosiy tizim — jamiyatdagi muayyan siyosiy funksiyani bajaradigan ijtimoiy institutlar tizimi. Siyosiy tizimning ikki darajasi mavjud: mamlakatning siyosiy tizimi va xalqaro siyosat tizimi.

Sotsiologiya (lot. Societas – jamiyat, logos ta’limot) — jamiyat to’g’risida, ijtimoiy munosabatlar sosial uyushmalarning rivojlanish va amal qilish qonunlari to’g’risidagi fan. Sotsiologiya atamasi birinchi bo’lib shu fanga asos solgan fransuz mutafakkiri Ogyust Kont (1798–1856) tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan O.Kont jamiyat to’g’risidagi yangi fanni yaratish uchun o’z davri fanlarining barcha yutuqlarini umumlashtirdi.

Substansiya – birinchi asos, barcha narsalar va hodisalarning mohiyati.

Sekta – diniy qarashlar va marosimlardagi tafovutlariga ko’ra rasmiy cherkovdan ajralib chiqqan guruh yoki tashkilot.

Tariqat (arab. – yo’l, usul, vosita masala) – sufiylikka xos tushuncha.

Tafakkur – voqelikni vosita orqali va umumlashtirib bilishdan iborat bo’lgan insonning ma’naviy, nazariy faoliyati.

Taqqoslash – buyum va hodisalarning bir-biriga o’xshashligi va farqini aniqlashga qaratilgan mantiqiy usul.

Termin (lot. terminus – oxiri, chegara) – ilmiy so’z va so’zlar birikmasi

Tolerantlik (lot. tolerantia – sabr-toqat), bag’rikenglik — o’zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg’ulari, fikr mulohazalari, g’oyalari va e’tiqodlariga nisbatan toqatli bo’lish. Hozirgi dunyoda tolerantlik o’ta muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning globallasuvi va yanada mobillashuvi, kommunikatsiyalarning tez rivojlanishi, integratsiya va o’zaro bog’liqlik, keng miqyosli migratsiya va aholining ko’chib yurishi jamiyatda tolerant tamoyilining ahamiyatini kuchaytiradi. Bag’rikenglik tamoyili aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatadi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilangan qoidalarni tasdiqlaydi. Bu tamoyilga ko’ra, har kim o’z e’tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog’i lozim. Bir kishining qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas. Tolerantlikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim. Tolerantlikni har tomonlama qo’llab quvvatlash-maqсадida YUNESKO "Bag’rikenglik tamoyillari deklarasiyasi"ni qabul qilgan (1995-yil 16-noyabr). Jamiyatda turli xalqlar, millatlar va dinlarning o’ziga xos xususiyatlariga nisbatan Tolerantlik munosabatini O’zbekiston misolida ko’rish mumkin. Mamlakatimizda turli

toifadagi odamlar, siyosiy kuchlar va partiyalar o'rtasidagi hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik tamoyili ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. O'zbekistonda 130 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagan va bu xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi. 16 ta konfessiyaga mansub din vakillari yurtimizda hamkor, hamjihat yashab kelayotgani esa dinlararo Tolerantlikning yaqqol namunasidir.

Tolerantlik tafakkuri – millatlar, elatlar, xalqlar, madaniyatlar, qarashlar, mafkuralar xilma-xilligi sharoitida o'zaro hamkorlik va bir-birini qabul qilish, anglash jarayoni hamda o'zaro barqarorlik tafakkurini bildiradi.

Tushuncha – predmetlarning umumiy va muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakli.

Tushunchalarni bo'lish – mantiqiy usul bo'lib, bu usul yordamida tushunchalarning hajmi qism (tur) larga ajratiladi.

Falsafa – yunoncha phileo – sevaman, Sophia – donolik degan ma'noni anglatadi. Insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardan biri. Olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson, umrning mohiyati, borliq va yo'qlik kabi ko'plab muammolar haqida bahs yuritadigan fan.

Falsafiy dunyoqarash – bu tushunchaning mazmuni insonning olamga, voqea va hodisalarga, o'zgalarga va ularning faoliyatiga, o'z umri va uning mazmuni kabi ko'pdan-ko'p tushunchalarga munosabati, ularni anglashi, tushunishi, qadrlashida namoyon bo'ladi.

Fanatizm (lot. asabiylashgan, jazavaga tushgan) – o'taketgan mutaassiblik, johillik, diniy e'tiqodlarga yoki biror nazariy qarashlarga tish-tirnog'i bilan yopishib olib, boshqa har qanday qarashlarni mutlaqo rad etish, masalan, diniy fanatizm.

Fenomenologiya – XX asr falsafasidagi yo'nalish bo'lib, ongning bilish jarayonidagi tajribada mavjud bo'lgan stereotip bilimlarini inkor etgan holda obyektning fenomen sifatida olib, deduktivlikdan voz kechib, empirik bilim asosida o'z holida o'rganishni targ'ib qiladi.

Futurologiya – kelajak haqidagi fan.

Fuqarolik jamiyati — mazkur mamlakatning har bir fuqarosiga iqtisodiy va siyosiy turmushini o'z ixtiyori asosida qurishga to'la erkinlikni kafolatlovchi ma'lum ijtimoiy tizim.

Silvilizatsiya (lot. civilis — fuqaroviy, ijtimoiy) — serqirra va murakkab mazmunga ega bo'lgan ijtimoiy-falsafiy tushuncha. Silvilizatsiya tushunchasini shotland tarixchisi va faylasufi A.Fergyusson (1723—1816)

jahon tarixiy jarayonining ma'lum bir bosqichini ifodalash uchun, fransuz ma'rifatparvarlari aql-idrok va adolatga asoslangan jamiyat, degan ma'noda ishlatgan edilar. Undan keyin ham silvilizatsiya tushunchasiga turlicha mazmun berish davom etdi.

Shirk (arab. – birga qatnashish, sheriklik) – Allohning zoti, sifatleri, ismlari va hukmlarida sherigi bor deb e'tirof qilish.

Ehson (arab. – yaxshilik, muruvvat) - biror narsani hadya qilish xayr-sadaqa

Evolyusion epistemologiya – bilishni jonli tabiat evolutsiyasining momenti va uning mahsuli sifatida o'rganuvchi fan.

Empirizm tushunchasi fransuz tilida “empirisme”, yunon tilida “empeiria” – tajriba degan ma'noni anglatib, amaliy faoliyatga moyillik, tajribadan foydalanish orqali biror-bir natijalarga erishishdir.

Ekzistensializm – mavjudlik falsafasi, 20-asrning 30-yillarida paydo bo'lgan falsafiy yo'nalish. Ekzistensializm nihoyatda xilma-xil yo'nalishdagi ta'limotlarni insonning ma'naviy dunyosi, inson taqdiri, erkinligi g'oyalari asosida umumlashtiradi.

Ekstremizm (lot. – o'ta, keskin) – siyosat va mafkurada ashaddiy, favqulodda harakat hamda qarashlarga asoslanib faoliyat yuritish.

Qiyos – Qur'on, Hadis (Sunnat) va Ijmo'da biror huquqiy masalaga aniq javob topilmaganida, uni shunga o'xshash masalaga taqqoslash yo'li bilan hukm chiqarishdir.

Qiyomat (arab. – marhumlarning qayta tirilish kuni, tik turish) – dunyoning tugashi haqidagi ilohiy ta'limot.

Qur'on (arab. – o'qimoq, qiroat qilmoq; jamlash) – musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi. Islom e'tiqodiga ko'ra, Qur'on vahiy orqali Muhammad payg'ambarga 610–632-y. lar davomida nozil qilingan Allohning kalomi (Kalomulloh). Qur'on «Kitob» (yozuv), «Furqon» (haq bilan botilning orasini ayiruvchi), «Zikr» (eslatma), «Tanzil» (nozil qilingan) kabi nomlar bilan atalib, «Nur» (yorug'lik), «Xudo» (hidoyat), «Muborak» (barakotli), «Mubin» (ochiq-ravshan), «Bushro» (xushxabar), «Aziz» (e'zozlanuvchi), «Majid» (ulug'), «Bashir» (bashorat beruvchi), «Nazir» (ogohlantiruvchi) kabi so'zlar bilan sifatlangan. Islom olamida Qur'on mushaf nomi bilan ham mashhur. Ulamolalar Qur'onning 30 xil nom va sifatlarini sanab o'tganlar. Bu kitob islom dinining muqaddas manbayi hisoblanadi. Islom ilohiyot maktablaridan biri ahl as-sunna va-l-jamoa ta'limotiga ko'ra, qur'on Alloh taoloning so'zi va uning azaliy ilmi bo'lib, Muhammad a.s. ga vahiy orqali nozil bo'lgan. Qur'on o'zidan oldin nozil bo'lgan barcha ilohiy kitoblarning ma'no, hikmat va ahkomlarini

oʻzida jamlaganiga ishorat bordir. Qurʼon 30 pora (qism), 114 sura, 6236 oyat, 77439 kalima, 325743 harfdan iborat toʻplam.

Hadis (arab. – hikoya, xabar) – bu Muhammad (s.a.v.)ning aytgan soʻzlari, qilgan ishlari, koʻrsatmalari toʻplamidir.

Xalqaro terrorizm bir davlat hududi doirasidan tashqariga chiqadigan terrorizm; odamlarning behuda halok boʻlishiga olib keluvchi, davlatlar va ular rasmiy vakillarining normal diplomatik faoliyatini buzuvchi, hamda xalqaro aloqalar va uchrashuvlarni, shuningdek, davlatlar oʻrtasida transport va boshqa aloqalarni amalga oshirishni qiyinlashtiruvchi xalqaro miqyosdagi ijtimoiy xavfli harakat va qilmishlar yigʻindisi.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1. Falsafa: uning predmeti, mazmuni. Falsafa va iqtisod	6
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	32
Testlar.....	32
Esse mavzulari.....	33
Adabiyotlar ro‘yxati.....	34
2. Falsafiy tafakkur bosqichlari: Sharq va g‘arb falsafasi.....	35
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	74
Testlar.....	75
Esse mavzulari.....	76
Adabiyotlar ro‘yxati.....	76
3. Falsafada ontologiya va gnoseologiya. Falsafa kategoriyalari va qonunlari.....	78
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	95
Testlar.....	96
Esse mavzulari.....	97
Adabiyotlar ro‘yxati.....	97
4. Falsafada mantiqning roli.....	98
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	112
Testlar.....	113
Esse mavzulari.....	114
Adabiyotlar ro‘yxati.....	114
5. Pragmatizm-tadbirkorlik falsafasi sifatida.....	116
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	131
Testlar.....	132
Esse mavzulari.....	133
Adabiyotlar ro‘yxati.....	133
6. Falsafiy antropologiya (inson falsafasi). Falsafada “Homo Economicus”(iqtisodiy inson) tushunchasi.....	135
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	152
Testlar.....	153
Esse mavzulari.....	154
Adabiyotlar ro‘yxati.....	154
7. Jamiyat va oila falsafasi.....	156
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	181
Testlar.....	181
Esse mavzulari.....	182

Adabiyotlar ro‘yxati.....	183
8. Din falsafasi. O‘zbekistonda davlatning din va diniy tashkilotlar bilan munosabati.....	184
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	239
Testlar.....	239
Esse mavzulari.....	240
Adabiyotlar ro‘yxati.....	241
9. Islom ta’limoti asoslari. Islomdagi mazhablar va yo‘nalishlar	242
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	285
Testlar.....	285
Esse mavzulari.....	286
Adabiyotlar ro‘yxati.....	287
10. Missionerlik va prozelitizm, diniy ekstremizm va terrorism: mafkura va amaliyot, ularga qarshi kurash strategiyasi.....	288
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	334
Testlar.....	334
Esse mavzulari.....	336
Adabiyotlar ro‘yxati.....	336
11. Diniy tolerantlik madaniyati, uning jamiyat rivojidadagi ahamiyati. Kibermakonda din omili.....	338
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	374
Testlar.....	374
Esse mavzulari.....	376
Adabiyotlar ro‘yxati.....	376
12. Korrupsiya – global muammo sifatida. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy - huquqiy mexanizmlari.....	378
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	397
Testlar.....	397
Esse mavzulari.....	399
Adabiyotlar ro‘yxati.....	400
Izohli lug‘at.....	401

**I.SAIFNAZAROV, A.MUXTAROV, T.SULTANOV,
N.NAZAROV, N.RAXIMBABAYEVA, X.DONIYOROV,
F.USMONOV**

FALSAFA

**Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH
NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021**

**Muharrir: N.Ibragimova
Tex. muharrir: M.Tursunov
Musavvir: A.Shushunov
Musahhih: L.Ibragimov
Kompyuterda
sahifalovchi: M.Zoyirova**

**E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +998999209035
Nashr.lits. № 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.
Bosishga ruxsat etildi 09.09.2021.
Bichimi 60x84 1/16. «Times Uz» garniturasini.
Ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 29,5. Nashr bosma tabog‘i 28,75.
Tiraji 50. Buyurtma № 274**

**«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi»
bosmaxonasida chop etildi.
100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 7-uy.**

